

**O‘ZBEK TILI SINONIMLARINIG
O‘QUV LUG‘ATI**

Toshkent - 2021

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

Toshkent - 2021

UDK: 811.512.133(038)
KBK 81.2 O‘zb
M14

Tuzuvchilar:

N.Mahmudov, filologiya fanlari doktori, professor
D.Lutfullayeva, filologiya fanlari doktori, professor
D.Xudoyberganova, filologiya fanlari doktori, professor
Y.Odilov, filologiya fanlari doktori, professor
M.Yo‘ldoshev, filologiya fanlari doktori, professor
Sh.Ko‘chimov, filologiya fanlari doktori
D.Andaniyazova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
F.Musayeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mas‘ul muharrir:

Y.Odilov, filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2021-yil 24-oktyabr, 8-majlis bayonnomasi).

So‘zboshi

Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatic munosabatlardan biri bo‘lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta‘min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma‘nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so‘z gavharlari zaxirasiga sohib tildir.

Ayrim tadqiqotchilar sinonimlar muammosi benihoya muhim leksikologik masalalardan biri ekanligini ta‘kidlar ekan, shunday yozadilar: Yevropada “hali XVIII asrning oxirlaridayoq muayyan bir tushuncha ifodasi uchun tilda bir necha so‘zni qo‘llash imkoniyati haqidagi masala muhokama qilingan edi”.¹ Hech kimga sir emaski, so‘z mulkinging sultoni ulug‘ Alisher Navoiy XV asrda “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida o‘zbek (turkiy) tili misolida mazkur muammoni sinonimlar sinchisiday ko‘rsatib bergandi. Bu holatni taniqli til tarixchisi Q.Sodiqov birma-bir tahlil qilgan, shoirning sinonimlarga munosabati haqida gapirar ekan, u quyidagi jihatlariga e‘tiborni qaratadi: “Navoiyning yozishicha, shoirlar mayning ta‘rifida ko‘p mubolag‘a qildilar, may ichmak qoidasida ko‘p so‘z surib, nihoyasiz zarif ta‘riflar zohir qilurlar. Biri *sipqarmaq* lafzidirkim, mubolag‘a bundan o‘tmas... Navoiyning e‘tiroficha, *sipqaray* so‘zining mazmuniga yetganda, forsiy she‘rda bu ta‘rifni berishning iloji yo‘q. Yana *tamshimaq* lafziki, ma‘nosi “g‘oyat zavqdan tez ichmas-u, lazzat topa-topa oz-oz ichar”. Olim Navoiyning yana *bo‘xsamoq*, *yig‘lamaq*, *yig‘lamsinmaq*, *ingramak*, *singramak*, *siqtamaq*, *o‘kurmak*, *inchkirmak*, *hoy-hoy yig‘lamaq* kabi ma‘nodoshlar; *qimsanmaq*, *qizg‘anmaq* kabi ma‘nodoshlar; *xor*, *cho‘kir* kabi ma‘nodoshlar; *bezanmak*, *yananmaq* kabi ma‘nodoshlar va boshqa ma‘no nozikliklari haqidagi fikrlarini tahlil qilgan.² Benazir so‘z sinchisi Alisher Navoiy mazkur so‘zlar orasidagi ma‘nodoshlikning zimnu zaminini ko‘rsatish bilan bir qatorda ular o‘rtasidagi farqli mazmuniy injaliklar va bu injaliklarning badiiy-mantiqiy ifoda quvvati qamrovlarini ham oydinlashtiradi.

Sinonimiya, xususan, leksik sinonimiya hodisasi dunyo tilshunosligi tarixida juda keng o‘rganilgan semantik kategoriyalardan biri, hozirga qadar bu hodisa sinoatlarini nazariy inkishof qilishga bag‘ishlangan minglab asarlar, ana shunday paradigmatic munosabat asosida uyushgan birliklarni tizim sifatida ta‘rif, tavsif va amaliy istifoda uchun taqdim etadigan yuzlab sinonimik lug‘atlar yaratilgan.³ Masalan, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida rus leksikografiyasida nashr etilgan va 3200 ga yaqin turli tipdagi lug‘atlar tahlil qilingan monografiyada rus tilidagi 50 ga yaqin

¹ Кар.: Королева Н.В., Артамонова Е.В. Проблема синонимии как одна из важных проблем лексикологии / Вестник КАСУ. N2. 2009 // www.vestnik-kafu.info/journal/18/713

² Содиков Қ. “Муҳокамату-л-луғатайн”ни ўқиб ўрганиш. –Тошкент: ТДШИ, 2011. –Б.12 – 15.

³ Батафсил кар.: Пардаев А. Проблематика лексикографического представления синонимии на современном этапе // Anuari de Filologia. Llengües Literatures Modernes. 5/2015, pp.89 – 98 / readcube.com/articles/10.1344/Faflm2015.5.7.

sinonimik lug‘at batafsil ilmiy sharhlanib, ularning yutuq va kamchiliklari qayd etilgan.⁴ Shunday bo‘lishiga qaramasdan, dunyo tilshunosligida sinonimiyaning murakkab mohiyatini ochib berishda tamoman bir xil bo‘lgan yagona ilmiy qarash mavjud emas. Rus tilshunoslari N.V.Koroleva va Ye.V.Artamonovalar turli tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan bir-biridan farqli bir qancha sinonimlar ta‘riflarini qayd etadilar, ya‘ni sinonimlar – “bir yoki bir necha lug‘aviy ma‘nolari bilan mos keluvchi lug‘aviy birliklar” (T.I.Arbekova); “ma‘nosi bir xil, ammo talaffuzi har xil so‘zlar” (N.G.Golitsova); “bir tushunchani ifodalaydigan, ammo bir-biridan semantik (ma‘no qirralari) yoki stilistik farq viladigan so‘zlar” (A.M.Chepasova); “nafaqat bir predmet yo‘nalishidagi, balki ma‘nosi ham yaqin so‘zlar, ularda leksik ma‘noda umumiylik mavjud” (V.I.Koduxov); “teng ma‘noli so‘zlar” (M.Maruzo); “o‘xshash ma‘noli so‘zlar” (L.R.Zinder, T.V.Stroyeva); “bir tushunchani yoki o‘zaro juda yaqin tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar” (A.P.Evgenyeva); “yagona yoki juda yaqin predmetli-mantiqiy mazmunga ega so‘zlar” (K.V.Arangelskaya); “nominativ mohiyati jihatidan bir xil, ammo odatda stilistik jihatdan farqlanuvchi so‘zlar” (A.A.Reformatskiy); “muayyan kontekst yoki mazmunan yaqin kontekstlarda bir-birini almashtira oladigan so‘zlar” (L.A.Bulaxovskiy).⁵ Mazkur ta‘riflar jamlab olib qaralganda, sinonimiya hodisasining butun murakkab mohiyatini ma‘lum ma‘no yoki darajada oydinlashtirar, lekin alohida-alohida olib qaralganda, bu lisoniy sinoatning ich-ichiga kirish imkonini bermasligi aniq.

Alohida ta‘kidlamoq joizki, o‘zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining ta‘riflanishi o‘zining qamrovliligi bilan e‘tiborga molik. Bu ta‘rif atoqli tilshunos akademik A.Hojiyevga tegishlidir, unda sinonimiyaning bir qator benihoya nozik jihatlari o‘zining aniq-tiniq ifodasini topgan: “Sinonimlar ma‘nosining bir xilligi ularning o‘zaro farqli xususiyatlarga ega bo‘lishini inkor etmaydi. Aksincha, tilda bir ma‘noni ifodalash uchun bir necha so‘zning mavjudligi sinonimlarning bir-biriga har jihatdan to‘la mos kelmasligini, ulardan har biri o‘ziga xos belgi-xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlar qaysidir jihatlari bilan bir-birlaridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega bo‘ladi.”⁶ Agar ayni shu farq mavjud bo‘lmasa, bu farqning ifodalanishi lisoniy-mantiqiy muloqot muvozanati uchun qimmat bilan yukunmasa, sinonimlar deyiladigan ulgurji lisoniy zaxira tilga mutlaqo ortiqcha va keraksiz yuk bo‘lib qolardi.

Hatto tilda “absolyut sinonimlar” deb nomlanib kelayotgan bir tur sinonimlar bor deb qaraladi. Ammo A.Hojiyev bunday sinonimlar haqida shunday yozadi: “Tilda har jihatdan bir-biriga teng bo‘lgan, har jihatdan bir-birini qoplaydigan ikki yoki undan ortiq so‘zning bo‘lishiga ehtiyoj yo‘q. Ehtiyoj yo‘q ekan, bundan xususiyatln so‘zlar ham bo‘lmaydi. Demak, tilda sinonimlarpipg borligning o‘ziyoq o‘zaro sinonim bo‘lgan har bir so‘z o‘ziga xos qandaydir xususiyatga yoki xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi. Haqiqatda ham shunday. Ma‘nosi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biriga juda teng keladigan so‘zlar asosan ilmiy terminlarda uchrab turadi: *revolyutsiya*, *inqilob*; *agitatsiya*, *tashviqot*; *tema*, *mavzu* kabi. Lekin bunday sinonimlar ham qandaydir belgisi, masalan, qo‘llanish darajasi, eskirganlik yoki eskirmaganligi va sh. k. bilan ma‘lum darajada farqlanib turadi. Agar hech qanday farqli belgi bo‘lmasa, bunday sinonimlik o‘tkinchi holat bo‘lib, ma‘lum vaqtlardan so‘ng ulardan biri shu ma‘noda iste‘moldan chiqadi. Tilning tabiati shuni talab etadi.”⁷ Taniqli semasiolog M.Mirtojiyev A.Hojiyevning absolyut sinonimlikni o‘tkinchi holat sifatida baholaganligini ma‘qullaydi va shunday yozadi: “Uningcha, absolyut sinonim tarkibidagi bir so‘z yo arxaiklashadi, yo sherigiga nisbagan semantikasini bir jihati bilan farqlaydi. Bu gap haqiqatga ancha mos keladi. Faktlarga murojaat qilaylik. Rus tilida shu vaqtgacha *aeroplan* va *samolyot* so‘z juftligi absolyut sinonim deb kelinadi. Ammo so‘ngi vaqtlarda *samolyot* so‘zi umumxalq nutqida keng qo‘llansa, *aeroplan* kitobiy lksikaga xoslanayotganligi sezilmoqda. Bu so‘zlardagi taraqqiyotni

⁴ Козырев В.А., Черняк В.Д. Лексикография русского языка: век нынешний и век минувший. 2-е изд. –СПб: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2015. –С.116 – 126.

⁵ Королева Н.В., Артамонова Е.В. Проблема синонимии как одна из важных проблем лексикологии...

⁶ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Тошкент Ўқитувчи, 1980. –Б.115.

⁷ Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –Б.241.

o‘zbek tili nuqtayi nazaridan ham aytish mumkin. O‘zbsk tilida *tilshunos* va *lingvist* so‘zlari absolyut sinonim deb ko‘rsatib kelinadi. Lekin hozir *tilshunos* so‘zi umumso‘zlashuv tilida qo‘llansa, *lingvist* so‘zi deyarli kitobiy leksikaga xoslanib bo‘ldi. Absolyut sinonimlar deyarli tillarda sanoqli mikdorda uchraydi. Uning ham ayrimlari yuqoridagicha absolyutligini yo‘kotayotgan bo‘lsa, bu A.P.Hojiyev o‘z qarashi bilan nihoyatda haq ekanligini ko‘rsatadi.”⁸ Ko‘rinadiki, har jihatdan tamoman bir-biriga teng keladigan, hech qanday farqli jihatlari bo‘lmagan absolyut sinonimlar (yoki dubletlar deb ham nomlanadigan) tilda barqaror hodisalar emas, balki vaqtincha yoki o‘tkinchi hodisalardir.

Bu o‘rinla yana bir xususga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq. A.P.Yevgenyeva tahriri ostida nashr qilingan “Словарь синонимов русского языка” (Ленинград: Наука, 1970 – 1971) kitobida sinonimlarni tanlash mezonlari anchayin munozarali, ya‘ni uning kirish qismida shunday qayd qilingan: “Bir-biriga sinonim so‘zlar sifatida faqat hozirgi adabiy tilning, jonli umummilliy so‘zlashuv nutqining ajralmas qismi bo‘lgan so‘zlarni e‘tirof etish kerak. Shuning uchun lug‘atda sinonimlarni ajratish va tanlashning birinchi va asosiy tamoyili bu so‘zlarning a) hozirgi, b) umummilliy, v) adabiy tilga mansubligi bo‘lishi kerak. Bir xil va yaqin ma‘noli so‘zlarni sinonimlar sifatida hozirgi adabiy til tarkibida ajratish ... arxaik, shevaga oid, jargon, shuningdek, tor mutaxassislik leksikasi haqidagi masalani o‘rtadan ko‘taradi va bunday leksikani Lug‘atdan tashqariga chiqaradi. Faqat ana shunday qilinganda, sinonimiyaning mohiyatini tilning alohida hodisasi sifatida ochish va sinonimlarning roli va vazifasini tavsiflash mumkin bo‘ladi.” Lug‘atdagi mazkur tamoyilning bahsli ekanligini asoslar ekan, o‘zbek tilshunosi Abdunazar Pardayev, ayniqsa, arxaik so‘zlar va jargonlar uslubiy vazifalarni bajarishiga urg‘u beradi hamda bunday nuqtayi nazar o‘zini aslo oqlay olmasligini alohida to‘g‘ri ta‘kidlaydi.⁹ Mazkur lug‘atning bir jildli yangi nashrida A.P.Yevgenyevaning o‘zi ham lug‘atning tuzilishini tavsiflar ekan, 2-paragrafda mazkur fikrlarini bir qadar tahrir qilgan va munozarali jihatlarni anchayin bartaraf etgan: “Sinonimik guruhlariga hozirgi rus adabiy tilining, jonli umummilliy so‘zlashuv nutqining so‘zlari kiradi. Tor mutaxassislik va sheva so‘zlari faqat muayyan sohaga yoki qo‘llanish doirasiga mansubligini saqlagan bo‘lsa-da, keng tarqalgan bo‘lsa, beriladi. Eskirgan so‘zlardan XIX asr klassik adabiyoti uchun odatiy bo‘lgan va hozirgi badiiy adabiyotda u yoki bu darajada qo‘llanadiganlari beriladi.”¹⁰

Sinonimlarning mohiyati va tavsifi, ularning boyligi va va hajmdorligi haqida gap borar ekan, bular e‘tibordan chetda qolmasligi lozim. Chunki sinonimik qatorning miqdoran kattaligi ifoda aniqligi va ranginligini ta‘minlashdagi muhim omillardandir.

Tildagi intensivlik semantik kategoriyasining ifodalanishidagi faol unsurlardan biri sinonimik qatorlar ekanligini tadqiqotchilar ko‘p bor qayd etganlar.¹¹ Muayyan belgi-xususiyatning intensiv, kuchli ifodalanishi, belgi-xususiyatning kuchli-kuchsiz ifodalanishi tarzida qarshilantirilishi va bunda sinonimlarning ishtiroki tildagi real hodisalardandir. A.Hojiyevning quyidagi fikrlari intensivlik va sinonimiya munosabati va mohiyatini aniq ko‘rsatib beradi: “Sinonimlar bildiradigan vaqt, harakat, belgi, miqdor ka- bilarda ularning har birida belgining darajasi har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, *avval*, *oldin*, *ilgari*, *burun*, *qadim* sinonimlaridan *ilgari* so‘zida vaqtning o‘tishiga qarab uzoqlik darajasi *avval*, *oldin* so‘zidagidan ortiq. *Burun* so‘zida *ilgari* so‘zidagiga nisbatan, *qadim* so‘zida esa *burun* so‘zidagiga nisbatan ortiqroq. *Ishchan*, *harakatchan*, *serharakat*, *g‘ayratli*, *serg‘ayrat*, *tirishqoq*, *urinchoq* sinonimlaridan *g‘ayratli*, *serg‘ayrat*, *tirishqoq* so‘zlari belgini kuchliroq ottenka bilan ifodalaydi. *Kambag‘al*, *qashshoq* sinonimlaridan *qashshoq* so‘zi belgini kuchli ottenka bilan ifodalaydi. *Ovora*, *sarson*, *sargardon* sinonimlaridan belgi darajasi *ovora* so‘zidagiga nisbatan *sarson* so‘zida kuchli, *sarson* so‘zidagiga nisbatan *sargardon* so‘zida kuchli. *Kuch*, *quvvat*, *mador*, *majol*, *darmon* sinonimlaridan *mador*, *majol*, *darmon* so‘zlari, asosan, kuch-quvvatning normal holatdan pastligini ifodalashda qo‘llanadi.

⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –Б. 192 –193.

⁹ Пардаев А. Проблематика лексикографического представления синонимии на современном этапе... –Б. 94 – 95.

¹⁰ Словарь синонимов русского языка. Под ред. А.П.Евгеньевой. –М.: Астрель. АСТ, 2002. –С.6.

¹¹ Масалан, қар.: Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. –М.: Высшая школа, 1990. –С.50 – 52.

Demak, sinonimlar bildirgan belgi darajasidagi har xillik ham shu soʻzlarning maʼnosidagi farqli ottenkalari hisoblanadi.”¹²

Taʼkidlash joizki, sinonimlarni belgilashda aynan bir xil maʼnolar bilan bir qatorda differentsial semantik belgilar ham mutlaq hal qiluvchi oʻringa ega. Aytish mumkinki, sinonimlarni tavsiflashda, xususan, leksikografik tavsiflashda bevosita differentsial semantik belgilarni imkon qadar koʻproq va xoʻbroq tasvirlab koʻrsatish muhimroq. Soʻzlardagi birlashtiruvchi sinonimik maʼnoni idrok etish unchalik mushukul emas, ammo sinonimik soʻzlar qatoridagi differentsial belgilarni toʻlasicha ilgʻash va toʻlaligicha tasavvur qilishni oson ish deb boʻlmaydi.

Akademik A.Hojiyev bundan 40 – 50-yillar ilgari sinonimik soʻzlar qatoridagi ana shunday differentsial farqlarni quyidagicha guruhlashtirgan edi:

1. Emotsional -ekspressiv boʻyoq nuqtayi nazaridan. Sinonimik qatoridagi soʻz emotsional-ekspressiv boʻyoqsiz (neytral) yoki emotsional-ekspressiv boʻyoqdor boʻlishi mumkin: *xunuk* (neytral) – *badbashara* (emotsional boʻyoqdor).

2. Sinonimik qatoridagi soʻzlar uslubga farqli munosabatda boʻladi. Masalan, *odam* – *kishi* – *inson* – *bashar* sinonimik qatorida *bashar* soʻzi, *koʻkrak* – *koʻks* – *bagʻir* – *toʻsh* – *siyna* sinonimik qatorida *siyna* soʻzi poetik uslubga xos. *Pul* – *aqcha* – *mullajiring* – *yakan* sinonimik qatoridagi *mullajiring* soʻzi, *yarashmoq* – *kelishmoq* – *ketmoq* sinonimik qatoriga oid *ketmoq* soʻzi va *oʻlmoq* – *vafot etmoq* – *qazo qilmoq* – *qurbon boʻlmoq* – *halok boʻlmoq* – *qulamoq* – *uzilmoq* sinonimik qatoridagi *qulamoq* soʻzi oddiy soʻzlashuvga xos.

3. Sinonimik qatoridagi soʻzlar hoziri oʻzbek adabiy tiliga munosabati nuqtayi nazaridan oʻzaro farqlanishi mumkin, yaʼni sinonimik qatoridagi soʻz hozirgi adabiy til normasi doirasida yoki undan tashqarida turishi mumkin.

4. Sinonimik qatoridagi soʻzlar maʼnoni qay darajada ifodalashi jihatidan ham oʻzaro farqlanadi. Baʼzi soʻzlar belgini normal (neytral) darajada ifodalasa, boshqalari kuchli yoki kuchsiz daraja bilan ifodalaydi.¹³

Tabiiyki, keyingi yillarda dunyo tilshunosligida ana shunday sinonimik qatoridagi qarshilantirishlar uchun asos boʻluvchi shunday differentsial belgilarni yanada aniqlashtirish yuzasidan jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, rus tilshunosi A.I.Olxovskaya “Rus tili sinonimiyasining semantik parametrizatsiyasi” nomli ishida bunday differentsial parametrlarning 16 tasini tavsif va tahlil qilgan, bu parametrlar quyidagilardan iborat: subyekt, obyekt, sabab, maqsad, usul, tashqi namoyon boʻlish, davomiylik, masshtab, miqdor, intensivlik, baho, munosabat, xususiyat – holat, qism – butun, aniqlik – noaniqlik va fokus.¹⁴

Oʻzbek tilshunosligida sinonimik qatorlar anchayin batafsil va ziyraklik bilan tavsiflangan lugʻatni A.Hojiyev yaratgan. Uning “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (Toshkent: Oʻqituvchi, 1974)da oʻzbek tilidagi sinonimlarni izohlashda mazkur parametrlarning aksariyati oʻz aksini topgan. Ammo mazkur parametrlarning inobatga olinmaganlari ham tabiiy ravishda ancha-muncha bor. Aytish lozimki, bu lugʻat oʻzbek lugʻatchiligidagi sinonimiyaga bagʻishlangan yagona jiddiy leksikografik ishdir, lekin uning nashr qilinganiga qariyb yarim asr boʻlgan. Ayni paytda Oʻzbekiston mustaqillikka erishdi, tamoman yangi jamiyat barpo boʻldi, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy va siyosiy hayot mutlaqo yangi oʻzanlarda shitob bilan rivojlanib bormoqda. Bu, shubhasiz, tilimizda, ayniqsa uning leksikasida qonuniy ravishda oʻz aksini topmoqda.

Oʻzbek tilidagi sinonimiya muammosini monografik aspektda tadqiq qilgan B.Doniyorov asosli tarzda taʼkidlaganiday, “Sinonimlar ... nafaqat semantikasining konnotativ aspekti boʻyicha farqlanadi, balki aniq bir hollarda ijtimoiy tomondan anglangan tarixiy jihatdan saqlangan kontekstlardagi denotativ maʼnosi boʻyicha ham farqlanadi”.¹⁵ Ammo koʻp hollarda, N.G.Komlev qayd etganiday, soʻzda dunyoqarashni aks ettiradigan (“мировоззренческий”), madaniy-tarixiy

¹² Ўзбек тили лексикологияси... –Б.243.

¹³ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Кўрсатилган асар. –Б.115 – 116.

¹⁴ Ольховская А.И. Семантическая параметризация русской синонимии // Литера/ –2019. –N5. С.63 – 78 (https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=27457)

¹⁵ Данияров Б. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикografик тадқиқи. – Тошкент: ООО “Sano-Standart”, 2019. –Б.149.

uzv ham mavjud bo‘ladi, bunday konnotatsiya so‘zni turli ijtimoiy guruh vakillari tomonidan turli tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda qo‘llashi asnosida yuzaga keladi, bunday konnotatsiya ko‘proq ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid birliklar semantik strukturasi tarkibida milliylik uzvi, ya‘ni milliylik konnotatsiyasining mavjud bo‘lishini haqli ravishda ta‘kidlaydi.¹⁶

Alohida ta‘kidlash joizki, mustaqillik davrida faollashgan semantik jarayonlardan biri so‘z va uning ma‘noviy mohiyatiga munosabatning salbiydan ijobiyga tomon o‘zgarishi ekanligini sezmaslik mumkin emas. Mustaqillikdan avval bir qancha so‘zlarning ma‘no talqini zamona zayliga muvofiq anchayin sub‘ektiv edi, ya‘ni ularning yuzi qora edi. Biz bir maqolamizda bunga e‘tibor qaratgan edik: “Sho‘ro davrida yuzi qora bo‘lgan so‘zlardan yana biri *savdogar* so‘zidir. Hatto so‘zlashuv tilida bu so‘zning “xususiy manfaati uchun arzimagan narsaga ham talashadigan, pastkash odam” (eski izohli lug‘at) tarzidagi ko‘chma ma‘nosi ham yuzaga keldi. Bugun bu so‘z savdo-sotiq, tijorat faoliyati bilan halol shug‘ullanadigan shaxsni ifodalaydi va bunday kishilar jamiyatda hurmat-ehtiroimga sazovordir, bugun mazkur so‘zning yuzi ham yorug‘ bo‘ldi. Yuzi yorug‘ bo‘lgan ko‘plab so‘zlardan yana biri sifatida *fermer* so‘zini tilga olish mumkin. Bu so‘z ilgari “kapitalistik mamlakatlarda: fermani ijaraga oluvchi kishi yoki ferma egasi” ma‘nosida salbiy bo‘yoq bilan bo‘yalgandi. Mustaqillik tufayli amalga oshirilgan favqulodda muhim iqtisodiy islohotlar samarasi o‘laroq *fermer* degan yaratuvchi shaxs shakllandi. Bugun *fermer* “o‘ziga qarashli yoki ijaraga uzoq muddatga olingan yerda ziroat, chorva, parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi mayda yoki o‘rtacha qishloq xo‘jaligi korxonasi egasi” (yangi izohli lug‘at) bo‘lib, jamiyatda alohida obro‘-e‘tiborga sazovordir. Oliy niyati “kishilar o‘rtasidagi tenglikni ta‘minlashdan iborat bo‘lgan” sho‘ro tuzumi, ajabki, barcha kambag‘alni boy qilib emas, balki barcha boylarni kambag‘al qilib, mazkur oliy niyatning ijobatiga yetmoqday dumbul tutum bilan sa‘y-harakat qilganligi bugun hech kimga sir emas. Ana shu tutumning palag‘da mohiyati bois *boy* so‘ziga nisbatan ham salbiy nigoh mezon bo‘lgan, jamiyatda bu kabi so‘zlarga xolis munosabatning qaror topishi mushkullashgan. Eski jamiyatda barqarorlashgan ommaviy idrok o‘zaniga muvofiq bu so‘zning asosiy ma‘nolaridan biri ham eski izohli lug‘atda “kishi kuchidan foydalanish hisobiga boyluk, dunyo orttirgan (odam)” tarzida tavsiflangan. Muhtasham maqsadi “yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi”ga qaratilgan “o‘zbek modeli” asosida muntazam taraqqiy etib borayotgan mamlakatimizda *boy* so‘zi o‘zining chin ma‘nosi bilan qovushdi, “birovning kuchidan foydalanish hisobiga” emas, balki o‘zining halol va mashaqqatli mehnati, favqulodda aqlu zakovati, tadbirkorligining hadisi hisobiga boyluk, dunyo orttirgan(odam)ni nomlaydigan bo‘ldi, bu so‘z anglatgan tushuncha jamiyatda haqiqiy havasning hadafiga aylandi.”¹⁸

Sinonimlarni leksikografik tavsiflashda yuqorida tilga olingan sinonimik qatoridagi so‘zlarning differentsial belgilari, sinonimiyaning zaruriyatini ta‘minlaydigan asosiy parametrlari, ayni paytda lingvokul’turologik o‘ziga xosliklari muntazam e‘tiborga olinishi, sinonimik qatorlar tavsifi – izohida imkon qadar o‘z ta‘kidini olishi zarurdir. Aks holda sinonimik lug‘at biron-bir jihatdan unga bo‘lgan ehtiyojni to‘lasicha qondira olmaydi. Sinonimlar lug‘atida o‘zbek tilining qiyossiz zanginligi va ranginligini, istiqloq davridagi yorug‘ istiqbolini, sur‘atli taraqqiyoti va takomilini inkishof qilishday ulkan maqsadga erishmoq mas‘uliyati shuni taqozo etadi.

¹⁶ Комлев Н.Г. Компоненты содержательной структуры слова. –М.: МГУ, 1969. –С.122 – 129.

¹⁷ Миртожиев М. Кўрсатилган асар. –Б.38.

¹⁸ Батафсил қар.: Маҳмудов Н. Юзи ёруғ бўлган сўзлар // Нуқуқ ва бurch. –2015. –N9. –Б.36 – 40.

A

ABADIY, MANGU, UMRBOD, TOABAD, ABADULABAD, BOQIY, DOIMO, HAMISHA Vaqt nuqtayi nazaridan oxiri yo‘q, hamma zamonda mavjud bo‘ladigan. **Mangu, toabad** so‘zlarida zamonning so‘ngsizligi kuchli ifodalangan, ko‘proq kitobiy. **Umrbod** so‘zida ham zamon ma‘nosi qamrovli, zamonning shaxsga aloqadorligi ta‘kidlangan, **Abadulabad, boqiy** so‘zlarida ham zamon so‘ngsizligi ta‘kidi kuchli, eskirgan, kitobiy. Bu so‘zlar ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanadi. **Doimo, hamisha** so‘zlari harakat-holatning zamon jihatidan cheklanmagan darajada voqelanishini, davom etishini anglatadi, nutq uslublarining barchasida qo‘llanaveradi.

Bunday paytda vaqt sekin o‘tayotganday, qorong‘ilik chor-atrofnı tongga qadar emas, a b a d i y qamrab olganday tuyuladi. T.Malik, Davron. *Chor atrofda bahor yashnar, tabiat o‘zining m a n g u buzilmas qonuniga amal qilib, ko‘klamni yetaklab kelgan edi.* O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Kishi hayotida shunday voqealar bo‘ladiki, u m r b o d xotiridan ko‘tarilmaydi, – deb hikoyasini boshladi Aziz.* O‘.Umarbekov, Urush farzandi. *Xotin, uyning chirog‘ini o‘chirma, bolalarimni birovga xor qilma, agar uyimning chirog‘i o‘chsa, t o a b a d sendan rozi emasman.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. *Bunda oq birla qaro, Zulmat, ziyo, shoh-u gado, Jang qilurlar d o i m o, Ul yon o‘zing, bul yon o‘zing.* E.Vohidov, Inson. *Kim bilsin... shu mahal balki dunyoning qayeridadir o‘sha bechora chol hanuz besamar daydimoqda... va umrlari b o q i y bo‘lmagan, ammo Abu Lahabdan ming bora og‘irroq gunohlarni sodir etayotgan boshqa kishilarni ko‘rib, o‘z jazosining bu olamda berilganiga hamd-u sanolar o‘qiyotgan bo‘lsa ne ajab?* Isajon Sulton, Boqiy darbadar. *Sen ey, sen ona yurtim, Ko‘hmayu yosh O‘zbekistonim, H a m i sh a sen o‘zingsan Boisi ash‘oru dostonim.* E.Vohidov, Umrin daryosi. *Ey xasta dilli ojiz! O‘ylab ko‘r, bu olamda a b a d u l-a b a d qola olmaysan-ku. Kimki bu dunyoga kelgan bo‘lsa, oqibat etak silkib ketadi, ko‘ksi ajal tig‘idan yoriladi.* Alisher Navoiy, Lison ut-tayr.

ABADIYLIK, MANGULIK, BOQIYLIK Vaqt, zamon jihatidan eskirmaslik, hamma zamonlarda qimmatini yo‘qotmaslik. **Abadiyat, mangulik** so‘zlarida bir qadar kitobiylik ta‘kidi bor. **Boqiylik** so‘zida eskirganlik va kitobiylik seziladi. **Baqo** so‘zida eskilik bo‘yog‘i mavjud, ayni paytda u kitobiy nutqqa xosdir.

A b a d i y l i k shumi? – deb o‘yladi Asadulla, ohista qadam tashlab borib, chinor tanasiga kaftini qo‘yar ekan. – Urushlar, zulmlar ham uzoq vaqt unutilmaydi, ammo bular la‘nat bilan eslanadi. Bog‘ qilgan, shahar bino etgan, ezgulik urug‘ini sepgan odam esa shu yaxshiliklari bilan abadiy qolgusidir. T.Malik, Savohil. *Rassom esa xudoning qudrati bilan ularga m a n g u l i k ato etibdi: o‘q otilyapti-yu, otlarga kor qilmaydi, biror tomchi qon ham yo‘q, ko‘zlar chaqnaydi, yovqur otlar go‘yo qanot chiqarib uchayotgandek yelib borishmoqda.* T.Malik, Shaytanat. *Abadiyat shahri ham ana shunday xususiyatli shahardir. U yerga kim qaysi niyatda borsa, o‘sha niyatiga ko‘ra zuhur etadi. Mening niyatim u yerdagi b o q i y l i k ning sabablarini o‘rganish emas edi... u yerda yashash va kamolot darajalariga erishish ham emas edi... topsam bas edi...* I.Sulton, Boqiy darbadar.

ABJIR, EPCHIL, CHAQQON Har qanday ishni osonlik va jadallik bilan bajara oladigan, oyoq-qo‘lli, tez harakat qila oladigan. **Epchil** so‘zida ishni uddaburonlik bilan bajarish ma‘nosi, **chaqqon** so‘zida tez harakat qilish ma‘nosi ochiqroq ifodalangan. Har ikki so‘z ham ko‘proq so‘zlashuv tilida qo‘llanadi. Jonli narsalarga, xususan, shaxsga nisbatan ishlatiladi.

Bola nihoyatda kuchga to‘lgan, a b j i r, kurash hadisini olgan pahlavon ekan. Urdi, meni chalpak qilib yerga urdi. S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Men shunaqa ishlarga o‘zimni e p c h i l, deb bilaman.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Mehmonning orqamdan: “Shu o‘g‘lingiz e p c h i l, ch a q q o n, uloqqa tushadigan yigit bo‘ladi-da” deganini eshitib, qadamimni tezlatardim.* Q.Kenja, Baliq ovi.

ABLAH, YARAMAS, RAZIL Xulq-atvori tuban, kishini jirkantiradigan darjada axloqsiz. Mazkur ma‘no, ayniqsa, **razil** so‘zida qabariq ifodalangan. Bu so‘zlar ana shunday xulq-atvorli shaxslarga nisbatan haqorat uchun ham qo‘llanadi.

So‘kinaman, nega so‘kmas ekanman! U a b l a h ning otasi eshak, onasi mochaxar! S.Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda. *Xunuk ish bo‘lgan, jo‘rajon, juda xunuk, anavi y a r*

a m a s, it emgan Qo'chqor Zulfiqorni qamab, ko'p azoblar berdi. S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda. Kuchim yetsa, o'sha Usmonning basharasiga tuflab: "Pichan o'rog'ida adabingni bergani esingdan chiqibdi-da... Eng ya r a m a s, eng r a z i l odam sensan-ku!" degan bo'lardim. Ch.Aytmatov, Jamila. A b l a h, sen tirikmisan, o'lmaganmiding? – deydi Asadbek. T.Malik, Shaytanat.

ADOLAT, ODILLIK Har qanday ish-harakat, munosabatdagi xolislik, haqiqatga uyg'unlik. **Adolat** so'zi ko'proq qonun-qoida mezonlari ifodasida qo'llanadi. **Odillik** so'zi oddiy va odatdagi munosabatlardagi xolislikni ifodalaydi, ko'proq so'zlashuv nutqiga xos.

Jahonda fitnalar bordir, Adolat gohi nochordir, Adolat qil, o'zing odil, Kechir, yo rab, kechirdim men. E.Vohidov, Kechir, yo rab! Bilgingiz kelsa, men ijtimoiy adolat, insoniy tenglik tarafdoriman, xolos. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. "Katta"ning bu gapni aytishga undagan ichida bo'g'ilib yotgan odillik deb atalgan qaysar bir kuchning qalqib yuzaga chiqqanidan, sado berganidan edi. O.Yoqubov, Kiprikda qolgan tong.

ADOLATLI, ODIL Har qanday ish-harakatga, muayyan muammoli munosabatga haqiqatga uyg'un tarzda yondashadigan, tarafkashliksiz hal qiladigan. Ular o'rtasidagi farq **adolat** va **odillik** so'zlari orasidagi kabitdir.

Farmonbibi kelinlarining oshini zaharzaqqumga aylantiruvchi zolim qaynona emas, balki talabchan, lekin adolatli, insofli, donishmand ayol. O.Sharafiddinov, Xalq sevgan adib. Shoh Muslim dunyodagi eng dono, eng odil podsholardan edi. Uning mamlakati go'zal, shaharlari obod, xalqi tinch, farovon turmush kechirardi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin.

ADOLATSIZLIK, BEDODLIK Adolatga, haqqoniyatga rioya qilmaslik, ularga tamoman zid xatti-harakat. **Adolatsizlik** so'zida ko'proq qonun-qoida mezonlarining poymol qilinishi ta'kidi anglashiladi, **Bedodlik** so'zida o'zganing haqli talabiga, arz-dodiga hech kimning quloq solmasligi holati ta'kidi mavjud, kitobiy bo'yoqqa ega.

Adolat deb kuyinib yurgan yigitning adolatsizlik bilan topilgan pullar evaziga tuzalgan dasturxon to'rida o'tirishi unga g'alati tuyuldi. T.Malik, Shaytanat. Adolatsizlikni ko'rib, xuni-biyrin bo'lamiz. Hayotdan, taqdirdan noliymiz. Adolat yo'q, adolat osmonda, deymiz. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. Safsar kelib-kelib, ana shu kazzobning bozoriga mijoz bo'lgani alamli bedodlik emasmi? E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli.

ADOVAT, DUSHMANLIK, XUSUMAT Dushmanlik munosabati, shunday munosabatga xos his-tuyg'u, xatti-harakat. **Adovat** so'zida mazkur his-tuyg'u, xatti-harakat ifodasida umumiylik mavjud. **Dushmanlik** so'zida mazkur ma'no qabariq ifodalangan. **Xusumat** so'zida mazkur tuyg'u va harakatning yashirinligi ta'kidi bor.

Vasila Nazarovna Dulfuzaning o'ziga adovat bilan qarab qo'yganini ko'rib, g'ashi keldi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Olam ahli bilingizkim, ish emas du sh m a n l i g', Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish. Alisher Navoiy. Uzoq o'tmishga aylangan qonli du sh m a n l i k ni bugun davom ettirish kimga kerak? P.Qodirov, Yulduzli tunlar. X u s u m a t deydilar ushbuning otin, Dastidan yig'inlar, uylar bezovta. Bezovtadir hamma oshkor yo botin, Azalar bezovta, to'ylar bezovta. A.Oripov, Xusumat.

AFSUNGAR, SEHRGAR, JODUGAR, AFSUNCHI Afsun, sehr, jodu bilan g'ayritabiiy harakat-holatlar, mo'jizalar yuzaga keltiruvchi. **Afsungar** so'zida "alohida "so'zlar"ni o'qish yordamida" ta'kidi ko'proq. **SehrGAR** so'zida sirlilik ma'no nozikligi anglashiladi. **Jodugar** so'zida salbiy munosabat ochiqroq ifodalangan, afsona va ertaklarda ko'proq uchraydi. **Afsunchi** so'zi odatda so'zlashuv nutqiga xos.

Telepat qadimgi hind afsun g'arini esladi. "Yoshlik". O'sha yetim qiz. O'z onasi o'lib ketib, o'gay onaning qo'lida qolgan... kunlarning birida o'rmonda adashib, sehrGAR kampirning hujrasiga borib qolgan. Sh.Xolmirzayev, J o d u g a r otini o'rmonga yashirib, o'zi bir musofir odam bo'lib, qizning oldiga kelibdi. "Burgutlar" ertagi. Nima balo, j o d u g a r mi bu? Hali Nargixonni sevib qolganimniyam aytib berar! O'.Hoshimov, Ikki karra ikki – besh. Poshsha afsu n ch i ning bu o'rgatma iloni bir marta nishini botirib olmasa, bo'ladimi? Cho'lpon, Kecha va kunduz.

AFSUS, TAASSUF, O'KINCH, O'KINISH, NADOMAT, PUSHAYMON ATTANG, ESIZ Nomaqbul qilmish, harakat va holat kabilar bois tug'ilgan tuyg'u, achinish, xafalik hissi, ko'pincha o'z qilmishining nodurust oqibatidan ruhiy ezilish hissi. **Taassuf** so'zida ko'proq kitobiylik seziladi. **O'kinch, o'kinish** so'zlarida so'zlashuv nutqiga xoslanganlik bor. **Nadomat** so'zida xafalik va ezilish hissi ortiqroq, kitobiylik mavjud. **Pushaymon** so'zida ko'proq o'z qilmishi oqibatlaridan xafalik ifodalanadi, uning qo'llanishi nutq uslublariga ko'ra cheklanmagan. **Afsus, nadomat** so'zlari **afsus-nadomat** tarzida juft so'z shaklida ham ishlatiladi, bunda ma'noda xafalikning yanada kuchaytirilishi va umumlashtirilishi voqelanadi. **Esiz** so'zida o'kinish-achinish belgisi kuchsizroq.

A f s u s, bunaqa sodiq do'stni umrimning oxirida topgan ekanman. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. Ko'cha-ko'ya unga yo'liqqanlar: – Podamizni yetim qilib qo'yding-da! – deb boshlarini a f s u s bilan chayqab o'tishadi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Sizlarda ham ichki parokandalig-u viloyatlarni bir markaz atrofiga birlashtirish muammosi bor ekan-da, – dedi Humoyun t a a s s u f bilan. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. Qadim ajdod o' k i n ch bilan cho'kib soyaga, Bu so'zlarni cho'kich bilan yozdi qoyaga. E.Vohidov, Bu ko'hna hasrat. Endi naf yo'q o' k i n i sh dan. Timsolni ko'ring! Biz hammamiz bir kemaga tushgan odamlar! E.Vohidov, Istanbul fojiasi. Bu narsani ilgari o'ylamagani uchun afsus qildi. Lekin endi o' k i n i sh ning foydasi yo'q edi. Oybek, Qutlug' qon. A f s u s va n a d o m a t lar bo'lsinkim, shundoq noyob iste'dod sohibi, ajoyib do'stim nohaq tuhmatlarga duchor bo'lib, xalq dushmani sifatida olis sovuq o'lkalarga surgun etildi. E.A'zam, Shoirning to'yi. Shuning uchun ham umrining ikkinchi yarmi p u sh a y m o n da, azobda o'tadi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. E, a t t a ng. Esiz umr, esizgina umr-a! Xudo meni odamlarning la'natini eshitish uchun yaratgan bo'lsa ilojim qancha! – dedi u a f s u s – n a d o m a t lar bilan. S.Ahmad, Umrin bayoni. Mantiga juda ustasizlar... bilaman. A t t a n g, biz yeyolmas ekanmiz-da, – dedim men. Cho'lpon, Kecha va kunduz. A t t a n g, aka, kecha sotib yubordim. Sizni ko'p kutdim. Yaxshi uzuk edi. O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri. E s i z, tushib qopti, boychechak opkelgan edim bir dona, – dedi. Sh.Xolmirzayev, Boychechak ochildi. Ammaginangning qiziga ko'nmayapsan, o'sha yoqlardan birontasini topdingmi deyman-ov? Oyday qiz edi-ya, e s i z g i n a! E.A'zam, Shovqin.

AFSUSLANMOQ, AFSUS QILMOQ, TAASSUFLANMOQ, PUSHAYMON QILMOQ (BO'LMOQ, YEMOQ), O'KINMOQ Nomaqbul qilmish, harakat va holat kabilar, ko'pincha o'z qilmishining nodurust oqibati bois xafa bo'lmoq, ruhan ezilmoq, **Taassuflanmoq** so'zida kitobiylik ta'kidi mavjud. **Pushaymon qilmoq, pushaymon bo'lmoq** so'zlarida o'z qilmishi oqibatlaridan xafalik ta'kidi ochiqroq ifodalangan. **Pushaymon yemoq** iborasida mazkur ma'nodagi xafalik darajasining anchayin ortiqligi obrazli bir tarzda ifodalangan. **O'kinmoq** so'zi esa ko'proq so'zlashuv nutqiga xosdir.

Yo'qsa, sizning bosh olishingiz ham anovilarning qirg'inidan farqlik bo'lolmas, – dedi va bir oz to'xtab olg'andan keyin a f s u s l a n d i, – shu yoshg'a yetib, bu xalq orasida haligi jamoani uch-to'rt nafardan ortiq uchratolmadim, afsus. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Bolqon urushidan xabarsiz bir musulmon boyining savoliga u ichidan a f s u s l a n s a ham, lekin buni sezdirmedi, avvalgi tur bilan gapini davom ettirdi. Oybek, Qutlug' qon. Biz uning ayanchli holiga... t a s s u f l a n d i k. Mirmuhsin, Sozanda. Lekin Toshkentda qolganingiz uchun p u sh a y m o n q i l a y o t g a n bo'lsangiz, marhamat, haliyam yo'lingizdan qolmang! O.Yoqubov, Matluba. P u sh a y m o n q i l y a p s i z - a? Bo'lgani bo'ldi endi, do'stim, o'ylamang! Bu ishda boy bergan men-ku, sizga nima? Lekin o'zim hecham a f s u s q i l m a y a p m a n. Qaytaga, qushdek yengil bo'lib qolganga o'xshayman. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. Lekin hozir Samig'jon bilan uchrashganda nima derdi? O'shanda gapingizga kirmay ahmoqlik qilgan ekanman, mana endi p u sh a y m o n b o' l i b keldim, deydimi? O.Yoqubov, Matluba. Qadrimga yetmaysiz, – derdi u ba'zan ham hazil, ham chin qilib. – Bir kun o'lib qolsam, o'shanda ko'rasiz. Biram p u sh a y m o n ye y s i z ki... O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri. Og'ang seni hamisha nazoratda tutmoqlikni amr etgan. U ham anoyi emas-sening uzoq-uzoq azoblanishingni, bu dunyoga kelganingga ming p u sh a y m o n ye y i s h i n g ni istaydur. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. Oraga tushib ukasini qutqarib qololmaganidan o' k i n d i m i? T.Malik, So'nggi o'q. Biroq u dadasi va qizlarining kelajagi uchun o'z orzusini qurbon

qilganidan zarracha o'k i n a y o t g a n i y o 'q va bundan keyin ham o'k i n m a y a j a g i n i teran anglardi... U.Hamdani, Muvozanat.

AFZAL, YAXSHI, ORTIQ, USTUN, YUQORI, A'LO Ikki narsa-hodisani chog'ishtirishda birida boshqasiga ko'ra muayyan belgi darajasining ortiqligi, maqbulligini ifodalaydi. **Afzal, yaxshi, a'lo** so'zlari ko'proq sifat, fazilat, qadr-qimmat jihatidan belgining ortiqligini bildiradi. **Ortiq, ustun, yuqori** so'zlari ko'proq miqdoriy belgining ortiqligini bildiradi. Umuman, mazkur so'zlardagi ortiqlik belgisining darajasi berilgan so'zlar ketma-ketligida o'sib boradi. Bunda **afzal** so'zidagi ma'no daraja jihatidan anchayin umumiy, bu daraja **yaxshi** so'zidan **a'lo** so'ziga qarab ortib boradi.

Bu yerda yana o'n kun qolgandan ko'ra umrbod kar bo'lib yashagan a f z a l! E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. Oshga bostirilgan sarimsoqpiyoz yangi so'yilgan qo'yning iligidan a f z a l bo'lsa afzalki, kamligi yo'q. S.Ahmad, Yo'g'ontepa. SHunga boja bo'lgandan ko'ra itga boja bo'lganim ming marta ya x sh i! T.Malik, Xazonrezgi. Siz saxovatda Hotamtoydan, adolatda No'shiravoni odildan o r t i q ish yurityapsiz. T.Malik, Savohil. Mirzakarimboyning qizi Nurinisoning tabiatida yengillik bilan makr u s t u n edi. Oybek, Qutlug' qon. Yigitning yuragi, nomusi, odamgarchiligi puldan aziz, puldan yu q o r i emasmi? Oybek, Qutlug' qon. Bular anovi partokratlaringdan yaxshi, ming bora a ' l o! E.A'zam, SHovqin. Birovni abgor qilib yaxshi yashashdan ko'ra, birovning qarg'ishiga qolmay kambag'allikda umr kechirgan a ' l o emasmi? T.Malik, Shaytanat.

AFZALLIK, ORTIQLIK, USTUNLIK Afzal, ortiq belgiga egalik.

To ichkariga kirgunlaricha u rasadxonaning a f z a l l i k larini gapirib bordi. T.Malik, Falak. Havlining to'rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan va to'rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o'ralg'an bo'lib, shu ikki uyning orasig'a o'lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu havlining birinchi martaba ko'zga chalinadig'an o r t i q l i k laridandir. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Nihoyat, qiz tomon bo'sh kelmasa ham, umuman erkakning hurmati va uning ayoldan u s t u n l i g i n i tasdiqlash uchun picha yon berdi. Oybek, Qutlug' qon. Yovning son jihatidan beqiyos darajada u s t u n l i g i k o 'p chilik bek va navkarlarning qalbiga g'ulg'ula solar edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

AYYOR, MAKKOR, HIYLAGAR, MUG'OMBIR, TULLAK, QIRRIQ, USTOMON, QUV, MASTON Makr-hiyla bilan ish tutadigan, har qanday kishini aldab keta oladigan. **Makkor, hiylagar** so'zlarida makr, hiyla bilan aldaydigan ma'nosi qabariq ifodalangan, bir qadar kitobiylik bo'yog'i bor, bu so'zlar, shuningdek, **ayyor, makkor, mug'ombir, quv** so'zlari odamga va ayrim jonivorlarga nisbatan qo'llanadi. Sinonimik qatordagi boshqa so'zlar esa deyarli odamga nisbatan ishlatiladi. **Tullak, qirriq, ustomon** so'zlarida sezilarli obrazlilik mavjud, "ko'p ishni ko'rgan odam" ma'nosi ta'kidi bilan ko'proq so'zlashuv nutqida qo'llanadi. **Maston** so'zi folxklorga xos bo'lib, asosan, xotinlarga nisbatan ishlatiladi.

Noyib to'ra ham a y yo r odam. O'zi buyruq berib yoptirsa bo'lardi, unday qilmadi. O'zi bir chekkada turib, siz orqali qildirdi... Tayoq endi kelib, sizning boshingizda sindi! Cho'lpon, Kecha va kunduz. Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam edi: hamma boylar kabi, a y yo r, mug'ambir, puxta-pishiq; u yuraksiz emas, balki har ishda ehtiyotkorlikni ma'qul ko'rar edi. Oybek, Qutlug' qon. SHarq podshosi bir qadar sodda, ayollar esa bir qadar zabun va ... anchayin m a k k o r bo'lgan! O'.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Pinak buzmay o'tirganiga qaraganda, uncha-buncha h i y l a g a r ga dars berishi mumkin. T.Malik, Savohil. Farhodga bunday bajarib bo'lmas zo'r ishni topshirib, uni ovora, sarson qilishni ko'zlagan Xisrav uning muvaffaqiyatlari oldida talvasaga tushadi, h i y l a g a r kampir vositasi-la uni o'ldiradi. H.Olimjon, Talangan asarlar. Iymanma, Kumush otin, bu kun-erta bizga yangi kelinsan, uchinchi kundan boshlab sen m u g ' o m b i r ning boshingda tegirmon yurgizishni o'zim yaxshi bilaman! – dedi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Mening yana ensam qota boshladi. Bu yigitni juda u s t o m o n, gap chalg'itishga ustasi farang yoxud sodda-m u g ' o m b i r deb o'ylash mumkin edi. Sh.Xolmirzayev, Qumrilar. Ammo boshga qilich kelsa-da, chinini aytmoq kerak: ko'nglimning tub-tubida, kallamning allaqaysi bir puchmoqlarida tilyog'lamalilik qilmayaptimikan bu u s t o m o n, degan ishtiboh charx urar edi. M.Mansur, Judolik diyori. Bu hiylakor qiz, juda q u v qiz. Meni

sevmaydi yurakdan. Oybek, Qutlug' qon. *U juda q u v, mo'ltoni odam. Pul qarz olib, yeb ketish, qalbaki hujjatlar yasash, soddadil odamlarning hovli-joylarini o'ziga qaratish singari harom ishlarning piri edi.* Oybek, Qutlug' qon. *Shaytonga saboq beradigan anov t u l l a k tag'in nima baloni topib keldi?* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Oshi yeyishli bo'libdi. Qurbon yaxshi oshpazda. Lekin q i r r i q roq.* A.A'zam, Oyning gardishi. *Xabardor bo'l. Shirvonning ko'p m a s t o n i, M a s t o n lardan xabardor bo'l, Ravshanjon! "Ravshan".*

AYYORONA, MAKKORONA, MUG'OMBIRONA. Ayyorlarga xos harakat tarzi, ayyorlik bilan.

Gulchehra ko'zlarini a y y o r o n a suzib Abdullaga qaradi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Asadbekning qarashi jiddiy, Kesakpolvon esa a y y o r o n a jilmayib boqib turardi. T.Malik, SHaytanat. Har qalay, menga shunday tuyuldiyu oldimdagi daftarga chizilgan suratlariga tikilib, jon-jahdim bilan m a k k o r o n a chizilgan harflarni qidiraboshladim. O.Yoqubov, Muzqaymoq. Chuvrindi m u g' o m b i r o n a jilmayib turgan «vakil»ga qarab oldi. T.Malik, SHaytnat. Hozir ishlar shunaqa! – pakana yigitcha munchoq ko'zlarini m u g' o m b i r o n a o'ynatdi. O.Yoqubov, Billur qandillar.

AQL, ES, MIYA, BOSH, KALLA Kishining fikrlash, idrok qilish, dunyoni bilish qobiliyati. **Es, miya, bosh, kalla** so'zlarining mazkur ma'noda qo'llanishi ko'proq so'zlashuv nutqiga xos. **Kalla** so'zida bir qadar nopisandlik yoki hazil ma'nosi anglashiladi.

Hammangning a q l i n g shu tirranchaning a q l i c h a bo'lmadi-ya, hayf senlarga. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Aytmoqchi, sizlarning xotinlaring ham boradi-ya?.. Ha-a, ha, ularning ham e s i bor. Sh.Xolmirzayev, Sayr. Ular o'ta aqlli xalq, baloga aqli yetadi. Nima bo'пти, boraverish kerak, – dedim m i y a m g a kelganini qaytarmay. M.Mansur, Judolik diyori. Hali u bu uyga kirarkan, boydan haqini talab qilish uchun «mulla aka» dan yo'l-yo'riq so'rash, mumkin bo'lsa, bir ariza yozdirish fikri b o s h i g a kelgan edi. Oybek, Qutlug' qon. Odamzodning boshiga ish tushsa, aqli kiradi deganlari rost ekan. Homidjonovning ham shu topda k a l l a s i ishlab qoldi. S.Ahmad, Oshqovoq-2.

AQLLI, OQIL, ESLI, MIYALI, KALLALI. Raso mantiqiy tafakkur qilish va bilish qobiliyatiga egalik belgisi, aql bilan ish tutadigan, aqli raso, bilimdonlik bilan fikr yuritadigan. **Oqil** so'zida har qanday ishni aql va donolik bilan bajaradigan tarzidagi ma'no ta'kidi ustunroq, ayni paytda bir qadar badiiyat bo'yog'i anglanadi. **Eсли, miyali, kallali** so'zlari ko'proq so'zlashuv nutqida qo'llanadi.

Cholga bo'lmasa ham, har holda, o'zidan o'n-o'n besh yosh katta odamga tegadi. Men hammani emas, a q l l i qizlarni aytyapman! O.Yoqubov, Matluba. *Lekin Doniyorning o'zini tutishiga, qo'li-qo'lga tegmay chaqqon ishlashiga, harakatchanligiga qarab, uni ochiq-yoriq, a q l l i, gapga chechan odam ekan, deb o'ylaysan kishi. Ch.Aytmatov, Jamila. Erkin, g'azaling O q i l u nodon uqib oldi, O q i l o'zicha, O'zgacha nodon tushunibdir. E.Vohidov, Do'stga deganim. O'rda ichida shunchalik o q i l va donolar to'lib yotqan bir fursatda, tahsil ko'rmagan, nodon bir go'dakka bunday ulug' bir bir vazifa, vallohi a'lam, topshirilmas deb o'ylayman. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Qani edi, u ham shu mehmonga o'xshagan bo'lsa-yu, o'g'lini shunday o'qishga yuborsa! Abdulla e s l i, aqlli bola, katta odam bo'lib qaytardi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Insonga eng og'iri – birovning boyligi oldida bo'ynini qisib yashash ekanligini, nahotki, shuncha pul topgan m i y a l i boshing bilan o'yldamasang. A.A'zam, Asqartog' tomonlarda. Mayli, o'yla. K a l l a l i bolasan. Sen men qilgan xatolarni chetlab o'tsang, uzoqqa borasan. T.Malik, Shaytanat. Hoshalloh, bu gapni siz aytman.*

AQLSIZ, BEAQL, NODON. Aqli yo'q, ongi, fahm-farosati yetarli darajada emas. **Aqlsiz, beaql** so'zlarida aqlning yo'qligi yoki juda pastligi, **nodon** so'zida esa aqlni ishga solishdagi yetarsizlik, bilimsizlik ta'kidi kuchliroq ifodalanadi.

Musulmonqul o'z g'arazi yo'lida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyavi Sheralixonni o'ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo'y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, a q l s i z bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib el yelkasiga mindi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Siz ilmingizga xiyonat qildingiz. Xudo sizga aql bergan edi, siz a q l s i z lar bilan qoldingiz. T.Malik, Shaytanat.

Shuning uchun ham b e a q l Sultonmuroddan qutulib, itoatkor bandaga aylangan Sabohiddinning xizmatiga umidvor edi. T.Malik, Devona. B e a q l ning ohi yo'q, Bog'lamoqqa shoxi yo'q. Maqol. Erkin, g'azaling Oqilu n o d o n uqib oldi, Oqil o'zicha, O'zgacha n o d o n tushunibdir. E.Vohidov, Do'stga deganim.

AGAR, MABODO, BASHARTI, BORDI-YU Gap mazmunidagi shartni kuchaytirish, ta'kidlash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'z. **Agar, mabodo** so'zlarining qo'llanishi nutq uslublariga ko'ra cheklanmagan, og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham qo'llanaveradi. **Bordi-yu** so'zi ko'proq so'zlashuv nutqiga xoslangan. Ayni paytda, **mabodo, bordi-yu** so'zlari shart mazmunidagi harakat-holatning ehtimoldan uzoqroq ekanligini ta'kidlaydi. **Basharti** ko'proq kitobiy nutqqa xoslangan.

Tuzuk, a g a r Musulmonqul bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg'anda, zolimlarni o'rtadan ko'tarib, yurtka osoyish berganda, unga kim nima deya olur edi? A.Qodiriy, O'tkan kunlar. A g a r o'rtada farzand bo'lmaganda, oila allaqachon buzilib ketardi. U.Hamdani, Muvozanat. M a b o d o qachondir mansabdor bo'lib qolsang, bilib qo'y: amal kursisida o'tirganingda kim eng ko'p tovoningni yalasa, kursidan tushganingda o'sha birinchi bo'lib sendan yuz o'giradi! O'.Hoshimov, Daftari hoshiyasidagi bitiklar. Urushda qon kechib yuribmiz, m a b o d o vafot etsam, meni Kobulga eltib ko'mgin. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. B a s h a r t i arizada bitilgan gaplar rost bo'lganda ham seni ayblashga ko'nglim bormaydi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. B a s h a r t i aytmagan bo'lsam, sen bir oz yon bersang, «Munixon»ligingdan tushib qolarmiding? A.Qahhor, Sarob. Bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday opioq bo'ladi. B o r d i y u ajdodida bo'lsa, to'qqizga to'lganda Tarlon bo'ladi. T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

AHD, QAROR, VA'DA, LAFZ, PAYMON Nimanidir qilish-qilmaslik haqida o'ziga yoki o'zgaga berilgan qat'iy ishonirish so'zi. **Va'da, lafz** so'zlari ko'proq so'zlashuv nutqiga xos. **Paymon** so'zi eskirgan, kitobiy, o'zi alohida juda kam qo'llanadi. Ammo ko'pincha **ahd-paymon, ahdu paymon** tarzidagi juft so'zlar tarkibida keladi va ulardagi ma'noda ifodalangan berilgan so'z-va'daning qat'iyligi kuchli darajada ta'kid oladi.

Shunda men bir adib sifatida... odamda bo'layotgan o'zgarishni ko'rdim; uni kuzatish a h d i m bo'lib qoldi. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. Ijodiy ishni yig'ishtirib butunlay bog'bonlikka o'tishga esa ori yo'l bermasdi: shuncha yil nonini yeb, yaxshimi-yomonmi, shu tufayli nom taratib, endi zamon sal yuz burganda muqaddas a h d ga xiyonat qilish nomardlik emasmi?! E.A'zam, Yozuvchi. Manzuraning qaytish haqidagi q a r o r i Asadbekning rejalarini buzib tashladi. T.Malik, Shaytanat. Bola onasidan ham ertak eshitolmasligini bilsa-da, bu v a ' d a ga ishondi. T.Malik, Shaytanat. Qolaversa, Sizga v a ' d a m bor, bergan so'zim bor. Endi qaysi til bilan ochaman u tashrifingizni? M.Mansur, Judolik diyori. Unsin Nodirmohbegimga ko'zi tushgan zamoni undan dodxonning l a f z i l a f z mi ekanini so'ramoqchi bo'lgan edi, uning ahvolini ko'rib, eshitar-eshitilmas: – Sizga nima bo'ldi?– dedi. A.Qahhor, Dahshat. Juma kuni shanbada yuboraman deb va'da qiluvdingiz, – dedi ranjib. – Shanba kuni dushanbada dedingiz. Endi yana ertaga deysiz! Sizda l a f z degan narsa bormi o'zi, o'rtoq master? O.Yoqubov, Billur qandillar. Uning xayoli butunlay boshqa yokda – a h d – p a y m o n l a r i ni barbod qilgap Suxsurada edi. S.Ahmad, Tut pishig'i. Hazrati Amir Temurning bobokalonlari Qochuvli bahodir bilan hazrati Chingizxonning bobokalonlari Qobulxon inoq bo'lish haqida a h d u p a y m o n qilishib, po'lot kitobga buni o'yib yozdirgan ekanlar. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Bo'ladigan gap shuki, bir qiz bilan a h d u p a y m o n i m i z bor edi. T.Malik, Shaytanat.

AHIL, INOQ, TOTUV O'zaro do'stona munosabatli, bir-biri bilan ittifoq bo'lib yashaydigan, bir-biriga mehribonlik va yaxshilik ko'rsatish bilan birlashgan. **Inoq** so'zida bir-biriga bog'liqlik, **totuv** so'zida bog'liqlik bilan bir qatorda farovonlik-tinchlik ta'kidi seziladi.

Shundoq a h i l adashlarimga qarab turib, ismim Ahmad ekanidan, ahmadlarning ko'pligidan rosa ko'nglim ko'tarilib, boshim osmonga yetdi. A.A'zam, Odamning ismi. Agar qabilalar avvalgidek a h i l yashashganda, u jonjon deb shu qizni kelin qilardi. O'.Umarbekov, Oqsoqol. Ko'zim tirikligida sizning inilaringiz bilan i n o q, ittifoq bo'lganingizni ko'rsam dunyodan bearmon ketardim. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. Faqir ham turfa ellarning ruhan yaqinlashib, i n o q yashashlariga tarafdormen, – dedi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. Mana, o'ng

tomonimizda esa oltita kelin bir-biri bilan inoq bo'lib ro'zg'or ishi bilan shug'ullanyapti. S.Ahmad, Kelinlar qo'zg'oloni. Er-xotin juda totuv, yaxshi yashashardi. Abdulla tug'ilganidan so'ng ularning hayoti yanada lazzatli bo'lib ketdi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Choshgoh payti. Kattakon o'rik soyasidagi chorpoyada totuv oila ahli xushvaqtlik bilan choyxo'rlik qilib otiribdi. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir.

AHMOQ, TENTAK, TELBA, GO'L, ANOYI Aqli past, aql bilan ish qilmaydigan, fikrlash qobiliyati me'yorida emas. **Ahmoq** so'zida aqlning anchayin kamligi aniqroq ifodalangan, shuning uchun so'kish-koyish ma'nosida ham qo'llanadi. **Tentak, telba** so'zlarida aqldagi noqislik, fikrlashning yetarli emasligi anglanadi. **Go'l** so'zida mantiqiy tafakkurdagi tanballik bois har qanday yolg'onga laqqa tushaverish ochiqroq ifodalangan. Keyingi ayni ikki so'z ko'proq so'zlashuv nutqiga xosdir. **Anoyi** so'zida esa sadbiy bo'yoq aytarli yo'q, bu so'z shevaga oid so'z.

«Mevalari oldin-ketin pisha boshlab, ekinlar ekilib, oldingilari tayyor bo'lgan paytda qaysi ahmoq bog'ini sotadi», deb Salimboyvachcha hayron qoldi. Oybek, Qutlug' qon. Jinni bo'ldingmi, yurtimga qaytay, uylanib, bola-chaqali bo'lay, boshqalardek bearmon yashab yuray, deb niyat qilmaysanmi, ahmoq! – dedim unga. S.Ahmad, Oftob oyim. Ahmoq, tye n t a k! Bir muttahamning nayrangiga uchi-ib... Odam ham shunday anoyi bo'ladimi? E.A'zam, Anoyining jaydari olmasi. Yig'lama, nega yig'laysan, tye n t a k, – dedi u boshimni silab. – Bir bosh olibsanlar, ikki bosh olibsanlar, nima bo'пти? Kamayib qoladimi? Qara, bu uzumlarni! Qancha axir. O'.Umarbekov, Charos. . Unsin qo'rquvdan telba bir ahvolda bo'lsa ham fahmladi: maymun! Dodxonning maymuni! A.Qahhor, Dahshat. Siz bo'lsa... ul t e l b a ning bul yolg'on po'pisasiga inonib, ruxsoringizni ko'rsatdingiz? O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. Sizni hiylakor dedim: esingizda bormi, sodda otamni, go'l onamni qandog'lar qilib aldadingiz? A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Selpo raisi o'g'irlik qildi, savodim yo'q, meni go'l bilib, shuncha pulga tushirdi, yordam qilinglar, deb arzga boraymi? Sh.Xolmirzayev, “O'zbekning soddasi”. Ramazon hamshahar studentlarimizdan bir-ikkitasini topib, bor puliga o'shalar bilan yallo qilgan, ularga osh bergan. Oshini yeb bo'lgach, miriqib-miriqib bu anoyi-ahmoqning ustidan kulishgan. E.A'zam, Anoyining jaydari olmasi.

AHVOL, HOLAT, HOL. Ruhiiy va jismoniy hayotda muayyan vaqt va sharoida yuzaga kelgan yoki mavjud bo'lgan vaziyat. **Ahvol** so'zida umumlashtiruvchilik belgisi kuchliroq. Ko'pincha bu so'z **hol-ahvol** tarzidagi juft so'z tarkibida ham keladi, bunday juft so'zda umumlashtiruvchilik yana ham kuchli bo'ladi.

Zebining haligi ahvoli ko'ngliga tashvish solganidan keyin chidayolmadi; bir kun Zebining yo'q vaqtini topib turib, eriga so'z ochdi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Abdulla uni bu ahvolda ko'rib, g'alati bo'lib ketdi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Botirxonga bu hola t ma'qul bo'ldi va opaning bu kayfiyati kelinga ham yuqishini taxmin qilgani uchun voqeani yanayam bo'rttirib hikoya qila boshladi. Sh.Xolmirzayev, Qaytish. Som mirzo Humoyunning shunday tahlikali hola t da o'zini mardona tutganidan juda ta'sirlangan edi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. Anvar so'nggi marta bu uydan chiqqanida, bular sochilgan hola t edi. Keyin... Xonzoda titroq qo'llari bilan batartib hola t ga keltirdi. T.Malik, SHaytanat. U bunday hola t da Daminning fikrini ma'qullamagan odam baloga qolishini bilardi. T.Malik, Savohil. Mening shunday yaxshi amaldorim bor ekan, qadriga yetib, hola t – ahvolidan xabardor bo'lib turibsanmi? Cho'lpon, Kecha va kunduz. Ha, endi, do'stim, hola t – ahvolidim o'zingga ma'lum. Nima qilasan meni qiynab? E.Vohidov, Oltin devor. Demak, odamzod butunlay hayvon kye p a t a siga kirmabdi. Demak, hali umid bor. U. Hamdam, Muvozanat.

AJAB, AJABLANARLI, TAAJJUBLI, TAAJUBLANARLI, G'ALATI Aqlni shoshiradigan, hayrat va hayronlik tuyg'usini tug'diradigan. **Taajjubli, taajjublanarli** so'zlarida harakat-holatga ikkilanib qarash ta'kidi mavjud. **G'alati** so'zida harakat-holatning rostligiga ishonchsizlik ta'kidi anglanadi, bu so'z ko'proq so'zlashuv nutqiga xos.

A j a b dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do'stlar, Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku. Cho'lpon, Qalandar ishq. Xayyom o'z baxtini izlagan bu zahmatkash yigitga boqarkan, dunyoning a j a b savdolarini o'ylay ketdi. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. Ota-onasi durustgina yerlarda xizmat qiluvchi yigitning ko'cha supuruvchi – farrosh bo'lib ishlashi a j a b l a n a r l i

edi. T.Malik, SHaytanat. *Kim biladi, menga shunday tuyulgandir, hozirgina kitob o'g'irlab chiqqan hovli derazasida cho'qqisoqol menga qarab turardi va a j a b l a n a r l i s i shundaki, u menga jilmayib qo'yganga o'xshadi.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *T a a j j u b l i hol: (jussasi kichikroq bo'lgani uchunmi) u azaldan novcha, norg'ul odamlarni yoqtirar, ko'proq o'shanaqalar bilan do'st tutinmoqqa intilar edi.* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. *Xususan, bunday yumushlar xizmatkorlarga buyurilsa, bu hech qanday t a a j j u b l a n a r l i hol hisoblanmaydi.* Oybek, Qutlug' qon. *Ularning munosabati g' a l a t i edi. Yosh yigit bilan qiz, so'lim xiyobon. Lekin na bir-biriga termulish bor, na entikish, na ishq-muhabbatdan she'rxonlik.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Ammo uyga qaytganimda g' a l a t i xabarning ustidan chiqdim.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin.

AJABLANMOQ, TAAJJUBLANMOQ, HAYRON BO'LMOQ, HAYRON QOLMOQ, HAYRATLANMOQ, HAYRATDA QOLMOQ, HAYRATGA TUSHMOQ Voqea-hodisa yoki harakat-holatning mohiyat-sababini tushunmay, anglab yetmay qiziqsingan holda hayronlikka tushmoq. **Ajablanmoq, taajjublelanmoq** so'zlarida hayronlikka qaraganda qiziqish kuchliroq ta'kid olgan. **Hayron bo'lmoq, hayron qolmoq** so'zlarida esa qiziqishga qaraganda hayronlik holati ko'proq ta'kidlangan. **Hayratlanmoq, hayratda qolmoq, hayratga tushmoq** so'zlarida hayronlikning yuqori darajasi bir qadar ijobiy munosabat bilan birga ifodalangan.

Otabekning bu javobidan yolg'iz Akram hojigina emas balki, majlisning boshqa a'zolari ham a j a b l a n d i l a r. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Xizmatdosh hamkasblari hech gapdan bexabar, uning Samarqandda bunchalik uzoq qolib ketganiga a j a b l a n i b, o'sha yoqda kasal-pasal bo'lib qoldimikan, degan gumon bilan yurishgan ekan.* E.A'zam, Navoiyni o'qigan bolalar. *Xayolingiz qaerda, nima so'zlayapsiz oyi? Tuzukkina gapiring! – dedi Gulnor t a a j j u b l a n i b.* Oybek, Qutlug' qon. *Farhod hali Gulya bilan xayrlashayotganida nimadandir t a a j j u b l a n g a n e d i, hozir bu gapni eshitib batamom dong qotdi.* E.A'zam, SHovqin. *Zabarjad h a y r o n b o' l i b dahlizga qadam bosadi-yu, serrayganча qotib qoladi.* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Pakana u yerga kiringach, h a y r o n q o l a d i: tartibga soladigan narsaning o'zi yo'g'-u bunda!* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. *Tavba, shu joyda ham buloq bor ekan-da! – dedi oqsoqol h a y r a t l a n i b.* A.Asil, Olqor, nega ko'zing to'la yosh. *Mulla Fazliddin g'alati bir tush ko'rib uyg'ongan odamday h a y r a t l a n i b qolaverdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Matluba sport bilan ko'p qiziqmas edi, musobaqaga yig'ilgan olomoni ko'rib h a y r a t d a q o l d i.* O.Yoqubov, Matluba. *Xonadagilar shaffof oynak oldida to'planib, bir zum h a y r a t d a q o l d i l a r.* T.Malik, Falak. *Uning bir qaynovi ichida bo'lgan odamligini bilib qolganimga qaramay, h a y r a t g a t u s h d i m.* O'.Umarbekov, Mening o'g'ilbola jiyanim.

AJIN, TIRISH, BURUSHIQ. Teridagi yo'l-yo'z, botiq chiziqlar (asosan, yuz va peshonada bo'ladigan). **Ajin** so'zi, aosan, yuz va peshonadagi shunday izlar ifodasi uchun qo'llanadi. **Tirish, burishiq** so'zlari ayni ma'noga ko'ra mazkur sinonimik qatorga kiradi, ammo boshqa ma'nolari (terining har qanday joyidagi botiq izlar) bilan bu qatordan tashqaridadir.

Cholning chuqur ko'zlariga, peshonasidagi qavat-qavat a j I n lariga tikildi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Kechasi uxlamaganidanmi, kampirning ko'zlari kirtaygan, katta cho'qqi burnining ikki chetidagi, peshonasidagi a j I n lari chuqurlashgan, o'ziyam xiyol cho'kkan, eski tivit ro'molidan chiqib turgan sochlarining oqi ko'paygan edi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Folbin ingichka, uzun, qop-qora habashday, ko'zlari g'ilaynamo, sirli qiyofadagi yuzm qat-qat t i r i sh.* Oybek, Bolalik. *Dehqon tuproqqa botib arava ostidan chiqdi. Ko'ziga tushgan katta eski qalpoqni ko'tardi, juldur choponning etagi bilan b u r u s h i q peshanasining terini artdi.* Oybek, Qutlug' qon. *U oltmish besh yoshlarda, eti suyakka yopishgan, chuvak yuzi va peshanasi chuqur chiziqlar – b u r u s h i q lar bilan quyuq qoplangan kam soqol keksa edi.* Oybek, Qutlug' qon.

AJRATMOQ I, AYIRMOQ. Birgalik holatidan chiqarmoq, butun holatidan alohida qilmoq. **Ayirmoq** so'zida ko'proq so'zlashuv tiliga xoslik seziladi.

Biroz hordiq chiqargandan so'ng, qizi va xotiniga qarab, uy ichiga kirib o'tirish kerakligini, u hozir Yo'Ichini chaqirib, kun kech bo'lmasdan, ikkovlashib qo'yni so'yib, go'shtini go'shtga, moyini moyga a j r a t m o q ch i ekanini bildirdi. Oybek, Qutlug' qon. *Yo'q, chuchvarani xom sanabsan! Samig'jondan a y i r i b b o' p s a n meni!* O.Yoqubov, Matluba. *Muzaffarshoh*

ehtiyotkorlik qilib orqaroqda turgan edi, darhol o'zining odamlarini ayirib olib, Patan tomonga qochdi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

AJRATMOQ II, AYIRMOQ, FARQLAMOQ, FARQ QILMOQ. Bir tur deb qaralgan narsalar yoki voqea-hodisalarning farqiga bormoq, o'rtadagi farq-ayirmani bilmoq, idrok qilmoq. **Ayirmoq** so'zida so'zlashuv tiliga xoslik, **farqlamoq, farq qilmoq** so'zlarida esa yozma nutqqa xoslik ko'proq seziladi.

O'g'lim, sen bir qadar oq bilan qorani ajrat olasan, yozg'anlarimni diqqat bilan o'qi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Ko'p odamlar ot bilan xachirni ajrat olmaydi. Bunga hech narsa deb bo'lmaydi. Bu mumkin, chunki ular bir-birlariga o'xshab ketadilar. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Bosib o'tgan rabotlarining barchasi bir-biriga o'xshash: bir suratda, bir qolipda, bir usulda ishlangan: biridan ikkinchisiga ko'chib borgan kishi avvalgisidan bunisini ayirmoq uchun o'tkir zehn sohibi bo'lmog'i lozim edi.* T.Malik, Savohil. *Uydagi narsalarni bir-biridan g'ira-shira ayirishga imkon beruvchi «jinchiroq» ham ko'rinmaydi, uy ichi qalin tutun.* Oybek, Qutlug' qon. *Tillani jezdan farqlamoq esa sizu bizdan, odil vatandosh!* E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. *Bu – gavharni shisha sinig'idan farqlayolmagana zargar zargarmi, degani emasmi?* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. *Olis-olislarda chiroqlar miltillab ko'rinardi. Yo'l yuqorilab borgan sari ko'kda goh yonib, goh so'nib turgan son-sanoqsiz yulduzlardan farq qilib bo'lmaydi ularni.* O'.Umarbekov, SHirinsoy oqshomlari. *Holbuki, yaxshini yomondan farq qilmoq uchun ularni o'rganib chiqmoq kerak.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni.

AKA, OG'A 1. Bir ota-onadan tug'ilgan farzandlar orasidagi katta o'g'il (keyingi kichiklariga, ukalariga nisbatan). Bu ma'nodagi **og'a** so'zi shevaga xosdir.

Yigitning aka si eshik orqasida turgan edi, bir zumda Komissar ro'parasida paydo bo'ldi. U ukasiga o'xshab iymonib turmasdan, chaqqon kelib Komissar bilan qo'shqo'llab so'rashdi. T.Malik, Ov. *Mohira oyim eridan fikr so'rash o'rnig'a qizig'a arz qiladir va Xushro'y munga qolganda quloq qoqmaydir. Bu roziliqni eshitib otasi va o'g'a si juda so'yinishadirlar.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

2. O'zidan katta er kishiga murojaatda unga hurmat yuzasidan ishlatiladi (bunda yakka holda yoki nutq qaratilgan shaxsni bildiruvchi so'z bilan birgalikda qo'llanadi). Tabiiyki, **aka** so'zining qo'llanishi faoldir.

Shunda Nosirjon unga sovuq tikilar, gapi ado bo'lgach: «Oxun aka, siz ovqatni biling... Muhabbat boshqa narsa!..» deb yo'lakka chiqib ketar edi. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi. *Ajablanmangiz, boy aka kelishimda bir majburiyat bor.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Men sizga aytсам, Bahriddin o'g'a miz ko'zdan-da yaqin, jigardan-da afzal bir birodarina qayushib, ul og'asina yaxshiliklar sog'inadur.* M.Mansur, Judolik diyori. *O'g'a, sog' borsangiz, avval Dadamlarga salom ayting.* Hamza, Salom ayting.

AKS, TESKARI, QARSHI, QARAMA-QARSHI, ZID, TERS, CHAPPA Bir-birini inkor etadigan, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan holatdagi. **Qarama-qarshi** so'zida inkorning ikki tomonlama ekanligi ta'kidi qabariq ifodalangan. **Teskari, ters** so'zlarida "odatdagi, to'g'ri deb qabul qilingan holatga qarama-qarshi holatdagi" tarzidagi ma'no ta'kidi mavjud. Bunday ma'no ta'kidi **chappa** so'zida ham bor, ammo bu so'z ko'proq shevaga xos deb qaraladi. **Zid** so'zi ko'proq adabiy nutqda qo'llanadi.

Mengboy hayrat bilan: «Bu xotinimning aks i, xuddi o'zim istagan qiz», deb o'yladi. Sh.Xolmirzayev, Farzand. *Tavba, daryo ko'rinishda bir tomonga va bir xil oqayotganga o'xshasada, uning bag'rida turli xil va bir-biridan butunlay farq qiladigan oqimlar bo'larkan: biri umumiy oquvga bo'ysunib, boshqasi teskari tomonga oqar ekan.* U.Hamdani, Muvozanat. *Ha, yaratishda unga baxt va'da qilishdi, yaralgandan so'ng ayovsiz aldashdi, aldovga qarshi bosh ko'targani uchun o'ldirishdi.* A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. *Ularga umuanfaat yo'lida murojaat qilsangiz, bajonidil yordam beradilar, hech bo'lmasa, ko'nglingizni ko'tarishadi, to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatishadi, foydali maslahatlarini ayashmaydi. Bunga qarama – qarshi o'laroq oramizda shundaylar ham borki, yo'q bo'lsang, berolmaydi, bor bo'lsang, ko'rolmaydi.* A.Asil, Bunyodkorlik o'zimizga bog'liq. *Siz yana avvalgi e'tiqodlaringizga zid gapirmoqdasiz.*

P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Birin-ketin xizmatchilar keldi. Bir ayol raisga ko'zi tushib, ch a p p a burilib qochdi. Bir ayol yuzlarini changallab, o'tirib qoldi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Shunday dedi-yu, supa labiga borib, t e r s o'tirib oldi.* O'.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar.

ALANGA, YOLQIN Yonib turgan olovning yuqoriga ko'tarilayotgan va yorug'lik tarqatayotgan qismi. **Yolqin** so'zida yorug'lik ta'kidi kuchliroq.

Uning oldida bakni qaynatishyapti, shekilli, bak karnayidan qizil a l a n g a chiqib qolardi. Sh.Xolmirzayev, O'zbek xarakteri. *Tashqarida shamol uvullar, burchakdagi tunuka pech otashxonasidan lop-lop etib a l a n g a chiqar, shunda otashxona o't purkovchi afsonaviy ajdarning komiga o'xshab ketardi.* Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. *Atlas ko'ylagi olov yo l q i n ida tovlangani ham esimda.* I.Sulton, Genetik. *Sovutgisi kelar ko'ngil bulog'ida* Saratonning lov-lov yo l q i n in. A.Muxtor, Umid.

ALBATTA, SHUBHASIZ, MUQARRAR, SO'ZSIZ, ANIQ, TAYIN, SHAKSIZ, BESHAK. Bayon qilayotgan fikrning rostligiga so'zlovchining qat'iy ishonchini yoki biror narsa-hodisaning umuman chinligini ifodalaydi. **Albatta** so'zi so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan fikriga qat'iy ishonchini bildiradi va gapda, asosan, kirish bo'lak bo'lib keladi. **ShHubhasiz, so'zsiz, shaksiz, beshak, begumon** so'zlari mazkur ma'no ifodasi bilan gapda kirish bo'lak vazifasida ham, gaping odatdagi bo'laklari vazifasida ham kelaveradi. **Beshak** so'zi ko'proq yozma nutqqa xos, eskirgan. **Muqarrar, aniq, tayin** so'zlari mazkur ma'no bilan faqat gapning odatdagi bo'laklari vazifalarida keladi.

Bizda ishlaydiganlar, a l b a t t a, kamida ikki-uch hunarni egallagan bo'lishi kerak, amolaykim boshlig'imiz o'g'ilbola yigit, sizning ahvolingizni hisobga oladi. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Hikmatillo uni qayerdadir ko'rgan, bu miqti, pakana yigit boshqa gruppada bo'lsa ham, sh u b h a s i z, texnikumda birga o'qigan, lekin xotirani qarang, ismi yodidan ko'tarilgan edi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *O'zlari kelsalar, mudarris janoblari ham manzur bo'lishlari sh u b h a s i z.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U umrini boy bermagan bo'lsa, ketayotgan yo'li jarga olib borayotganini bilib qolsa va undan qaytish xohishi bo'lsa, to'g'ri yo'lni topib olishi m u q a r r a r.* S.Ahmad, Ufq. *Bilganingda edi, s o' z s i z, hasaddan O'shal quvonchimga solarding og'u.* E.Vohidov, SHE'r dunyosi. *Qiz ularning bolalarini boqadi, kirlarini yuvadi, uy-joylarini yig'ishtiradi va har qanday yumushni s o' z s i z bajaradi.* Oybek, Qutlug' qon. *Qora domla shularni o'yladi, ammo-lekin savob degan so'z ham ko'nglining allaqaerida aylanishgani a n i q.* A.Muxtor, Qora domla. *Tunda u yoqqa yurib o'tirmang. Yo'llar ham o'zgarib ketgan. Yana adashishlaring t a y i n.* Sh.Xolmirzayev, Olis yulduzlar ostida. *SHunda men aytardim baralla, sh a k s i z, To'xta, ey daqiqa, go'zalsan g'oyat!* E.Vohidov, She'r dunyosi. *Qayu millatda maktab o'lmasa, b ye sh a k, xarob o'lgay, Hama millatda shul-chun guftugo' bisyor maktabdan.* Hamza, Maktab. *Hoji aziz afandim ozoda ishfurushlik, B e sh a k erur gumonda qaytib borib ko'rushllik.* G'urbat, Muxammas.

ALDAMOQ, LAQILLATMOQ, AVRAMOQ Turli yolg'on-yashiq gaplar, va'dalar bilan yo'q narsaga ishontirmoq, to'g'ri yo'ldan chiqarmoq. **Aldamoq** so'zi biror maqsadga erishish uchun yolg'on gapirib, birovni noto'g'ri harakatga ko'ndirish ma'nosida ham, umuman, yolg'on bilan yo'q narsaga ishontirish ma'nosida ham qo'llanadi. **Laqillatmoq** so'zi yolg'on-yashiq so'zlar bilan bo'lishi mumkin bo'lmagan narsaga ishontirish, soddaroq kimsani yolg'on bilan chuv tushirish ma'nosida ishlatiladi. **Avramoq** so'zi ma'nosida juda ustalik, ayyorlik bilan aldash ta'kidi mavjud.

Bo'ladi, – dedim men, – lekin yolg'on bo'ladi-da. Odamlarni a l d a b nima qilamiz? – Nega a l d a r e k a n s a n? – dedi Nurmat aka. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Anzor allanarsa deb go'ldiray boshlagai edi: – A l d a m a! – dedi Shahlo. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. Demokratiya emish! L a q i l l a t m o q c h i ekansan, sotsializm nafasi yetib bormagan biror yurtdan kelgan biror anoyini topib l a q i l l a t g a n i n g ma'qul edi, tovarish Yak!. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpapaklar mamlakati. Yigit rostdan tushunmadimi yo l a q i l l a t y a p t i m i deb, o'ylanib, unga qattiq tikildi. T.Malik, Shaytanat. Umida past sinf o'quvchilaridan bittasini a v r a b boya bozorga ketayotganimizda, ataylab o'sha ko'chaga turg'azib qo'ygan, qizcha esa bizni xuddi

burnimizdan ip bog'lab tortgandak aldab-suldab maktabga olib kelgan. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam.

ALDAMCHI, FIRIBGAR, LO'TTIBOZ, TOVLAMACHI. Kishini aldashga, avrashga, laqillatishga usta. **Aldamchi** so'zi ko'proq umuman aldash bilan shug'ullanuvchiga nisbatan qo'llanadi. **Firibgar** so'zi ma'nosida hiyla-nayrang, firib bilan aldash ta'kidi mavjud. **Lo'ttiboz** so'zida mantiqsiz dalillar, shumliklar bilan aldash harakti ta'kid olgan. **Tovlamachi** so'zi ma'nosida ham aldash, ham asossiz qo'rqitish bilan harakat qiluvchi ma'nosi ochiq ifodalangan, ko'proq og'zaki nutqqa xos.

Biladi, bilmasa, firmaning ishlari bunchalik yurishib ketmasdi. A l d a m c h i, qalloblar bilan kim munosabat qilgisi, ish yuritgisi keladi? O'.Umarbekov, Olamushuk. Soqchilarga yolg'on muhrlar ko'rsatishga uyalmadingizmi, a l d a m c h i p i r? P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Zohidga bir narsa qorong'i – kim bu, Komilov, chayqovchimi, imorat ustasimi... Yo boshqa bir f i r i b g a r mi? T.Malik, Shaytanat. Ish bilan bo'lib ketganimda, kim biladi, bu f i r i b g a r, harom odamlar qafasiga tushmasmidim, balki? O'.Umarbekov, Oyning oltin o'rog'i. Men u l o' t t i b o z larga ishonmayman. Asablari zaif odamlarni laqillatishadi. T.Malik, SHaytanat. Qutuldim necha qish, necha yozlardan, Faqat qutulmadim l o' t t I b o z lardan. A.Oripov, Lo'ttiboz. Tag'in ne kerak – olinglar. Ammo yo'l-yo'lakay hududim ichida paydo bo'lg'on barcha qaroqchilar, bebosh t o v l a m a c h i l a r, choparlar va ayg'oqchilarimiz joniga qasd qilayotg'on barcha kallakesarlarning payini qirqib, toki men qaytguncha yurtda osoyishtalik o'rnatmoqlaring darkor! O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat.

ALDOQCHI, ALDAMCHI, YOLG'ONCHI, VA'DASIZ. Aytgan gapini bajarmaydigan, gapining ustidan chiqmaydigan, yolg'on gaplarni gapiraveradigan. **Va'dasiz** so'zida bu ma'no ochiqcha ifodalangan.

Ularning bari a l d o q c h i, bari yurtimizni zaharlaydi, bari iflos! Man ularni juda yaxshi bilib olganman. Oybek, Qutlug' qon. Boy bo'lasiz degandi Fol ochib bu a l d o q c h i, Ertasiga uyimni Urub ketdi qaroqchi. A.Obidjon, Qorinbotir. Otabek nihoyatsiz «bo'lg'ani yo'q» dan zerikib qaradi: – A l d a m c h i. – Bu aldashlar – aldash emas, siz hali qarab turing, qochqoq. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Jadidlarga endi ishonib qoldim. Ulardan yo l g' o n c h i chiqmaydi. Yaxshi odamlar! Cho'lpon, Kecha va kunduz. Yo l g' o n c h i o'z gapiga go'llik bilan quloq soluvchini topsa, ularga yolg'onni chinga o'tkazsa, murodiga yetgan bo'ladi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. Ul bir tomondan shunday orzu-havas uchun bola o'sdirg'an ota-onani mukofotlandirmakchi va otasi aytgan xijolat chekdirmayturg'an o'g'ullardan bo'lmoqchi edi ersa ham, ikkinchi yoqdan, o'zini asir etkan shahlo ko'zlar unga nafratlanib qarag'andek bo'lurlar, go'yoki vafosiz, v a' d a s i z, deb qichqirarlari edi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

ALLAKIM, KIMDIR, BIROV Qandaydir noma'lum shaxsni ifodalovchi gumon olmoshi. **Birov** so'zida begona ma'nosi qabariq holda ifodalangan.

Allaqayga a l l a k i m ning xoli chorbog'iga bazm qilgani borishgan ekan, o'sha a l l a k i m ning otasi allaqanday ulfatlarini boshlab kelib qolibdi – bular shaharga qaytishga majbur bo'lishibdi. E.A'zam, Shovqin. Farhod metrodan chiqqach, maydonni kesib vokzal sari borayotganida ko'cha shovqini ora k i m d i r otini aytib chaqirayotgandek bo'ldi. E.A'zam, Shovqin. Bolam, yig'lama, ko'z yoshingni yut, b i r o v ko'rmasin, dedi uning qulog'iga shivirlab, Ermat shu zahoti yaktagining yengini ko'ziga surtdi. S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda.

ALLAQANCHA, BIR QANCHA, BIR NECHA, BIR TALAY, KO'PGINA Qanchaligi noma'lum miqdorni ifodalovchi gumon olmoshi yoki shunday ma'nodagi ifoda. **Allaqancha, bir talay, ko'pgina** so'zlarida noma'lum miqdorning anchayin kattaligi ta'kidi bor. **Allanecha, bir qancha, bir necha** so'zlarida esa noma'lum miqdorning nisbatan kichikligi ta'kidi mavjud.

Bizningcha bir yarim soat, Otabekcha a l l a q a n c h a yil hisoblangan bir fursat o'tib, nihoyat, yangalar kuyav so'radilar. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. U kishi hali past-baland tog' yo'lidan shu ahvolda a l l a q a n c h a yo'l bosishi kerak. S.Ahmad, Zumrad. Xolnisa, Asal xola va b i r q a n c h a xotinlar tugun-tersak ko'tarib, ular bilan salomlashib, o'tib ketadilar. S.Ahmad, Kuyov. Hojar buvi anchagina o'qimishli ayol bo'lib, b i r q a n c h a kitoblarni, dostonlarni yod bilardi, yoshligida Anbarotinga ergashib, b i r q a n c h a g'azallar ham bitgan edi. O'.Umarbekov,

Odam bo'lish qiyin. *Birpasdan keyin u parqu to'shakda, chetlari chetlariga moslab buklangan yashil, silliq, yaltiroq ellik so'mlikdan b i r t a l a y ini kaftida silab o'tirar, lekin ko'zlari yoshli edi.* Sh.Xolmirzayev, Kimsasiz hovli. Ayni vaqtda Amir Bahlulning ruxsati bilan sharqqa taxta ortib ketayotgan aravalarga *SHerxonning xufiyalari b i r t a l a y qilich-qalqon va nayzalarni yashirib qo'ydilar.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Tong g'ira-shirasida boshlangan dahshat b i r n ye ch a soat ichida Humoyun qo'shinini tor-mor qildi, ne-ne yigitlar suvga g'arq bo'lganini uning o'zi ko'rdi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ollohning inoyati bilan k o' p g i n a davlatlar qatori O'zbekiston ham istiqlolga erishdi.* U.Hamdani, Muvozanat. *SHuning uchun Samadning yordamida u qishloq arxitekturasiga oid k o' p g i n a kitoblarni, plakat va loyihalarni yozdirib olgan, uyi ustaxonani eslatardi.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin.

ALOQA, DAXL, TAALLUQ Biror shaxs yoki narsaga munosabat – tegishlilik holati. **Aloqa** so'zida ayni ma'no umuman ifodalanadi, **daxl** so'zida tegishlilikning zichligi qabariqroq anglanadi. **Taalluq** so'zi hozirgi tilda faol emas. Mazkur so'zlar ayni ma'noda kelganda, ko'pincha egalik qo'shimchasini taqozo etadi.

Xullas, hamma hodisa va ular asosida paydo bo'lgan nazariyalarning tafakkurga a l o q a s i bor. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Adib qaysi tilda asar yozsa, o'sha xalqning yozuvchisi hisoblanadi. Bu o'rinda millatning d a x l i yo'q.* O'.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. *Asad qori... so'nggi hikoyaning ham o'ziga t a a l l u q i yo'qday, bez bo'lib o'tiraverdi.* M.Ismoilov, Farg'ona tong otguncha.

ALOQADOR, BOG'LIQ, DAXLDOR, TEGISHLI, OID, TAALLUQLI Muayyan bir narsa-hodisaning boshqasi bilan u yoki bu darajadagi bog'lanishi, aloqasi mavjud. Shuning uchun bu so'zlar mazkur ma'noda qo'llanganda, o'zlaridan oldin jo'nalish kelishigi (-ga qo'shimchasi)ni taqozo etadi. **Oid, taalluqli** so'zlari ko'proq kitobiy nutqqa xosdir. **Tegishli** so'zi ayni ma'noda kam qo'llanadi.

Boshqa ish bo'lsa kerak, chamamda, faqat Usmonjonning o'ziga a l o q a d o r bo'lgan ish. O'.Umarbekov, Sevгим-sevgilim. *Mahalliy xalqning milliy qadriyatlariga a l o q a d o r barcha osori-atiqalar yer bilan yakson qilindi.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *O'zlari bilan b o g' l i q birorta voqeani, albatta, bo'rttirib, eshitimli qilib gapirardi.* A.Meliboyev, Qirq beshinchi bekat. *Kelolsangiz yaxshi bo'lardi – sizga d a x l d o r boshqa gaplar ham bor.* E.A'zam, Shovqin. *Fazliddindan uzoq vaqt xabar olmaganim, unga tayinli yordam ko'rsatolmaganim uchun bu ta'na-dashnomlar menga ham t e g i s h l i edi,* Alqor, nega ko'zing to'la yosh. *Meditinaga o i d kitoblarni o'qib o'zida o'n ikki xil kasallik borligini «kashf» qilibdi.* T.Malik, Falak. *Ustozlar bemorni, uning xastaligiga t a a l l u q l i yozuv-chizuvlarni, dori qog'ozlarini sinchiklab ko'zdan kechirishdi, o'zlari tushunadigan tilda ixchamgina mashvarat o'tkazishdi.* X.Do'stmuhammad, Kuza.

AMAL QILMOQ, RIOYA QILMOQ Biror odat-qoida, tartib, ko'rsatma dorasida ish tutmoq. **Rioya qilmoq** so'zida talab-qonunga bo'ysunish, itoat qilish ta'kidi qabariqroq ifodalangan.

Kumushning go'zallik ta'rifini g'oyibona eshitib, og'zining suvi kelguchi xotinliq va xotinsiz orzumandlar «yotib qolg'uncha, otib qol!» so'ziga a m a l q i l i b, qutidornikiga sovchilarni turnaqator yubora boshlag'an edilar. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Agar haqiqiy qonunlarga a m a l q i l i n g a n d a, uni yo otish, yo umrlik surgun qilish shart edi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *Biroq bu mahallaning shumtaka erkak bolalari «kelin chimchilash» degan eski odatga juda r i o y a q i l i s h a r e k a n.* Oybek, Qutlug' qon.

AMALLAMOQ, ILOJINI TOPMOQ, AMAL-TAQAL QILMOQ. Biror ishni bajarish choralarni topib, nihoyasiga yetkazmoq. **Ilojini topmoq**da qanday qilib bo'lsa-da, yechim yo'lini qo'lga kiritish ta'kidi, **amal-taqal qilmoq**da esa yengil-elpi yo'l bilan harakatni amalga oshirish ta'kidi mavjud.

Ana shunda men Umrzoq akadan bir a m a l l a b so'radim. Sh.Xolmirzayev, Ko'k dengiz. *Bu qiyomat ur-yiqitdan qochib qutulushning i l o j i n i t o p g a n filbonlaru otliqlar jon-jahdlari bilan qochishga tushdilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Temir sandiqqa solib ko'mib tashlasang ham i l o j i n i t o p i b teshib chiqaveradi.* T.Malik, Devona. *Qarz olay desa, tanishlar ta'tilda. Borlari*

ham a m a l – t a q a l q i l i b k u n k o ' r y a p t i . U . H a m d a m , M u v o z a n a t . A l b a t t a a v v a l l a r g i d e k e n d i t o ' y i b o v q a t l a n a o l m a s , q o g ' o z l a r g a c h a l a - c h u l p a o ' r a b k e t i l g a n n a r s a l a r b i l a n a m a l – t a q a l q i l a d i . O ' . U m a r b e k o v , U r u s h f a r z a n d i .

AMALDOR, MANSABDOR, A'YON. Muayyan mansab-lavozim egasi, rasmiy boshqaruvda muayyan vazifani bajaruvchi. **Mansabdor** so'zida lavozimning balandligi ta'kidi kuchliroq. **A'yon** so'zi eskirgan.

Hokimiyat o'z g a r g a n d a n k e y i n a m a l i d a n a j r a l g a n i l g a r i g i a m a l d o r l a r « S h a y b o n i y x o n n i n g o d a m l a r i S u l t o n A l i m i r z o n i h a m n o m a r d l a r c h a o ' l d i r d i l a r » d e b x u n t a l a b q i l i b c h i q d i l a r . P . Q o d i r o v , Y u l d u z l i t u n l a r . S o b i r o v a o p a o ' n s a k k i z y o s h i d a m a n s a b d o r b o ' l d i . O ' s h a n d a u y o z u v n i z o ' r g ' a o ' q i y o l a r d i . S h . X o l m i r z a y e v , K e c h a g i k u n k e c h a . B u t u n M a r g ' i l o n a h l i o y o q q a q a l q d i . S h a h a r a ' y o n l a r i B o b u r k e l i b t u s h g a n k o ' s h k k a b o r i b , u n i g ' a l a b a b i l a n q u t l a d i l a r . P . Q o d i r o v , Y u l d u z l i t u n l a r . K o ' s h k d a n y a s o v u l c h i q i b , b o g ' d a m u n t a z i r t u r g a n l a s h k a r b o s h i v a a ' y o n l a r n i x o n h a z r a t l a r i y u q o r i g i q a v a t g a k e n g a s h g a c h a q i r g a n i n i a y t d i . P . Q o d i r o v , Y u l d u z l i t u n l a r .

AMMO, LEKIN, BIROQ. Gap bo'laklari yoki qo'shma gap qismlarini zidlash munosabati bilan bog'laydigan zidlovchi bog'lovchi. **Ammo** so'zi umuman zidlik munosabatini ifodalaydi. **Lekin** so'zi mazmunan zid bo'lsa-da, biri ikkinchisini inkor etmaydigan gaplar yoki gap bo'laklarini bog'laydi. **Biroq** so'zi mazmunan avvalgisiga tamoman zid bo'lgan fikrning boshlanishini anglatadi.

S o ' z i n g i z n i n g t o ' g ' r i l i g ' i d a s h u b h a y o ' q , – d e d i , – a m m o s h u n i h a m q o ' s h m o q k e r a k k i , o l a d i r g ' o n x o t i n i n g i z s i z g a m u v o f i q b o ' l i s h i b a r o b a r i d a e r h a m x o t i n g ' a m u v o f i q u t t a b ' b o ' l s i n . A . Q o d i r i y , O ' t k a n k u n l a r . K o ' k t o y o ' r n i d a n t u r d i , b o ' y n i n i c h o ' z i b , d u m a l o q t u m s h u g ' i n i p a s a y t i r d i , d u m i n i l a p a n g l a t d i , a m m o k e l i s h g a j u r ' a t e t o l m a d i . S h . X o l m i r z a y e v , J o ' r a b o s h i . J o ' r a n i n g y o s h l i k d o ' s t l a r i – o ' z i d e k l o ' p p i , l y e k i n b o ' y i p a s t , x u s h c h a q c h a q m i l i t s i o n e r N o d i r v a r e d a k t s i y a x o d i m i – b u r n i u z u n , q o r a c h a I m o m c h o r p o y a y o n i d a b i t t a d a n u s t u x o n n i k e m i r i b t u r i s h a r e d i . S h . X o l m i r z a y e v , S a y r . K o ' n g l i n g g a q a r a , b o l a m ! L e k i n u y l a n s a n g , s h u n d a y b i r o v i n i t o p i b x o t i n q i l g i n k i , s i r a - s i r a j o n i n g g a t e g m a s i n ! N e c h a y i l o ' t s a h a m ! E . A ' z a m , J a n n a t o ' z i q a y d a d i r . G a r a j d a m a s h i n a m b o r , b i r o q u n i y u r g i z a d i g a n o d a m y o ' q . S . A h m a d , M u k a m m a l i n s o n s u v r a t i . U h o m i l a d o r x o t i n g a s a m o v a r k o ' t a r t i r i b , q a r a b o ' t i r g a n p o c h c h a s i d a n o ' p k a l a m o q c h i e d i , b i r o q u y a l d i , i n d a m a d i . A . Q a h h o r , A d a b i y o t m u a l l i m i . A g a r d a d u n y o d a n o ' t a y o z g ' a n b i r k e k s a n g i z n i n g m a s l a h a t i g a q u l o q b e r s a l a r i n g i z b u f i k r i n g i z d a n q a y t i n g , b u r o d a r l a r !

ANIQ, OCHIQ, YAQQOL, RAVSHAN, YORQIN, OYDIN, AYON Ko'rish, eshitish, tushunish, idrok qilish uchun qulay, mavhumlik, mujmallik va yanglishlik tug'dirmaydigan ifodaga ega. **Aniq** so'zi mazkur ma'noni to'lasicha ifodalaydi. Bu so'z ba'zan **tiniiq** so'zi bilan birga **aniq-tiniq, ravshan** so'zi bilan birga **aniq-ravshan** juft so'zlari tarkibida keladi va ularda mazkur ma'no yanada teranroq o'z aksini topadi. **Ochiq** so'zida yanglish tushunishga olib kelmaydigan ma'nosi qabariqroq ifodalangan. **Yaqqol** so'zida ko'rish va eshitish asosidagi belgi ta'kidi mavjud. **Ravshan** so'zida belgining har jihatdan to'laligi o'z ifodasini topgan. **Yorqin** so'zining ma'nosida ko'rish va eshitish asosidagi belgining o'ta ochiq va ta'sirli darajadali ta'kidi bor, ko'proq yozma nutqda ishlatiladi. **Oydin** so'zining ma'no ottenkasi **yorqin** so'zinikiga yaqin, kuchli ta'kidga ega.

H a , h a - a ! – d e b y u b o r d i Z i y o a k a v a b i r o z o ' y l a n g ' a d a n k e y i n s o ' r a d i , – b u n i s i z a n i q b i l a s i z m i ? A . Q o d i r i y , O ' t k a n k u n l a r . O t a b e k k a m a h r a m b o ' l i s h g ' a l o y i q b i r m e h r i b o n c h i l i q q a e g a b o ' l g ' a n l i q d a n x o ' j a z o d a s i b i l a n o c h i q s o ' z l a s h i s h f i k r i g a k e l d i . A . Q o d i r i y , O ' t k a n k u n l a r . U o d a m l a r n i n g k o ' z l a r i d a g ' a z a b y a s h i n i n g y a n a k u c h l i r o q y o n g a n i n i , o t u v c h i l a r g a q a r s h i d a h s h a t l i a d o v a t m a v j l a n g a n i n i y a q q o l k o ' r d i . O y b e k , Q u t l u g ' q o n . B i r n a r s a s h u o ' n k u n i c h i d a u n g a r a v s h a n b o ' l g a n e d i . O ' . U m a r b e k o v , O t a v a o ' g ' i l . A d i r t a r a f d a n k e l a y o t g a n q o ' y - e c h k i l a r m a ' r a s h i b i l a n c h o ' p o n l a r o v o z i t o b o r a y o r q i n r o q e s h i t i l d i . T . M u r o d , Y u l d u z l a r m a n g u y o n a d i . O ' z x a l q i n i n g v a v a t a n i n g a h v o l i t o ' g ' r i s i d a v a u n i n g z o l i m X i s r a v q o ' l i d a t a l o n - t o r o j b o ' l i b y o t g a n i d a n s o ' z l o v c h i b u x a t d a S h H i r i n n i n g q i z l i k n o m u s i , u n d a g i i f f a t , b o k i r a l i k , h a y o v a o d o b h a m y o r q i n i f o d a q i l i n g a n d i r . H . O l i m j o n , " F a r h o d v a S h i r i n " . S h l y a p a l i o d a m r a y o n k a t t a l a r i n i y i g ' i b d i . K a l k a t t a n i o ' r t a g a o l i b d i . A n a s h u n d a m a s a l a o y d i n b o ' l i b d i . T . M u r o d , O t k i s h n a g a n

oqshom. *Sharif Namozov bilan suhbatlashsang ko'p narsa o'y d i n bo'ladi.* T.Malik, Shaytanat. *Asadbekning belgilangan joyga, belgilangan soatda kelmasligi, yo yarim soat avval, yo keyin paydo bo'lishi ham unga a yo n.* T.Malik, Shaytanat. *Shu bois Sultonmurod taqdiriga doir hozircha muallifga a yo n tarixlardan bir qismini to'rtinchi kitobning ilk bobi sifatida taqdim etishga jur'at qildik.* M.Mansur, Judolik diyori.

ANQAYMOQ, ANGRAYMOQ, AG'RAYMOQ, LALLAYMOQ Es-hushini yo'qotganday, hayronlik bilan loqayd qaramoq. **Angraymoq, ag'raymoq** so'zlarida hayronlik belgisi qabariqroq, **lallaymoq** so'zida bo'shshaganlik, shalviraganlikdagi loqaydlik ta'kid olgan.

Yo'lchi bir minut a n q a y i b q o l d i-da, yukni nari-beri orqalab, ularning iziga tushdi. Oybek, Qutlug' qon. *Uning shirin so'zligidan va savlatidan ayam a n q a y i b q o l d i.* A.Qahhor, O'tmishdan ertaklar. *Berdiqulov jo'nadi. Sattorov a n q a y i b ketidan qarab qoldi.* S.Nazar, Boylik. *Boysunga tushaman deb yotib eding, Xurram? Ha, a n g r a y i b q o l d i n g m i.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. - *Hamon a n g r a y i b qarab turgan qatron kal, gaplarimni-da a n g r a y i b eshitdi!* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Kampirning ketidan o'rta yashar ozg'in bir erkak yugurib chiqdi-yu, otiqlarni ko'rib, qo'rqqanidan bir lahza a g ' r a y i b turib qoldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Xonzoda begim esa hali ham podshoh ukasining kirishini kutib, eshikka olazarak bo'lib qarar edi. Bobur opasiga a g ' r a y i b qarab qoldi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Kecha, «Ke, nima bo'lsa bo'lar» dedim-u, baqato'nning tagiga kirib olib, uning yo'lini poylay boshladim. Bir vaqt l a l l a y g a n i ch a suzib kepqoldi.* A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. *Bilishing kerak edi. Og'zingga pashsha o'tirib ketsa ham l a l l a y i b yotaver, «bilibmanmi...».* T.Malik, Shaytanat.

ANQOV, OVSAR, DOVDIR, ANOYI, GO'L, LAQMA, PANDAVAQI. Es-hushini kerak narsaga vaqtida qarata olmaydigan, aqlini ishga solishga tanballik qiladigan, zehni normal darajadan past, gapga hadeganda tushunib yetolmaydigan. **Merov** va **ovsar** so'zlarida hushyorlik, ziyraklikning yo'qligi ta'kid olgan. **Dovdir** so'zida fikrlashda mantiq muvozanatining yetarli emasligi ta'kidi sezilarli. **Anoyi, go'l, laqma** so'zlarida soddaligi natijasida laqillashga moyil ma'nosi qabariq ifodalangan. **Pandavaqi** so'zida mazkur ma'no tarkibida epsizlik ta'kidi anglanadi.

Birga borsang oyog'ingga kuydirgi chiqarmidi, muncha noshud-notavon, muncha ham a n q o v -lakalov bo'lmasang! A.Qahhor, Dahshat. *U bir m e r o v, laqma ekan. Bek akang qanday qilib uni yonida olib yuribdi?* T.Malik, Shaytanat. *Yo gapning fahmiga yetmaydi, yo izzat-nafs deganini xudo ko'p ko'rgan. O v s a r, d o v d i r roq.* E.A'zam, Guli-guli. *Bu charxchi a n o y i emas, pichog bahona meni poylayotgandir.* T.Malik, So'nggi o'q. *E, yo'q, u o'qqa ko'krak tutib beradigan a n o y i l a r dan emas.* T.Malik, Savohil. *Men-ku ko'r, nodon ekanman, yaxshi-yomonni bilmaydigan g o' l ekanman, odamlarga nima bo'ldi?* E.Vohidov, Ikkinchi tumor. *L a q m a bo'lmasam, Yo'lchining qamoqxonada chirishini istagan odamlardan uni qutqarishni umid qilarmidim?* Oybek, Qutlug' qon. *Bu p a n d a v a q i lar nima deyishayotganlarini o'zlari ham bilishmaydi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Men p a n d a v a q i shu gapga ishonib o'tiribman! Ular men yo'ldaligimdayoq boshqa rejani tuzib qo'yishgan ekan!* M.Mansur, Judolik diyori.

ARANG, ZO'RG'A, ZO'RG'ATDAN, BAZO'R, O'LIB-TIRILIB Katta qiyinchiik-mashaqqat bilan, ko'p kuch sarflab. **Arang** va **zo'rg'a** so'zlari keng qo'llanadi. **Zo'rg'atdan** so'zi so'zlashuv nutqiga xos. **Bazo'r** so'zi ko'proq kitobiy nutqqa oid, shuning uchun nsibatan kam qo'llanadi. **O'lib-tirilib** so'zida belgilining ortiqligi ta'kidi mavjud, so'zlashuv nutqiga xosligi seziladi.

Ming mashaqqat bilan turib, gandraklay-gandraklay a r a n g aravaga yetib oldim-u shaharga jo'nadim. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. - *Alimardon hozir uning yuragiga bigiz sanchishidan zavqlanar, ich-ichidan toshib kelgan kulgisini a r a n g bosib turardi.* O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Azizxon bu suratni ko'rib qolib, oynani sindirib suratni yirtib tashlagan, katta janjal chiqib, z o' r g' a milisiya qo'lidan qochib qolgan edi.* S.Ahmad, Ufq. - *Oddiy-oddiy savollarimizga ham sarosimaga tushib, asabiylashib, ikki muovin o'zaro uzoq muhokama qilib, tortisha-tortisha, so'ng z o' r g' a javob qilishardi.* E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. - *Sizga kim kerak, o'zi? Biz bu yoqlardan ko'chib ketganmiz. - Qang'li desa, «qani, qani»lab z o' r g' a t d a n topib keluvdim.* M.Mansur, Judolik diyori. *Z o' r g' a t d a n sudralar duch kelgan yoqqa, Urinmas hattoki tezroq uchmoqqa. "Mushtum". Uzoq vaqt kesak kabi*

harakatsiz qolg'ach, kuch orqasida tilimni b a z o' r shu so'zga harakatlantirdim: – Joyi yaxshi bo'lsa, o'ylab ko'rish kerak...A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Olomon tarafma-taraf bo'lib to'zib ketdi, domla bilan so'fi o'zlarini b a z o' r chetga olishdi. L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. Manglayiga bir umr o' l i b – t i r i l i b xizmat qilishu achchiq-tiziq gaplar eshitish yozilgan ekan. A.Samad, Qaniydi. Byurokrat. Kechalari uxlamay, o' l i b – t i r i l i b sizga xotin tayyorlab bergan ekanman-da, a? Sh.Boshbekov, Temir xotin.

ARDOQLAMOQ, E'ZOZLAMOQ, E'ZOZ ETMOQ, PAPALAMOQ. Izzat-ehtirom, g'amxo'rlik, ardoq hissi bilan munosabatda bo'lmoq. **Ardoqlamoq** so'zida suyish-g'amxo'rlik ma'no qirradi qabariq ifodalanadi. **E'zozlamoq, e'zoz etmoq** so'zlari ko'proq kitobiy uslubga xos bo'lib, unda hurmat va g'amxo'rlik ta'kidi yanada kuchli ifodalanadi. **Papalamoq** so'zi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, unda ehtiyotlash, suyish-erkalash ta'kidi kuchliroq.

Vey, mani qanaqa a r d o q l a sh a r d i. Hammasi kaftida ko'tarardi, desam ishonovuring, do'stim. Sh.Xolmirzayev, Bulut to'sgan oy. *Mustaqilligimizga baholi qudrat hissa qo'shayotganlarni a r d o q l a b, xizmatiga yarasha taqdirlayapti.* S.Ahmad, Umrin bayoni. *U bechora endi barcha azob-uqubatlardan qutulib, Samarqand qizlari orasida eng mo'tabari bo'lishini, hamma uni «yosh podshohimizning qallig'i», deb e'zozlasha ni bilarmikin?* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O'shda qurgan kichik bir hujrasi uchun Bobur mirzo uni shunchalik e'zozlagan edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *O'g'izlarda o'zidan yoshi ulug'larni ne deb e'zoz eta dilar?* N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Kelishda xushxabar birla kelibsana, Ketishda na'rali ovoz etib ket. Bu mushkul hola tushganlarga homiy, O'zing, qadrimga yet, e'zoz etib ket.* Charxiy, G'afur G'ulomga hasbi holim. *Bir kuni doimgidek uni papa lab ketayotganimda, birdaniga oldimdan to'siq chiqib qoldi.* A.A'zam, O'zim bilan o'zim. *Bevaligiga qaramay, papa lab o'stirayotgan to'ng'ich qizining dardi Soliya opani gangitib qo'ygan edi.* A.Muhiddin, H.Tojiboev, Otash qalbli qiz.

AVAYLAMOQ, AYAMOQ, EHTIYOT QILMOQ, ASRAMOQ, ARDOQLAMOQ, Nodurust, nomaqbul ta'sirdan, salbiy hodisadan himoya qilmoq, ehtiyotli holatda tutmoq. **Avaylamoq, ayamoq** so'zlarida harakatning noziklik bilan voqelanishi qabariq ifodalanadi. **Ehtiyot qilmoq** so'zida alohida ta'kid kuzatilmaydi. **Asramoq** so'zida harakatning davomligi aniq seziladi. Ba'zan bu so'z **avaylamoq** so'zi bilan birga **asrab-avaylamoq** tarzidagi juft so'z tarkibida ham qo'llanadi va bu juft so'z ma'nosida ehtiyotlash harakati yanada kuchli ta'kid oladi. **Ardoqlamoq** so'zida harakatning g'amxo'rlik bilan bajarilishi ta'kidi mavjud.

Ko'p yillardan beri bir-birimizni avaylab, bir-birimizga dilni og'ritadigan biron so'z aytmay, bir-birimizni sog'inib, bir-birimizni ehtiyoqlab yashadik. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Bo'lg'usi kelinlarga xos iffat bilan boshlarini xiyol egib, bir-bir bosib borayotgan bu qizlarni, yangi chust do'ppilarini peshanalariga qiya qo'ndirib, qayliqlarini avaylab gina qo'ltiqlab olgan yosh kuyovlarni ko'rganida yana Nilufar esiga tushib, yuragi zirqirab ketdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ayaga ko'zga cho'p tushganday, shuncha asralgan narsa yirtilib-netmasin.* M.Mansur, Judolik diyori. *Axir, u temir-ku, Qo'chqor aka, temir!.. Uni avaylab sh kerak, ehtiyoqlab kerak!.. U o'zini o'ylamaydi, qiynalib ketdim, deydigan tili yo'q.* Indamas ekan, deb eshakday ishlataverish kerakmi, axir?! SH.Boshbekov, Temir xotin. *Omin! Hamma balo-qazolardan xudo o'ziasrasin, Ollohu akbar! O'.Umarbekov, Sevgim-sevgilim. Endi navbat xarobaga aylana boshlagan, lekin qolgan qismi ko'z qorachig'idek asrab-avaylab saqlanayotkan mashhur Rim kolizeyini ko'rish, tomosha qilishga.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *“Kuch–adolatdadir” degan e'tiqodni mening dilimga jannatmakon otam ham singdirganlar, bu qilichni asrab-avaylab menga yetkazib berganlar.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Biz maktab bolalariga, qushlarni sevinglar, ardoqlanglar, deb o'rgatamiz.* Sh.Xolmirzayev, Kulgan bilan kuldirgan. *Ishqu ilhom junbushiga tushgan rassom kela solib, bisotida ardoqlab yurgan bir taxta nafis xitoyi karton bilan suvbo'yoqlarini hozirlab qo'ydi.* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli.

ARMIYA, QO'SHIN, LASHKAR. Davlatning qurolli kuchlari majmui yoki uning biror qismi. **Armiya** so'zi, asosan, qurolli kuchlarning barchasi ma'nosida qo'llanadi, **Qo'shin** so'zi esa

ko'proq armiya tarkibidagi muayyan qism ma'nosida ishlatiladi. **Lashkar** so'zi anchayin eskirgan va ko'proq kitobiy, poetik nutqda qo'llanadi.

Muxtorjon kuzakda a r m i y a ga ketish oldidan keksa o'rik tagiga shu piyozni sepkan edi. O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. *Hikmatillo o'girilib qaradi: shundoq oldida egnida ohak yuqqan ishchi jomakori, qo'lida andava bilan bolg'acha solingan eski sumka, burni puchuq, pakanagina bir yigitcha, xuddi a r m i y a dan qaytgan o'z akasini ko'rganday, xushnud jilmayib turardi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Qo'mondoni qochgan q o' s h i n ning qo'lidan nima ish kelardi.* S.Ahmad, Ufq. *Dushanbega qaytish dahshati uni o'rab-chirmab olgan: axir, u qochoq holatida q o' s h i n dan ajralgan edi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *Ibrohimbekning l a s h k a r i jang maydonini katta talofatlar bilan tashlab chiqib, Amudaryo tarafga chekindi.* K.To'ramurod. *So'nggi bek. Ming-ming toshbaqa ming-ming qozon atrofida aylanib, ko'zga ko'rinmaydigan necha yuz ming l a s h k a r bo'ldi.* A.Qahhor, Ming bir jon.

ARQON, ARG'AMCHI. Zig'ir, kanop kabi o'simliklar tolalaridan, ipdan yoki jundan eshib tayyorlangan, bog'lash uchun ishlatiladigan buyum. **Arg'amchi** so'zida bu buyumning kichikligi, nibatan ingichkaligi ta'kidi mavjud, shuningdek, bu so'z ko'proq shevaga xosdir.

Toshkand olomonining talablari bilan Azizbekning ikki oyog'idan a r q o n bilan bog'lab otning chovig'a sudratma qildilar. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Ko'chaning u boshida rais kattakon semiz qo'yning quyrug'iga a r q o n solib sudrab kelmoqda edi.* A.Qahhor, Kampirlar sim qoqdi. *Botir firqa yo'lida davom etdi. Hokimiyat oldi yo'laqdan yurdi. Yo'lakdan boqqa bordi. Bog' aylanasi a r g' a m ch i ip bilan o'ralmish bo'ldi. A r g' a m ch i ni har-har yerida qizil bayroqchalar ilig'lik bo'ldi.* T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi.

ARG'IMCHOQ, HAYINCHAK, HAYINCHALAK, HALINCHAK. Uchib o'ynash uchun baland yog'ochga, ko'pincha, daraxt shoxiga osilib, uchlari qo'shib bog'langan uzun arqon-moslama. **Arg'imchoq** so'zida bu moslamaning nimadan qilinganligi ta'kidi bor, **hayinchak**, **hayinchalak** so'zlarida esa o'ynash jarayoniga daxldor "hay-y" tasviriy so'ziga ishora ohangi seziladi. SHunindek, keyingi ikki so'z ko'proq shevaga oid. **Halinchak** so'zi aynan **hayinchak** so'zi bilan tengdir.

Baribir maynalarni o'ldirolmaysan, – dedi tolning soyasida a r g' i m c h o q uchib o'tirgan jajji Shahodat beparvo qiyofada. G'.Shermuhammad. *Langartog' yo'lida. Aksiga olib, uyda kattalar bo'lmadi. Ikkita o'smir qiz a r g' i m c h o q uchib o'tirgan bo'ldi.* R.Xolbek, Qora yo'rg'a. *Bu yerda tikilgan o'tovlarning, gurillab yonayotgan gulxanlarning, gulxan atrofida o'tirgan odamlarning son-sanog'i yo'q. Qizlar h a y i n c h a k uchib qo'shiq aytishmoqda.* Ch.Aytmatov, Oq kema. *Ota terdi maymanchak, Ona terdi maymanchak. Qizi esa o'ynadi, Shoxni qilib h a y i n c h a k.* A.Obidjon, Qorinbotir. *Menga desa, bo'ynimga h a y i n c h a l a k solib uch, – deb tirjaydi Cho'tir pahlavon.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Uzun-uzun arg'amchi-yo H a l i n c h a k ka, Chakan ko'ynak yarashar Kelinchakka. Chakan ko'ynak yengiga Tut qoqaylik. Xalq qo'shig'i. H a l i n c h a k bir chap sayin, bir o'ng sayin yuqorilab turdi. Qiz h a l i n c h a k uchishga qarab, goh o'tirdi, goh turdi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

ASABIY, TAJANG, JIZZAKI, JIRRAKI, JIRTAKI. O'rinli-o'rinsiz sababga ko'ra qizishib, tutaqib ketaveradigan, salga jahli chiqaveradigan. **Asabiy** so'zida mazkur holat belgisi ortiqroqligi qabariq ifodalanadi. **Tajang** so'zida har narsadan keraksiz qizishaverish ta'kidi mavjud. **Jizzaki**, **jirra**, **jirtaki** so'zlarida mazkur holatga tushayotgan shaxsning haqli emasligi ochiqcha ifodalanadi, shuningdek oxirgi ikki so'z so'zlashuv nutqiga xos.

Kuchli issiqdan nafas bo'g'iladi. Bozorning g'ovur-g'uvuri avjda, odamlar a s a b i y, qo'pol. Oybek, Qutlug' qon. *Soqchilar bu yerda poyloqchi bo'lib o'tirganlaridan juda a s a b i y edilar. Chunki hozir boshqa g'oliblar Bobur tarafdorlarining molu mulklarini talon-toroj qilib boyimoqda edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bir t a j a n g uyg'ur yigit sochini ustarada qirdirib yayrab kelayotgan ekan, qayoqdanam ari uchib kelibdiyu naq boshini chaqibdi.* T.Malik, SHaytanat. *Keyin o'zi Mirhosilning yonidan joy olib, t a j a n g oshnasini sovutish maqsadida tizzasiga shapatilab urib qo'ydi.* T.Malik, Xazonrezgi. *Bir bola asabiyroq – arzimagan narsaga jazavaga tushadi, ikkinchisi dimog'dor, uchinchisi chiranchoq, to'rtinchisi arazchi, yana hasadgo'y, j i z z a k i, takabbur, shuhratparast.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. *Urush*

ko'rganlarning aksari asabiy, mendan battar j i z z a k i. T.Malik, So'nggi o'q. Xoldor serzarda va j i r r a k i bo'lishiga qaramay, po'lat jussasi tangabaliqni eslatuvchi oshnasini nohaq o'kintirmas, qo'pol tabiatli Supersur o'zicha xo'jayinchilik qilib bo'yin cho'zgan vaqtda u doimo Avtobolaning yonini olardi. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. Avvalgi kuni biznikilarga to'rt-u ellik besh hisobida yutqazib qo'ygan quyimahallaliklar bu safar boplab o'ch olish niyatida eng j i r r a k i o'yinchilarini saralab kelishgandi. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. Zokirjon haddan tashqari j i r t a k i, asabiy bo'lib qolgandi. F.Musajonov, Bahor nafasi.

ASAL, BOL O'simlikla gulidagi shiraning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo'ladigan shirin, suyuq oziq mahsuloti. **Asal** so'zi ma'nosida shirinlik darajasi ortiqroq ta'kid olgan

Oltita sedonali issiq non, shisha bankada a s a l ko'tarib, ordenlarini jaranglatib, xandon-xushon Normat kirib keldi. S.Ahmad, Azob. Mana, nonushtaga Urgutning a s a l idan olib keldim. Ma'qul bo'lsa, ertaga bir flyaga tashlab ketaman. S.Ahmad, Azob. Sensiz tomog'imdand choy tugul, b o l ham o'tmasligini bilmaysan go'yo. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. Mening yorim qoracha, xoldekkina, Arining dumidagi b o l dekkina. Bizning ahvol – quymichga ari bosib Belangi davolagan choldekkina. E.Vohidov, Mening yorim. Dedi: Kim aydi sanga ayo zor – Bo'lsun maningdek mahvashga xushtor, Oson emasdur bo'lmoq xaridor SH a h d u shakarlab qoshi qarog'a. Hamza, Yo'lda yo'luqdim.

ASIL, SARA, SARXIL, MUMTOZ, POSHSHAXON. Sifati, fazilati, qimmatini va boshqa xususiyatlari jihatidan eng yuqori darajali, eng yaxshi. **Asil, sara** so'zlari shaxsga nisbatan ham, narsa-predmetlarga nisbatan ham qo'llanaveradi. **Sara, sarxil** so'zlarida saralab, tanlab olingan eng yaxshilari ma'nosi qabariq ifodalanadi. **Mumtoz** so'zi kitobiy bo'yoqqa ega, **poshshaxon** so'zi esa shevaga oid bo'lib, so'zlashuv nutqida qo'llanadi.

Kambag'alning qizi ochko'z, molparast bo'lmasdan iloji yo'q. Uydagi hamma a s i l buyumlarni o'zi egallab oladi. Oybek, Qutlug' qon. Buning uchun barcha qonuniy asoslar ham, yangicha sharoitda faoliyat ko'rsatishga shay turgan a s i l, fidokor nomzodlarimiz ham yetarli. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. Davlatpanoh Sohobqiron hazratlari amr qiladurlar: ushbu farmoni oliy yetib borg'on kundan boshlab hududsiz davlatimizdagi barcha bekat va rabot nozirlari choparlar va ayg'oqchilar uchun eng s a r a otlar, eng tez chopar yuguruk tuyalarni shay qilib qo'ysunlar! O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. Birinchi va ikkinchi guruhlar yasog'lik uylarda o'tirishadi. Ovqatlarning s a r a s i ularga tortiladi. Oybek, Qutlug' qon. S a r x i l mollar tijoratini boshlaganimdan beri ikki yil o'tib ketibdi, dastmoyam ham harholda besh-olti hissaga ortib yomon bo'lmadi. U.Ibrohim, Qalbi gul. U yo'rg'a eshagi ustiga ikki ko'zi turshag-u bargak, anor-u nashvati, behining s a r x i l i bilan to'lgan jundan to'qilgan ola xurjunni ortib, o'zi Xo'jand qaydasan, deb yo'lga piyoda tushdi. Mirmuhsin, Temur Malik. Xonaqoni m u m t o z ustalar qurib edi. T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. Lekin SHarkda mash'al charog'on yurtim, Olamda tengi yo'q, o'lkadur m u m t o z. E.Vohidov, O'zbekiston. Elmurod ham yigitlarning p o s h s h a x o n i-da! Mayli ikkovi qovushsin. SHuhrat, SHinelli yillar. –Husnda tengi yo'q. Qizlarning p o s h s h a x o n i. –Bilar ekansiz, hazratim, O'zi ham o'n yettidan o'n sakkizga o'tib turibdi. Mirmuhsin, Cho'ri.

ASIR, TUTQIN, BANDI. Dushman tomonidan ozodlikdan, erkinlikdan mahrum qilingan shaxs. **Tutqun** va **bandi** so'zlari ayni ma'noda eskirgan va ko'proq tarixiy matnlarda qo'llanadi.

SHaharning qoq markazidagi bu koshonani bino etishda urushdan keyingi yillar harbiy a s i r l a r mi, allaqanday ajnabiylarmi qatnashgan, degan gap yuradi. E.A'zam, SHoirning to'yi. A s i r l a r – harbiymi, siyosiyimi, jo'ngina jinoiyimi yoxud o'zinikimi, begonami – farqi yo'q, aybi bo'lsa bas. E.A'zam, SHoirning to'yi. O'g'lingizning salomat ekani, qaroqchilar qo'lida t u t q u n ekani, yorug' dunyoda tirik yurgani meni bag'oyat xursand etdi. Mirmuhsin, Temur Malik. Ozodlikda ularning atrofida ozmi-ko'pmi sog'lom muhit bo'ladi. T u t q u n lar esa bundan mahrumlar. T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. SHoir b a n d i, SHE'ri biroq Uchar edi beto'siq, Himolaydan oshib Uzoq – Ketgan edi bu qo'shiq. E.Vohidov. Ruhlar isyoni. Zindondagi b a n d i ni hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi? Cho'lpon, Kecha va kunduz.

ASIRLIK, ASORAT, TUTQINLIK, QULLIK. Ozodlikdan, erkinlikdan mahrum qilingan holat. **Asorat** soʻzi koʻproq kitobiy nutqqa xos. **Asirlik, tutqunlik, qullik** soʻzlaridagi maʼno nozikligi, ular oʻrtasidagi mazmuniy farq mazkur soʻzlarning oʻzaklaridan anglashilib turadi.

Soʻnggi yillardagi a s i r l i k kulfatlaridan yuzida ajinlar koʻpaygan, yoshi qirqdan oshib, qalin qora soqoliga oq oralab qolgan edi. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Aybi boʻlmasa ajralarmidi? A s i r l i k d a boʻlgan ekan, nimalar qilgan u yokda, kim biladi?! Oʻ.* Umarbekov. *Sevgim-sevgilim. Faqat Askariyani emas, hali Komronning oʻzini ham bu a s o r a t d a n kimdir qutqarmasa, butun umri va otameros isteʼdodi hayf ketadi.* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Ilojini topsangiz, bizni bu yovuz odamlarning a s o r a t i d a n qutqaring!* P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Oʻn bir yil t u t q u n l i k da yashagan yaponlar shu topda ozodlik deb atalgan buyuk bir olamga qadam bosa boshladilar.* S.Ahmad, Oftob oyim. *SHu oʻrinda mantiqsizlik borday koʻrinadi: oʻsmir t u t q u n l i k davrida ozodlikka intildi, koloniyadagi tartiblardan bezdi. Endi oʻtmishni qoʻmsashini nima deb asoslash mumkin?* T.Malik, Jinoyatning uzun yoʻli. *Mayli, qaysilarimiz noahildirmiz, boshqadirmiz, lekin oʻzbekimiz, «oʻz»imizga «bek»imiz. Q u l l i k n i hazm qila olmaymiz.* T.Malik, SHaytanat. *Bu qamoqlar, xoʻrlklar uni sindiribdi. Uzoq vaqt q u l l i k d a oʻtgan odam qoʻlidagi kishanga muhabbat qoʻyadi, deyishadi.* T.Malik, Soʻnggi oʻq.

ASLO, SIRA, ASTI, ZINHOR, MUTLAQO, HECH. Inkorni taʼkidlaydi. SHuning uchun ham ayni maʼno ifodalanganda, boʻlishsiz feʼl yoki inkor mazmunli soʻzlar bilan birga keladi. **Asti** soʻzi soʻzlashuv tiliga xos. **Zinhor, mutlaqo** soʻzlari koʻproq kitobiy nutqda qoʻllanadi. **Zinhor** soʻzi **zinhor-bazinhor** tarzidagi juft soʻz tarkibida ham keladi va inkorning oʻta qatʼiyligi qabariq ifodalanadi. Baʼzan inkorni yanada kuchliroq ifodalash maqsadi bilan mazkur sinonimik qator soʻzlari takroriy soʻzlar shaklida ham qoʻllanadi.

Kim alam chekmabdi umrida bir bor. U meni anglamas, anglamas a s l o! A.Oripov, Qirq yosh. *Sendan elu yurtning tonmasin a s l o, Sendan oʻgirmasin yuzini Vatan.* A.Oripov, Soʻnggi chora. *Endi qaytib kelmas u damlar s i r a, Shul sabab dilda gʻam, koʻzlarimda yosh.* A.Oripov, Xayrlashuv. *Yirokda sogʻindik bir-birimizni, Diydor koʻrishganda s i r a toʻymadik.* E.Vohidov, Darddoshlik. *Lekin oʻsha gʻurbatni Suymaydi jinim. Soatlab muk tushishga Sabr yoʻq s i r a.* E.Vohidov, Siyosiy saboq. *Nihoyat, sovqotayotganini, oyoqlari karaxtlanganini sezib tursa-da, bu tansiq holatdan oʻzini opchiqish haqida a s t i oʻylamay, sekingina archa tagiga kirdi.* Sh.Xolmirzayev, Boychechak ochildi. *Ana, oʻzi tengi qariyalar ham unga izzat-ikrom koʻrsatadi...* SHu koreys oʻrtoqlar ham eski mijozlarini a s t i unutishmaydi. Sh.Xolmirzayev, Qariya. *Dasti qisqalarni kamsitma z i n h o r, Savobning katta-yu kichigi boʻlmas.* A.Oripov, Savob. *Dasti qisqalarni kamsitma z i n h o r, Savobning katta-yu kichigi boʻlmas.* E.Vohidov, Ajab ermas. *Buning m u t l a q o ahamiyati yoʻq. Bir shaharda boʻlishadi, shuning oʻzi kifoya.* Oʻ. Umarbekov, *Odam boʻlish qiyin. Uni darrov tushunish, gapirayotganida xayolida nimalar kezayotganini bilish ancha qiyin, koʻpincha esa m u t l a q o mumkin emas edi.* Oʻ. Umarbekov, Sevgim-sevgilim. *Biron joyda shikastlanib yotib qolsang, h ye ch chalqancha yotma.* Sh.Xolmirzayev, *Omon ovchining oʻlimi. Tavba, unda h ye ch kutilmagan holat yuz berdi. Chuqur hayrat bilan Eshvoyga qaradi.* Sh.Xolmirzayev, Qumrilar. *Qoratoy yugurib kirib, shaq-shaq titragan holda “Z i n h o r – b a z i n h o r ovoz chiqarmaysanlar” deb, yana eshikka yugurgach, Unsin ham, kampir ham harakatsiz, tilsiz qotib qolishdi.* Oybek, Qutlugʻ qon. *Endi asta-sekin sovish, chalgʻish, unutish, oldingisiga a s l o – a s l o oʻxshamagan ovunchoqlar, boshqa dardu balolar gʻami... Yozuvchi akaxoning aytganidek, bari oʻtar ekan.* E.Aʼzam, SHovqin. *Ammo shu onning oʻzida u yigitdan... bir qasd olmasa, uni bir marta dabdalasi chiqqanini koʻrmasa, s i r a – s i r a xumordan chiqmasligini his qildi.* Sh.Xolmirzayev, Xorun ar-Rashid. *Odam uchrasin! Menga odam kerak-ku?! Lekin hayvon uchramasin, h ye ch – h ye ch! Unda holim xarob boʻladi.* Sh.Xolmirzayev, Zov ostida adashuv.

ASOSAN, BINOAN, KOʻRA, MUVOFIQ. Sabab, asosga uygʻunlik munosabatini bildiradi. Ayni maʼno bilan koʻmakchi vazifasida keladi va joʻnalish kelishigidagi soʻz bilan qoʻllanadi. **Binoan, muvofiq** soʻzlari koʻproq kitobiy nutqqa xos. **Asosan, koʻra** soʻzlari esa yozma nutqda ham, ogʻzaki nutqda ham qoʻllanaveradi.

Mazkur tarxga a s o s a n rasadxona yuqorisidagi togʻning toʻshida oraligʻidagi masofa yetti gaz keladigan ikkita oʻzaro yondosh tosh devor oʻrnatilmogʻi lozim. N.Jaloliddin, Umar

Xayyom. *Mana shu masalada sizning kashfiyotlaringiz, ta'bir joiz bo'lsa, qo'lbola biologiyaning kashfiyotlari – bu odam tabiatiga chuqur kirib borish, aslida inson shaxsini qayta qurish, ...keyinchalik esa sun'iy tug'iladiganlar matritsasiga a s o s a n butun insoniyatni qayta qurish imkoniyati demakdir.* Ch.Aytmatov, Oxirzamon nishonalari. *Har kungi odatiga b i n o a n, mo'ysafid xayollarining jilovini bo'shatdi.* X.Do'stmuhammad, Jajman. *Maydonga yana ikkita piyoda askarlar rotasi kirib keldi-da, saf boshidagi yag'rindor ofitserning komandasiga b i n o a n to'rtburchak hosil qilib to'xtadi.* X.Sulton, Bunchalar shirinsan, achchiq hayot! *Hasanali o'tkan faslda Homidning o'z og'zidan xotinlarig'a qarshi qamchi ishlatkanini eshitkan edi.* SHunga b i n o a n uning bu oxirg'i jumlasini Homidni yerga qaratib, lom deyishka majol bermay qo'ydi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. *Cho'lponning badiiy niyatiga k o' r a, aytib o'tilganidek, romanning ikkinchi qismi «Kunduz» deb atalishi lozim edi.* N.Karimov, Cho'lponning “Kecha va kunduz” romani to'g'risida. *Ayrim kishilar bergan xabarlariga k o' r a, muallif bu qismni yozib tugatgan, hatto u hibsga olingan paytda asar grankasi (bosma varaqalari) tayyor bo'lgan.* N.Karimov, Cho'lponning “Kecha va kunduz” romani to'g'risida. *Men chet ellarda safarda bo'lganimda turli sababga k o' r a xorijda qolib ketgan vatandoshlarni ko'rganman.* E.Vohidov, Istanbul fojiasi. – *Men sizning “amringizga” m u v o f i q chiqq'an edim. – Amringa m u v o f i q mi? – dedi Anvar va Ra'noning ko'ziga to'g'ri qarab iljaydi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Onasi Hokim oyimning vasiyatiga m u v o f i q, 1286- nchi yilda “Hokim oyim madrasasi” deb mashhur madrasani, yana shu yilda Amir Umarxon tarafidan asosi qo'yilg'an ma'lum yangi o'rdani ham tevaragida bog' va gulzorlari bilan ishlatib bitirdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

D harfi

DAVOLAMOQ, TUZATMOQ, SHIFO BERMOQ, SHIFOLAMOQ 1. Muolaja qilish orqali bemorni sog'aytirmoq. **Davolamoq** so'zida dori-darmon, maxsus muolaja orqali sog'ayish semasi ustuvor. **Tuzatmoq** so'zida esa kasallikdan xalos qilish ma'nosi yetakchilik qiladi. **Shifolamoq** so'zi nutqda kam qo'llaniladi. **Shifo bermoq** so'zi so'zlashuv nutqida uchraydi.

Yetmishboyevning qon bosimi ko'tarilib, “Tez yordam” chaqirdik,baqir-chaqirdan sal qutuldik — janjal tinchiguncha d a v o l a n d i. A.A'zam, Asqartog' tomonlarda. *Aslida esa organizmingni o'zingdan yaxshiroq biladigan, vujudingda nimalar bo'layotganini sendan yaxshiroq sezadigan odam yo'q. Tashxisni sen qo'yishing kerak, shifokorlar esa d a v o l a s i n.* A.Muxtor, Chinor. *Uni Murod Vohidovich degan do'xtir d a v o l a d i.* O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. – *Undoq bo'lsa, oyog'ingizni shu bugunoq t u z a t i b qo'yganim bo'lsin. – U shunday deb yonidagi hamshiraga yuzlandi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ibn Sinoga kasalning joni chiqmagan bo'lsa, bas ekan, t u z a t a r ekan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Bir sohilga berib yuksak martaba, Boshqa bir sohilni qilding xokisor? ... U kun bo'yi Giyoh terib Kezib tog'-u biyobon, Odamlarga sh i f o b e r i b Yashar ekan Shodumon.* E.Voxidov. *Hozir tabiblar yetib keladur! Ollo sh i f o b e r s a otday bo'lib ketursan, ini-jonim.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Olti oy ichida sh i f o l a n i b, yana o'z maktabimga qaytganimda, she'r yozish xayollari mendan yiroqlashdi. Filfakda o'qib yurgan kezlarimda yoshlik va muhabbat savdolari meni yana she'r yozdira boshladi.* M.A'zam, She'r inson quvonchi va iztiroblarini o'zida aks ettiradi. *Katta ayvon chiroyli oyinaband, Hamma eshiklarda gulpayvand. Charx urib keldim-u davolandim. Dard ketdi, sh u f o l a n d i m.* Charxiy, Qiyolab o'tdi. *Xo'jayinlar ham qiziq, uka, men aniq bilaman, oldingi katta xo'jayinni shu odam sh i f o l a g a n.* T.Malik, Shaytanat.

DAVOLAMOQ, TUZATMOQ, SHIFO BERMOQ, SHIFOLAMOQ 2. Kasallik yoki og'riqni muolaja, doir-dormon bilan to'xtatmoq.

– *Sening ilm-u fuzul aro shuhrating, Ustodi Soniy noming g'alatmi? Sen bu ofatning qayoqdan kelganini, nima ekanini bilmaysanmi?– Bilaman, shoh. Lekin d a v o l a sh qo'limdan kelmaydi.* A.Muxtor, Chinor. – *Xo'sh, ustod? Bu qanday ofatdir va biz uni qay yo'sin d a v o l a y olurmiz?* A.Muxtor, Chinor. *Sohibqiron: (Og'ir hansirab). Yo'q, endi sening dori-darmonlaring sh i f o b e r m a s! Saroybon qayda?* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Luqmoni hakim xastaning bilak tomirini ushlab ko'rib debdilarki: – Dardingizga davo bor. Ilon zahri sizga sh i f o b e r g a y.* T.Malik, Shaytanat. *Odamning joni og'rib turganida ko'ziga pul ko'rinmaydi. “Mana, ming so'mni oling-u t u z a t i n g”, deydi. Og'riq to'xtagach, ming so'mni ataganini unutib, “qo'l haqi” deb bir*

so‘mgina tashlaydi. T.Malik, Shaytanat. – *Moshtabibning o‘g‘li bo‘lsang o‘zing t u z a t a s a n, boshqa gap yo‘q. Gips qo‘yishni bilmaydigan do‘xtiringga boshqa bormaydi.* T.Malik, Shaytanat.

DAYDI, DARBADAR, SANQI (SANG‘I), SAYOQ, BEKORCHI. Har yoqda sanqib yuradigan, vaqtini behuda sarflovchi, daydi. Darbadar, sanqi, bekorchi so‘zlarida salbiy bo‘yoq bo‘rtib turadi.

– *O‘lganing yaxshi edi, d a y d i! Tag‘in uyalmasdan kelib, ko‘zimga baqrayib qarab turganini qara!* A.Muxtor, Chinor. *Hamma joyda, peshlavlarda o‘zining otini ko‘rib orqaga qaytdi, kaltak yegan d a y d i kuchukdek o‘zini panaga oldi. Odamlardan qo‘rqadigan bo‘lib qoldi.* A.Muxtor, Chinor. – *Shundaymi? – yigit bu yangilikdan ajablanmay, bamaylixotir ravishda sigaret tutatib, Tengizni ham lufan siyladi. – Siz s a n q i o‘g‘rilardan emassiz, Aliyev, o‘qigan odamsiz.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Buning boisi, yaqinginada lak-lak sherdil yigitlari bilan suron-u vahima solib, yurt so‘rab yurganligi-yu, bugun xo‘jasinikidan quvilgan s a n q i itdek yarim tunda ot ixtiyorini o‘ziga qo‘ygancha betayin-bemavrid yo‘lga tushganligi ham emas.* Sh.Bo‘tayev, Qora tuman. – *Erkalikni Begimqulga qiling. Bu kishiga o‘pich berib... menga erkalanish... ko‘chada qolgan s a y o q qizlarga ham yarashmaydi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ha, u xuddi o‘g‘rilik qilib qo‘lga tushgan kissavurday, yomon yo‘lga kirgan s a y o q xotinday kaltak yedi, “o‘ynash” degan tuhmat gap eshitdi, lekin buni eshitish qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bu kaltak, bu haqorat uni Begimqulga bog‘lab turgan so‘nggi rishtalarni uzdi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Eslaysanmi, sen bilan faqat bir yilgacha totuv yashadik, xolos. Ko‘p ichadigan, s a y o q yuradigan qiliq chiqarding.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bu o‘rinda yana ota-ona va ustaning birgalikdagi to‘g‘ri munosabati muhim. Afsuski, ustalar ko‘p emas, b e k o r c h i bolalarning barchasini qanotlariga ololmaydilar.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Qurilishda har kuni o‘ralashib yuruvchi bitta b e k o r c h i kerak ekan.* T.Malik, Shaytanat.

DAYDI, DARBADAR Doimiy tarzda o‘z yashash joyiga ega bo‘lmagan, bir joyda qo‘nim topmagan, darbadar. *Egnilaridagi kiyimlariga, yelka va tizzalaridagi raqamlarga qaraganda, ko‘p yillardan beri lagerdan lagerga ko‘chib yurgan d a y d i mahbuslar ekanini darrov payqash mumkin edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Mas‘ul joylarga shunaqalar ko‘tarilib ketgan! E tavba! Jurnalga obuna-ya! Fahmingdan o‘rgildim. Yurgan bir d a r b a d a r g a.* A.A‘zam, Hali hayot bor... *...zamon shunaqa, bu ko‘rgulik bitta ularning boshiga tushayotgani yo‘q, yopig‘liq qozonni ochib o‘tirmay, uncha ham gurillamagan, muncha ham pisillamagan to‘y o‘tkazishadi, to‘ydan keyin, jigarimiz kim-kimlarning eshigida d a r b a d a r yashamasin, deb nomuslari keladimi, chog‘rok hovli olib berishadi.* A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam.

DAYDIMOQ, DAYDILANMOQ, SANQIMOQ, SAYOQLIK QILMOQ, SANDIROQLAMOQ, TENTIRAMOQ, TENTIRAKLAMOQ, LAQILLAMOQ, SALANGLAMOQ, SAKILLAMOQ. Vaqtini behuda sarflab, har yoqda tentirab, sanqib yurmoq. **Daydimiq, sanqimoq, sakillamoq** so‘zlari nafaqat odamga, balki hayvonning izg‘ib yurishiga nisbatan ham qo‘llanadi. **Sayoqlik qilmoq, sandiroqlamoq, tentiramoq, laqillamoq, salanglamoq** so‘zlari faqat odamga, uning behudaga u yoqdan bu yoqqa besamar harakatlanishiga nisbatan ishlatiladi. **Sanqimoq, sandiroqlamoq, laqillamoq, salanglamoq, sakillamoq** so‘zlarida salbiy bo‘yoq ottenkasi bo‘rtib turadi.

– *Bilasizmi, mehmon, yoz kechalari uydan d a y d i b chiqib ketaman. Osmon to‘la yulduz, oy cho‘l ustiga kelganda pastlab o‘tadi, yo menga shunaqa tuyuladimi, yo rostdan ham o‘zi shunaqami, bilmadim.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bor, qayerda d a y d i b yurgan bo‘lsang, o‘sha yerga ket. Bu hovliga qadamingni qo‘yma, jo‘na! Ko‘zimga ko‘rinma!* A.Muxtor, Chinor. *Xudoning bermish kuni og‘zida papiros, tagida matasekl, s a n g‘ i g a n i – s a n g‘ i g a n. Kim bir piyola quyib bersa — o‘shanga jo‘ra.* A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Qayoqda s a n q i b yuradi, so‘rasa, hazilga olib, kundoshingning ro‘zg‘orini butlayapman, ertaga tomini suvab beraman, deydi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Shu ishni deb ozmuncha tashvishga qoldimi, ozmuncha s a n d i r o q l a d i m i, ozmuncha sarf-xarajat qilib, ziyofat berdimi? Kechalari surib chiqadigan shirin xayollari-chi?* A.Nurpeisov, Zulmat. *Keyingi vaqtda onasiga, uning betobligiga ham e‘tibor bermay, allaqayoqlarda bir nima qidirgandek, bir o‘zi t e n t i r a b yurar, kech qaytar edi.* A.Muxtor, Chinor. *Bunday sarosimada ochlik, o‘lim jadal bosib kelayotgandek bo‘laverdi.*

Odamlar yana bir necha soat t e n t i r a s h d i, biron alaf ko 'karib ko 'ringan yo sizot suvi yilt etgan joyga yugurishdi, umidsiz qaytib yana bir yerga to 'planishdi: odam bir birini topar ekan, bir-biridan doim madad izlar, bir-biriga muhtoj bo 'lar ekan, tarqab ketishmadi. A.Muxtor, Chinor. Komila hamma narsani birdan payqadi-yu, shu ko 'yicha achchiq shamolda t e n t i r a b qirg 'oq tomon yurdi. A.Muxtor, Chinor. — Darbadarlikdan, o 'zimning simobday beqaror s a y o q l i g i m d a n juda o 'kinar edim, — dedi Shum bola. G 'G 'ulom, Shum bola. Oxiri kayfi oshib, karnaygullarning orasiga yumalab qolgan ekan, Shaxmatullo qorong 'uda t e n t i r a k l a b kelib, qiblaga tippa-tik yuzlaganicha ustiga choptirib yuboribdi. A.Obidjon, Yerliklar. Mas bo 'libmiz shekilli, deb men ham t e n t i r a k l a b borib Ahmadning yelkasidai quchdim, yana birov narigi qo 'ltig 'iga kirdi, aldab-suldab, uni uyiga sudrab ketdik. A.Obidjon, Yerliklar. Inomjon ikki marta l a q i l l a b, oxiri uning muhabbatiga sazovor bo 'lganini bilmay qoldi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Ahmoq deganimga xafa bo 'lmang, opaxon, bugun-erta xazina bor bu yerda, deb l a q i l l a b kelib qolishadi. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. — Shu vaqtgacha yurarding l a q i l l a b, faqat shaytonning mardikori eding. Bas endi, es-hushing o 'qishda bo 'lsin! — deydi ta 'kidlab. Oybek, Bolalik. Uyda o 'tirib ish qil! Do 'ppi tik! Xudoning bergan kuni tentiraysan, l a q i l l a b yurganing yurgan! Oybek, Bolalik. Charlarda bir quchoq gul ko 'tarib, s a l a n g l a b kirib kelmasdan shunaqa narsalarni olib kelsin edi... O 'Mirzayor, Sovg 'a. Yerni topaman. Zulmatdan qutulish uchun soyga qarab enaman. Oyog 'im yerga tegmaydi. Zim-ziyo xonada s a l a n g l a b q o l a d i. T.Murod, Yurt qo 'shig 'i. — Ko 'cha s a n d i r o q l a b yurgandan ko 'ra, onangga boqishsang bo 'lmaydimi, kap-katta qiz, — dedi Vasila Nazarovna uning gapini eshitmaganday. O 'Hoshimov, Sevgi qissalari. Menga qara, Zabar, birato 'la kelib menikida yashab tursang-chi? Shaharning qoq markazi, hamma sharoit muhayyo. Huuv Sirg 'alingdan s a k i l l a b yurguncha! U yoqdan semiribroq kelsam, arzon-garov qilibmi, balki butunlay o 'zingga berrorarman. A, nima deysan? E.A'zam, Jannat o 'zi qaydadir?

DAYDIMOQ, DAYDILANMOQ, DARBADAR BO'LMOQ, DARBADARLIK QILMOQ Bir joyda qo'nim topmay darbadar yurmoq. **Daydimiq** so'zining bu ma'nosida darbadarlik semasi ustun. **Daydilanmoq** so'zi nutqda kam uchraydi. **Darbadar bo'lmoq, darbadarlik qilmoq** so'zlari kitobiy uslubga xos.

...Begaliyevni, hamkasb, tanish-bilish hammasini qaytaradi, mana shu sening dunyong, Mahdi degan dunyo shu, Mahdi, d a y d i, lekin hech narsani tushuntirmadi, o 'zining ortida nimalar bor — ko 'rsatmaydi, men esam narigi yoqda sirlar raavshan, kunduzlar tiniq, tunlar yorug ' ekanini sezib turaman, usti uzoqdan ko 'z ilg 'agan shahar osmoniday nurlanib-tovlanadi... A.A'zam, Soyasini yo 'qotgan odam. So 'fi ham d a y d i s h d a n tiyildi. Necha kundan beri suhbatga ham bormaydi. Cho 'lpon, Kecha va Kunduz. Bu gal ko 'zlarimga yastangan qayg 'u. Na ota, na o 'g 'il, na oltin uzuk, Na sevgi, na hijron, na yor qayg 'usi!.. Birmuncha kun bo 'ldi, suyar yorim D a y d i l a n i b yura boshladi. Uyg 'un. Tokaygacha bir-biringizga dushmanlik va haqorat nazari ila boqajaksiz. Tokaygacha hayoti ijtimoiyaning yo 'llarina d a r b a d a r b o ' l a j a k s i z?! T.Malik, Savohil. Bolasining d a r b a d a r l i g i g a achingan ona o 'sha kuni — Zebi Saltanatlarnikiga borgan kuni: — Hunar bo 'lmay o 'lsin! — deya so 'zlandi. Cho 'lpon, Kecha va Kunduz. Siz Dildorni baxtsiz qildingiz, meni d a r b a d a r l i k k a majbur qildingiz. S.Ahmad, Ufq. Shoir qaytar edi d a r b a d a r l i k d a n, Usti-boshi yupun, yalang 'och edi. X.Davron, To 'marisning ko 'zlari.

DANGASA, YALQOV, ISHYOQMAS, TANBAL, SOYAPAR(VAR). Mehnat qilishdan qochadigan, ish qilishga hushi yo'q, yalqov. Dangasa so'zi mehnat qilib, o'zini qiynashni xohlamaydigan insonlarga nisbatan qo'llanadi. **Ishyoqmas** so'zida ish qilishga hushi yo'q ma'nosi ustuvor. **Yalqov** so'zida ishlashni yoqtirmaslik ma'nosi yuzaga chiqadi. **Tanbal** so'zi o'taketgan yalqov semasiga ega, nutqda kam ishlatiladi. **Soyapar(var)** so'zi ishlamay, soya-salqin joylarda dam olib yotishni yaxshi ko'radigan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Agar ularning da 'volarini eshitsak, umumiylikni ko 'ramiz. Qaynona deydiki: kelin d a n g a s a, i s h y o q m a s, uying tozaligiga yaxshi qaramaydi, mug 'ombir, onasiga gap tashiydi, kattalarga gap qaytaradi... T.Malik, Odamiylik mulki. Goh kelinni d a n g a s a deydi, goh quda xolani ezma, deydi. Mana, endi akasining ichishi bahona bo 'lib turibdi. O 'Hoshimov, Sevgi qissalari. Har qanday y a l q o v bolada yilt etgan g 'ayrat cho 'g 'i, oz bo 'lsa-da, nimagadir nisbatan

qiziqishi mavjud ekan, ana shu cho'g'ni, qiziqishni vaqtida ilg'ab ola bilish zarur. T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. *Y a l q o v* "U g'ayratli bo'lgani uchun yaxshi yashayapti, senam jon kuydirgin", – degan haqiqatni chetlab o'tib, yengilroq yo'lni izlaydi. Bu yo'l, shubhasiz uni jinoyat olamiga yetaklaydi. Shumtaka jinoyat olamiga adashib kirishi mumkin va intilsa, undan chiqib keta oladi. *Y a l q o v* esa ongli ravishda kiradi, undan chiqib ketishga intilmaydi. Bu olamda o'zi orzu qilgandek yayrab-yashnamaydi. Xorlik va xo'rlikning turli ko'rinishlarini tatib ko'radi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. *Darvishlar* bizning nazarimizda gadolardir, yirtiq-yamoq kiyuvchi, isqirt yuruvchi *i s h y o q m a s* bir shaxsdir. Agar shu fikrda qolsak, u muhtaram zotlarni haqoratlagan bo'lamiz. T.Malik, Odamiylik mulki. Ana — mahmadana ta'ziyagir o'g'il; ana — otasi bemor yotgan «suv o'g'risi»; ana — bir soat ichida tug'ilgan Hasan bilan Husan; ana — birovlariga o'lim tilaydigan badnafas Bozor sariq; ana — gurunnga ishqiboz chol, bekorchi *t a n b a l* Jumaqul, rashkchi xotinidan dakki yegan er... E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir? *Bitta go'zal*, nozik qiz ipakdek barmoqlari chanoqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog'lab olib, endi zo'rg'a terayotganini ko'rsangiz: "E, shaharlik oyimqiz! *S o y a p a r*-da, *s o y a p a r*!" – deb ichdan haqorat qilar edingiz. *Ha-da*, avvalo, o'zim haqimda gapiryapman! Sh.Xolmirzayev, O'zbek xarakteri.

DANG'ILLAMA, HASHAMATLI, DABDABALI, SERHASHAM, MUHTASHAM.

Nihoyatda hasham berilgan, dabdabali. **Dang'illama, dabdabali** so'zlari uy-joy, imorat, to'y-hasham kabilarga nisbatan ishlatilib, keragidan ortiq darajada hashamli ma'nosini ifodalaydi. Ushbu so'zda belgi darajasi bo'rtib turadi. **Hashamatli, serhasham** so'zlari esa, asosan, uy, bino, xona kabilarga nisbatan ishlatiladi va *hashamat berilgan* ma'nosini anglatadi. Bu so'zlarda ham belgi darajasi nisbatan kuchli ifodalanadi. **Muhtasham** so'zi kitobiy uslubda ko'p uchraydi, ijobiy bo'yoqqa ega, nutqda ko'pincha qasr so'ziga bog'lanib keladi.

Bir oydan keyin xuddi o'sha katta bog'da d a n g' i l l a m a to'y bo'ldi. *Yodgor jaranglagan uylar, qora daraxtdan qilingan garniturlar, qo'sha-qo'sha gilamlarni ko'rib, og'zi ochilib qoldi.* O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Yashashi uchun aqchasi bo'lsa bas, boshqalarday d a n g' i l l a m a* imorat-u orzu-havaslariga berilmagan. T.Malik, Shaytanat. *Uchinchi qavatning h a s h a m a t l i* keng xollida *Gippokrat, Kox, Mechnikov, Gamaleyanning katta portretlari osilgan joyda seylonlik olimlar ko'rishishdi, Umida ular bilan Moskvada tanishgan edi shekilli.* A.Muxtor, Chinor. *Choy damlab keldi, h a s h a m a t l i* bufetdan qimmatbaho konfetlar bilan tuzalgan kumush patnis oldi. A.Muxtor, hinor. *Ikkinchi manzil neon peshlavhli, s e r h a s h a m* zamonaviy binoga olib keldi, bu ustaxona deb atalsa-da, haqiqiy fabrika edi. A.Muxtor, Chinor. *Jar tepasiga borib qolganingizda attang, demang. Siz o'ynayotgan o'yinning qonun-qoidalarini men bilmayman. Harholda bu ilm odami o'ynaydigan o'yin bo'lmasa kerak. Ildan chekingan ikki odam s e r h a s h a m* bir xonada xuddi daryoning ikki qirg'og'ida turganday gaplashishardi. T.Malik, Shaytanat. – *Boplab ta'zirimni berishdi, ayb o'zimda. Kelajakning m u h t a s h a m* binosini quryapmiz, mangulikka quryapmiz. A.Muxtor, Chinor. *Qiziq, bu yerda hamma narsa katta, cheksiz, keng. Samolyot ham m u h t a s h a m* bir qasrdek, pastda ko'ringan yashil vodiylar ham, yaylovlar, biyobonlar ham cheksiz. A.Muxtor, Chinor. *Zohid darvoza oldida turganicha atrofni kuzatib "Mirkarimov bu toifadan bo'lmagan ekan", degan to'xtamga keldi. D a b d a b a l i* to'y qilganmi-yo'qmi – hozircha bilmaydi. T.Malik, Shaytanat. *Agar bu uyatdan odamlar xabar topishsami?! Xudo ko'rsatmasin! Matluba xohlagani – Tursunaliga tegdi. Unga d a b d a b a l i* to'y nasib etmadi. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar.

DARDLASHMOQ, HASRATLASHMOQ. Dardini aytmoq, hasratlashmoq. Dardlashmoq so'zi hasratlashmoq semasi bilan birga, g'am-tashvishlarini aytib, ko'ngil yozmoq semasiga ham ega. **Hasratlashmoq** so'zi o'zaro suhbatning bevosita dard-alam, tashvish, qiyinchilik haqida bo'lishini anglatadi. Bu so'zda hasrat ma'nosi kuchli ifodalanadi.

Afsuski, Salimxo'ja uzoqda qolgan. Bu yerda esa fikrlashadigan, d a r d l a s h a d i g a n hech kim yo'q. T.Malik, Devona. *Ana shunday diqqinapas kunlaridan birida Zahroni maktabdosh o'rtog'i Zarina yo'qlab kelib qoldi. Ular allavaqtgacha yeb-ichib, d a r d l a s h i b*-kulishib o'tirishdi. U.Hamdani, Muvozanat. – *Ketdi, boyaqish, axir ketdi, – dedi o'sha kishi. Qori uning kim ekanligini bilmadi. Nariroqda mujiklar h a s r a t l a s h i b* turishardi: – *Kechasi qochibdi, yo rab, oxiri baxayr bo'lsin...* A.Muxtor, Chinor. *O'sha kecha tun bo'yi ikki "kundosh" h a s r a t l a s h i b*

chiqishdi. Bola uxlab qolgan, uy nimqorong'i, ayolning ovozi g'amgin, ammo o'ktam edi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari.

DARROV, DARHOL, TEZ, TEZDA(N), TEZLIKDA, BIRPASDA, BIR ZUMDA, BIR LAHZADA, BIR ONDA, ZUMDA, LAHZADA. Qisqa muddatda, tezlik bilan; darhol. Darrov so'zida tez va qisqa vaqtda semasi ustuvorlik qiladi. Darhol so'zi hozirning o'zida ma'nosiga ega. Birpasda, bir zumda, bir onda, bir lahzada so'zlarida vaqtning yanada qisqaligi ma'nosi yuzaga chiqadi.

Haqiqiy do'st birodarining aybini d a r r o v kechira olishi shart. T.Malik, Odamiylik mulki. *Otasi ham to'yga d a r r o v rozi bo'la qoldi. Alimardon unga bir dunyo baxt hadya etdi.* O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Alimardon qadim zamonlardan buyon xalq tilidan tushmay kelayotgan bu satrlarda o'zgacha bir joziba, yashirin, iboli tuyg'ular borligini d a r h o l payqab olgan, o'zi bastalayotgan kuyda mana shu pokiza tuyg'ular butun go'zalligi bilan yarq etib ko'rinishini xohlar, yurak yurakdan to'lqinlanib aytardi.* O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Qah-qaha yana takrorlangach esa, uning tashqarida ekanini angladi. D a r h o l ko'pchilikka qo'shib orqa derazaga boshini tiqdi va ichki kiyimda, oyoq yalang akasini ko'rdi.* U.Hamdami, Muvozanat. *Mirazim ko'ngliga g'ulg'ula tushib, d a r h o l Saidga sim qoqqan edi, u chiqib ketgan ekan.* U.Hamdami, Muvozanat. *Boshqa hamma kishilarday u ham Zebining tutqaloqlarini "qizning nozi", deb bilar va t e z d a o'tib ketishiga ishonardi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. – *Boplab nonushta qiling, xo'jayin, choy iching. Tomosha qilib turing. Men t e z d a kelaman! – dedi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *Gilam to'shalgan katta xonada t e z l i k d a dasturxon tuzaldi.* T.Malik, Shaytanat. *Soliyev buyruqni bajardi. "Qassob"ning talabi ham t e z l i k d a ado etildi.* T.Malik, Shaytanat. *Begimqul biror joydan kayfi oshibroq kelgan kunlari doim vannaga tushar, iliq dush tagida turib uzoq yuvinar, suv unga doim yordam berar, b i r p a s d a hushiga keltirib qo'yardi.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Yigitlaridan birovi unga egilib, bir narsa so'ragan edi, u boshini silkitdi. "Opchiq!" degan shekilli, b i r p a s d a rangi o'chib boshlig'imiz xonamga kirdi.* A.A'zam, Hali hayot bor... *Murdalaring xuddi tirik odamday uch- to'rt marta sakraydi-yu, keyin b i r p a s d a kulga aylanadi.* T.Malik, Shaytanat. *Odil aka gandiraklab borib devorga suyangan ko'yi hansirab qoldi. B i r z u m d a bo'lib o'tgan bu voqeaning guvohi – Gulshoda yugurib kelib, qaynotasining qo'lidan tutdi.* U.Hamdami, Muvozanat. *Shunday o'rtoqning shunday shirin muomilalari oldida shunday teskari, shunday o'jar va qaysar otaning borligi ham unutilgan emasmi? Uyidan "B i r z u m d a borib kelaman", deb chiqqan Salti ham bergan va'dasini, uyini va ota-onasini unutib, qo'lida maymoq va tullagan bir supurgi bilan qolib ketmaganmi? Cho'lpon, Kecha va kunduz.* *Surayyoning yuzi zumda gul-gul ochilib, ko'zlari porlab ketdi. Boshqalardan uncha ajralib turmaydigan bu oddiy juvon ba'zan b i r z u m d a yumuq g'unchadan shunday chiroyli gulga aylanib ketar ediki, unga qarab o'tirgan odam hayratdan yoqa ushlardi. Abduzafar aka uning bunday o'zgarishlarini ko'p ko'rgan, lekin hozir Surayyo faqat chiroyli emas, qanaqadir balandlab ham ketgandek edi.* A.A'zam, Hali hayot bor... – *Xolidaning ko'zlari o't bo'lib chaq nab ketdi.* *Ammo b i r l a h z a d a yo'q yana o'shanday ma'yus bo'lib qoldi.* O'.Hoshimov, Hikoyalar. *U kuchli hayajon ichida bo'yniga solingan arqonni unutgandi. Arqon b i r l a h z a d a "Hip" etib bo'ynini bo'g'di.* U.Hamdami, Muvozanat. *Baqqolga tayinlab qo'ydim, nima desang, berib turadi. Ikki oy uzoqmi? L a h z a d a o'tadi-ketadi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *Yoqtirmasdim men gul uzishni, Hiyla xudbin tortibdi ta'bim — Chog'i, hislar qildi bu ishni: Gul qo'limda, bargida labim...Bu g'ashlikmi, yashashga o'chlik, Vaqt tuyg'usi b i r o n d a unut.* Zulfiya. *Zohid sakkiz oy mobaynida yechilmagan masalaga b i r o n d a oydinlik kirita olmas edi.* T.Malik, Shaytanat. *Sen meni butunlay unut, ora ochiqmi? Shunday dedi-yu bekatda to'zib yurgan odamlar orasida b i r o n d a g'oyib bo'ldi.* T.Malik, So'nggi o'q.

DASTLAB, DASTAVVAL, AVVAL, OLDIN, ILGARI, AVVALAN, AVVALIGA, AVVALIDA, AVVALIDAN, AVVALDA, AVVALDAN, OLDINIGA, OLDINIDAN, ILGARIDAN, ILGARITDAN, BOSHLAB, AVVALAMBOR, AVVALI, AVVALBOSHI, AVVALBOSHDA, AVVALBOSHDAN, AVVALBOSHIGA, AVVALBOSHIDA, AVVALO, BOSHDADA. Birinchi bo'lib, eng avval. Avvalan, avvaliga, avvalida, avvalidan, avvalda, avvaldan,

oldiniga, oldindan, ilgaridan, ilgaritdan, avvali, avvalboshi, avvalboshda, avvalboshiga, avvalboshida, avvalboshdan, boshda so‘zlari ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xoslangan.

O‘tkir Hoshimov kelajagi oydin yozuvchi ekanini d a s t l a b aytgan ustoz adib Abdulla Qahhor ekani bugun barchaga ma‘lum. B.Nazarov, Xalq mehrini qozongan adib. Hazin qo‘shiq og‘ushida mudragan oqshomlar, oy nuriga g‘arq bo‘lgan osmon... Tirkash dunyoga kelib eng a v v a l shularni ko‘rgandi. O‘.Hoshimov, Sevgi qissalari. E‘tirof etish zarurki, d a s t a v v a l, bu narsa uning huzuriga huzur qo‘shgan, ko‘ksidagi qat-qat alam tog‘ining yuvilib ketishiga xizmat qilgan edi, endi bo‘lsa ters oqibatlariga giriftor qilayotgandi, Yusuf vijdon azobiga tutilgandi. U.Hamdani, Muvozanat. Shuning uchun men sizni, Aleksandr Aleksandrovich, siz orqali Davlat havfsizlik organlarini ishontirib aytamanki, badanda paydo bo‘lgan rakni ko‘ringan yerida kesib tashlash bilan shifolash mumkin bo‘lganidek, la‘nati millatchilik gazandasidan ham d a s t a v v a l shu yerda, Davlat havfsizligi organida, barcha jinoyatarga iqror bo‘lish, barcha savollarga to‘g‘ri va asosli javob berish bilan, millatchilikka qarshi g‘azabli va amaliy kurash ochish bilan qutilish mumkin. T.Malik, Ozod inson haqida qo‘shiq. Urush yillari frontga madadkor bo‘lgan ayollar haqida kitob yozmoqchi bo‘lganimda d a s t a v v a l xotiramga Jo‘rxon kelgan edi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Bu gaplarimga hayron bo‘lmang. Men eng a v v a l vafodor odamni, nomusli odamni baxtli deyman. Baxt tushunchasini o‘ylaganimda d a s t a v v a l nomus, vafo ko‘rinadi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Miryoqub bilan ko‘rishib o‘tirmasdan, to‘ppa-to‘g‘ri stolning to‘g‘risiga o‘tirdi va yumshoq kursini bir qo‘li bilan qattiqqina qimirlatib ko‘rgandan keyin a v v a l bilagidagi tilla soatga qaradi, so‘ngra “da-da” deb cho‘zib qo‘yib, kursiga o‘zini tashladi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. Miryoqub soddagina ko‘rishib, to‘rga uni o‘tqazdi va o‘zi pastga o‘tirdi. A v v a l yosh xotinning ko‘zlariga qaradi: horg‘inligi, uyqusiraganligi ochiq ko‘rinib turardi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. U a v v a l i g a Sobirning diydiosini “tishini tishiga bosib” eshitgan bo‘ladi, Sobir o‘zining “shunday-shunday” mashaqqatlarini sanayverandan keyin bir oz yumshaydi-da, o‘zi ham sekin gapga tushadi... A.A‘zam, Hali hayot bor... A v v a l i g a Barotning gapini to‘g‘ri tushunmadim, “Shu ham hazilmi”, demoqchi bo‘lib, beixtiyor yerga qarasam, mendan yerga soya tushmayapti! A.A‘zam, Hali hayot bor... A v v a l i g a Haqberdi hech kimga hech qanaqa anketani ko‘rsatmayman, buni o‘z ilmiy ishim – metodikani sotsiologik jihatdan o‘rganish uchun qilganman, deb oyoq tirab turib oldi-da, janjalga battar moy quydi. A.A‘zam, Hali hayot bor... Aslini olganda, o‘zim bilan o‘zim bunaqa gaplashmasligim kerak edi. Gaplashsam ham a v v a l d a n o q boshqa, o‘zimga tushunarliroq mavzudan boshlashim lozim edi. A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam. Masalan, mavzu a v v a l i d a bayon qilganimiz mash‘um hodisaga qo‘shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, qarindoshlaridan uzilgan odamning topgan-tutganlaridan baraka ketadi... T.Malik, Odamiylik mulki. Shu ogohlantirishdan kelib chiqadigan ma‘no: uylangan erning xayolida ikkinchi xotin olish orzusi bo‘lsa, adolat qilish yoki qilolmasligini a v v a l d a n aniq bilmog‘i darkor. T.Malik, Odamiylik mulki. Bir paytlar lashkari shon-u shuhratdan iborat bo‘lgan Elchinning nomi a v v a l d a n tanish, uning keyingi umri esa, tabiiyki, unga qorong‘i edi. T.Malik, Shaytanat. ...Ma‘lumingizkim, Jahon muhoribasi a v v a l i d a Alimon vakillari Buyuk Afg‘oniston tufrog‘iga bosh urib kelib, afg‘on elini Almoniya hamda turk eli tomonida turib, Jahon muhoribasiga kirmoqg‘a undagan edilar. T.Malik, Savohil. Sen bu odamni mutlaqo tushunmabsan,– dedi u Shodi akani i l g a r i d a n biladiganday. A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam. Lekin hadeb bunaqangi siqilib o‘tiravermang. O‘zingizni yeb qo‘yasiz. Men ham o l d i n i g a shunaqa bo‘lganman. T.Malik, Shaytanat. – Lutfingizdan bag‘oyat minnatdorman. Ammo andek sarosimaga solib qo‘ydingiz. I l g a r i t d a n ogoh etganingizda... T.Malik, Devona. Hamxona ayol ham bu gaplarga ishondi va aytdiki: – I l g a r i t d a n ko‘z suzishib yurardi-da... T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. Rashid o l d i n i ndamay turdi, keyin qo‘qqisdan Erkin akani ikkala bilagidan mahkam ushlab, dast ko‘tardi. U.Hamdani, Muvozanat. Qorong‘ida paranji yopinib o‘tirmasdan, ro‘molini pana qilib, asta-sekin kirib kelayotgan Umrinisabibini eng i l g a r i Enaxon ko‘rdi, yuzlarida hanuz o‘sha kulishning alangasi ila tovush bergani holda, uni qarshi olgali yugurdi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. Talabalik vaqtlarida ular a v v a l b o sh d a Saidning ustidan kulib yurishgandi. U.Hamdani, Muvozanat. Abduzafar aka ana shunday astoydil o‘ylagani sayin xudoning kerak ekanini tuyar, uni qaytarishsa, a v v a l o o‘zi yordam olishiga ishonar,

shuning uchun ko'ngli muhtoj paytlari qulayini topishi bilan orqadagi xosxonasiga o'tib, diniy kalima yo oyatlarni bilmasa-da, og'ziga kelgan gaplar bilan tavba qilar, takror-takror "astahfirulloh" deb gunohlarini yengillatib o'tirar edi. A.A'zam, Hali hayot bor... B o s h d a anketa so'rovi o'tkazaman, deb niyat qilgan paytdayoq, Mahmudaliga o'zining kuchi yetmasligini va albatta sizning o'ziga qo'shilishingizni o'ylagan, aniq hisob-kitob qilgan. A.A'zam, Asqartog' tomonlarda. Agar Xebbinning hanuz o'sha-o'sha ishshayishini aytmasak. Aytdim-ku b o s h d a, buning nimaligini bilib bo'lmaydi, deb. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam.

DAXMAZA, DARDISAR, BOSHOG'RIQ. Behuda tashvish, dardisar, boshog'rig'i. **Daxmaza, dardisar** so'zlari nutqda odam va narsa-predmetlarga nisbatan ishlatiladi, salbiy bo'yoqqa ega. Insonga nisbatan qo'llanganda tashvish keltiruvchi inson ma'nosiga ega bo'ladi. Narsa-predmetlarga nisbatan ishlatilganda behuda tashvishga sabab bo'lgan narsa-predmet tushunchasini anglatadi.

O'zi ellik gektar yer-u, d a x m a z a s i besh yuz gektarga tatiydi. R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi. O'zim ikkita to'yga yillar davomida hozirlik ko'rgan oila 30 kishilik to'ydan ortgan mablag'ga avtomashina olganini eshitdim. To'g'risi, bunday xabarlar odamni quvontiradi. O'zaro suhbatlarda isrofgarchiliksiz, ortiqcha d a x m a z a siz o'tayotgan to'ylar ko'pchilikka manzur bo'layotganini eshityapmiz. Gazetadan. – Vaqt bo'lganda... quvurkon o'rnatib, kampirning ishini bitirib berganda-ku, ko'p savob ish bo'lardi-ya! – dedi Hikmatillo ichida. – Lekin... vaqt topilgandayam... azbest truba bilan uning d a r d i s a r homutini qayoqdan topadi? O.Yoqubov, Billur qandillar. Iya, rostdanmi? Yo, tavba! Uylanib nima qilasan? D a r d i s a r n i boshingga urasanmi? S.Ahmad, Tanlangan asarlar. – E, manga qara, tashla shu b o s h o g' r i q ni. Bir umr kitobga termilib o'tasanmi? Bari yolg'on. San... o'zing yoz. Mana, mani yoz. Aytib turaman, yozib olaverasan. Katta kitob qilamiz. A.A'zam, Bu kunning davomi. Bu Tolibni nima qilsam ekan? Rosa b o s h o g' r i q bo'ldi-ku. S.Ahmad, Jimjitlik.

DAXMAZA BO'LMOQ, DARDISAR BO'LMOQ Ortiqcha tashvish, boshog'rig'i bo'lmoq. **Daxmaza bo'lmoq, dardisar bo'lmoq** so'zlarida salbiy munosabat yorqin aks etadi. Subyektiv munosabat nutqda juda, rosa so'zlari bilan yanada bo'rttiriladi.

D a x m a z a l i devoriy soat ikki marta dang'illadi. A. Qahhor, Tanish basharalar. E-e! Soting bu tuyalarni, qishi bilan boqasizmi!? Xashak-xushak, deb d a x m a z a qilib yurasizmi?! Oybek, Bolalik. Yo'q, men ukangga d a r d i s a r bo'lmoqchi emasman. Boshda men emas, ukang menga yopishgan. Yo'q, chuchvarani xom sanabsan! Samig'jondan ayirib bo'psan meni! O.Yoqubov, Matluba. Siz ukamga tegib, uning boshiga d a r d i s a r bo'lmoqchimisiz? Tegib bo'psiz! O.Yoqubov, Matluba.

DEYARLI, QARIYB, HISOB(I). Biror predmet, miqdor, vaqt yoki harakatga juda yaqin qolganlik holati. **Deyarli** so'zida juda yaqin qolganlik ma'nosi kuchli ifodalanadi. **Qariyb** so'zi nutqda kam ishlatiladi, bu so'z biror narsa, harakat-holat, vaqt, miqdorning deyarli qamrab olinganligi ma'nosini hosil qiladi. **Hisob (i)** so'zida butkul qamrab olinganlik ma'nosi bo'rtib turadi. **Qariyb, deyarli** so'zlari jumla tarkibida o'zi bog'langan so'zdan oldin, **hisobi** so'zi esa keyin keladi.

Bu – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidan d e y a r l i yigirma yil avval aytilgan fikr, amaliy qadam, o'ktam jasorat edi. B.Nazarov, Xalq mehrini qozongan adib. Zebi xola deyarli har kuni tush ko'radi. Tushida Po'latjon hali qanday-dir afsonaviy qush tutib olgan, hali saman yo'rg'a minib, suv kechayotgan bo'ladi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar. Xolida ho'l qumda chuqur-chuqur iz qoldirib qirg'oqqa cho'nqaydi. Yuvinib bo'lgunicha skameykada o'tirdim. Q a r i y b yigirma besh yil mobaynida bizning o'z uyimiz bo'lmagan. Ijara uylarda yashab kelganmiz. T.Malik, Odamiylik mulki. Yon tomonda chog'roqqina bog', u yerda mevali daraxtning yong'oq bilan shaftolidan boshqa q a r i y b hammasi bor. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Hamdamov o'pkasini to'ldirib sigaret tortdi, buruqsitib tutun qaytardi: tomog'i qichishmasa ham yo'talib qo'ydi. – Xo'sh, – dedi u o'smirga. O'smir indamay qarab turaverdi. Bo'yi q a r i y b baravar ekan-da. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Bo'yni q a r i y b bilinmaydi, boshi, yelkaning davomidek, qapishib ketgan. Bir ko'zi qiyaroq suzilgan. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. ...Akbarali mingboshi q a r i y b o'n to'rt yildan buyon oq podshohimizning azamat davlatlariga sadoqat bilan xizmat qilib, shuncha

zamon mobaynida hech qanday sarzanishga mustahiq bo'lmadilar. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Bugunga ish tamom, ertaga ham yo'q h i s o b i, bosmaxonaga borsa ham, bormasa ham bo'ladi, boshqa kunlari ham shunday. A.A'zam, Hali hayot bor... Turdiali stolidagi qo'lyozmaga boshi bilan yotib oldi h i s o b, Irina bir Umarovga, bir A'lamga cho'chingirab ko'z tashladi, Xosiyat tortmasidan nimadir izlashga tushdi. A.A'zam, Hali hayot bor...

DOVRUQ, DONG (DONG'I), SHUHRAT, SHON-SHUHRAT, SHON, NOM, OVOZA. Shon-shuhrat, mashhurlik ovozasi. **Dovruq** so'zida ovoza semasi bo'rtib turadi. **Dong** so'zi 3-shaxs birlikda **dong'i** shaklida ham uchraydi. Bu so'zda *dovruq* semasi ustuvor. **Shuhrat** so'zi biror erishilgan yutuq, ko'rsatilgan xizmat kabilar evaziga qozonilgan obro'-e'tibor ma'nosini hosil qiladi. **Shon** so'zi kitobiy uslubga xos, nutqda kam qo'llanadi. **Ovoza, nom** so'zlari ko'proq oddiy so'zlashuvda uchraydi. Bu so'zlarida *dovruq* semasi kuchsiz ifodalanadi.

Oro yo'l... Men o'tgan hayotning mo'li, O'chli mehnatlarning yorqin d o v r u g' i, Eng jonli kuylarning to'qilgan yo'li, Yetim muhabbatning o'chmagan cho'g'i. Zulfiya. – Shunaqa deysiz-u birodar, omma Abdurahmon aka o'zlarini tabib sanamaydilar. – Nega? – deb ajablendi Jalil. – D o v r u q l a r i butun olamga taralgan bo'lsa... T.Malik, Shaytanat. Saqlaymiz tuproqni, sharafni, d o n g n i, O'tkir ko'zimizni ufqdan uzmay Har kun qarshilaymiz safobaxsh tongni. Zulfiya, Saylanma. – Shuncha shoir-u olim qayerdan chiqqan ekan bo'lmasa, Soliboy? – deydi vatanparvarlik hamiyati qo'zib O'rmon kalta. – Shaxsan d o n g' i dunyoga ketgan “Do'mbira” ansambli-chi! E.A'zam, Guli-Guli. Seni bir ko'rmagan, eshitmagan ham Bunda sensiz sh o n i n etmaydi bayon, Sh u h r a t n i o'ylamay, tebrangan qalam, Avlodga xizmatdan qolmas hech qachon. Zulfiya. Xos oshiqlar kimningdir sevgisiga, maqtoviga, sh u h r a t i g a, xayr-u-ehsoniga ahamiyat bermaydilar. Ular faqat va faqat Alloh tomonidan sevilishni xohlaydilar. T.Malik, Odamiylik mulki. Nimasi qoldi uning! Nimasi qoldi axir?! Sahnami? Sh o n – sh u h r a t m i? Nima qoldi o'zi! Nima?! Oxirgi, eng oxirgi umidi, tanho suyanchig'i yuz o'girdi-ku undan. Tag'in nima kerak endi?! O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Iste'dodim, qalbim sizlarga. Yaxshi n o m i m, baxt-sevinchim but.Barchasini beray qizlarga. Zulfiya. “Isiyaptimi? Biror nima sezyapsizmi?” deb so'raydi dam-badam. “Ha-a, bor”, deb qo'yaman shundoq n o m i ketgan tabib ham uch-to'rt kunlik ulfatimning ko'ngliga borib. E.A'zam, Shovqin. Senlarning tufaylingdan yomon n o m i m yetti iqlimga ketdi... Cho'lpon, Kecha va kunduz. Asadbekka “O'qilon” deb laqab qo'ygan odam shuni nazarda tutganmi? Elchin o v o z a s i uzoqlarga ketgan ana shu dahshatli O'qilonga qarshi chiqdi. T.Malik, Shaytanat. Elchin Sibirdagi lagerga ko'chirilganda, hali “o'qilon”ning o v o z a s i yetib kelmay turib, shu Zelixonning panohida jon saqlagan edi. T.Malik, Shaytanat.

DOIM, DOIMO, HAMISHA, HAMMA VAQT, HAMMA PAYT, HAR DOIM, HAR MAHAL, HAR VAQT, HAR PAYT, HAR PAYTDA, NUQUL, MUDOM, HADEB, BIRDAY, YAKKASH, YALANG, O'NGKAY. Vaqt nuqtayi nazaridan davomli, uzluksiz. **Doim, doimo, hamisha** so'zlarida vaqtga ko'ra uzluksizlik bo'rtib turadi. **Hamma vaqt, har doim, har mahal, har vaqt, har payt, har paytda** so'zlarida vaqt ta'kidi kuchli ifodalanadi. Bu so'zlar harakat-holatga nisbatan qo'llanganda harakatning uzluksizligi ma'nosini hosil qiladi. **Hadeb** so'zida takrorlanish semasi ustuvor. **Nuqul** so'zi ham bu ma'nosida doimiy ravishda takrorlanish ma'nosini hosil qiladi. **Mudom** kitobiy so'z, kam qo'llanadi. **Yakkash, yalang, nuqul, birday** so'zlari bu ma'nosida nutqda kam ishlatiladi.

Bolalardan paxtani tortib olayotganda d o i m qovog'ini solib turadi. Ammo qizlarga ko'zi yiltirab, iljayib qaraydi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. U har d o i m molini bizlarga qaytartirardi. Nimagadir bu safar o'jarligim tutdi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. U yo'lida uchragan har qanaqa g'ovni bosib-yanchib o'tishga, d o i m o g'olib chiqishga o'rgangan edi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Bo'y yetgan har bir qiz qatori uning ham xayolini allaqanday bir yigit timsoli h a m i sh a tark etmasdi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Hindiston xaqida gapirayotib, u yerga bordik, bu yerni ko'rdik, ovqatni qizil qalampir bilan qovurishar ekan, zo'rg'a yedik, degan paytlarida h a m i sh a yonida “birga yurgan kishi” bo'lganini, gapirib berayotgan voqealari kemtik, chahaligini, o'sha kishiga tegishli joylarini tashlab o'tayotganini, xotiralariga xalal berib turganimni ko'nglim sezadi... A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Bunaqa tortishuvlar ko'p bo'lib, oxirida h a m i sh a o'zim yutganim uchun, kiprik qoqmay uydirma to'qishga o'taman... A.A'zam, Asqartog'

tomonlarda. *Ellikdan ortiq reviziya ko'rganlar. H a m m a v a q t hisob-kitob to'ppa-to'g'ri chiqqan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Kotib, nega qo'ying, unaqa qilmang, demadi. U h a m m a v a q t rais nima desa, aytganidan ham afzal qilib qog'ozga tushirgan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *H a m m a v a q t shovqin-suron, to'polon bilan yashagan, bola tabiati hatto ota bo'lguncha saqlangan Omontoy o'g'liga qarab turib birdan katta bo'lib qolganini sezdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Kuylamagil chok etib dilni: U eslatar menga h a r m a h a l O'zga hayot, olis sohilni...* T.Malik, Savohil. *Shundan keyin bir-ikki oy o'tar-o'tmay, avf tegib, Muhammadjon aka qamoqdan chiqib keladi. Ammo qamalgan, "urilgan" degan h a r m a h a l tavqi la'natdek uning keyingi taqdiriga yopishadi-qoladi.* U.Hamdani, Muvozanat. *Har yil bir donami, Yuz dona, mayli, O'lmaslik qasrig'a g'isht qo'ygan h a r v a q t.* Zulfiya. –*O'g'lim, haq so'zni aytdingiz. Lekin madrasa eshigidan h a r v a q t zukko va allomalar chiqavermaydi-ku?* T.Malik, Falak. *Faqat kuyovjo'ralar qarsbadabang qiyqiriq bilan eshikdan kirib kelishganida, "To'ylar muborak"ni aytishganida n u q u l xayoliga Zokirjon kelaverdi. Chidab turolmadi: ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi.* O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. ...*Ofiyat shu sirning ochilib, turmushimizga rahna solishidan ko'rqayotganga o'xshadi; lop etib Shodi akaning m u d o m oq shim kiyib yurishi yodimga tushdi, Ofiyatning Kalkuttada jala quyib, ko'chalar iflosga to'lib oqqani, uni yonidagi bir kishi ok shimini tizzasigacha shimarib o'tkazib qo'ygani to'g'risida yig'lab aytganini esladim...* A.A'zam, Asqartog' tomonlarda. *Odamning umri shunday o'tib ketsa, ertaga maydonda savlat to'kib turadigan haykalning boshini joyiga o'rnatish uchun albatta tepasidan o'yishsa, keyin suvashsa, m u d o m shu institutda, shu odamlarning orasida ishlasam, shunday yashayversam, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan o'ylar keladi kallamga.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Gul hamisha chaman bo'lib turmaganiday, inson ham hayotining hamma damlarida b i r d a y baxtiyor bo'lishi qiyin.* S.Karomatov, Bir tomchi qon. *Bir, ko'ngli bo'shgina ayol esa Abdulladan ko'zini uzolmay, y a k k a sh yig'lardi.* F.Usmonov, Qora niyat. *Har bahorga chiqqanda y a k k a sh: "Baxtim bormi?" deya so'rayman.* H. Olimjon. *Katta amalda ishlaydigan odamlarning bolalari yomon o'qishsa ham, y a l a n g a'lo baho qo'yadi...* M.Ismoilijon, Odamiylik qissasi. *Mana, h a d e b Sultonni so'kasizlar. Lekin uning nimaga shu ahvolga tushganining tubini o'ylab ko'rmagansizlar.* A.A'zam, Asqartog' tomonlarda. – *Domla, – dedim men ham uning gapini kesib, – gap hozir mening g'o'rligim to'g'risida emas, kattaroq narsa – haqiqat to'g'risida ketyapti. Bu yerda h a d e b eshakning go'shti haromligini muhokama qilib, mehnatini gapirmayapmiz.* A.A'zam, Asqartog' tomonlarda.

DUNYO, JAHON, OLAM, BORLIQ, MAVJUDOT, MAVJUDIYAT, KOINOT. Tashqi olam, borliq va uning bir qismi. **Dunyo, jahon** so'zlari, asosan, borliqning Yerga to'g'ri keluvchi qismiga nisbatan qo'llanadi. **Olam, borliq** so'zlari keng tushunchaga ega. Bu so'zlar obyektiv olamni bir butun holatda to'laligicha aks ettiradi. **Koinot** so'zi bizni o'rab turgan borliq, uning barcha qismi, yer-u osmonni qamrab oladi. **Mavjudot** so'zi olam va undagi barcha mavjud narsalar majmuyi tushunchasiga ega. **Mavjudiyat** so'zi eskirgan, kitobiy uslubga xos.

Qiziq, kecha d u n y o d a undan baxtiyor odam yo'q edi. Bugun undan baxtsiz kimsa yo'q. Baxt bilan baxtsizlik yetaklashib yurarkanda, doim. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Bilardim, qaydadir olasan nafas, Murakkab bu d u n y o sen-chun ham tirik.* Zulfiya. *Uchib ketdi polopon qushi, Uya bo'm-bo'sh qoldi qorayib. Par ostida sirqirar to'shi, Ko'z oldida d u n y o torayib.* Zulfiya. *Nazarimda, xonam, nainki xonam, butun j a h o n ajib bir nurga to'lganday tuyuldi-yu, qizning iltijosi yodimdan chiqib, tol chiviqday ingichka egik belidan quchdim.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Yoshlig'imda niyat qilg'on erdim, bul shahri azimni j a h o n d a eng ko'rkam, eng muazzam shahri-munavvar qiladurmen deb!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Afsus, o l a m n i nurga to'ldirgan bu g'alati kunlar nari borsa bir hafta-o'n kun davom etdi-yu, kutilmaganda taqataq to'xtadi.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *U shirakayf ko'zlarini Matlubaga tikib ishshaydi: – E, bormisanlar, o l a m d a?* O.Yoqubov, Matluba. ...*lekin o'rniga aksi bo'ldi: atigi uch-to'rt kun muqaddam Nilufar bilan qo'l ushlab borgan sohillarni, uning hamisha porlab turguvchi ko'zlariga tikilib, dam kulib, dam nozlanib gapirgan gaplarini eshitib, yonma-yon yurgan xiyobonlarini, o'tirgan skameyklarini ko'rganida, o l a m ko'ziga qorong'i ko'rinib ketdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Yusuf ikki ulkan olov ichra arosatda qoldi. U har ikki olovning ismini,*

o'zini tanib turardi. Biri – butun k o i n o t d a hukm surishi shart Oliy Nizomga har jihatdan muvofiq yashash bo'lib, bunda inson o'zining juda ko'p shaxsiy manfaatlaridan, xususan moddiyatdan, uning lazzatidan voz kechib bo'lsa-da, ana shu ulug' qonunga uyg'un yashashga intiladi. U.Hamdani, Muvozanat. Yurtdan uzoqlarda yurish uni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan holdan toydirdi. Lekin k o i n o t d a g i vaqt oqimi Tangdagi singari bo'lmagani uchun yillarning o'tgani, yoshi ulg'aygani yuzida aks etmadi. T.Malik, Devona. ...uzoqdagi Bulung'ur arig'i bandining shovullashi, hatto ostidagi egarning zorlanib g'ichirlashi—hamma-hammasini birdan aniq eshita boshladi. Butun b o r l i q shatur-shatur qilib nafas olayotgandek. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Qirg'oqqa to'lqindan tosh otib, Go'yo u erk uchun qilar jang. B o r l i q ni tutadi gulduros, Hammani chulg'aydi ezgulik. Zulfiya. Kunlar ancha uzayib qoldi, havoning harorati kun sayin ko'tarilib, b o r l i q m a v j u d o t jonlana boshladi. Gazetadan. Menga asrdosh bo'lgan bir kishi o'z mavjudiyatidan.. inson bo'lganidan xafa. G'.G'ulom, Afsona.

DUSHMAN, YOV, G'ANIM, RAQIB, AG'YOR, YOG'I (YOG'IY), MUXOLIF, BADXOH. Qarashlari, manfaatlari bir-biriga zid, o'zaro g'anim bo'lgan shaxslar yoki tomonlar. **Dushman** so'zi o'zaro ziddiyatdagi dushmanlik kayfiyatida bo'lgan shaxslar, tomonlarga nisbatan ishlatiladi. **G'anim** so'zida ham *dushman* semasi ustuvor, kitobiy uslubga xos. **Yov** so'zi nutqda kam ishlatiladi, eskirgan. **Ag'yor** so'zi ham eskirgan. **Yog'i** so'zi folklor asarlarida uchraydi. **Raqib** so'zida *dushman* semasi nisbatan kuchsiz ifodalanadi. **Muxolif** so'zi kelishmovchilik kayfiyatida bo'lgan tomonlarni anglatadi. **Badxoh** so'zi yomon niyatli, dushmanlik kayfiyatidagi shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

...begona yurtda – do'st-u d u sh m a n ning ichida ko'ngli cho'kmasin, deb, jigari-da, yuz ellik so'mga (shuncha pulni qaysi mard yeb ketarga beradi!) ustidagi kostyumni olib berdi; mana oqibati - itday qilib ketdi! A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. “D u sh m a n i ng otgan tosh emas, do'sting otgan paxta o'ldiradi”, deganlari bejiz emas ekan. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Bu yog'i endi o'z-o'zidan ayon: d u sh m a n inigdan bunaqa hol-ahvol so'ramaysan, axir. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Kunlardan bir kun qizilbosh yurtidan bir katta y o v kelib, turkmani ko'p ovora qilib, Og'alibekni o'ldirib, turkmandan o'g'il-qiz asir qilib ketdi. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Har turkmanlar chiqar y o v n i ng qasdida, Arabi tulporlar o'ynab ostida, Po'lat nayza yarqillashib dastida, Urush bo'lar shu Badbaxtning ustida. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Bo'lmaydigan narsalar bo'layotganday, mish-mishlarda asos bormi-yo'qmi, bunga qaramay, hammasi oshkor tus olgan, ta'lim-tarbiya jarayoni izdan chiqib, auditoriyalarda kechagi mo'min-qobil talabalarimiz emas, yuzi tanish, o'zi notanish g' a n i m l a r to'dalashib, har bir xatti-harakatimiz, gaplarimizni imtihon qilayotgan, ustiga-ustak, o'zimiz ham guruh-guruhlarga ajralib, yovlashib borayotgan edik. A.A'zam, Asqartog' tomonlarda. Yosh shuur, kurashchan tuyg'ular bilan Sening taqdiringga mahkam tutashdim, Ne-ne g' a n i m l a r-la kurashganing on Ko'pning biri bo'lib malhamga shoshdim. Zulfiya. Said o'z r a q i b i bilan bar-barobar tashlashardi, Mirazimning esa, ahvoli tangroq ko'rindi. U.Hamdani, Muvozanat. Ustiga-ustak r a q i b uni go'yo masxaralagandek o'ziga chorlashi Yusufning g'ururini o'ynatib yubordi. U.Hamdani, Muvozanat. ...mana, shunday ko'pchilik vag'ir-vug'ur o'tirib, suv olarmish, tom bosarmish degan oldi-qochdilarning avra-astarini ag'darish, cho'kirtak qilichini o'ynatib qo'rqitmoqqa urinayotgan uvoqqina y o g' i y n i chertib-chertkilab mayna qilish yaxshi, hatto juda zavqli edi, biroq har birimiz o'zimizcha o'ylaganda, o'sha y o g' i y g a qarshi yolg'iz turganda, bu mish-mishlarning tagi borday, nimasidir asosliday, ko'nglimizda noaniq bir tahlika uyg'onar edi. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. O'shandan beri bu anduh otashida yongandan-yonib, o'rtangandan-o'rtanadi. Uning ahvolidan a g' y o r l a r mamnun, ahhoblar dili xun. T.Malik, Savohil. Nahot padarim shularni mulohaza qilib ko'rmagan? Do'stni a g' y o r bilib, ag'yorni birodar etmakning oqibati bu... T.Malik, Savohil. Omonulloxon dog'da qoldi: a g' y o r l a r ularning rejasidan xabar topishdimi yo boshqa sabab bo'ldimi, har qalay uch yo'nalish bo'ylab borayotgan qo'shin manzilga yetib ulgurmay, Peshovor yo'lida nogoh urush boshlandi. T.Malik, Savohil. Bu qadar qarshilikni ko'rmagan y o g' i y fig'oni falakni tutti... Xabissheva ahlidan bo'lmish y o g' i y yoshmi, qarimi yoxud go'dakmi – farqlamay otaverdi, chopaverdi. T.Malik, Shaytanat. Sirdosh begonaga, hamfikir esa g'oyaviy m u x o l i f ga aylansa ajab emas. T.Malik, Devona. Har qanday raqib uchun, ayniqsa

siyosiy muxolif uchun odamning jismigina emas, balki fikri, ruhi ham xavfli ekanini anglash martabasiga yetmagan edi. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. Bularning gapi b a d x o h xayrxohlarning tarbiyasi, nasihati, tanqidiga o'xshar edi. A.Qahhor, Sarob.

DUSHMANLIK, YOVLIK, G'ANIMLIK, AG'YORLIK, YOG'ILIK (YOG'IYLIK), ADOVAT, XUSUMAT. Biror kimsaga dushmanlik munosabatida bo'lish, yomonlik qilish, ko'rolmaslik; dushmanlik kafiyati. **Dushmanlik** so'zida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Yovlik, g'animlik** so'zlarida dushmanlikka xos munosabat semasi ustuvor. **Adovat, xusumat** so'zlari bu ma'nosida birovga nisbatan bo'lgan dushmanlik tushunchasini bildiradi. **Ag'yorlik, yog'ilik (yog'iylik)** so'zlari eskirgan.

Shuning uchun ham bu yerga dadil keldi. Elchin bilan Asadbek orasidagi d u s h m a n l i k to'ydandan keyin kamaygan degan fikrda. T.Malik, Shaytanat. *Biz do'st deb yurganimiz d u s h m a n l i k chodiriga burkanib olsa, aziyatlar chekamiz, ammo o'zimiz ba'zan bilib, ba'zan bilmay boshqa bir odamga dushmanlik qilib yurganimizni angalaymizmi?* T.Malik, Odamiylik mulki. *Birinchi yordamchi iljayib qo'ydi: Yaxshiboyeye bilan Shoymardonovning azaliy g' a n i m l i g i n i bilardi.* M.M.Do'st, Galatepa qissalari. *O'sha odam bizga g' a n i m l i k maqomida bo'lgan yana uch-to'rt kishi bilan Kobuldan Makkaga hajga borish bahonasida Qazvinga kelib tushibdir.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *Mirzo hazratlariga y o g' i y l i k maqomida bo'lgan chag'raklar o'lpon to'lashdan bosh tortganlari uchun o'n olti ming qo'ylari, ikki yarim ming yilqilari jarima tarzida tortib olib ke-lindi [dedi Ahmad Tanbal].* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Go'zal hislarimiz etdilar barbod A g' y o r ning ozori, do'st a g' y o r l i g i ... Ammo men uchun baxt, Men uchun hayot.* Z.Mirzo, Ishq. *Lekin xotin eriga a d o v a t va x u s u m a t i n i doimiy ravishda kuchaytirib boraversa-chi? Bu holatda ham darrov taloq berilmaydi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Shu tobda o'sha eski a d o v a t l a r, birbiridan jirkanganlari ko'z o'ngiga keldi-yu, allanechuk yengillik sezdi.* O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. *Jamshidda kimning x u s u m a t i bo'lishi mumkin?* T.Malik, Shaytanat. *Adang birovga yomonlik qilmovdilar. Birovning adangda x u s u m a t i bo'lmagan.* T.Malik, Shaytanat.

DUSHMAN BO'LMOQ, RAQIB BO'LMOQ, YOV BO'LMOQ, G'ANIM BO'LMOQ, AG'YOR BO'LMOQ, YOG'IY BO'LMOQ. O'zaro dushmanlik holatida bo'lmoq, g'anim bo'lmoq.

Uy egasining uyda yo'qligidan bexabar odamlar uni yo'qlab keldilar: undan olgan qarzini bermoqchi bo'lib do'st keldi, unga bergan qarzini olmoqqa chog'lanib do'st d u s h m a n b o' l i b keldi... A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *"Agar notanish yoki sizga r a q i b b o' l g a n to'da bilan mushtlashish zaruriyati tug'ilsa, siz nima qilar edingiz?" – degan savolga so'ralganlarning 79 foizi "sheriklarimni qo'llash uchun men ham urushaman",- deb javob qaytardi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. *Endi bir-biroviga yov. Y o v b o' l a turib bordi-keldi qiladi.* T.Malik, Devona. *Yodgor qalbida chidab bo'lmas og'riq sezdi. Turkman chochuv o'tirganligi sababli qizilboshlar har doim turkmanga y o v b o' l i b kelib, bu yog'idan, u yog'idan talab, mol, odam o'lja qilib ketar edi. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Sho'roning g'animi deb hisoblanib, sho'rodan zulm ko'rgan to'razodalar bosmachi bo'lmay bosmachiga ham g' a n i m b o' l d i l a r.* K.To'ramurod, Cho'mmoq. *Mirzam! Ikki tarafimizni y o g' i y b o s g a n [dedi Qosimbek].* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Mardim, meni ma'zur tuting, fe'lim Sizga ayondir Bu dunyoda suymaganim — xiyonat-u yolg'ondir. Siz beparvo a g' y o r tutgan yolg'onlarni ichdingiz, Mehrim sindi. Endi uning tuzalmog'i gumondir.* Z.Aliyeva, Ko'ngil.

DUSHMANLIK QILMOQ, DUSHMANLASHMOQ, RAQIBLIK QILMOQ, RAQIBLASHMOQ, YOVLIK QILMOQ, YOVLASHMOQ, G'ANIMLIK QILMOQ, G'ANIMLASHMOQ, AG'YORLIK QILMOQ, YOG'IYLIK QILMOQ, XUSUMAT QILMOQ, XUSUMATLASHMOQ. Bir-biriga dushmanlik qilmoq, yovlashmoq.

– Shaytonni d u s h m a n tutarmisan? –Yo'q. –Nechun? – Shuning uchunki, ko'nglimda Rahmon sevgisi shunchalik to'lib turgayki, shayton dushmanligi sig'mas. T.Malik, Odamiylik mulki. *– Zoti dushman bo'lib, do'stlikdan lof urganlarga, dilida g' a n i m, tilida do'st bo'lganlarga ishonish mumkin emas.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Shunda g'oliblarning davlat miqyosida fikrlay oladigan bir vakili "Zinhor bunday qilmasligimiz lozim; g'alabadan so'ng ham ma'lum miqdor*

dushmanlarni saqlab qolmoq kerak, toki dushman yo'qligidan o'zaro d u s h m a n l a s h i b yurmaylik", deya ogohlantiradi. D.Quronov, Bezavol haqiqatlar. 86 kg vazn toifasida kurashayotgan polvonimiz Javrail Shapiyev Tokio-2020 bronza medali uchun kurash olib bordi. Ushbu bosqichda unga rossiyalik Artur Nayfonov r a q i b l i k q i l d i. Gazetadan. Sha'ningizga go'zal, kitob bitdilar, Alp shoir edi deb, xitob bitidilar. Yovlar y o v l i k q i l i b, rost unumdilar – Ich -etin kemirib g'iybatlar qildi... A.Suvonov. Naxs bosgan qo'li uning Har yerda xozir, paydo. Ikki qit'a — ikki yurt Y o v l a s h d i o l t i n d e y a. A.Suyun. O'zi, odamzodni xamiri balchiqdan qorilgan – taniqli, nufuzli kishilardan xafa bo'lib yuz o'girishga, imkon topsa, g' a n i m l i k q i l i s h g a d o i m s h a y t u r i s h a d i. I.Mirzo, Iltimos. Gohi yolg'onga ergashdim, Gohi do'st xam g' a n i m l a s h d i, Sadoqat yo'llarin solgan Qadamlardan adashganman. T.Sodiqova, Gul atri. Kelib, yaxshi qildingiz, G'ayratjon. Bular uchovlashib menga a g' y o r l i k q i l i s h a y o t g a n e d i. Bekordan-bekorga bitta oshga tushib turipman, shu chog'da. N.Karimov, Do'rmon hangomalari. — Xa, aldanchi pir! — dedi. — Bizga shuncha y o g' i y l i k l a r q i l g a n i n g i z o z m i d i, e n d i s o q c h i l a r n i a l d a b, h a r o m i m u l l o c h a n i h a m q o c h i r i b s i z! P.Qodirov, Yulduzli tunlar. — Kelmaydi, ayniqsa yoqib yuborilgan murdani tiriltira olmaymiz. Jamshidda kimning x u s u m a t i b o' l i s h i m u m k i n? T.Malik, Shaytanat.

DO'Q, PO'PISA, DO'Q-PO'PISA, DAG'DAG'A, TAHDID, SHANTAJ, DAVARA, SIYOSAT. Qo'rqitish maqsadida aytilgan gap-so'z, qilingan xatti-harakat, po'pisa. **Do'q, po'pisa, tahdid** so'zlari gap bilan yoki boshqa usullarda qo'rqituv ma'nosini anglatadi. **Dag'dag'a, davara, siyosat** so'zlari esa faqat gap bilan qo'rqituvga nisbatan qo'llanadi. **Po'pisa** so'zi shunchaki qo'rqitib qo'yish uchun qilingan do'qni bildiradi. **Tahdid** so'zi do'q-po'pisa yoki shantaj qilish bilan qo'rqituv tushunchasiga ega. **Dag'dag'a** so'zida baland ovozda shovqin solib do'q urish ma'nosi ustuvor. **Shantaj** so'zi biron foyda ko'rish maqsadida amalga oshiriladigan qo'rqituvni anglatadi. **Siyosat** so'zi bu ma'nosida nisbatan kam qo'llanadi.

Bunday d o' q d a n c h o' c h i b y a x s h i l i k t o m o n b u r i l g a n b o l a n i h a l i h e c h k i m u c h r a t m a g a n b o'lsa kerak. T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. Dadasining qovoq uyushi, ilmoqli gaplari, d o' q l a r i b u n o x u s h u c h r a s h u v o l d i d a h e c h g a p e m a s e d i. T.Malik, So'nggi o'q. Bolaligimizni eslab ko'ring: siz bizdan faqat talab qilardingiz, muomalangizda ko'pincha d o' q - p o' p i s a o h a n g i b o' l a r d i. T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li. O'ldirish qanaqa bo'lishini bilishmas, shu bois ham bu p o' p i s a d a n c h o' c h i s h m a s e d i. T.Malik, Shaytanat. Yarim p o' p i s a, yarim hazil ohangidagi bu gap oradagi sovuqlikni picha ko'targanday bo'ldi. T.Malik, Shaytanat. Keyin men bilan bunaqa yumshoq muomala qilib o'tirmaysiz. D o' q - p o' p i s a g a o' t a s i z, s o' k a s i z, u r a s i z. O' s h a n d a m e n h a m t o' n i m n i t e s k a r i k i y i b o l a m a n. T.Malik, So'nggi o'q. Ofitser d o' q - p o' p i s a b i l a n i s h b i t i r o l m a s l i g i n i b i l g a c h, s o q c h i l a r g a " e s h i k n i y o p!" d e b b u y u r d i. T.Malik, So'nggi o'q. U Zohidning kirib kelganini ko'rsa ham, e'tibor bermay, d a g' d a g' a s i n i d a v o m e t t i r d i... T.Malik, Shaytanat. — Vey, sen kimsan o'zing, menga tanbeh beradigan? Sen borib o'zingning xotiningga qil d a g' d a g' a n g n i, b i l d i n g m i? S e n y i g i r m a y i l s h u n a q a t r a k t o r c h i b i l a n y a s h a - c h i, k o' r a m a n a h v o l i n g n i! T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. Asadbekning ovozida piching yoki t a h d i d o h a n g i y o' q e d i. T.Malik, Shaytanat. — Ko'p bo'lsa ham maosh yo'q, — dedi Kesakpolvon t a h d i d o h a n g i d a. — L a l a y m a n g, d e d i m - k u? T.Malik, Shaytanat. Yo'q, bu isyon, s h a n t a j, g' a l a y o n.. R.Bobojon. [Beklar:] S i y o s a t u c h u n b i t t a i g' v o g a r n i n g b o s h i n i k e s t i r m o q z a r u r! P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Ha, odamlar aytar edi, Azroil jon oladigan bo'lganda, s h u n d a y s i y o s a t b i l a n, x a y b a t b i l a n k e l a d i, d e b. "Murodxon".

DO'Q QILMOQ, DO'Q URMOQ, DO'Q-PO'PISA QILMOQ, PO'PISA QILMOQ, SHANTAJ QILMOQ, DAG'DAG'A QILMOQ, TAHDID QILMOQ, DAVARA QILMOQ, SIYOSAT QILMOQ

Sigir qochmoqchi bo'lib bo'ynini bir qayirdi-yu, so'ng "o'zing pachoqqina odam ekansan, nimaga d o' q q i l a s a n, y o s h o x i m g a i l i b o t i b y u b o r a y m i?" d e g a n d a y m o' r a b q o' y d i. T.Malik, Shaytanat. Shu vaqti eshikni g'irt ochib, Umarov bo'g'riqib kirdi. — Ah-ha, bu qatorlar qayoqdan? Qovog'i soliq bu bulut, maysaga d o' q u r a r b u b u l u t! N e g a b u l u t n i n g q o v o g' i s o l i q? A.A'zam, Hali hayot bor... Lof emas, Yalamada Sherqo'zidek muloyim, undan halimroq kishini topish mushkul. Mana, yoshi qirqdan ham oshibdiki, birov bilan san-manga borganini yoki, aqalli nomiga

bo'lsa-da, kimsaga d o' q urganini hech kim ko'rmagan-eshitmagan. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Begimqul rangi o'chib, bir Hikmatilloga, bir novcha odamga qaradi. – Og'zingizga qarab gapiring, aka! – Siz ham d o' q urmang. Kekirdagimga keldi! – dedi novcha odam, yana qo'ltiqtayog'ini to'qillatib. O.Yoqubov, Billur qandillar. “Qo'llaringiz muncha qattiq!”, deydi. Shunda Karim erib ketadi-da, yolg'ondakam p o' p i s a qiladi, shu bilan bugungi qilmishi uchun kechirim so'raydi. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Orziqul bobo achchiqlanardi. “Muallimingizga borib, Maqsudboyga odob o'rgatmabsizlar, deb aytmasin”, deb p o' p i s a qilardi. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Siz bo'lsa... ul telbaning bul yolg'on p o' p i s a s i g a inonib, ruxsoringizni ko'rsatdingiz? O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. – Qanaqa bo'larkan! – dedi Nasiba barmog'i bilan p o' p i s a qilib. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. – Menga qarang, qayoqqa ketyapmiz o'zi? – dedi t a h d i d bilan. – To'xtating! O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Bu – Hafiz edi. Kechagina meni haqoratlagan, menga t a h d i d qilgan Hafiz mast bo'lib, cho'zilib yotardi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Men hamisha yolunub, gohi og'zaki d a v a r a l a r qilg'onimni so'zlag'onimda, ul kishi kuldi va aytdikim... A.Qodiriy, G'irvonlik Mallavoy. Boy otga mina turib yana d a v a r a qildi: – Ertalab albatta chiq. H.Nu'mon va A.Shorahmedov, Ota. Haydovchining d a g' d a g' a s i ta'sir qildimi, yigitlar oldinga o'tib ketishdi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Ziyofat yakun topgach, arazchi qariyalardan biri sohibi ehsonga “Sen menga aql o'rgatish uchun chaqirdingmi?” – deb d a g' d a g' a qila ketdi. T.Malik, Odamiylik mulki. [Navoiy:] Tahdid va s i y o s a t emas, mehribonlik darkor. Oybek, Navoiy.

E

EVAZIGA, HISOBIGA, BADALIGA. *ko'm. vzf.* Biror hatti-harakatning bajarilishiga sabab bo'lgan asos ma'nosini hosil qiladi. **Hisobiga** so'zi so'zlashuv uslubida ko'p uchraydi. **Badaliga** so'zi nutqda kam ishlatiladi.

-Otang u uzukni qancha zahmatlar, ne-ne mehnatlar e v a z i g a, uzoq shaharga borib sarson bo'lib olib kelgan. I.Sulton, Uzuk. ... zaruriy bir ishni ado etayotgani e v a z i g a siylov olayotganini balki it ham his qilar... U.Hamdani, Muvozanat. Sen qizni ham topasan. Nega topmas ekansan? Shuncha qiynalishlaring e v a z i g a uni, albatta, topasan. Xuddi boshqalarning erki h i s o b i g a erkalik qilayotgandek. A.A'zam, Bu kunning davomi. Razzoq so'fiki yolg'iz qizini baxtiqaro qilish h i s o b i g a ko'zini ochgan va sig'ingani eshon boboga qarshi qo'l ko'targan ekan, demak, bu chirigan hayot tarzini, ijtimoiy tuzumni tag-tomiri bilan o'zgartirish lozim. Cho'lpon, Kecha va Kunduz. Badavlat birodarlari h i s o b i g a yashasa u olim bo'lmaydi. T.Malik, Odamiylik mulki. Uning... vujudimga kirgan zarra tikan b a d a l i g a aql bovar qilmas mukofotlarni ato etadigan va har narsani o'rab-chulg'ab oluvchi hikmatlargacha bino qiladigan muborak zot ekaniga hech qachon shak keltirmaganman... I.Sulton, Boqiy darbadar. Inglizlar Turkistonga ko'p emas, yigirma besh yil hukmronlik qilish b a d a l i g a olam-olam aqcha sarfladilar. T.Malik, Savohil.

EGA, XO'JAYIN, XO'JA, SOHIB. Uy-joy, narsa-predmet, xizmatchi va shu kabi o'ziga tegishli mulkka egalik qiluvchi shaxs. **Ega** so'zi keng tushuncha anglatadi, bu so'zni har

qanday predmet egasiga nisbatan qo'llash mumkin. **Xo'ja, sohib** so'zlari eskirgan bo'lib, asosan, badiiy asarlarda uchraydi. **Xo'jayin** so'zi ushbu ma'nosida kam qo'llaniladi.

Mana shu toklarni, o'riklarni, bodom-u yong'oqlarni, anjir-u anorlarni senga qoldirib ketaman. E g a s i o'zing bo'lasan, meni qancha sevsang, ularni ham shuncha sevgin. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. -To'g'ri, ba'zan hayotda yana shunaqa qismat e g a lariga duch kelasanki, ular haqda bir nima demoqqa ojiz qolasan, kishi. Uning siri faqat yaratgangagina ayon... U.Hamdani, Muvozanat. Hamdani pivoxona x o' j a y i ni bilan o'zaro og'zaki shartnoma tuzib olgan edi. Bu shartnomaga muvofiq Hamdani uni nazoratchilardan himoya qilardi, u esa barcha mish-mishlarni oqizmay-tomizmay Hamdani yetkazardi. T.Malik, Shaytanat. Mening bir oshnam shunday derdi: aytadigan so'zimga o'zim x o' j a y i nman. E.Vohidov, Umrin daryosi. Farhod shohlar ahlining chin sevgi hislaridan mahrum ekanliklarini, odamgarchilikda, sevgida shoh bilan faqir, x o' j a bilan gadoning teng ekanini aytadi. H.Olimjon. Tanlangan asarlar. -Hech zamonda x o' j a xizmatkorini boshiga ko'tarmaydi. Kuyov o'g'ildan baland izzatlanishini unutmang. A.A'zam, Bu kunning davomi. Boz ustiga, g'oyatda uzoq umr ko'radigan va odamni hayiqtiradigan qismat s o h i b i bo'lmish bu maxluq kishida falsafiy xayollarni ham uyg'otardi. I.Sulton, Boqiy darbadar. Mirzaabdulla xonadon s o h i b i ni ko'p balolardan asrab yurishini bilardim. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

EZMA, EZMACHURUK, SERGAP, MIJG'OV, LATTACHAYNAR, MAG'ZAVA. Haddan tashqari ko'p gapirib, bezor qiladigan; sergap. **Ezmachuruk** so'zida ko'p gapirish belgisi kuchli ifodalanadi. **Mijg'ov, lattachaynar** so'zlari ko'p gapirish orqali fikrini aniq yetkaza olmaydigan ma'nosiga ega, bu so'zlarda salbiy munosabat bo'rtib turadi. **Ezma, sergap** so'zlarida salbiylik bo'yog'i birmuncha kuchsiz. **Mag'zava** so'zi so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, bu ma'nosida kam ishlatiladi.

-Ajoyib odam. O'zi o'lgudek e z m a. Tajanglikda tengi yo'q... S.Ahmad, Tanlangan asarlar. ... Ayniqsa, shu topda ko'ngli allaqaylarga tortayotgan Zebi uchun bir xil e z m a kampirlardan ko'ra bu – kamgap, seruyqu kampir yaxshi edi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Og'izlari maqtanib o'n besh qarish, Mayda suxan, e z m a ch u r u k, zanchalish. Muqimiy, Tanobchilar. -Xo'sh, onasi, qani so'yla, kim kirmadi so'zingga? To'polonda qaysi biri uzib ketdi yo'g'imda? Kenjatoying Asparuxmi, Nikolaymi, Ivanmi? Yo Yeftimmi – e z m a ch u r u k, Yordanmi yo Gencho?! O'.Umarbekov, Cho'pon Vasil va uning farzandlari. Yigit s e r g a p ekan, qahvani ichib bo'lgunicha ham gapdan tinmadi. Bo'tqa uni gardanidan changallaganicha ko'chaga sudrab chiqqisi keldi. T.Malik, Shaytanat. Genetika (irsiyat) fanidan saboq beradigan domlarning tashqi qiyofasiga qarab yoshini taxminlash g'alat. Bu novcha, serharakat va s e r g a p odamni ellikda desa ham, oltmishda desa ham bo'laveradiganday. N.Rahmat, Buni hayot debdilar. U [Hosilboyvachcha] hatto Kesakpolvonga ham yoqmadi. "Bu m i j g' o v n i n g qo'lidan faqat mijg'ov ishlar keladi", dedi. T.Malik, Shaytanat. - Otangiz qandoq ovqat chiqarsalar shuni yeyishga majburmiz. O'zingiz bilasiz, o'g'il bola kuchli ovqat yeyishi kerak. Bo'lmasa katta bo'lganda m i j g' o v, nimjon bo'lib qoladi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. – Namuncha l a t t a ch a y n a r s a n! – Kesakpolvon achchiqlanib, qo'lidagi piyolani stol ustiga tashladi... T.Malik, Shaytanat. -Sen ham mundaq gapirsang-chi, odamlar bola uchun jonini beradi, sen-chi, bitta qo'yni bahridan o'tolmayapsan. O'zi sen ham anavi l a t t a ch a y n a r xotiningga o'xshab... N.Asad, Ko'zmunchoq. M a g' z a v a odam ko'piklashaveradi-da. Sadbar xola ovunchoq bisotidan boshqa o'rinli dadda to-polmadi shekilli, qaviyotgan ko'rpasiga ninasini betartib botirganicha uzoq o'ygatoliydi. T.Yo'ldoshev. Ikki o't orasi.

EZMALIK, EZMACHURUKLIK, SERGAPLIK, MIJG'OVLIK, LATTACHAYNARLIK, MAG'ZAVALIK. Haddan tashqari ko'p gapirib, bezor qilishlik; sergaplik, ko'p gapirish orqali fikrni aniq yetkaza olmaslik.

-E z m a l i k da uloq xotinlarda ketgan. To'rttagina gapimiz ham ezma bo'ldimi? Biz gapirsak ishdan gapiramiz. T.Malik, Davron. Ko'plab zamondoshlarimiz e z m a l i k va vaysaqilikka o'rganib qolishgan, ammo sen bunday bo'lma. B.Niyozmatov, Hayot qoidalari. E z m a ch u r u k l i k ni jini yoqgirmaydigan, ya'ni sirkasi suv ko'tarmaydigan erkak ...nafrat va g'azabini o'zidan olib, shiddat bilan yoniga o'girildi-da, tashqariga chiqib ketdi. O'.Hakimali,

Poklikdan keyingi umr. *Sergap bo'lma, negaki, sergaplik shunday bir bo'shliqqa o'xshaydiki, unda qoqiladigan toshlar ham ko'p.* "Hikmatli so'zlar". **Sergaplik** – johillik alomati. Ba'zi ayollar ma'nosiz, poyma-poy so'zlamolikdan ko'ra sukut qila bilish nodir fazilat ekanini unutib qo'yadilar. T.Malik, Komila. *Ibn Sino o'z qissalarida mardlikni targib qilib, munofiqlik, sergaplik, yolg'onchilik, ishyoqmaslikni, riyokor imomlarning ikkiyuzlamachiliklarini fosh etadi.* F.Ro'ziyeva, Abu Ali ibn Sino qomusiy olim. *Kampirning mijg'ovligi, injiqligi ularning joniga tegib ketgan bo'lsa ajab emas. Hukmdor bunday bo'lishini kutmagan edi, albatta.* N.Rahmat, Buni hayot debdilar. *Borish kerak. Bormasa bo'lmaydi. Bo'lmas ekan! Adham sovuq bo'lsa ham, mard yigit. Rost, sudralib yurishdan ish chiqmaydi. Lattachaynarlikdan ish chiqmaydi, og'aynichalish.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Domla tergovchilarni lattachaynarlikda aybladi. Xo'jayin uning gapini kesib, qadah taklif qildi. Keyin ular latifanamo sarguzashtlarni aytishga o'tdilar.* N.Rahmat, Buni hayot debdilar.

EZMALIK QILMOQ, EZMACHURUKLIK QILMOQ, SERGAP BO'LMOQ, MIJG'OVLIK QILMOQ, MIJG'OVLANMOQ, MIJG'OV BO'LMOQ, LATTACHAYNARLIK QILMOQ, MAG'ZAVA BO'LMOQ. Haddan tashqari ko'p gapirmoq, sergap bo'lmoq, ko'p gapirish orqali fikrni aniq yetkazmaslik.

– Bobojon, bog'imizda o'rik ko'p-ku, endi qolganini ekmay qo'yaqolaylik... – Yo'q, bo'talog'im, hammasini ekib ketganim yaxshi. Katta bo'lsa, meva qiladi, mevasini odamlar yeb sen bilan meni duo qilishadi. – Duo qilishsa nima bo'ladi? – Savob bo'ladi-da, buncha **ezmalik qiliding**. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. – Savolingizga hozir javob berishim shartmi? – Mutlaqo shart emas. Gapdan gap chiqqani uchun ozgina **ezmalik qil dim**, kechirasiz. T.Malik, Shaytanat. *Rashidov ezmalik qilib, odamlarni zeriktirib qo'rganini sezdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr so'radi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Meva olsangiz, iloji bo'lsa donabay oling. 60 dona kartoshka, 40 dona piyoz... To'g'ri, biroz ezmachuruklik qilgan bo'lasiz, zato xaridingizning har biridan bir kilo-yarim kilo yutib turibsiz-da!* A.Meliboyev, Xotin yo'g'ida. – Sirkangiz suv ko'tarmaydigan ko'rinasiz. Mayli, xafa bo'lmayman. *Baxtsiz juvonning xafa bo'lgani bilan kim ham qiziqqan... Ko'nglim sezib turibdi, ezmachuruklik qil yapman.* O'.Hakimali, Poklikdan keyingi umr. *Ey farzand, dunyoda omon bo'lay desang, sergap bo'lma, zarurat tug'ilsa gapir, bo'lmasa jimlikni ixtiyor qil. Eng yoqimli xislat tilni saqlay bilishdir. "Bola – odobi bilan aziz". Sergap bo'lma va so'zni faqat o'zingniki qilib olma. Chunki suhbatdoshing senga javob qaytara olmasligi mumkin. "Bola – odobi bilan aziz". Cho'lga qachon kelganingizni, qanday qilib cho'lni obod qilganingizni aytib bersangiz? – U kuldi. Oriq panjalari bilan peshonasini uqalab, ko'z qiri bilan menga qarab qo'ydi. ... – Mehmon degan unaqa sergap bo'l maydi, – dedi u ayyorcha kulib. – Ertaga o'zingiz ko'rasiz. Bolalar aytib berishadi. Charchagandirsiz, yoting. S.Ahmad, Cho'l burguti. -Sotishga astoydil ahd qilishgan bo'lsa... olganimiz ma'qulroqmikin? – Sen unaqa mijg'ovlik qilma. Kechadan beri o'ylangandirsan, aniq bir fikrga kelgandirsan? T.Malik, Shaytanat. -Guvohlar soxtaga o'xshaydi, – dedi Hamdam boshlig'iga. Keyin Zohidga yuzlandi. – Menga qara, prokuror, mijg'ovlik qilmay to'g'risini aytib qo'ya qolmaysanmi, – u yana boshlig'iga qaradi. – Bu bola vintzavodni ham kavlashtirmoqchiga o'xshaydi. Fe'lini bilasiz-ku? T.Malik, Shaytanat. -Namuncha mijg'ov bo'lmasang! – deya xitob qildi sal tovushini ko'tarib... – Men ham Xudoning bir bandasiman. Lekin oddiy banda emas! Istasang, avliyo deyishing mumkin... H.Shayxov, Ikki jahon ovorasi. ...Bilib qo'y, Asad o'lsa, sen yarim kun ham yashamaysan! – Nimaga axir... men... – Lattachaynarlik qilma. Bu hukmni men chiqarmaganman. Bekor ham qilolmayman. Joningni saqlashning yo'li bitta – Asadni tuzatasan. T.Malik, Shaytanat. Professor sal jaxllandi: "Ko'plattachaynarlik qilma. Bilasan, unaqa odamlarni jinim suymaydi. ...Chaynalmasdan bor gapni ayt-qo'y-da". M.Hazratqulov, Chiroq o'chmagan kecha. *Ko'p mag'zava bo'lavermanglar. Men aytadigan gapimni aytdim.* M.Hazratqulov, Jur'at.*

EKMOQ, O'TQAZMOQ, TIKMOQ. Nihol, ko'chatni yerga o'tqazmoq, o'simlik urug'ini yerga qadamoq. **Ekmoq** so'zi keng tushunchaga ega, urug', ko'chat, ekin kabilarga nisbatan birdek ishlatiladi. **O'tqazmoq** so'zi faqat nihol, ko'chat so'zlari bilan

bog‘lanadi. **Tikmoq** so‘zi bu ma’nosida nafaol, so‘zlashuvda faqat *urug‘* so‘zi bilan birga qo‘llanishi kuzatiladi.

Durkun-durkun, shig‘il-shig‘il uzumlarning bari qirmizi tusda bo‘lardi. Boshqa turlarini ham e k i b ko‘rganmiz, lekin negadir unib-o‘smagan. I.Sulton, Ozod. [R a h i m a]: ...Hali Turkmaniston, hali Tojikiston, hali Qirg‘izistondan telefon ustiga telefon qilib, limonni qanaqa e k a d i, ko‘chatidan bittagina olishni iloji bormi, deb so‘rab turishgan bo‘lsa. Sal mundoq o‘z obro‘yingizga yarasha ish tutingda, jon dadajon. S.Ahmad, Kuyov. Bahor keldi. Shaharda daraxt o‘ t q a z i sh mavsumi boshlanib ketdi. A.Qahhor, Dahshat. Minglab behilar orasida shu behi aziz. Chunki u behini marhum ota o‘ t q a z i b ketgan. Bundan behining o‘zi bexabar, boshqalar uchun ham qadr-u qimmatini yo‘q. I.Sulton, Hazrati Majoz. Umid urug‘ini t i k k a n dehqon qalb Baxtining donasin qoldirmas yerda. Dilimiz o‘t olsin, kunlar dol-u zarb. O‘tsiz paxta bitmas, don yetmas elda. Zulfiya, Saylanma.

EPLAMOQ, UDDALAMOQ, UDDA QILMOQ. Berilgan topshiriq, yumushni bajara olmoq, uddasidan chiqmoq. **Uddalamoq** so‘zi, asosan, so‘zlashuvda ishlatiladi. **Udda qilmoq** so‘zi nutqda kam ishlatiladi.

Bola-chaqalari ham durustgina kiyinmaydi. Mehmenni ham e p l a b kutolmaydi. Majlisda bo‘lsa tili bir qarich. S.Ahmad, G‘ildirak. Qadamingni bilib bos, bola! Qizlarga osilgandan ko‘ra burningni e p l a sang-chi! Kimsan o‘zing! O‘.Hoshimov, Hikoyalar. Yanagi kelishimda, agar aytganlarimni u d d a l a s a n g, viloyat pioner tashkiloti seni qo‘l soat bilan mukofotlaydi, bildingmi? S.Ahmad, Tanlangan asarlar. -Bunga bir necha kun ketadi. – Turgan gap. Ikki kun sizga muhlat. Butun apparatni ishga soling. Istarsangiz, Sultonovni ham oling. – O‘zimiz u d d a l a y m i z. Boraveraymi? – Ha. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. Chokini chokiga keltirib, voqealarni ulash, taqdirlarni chog‘ishtirib borib uch kitobdan iborat yaxlit asar yaratish har qanday adibning qo‘lidan kelavermaydi. Buni chinakam iste‘dod egasi, Xudo yuqtirgan talantgina u d d a l a sh i mumkin. T.Malik, Shaytanat. U desam u dedi, bu desam bu dedi – hech bo‘lmadi, nihoyat “seni dumli odamlarga yo‘latish qo‘limdan kelmaydi, xatarli, xohlasang apparatingni ber, biladigan, u d d a q i l a digan ishonchli kishiga aytib, bironta dumli odamning suratini oldirib beraman” deyishdan boshqa chora qolmadi. A.Qahhor, Dumli odamlar. Bizning bobomiz Kengirboy sizlarning bobolaring Irg‘izboyga oq fotiha berganda, o‘z bolalarining yo yaqin kishilarining ichida biylikni u d d a q i l a digan odam qurib qolganidan bergan emas edi-ku. M.Avezov, Abay.

ERTA, BARVAQT, VAQTLI Odatdagi vaqtdan ilgari. **Erta** so‘zi barcha nutq uslublarida keng qo‘llanadi. **Barvaqt** so‘zida payt semasi kuchli ottenkaga ega. **Vaqtli** so‘zi bu ma’nosida, asosan, so‘zlashuv uslubida uchraydi.

-Qayoqda yuribsan, birga qaymoqxo‘rlik qilarmiz devdim. – Shunaqa niyati bor odam e r t a roq keladi, – dedi Asadbek unga javoban. – V a q t l i kelmoqchiydim, – Kesakpolvon shunday deb og‘zini qaymoqli nonga to‘ldirdi-da, kosani Asadbek tomonga salgina surib “Ol, ye” deb manzirat qildi. T.Malik, Shaytanat. O‘yinlardan ancha e r t a to‘ygan edim, Kitoblarga b a r v a q t havas qo‘ygan edim. E.Vohidov, Saylanma. Ertasiga Muhammadjon aka odaticha, b a r v a q t turdi. U.Hamdani, Muvozanat. Qattiq charchagan bo‘lishimga qaramay uxlayolmadim. Kampir juda b a r v a q t uyg‘onib, hovli supurdi, samovar qo‘ydi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Ular [Matluba va Mastura] b a r v a q t yo‘lga chiqib yaxshi qilishgan ekan, pachoq mashina goh radiatori qaynab, goh motori o‘chib, shaharga soat to‘qqizdan oshganda kirib borishdi. O.Yoqubov, Matluba. - Onasi, ertalab v a q t l i ketaman. Kiyimlarimga dazmol urib qo‘y, – dedi Sarvar, xotini uzatgan choyni olib. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. To xo‘roz qichqirguncha baza oldidagi skameykada u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirishadi. Tayyor poyloqchi topilganidan sevingan qorovul choponiga o‘ralib v a q t l i gina uyquga ketadi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

ESDALIK, YODGOR, YODGORLIK, XOTIRA 1 Inson xotirasida saqlanib qolgan taassurot, xotira.

Allaqachon yodimdan chiqqan, biroq chamasi ko‘nglimning bir chekkasida mudrab yotgan ham mayus, ham kuz oftobiday tiniq e s d a l i k l a r selday yopirilib keldi-yu, xayolimni olib qochdi. O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? [D a r v e s h a l i]: Mayli. Bundan keyin boshimga ne ko‘rgiliklar tushsin, hammasini ko‘ray, faqat sening ko‘z yoshlaringni ko‘rmay. Bundan keyin

faqir-u haqir sening xotirang bilan, sen in'om etgan baxtli kunlar esdaligi bilan yashayman. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. Axir kim bilsin, ehtimol bu xonim ham o'sha yoshlik esdaliklari sabab meni yo'qlab kelgandir? Ehtimol o'sha beg'ubor, musaffo tuyg'ular goho-goho uning diliga ham quyilab kelgusidir. O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? Tabiat qonunlarini hech qachon buzmagani o'sha otasidan u ko'p narsalarni o'rgandi. O'zidagi barcha yaxshi alomatlar otasidan yodgor edi. O'.Hakimali, Poklikdan keyingi umr. Inchunin, insondan qoladigan bebaho yodgorlik ezgu ishlar va yaxshi nomdir. Shunday ekan, har bir inson yaxshilik deb tug'ilib, yaxshilik deb yashashi lozim! O.Safarov, M.Mahmudov, Oila ma'naviyati. Sen kuylagan o'rik shu kecha Burkandi oq - oppoq chechakka. Men qadrdon xotira bilan Jo'nab ketdim uyimga yakka. Zulfiya, Saylanma.

ESDALIK, YODGOR, YODGORLIK, XOTIRA 2 Inson uchun xotira ramzi bo'lib qolgan biror narsa; yodgorlik. **Esdalik** so'zida xotira ramzi semasi kuchli ottenkaga ega. **Yodgor** so'zi biror kimsadan yodgor bo'lib qolgan narsa-buyum yoki shaxs ma'nosini anglatadi. **Yodgorlik** so'zi bu ma'nosida shaxs yoki xotira ramzi bo'lib qolgan narsa-predmetga nisbatan ishlatiladi. Bu so'z nutqda tarixiy inshoot va boshqa madaniy boyliklarga nisbatan ham qo'llanadi. **Xotira** so'zi bu ma'nosida kam ishlatiladi.

To'g'nog'ichni bir pas tomosha qilib, keyin uni buvim-ga qaytib berdim. Bu to'g'nog'ich buvimga qaynonasidan esdalik. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. [Qo'chqor]: Qo'y endi, foydasi yo'q, bo'lar ish bo'пти... Ishqilib, imonini bersin... Endi nima qilasan, Olimtoy? [Olimjon]: Nima qilardim, sog' qolgan qismlarini olib, zapchast qilaman. [Qo'chqor]: (sidqidildan). Ha, omon qolgan joylarini olib qo'y, yodgor-da... Sh.Boshbekov, Temir xotin. U Yozyovonga kim uchun boradi? Xasis akasini, onasidan qolgan yagona yodgor to'g'nog'ichni aza kuni taqib yurgan yuzsiz Yalpiza yangasini sog'inib boradimi? S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. Yetti yoshga yetganda kampir uni [Sahrobekni] yoniga o'tqazib, bolam, senga bor haqiqatni aytishim kerak, deb bo'lgan voqeani so'ylab, mana bu uzuk onangdan yodgorlik... debdi. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. -Bu shahriyorning farmonlari bilan tushirilgan. Hazrat sohibqironning eng ulug' zafarlaridan yodgorlik. T.Malik, Falak. ...turkman avzoyi buzilib, iziga qaytdi. Biroz o'ylanib turdi-da, enli belbog'ini yechib, kumush sopli xanjarini oldi. - Yodgorlik senga, - dedi xanjarni uzatib, - turkmanlar haqida yomon so'ylamading. Yo'lda yarog'siz yurma. T.Malik, Savohil. ...Sayyoh o'z yurtiga qaytgach, Osiyoda ko'rgan-bilganlari haqida "Mening shahri Haybarim" degan xotira kitobini yozadi. I.Sulton, Boqiy darbadar. Noinsof akam buvimni aldab, medalimni olib, xotiniga tish yasatib beripti. ...Bu medal qiynalib ishlab, qiynalib o'qigan paytlarimdan xotira bo'lib tursin, degandim. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

ESLAMOQ, ESGA OLMOQ, XOTIRLAMOQ, YODLAMOQ, YOD ETMOQ, YO'QLAMOQ 1 Xotirlamoq, yod etmoq. **Eslamoq** so'zi barcha nutq uslublarida erkin ishlatiladi. **Yodlamoq** so'zi bu ma'nosida kam qo'llanadi. **Yod etmoq, xotirlamoq** so'zlari, asosan, kitobiy uslubda uchraydi.

U [O'lmas] radioda to'rt yil birga ishlagan, frontda jag'ini oskolka maydalab tashlagan do'stini esladi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. Eslang, ulug' ma'rifatparvar va vatanparvar Behbudiy-u Fitrat, Qodiriy-u Cho'lpon kabi minglab, o'n minglab mo'tabar siymolar aslida, xalqimizning mana shu jabhada - Istiqlol yo'lida bergan ulkan qurbonlari emasmi? U.Hamdani, Muvozanat. - E, muxbir uka, bormisiz? Biz tomonlarga sira kelmay ketdingiz. Hol-ahvol so'rashdik. Kanal qurilishidagi qadrdonlarni esga oldik. S.Ahmad, Xazina. Shuncha joydan olib kelib, shuncha kundan beri poylab yotgan bechora aravakash bolani boshqa qizlarning bittasi ham esga olmadi, yo'qlamadi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. To'qson uchinchi yili Abdulla akani xotirlab jonliq so'yib, u kishini qadrlaydigan yetmishdan ortiq odamni chaqirib, dasturxon yozdim. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. Pochcha duoga qul ochdilar. U kishi ko'zlarini yumib olib, o'tganlarni xotirlab, duo qilyaptilar-u qaydandir allaqanday iforli hid taralib, mening aql-u hushimni o'g'irlab boryapti. M.Mansur, Judolik diyori. Burgut unut, degani bilan Jahongir uni unuta olmadi. Uni ko'p esladi. Bugun shifoxonada ko'z ochgani sabab bo'ldimi yo Shoqolning gaplarimi, harholda Burgutni yana yodladi. T.Malik, So'nggi o'q. Tongda xotini aybdor odamning siniq ovozi bilan debdi: "Ey muhtaram xojam, bir voqeani bexos yodladim..."

T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Belingdin kim xayolidur, yiroqdurman, meni y o d e t*, Umidim borki Boburdin, yetishgaymen xayolingga. E.Vohidov, Umrin daryosi. *Kechalari tushlarimga kiradi farzandlarim. Ular ham meni y o‘ q l a s h a r emish. Y o‘ q l a b*, yig‘lashar emish. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari.

ESLAMOQ, ESGA OLMOQ, XOTIRLAMOQ, YODLAMOQ, YOD ETMOQ, YO‘QLAMOQ 2 Esiga tushmoq, xotirasida tiklanmoq.

Bolaning yig‘isini eshitgan ayol piyoz to‘g‘rayotgan pichog‘ini qo‘yishni ham unutib, shoshqich ravishda chiqadi. Onasining qo‘lida pichog‘ ko‘rgan qizcha “yiqitsang – o‘ldiraman”, degan po‘pisani e s l a ydi-yu qo‘rqanidan tildan qoladi. T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *-O‘sha ko‘rganlaringizdan siz ham gapiring, hadeb bizni gapirtiraverasizmi. – Ona qizim-ey, qaytaga sizlar yaxshi e s l a yapsizlar. Qarib qolibman shekilli, xotiram xira, ko‘p voqealarni yodimga keltirolmayapman.* X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. *Bizningcha, to‘rttagacha uylanish ijozati nafsni qondirish uchun emas, balki aynan bevalarni o‘z panohiga olish uchun bo‘lsa kerak. Bu o‘rinda Payg‘ambarimizning (s.a.v.) kimlarga uylanganlarini yana bir e s g a o l sak joiz bo‘lar.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Saodat Taqdir ekan. Menda ayb yo‘q. Shuncha yil o‘tib U savdoni e s g a o lish nimaga kerak?* E.Vohidov, Umrin daryosi. [Tursunali] *“Shayton vasvasalaridan qutqar” deb so‘ramagan edi, “qamoqdan qutqarib ol” deb nolalar qildi. Birovlarning haqqini yeganida bu dunyoning hisob-kitobli ekanini unutgan edi, qamoq zindonida x o t i r l a d i.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Men bu yerga kelaturib o‘tmish zamondoshlarimiz ichida o‘tgan eng buyuklaridan ikki inson bilan bo‘lgan ikki voqeani x o t i r l a dim.* M.Mansur, Judolik diyori. *Ular o‘z mundarijalarida zikr etilgan shaxslar singari, to so‘roq kunigacha, y o‘ q l a n m a s dan va esga olinmasdan tashlandiq holda qolib ketdilar. So‘roq kunigacha zakunchi ularni x o t i r l a b qo‘yishga ham fursat topolmadi. Cho‘lpon, Kecha va kunduz. Jalol O‘t qo‘yarmiding? O‘z tug‘ilgan uyingga-ya! Qanday razolat! Nega seni ko‘rdim! Seni topgandan ko‘ra Vatan uchun qurbon bo‘lgan ukamga yig‘lab Pok ruhini y o d l a b o‘tsam bo‘lmasmi edi.* E.Vohidov, Umrin daryosi. *-Mullaka, yana bir gapni aytib ketay: ...Umrin qisqa bo‘lmaganida sirni o‘zim bilan olib ketardim. Yana orqamdan yomon o‘ylar bilan y o d l a m a ng, deb aytdim. Rozi bo‘ling... Men sizlardan – roziman... T.Malik, Devona. Go‘zal Ukraina dalalarida Yana avvalgiday tabiat gullar, Buyuk Rusiyaning o‘rmonlarida. Bizlarni y o d e t i b sayrar bulbullar.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Olloh taoloni poklab y o d e t g a n i m i z holda bermish eng ulug‘ ne‘matlari – farzandu nabiralarimizni ...iymon va diyonat bilan voyaga yetmoqliklarini nasib etmog‘ini so‘rab duolar qilamiz.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *Men qaro tuproqda yotgan o‘g‘lingizman, y o d e t ing, Intizor ruhim tilovat birla y o‘ q l a b shod eting.* E.Vohidov, Umrin daryosi.

ESHITMOQ, TINGLAMOQ 1 Tovush yoki ovoqli ko‘rinishdagi har qanday gap-so‘z, xabar va shu kabilarni qulog‘i orqali qabul qilmoq, tinglamoq. **Eshitmoq** so‘zining bu ma‘nosida quloq orqali eshitish semasi ustuvor. **Tinglamoq** so‘zi esa bu ma‘nosida kam uchraydi.

Hali aytdim-ku, bu gaplarning hammasini Ahmadqul bobomning darichasi yonida o‘tirib e sh i t dik. Hayitvoy ham e sh i t di, Murodxon o‘rtog‘im ham e sh i t di. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. [G u l n o z a]: *(Yolvorib.) Domlajon. Bas qiling bu eski plastinkangizni. O‘zgartiring kassetangizni. Boshqasini qo‘ying. [D a r v ye sh a l i]: Yo‘q, e sh i t asan mana shu eski kassetamni. Oxirigacha e sh i t asan.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *– E sh i t i b ko‘r-chi, qornimdan yig‘lamsiragan tovush kelmayaptimi? – Kelyapti! – dedim iljayib. – Menikidan ham kelyapti. Boyagi vino zerikib qoldi, sherigini chaqiryapti.* O‘.Hoshimov, Telpak. *Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda, Ko‘p ertak e sh i t g a n d i m, So‘ylab berardi buvim.* H.Olimjon, Oygul bilan Baxtiyor. *Zavqdanmi, afsusdan lablari qurib Ichar ko‘klam bo‘yi anqigan qimiz, Mezbonlar siylashar ming taom qo‘yib, Hikoya t i ng l a y m i z, she‘r o‘qiymiz biz. Zulfiya, Saylanma.*

ESHITMOQ, TINGLAMOQ 2 Biror kimsaning gapini tushunib yetish maqsadida diqqat-e‘tibor bilan tinglamoq. **Eshitmoq** so‘zi bu ma‘nosida qo‘llanganda ko‘pincha *diqqat bilan, yaxshilab, astoydil* kabi birliklar bilan birga keladi. **Tinglamoq** so‘zida *diqqat bilan eshitmoq* ma‘nosi bevosita ifodalanadi.

...uyimizga Esonqul bobom, Ahmadqul bobom yana bitta bobo kirib ketayotgan ekan, o'shayoqqa qarab yugurdim. Bilaman, hozir qiziq-qiziq gaplar boladi, mazza qilib **e sh i t aman** endi. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. -Gapimni diqqat bilan **e sh i t**. Seni zo'rg'a topdim. Mayli, gap bundamas. Diqqat bilan **e sh i t**. Hozir bir joyga boramiz. G'ing deb ovoz chiqarmaysan. Yomon bo'ladi, tushundingmi, menga yomon bo'ladi. O'.Hoshimov, Nega? Nega-a-a?! Bilib qo'y, bu rivoyat o'zimizning ona Zarjahon haqida. Yaxshilab **e sh i t**. Balkim, bola-chaqangga so'zlab berarsan. M.Toshpo'latov, Maydon. Bemorlar uning [Zulfiqorning] bu gaplarini quloq qoqmay **t i n g l a s h a r d i**. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Baygildin u qadar vahima qilmadi. Ma'lumotnoma, hisob-kitoblar xulosasi bilan tanishgan bo'lsa-da, Samandarning tushuntirishlarini diqqat bilan **t i n g l a d i**. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar.

EHTIYOJ, MUHTOJLIK, ZARURAT, ZARURIYAT, HOJAT, ZORLIK, TALAB. Biror narsaga nisbatan yuzaga kelgan zarurat, talab, muhtojlik. **Ehtiyoj** so'zida **muhtojlik** semasi ustun. **Zarurat, zaruriyat** so'zlari bu ma'nosida kerakli ehtiyojga nisbatan ishlatiladi. **Hojat** so'zi bu ma'nosida juda kam qo'llanadi, ko'pincha *bor, yo'q* so'zlari bilan birga qo'llanadi. **Zorlik** so'zida **muhtojlik** semasi ustuvor, **ehtiyoj** semasi nisbatan kuchsiz ifodalanadi. **Talab** so'zida **ehtiyojga aylangan istak** semasi mavjud.

Bizning e h t i y o j g a na parvoying bor? Do'koning bo'lakdir, bozoring bo'lak. Har kas oxiratda xoki turobdur, O'shanda ham sening mozoring bo'lak. E.Vohidov, Umrin daryosi. *Tangri taolo hammaga e h t i y o j i g a yarasha ne'mat beradi.* I.Sulton, Hazrati Majoz. *Ergashvoy shu mehnatkash odamning qo'lida m u h t o j l i k nimaligini, yetimlik nimaligini bilmay o'sdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. -*Mening o'g'lim Yusufga bo'lgan mehringiz uchun Muhammadjon aka, sizga mingdan ming rahmat aytaman. Lekin uyga m u h t o j l i k joyimiz yo'q. Xudoga shukr, birovdan oldin, birovdan keyin degandek...* U.Hamdani, Muvozanat. *Qo'ziboy tug'ruqxona bitgandan beri bu yerga endi kelishi. Uning bu yoqlarga kelishiga hech qanday z a r u r a t ham bo'lmagan edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *O'qishni bitirish, ishlash orqaga surilsa zarari yo'q. Lekin uylanish - tabiiy z a r u r a t, uni orqaga surish oila uchun uyatli holatlarga olib kelishi mumkin.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Samimiyat va sadoqatga asoslangan do'stlik hamisha, har yerda va har sharoitda ishonchli bo'ladi. Z a r u r i y a t va majburiyat natijasida paydo bo'lgan do'stlik esa unday bo'lmaydi.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Aqlli odam dunyoda vaqtinchalik qolish uchun amr etilganini, va'da qilingan ajal kelguniga qadar z a r u r i y a t d a yashayotganini biladi.* T.Malik, Shaytanat. *She'rni o'lchab bo'lmaydi. Zargar taroziga h o j a t yo'q. She'r tarozisi o'quvchi qalbida.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Biz ikkovlon – davlat kotibi bilan Yoningga keldig-u dedik: "Podisho – El h o j a t i uchun chek bunda imzo".* E.Vohidov, Saylanma. *Barcha shodlik senga bo'lsin, Bor sitam, z o r l i k menga. Barcha dildorlik senga-yu, Barcha xushtorlik menga.* E.Vohidov, Saylanma. ...yana mehrga z o r l i k dashtida qolgan bola uchun non do'konida ishlovchi amaki qatoridagi odamning berguvchi nonidan ko'ra birgina shirin so'zi azizroq edi. T.Malik, Shaytanat. *Taqsimotda Toshkentda qoldirishgan ekan, "yo'q, Surxondaryoga yuborasizlar" deb turib olibdi. T a l a b i n i qondirishibdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Demak, uylanish va oila qurish iymon t a l a b laridan biri ekan.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Qornimiz-to'ygach, olam munavvar bo'lib ketdi va deyarli hammamiz allaqanday dilkash, qadrdon ohangga ehtiyoj seza boshladik. Bu t a l a b daqiqa sayin oshib boraverdi.* N.Rahmat, Buni hayot debdilar. *Shifoxonamizga t a l a b kuchayib ketdi, – dedi professor bizga inshootlar oralab borar ekanmiz, – Shuning uchun inshootlarimizni qurib ulgurmayapmiz.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

F

FARZAND, BOLA, ZURYOD (ZURRIYOT), TIRNOQ. Er-xotinning (er yoki xotinning) o'zidan dunyoga kelgan zot. **Zuryod** ko'proq folklor asarlarida qo'llanadi. **Tirnoq** ko'pincha farzandsizlik holatini ifodalashda, oddiy nutqda qo'llanadi.

Urush to'zoni Buxorodan olislarda qo'zg'alib-bosilganidan buyon uzoq yillar o'tdi. Ammo, jangga farzandlarini yuborgan Buxoro hamon o'rtanar, hamon qurbonlar alamini chekardi... (Omon Muxtor, Yillar shamoli). Kamol Kamtariy uylangandan keyin uzoq vaqtgacha farzand ko'rmadi. Nihoyat, qirq to'rt yoshida xotini o'g'il tug'ib berdi. (A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola). Ne-ne orzu-umidlar bilan o'stirgan farzandining balog'at yoshini ko'rolmagan onalar, farzandlik qarzini o'tolmay armonda qolganlar qalbini tirnab kelgan dard-u alamini ifoda qilib bo'larmidi. (S.Ahmad, Mehribon). – O'ylab ko'rsam, inim, bu olamda odam bolasidan razilroq maxluq zotining o'zi yo'q ekan! Agar bilsang, o'tgan oqshom anovu yaramaslarning oldiga borimni to'kkandim, yangangni chirillatib, ikkita tovug'ini qozonga bosgandim... Yeyishdi, ichishdi... Bugun esa... mana... meni unutishdi! (N.Norqobilov, Oriyat). Ko'rdingizmi, sodda qush deganimiz, ona kaklik menday bir aqlli cho'pon bolani qanday chalg'itib, tuxumlarini, bo'lajak jo'ja bolalarini asrab qoldi. (A.Suyun, Nevaralarim uchun). Yuragimdan bexabarsiz-ku, yotgan joyimda to'lg'anib tong ottirardim. Axir, mana, o'n yil bo'lyapti, tirnoqqa zormiz-ku, ustoz. Axir siz ham farzand orzusi bilan yashaysiz-ku. (O.Yoqubov, Bir koshona sirlari). Ammo hijron dardida o'lib ketishni o'ylasang, dunyo ko'zingga qorong'i bo'lib ketadi. Yaxshiyam zuryod bor. Ana shular baxti uchun yashaging keladi. (S.Ahmad, Laylak keldi). Ko'z oldimda Said Mahmudxon To'raning mamnun siymosi gavdalangandek bo'ldi. Ha, sohib karomat, valiy va zakiy zot o'z niyatiga yetgandek, ruhi ham obodu farovondek edi: chunki endi uning zuryodi o'z yurtida, o'z bayrog'i ostida, o'z qondoshu jondoshlari bilan hamsaf bo'lib, qaddini tik tutgan holda yashaydi! (M.Ali, Abadiy sog'inchlar).

FAROSATLI, ZEHNLI, DIDLI, ZAKOVATLI, ZUKKO, ZAKIY, ZOL. Zehn-farosati yaxshi. **Zukko, zakiy** nisbatan eskirgan. **Zakovatli** yozma nutqda uchraydi. **Zol, zakovatli** aql-farosati juda kuchli bo'lgan, asosan, kata yoshdagi kishilarga nisbatan qo'llanadi.

Tabiiyki, o'tkir zehni, bilimga chanqoq, san'atga sadoqatli shogird uchun bunday bebaho maktab hech qachon bekor ketmaydi. (S.Ahmad, Tanlangan asarlar). Hammayoqda didli, mehribon xotinning qo'li sezilib turardi. (S.Ahmad, Mehribon). Termulaman bu xush chiroyga, Xo'p zukkosiz, odamlar, mudom. (A.Oripov, Hayrat). Ne-ne zukkolarning qabrini, odam bolasining yerda yotganini ko'rib, shukur qilasan! (S.Ahmad, Yer uyg'onganda). Biz kata avlod orasidagi qobiliyatsiz olimlardan ranjiymiz. Bu sohada qanday o'rnashib qolgan, nima uchun zukko ustozlar ularga yo'l ochib berishgan, deb bosh qotiramiz. (T.Malik, Davron). Shayx bilan shayxulislom suhbati - ikki sohibi ilmning, ikki zukko olimning suhbati edi, ikkisi ham bir-birlari haqida yaxshi taassurotlarga ega bo'ldilar, mazmunli gurunlardan bag'oyat rohatlandilar. (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). Ha, sohib karomat, valiy va zakiy zot o'z niyatiga yetgandek, ruhi ham obodu farovondek edi: chunki endi uning [Said Mahmudxon To'ra] zuryodi o'z yurtida, o'z bayrog'i ostida, o'z qondosh-u jondoshlari bilan hamsaf bo'lib, qaddini tik tutgan holda yashaydi! (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). Qirq yil zahmat chekdi qay bir zakiy zot Bir kun etmoq uchun fikrin ifoda. (A.Oripov, Hayrat).

FARQ, AYIRMA, TAFOVUT. O'zaro o'xshamaydigan, bir-birida topilmaydigan belgi-xususiyat, tomon. **Ayirma** bu ma'noda juda ham qo'llanadi. **Tafovut**, asosan, kitobiy uslubda qo'llanadi.

Kecha Mahmudxon degan shogirdimiz bir savol berdilar, so'fiylik xususida... Ya'ni tasavvuf bilan tamaddunning farqini sharhlab bersalar, degan edi. (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). Bu asabi qaynagan yo'lovchilar uchun Jo'rabek bilan boyagi buqabo'yinning qanday farqi bor?

(S.Ahmad, Xotin). *Bor kitoblari tokchada yotibdi. Shuni esladi-yu, o'zi bilan Sayyora o'rtasidagi farqning nihoyatda kattaligini sezdi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Istak bilan iroda o'rtasidagi tafovutdan ko'p qatori Davron ham bahraand.* (T.Malik, Davron).

FAQAT, YOLG'IZ, BIRGINA, TANHO, XOLOS. Bu so'zlar cheklash-chegaralash bildiradi. **Tanho** ko'proq badiiy uslubga xos. **Yakka** bu ma'noda ma'lum birikmalar doirasidagina qo'llanadi.

Chechaklar bo'y taratishdan tiyilib, maysalar qo'nishib oldi. Faqat ko'pni ko'rgan keksa buloqqina beparvo, odatdagidek, bamaylixotir oqishda davom etardi. (N.Norqobilov, Buloq). *Hammayoq jimjit. Faqat qishloqda xo'rozlar qichqiradi va onda-sonda itlar vovullaydi.* (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Kampir qimirlamay turib qoldi. Oy orqa tomondaligidan uning yuzi ko'rinmas, faqat sochlari kumushdek yaltirardi.* (S.Ahmad, Rahmat, azizlarim). *Shu xotiralardan boshqa nimam bor mening? Axir men muhabbatimni ehtiyot qilolmagan, yolg'iz yaxshi ko'rish bilan kifoyalanib yurgan odamman-ku!* (O'.Hoshimov, Xayollarga bo'laman tutqun...). *Shu topda oldimda o'tirgan kishining sevgan san'atidan, kasbidan ajralganini, uning ajoyib mahoratidan kishilar benasib bo'lganini ko'rib, bu urush yolg'iz shaharlarnigina vayron qilmadi, yolg'iz otani boladan, bolani onadan judo qilmadi, balki omon qolganlarning ham tanasida jarohat izlari qoldirib ketganini ko'rib turardim.* (S.Ahmad, Xazina). *Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni oiladagi shaxsiy baxtimizdan iborat bo'lganida, shaxsiy baxtimiz birgina oiladagi muhabbatda o'z ifodasini topganda edi, unda hayot deganlari chindan ham qop-qorong'u sahroga aylanib qolgan bo'lardi.* (T.Malik, Odamiylik mulki). *Qo'shnilarining u [na'matak] bilan deyarli ishi yo'q: na yigitning uydagilari va na qizning ota-onasi o'simlikka egalik nigohi bilan qarar, aksincha, har safar kuz kelib, bog'dagi turli-tuman daraxtlarning hosili yig'ib olinganda, birgina shu, – na u va na bu tarafdagi na'matak mevasi terilmay, – qanday bo'lsa, shundayligicha shoxlarida qolardi.* (U.Hamdani, Na'matak). *Shu oydin kechada hamma narsa uning xotiridan ko'tarildi-yu, birgina Omonning yuzi, ko'zi, gavdasi, butun borlig'i bilan paydo bo'ldi.* (S.Ahmad, Muhabbatning tug'ilishi). *Mahmudxon turli mamlakatlardan kelgan hojilar musulmonchilik burchlarini o'z zimmalaridan soqit etishib, baxtiyor yurtlariga qaytganlaridan keyin ham bir oy o'zi tanho tabarruk makon ziyoratida bo'ldi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Aytishga oson, xolos. Aslida, toqatim toq bo'ldi.* (U.Hamdani, Bir piyola suv). *MTS da agronom bo'lib ishlaydigan dadasining bo'sh vaqti oz bo'lgani uchun, uning kitoblarini kutubxonaga Shokirning o'zi o'tkazib, o'zi olardi. Dadasi esa kerakli kitoblarni unga ro'yxat qilib yozib berardi, xolos...* (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Yo'q, o'n sakkiz satr ichidan faqat "insof"mi degan so'zni o'qiy oldim, xolos.* (S.Ahmad, Bahor suvlari).

FAHM, FAROSAT, DID, TAMIZ, O'QUV, ZEHN, IDROK. Kishining to'g'ri mulohaza yuritish, to'g'ri xulosa chiqara olish, biror narsaning mohiyatiga tushuna olish qobiliyati. **Fahm** so'zi ma'no jihatdan ba'zi o'rinlarda **aql** so'ziga yaqinroq turadi. **Did** so'zi biror narsadagi go'zallikni, nafislikni, uning yaxshi-yomon tomonini ajrata olish qobiliyatini ham bildiradi. **Tamiz** so'zi hozirgi adabiy tilda juda siyrak qo'llanadi. U, asosan, tamizi yo'q, tamizi yetmaydi kabi salbiy tushunchalarni ifodalashda qo'llanadi.

Yigirma besh-yigirma oltilarlagi Said Akramxon To'ra pahlavon kelbat, aqli, farosati o'tkir bir yigit edi. (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). – *Stipendiya tegibdi-da, jiyani? Diding durust, yaxshi tufli tanlading.* (S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg'alar). *U [Fir'avn] shu paytgacha bunday nozik did va mehr bilan to'qilgan gilamni ko'rmagan ekan.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Podsholikning ilmli, zehni o'tkir kishilarga ehtiyoji ko'pdur...* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Ammo Abdulg'anixon podsho saltanatining puturdan ketib borayotganini idrok ko'zi bilan ko'rib turardi, shu sababdan betob ekanligini bahona qilib Bachai Saqoga qarshi urushga borishdan bosh tortdi...* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar).

FAXRLANMOQ, FAXR ETMOQ, G'URURLANMOQ, MAG'RURLANMOQ. O'zini faxrli (g'ururli) tutmoq, faxrli (mag'rur) kayfiyatga bo'lmoq. **Faxr** etmoq kam qo'llanadi.

Mening otam milliy qahramon ekan. Xalq ozodligi uchun kurashgan. Men shunday otam borligidan faxrlanaman. (S.Ahmad, Buqalamun bilan uchrashuv). *Abdulla bu qizning oldida*

shuncha bilganlari uch pul ekaniga tushundi va shu paytgacha o'zicha faxrlanib yurganidan uyalib ketdi. (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Tabiiyki. Said Mahmudxon To'ra nomdor ajdodi bilan faxrlanadi va o'zidagi holi qudrat valiylik, sohibi karomatlik shijoatlarini o'sha bobosidan ko'radi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Shuning uchun ham "Sabo!" deya yoki boshqa bir ismni aytib, qulog'imiz ostida bong ursalar-da, bir seskanib qo'ymaydigan holga tushib qolganmiz va bundan, albatta, g'ururlanamiz.* (U.Hamdani, Sabo va Samandar). — *Ha, menga ishonaver, — dedi chol g'ururlanib... Sulaymon ota yolg'on gapirmagan. Rohatijon joy bo'ladi bu yer* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Ajabo, ona millatning bir vakili, xalqingning bir farzandi shunday sharafga sazovor bo'lganidan, sen uni tanimasang ham, sen bilan u yashagan davr bosh qaboshqa bo'lsa ham, beixtiyor g'ururlanib ketganingni bilmay qolasan kishi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar).

FOYDA, NAF, MANFAAT, HAYON. Biror narsadan keladigan yaxshi natija, yaxshi oqibat, zarar (ziyon)ning aksi. **Foyda** keng tushunchaga ega va keng qo'llanadi. **Naf, manfaat** kitobiy. **Hayon** eskirgan.

"Hukumatga sariq chaqalik foydang tegmagan, faqat zararing tekkan!" deydi. (S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg'alar). *Harholda keyingisi to'g'riroq bo'lsa kerak, rashkdan nima foyda?* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). — *Bir emas, ko'p narsaga tushunmaysiz. O'ydim-chuqur qilib yuborgan yeringiz necha gektar, bilasizmi? Ishingiz qancha tez tugasa, kolxozga shuncha foyda.* (T.Malik, Davron). — *Bundan nima naf? Ota-bobolarimiz ularni [kitoblarni] ming yildan beri o'qib kelishdi, avaylab, butun umr yonlarida olib yurishdi, lekin natija, natija nima bo'ldi?* (U.Hamdani, Sabo va Samandar). — *Agar shahar topilsa, yana ham yaxshi. Muzei bo'lsa nur ustiga a'lo nur. Muzeining kolxozga nafi tegmaydi, deysizmi? Naf deganda faqat pulni emas, ma'naviy boylikni ham hisobga oling-da!* (T.Malik, Davron). *Rais shunchaki mehribonlik qilyaptimi yo bu ishdan kolxozga manfaat ko'ryaptimi? Harholda bir sir bor.* (T.Malik, Davron).

G

GAVDA, JUSSA. Inson yoki hayvon vujudining bosh va qo'l-oyoqdan tashqari qismi. Jussa, asosan, gavdaning katta yoki kichikligini ta'riflashda ("katta", "kichik" kabi so'zlar bilan birga) qo'llanadi.

Isyo bobo, qotmadan kelgan uzun gavdasini ot ustida to'g'ri tutib, oldiga — uzoqlarga qarab borardi. (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Shu oydin kechada hamma narsa uning xotiridan ko'tarildi-yu, birgina Omonning yuzi, ko'zi, gavdasi, butun borlig'i bilan paydo bo'ldi.* (S.Ahmad, Muhabbatning tug'ilishi). *Nahot, shu uvoqqina jussada shunchalar katta, ishonib bo'lmas pahlavon kuch yashirinib yotgan bo'lsa. Buni "To'pponcha polvon" deb bekorga aytmagan ekanlar.* (S.Ahmad, Cho'l burguti). *Shayx Dehlaviy oltmishlarga borgan, jussasi kichik, o'rta bo'yli, qalin soqolli, kagga-katta ko'zlari hamisha kulib turadigan bir odam ekan.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar).

GAVDALI, JUSSALI, BARVASTA, NORG'UL, QOMATDOR, BARZANGI. Gavadasi katta. **Barvasta** oddiy so'zlashuvda juda kam uchraydi. **Norg'ul**, asosan, yosh, yigit kishilarga nisbatan qo'llanadi. **Barzangi** salbiy bo'yoqqa ega.

— *Menda bor! — dedi ikkinchi qatordan gavdali bir ayol ko'tarilib.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Nihoyat yirik gavdali general Abdulhoshimxon dabdaba-yu as'asa bilan Demazangga kirib keldi va baxmal yopinchiqli stulga o'tirdi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Davrada "Muborak bo'lsin!", "Qutlug' bo'lsin!" degan ovozlari yangradi. Hamma o'ng tomonda jim o'tirgan barvasta odamga havas bilan qarardi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Tanobchilarga yordam berish uchun qishloq oqsoqoli beshta norg'ul yigitni ajratibdi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Oppoq osilib yotgan g'ozalar orasidan "Alif-Laylo"dagi ko'zachadan chiqqan Ahraman devdek baland, har yag'riniga bittadan odam minsa bo'ladigan o'ttiz besh yoshlardagi norg'ul yigit mashinaga qarab kelardi.* (S.Ahmad, Cho'l burguti). *Ko'kragiga Brus Lining suvrati tushirilgan mayka kiygan, barzangi yigit o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib qulliq qildi.* (S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg'alar).

GANGIMOQ, DOVDIRAMOQ, ESANKIRAMOQ, GARANGSIMOQ, GANGRAMOQ, KALOVLANMOQ, MENGROVSIMOQ, TALMOVSIRAMOQ,

OBDIRAMOQ. Biror narsa ta'sirida to'g'ri fikrlash, fikr aytish, to'g'ri harakat, qilish holatini yo'qotmoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq. **Esankiramoq, dovdiramoq** so'zlarida belgi darajasi kuchliroq. **Garangsimiq, gangramiq, mengrovsimiq, talmovsiramq** nisbatan kam qo'llanadi. **Kalovlanmoq** so'zida "fikr aytish" ottenkasi yo'q. **Obdiramoq** dialektida.

*Dunyoda farzand ko'rmagandek yana so'qqabosh bo'lib qoldim. O'zimni qayoqqa qo'yishimni bilmayman, devonaga o'xshab **gangib** yurdim.* (S.Ahmad, Turnalar). *Gulchehra institutdan boshi **gangib** chiqdi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Chunki zimdan ish ko'ruvchi odamga zimdan nafrat bildirish behuda. U bilan do'st bo'lishni ham, bo'lmaslikni ham bilmay **gangib** yurasan.* (T.Malik, Davron). *Kutilmagan qaltis savoldan Aziza **dovdirab** ketdi, yuzlari duv qizardi, kipriklari pirpirab uchdi.* (U.Hamdam, Sabo va Samandar). *Mutal **dovdirab** nima deyishini bilmay, tayinsizroq bir gap aytib qutulib ketmoqchi bo'lardi-yu, ammo odatda shu gaplardan keyin keladigan: kattasi nechaga kirdi, degan so'roqdan keyin, qiynalib-qiynalib javob berishga majbur bo'lardi.* (S.Ahmad, Ko'zlarigda o't bor edi). *Nilufar, ochiq kunda gumburlagan momaqaldiraqdek kutilmaganda "hujum" qilgan "yangilik"dan **esankirab** qolgan Nilufar qiz endi xotirasini titkilab, Murodjon haqida onasi Hilola opaning ham ul-bul deganini esladi.* (U.Hamdam, Sabo va Samandar). *Jo'rabek qulog'iga chalingan tanish ovozdan seskanib ketdi. Qo'lida yonib turgan gugurt cho'pini qayoqqa tashlashni bilmay **esankiradi.*** (S.Ahmad, Xotin). *Bu xat Abdullani **esankiratib** qo'ydi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *O'zim shahardan bezib qishloqqa qaytib kelgandim. Endi qayga borishni bilmay **garangsib** turibman.* (T.Malik, Davron). *Hindistonlik missionerlar tillari bog'lanib, hech narsa deya olmay qoldilar. Ular bu palla mushtlashuvda birikki musht ortiq yeb, **garangsib** qolgan odamni eslatar edilar.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Omontoy nima deyishini bilmay **gangrab** turardi.* (S.Ahmad, Bo'ston). *Maorif vaziri **kalovlandi,** keyin, men gapni shu yergacha olib keldim, endi sen davom etdir, yordamlashib yubor, deganday shu vaqtgacha jim qo'l qovushtirib turgan Hoshim Shoiqqa qaradi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Poyezddan eng oxiri Abdulla tushdi. U **talmovsirab** atrofga qaradi, keyin sudralib vokzaldan chiqdi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin).

GAP, JUMLA.

*Adibaxon aya o'g'lining kagga odamlardek gapirgan **gaplaridan** hayron edi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Olimning intihosiz **gaplari** uning og'iz ochishiga imkon bermasdi.* (S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong). *Dala yo'lida ketayotgan Qo'ziboy shu **gaplarni** eslab kulib qo'ydi.* (S.Ahmad, Bo'ston). *Oradan ko'p yillar o'tdi. Shoh Muslim keksa olimning **gaplarini** ham, o'zini ham unutdi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Olimning intihosiz **gaplari** uning og'iz ochishiga imkon bermasdi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Xat tagiga qiyshiq bir **jumla** qo'shib qo'yilgan edi, Abdulla zo'rg'a o'qidi: "Kechiring, o'choq boshida yozdim. Xatolari ko'p".* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin).

GAPDON, SO'ZAMOL, NOTIQ. Gapga usta, topib (boplab) gapiradigan, nutqi o'tkir. **Gapdon, so'zamol** umuman "gapni o'rniga qo'yadigan, topib so'zlaydigan" ma'nosini bildiradi. "Nutqi o'tkir" ma'nosida bu so'zlar, ayniqsa, gapdon so'zi, oddiy so'zlashuvga xos. **Notiq** adabiy tilga xos va u umuman gap-so'zga ustalikni emas, balki nutq so'zlashdagi ustalikni bildiradi.

*Iyagi silkinadigan bemor anchagina **gapdon** ekan.* (S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda).

GAPIRMOQ, SO'ZLAMOQ, SO'YLAMOQ. Gap aytmoq, so'z aytmoq. **Gapirmoq** so'zi so'zlamq (so'ylamoq) so'ziga nisbatan keng qo'llangan. **So'zlamq** kitobiy so'z. **So'ylamoq** ko'proq poeziyada qo'llanadi.

*Jalol polvon yana qo'chqor to'g'risida **gapirib** qolishmasin, deb, asli kamgap odam bo'lishiga qaramay, uzundan uzoq gap boshladi.* (S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda). *Direktor maktab xo'jalik mudiriga qarab nima to'g'risidadir achchig'lanib **gapirmoqda** edi.* (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Kampir yangi ko'rpacha solib, Abdullani o'tkazar ekan, sevinchi ichiga sig'may, shang'illab **gapirar,** Abdulla esa javob berishga ulgurolmay jilmayardi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Shayx uzoq **gapirdi.** Uning ovozi quloqlarga yoqar darajada shirali edi.* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Birinchildan, **so'zlaganda** vaziri a'zam o'zini nihoyatda erkin tutdi,*

ikkinchidan, podsho uning bironta ham so‘ziga e’tiroz bildirmadi, aksincha ma’qullab bosh irg‘ab o‘tirdi. (M.Ali, Abadiy sog‘inchlar). – *Tovarish yak, – dedim iloji boricha muloyim, vazmin so‘zlamogga tirishib, – ruxsat bersangiz, men o‘sha yoqqa bormasam.* (E.A’zam, Chapaklar va chalpaklar mamlakati). *Bunda mahbuslar xayollariga erk beradilar. Boshlaridan o‘tgan voqealarni so‘zlab beradilar.* (S.Ahmad, Sarob). *Osmondagi bo‘zto‘rg‘ay Bo‘zlamasang na bo‘lg‘ay? Gulchehraning holini So‘zlamasang na bo‘lg‘ay?* (O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin). — *Kechdim! So‘ylangiz!* — *ijozat berdi podsho tobora hayrati oshib.* (M.Ali, Abadiy sog‘inchlar).

GINA QILMOQ, YOZG‘IRMOQ, O‘PKALAMOQ. Xafalik, norozilik bilan nolib gapirmoq. **Yozg‘irmoq** so‘zida aybsitish ottenkasi ham bo‘ladi.

Nima bo‘ldi-yu, tushim chalg‘ib, Shamsiddinni ko‘ribman, u, nega Fazliddinning halok bo‘laganini mendan yashirasiz, deb gina qilar emish. (S.Ahmad, Turnalar). – *Shunaqasan-da, Anvar, – dedi qiz undan o‘pkalagandek kulib.* (S.Ahmad, O‘n sakkiz yoshing).

GRUPPA, GURUH, TO‘DA, TO‘P, TURKUM. 1. Shaxs yoki narsalar yig‘indisi. **Gruppa, guruh** so‘zlari hamma vaqt odamga nisbatan qo‘llanadi. **To‘da, to‘p** so‘zlari esa hayvonlarga, shuningdek, jonsiz predmetlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Turkum** kam qo‘llanadi. 2. Maqsadi, ishi bir xil bo‘lgan kishilar uyushmasi.

Qo‘ziboy armiyadan o‘zining tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i Simsoyga qaytib kelganda, Kokila havaskorlar gruppasi bilan Toshkentga festivalga ketgan edi. (S.Ahmad, Odam va bo‘ron). *To‘satdan, yaqin joyda bolalarning kulgisi eshitildi va shu zamonoq jiydazorning ichidan bir guruh qiz va o‘g‘il bolalar chopishib chiqdi.* (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Gulchehra to‘xtab o‘girildi. Bir guruh yigit-qiz uni o‘rab oldi.* (O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin). *Ammo professor unga [shahar boshlig‘i] ortiqcha e’tibor bermadi: mening ham, fahmimcha, butun guruhning ham bu o‘laksa anqib yotgan shaharda bir kun ham turgimiz kelmayotgandi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Orqada senga chaqchaygan ko‘zlarini tikib turgan bir to‘p olomon, oldinda ham bir guruh qiyofasiz odamlar senga serrayib qarab turishardi, faqat o‘ng tarafdagi anhora qurilgan yolg‘izoyoq ko‘prikkina bo‘sh edi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Ichadiganlar jarang-jurung qilib urishtirdi. Ichishdi. Har qaysi to‘da Sayfulloni yoniga chaqirib, alohida-alohida qadah tutishdi.* (S.Ahmad, Nomi yo‘q to‘y). *Qosh qoraya boshlagani tufayli, qandaydir otliq to‘da shu yoqqa yaqinlayotganini ham ilg‘amay qolishibdi.* (A.Obidjon, Meshpolvonning janglari). *Qosh qoraya boshlagani tufayli, qandaydir otliq to‘da shu yoqqa yaqinlayotganini ham ilg‘amay qolishibdi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari.

GUVOH, SHOHID. Biror hodisa-voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, shuni tasdiqlovchi shaxs. **Shohid** eskirgan.

Men har bir manzarada boshqa ranglar o‘rnini qora ranglar olayotganining guvohi bo‘ldim. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). — *Agar yaxshilikchasiga, shunga tegasanmi, deb so‘rasha oltita odamni guvoh qilib, uch tom kitobga sig‘adigan shartlarni oldingizga ko‘ndalang qilib qo‘yardim.* (S.Ahmad, Tamom, davomi yo‘q). *Gulchehraning o‘zi ham ko‘rdi buni, o‘zi janjalning guvohi bo‘ldi.* (O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin).

GUL, CHECHAK. O‘simlikning, odatda, onalik va otaliqlarini o‘rab turgan tojibarg (gulbarg)lardan iborat gultoij shaklidagi qismi. **Gul** so‘zi jonli tilda ham, kitob tilida ham keng qo‘llanadi. **Chechak** so‘zi eskirgan, asosan, badiiy uslubda qo‘llanadi.

Jiyda hidi!.. Uning hidi boshqacha bo‘lib, hech bir gulning hidiga o‘xshamaydi. (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Hamma ombor mudirlari baholi qudrat, biri billur vaza, biri ismi yozilgan tilla soat olib keldi. Eshmon bo‘lsa “o‘z hovlimizdan” deb, bir dasta gul ko‘tarib keluvdi.* (S.Ahmad, G‘ildirak). *Tun xushbo‘y siyohrang atirgulga o‘xshaydi. Bu gulni kim uzib ko‘k qo‘yniga qo‘yib ketdi ekan, men bilmayman.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

GULSHAN, GULISTON, GULZOR, GULBOG‘, BO‘STON, CHAMAN, CHAMANZOR. 1. Gul bilan qoplangan, gul ekilgan maydon. 2. Gullagan, yashnagan, obod (joy).

— *Menga qarang. Siz yangi odamsiz. Bu ig'volarning gapiga uchmang. Mening gapimga kirsangiz, olam guliston bo'ladi.* (S.Ahmad, Kelinlar qo'zg'oloni). *Garanglar qo'shiq konkurslarida hakamlik qilsa, so'qirlar rassomlarga rang tanlashni o'rgatsa, hid bilmaslar gulzor oralab yursa, alam qilmaydimi?* (S.Ahmad, Maza bilmaslik dardi). *Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uying yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Bog'ni ko'rib bo'lgach, Nazir ota bolalarni gulzorga boshlab borib, gular bilan tanishtirdi va ularga eng sara gullardan uzib berdi.* (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Chaman bo'lib yotuvdi o'shanda yalpiz. Endi teramiz deganimizda bir yomg'ir quydi, keyin do'l yog'di. – Gulchehra kulib yubordi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin).

GUMON, DARGUMON, NOMA'LUM, NOANIQ. Ma'lum emas, aniq bo'lmagan.

Badanim jimirlab, ichimda shubha, gumon qichqirib yubordi. Ikki qo'shni bir-birlariga qarab, ranglari qum oqarib, indayolmay turishardi. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Esingda, faqat mashinaning tez yurganidan guvillagan tovushi hamda senga noma'lum bo'lgan qandaydir loysuvoq uylar va jinko'chalargina saqlanib qolgandi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Bu payt axlat mashinasi ikkovining ikki yuz sakson ikki so'mlarini noma'lum tarafga olib ketardi.* (S.Ahmad, Paypoq). *Imtihon tashvishlaridan qutulgan, yuragi ming xil orzular, noma'lum, ammo porloq kelajak lazzatlari bilan to'lgan Abdulla o'zini nihoyatda baxtli his qilari va mudrar ekan, yuzlarida tabassum o'ynar edi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin).

GO'R, QABR, MOZOR, LAHAD. Odam o'ligi qo'yiladigan yoki ko'milgan yer (joy). **Go'r** ba'zi hollarda salbiy ottenkada qo'llanadi. **Lahad** – juda kam qo'llanadi. **Mozor** bu ma'noda oddiy so'zlashuvga xos.

— *Mulla amaki qanaqa odam edilar? — deb qoldi. Bu gap o'lik go'rga qo'yiladigan paytda aytilguvchi edi.* (S.Ahmad, Sag'ana). *Podsho qarib, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda turgan paytda farzand ko'rdi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Oxir-oqibatda uning ajali yetib o'ldi. Keyin uning go'riga tosh otish boshlandi...* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Bu shaharlar shahar emas, ulkan qabriston; farqi shuki, bunda har kim o'z qabrini o'zi qaziydi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Kampir tushida o'lib qolganmish. Choli belini boylab yig'lash o'rniga hiring-hiring kularmish. Ayniqsa, jasaki qabrga qo'yilayotganda choli allaqaysi ashulani xirgoyi qilayotgan emish.* (S.Ahmad, Qarigan qasam). *Uzun qora marmar tosh yonidagi yangi qabr tepasida kimdir turardi.* (O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin). *Mulla amaki odamlar ko'ziga ko'rinmay qo'ya qolay, deb hammadan oldin "Volga"da mozor boshiga borib, to tobut ko'targanlar yetib kelishguncha go'rkov bilan ko'k choy ichib, foniy dunyoning ishlaridan gaplashib o'tirdi.* (S.Ahmad, Sag'ana). *Obdastada suv quyib, yo'rmashda kafan ignaga o'zim ip o'tkazib berganman. Go'rga qo'yishganda, lahad tuynugiga o'zim guvala bostirganman...* (S.Ahmad, Lab haqida doston). *Ehtimol, o'liklar ko'paygani sayin shahar shu turishicha ochiq lahadga aylangandir?!* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

H

HA, SHUNDAY, BALLI Aytildan fikr, so'ralgan gap-so'zni tasdiqlash ma'nosini bildiradi. *Ha* so'zi so'zlashuv uslubida faol qo'llanadi va tasdiq ma'nosining oddiy tasdig'ini bildiradi. *Shunday* so'zi so'zlashuv uslubida ko'proq katta yoshli kishilar nutqida qo'llanadi, gapga tasdiq ma'nosi bilan birga ta'kid ifodasini ham qo'shadi. *Balli* so'zlashuv uslubida yoshi kattalar nutqida uchraydi va tasdiq ma'nosini ko'tarinki uslubda ifodalaydi, qo'llanishi doirasi chegaralangan.

-*H a, o'g'lim, Eshon bobong bamisoli avliyoday bir kishi... X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. - H a, erkatoym, bedanalar yo Oллоh deb sayraydi. Ular jannat qushlari-da, shuning uchun ham*

Oллоhning nomini unutmaydilar. X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. -Biz bir marta bu yerga kelganmiz. Oyimlar bilan kelganmiz, – deb shivirladim. – Qanaqasiga? – dedi akam hayron bo‘lib. – Sh u n d a y. Oyim opkelganlar. M.Mansur, Judolik diyori. – Demak, ular boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan. -Organ odamlari kuzatayotganini sezib, u sizga tashlab qochgan, shundaymi? A, Haydarov? – Shunday... E.A‘zam, Anoyining jaydari olmasi. Ulug‘bek shunday deb, qalandarga yuzlandi. -Xo‘sh, Abdulvahob, sen bu kulohu jandani qay maqsadda kiyib eding? – Oxiratni deb, toat-ibodatni deb... – Balli. Vazifang – bandalarning gunohini Haqdan so‘rab, ibodat qilish. Sen esa fisq-u fujur bilan bandsan. T.Malik, Falak. – To‘g‘ri aytasiz, xizmatkor qulday bo‘lsin,– erining haligi fikrini jo‘rttaga quvvatladi Nuri,– bunaqasini topish qiyin. Biri ishyoqmas bo‘ladi, biri yolg‘onchi bo‘ladi, biri o‘g‘ri bo‘ladi. Sinalgan, tanilgan odamni qidirish kerak. – B a l l i, – Fazliddin boshi bilan xotinining so‘zini ta‘kidladi, – sinalgan odam kerak. Oybek, Tanlangan asarlar.

HAVO, KUN Atmosferaning ahvoli. *Havo* so‘zi atmosferaning sutkaning yorug‘ va qorong‘u qismlaridagi holatini ifodalaydi va nutqning barcha uslublarida qo‘llanadi. *Kun* so‘ziga asosan atmosferaning sutkaning yorug‘ qismidagi holatini ifodalash xos, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy, qisman publitsistik uslubda ishlatiladi.

Yangi uyg‘ongan, yam-yashil bargchalar bilan yasangan daraxtlar quyosh nurida cho‘miladi. H a v o yorqin va tiniq... Oybek, Tanlangan asarlar. ...bunday yuksaklikdagi ellik besh daraja sovuqda h a v o sovib, quyun shiddati o‘z-o‘zidan pasayib ketar edi. I.Sulton, Boqiy darbadar. Allaqachon bahor kelib, k u n lar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. O‘.Hoshimov, Urushning so‘nngi qurboni. Oftob charaqlab turar, k u n iliq, hatto biroz issiq, hali bayram libosini yig‘ishtirmagan ko‘chalar, xiyobonlar, maydonlarda erkaklar bitta kostyum, ayollar yengil jemperlarda yurishar ...edi. O.Yoqubov, Billur qandillar.

HAZILKASH, HAZILVON, TEGISHQOQ Hazil qilishni yaxshi ko‘radigan, bir-biri bilan hazillashadigan. Hazilkash so‘zining qo‘llanish doirasi chegaralanmagan. Hazilvon so‘zi bu ma‘noda badiiy uslubda qo‘llanadi, birmuncha eskirgan, kam faol so‘zdir. Tegishqoq so‘zi kinoya, kesatliq orqali hazillashish ma‘nosini ifodalaydi. So‘zlashuv uslubida kamroq, badiiy uslubda ko‘proq ishlatiladi.

-Matluba achchig‘langan bo‘lib, yuzini chetga burdi; lekin bu h a z i l k a sh, xushchaqchaq yigitdan achchig‘lanolmasligini, hatto qovog‘ini solishga ham qurbi yetmasligini sezib, beixtiyor jilmaydi.O.Yoqubov, Matluba. Do‘stlarimni hayron qoldirar Ba‘zan ishqiy she‘rlar yozganim. H a z i l k a shlar qo‘ymasdan so‘rar: – Kuylaganing qaysi nozanin? E.Vohidov. O‘rtoqlaringizdan bittasi h a z i l v o n ekan, toza kuldirdi. Sizga xat yozgan ham o‘sha... Mirmuhsin, Umid. Ular [Norxo‘ja pochcha] o‘lgudek chistonchi-h a z i l v o n bo‘lganlaridan hozir ham allaqaysi tog‘amiz birovga yaxshilik qilaman deb, qovun tushirib qo‘yganlarini kula-kula hikoya etar edilar. M.Mansur, Judolik diyori. Rostdan j a t e g i sh q o q ekansiz, a? – Men jiddiy gapiryapman. – Ismimni aytmasam-chi? – Menga shugina himmatniyam ravo ko‘rmaysizmi? Q.Kenja, Palaxmon toshlari. Bu yigit juda t e g i sh q o q bo‘lib, bu gapni ham uning tilini qichitish uchun aytgan bo‘lsa kerak. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

HAZILLASHMOQ, HAZIL QILMOQ, TEGISHMOQ, O‘YNASHMOQ Qarshisidagi kishiga hazillashish maqsadida biror gap-so‘z aytmoq yoki shunday maqsadda biror xatti-harakat qilmoq. Hazillashmoq va hazil qilmoq so‘zlari gap-so‘z va xatti-harakat bilan hazil qilishni bildiradi, barcha uslublarda ishlatiladi. Tegishmoq so‘zida kinoyali, kesatliqli gap-so‘z qilmoq ma‘nosi kuchli ifodalanadi. O‘ynashmoq so‘zida xatti-harakat orqali hazillashish ma‘nosi yetakchi bo‘lib, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanadi. **O‘ynashmoq** bu ma‘noda oddiy so‘zlashuvda ko‘p qo‘llanadi

-Hamma gapimgayam ishonaverasanmi, h a z i l l a sh dim-ku? – dedim-da, har kungi ishimga-tashvishimga yo‘l oldim. I.Sulton, Bo‘ri. H a z i l l a sh dim, suyuqlik qildim. Indamaganidan keyin bir shama qilib ko‘ray-chi, dedim. A.Qahhor, Dahshat. [Olimjon]: Siz yo ja nozik h a z i l q i l y a p s i z-u, men tushunmayapman, yo jinni-pinni bo‘p qolgansiz. Sh.Boshbekov, Temir xotin. Aftidan u rahbar xodim, albatta, jiddiy gapirishi shart, kulish, h a z i l q i l i sh rahbar

obro'sini to'kadi, deb o'ylasa kerak, qo'rqib ketdi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Sayfullosi tushmagur "sho'x" bola emasmi, yozlik kinoning yonida bir juvonga erining oldida t e g i shipti.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *-Xotinini undan qizg'anmaydimi? – Avvallari qizg'anardi. Hozir bir o'g'li, bir qizi bor. Nu'monjonga quda bo'lamiz, deb t e g i sh g a n i-t e g i sh g a n.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *"Bu isyonni, bu nifoqni Chiqarmoq ne zohirga. Siyosat-la o' y n a sh m o q ni Kim qo'yibdi shoirga".* E.Vohidov. *Xatni shu yaramas yozgani aniq. Ammo unga qattiq gapirib bo'lmaydi. O'lgisi kelgan odam u bilan o' y n a sh a d i.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

HAYDAMOQ, QUVMOQ, QUVLAMOQ Xohish-irodaga qarshi ravishda u yoki bu joydan ketkazmoq. *Haydamoq* so'zi umuman haydash ma'nosini ifodalaydi, uning shu ma'no ifodalash doirasi keng va uslubiy betaraf. *Quvmoq* va *quvlamoq* so'zlarining ma'nosida xususiylashish mavjud va ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda qo'llanadi.

-Juda erka kasal chiqib qoldingiz. Serqalampir achchiq sho'rva ichib, o'ralib yotsa tuzalib ketadigan narsaku, bu. Bugun yotib bir uxlang, ertaga h a y d alasiz. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Binafshaga xuddi dadasini davradan h a y d a yotganday tuyuladi. Og'rindi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. *Bozorlarda Tanbal soliqchilari uchrab qolsa, odamlar ularni tayoq bilan urib, shahardan quvdilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Devona Umidaning yonidan o'tib ketdi-yu, ammo tezda iziga qaytdi. Chug'urlashayotgan bolalarni po'pisa qilib, quvgan bo'ldi-da, mehmon qiz qarshisida cho'nqayib, tirjaydi.* T.Malik, Devona. *Etikdo'z shu ketganicha badar ketgan va oradan yuz yil o'tgachgina vataniga qaytib kelgan. Ammo odamlar uni yana oldilariga solib q u v l a sh gan.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *O'z baxtini o'zi kaltak olib q u v l a gan xotin o'zini o'zi tahqirlab achchiq-achchiq yig'lardi.* S.Ahmad, Alla.

HAYRON, LOL, HAYRON-U LOL, LOLU-HAYRON. Ro'y-bergan u yoki bu voqea-hodisadan ajablangan. Hayron so'zi ajablanganlik ma'nosi bilan birga ikkinlanganlik ma'nosini ham ifodalaydi. Lol so'zida ajablanganlik holati ifodalanadi. Hayron-u lol hayron va lol so'zlariga nisbatan ajablanganlik holatini kuchli ifodalaydi. Lol-u hayron so'zi ajablanganlik ma'nosini juda kuchli ifodalaydi.

Vahobjon uzr aytsa ham qiz qo'ymadi. Choy quyib uzatdi. Bola bechora ichishni ham, ichmaslikni ham bilmay hayron edi. Said Ahmad, Tog' afsonasi. Bu hol o'sha mahallalik bir keksa novvoy qazo qilgan kuni ma'lum bo'ladi.hamma hayron. Aql shoshadigan hodisa! E.A'zam, Guliguli. – Amaki, vergul zo'rmi, nuqtami? – deb so'raydi bo'lajak adib yozuvidan bosh ko'tarib.

Qanchalab kitob bitib, umr bo'yi muharrirlik qilgan odam bolaning shugina savolidan lol, o'ylanib qoladi. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir. Zahro ham buni bilardi. Bilgani uchun ham Alimqulning quvligi qarshisida lol edi. U.Hamdani, Muvozanat. Umrda tirik professorni yaqindan ko'rmagan uchrashuv ahli xuddi hozirgina fazodan tushib, yerga qo'ngan kosmonavtga ro'para kelib qolgandek hayronu lol qarab turardilar. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. Lekin men bir narsadan hayronu lolman: shuncha vaqtdan beri Sultonmurod akamning kimligini bilmas ekanman! M.Mansur, Judolik diyori. Shavkatning kapalagi uchib ketdi: - I-i-i, bu nima qilganing, asal qizim?.. – dedi shivirlab. – Hamma bizga qarayapti... - Qarasa qarar, bu muhimmas! ... Mendan rozi bo'ling, o'zimning adajonim!.. Hamma lolu hayron. Chunki kelin o'zini bunaqa tutishini hech kim ko'rmagan edi. Sh.Boshbekov, Falakning gardishi. Vazir miyig'ida kulib, xotirjam debdi: -Hammasi o'tkinchi, bu ham o'tadi! Savdogar lolu hayron holda shaharni tark etibdi. N.Jaloliddin, Umar Xayyom.

HAYRONLIK, HAYRAT, TAAJJUB. Kishining biror voqea-hodisadan ajablangan, yuz berish sababini bilmay ikkilangan holati. *Hayronlik* so'zi **Hayrat** va taajjub so'zlarida kitobiy uslubga xoslik mavjud, bu so'zlar ajablanganlik tushunchasini kuchliroq ifodalaydi. Taajjub so'zining qo'llanish darajasi hayrat so'zining shunday belgisidan birmuncha kamroq.

Qog'oz parchasiga ko'z yugurtirib Farhodning battar hayronligi ortdi: notanish nomer, allaqanday Gulya Lagutina. E.A'zam, Shovqin. Zohid juvonning savol nazariga javob berishga ojiz, chunki uning hayronligi ham ayolnikidan kam emasdi. T.Malik, Shaytanat. *[Mingboshi] Ko'zini keng-keng ochib, mehmonga qaradi. Bu qarashda ham h a y r a t bor edi, ham qo'rquv... Cho'lpon, Kecha va kunduz. H a y r a t dan esim og'ib qolayozdi! Ko'zimga ishonmay, qayta-qayta o'qidim.* X.Do'stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. Musulmonqul t a a j j u b ichida o'ziga

Xudoyor tomonidan uzatilg'an nomani oldi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bir tush ko'ribman, Ko'p taajjub tush. Ta'biri, bilmam, Xush yoki noxush. E.Vohidov, Sen menga tegma. Jahongir oshxonaga kirib choy qo'ydi. Javondan shirinliklarni oldi. U ko'p yillardan beri unut bo'lib qolayotgan qarindoshining bu tashrifidan taajjubda, o'ylab o'yiga yetolmasdi. T.Malik, Devona.

HAMDARD, DARDKASH, DARDDOSH, QAYG'UDOSH Kishining g'am-qayg'usini birga kechiruvchi, dard-hasratining tarqalishiga ko'maklashuvchi, o'zganing dardini tushunuvchi. *Hamdard* so'zida g'am-qayg'uni birga ko'chirish ma'nosi yetakchi. Dardkash so'zi kishining g'am-hasratini tinglash orqali g'am-hasratini aritishga yordam berishni bildiradi. Darddosh so'zi g'am-tashvishlari yaqin ma'nosi bilan birga, o'zgalari dardini tushunish ma'nosi ham bor. Dardkash so'zida o'zganing dardini olish ma'nosi ustun. Qayg'udosh so'zi sinonimik qatorda kitobiy uslubga xosligi bilan ajralib turadi.

Unga [Jo'rabekka] h a m d a r d bo'ladigan, yupatadigan, ko'ngliga dalda beradigan yaqin kishisi qolmadi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ota olamdan o'tgan, ona kasal, bolalar ulg'aygan, yolg'iz o'zim urinib-tirishaman. Yonimga kiradigan, h a m d a r d bo'ladigan biron kimsa yo'q.* I.Sulton, Bo'ri. *To'y-marakangga bosh-qosh, quvonchingga sherik, dardingga d a r d k a sh bo'lsa, boshingga tashvish tushganda...* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Hozir ham oshnasining gapni maydalashiga toqat qilolmadi. – Yorilsang-chi! – dedi u [Jalil] jerkib. – Mendan boshqa dardkashing bormi? T.Malik, Shaytanat. [Sabohiddin:] *Bizniki Farg'onaning Quvasidan. Hoji aka bilan qarddonmiz, to'g'rirog'i, hasratdosh, darddoshmiz. Har zamonda suhbatlashib xumor yozgani kelib turaman.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari. U [Qazviniy] har yoqlarga intizor va shul kabi xurkak boqib, bir ittifoqdosh, darddosh izlaydur. Ayni kunlarda ana shunday odam paydo bo'lgandek edi. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. *Azob ichra yonib jon, Qora kunda qul Tarlon Qizga qayg'udosh keldi; G'amiga yo'ldosh keldi.* H.Olimjon. U [Fazilat] Beknazarga o'xshab dardshikvasini bo'lmay, hayratlangan ko'zlari bilan hamdardlik bildirib, jimgina tinglab o'tiradigan qayg'udoshga ko'pdan muhtoj edi. Q.Kenja, Palaxmon toshlari.

HAMMA, BARCHA, BARI, BUTUN, JAMI, BUTKUL, TAMOMI, BOR-YO'Q.

Son, miqdor jihatidan mavjud narsa-hodisalarning jamini bildiradi. **Barcha** so'zi **hamma** so'ziga qaraganda uslubiy chegaralangan, unga birmuncha kitobiylik belgisi xos va so'zlashuv uslubida deyarli qo'llanmaydi. **Bari** so'zi oddiy so'zlashuv uslubiga xosligi bilan ajralib turadi. **Bor-yo'q** so'zi "bisotda, ixtiyorda bo'lgan narsalarning hammasi"ni ta'kidlab ko'rsatadi. **Hamma, barcha, bari, butun** so'zlari ot so'zlar oldida kelib, ularning belgisini bildiradi. Bu jihatdan *butun* so'zi asosan shunday vazifada keladi. **Butkul** so'zi jamlik ma'nosini "butkul, tamomila" ifodasini qo'shgan holda anglatadi. **Tamomi** so'zi jami miqdorga xos belgini bildiradi, qo'llanish doirasi chegaralangan, kitobiy uslubga xos.

Kelin uch kundan beri ro'mol ichida hech kimga ko'rinmagani uchun *h a m m a* ning ko'zi unda. E.Vohidov, Saylanma. *H a m m a hushyor yotsin, tiq etgan tovush eshitishsa, chopib chiqishsin.* I.Sulton, Bo'ri. Bola nigohi bilan Yusuf hammani kuzatar edi. Kattayu kichik, erkag-u ayol... barchaning kayfi chog' va bu xursandchilik ularni o'z bag'riga olib birlashtirgan edi... U.Hamdard, Muvozanat. Bu mahalda kampir barchaning haqqiga duo qilib bo'lgan va tasbeh o'gira boshlagan edi. I.Sulton, Ozod. *Chuqur xotiralar b a r i jonlanib, Go'yo g'olib Ayniy yozib, shodlanib, So'niq Ark ustida etardi parvoz.* Zulfiya. [S a r a g u l]: ...Sizlar inongan mulozimlar – *b a r i ilonning yog'ini yalagan tulkilar. B a r i Sardorning ayg'oqchilari!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *O'sha kuni ish juda ko'p bo'ldi. B u t u n samosvallar tosh tashishga qo'yilgan edi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. ...*podshoning farzandi yo'q edi. Bu faqatgina uning o'zini emas, b u t u n xalqni tashvishga solib qo'rgan edi.* O.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *O'tgan yil bahorda j a m i bir ming yetti yuz oltmish besh tup ko'chat o'tqazilgan bo'lib, bundan faqat sakkiz yuz oltitasi tutgan...* A.Qahhor, Mahalla. *Qorxatda aytilgan j a m i taomlarni bironidan qarz ko'tarib bo'lsa ham pishirishi mumkin.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Notiq dedi: "Taqqdir shul, Bu jahoniy iroda. Tillar yo'qolur b u t k u l, Bir til qolur dunyoda".* E.Vohidov. [S o h i b q i r o n]: *Kaloming shulkim, men, kimsan Sulton Boyazid b u t k u l turk olamini mag'rib g'ayridinlaridan asrab o'rtada qolqon bo'lib turg'on erdim, sen ersa meni tor-u mor qilib, g'animlarimizga yo'l ochib*

berding, demoqchisan sen! Odil Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. Yusufbek hojining Normuhammad qushbegiga yuborg'an chopari Kirovchi yaqinida unga yetkan va qushbegini tamomi sipohlari bilan Toshkandga qaytarg'an edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Ulardan biri sezgir tayoqchasi bilan chirillatib tamomi joyimni, butlarimning orasini ham tekshirib chiqib, uchrashuv toloriga yo'l ochdi. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. *Endi mundan keyin boylar ham tek turmaydi: b o r - y o ' g ' ini advokatga berib, kattakon arizalarni yozdiradi: katta noyibga, uyezd hokimiga, yarim podshogacha ariza yuboradi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. -*Sen ham kel, Moriko, kelasanmi? – hayajondan nafasim bo'g'ilib so'radim undan. U qo'lini tortib olmasdan: – Nima qilamiz? – dedi ko'zlari kulib. – Gaplashib o'tiramiz. – B o r – y o ' g ' i shumi?* O.Yoqubov. Qaydasan, Moriko?

HAMON, HANUZ Shu damgacha, hozirga qadar. Hamon so'zi harakat- holatning nutq so'zlanib turgan paytda ham davom etayotganligini bildiradi. **Hanuz** so'zi asosan publitsistik va badiiy uslublarda qo'llanadi va harakat-holatning tugallanmaganligiga ta'kid ohangi, badiiy bo'yoq qo'shgan holda ifodalaydi.

Quyosh h a m o n uxlaydi, Haryon bulutlar. Tarqalmagan oqshomgi Mayin sukutlar. H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Yomg'ir h a m o n chelaklab quyayotganiga qaramay, yo'lka odamlar bilan to'la edi.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Kim bilsin... shu mahal balki dunyoning qayeridadir o'sha bechora chol h a n u z besamar daydimoqda...* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Olov to'lqin tunning ichida, Qolib mayus chayqalar dengiz... Musibatning zang ilgichida Gulgun ko'ylak osig'liq h a n u z...* Zulfiya, Saylanma.

HAMROH I, YO'LDOSH, ESH Kishining yo'ldagi, safardagi sherigi. **Yo'ldosh** so'zida sheriklik tushunchasi esh so'ziga nisbatan torroq ifodalanadi, ilmiy va rasmiy uslubda kam qo'llanadi. Esh so'zi so'zida sheriklik tushunchasi aniq ifodalanadi. Ko'proq badiiy, qisman publitsistik uslubda qo'llanadi.

Yo'lchi ba'zan yolg'iz, ba'zan o'z yoniga bironi hamroh qilib qancha jar, qancha to'g'on va quloqlarni kezib, suv keltirar edi. Oybek, Tanlangan asarlar. "Moskvich" quyuq zangori tutun chiqarib, titrardi. Munisxon "Volga"ni ko'rishi bilan qo'lini belidan olib, boshi uzra silkitdi. – Suvi qaynab ketibdi shekilli? – dedi shofer va hamrohining roziligini kutib o'tirmay, shunday qizning oldida mashinasini to'xtatdi. O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri. *Muazzam adibga safarda yo'ldosh Baxtidan quvonchim arshidan oshar.* Zulfiya, Saylanma. *Men ham shunday zavqsiz odamga y o ' l d o sh bo'lganimdan koyinib, indamay ketaverdim.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Yang amga e sh bo'lib tikdim palagim, Qog'ozdan sir tutgan satrimni tepchib, Gullardi palakda shirin tilagim – Ko'zimdan yoshlikning nurlarin ichib.* Zulfiya, Saylanma. – «Nega, bolam? Bizni, o'zing er yetgan diyorni tashlab ketasanmi? Ilojsiz narsa bormi, toparmiz», dedim, – deya davom etdilar pochcha. – «Yo'q, rahmatli otam tushimga kirib yuribdilar. Tag'in dovon oshib borayotgan karvon ko'rdim. Shularga esh bo'l dedilar...», deydi. M.Mansur, Judolik diyori.

HAMROH II YO'LDOSH ESH Ish-faoliyatda, hayotda birga bo'luvchi. **Hamroh** so'zida turmush o'rtog'ilik tushunchasi birmuncha umumiy ifodalanadi, **yo'ldosh** so'zida bu ma'no aniq namoyon bo'ladi. **Esh** so'zi bu ma'noda juda kam qo'llanadi.

Kumush Otabekning yelkasiga qo'lini tashladi: – O'shal vaqtlarda hamrohsiz uxlag'animga to'g'ri, – dedi, – chunki biravlardan butunlay umidim kesilgan, h a m r o h i m menga hamisha umidsizligina berar, dahshatimnigina orttirar edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Shuning uchun ham u [Said] xudoga, avvalo, erkak qilib yaratgani, so'ng Manzuradek ayolga h a m r o h etgani uchun shukrona aytadi. U.Hamdani, Muvozanat. [Anor:] Chimildiqda ko'rdim erimni, Menga y o ' l d o sh qildilar kimni? So'ramadim, bo'lmadi ishim, Hechkim bilan yo'qdir koyishim. Qolib ketdik butun umrga Va shukurkim, kirmadik go'rga. H.Olimjon, Tanlangan asarlar. Qorong'i tushgan, hech narsa ko'rinmasdi. Faqat baland qoya ustida qishloq tomonga egilib o'sgan yakka chinor botayotgan quyoshning qizg'ish nurlaridan yaltirardi. U xuddi qo'llarini cho'zib, sevikli hayot y o ' l d o sh iga oltin guldasta uzatib turgan pahlavon yigitga o'xshardi. O'.Umarbekov, Tanlangan asarlar.

HAROM, MAKRUH, IFLOS, MURDOR, PALID Shar'iy nuqtai nazardan yeyilishi, ichilishi, foydalanilishi man etilgan, qilish mumkin bo'lmagan, nohalol. Harom so'zi ko'proq

yeyiladigan, ichiladigan narsalarga nisbatan qo‘llanadi. **Makruh** so‘zi ko‘proq diniy uslubga oid. Iflos so‘zida shar’an haromlik belgisi yo‘q, so‘zlashuv uslubida ko‘p ishlatiladi. Murdor so‘zi eskirgan, qo‘llanishi chegaralangan. **Palid** so‘zi nohalol yegan, ichgan, qilgan degan tushunchani kuchaytirib ifodalaydi.

Ba‘zilar “halol va harom” deganda “ yeb-ichish mumkin bo‘lgan va yeb-ichish mumkin bo‘lmagan” narsani anglaydilar... yuzaki tushuncha! Aslida bu- “qilish mumkin bo‘lgan va qilish mumkin bo‘lmagan” amallar degani hamdir... Bilasiz: non eng tabarruk ne‘mat. Biroq nopok yo‘l bilan topilgan non ham harom! O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi *Musichaning go‘shiti h a r o m. Sababi, u musulmon qush.* I.Sulton, Ozod. Piyoladagi choyiga makruh bir narsa tushganday, Sattor uni hovliga sepib tashladi. P.Qodirov, Erk. *Taqsirga ma‘qul gap aytish mushkul. Uni aytsang, m a k r u h deydi, buni aytsang, shayton vasvasasi, deydi.* T.Malik, Ov. *Abdullaning kayfi battar buzilib ketdi. O‘zini i f l o s, katta bir gunoh qilib qo‘ygandek his qilardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *O‘zi i f l o s, changallaridagi ovi i f l o s, ikki iflos bir-biriga suykanib, tagsiz botqoq ichiga botib ketishadi!* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. Negakim bandasan banogohi, Senda ham ulcha ojiz o‘lmoq bor. Sotma nonga baholi nomusing, Bo‘lma dangasa-yu, yema m u r d o r. Sidqiy Xondayliqiy. Aql aytur, har qayu masluxga ko‘nma tu‘ma deb, Misli oqil qil qanoat, yema m u r d o r, ey ko‘ngul. Muazzam. *Maskopda besh-o‘nta p a l i d odam to‘planib palidbo‘yra tuzdilar. Qiladigan ishlarni o‘zaro taqsimlashdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *O‘z-o‘zimni yomon ko‘rib keta boshladim. Nazarimda, mendan p a l i d odam yo‘q edi!* M.Mansur, Judolik diyori.

HARORAT, TAFT, HOVUR Kishi tanasining, havoning yoki boshqa narsalarning issiqlik darajasi. **Taft** so‘ziga nisbatan **harorat** so‘zida ma‘noni kengroq ifodalash xususiyati xos. Taft so‘zi so‘zlashuv, publitsistik va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Hovur** so‘zi asosan jonli narsalardan chiqadigan issiqlik darajasini bildiradi.

Peshin mahali qaragam, qaynab-toshgan quyosh o‘zining h a r o r a t iga o‘zi chiday olmay, ishq otashidan so‘zlayotir. I.Sulton. Mening gulim. *Sening h a r o r a t ing kessin shamolni, Gullasin bodom.* Zulfiya, Saylanma. *Qorako‘z gulxan atrofida aylanan, goh alanga t a f t iga chidolmay nari ketardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Poyezd olg‘a intilgani sayin havoning tafti qirqilib boraverdi. T.Malik, So‘nggi o‘q. Yusuf sho‘rpaxta bosishni tugatgach, kifklarini yana pechkaning issiq taftiga tutganicha pardasi surilgan derazaga ko‘zlarini qadadi. U.Hamdani, Muvozanat. *Qachon edi o‘sha, ezgu daqiqa? Yuzimda sezaman o‘sha h o v u r ni.* Zulfiya, Saylanma. *Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, ko‘ngli bahorning iliq h o v u ri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz.

HANSIRAMOQ, HARSILLAMOQ, HALLOSLAMOQ, ENTIKMOQ Tez harakat qilish, yugurish yoki og‘ir mehnat natijasida qiynalib chuqur va tez-tez nafas olmoq. **Harsillamoq** so‘zi ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslublarda qo‘llanadi. **Halloslamok** so‘zi asosan jismoniy xatti-harakat, yugurish natijasida zo‘riqib nafas olish ma‘nosi bildiradi. **Entikmoq** so‘ziga kuchli ruhiy ta‘sir, gap-so‘z natijasida zo‘riqib nafas olishni yoki biror ichimlikni tez-tez ichgandagi holatni ifodalash yetakchi.

U [juvon] yugurib kelganidan yonoqlari terlagan, o‘zi h a n s i r a r di. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Akbar Cho‘ntagidan g‘ijimlangan ro‘molcha olib, h a n s i r a ganicha terlarini artidi.* T.Malik, Falak. *Qilich bo‘g‘zidan tutgach, Tog‘ kabi yorib o‘tgach Dev h a r s i l l a b quladi, Bir qarsillab quladi.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. [Gulya] *Iskandar mashinaga o‘tirganda h a r s i l l a b yugurib chiqdi.* O‘.Hoshimov, O‘zbeklar. *Bedana h a l l o s l a r va kichkina ko‘zlarini pirpiratib, ularga yalinganomuz tikilardi.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *-Meni yo‘lga tashlab ketgansan. Orqangdan h a l l o s l a b yugurib, tilim og‘zimga sig‘may qoldi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Hakimjon Darvozani ochguncha bo‘lmay otdan o‘zini tashlab, rangi o‘chgan va h a l l o s l a g a n holda mingboshining qarshisiga kelib to‘xtadi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Nevarasining sho‘xligi uydin hijron alamlarini quvib chiqardi. Bolaning yigit bo‘lishini, safga qo‘shilishini kutib e n t i k a di.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bular [bolalar] – Yo‘q, yo‘q, qizim, – dedi qushbegi, – men nega kecha va o‘tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman. Kumushbibi bir entikib qo‘ydi va o‘zini to‘xtatib: – O‘zim ham bu maktubni shu bukun ko‘rdim, – dedi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar.

Sovuq xavo birdan bo'g'ziga urilib entiktirdi, tabrik oxiriga yetguncha ovozi xirillab qoldi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. Gulsara entikib-entikib bir necha qultum ichdi. Juvonning ahvolini ko'rib tushunishdi, shekilli, uni raqsga taklif etayotganlar ham, chapak chalayotganlar ham dasturxonga o'nnglanishdi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

HAR QANCHA, HARCHAND, QANCHA, MING. Bu so'zlar in kor mazmunli gaplarda biror harakat qay darajada ko'p, ortiq bo'lgani bilan uning benatija tugashiniifodalashda qo'llanadi.**Harchand** nisbatan kam qo'llanadi. **Ming** so'zida belgi darajasi kuchli

-Otam u yoqlarda nima qilar ekan? Qo'llari sovqotib daraxt kesar? H a r q a n c h a urinsam ham tasavvurim u manzaralarni jonlantirolmaydi. Unda-bunda eshitganlarim birlashib, tushunarsiz manzaralar hosil qiladi. I.Sulton, Otamga nimadir bo'ldi... Hijron dardin yengar ekan vaqt, U h a r q a n c h a bo'lmasin og'ir. Yig'lab-yig'lab Orzu g'amin ham Unutdilar qishloqda oxir. E.Vohidov, Ishq savdosi. Surishtirib kelsa, qishloqda deyarli hamma bir-biriga qarindosh chiqadi. Ammo h a r c h a n d urinmasinlar, Qodir kalamush bilan Egam bechorani bog'lamoq iloji yo'q ekan. Chunki biri asli tog'lik, birining tagi dashtdan. E.A'zam, Guli-guli. Azaga kelgan xotin rostdanmi yo yolg'ondanmi h a r c h a n d yig'lmasin, oqibat o'zining tashvishlariga ko'chadi. T.Malik, Shaytanat. -H a r q a n c h a vaj-karson ko'rsatmagin, xudoning farz qilganlari o'z o'rnida qoladi. Uni o'zgartirish uchun q a n c h a bahona to'qimagin, bekor! Sen o'z-o'zingni aldagan bo'p chiqasan oqibat. U.Hamdani, Muvozanat. Mehmonlar kechga tomon qaytib kelishdi. Eshik berk. Qo'ng'iroq tugmasini q a n c h a bosishmasin, ichkaridan sado chiqmadi. To'g'ridagi eshikdan pijama kiygan bir kishi chiqdi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Qancha do'stlar uyda kutganda maxtal, Uning ko'zlarida oppoq tong otdi. Hikoya tingladi, muzeylar kezdi, Kirdi m i n g-m i n g hayot, taqdir yo'liga. Zulfiya, Saylanma. ...Esida, o'shanda Iskandar birinchi sinfda o'qirdi. O'rik gullagan kun edi. Maktabdan isitmalab keldi. Onasi m i n g zo'rlamasin, bir piyola choy ichdi-yu, xuddi mana shu karavotga cho'zildi. O'.Hoshimov, O'zbeklar.

HECH, ASLO, ASTI, SIRA, MUTLAQO, ZINHOR, BUTUNLAY, HARGIZ, TAQIR, ZARRACHA, ZIG'IRCHA, TIRNOQCHA Bu so'zlar gapning biror bo'lagidagi inkor ma'nosini ta'kidlaydi, kuchaytiradi. **Aslo** ko'proq poetik uslubga xos. **Asti** oddiy so'zlashuvga xos bo'lib, fe'lning inkorini ta'kidlash, ku- chaytirish uchun qo'llanadi va bunda ta'kidlash, kuchaytirish ottenkasi "**hech**" so'zidagiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. **Sira** ma'noni "asti" so'ziga yaqin. Lekin faqat fe'llardagi inkorni emas, balki boshqa so'zlardagi inkorni kuchaytirish uchun ham qo'llanaveradi.

Noqulay ahvolda iljayib, unga [Xolidaga] razm soldim. H e c h o'zgarmabdi. Doim nimanidir kutganday bolalarcha javdirab turuvchi charos ko'zlari ham ...o'zgarmabdi. O'.Hoshimov, Hikoyalar. ...Katta Farg'ona kanalini qurib bitirdilar. H e c h shubha yo'qki, bu xalq jasoratining juda ajoyib va benihoya nodir ko'rinishi bo'lgan edi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Farhod dunyoda kimdan kutgan bo'lsa kutgandirki, shu odamdan Ravshan Akobirovdan biron xat-xabar olishni, yana-tag'in deng, bunday hayratomuz xushxabarni a s l o xayoliga keltirmagan. E.A'zam, Olis shahar, olis kechmishlar. -Onam go'rida tinch yotsin, desanglar Qumrini a s l o yolg'izlatib qo'ymanglar. - Kampirning lablari quruqshadi. Qumri piyoladagi suvga paxta botirib og'ziga tomizdi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Vatan ishqida yongan qalb, Bilingki, a s t i xor bo'lmas, Vatan sevgan murodiga Yetur, hech dilda zor bo'lmas. E.Vohidov, Ishq savdosi. -Umr yonayotgan shamga o'xsharkan. Bir puflasa o'charkan... - dedi Abdulhamid. - Hay-hay, bo'tam, a s t i bu gapni tilga olmang. Bu umrini yashab bo'lgan keksalarga atab aytilgan, - dedi Muhiddin ota. T.Malik, Shaytanat. [Rassom] Undoq desam, bundoq dedi, bundoq desam, undoq dedi. S i r a gapimga ko'nmaydi. Janjallashib raisning oldiga bordik. S.Ahmad, Sobiq. -Muhammadjon aka jannatdek qilib qo'ygan muhtasham bog'ning kulini ko'kka sovurib o'tirishibdi. Hayf ularga bunaqa bog'!. - Bog' xayoli Yusufni s i r a tinch qo'ymasdi... U.Hamdani, Muvozanat. -Bo'lari bo'ldi, endi yuring, biz bilan o'tirasiz, - dedi Vika magnitofonini ko'tarib chiqarkan, qistagudek. Uyquning-ku rasvo bo'lgani bor gap, biroq evaziga m u t l a q o kutilmagan, jon-jon demoqqa arzigulik bunday tashrif va taklif! E.A'zam, Olis shahar, olis kechmishlar. [Bozorboy] Umrida biron bir tiyin bermagan. Faqat olgan. Qaytib berish degan tushuncha unda m u t l a q o bo'lganmas. Mabodo, qaytarib berishga to'g'ri kelib qolsa, qay ahvolga tusharkin? S.Ahmad,

G'ildirak. "...Agarda qaytmasam shu mendan yodgor" Deding-da ko'rindi ko'zlarida nam. "Agar sevar, bo'lsang unutmaz in h o r..." Uzun kipriklarning ustida shabnam. H.Olimjon, Tanlangan asarlar. -Sen, azamatim, arvoҳ ko'ribsan, undan harf o'rganganing yaxshi, savob bo'ladi, uni unutmagin, takrorlab turgin, lekin z i n h o r arvoҳ ko'rganingni biron kishiga ayta ko'rma. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. Birovlarning yer-u zarlarini bosib olib, o'lja hisobiga yashash, kuchga kirish – tamaddunning quyi bosqichiga xos bo'lsa-da, afsuski, odamzod ibtidoiy bu usuldan haligacha b u t u n l a y voz kechmay kelayapti. U.Hamdā, Muvozanat. -Agar odamda bosh bo'lsa og'rib turgani ham ma'qul. Ba'zilariniki b u t u n l a y og'rimaydi, deyishadi. Ular boshlari borligini ham unutib qo'yishsa kerak... T.Malik, Davron. Izlamang h a r g i z nishonim, topmagaysiz zarra ham, El netib topg'ay menikim, men o'zimni topmasam... E.Vohidov, Umrīm daryosi. Nechun kelding? Muroding ne? Bu dunyo ne, jigarbandim? O'zing olam eng mukammal, lek mukammal bo'lolmassan. Qo'ling bog'liq, yurak dog'lig', g'am-alam – nayzali otlīq, Sen piyoda bu dunyoda, h a r g i z otdan o'tolmassan. U.Hamdā, Muvozanat. -Aqlsiz odamlar bilan h a r g i z do'st bo'lmagil. Aqlsiz do'st aqli dushmanidan yomonroqdir. T.Malik, Odamiylik mulki. Burungilar xo'p aqli bo'lgan-da: sochni t a q i r qiridrib, kalla jonivorni salqinlatib yuraverishgan... A.A'zam, Bu kunning davomi. Sobiq kallarning o'zi keyinchalik bizga gurung berishicha, dastavval izillatib sochlarini piska bilan tap-t a q i r qiribdi, so'ngra to'ti Katiyaga topshiribdi. E.A'zam, Guli-guli. Zahro qo'lidagi telefon bilan dam u yoqqa, dam bu yoqqa borib-kelib, bo'layotgan ishlarni nazorat qilib turgandek bo'lsa-da, aslida u bularga z a r r a c h a e'tibor bermayotgandi. U.Hamdā, Muvozanat. Mingboshi chiday olmadi: – Taqsir to'ra, men hayronman: haligi qamoqqa olinadiganlarda z a r r a c h a gunoh yo'q-ku. Bu qanday bo'ladi? Agar o'zingiz o'sha yerda bo'lsangiz, ikkala boyni otardingiz... Cho'lpon, Kecha va kunduz. Begimqul bilan Nilufar... bir mahallar choyxona bo'lgan joyning skameykasida qo'l ushlab o'tirishar, Begimqul yo'lovchilarga z i g' i r c h a e'tibor bermay, qizni bag'riga bosib o'pmoqchi bo'lar... O.Yoqubov, Billur qandillar. [R a h i m a]: Gapimni teskari tushunmanglar. Kelin ayam dadamdan qachon qutulaman, deb payt poylab o'tirgan ekan, deb aslo o'ylamanglar. Otamdan men hech qachon t i r n o q c h a yomonlik ko'rmaganman. S.Ahmad, Kuyov. Ochiq ko'ngil, birovga t i r n o q c h a ham ozor bermaydigan, og'zidan biron nojo'ya so'z chiqmagan, o'ta odobli, madaniyatli bu olim yigitni [Umaralini] qattiq hurmat qilardim. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

HID, IS, BO'Y Narsa-predmetlarning hidlash organlariga ta'sir etib, sezgi uyg'otish xususiyati.

Chol aytgandek, poliz oyog'iga kelganimda til bilan aytib bo'lmaydigan g'alati holga duch keldim. Shamol tinganidanmi, yo havoga ananas i s i o'rnashib qolganidanmi, nihoyatda o'tkir yoqimli h i d dimog'imga urildi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Abdulla muzdek beqasam ko'rpacha ustiga cho'zildi. Yumshoq par yostiqlarning rayhon h i dini eslatuvchi yengil, yoqimli h i di gup etib dimog'iga urildi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. So'rma mendan bo'saning ismin, Nomi yo'qdir senga aytmoqqa. U keltirib atirgul i sin, Gulbarg bo'lib qo'nar dudoqqa. E.Vohidov, She'r dunyosi. -Voy, munchayam yaxshi! – Muattar xola "polskiy" sovunni huzur qilib hidlaydi. Bahri xola ham hidlayotganida Muattar xoladan dashnom eshitadi. – I s bilmaysiz-ku, hidlab nimaning farqiga bordingiz... O'.Hoshimov, O'zbeklar. Salqin sohillardan esgan shabboda Goh olib kelardi gullar b o' yini. Goh hindu qiz kuyin, goh yaqin bog'da Sayragan anvoyi qushlar kuyini. Zulfiya, Saylanma. O'sha-o'sha, bizga beshikdan Tanish xush b o' y taralar har yon. Tongda har bir ochiq eshikdan Rizkdek kirar bir juft issiq non. E.Vohidov, She'r dunyosi.

HIDLAMOQ, ISKAMOQ Hidni burunga tortmoq.

Gulya masalani ko'ndalang qo'ydi: "Yo meni deng, yo tilanchi onangizni! Ketaman! Dadamnikiga ketaman! Onam meni ko'mirning sassig'ini h i d l asin, deb tug'gan emas". O'.Hoshimov, O'zbeklar. Hali aytuvdim-ku, buvimning sochidan qatig'ning hidi keladi deb... O'sha hid-chi, buvim ketgandan keyin tushlarimga kirgan. Ertaga yana ketib qolsa tushimga kirsin deb to'yib-to'yib h i d l adim. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. Taksi shofyori har narsaga qiziqadigan yigit ekan. Mashina salonini tutib ketgan handalak hidini i s k ab. – Nimani hidi kelyapti, juda yoqimli hid... – deb so'radi. – Meni hidim, – dedi G'apura kulib. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong.

Yo'l chetidagi makkapoyalar orasidan juda xunuk, badbashara bir kuchuk chiqib keldi-da, yer i s k ab, yemish izlay boshladi. I.Sulton, Ozod. Kampir uning qiliqlariga andarmon bo'lib yo'l yurganini sezmaydi. ...Yo'lda uchragan itlar bilan i s k ashib, quvlashmashoq o'ynaydi. Ko'cha betidagi uy ostonasida tinmay akillayotgan kalamushdek kuchukni tuprog'ga qorishtirib bulg'aladi. S.Ahmad, Qorako'z Majnun.

HIYLA, NAYRANG, MAKR, FIRIB, DASISA Aldovchi xatti-harakat. Makr, firib kam qo'llanadi.

Habib Sattorov toifasidagi odamlar uchun bu aldamchi dunyoning h i y l alari odatiy hol. Ular bu h i y l alarga bas kela olmasliklarini biladilar. T.Malik, Shaytanat. Yashash uchun kurash borayotgan bo'lsa, odatda kuch bilan yengolmagan odamlar h i y l a bilan yengadilar: bu juda tabiiy narsa. Ayniqsa, xotinni quldan battar xo'rlovchi muhitda xotin chor-nochor h i y l aning ustoz bo'ladi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. ...Nasrullo Oxundiy saylov natijasini dazmoldan chiqqandek sip-silliq qilib qo'yardi. Bu gal uning n a y r a nglari ish bermadi. Byulleten olganlarning yarmidan ko'pi byulletendan nomzodning nomini o'chirib tashlagan edilar. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. [Zohid] Oxiri mayor Soliyevni topib, dardini aytdi. Bu sohada turli n a y r a nglarga duch kelaverib pishib ketgan mayor shogirdining gaplarini diqqat bilan eshitib, sukutga toldi. T.Malik, Shaytanat. E voh, ayol g'azabidan ham, M a k ridan ham asra, xudoyim! Yondirsada ichini alam, Savol so'rar yana muloyim... E.Vohidov, She'r dunyosi. Qurvonbibi, so'figa achchiq qilib bo'lsami yo o'zining yaratilish hamrida shu narsa bormi, har qalay fitnalikdan, ya'ni m a k r va f i r i b dan xoli emas Cho'lpon, Kecha va kunduz. ...Nasriddin Afandiga bir f i r i b berayki, kim aqlli va dono ekanligini ko'rib qo'lasan! Ha. O'sha olamga tanilgan Nasriddinni o'sal qilsam meni hamma gapiradimi? Gapiradi! Z.A'lam, Afandining qirq bir pashshasi. Qosim qaroqchi titrab ketdi. – Axir bular savdogarlar, odamlarni f i r i b bilan bor bud-shudini qoqib oladi! – Savdogarlar eng kerakli odamlar! Karvonni tashlada, ket! Qalandarning qayta-qayta: “Tashlada, ket!” deyayotgani dahshatli eshitalardi. Z.A'lam, Afandining qirq bir pashshasi.

HISOBLAMOQ, BILMOQ, QARAMOQ, KO'RMOQ, SANAMOQ, TUSHUNMOQ, ATAMOQ Fikr-o'yda bo'lmoq, hukm-mulohazada bo'lmoq. Ko'pincha bu fe'llar bilan undan oldingi so'z orasida deb ishlatiladi.

To'polonni qamoqda yotgan Yodgorxo'janing barzangiday ikki o'g'li bilan narigi – kaltaklangan Umaraliboyning bir o'g'li boshlaydilar...Bular avval Yodgorxo'jani qamoqdan qutqarib, keyin Umaraliboyni kaltaklaganlarning boshlig'i h i s o b l anmish Mamaturdini otib o'ldirmoqchi bo'ladilar. Cho'lpon, Kecha va kunduz. ...Lekin sizga aytmadan ketib qolganim uchun o'zimni aybdor h i s o b l a yman. Shuning uchun o'tinib so'rayman, meni kechiring, Gulchehra. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Abdulla Qahhor: – Men bugun lavozimimdan voz kechaman. Umuman, bu odamni soyuz a'ziligiga noloyiq kimsa deb b i l a man. Ana endi bu yog'ini o'zingiz davom etdiraverasiz, – dedi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. ...Gulchehra uni [Samadni] qo'yib yubormadi. – Baribir o'rtoq bo'lib qolamiz-a? Men seni o'zimning eng yaqin do'stim deb b i l aman. – Men ham. Xayr. Oramizda hech qanday gap bo'lgani yo'q deb h i s o b l ayver. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Endilikda “munglug'”, “mushtipar” singari so'zlar qovushmay qolgan, bu xotinlardan hech biri qilayotgan ishiga, kasbi-koriga sababi tirikchilik deb q a r a maydi. Bular qandaydir bir ichki dard bor. A.Qahhor, Xotinlar. ...“Shaytanat” olami – yaqin o'tmishdagi bizning olamimiz, bizning voqeligimiz, bu olamni bir tirik vujud deb q a r aydigan bo'lsak, shu vujudagi og'riqlar, dard-xastaliklar bizning dard-u alamlarimiz. Shunday ekan, nechun biz bu dardlarga, “dard ustiga chiqqan chipqon”larga befarq qarashimiz kerak? T.Malik, Shaytanat. Kampir Fotimaning so'zlariga qarshi lom-mim deyolmay qoldi: haqiqatan, o'zi vaqtida o'qiyolmay qolib, hayotida nima kamlik, qanday qiyinchilik tortgan bo'lsa hammasini ilmsizlikdan k o' r gan, zehni o'tkir Zuhraning ilmga tezroq to'lishini ko'zlab, uning maktabdagi qilday yutug'i oldida uydagi filday gunohini payqamagan edi. A.Qahhor, Nurli cho'qqilar. Bilaman, rashk meni etardi halok, Afzal k o' r ganingni qarg'ab o'tardim, Izindan yurmasdim soyaday g'amnok, Lekin ishq haqqi-la mag'rur kutardim. Zulfiya, Saylanma. Shariatpanoh musulmonlar payg'ambar yoshidan nariyog'ini harom s a n ashadi. Xalfa ham harom yoshdan hazar qilib, tirik vaqtida janozasini o'qitib qo'ymoqchi bo'ldi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. To'ti

so'ylasa ham qanchalik biyron, Odam emasligi barchaga ayon. Odamning odamlilik fazli bo'lmasa, So'zlashiga qarab s a n ama inson. E.Vohidov, Ishq savdosi. -Xo'p, – dedi Samandar suhbatga yakun yasash uchun. Bazarov esa buni rizolik alomati deb t u sh u nib, yelkasiga urib qo'ydi: – Mana bu boshqa masala. Sen uyingga borib kelaver. Qolgan ishlarni menga qo'yib ber. (qissa). T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. Shirin Xisravga xotin bo'lishni, uning shoh degan zo'r ovozasiga qaramasdan, o'ziga chidab bo'lmas katta bir xo'rlik deb t u sh u nadi. Uning bilan tiz cho'kib ko'rishmoqdan ko'ra o'lmakni o'ziga sharaf deb biladi... H.Olimjon, Tanlangan asarlar. Chindan ham Zelixon biz jinoyatchi deb a t aydigan odamlar olamining past-u balandini yaxshi bilardi. Birinchi marta cho'ntak kesganidan to so'nggi xazinani urganiga qadar yagona aqidaga amal qiladi – u faqat o'zigagina ishonadi. T.Malik, Shaytanat. Shoir bo'lsam bir kun elga munosib, Meni shoirim deb a t asa xalqim, Navoiy devonin ko'ksimga bosib, Pushkin dahosiga qilurman ta'zim. E.Vohidov, Umrim daryosi.

HISSA, TEGISH, ULUSH, TAN Biror narsaning kimgadir (nimagadir) oid, unga qarashli qismi.

Baxtiyor Boboyev juda talantli rassom. O'zbek urf-odatlarini bilib-bilib, tasvirga tushiradi. ...Otasi do'stimiz Mamarasul Boboyev o'zbek she'riyati rivojiga katta h i s s a qo'shgan shoir edi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. ...u nafaqat o'zini tiklab oldi, balki qishloqqa ham yordam jo'nata boshlagandi. Axir, enasining keyingi qator ma'rakalari-yu akasi Amirga muntazam ravishda sotib olib berilayotgan qimmat dorilarda Yusufning sezilarli h i s s a si bor. U.Hamdani, Muvozanat. Somsapazlik qilib, tinchgina yashab yuruvdim. Bir kuni tandirni ertaroq qoqlab, xo'jaynimdan o'z t e g i shimni oldim-u, kayfiyat vajang bo'lib, uyga jo'nadim. Odatdagidek, telestudiyaning yonidan o'tib borayotsam, bir zanjinusxa odam ichkaridan holpillab chiqib, shartta yo'limni to'sdi... A.Obidjon, To'g'on Takayevning qoshiqbozi. Kechgi ovqatdan keyin opam chivish uchun opachalarimga ikki, ukam va singlimga bir changaldan paxta beradi. Menga t e g i shni Enam belgilaydi. O'sha oqshom t e g i shimni tezda chivib, aslida paxtani shundayicha Enamga topshirib o'rnimga kirib yotib olgandim. B.Qobul, Ena shamol. Bazada bunaqa omborlardan o'n yettita. Hammasi ham kuniga bitta-ikkita boyagidaqa ishlarni qilib turishadi. Begijon o'z u l u shini olmay bunaqa mollarni chiqarmaydi. S.Ahmad, G'ildirak. [Alomat]: O'rtoqlar! Hali dalalarimizda hosil ko'p! Yana bir harakat qilsak, marra bizniki! ...Bugun paxta dalalariga qarar ekanmiz, yosh-u qari etak tutib ulkan xirmonga o'z u l u shlarini qo'shish ishtiyoqi bilan javlon urayotganiga qoyil qolmay ilojing yo'q... Sh.Boshbekov, Temir xotin. Do'stlikning shartiga rioya bo'lsin, Hech g'ubor tushmasin dil ko'zguna. Kamtar u l u shimiz, ayting, qo'yilsin Jahon bozorining tarozusiga. E.Vohidov, Umrim daryosi. Endi siz bilmagan narsa shuki, teng sherik emasmiz. Men to'rtidan bir tan A.Qahhor. -Bo'pti, Davron, ziyofat menga tan, – dedim. – Hammasini o'zim pishiraman. P.Qodirov, Qadrim. (bu so'zga eski lug'atdagi misolni aynan qoldirdim. Boshqa topolmadim. Ikkinchi gap esa izohlidan olingan.)

HOMILADOR, IKKIQAT, BO'G'OZ, YUKLI Homilasi bor, qornida bolasi bor. **Homilador** faqat odamga nisbatan, **bo'g'oz** asosan hayvonlarga nisbatan qo'llanadi. Odamlarga nisbatan qo'llanganda hurmatsizlik, mensimaslik munosabati bo'ladi. **Ikkikat** oddiy so'zlashuvga xos bo'lib, odam va hayvonlarga nisbatan aralash qo'llanaveradi. **Yukli** oddiy nutqda, juda kam uchraydi.

Tokchada bir kichkina choynakda "tabarruk" suv bor edi, u suvga Razzoq so'fining iltimosi bilan eshonning o'zi duo o'qib dam solgan, uni ichgandan so'ng tez fursatda Zebi h o m i l a d o r bo'lib, bola tug'ishi kerak edi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. G'anijon xotini h o m i l a d o r bo'lganda ham, bolani ko'tarib yurganda ham, oy-kuni yaqinlashib qolganda ham bunga qishloqda har kuni, har yerda bo'layotgan va bo'ladigan hodisa deb qaragan edi. A.Qahhor, Karavot. -Ikkita jon deysizmi? – Balki uchtadir... – dedi Kesakpolvon yon tomoniga qarab chirt etib tupurib. – ...Agar xotining hozir i k k i q a t bo'lsa, uchinchi jon o'sha-da. T.Malik, Shaytanat. Diloromni Minglar Oydinko'l sohilidan topib olgan, der edilar. Haqiqatni bir xudo biladi, biroq, o'sha mahallar Minglarning ayoli i k k i q a t bo'lib, aynan tug'ishi yaqinlashganida suvga cho'kib o'lgan edi. ...Minglar xotinini izlab chiqqanida, suv bo'yida oyday bir chaqaloqni topib olgani ovoza bo'ldi. I.Sulton, Ozod. B o' g' o z sigirlarning mikroelemenlar yetishmovchiliklari bilan

kasallanishi oqibatida ulardan tug'ilgan buzoqlar orasida dispepsiyaning nisbatan ko'p qayd etilishining... 30 foizgacha kamayishi aniqlangan. "Chorvachilik". Rahmatulloh ota yurtini qoralab safarga chiqqanida u [zavjasi] y u k l i edi. Yaratganning irodasi bilan eson-omon ko'zi yorib olgandir, hozir farzandi arjumandi yugurgilab o'ynab yuradigan yoshga yetgandir... T.Malik, Ov. ...enam mendan keyingi singlimga y u k l i bo'lganida u [opam] kelib meni ko'tarib yurar ekan. Enamning shu gaplari ta'sirimi... rostdan ham bir qiz meni daraxtzorlar ichida o'ynatib yurgani g'ira-shira xotiramda jonlangandek bo'ladi. E.A'zam, Shovqin.

HOSILDOR, SERHOSIL, UNUMDOR, SERUNUM Ko'p hosil beradigan. **Unumdor, serunum** kam qo'llanadi. **Hosildor** ko'proq yerga nisbatan qo'llanadi, ko'p hosil beradigan ekin, mevalarning o'ziga nisbatan esa kamroq qo'llanadi. Serhosil, aksincha, ko'p hosil beradigan ekin, mevalarning o'ziga nisbatan keng qo'llanadi.

Bu erk olib yuksalgan elning Gul bahori, h o s i l d o r yozi, Qozog'iston — bu jannatga teng, Bu – Kulashning ipak ovozi. H.Olimjon, Tanlangan asarlar. Qadimgi mulkdorlarning h o s i l d o r yer va bog'larigina emas, balki boshqa ishlab chiqarish qurollari ham endi batamom kolxozga o'tishi lozim edi. P.Tursun, O'qituvchi. Shunday s e r h o s i l yerlarda dehqon nochor yashasa?! O'zi ekib, o'zi o'rib, o'zi yanchgan donga zor bo'lsa? T.Malik, Savohil. ...Shu obro' orqasidan s e r h o s i l yerlarga egalik qilishlari ham mumkin edi. Biroq otasi "Bu yer shu qishloq odamlarining rizqi. Ollah nasib etsa, biz o'z yerlarimizga ketarmiz", deb qoya poyidagi qarovsiz joyni tanlagan edi. T.Malik, Shaytanat. -Ovrupoliklar Amriqoni zabt etganlarida yerlik xindularni cho'l-u biyobonlarga, tog'-u toshlarga ko'chirib, u n u m d o r yerlarni egallab olgan ekanlar. Oq podsho ham shu usulni qo'llashni ihtiyor etgan edi, bundan bexabarmisiz? T.Malik, Savohil. -Bir qarang, atrof qanday go'zal! – dedi u piching aralash. – Zaura saxiylik bilan nur sochadi. To'yib-to'yib nafas olish qanday rohat! Tuproq u n u m d o r – qurigan cho'p tushsa ham ko'karadi! T.Malik, Devona. Yoz bo'yi g'o'zalarni to'ydirgan s e r u n u m tuproq kulrang o'g'it bilan aralashib, pastga tushar, ostki qatlamning dimiqib yotgan qora tuprog'i yuzaga chiqib tovlanardi. I.Shamsharov, Paxtaqaynar. Serunum mehnat ularni to'q turmushga qarab yetaklar edi. H.Olimjon, Tanlangan asarlar.

HURMAT, IZZAT, EHTIROM. O'zganing (o'zgdagi) qadrlash. ulug'lash sezgisi va shu sezgining ifodasi.**Ehtiro**m oddiy so'zlashuvda qo'llanmaydi. Kitobiy tilda ham kam qo'llanadi.

Bu qasidam senga, xalqim, Oq sutu tuz h u r m a t i, Erkin o'g'lingman, qabul et, O'zbeğim, jon o'zbeğim. E.Vohidov, Ishq savdosi. [Alomat]: O'rtoqlar! Hali dalalarimizda hosil ko'p! ... Kechani kecha, kunduzni kunduz demay "zangori kema" shturvallarini boshqarayotgan azamatlarimizning jasorati osmon qadar h u r m a t va olqishga loyiqdir! Sh.Boshbekov, Temir xotin. -Bugun men ham i z z a t d aman, ham hizmatda. Lekin kelganingizni ko'rdim. Faqat oldingizga kelolmadim. Kechiring. – Hechqisi yo'q. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. -Insonning i z z a t i isrof bilan o'lchanmaydir, afandim. I z z a t yaxshi ila, yaxshi sa'y ila ifodalanur. Buni anglamak joizdir. T.Malik, Shaytanat. Ikki o'g'ilning o'z onalariga bo'lgan cheksiz e h t i r o mi bola-chaqalari-yu mahalla-ko'yga yuqib, ular ham enani boshlariga ko'tarardilar. U.Hamdani, Muvozanat. Oy Halima ham Malika, Tursunoy, Ey chiroy-u fayzga boy-u she'ri soy, Sizga dildan eng samimiy e h t i r o m, Yangi yilning tabrigi ham assalom! E.Vohidov, She'r dunyosi. Ha, haqiqatan ham g'alati charx bu: o'g'il erta-bir kun ulg'ayib, o'zi ota bo'lgani mahal, onasiga ko'rsatgan izzat-ehtiromining o'z juftidan qaytganiga shohid bo'lsa, qiz turmush qurganida, xo'jasiga ko'rsatgan e h t i r o mining aksini bolasidan ko'rmoqda... I.Sulton, Ozod.

HURMATLAMOQ, HURMAT QILMOQ, IZZAT QILMOQ, SIYLAMOQ. Hurmat-izzat hissi bilan munosabatda bo'lmoq. **Siylamoq** ma'noni kuchsizroq darajada ifodalaydi.

...ota-onasini behurmat qiluvchi xotinni qo'yib, hurmatlaydiganiga uylanuvchilar ham bor. Ammo ikkinchi yoki uchinchi xotin ota-onasini h u r m a t l aydi, deb kim kafolat beradi? Ehtimol hurmatsizlikda keyingilari avvalgisidan oshib tushar. T.Malik, Odamiylik mulki. Zuhra kattakon qizil ro'mol o'rab olgan, katak ro'molchasini lunjiga bosib soldatchasiga g'oz turar, aftidan, onasining xotirasini o'zicha h u r m a t l ar edi. A.Qahhor, Nurli cho'qqilar. -Mendan kulmang! ... – Qo'ying, – dedim titroq qo'llarini ushlab. – Siz juda yaxshi qizsiz. Nega sizdan kular ekanman? Ishoning, gapim chin. Sizni, sizni juda h u r m a t q i laman! O'.Umarbekov, Sevgim-sevgilim...

[Olimjon]: *Qo'chqor aka, sizni qanchalik h u r m a t q i lishimni bilasiz. Lekin har narsaning ham chegarasi bo'ladi. Agar shunaqa qilaversangiz, hozir kirib Alomatingizni buzib tashlayman!* Sh.Boshbekov, Temir xotin. -*Men bir ko'hna kitobda o'qiganman: kimki o'z nafsini xor tutsa, Xudo uning qadrini oshirarkan. Kimki o'z nafsini i z z a t q i lsa, Xudo bandalari oldida uni xor qilarkan.* T.Malik, Shaytanat. *Yigitlar, keyinchalik kelgan haligi mo'ysafid ham, uni [Sobiraxon opani] shunchalik i z z a t q i lishar ediki, Asqar ota bu juvonning oddiy traktorhigina ekaniga shubhalanib qoldi.* A.Qahhor, Xotinlar. *Endi uning Elchinning "kuyov" degan unvoni bor. Kuyovni payg'ambarlar s i y l aganida Asadbekning yugurdagi siylamas ekanmi?..* T.Malik, Shaytanat. *Chuvrindi ukaginam... Seni s i y l asam, chorig'ing bilan to'rga chiqyapsanmi?.. Shunaqa qilaversang, bitta chorig'ing bilan qoldiraman, bola.* T.Malik, Shaytanat. *Xo'jayining mashhur va hotam, Ko'p yo'qlashar do'st-u yoronlar. Ulug' mezbon ko'ngli uchun ham S i y l ashadi seni mehmonlar.* E.Vohidov, Ishq savdosi.

HURMATLI, IZZATLI, MUHTARAM. Hurmatga loyiq, izzat-obro'ga ega. **Izzatli** so'zi hurmatli so'ziga nisbatan kam qo'llanadi. **Muhtaram** so'zi kitobiy.

Asqar ota bu h u r m a t l i juvon boshqa xotinlardan raftori bilan ajralib turar degan bir o'yda edi, biroq Sobiraxon yor-u do'stlari orasida shularning biri bo'lib qolganini ko'rib, ajablendi. A.Qahhor, Xotinlar. *"Diqqat! Diqqat! Beruniy sayyoh kemasi radiouzelidan gapiramiz. ...H u r m a t l i sayyohlar! Kema palubasiga chiqish qat'iy man etiladi. Bo'ron 9 ball, dengiz 8,5 ball".* E.Vohidov, Umrim daryosi. -*Ota, bu Asadbek, mening i z z a t l i mehmonim, – dedi Xongirey ruschalab. – Mehmonim salomat bo'lsin. Ichamiz! – Xongirey shunday deb aroqdan xo'plab qo'ydi.* T.Malik, Shaytanat. *Piyola sinsa chegalab ishlatish mumkin, ammo siniqning izi yo'qolmaydi. Bu piyolada i z z a t l i mehmonga choy uzatilmaydi. Nomus ham shunday. Inson yashayveradi, biroq, sharmandalik izi bir umrga saqlanib qoladi.* T.Malik, Shaytanat. *Modomiki, masala o'zi bu qadar ravshan va aybdorning o'zi o'z og'zi bilan iqrar qilib turibdi, mayli, muzokara ochib o'tirmasak ham bo'ladi. Men o'z fikrimni m u h t a r a m sud hay'atiga arz qilib, masalaning bu tomoniga ham diqqat qilinmog'ini so'rayman.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. *...gen o'ramlarining eng maqbul kombinatsiyalaridan birini topgan hamkasbimiz professor Ziyodir. Men m u h t a r a m professordan o'rnidan turishini iltimos qilmoqchiman.* I.Sulton, Boqiy darbadar.

HURMOQ, VOVILLAMOQ, AKILLAMOQ. Vov-vov, ak-ak kabi tovush chiqarmoq. **Vovillamoq, akillamoq** so'zlari itning "vov-vov", "ak-ak" ovozi chiqarayotganini bildiradi. **Hurmoq** itning umuman shunday harakatini bildiradi. **Akillamoq** hurmatsizlik, haqoratni ifodalashda odamga nisbatan ham qo'llanadi.

Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi... ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it h u r a d i, tovuqlar qaqag'laydi. A.Qahhor, O'g'ri. *It h u r a r, karvon o'tar (Maqol). - O'chir, ovozingni, haromxo'r! – burilib ketayotgan chol keskin harakat bilan Amirning yuziga qamchi bosdi. So'ng yana, yana... Amir og'riqning zo'ridan dodlay boshladi, azonda uning faryodi adirlar osha Ulug'tog'ga urilib, aks-sado berdi. Itlar h u r d i. Qo'ylar qochdi... U.Hamdani, Muvozanat. Munisxon o'zi, umuman, hayvonlarni yomon ko'rardi. Mushuk desa kapalagi uchib ketardi. Ko'chib ketishayotgan kuni, xuddi xunuk bir ish sodir bo'lganini sezgandek, Ko'ktoy juda ko'p g'ingshidi, v o v i l l adi. O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri. Qorong'i tushdi, olisidan podachi bolaning "qurey-qurey"si eshitildi. Allaqayerda it bir-ikki v o v i l l adi-da, jim bo'ldi. Qishloqda yana tungi osuda hayot boshlandi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Asadbek simtikonlar ortidan ko'rinib turgan, yarmi yer ostida bo'lgan bostirmalarning xunuk manzarasiga tikilib qoldi. Shu yerlarda otasi yurgan... Hozir qiyshayib qolgan yog'och minoralar ustida soqchilar turgan... Itlar a k i l l agan... Zobitlar baqirgan... T.Malik, Shaytanat. [Alomat]: *Bittamas,hamma gapingni shivirlab gapirasan! Agar yana bir marta shu hovliga chiqib a k i l l asang, anavi eshikka oyog'ingdan osib qo'yaman — shamolda tebranib turaverasan! Uqdingmi, tovuqmiya?! [Saltanat]: (shivirlab). Uqdim-da, opovsi, uqdim... Sh.Boshbekov, Temir xotin.**

HUSN, CHIROY, KO'RK, ZEB. Yoqimli, o'ziga tortuvchi tus (ko'rinish). **Husn**, so'zi **chiroy, ko'rk** so'zlariga nisbatan keng qo'llanadi. **Chiroy, ko'rk** so'zlari shu ma'noda jonli so'zlashuvda deyarli qo'llanmaydi.

Bir fir'avning qirqta xotini bo'lib, qirqinchisi kambag'al bir gilam to'quvchi hunarmandning qizi ekan. Fir'avn uning h u s niga maftun bo'lib, o'ziga nikohlab olgan ekan. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Kunlar, yillar o'tib Gulira'no voyaga yetibdi. Xudoyi taolo unga shunday bir h u s n ato qilgan ekanki, o'n olti yoshga yetganda husni jamolining, aql-u farosatining ovozi olamga yetibdi. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. Senga bo'lsin barcha h u s n-u Menga bo'lsin barcha ishq, Kori xunxorlik senga-yu, Mehri poydorlik menga. E.Vohidov, Ishq savdosi. ...bir yigit bir qizga ko'ngil berdi, deylik. Aql aytadiki, sen ch i r o yini yoqtirding, u ch i r o y tez orada gul misoli so'ladi. His aytadiki, undan o'zgasini ham, usiz yashashni ham istamayman. I.Sulton, Hazrati Majoz. Bahorning sehrigar boqiy ch i r o yi Yosh-u keksa ko'nglin ovlaydi birdak, Ko'zguni sindirib tashlar. Kiroyi Har kishining yoshi bu fasl dildak. Zulfiya, Saylanma. ...Muhammadjon aka bir qushning qafasi oldida to'xtadi. Ohista ochib, qushni avaylab qo'liga oldi: kaklik! Alomat qush: qanotlarining ustidagi beqasam to'ni uning ch i r o yini judayam ochib yuborgandi. U.Hamdani, Muvozanat. Ona yurtim jamolin, k o' r kin Men olamga ocholganim yo'q. Yelkamda bu yuk to'la xurjun, Tugunini yecholganim yo'q. E.Vohidov, Umrim daryosi. Kun qaytguncha

yurib, ko'p tarixiy yodgorliklarni ko'rdik, to'g'on-ko'lga bordik, shahrimizning k o' r ki bo'lgan yangi ko'chalar, maydonlar, xiyobonlarni kezdik, muzeylarga kirdik. A.Qahhor, Dumli odamlar. Nuqta qo'y nazmingga, Erkin, Muxtasarlik so'zga z e b, Yo'qsa, tong otguncha she'ring Bo'lg'usi doston qadar. E.Vohidov, Ishq savdosi. Balki u zebocha ermas, Balki u bir g'unchadir, Husning oftobida ammo Kun sayin z e b ochadir. E.Vohidov, Ishq savdosi. Har binosi bir xalq kelinchagiday, Betakror z e b bilan diding etar xush, Anov ko'kning mo'jaz belanchagiday Sho'x bino bolalar bog'chasi emish! Zulfiya, Saylanma.

N

NAFAS, DAM, TIN. O'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo. **Dam** so'zi **nafas** ga nisbatan kam qo'llanadi. **Tin** kitobiy. Kam qo'llanadi.

Men uning kiyim- kechagi-yu a'zo-yu badanidan nafasni bo'g'ib qo'yadigan achimsiq hid anqiyotganini yo'lning yarmini bosib o'tganimizdan so'ng sezdim. S. Ahmad, Tanlangan asarlar. Keyin Qodirjon birpas nafasini rostlaydi. S. Ahmad, Tanlangan asarlar. Jamshid hayajondan nafasi tiqilib, tili g'ulduray-g'ulduray, bo'lgan voqeani aytib berdi. O. Yoqubov, Adolat manzili. Xushmurodning og'zidan kelayotgan ko'lansa hiddan O'tagan buvaning dami qaytib ketdi. G'.Shermuhammad, Barakasini bersin. Ot pishqirgan damiga Erir tog'dagi qorlar. "Oysuluv". O'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo. Yig'ishtirib bor bisotini, Bo'g'iziga tiqilib tini, Nuri sari qildi ishora, Zaynab uchun bo'ldi bu chora.H.Olimjon, Zaynab va Omon.

NAMUNCHA, BUNCHA(LAR), BUNCHALIK, SHUNCHA(LAR), SHUNCHALIK, QANCHALAR, QANCHALIK, NECHOG'LIK, NAQADAR. Mazkur so'zlar harakat-holat, belgi darajasining ortiqligini bildiradi. **Namuncha, qanchalik, bunchalik, shunchalik** so'zlashuv tilida ko'p qo'llanadi. **Naqadar, qanchalar, bunchalar, nechog'lik** so'zlari kitobiy, yozma nutqqa xoslangan. **Naqadar, nechog'lik** so'zlarida harakat-holat, belgi darajasining ortiqligi kuchliroq ifodalanadi. **Naqadar** emotsional-ekspressiv so'z hisoblanib, so'zlovchining subyektiv munosabatini ham ifodalaydi. **Buncha** va **shuncha** so'zlari **-lar** qo'shimchasini olganida ortiqlik ma'nosi kuchli ta'kid oladi hamda mazkur so'zshakllar emotsionallikka ega bo'ladi.

-Tavba-yey, namuncha tegmanoziksiz? – Qaysi bir oqshom [Tugalboy] enajon, deb chorasiz ingrayvergach, Shafolat chiroqni yoqib to'ng'illadi. – Hatto andak ko'kargani yo'q, shishgan yoki yiring-piring yig'gan emas! A.Dilmurod, Qo'ng'iroq. Hovlidagi olma shig'il hosil qildi. Onam uyga mehmon bo'lib kelgandilar. Ko'zlari tushib, chehralari yorishdi:– Voy, jonivor-a, namuncha chiroyli. A.Hotamov, Ko'ngil. Voy, bolam-ey! Ishingni namuncha yaxshi ko'rmasang. Tug'ilgan kuningda ham ertaroq kelmaysan-a!.. A.Hotamov, Tug'ilgan kun. Mittiman, deb g'am chekma zinhor, Kengliklarga sig'may hayqir: “Olam buncha tor!” U. Azim, Bir boshingda she'r g'alvasi...Shoir bo'lib tug'ilmasaydim, Ko'rmas edim bunchalar xo'rlik...T. Malik, Shaytanat. Nima deb kuylaydi qo'ng'iroqchalar, Bunchalar sevdirding meni, bunchalar? I. Mirzo, Bunchalar. Dunyoda hali biror tovush Fazliddinga bunchalik yoqimli tuyulmagan edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. E voh, yer shuncha qattiq, Osmon shunchauzoqmi?! U. Azim, Vatan. Borliq shunchalar go'zal, Yashash shunchalar shirin. E. Vohidov, Bir tomchi quyosh o'ynar... Oshiq bo'lib, ishon, shunchalar Sevmagandim hech qachon seni. E. Vohidov, Oy fonusin ko'tardi osmon...Bo'lajak farzand Ozodani unga shunchalik yaqinlashtirib qo'ygan ediki, go'yo u Ozoda, Ozoda esa Murod bo'lib bir-biriga aralashib ketgandek edi. S. Ahmad, Alla. O'ris Hammaning og'zida shu gap. Azizxonning jasorati qishloq ahlini qanchalar quvontirgan bo'lsa, Tursunboyning qilmishi shuncha xafa qilgan edi. S. Ahmad, Ufq. U endigina, “Qaldirg'och” deganda o'g'lining ovozi alam aralash allaqanday cheksiz bir mehr bilan yangrab ketganini eshitganidagina, boya o'ylagan o'ylarini unga aytish qanchalar qiyin bo'lishini angladi, angladi-yu : «Otasichi? Otasining qismati nima bo'ladi, bu ahvolda?» — degan o'yuragini o'qday teshib o'tdi. O. Yoqubov, Adolat manzili. O'zgaradi qancha kaloming, O'zgaradi qanchalar lavhang. E. Vohidov, She'r haqida she'r. Kishining tashqi qiyofasiba'zanintilishlariga, fikr-o'ylariga qanchalik qarama-qarshibo'lishiga endiishondim. S. Ahmad, Cho'l burguti. Savodsi zkaampirning soda falsafasida qanchalik chuqur ma'no borligini endi tushunyapman. O'. Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Yo'q, shoirsan! amaldorlariga nechog'lik ta'zim bajo qilsang, shuncha yaxshi. Ulardan hech bir kishiga yomonlik kelmaydi, ular yolg'iz tartibni, tavozeni talab qilishadi. Oybek, Qutlug' qon. Yevdokiya Fyodorovna Rasulni darvozagacha kuzatib chiqdi. O'zi vrach emasmi, u erining a hvoli nechog'lik og'ir ekanini aytib, birpas ko'z yoshi to'kib oldi. O. Yoqubov, Oq qushlar oppoq qushlar. Qishlog'im, nechog'lik suluvsan bugun, Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha. Mirtemir, Qishlog'im. -Bas, bas!—Hazratning yuragi yana og'rib ketdi: ha, o'sha ertaklar ham unga tanish! O', naqadar tanish! Ajib, yoqimli! Sh. Xolmirzayev, Qil ko'prik. Ertangi kun hech qanday yaxshilik va'da qilmaydigan kuz kechalari naqadar hazin, naqadar og'ir. S. Ahmad, Borsa kelmas tomonlarda. O'shakuni esa uning haziliga naqadar dag'al javob berayotganimni hatto sezmas ham edim. O. Yoqubov, Muqaddas.

NARX, NARX-NAVO BAHO, QIYMAT Narsalarning pul bilan o'lchanadigan qiymati. **Narx** va **baho** so'zlari faol qo'llanadi. **Qiyamat** nisbatan kam qo'llanadi, yozma nutqqa xoslangan. **Narx-navo** da 'umuman' ifodali xususiy ma'no qirrasini bor.

Agar bu bolaga ham besh-o'n ming so'm berilgan bo'lsa, umumiy hisobda... narxim chakki emas ekan-da. T. Malik. Shaytanat. Bu orada Sotvoldi dadasidan motorli veslosiped, Suydixondan narxi palon pullik rangli televizor, dadasidan jez tugmali kostyum, Suydixondan qo'ng'iroq

chaladigan elektron soat, dadasidan ko'chada yurib ham gaplashadigan masofali telefon, Suydixondan kompyuter o'yin undirdi. S.Ahmad, Bir o'pichning bahosi. Tuzalgan moshguruch soqoli sog'lom chehrasiga g'oyat yarashib tushgan notanish bu chol bungacha choyxonadagi haydovchilar bilan bir-bir gaplashib chikkan, ammo u aytgan narxga hech kim rozi bo'lmagan. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. Bu paytda esa Erkaklar xonasida gurgung qizigan. Goh ob-havo, goh bu yilgi g'alla, goh narx-navo. Ishqilib, gap topiladi-da. A.Yo'ldosh, To'y. O'zimga olti mingga tushgandi. Oradan ikki yil o'tdi: pul qadrsizlanib narx-navo ham necha marta oshdi, hozir o'n mingdan sotyapman..A.Damin, Tentakka salom berdim. [Maxdum] Bu to'g'rida xotini harchand rad qilsa ham qoplab shalg'am, yigirma-o'ttuzlab qovoq xarid qilishini qo'ymas – "shalg'am – Bibi Fotimai Zuhraning duolari barakati, qovoq bo'lsa hazrati Yunusning mo'jizalari" deb bahosi arzon va lekin xosiyati ko'b bo'lg'an bu mablag'lar bilan oshxonani to'ldira berar edi. A.Qodiriy. Mehrobdanchayon. U yirtiq pullarni yarim bahoga olib bankadan butunga almashtirib olardi. S. Ahmad, Ufq. Qiymati ulkan oltin xazinalariga barobar keladigan bu olmosni o'g'rilardan qo'riqlab turish uchun ham juda ko'p navkar kerak edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Mirza: Kecha namozi shomdan keyin o'sha ikki oqsoqol kelib, shariatpanoh ja-noblariga ikki ming tanga hadya etib, erning gunohini tilab oldilar. Men: Nima deyapsiz? Mushuk olib qochgan bitta nonning qiymati ikki ming tanga... Buning ma'nisi ne? A. Fitrat, Hind sayyohining qissasi.

NARXLAMOQ, BAHOLAMOQ. Narxini belgilamoq, narx qo'ymoq. **Narxlamok** so'zi **baholamoq** qa nisbatan kamroq qo'llanadi.

Boboqul bozor aylanib narx-navoni bilgach, sigirni sakkiz yuz mingga narxladi. N. Abdullayeva, Begona govmish. U choyxonada uyi shu tomonda bo'lgan va ilgari tanish bir odam bilan uchrashib, unga o'n ming xom g'isht quyib berishni baholab oldi. Oybek, Qutlug' qon. Shomatovning o'g'li tergov guruhiga sakson uch ming pul, yana o'ttiz ming atrofida baholangan tilla buyumlar topshirgan. O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar.

NASIHAAT, O'GIT, PAND, MAV'IZA. To'g'ri, oqilona yo'l tanlashga yo'naltiradigan gap, maslahat. **Nasihati** so'zi keng qo'llanadi. Ayrim hollarda **pand-nasihati** shaklida kelib, so'zning ma'nosi kuchayadi. **O'git, pand** so'zlari kitobiy. **Mav'iza** diniy mazmundagi nasihatga nisbatan qo'llanadi, eskirgan.

- *E, o'sha Sumbulxoningni... Opchiqib ber. Men harom qo'l tekkan taomni yemayman. Mendan senga nasihat, sen ham yema. S. Ahmad, Tanlangan asarlar. Yigitlarga aytar nasihatim shul: Yosh yoshlikda yoshlik gashtini sursin. E. Vohidov, Keksalik gashti. Xonamga kelib xaroba shahar surati bilan professorning umrini qiyoslagach, men bunga yana ham ko'proq amin bo'ldim va hamma narsani — professorning o'gitini ham, o'zini ham unutmim. N. Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. Uning-ku bahonasi bor, men nima deyin bu so'roqqa? Huv poyezdda birga ketgan dono suhbatdoshimning o'gitlariga amal qilolmay, yana dunyoning o'tkinchi jilvalariga chalg'ib-sho'ng'ib, ko'ngilni erkin, ozoda tutolmaganimdan so'z ochaymi? E. A'zam, Shovqin. Buldur ustoz pandi: siymin tandin o'zga surma siym, Kirma savdo bahriga olamdan istab sudkim. E. Vohidov, Navoiy g'azaliga muxammas.*

Ana shundan keyin oqsoqol qiziga pulning qadri, puli bor odamning qo'li uzun bo'lishi, qa yerga borsa ham xor bo'lmasligidan nasihat o'qib ketdi. S. Ahmad, Ufq. Navoiy "Badoe'ul-bidoya" devoni debochasida «ma'rifat va mav'iza»- dan yiroq ijodni «behuda zahmat va zoye mashaqqat» deb baholaydi. U mana shu aqidalarga amal qilib, devonlarni tuzishda ko'p hollarda har bir harf g'azaliyotining ibtidosini hamd, na't yoki mav'iza ruhida g'azallar bilan boshlanganini yozgan

NAVBAT, GAL. Muayyan qatorda egallangan yoki avvaldan belgilab qo'yilgan o'rin. **Navbat** so'zi keng qo'llanadi. **Gal** so'zlashuv tilida nisbatan ko'proq ishlatiladi.

Qosimjonning navbati kelguncha ham anchagina vaqt o'tdi. S. Ahmad, Tanlangan asarlar. Ertalab yonboshiga "Moloko" deb yozilgan mashina kelganda shisha banka ko'tarib, navbatda

*turishadi. S. Ahmad, Tanlangan asarlar. Navbatga turib ikki kilo limon oldim. O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi. Aytarini aytib, gal menga kelganda, toshkentlik sherigimizning tunov kungi iddaosi esimga tushdi. E. A‘zam, Maestro. Anavi Sodiqov muallim gali kelganda poda boqishga or qilib, sigirini so‘yib sotdi! T.Murod, Momo Yer qo‘shig‘i. Hozir o‘sha childirma po‘k-po‘k qilgan sari mening yuragim ham po‘killab turardi. Chunki hozir sahnaga chiqish mening navbatim. ... Mening galim keldi. Parda yopilishi bilan tezgina sahnadagi stol oldiga borib o‘tirib oldim.*N.Fozilov, Shoirning baxti.

NAVBATDAGI, GALDAGI, ENDIGI. Navbatga ko‘ra birinchi galda bajariladigan yoki bajarilishi lozim bo‘lgan. Har uchala so‘z keng qo‘llanadi. **Navbatdagi, galdagi** yozma nutqda, **endigi** so‘zlashuv tilida ko‘proq qo‘llanadi.

Ayolcha navbatdagi mashqqa o‘tdi. Tik turgan holatda gavdasini orqaga tashlab “ko‘prik” yasadi. X. Do‘stmuhammad, Sohildagi nash‘u namo. -Ayting, navbatdagi odam kirsin, – deb qoldi doktor uning ketidan. O‘. Hoshimov, Bahor qaytmaydi. “Demak, Anvarga o‘z munosabatini yashirdi chol...” deb o‘yladi va buning tagiga yetish uning galdagi maqsadi bo‘lib holdi. Sh. Xolmirzayev. Qil ko‘prik. A. Abdurazzoq, Akam ekkan o‘rik. Sidiqjon butun sarguzashtini — onasi nima uchun aravasoza shogird berganini, nima bo‘lib Zunnunxo‘jaga ichkuyov bo‘lib qolganini, o‘z to‘pidan ayrilib kechirgan o‘n yillik hayotini, bola-chaqasini tashlab chiqib ketishiga nimalar sabab va nimalar turtki bo‘lganini, onasining oldidan qanday niyat bilan chiqib ketganini, endigi niyatini batafsil gapirib berdi. A. Qahhor, Tanlangan

asarlar. Kumush yana bir kulib qaragandan keyin uydan chiqdi. Otabek endi tamom o‘zini bosib olgan, endigi yurak urishi faqat haligi farishta tomonga oshiqishgina edi. A. Qodiriy, O‘tkan kunlar. - Maktabni bitirgansiz, a? Endigi rejalaringsiz qanaqa? Sport institutiga kirmoqchimisiz? O. Yoqubov, Adolat manzili.

NAYRANGBOZ, LO‘TTIBOZ Hiyla-nayrang bilan ish tutadigan. **Nayrangboz, lo‘ttiboz** so‘zlari o‘zbek tili lug‘aviy tarkibining emotsional-ekspressiv leksikasi guruhiga kiradi. Mazkur so‘zlarda so‘zlovchining salbiy subyektiv munosabati ifodalanadi. Bunday munosabat **nayrangboz** ga qaraganda **lo‘ttiboz** da kuchliroq tarzda namoyon bo‘ladi.

Turli-tuman oqimlar, mazhablar, ta‘limotlar yuzaga keldi; qonunlar, qomuslar yaratildi. Ko‘p hollarda bu meros ham olg‘ir nayrangbozlar qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘ldi. Odamzod esa tinchimaydi, hamon izlanishda... M.Safarov, Sarbasta Surxon. [G‘ulomjon:] Meni bu yerga keltirgan nayrangboz qizingizni chaqirib, el oldi-da, er oldida so‘roq qilishingizni talab etaman. M. Ismoilij, Farg‘ona tong otguncha. Shu mo‘jaz hayotimda ko‘rdim goho lo‘ttiboz, Ko‘rdim goho she‘rfurush, goho sur, mansabfurush. A. Oripov, Lo‘ttiboz. Lo‘ttiboz misoli surgaylar davron. A. Oripov, Ijod saboqlari. Qutildim necha qish, necha yozlardan, Faqat qutilmadim lo‘ttibozlardan A.Oripov, Lo‘ttiboz. Bu g‘amsiz kaslarga hurmat noravo, Lo‘ttiboz misoli surgaylar davron. Soqovin atarlar bulbuligo‘yo, Salla patak bo‘lsa — qolma hech hayron. A. Oripov, Ijod saboqlari. - Qanaqa olim deyaqman? — Olim emas u, lo‘ttiboz. T. Malik, Shaytanat.

NASHR ETMOQ, BOSMOQ, CHOP QILMOQ (CHOP ETMOQ). Matbuotda bosib chiqarmoq. **Nashr etmoq, bosmoq** keng qo‘llanadi. **Bosmoq** so‘zi mazkur ma‘noda qo‘llanganida ko‘pincha **chiqmoq** fe‘li bilan birga keladi. **Chop qilmoq** so‘zi **nashr etmoq** va **bosmoq** qa nisbatan kam qo‘llanadi hamda kitobiy.

Xullas, roman 1957-yilda tamomlandi, 1959-yilda esa nashr etildi Z. Saidnosirova, Oybegim mening.Kenjaning o‘zi qarab chiqdi, bir necha son jurnalda muttasil va ba‘zi bir sonlarda ikki joyda Saidiyning ismini «bosilmaydi» so‘zi bilan bezalganini ko‘rib avval hayron qoldi, so‘ngra bir oqardi, bir qizardi. A. Qahhor, Sarob. Oybek xatida tilga olingan she‘rlar sekin-asta bosilib chiqa boshladi. Z. Saidnosirova, Oybegim mening. Rabfaklar va texnikumlar uchun yozdigim «Anorganik kimyo» darsligi bosilib chiqdi. Z. Saidnosirova, Oybegim mening. Hajmi 18 bosma taboq bo‘lib, lotin harfi ila chop etilgan. Z.

Saidnosirova, Oybegim mening. Bu kimyo fanidan o'zbek tilida chop etilgan birinchi darslik edi. Z. Saidnosirova, Oybegim mening. A'zam Ayubga bag'ishlangan «Tolma, o'rtoq!» «Yer yuzi» jurnalida esa "Shahar" she'rlari chop etildi. Z.Saidnosirova, Oybegim meni.

NOANIQ, NOMA'LUM, NOTAYIN, TAYINSIZ, DUDMOL, MUJMAL, MUHMAL, MUBHAM, MAVHUM, NOAYON, BELGISIZ. Aniq emas, aniqlanmagan, tayini yo'q. **Noaniq, noma'lum, notayin** so'zlari keng qo'llanadi. **Tayinsiz, dudmol, mujmal** so'zlari ko'proq so'zlashuv uslubiga xos. **Muhmal, mubham, mavhum, belgisiz** so'zlari kitobiy, asosan badiiy uslubga xoslangan. **Tayinsiz, notayin, mujmal** so'zlarida salbiy munosabat seziladi. **Muhmal, mubham, mavhum** so'zlari ma'noni ifodalashiga ko'ra o'zaro yaqin.

Zohid ham taklif etilmaganlar safida, ammo uning maqsadi Asadbek odamlari uchun **noaniq** edi. T. Malik, Shaytanat. *Suyun burgutning yuragiga allaqanday noaniq, mavhum, sovuq bir shubha g'imirlab kirdi-yu : — Marhamat, chaqiring! — dedi xiyol bo'shshib.* O. Yoqubov, Adolat manzili. *Xonzoda begim shohning yashirin niyatlarini bilmasa ham yana allaqanday xatarlar uni yosh o'g'ilchasi bilan birga o'z girdobiga tortmoqchi ekanini elas-elas sezar va noma'lum bir tahlikadan yuragi dam-badam uvushar edi.* P. Qodirov, Yulduzli tunlar. *Olib qochilgan Gulnorni qutqarib, uni sharmanda qilayozgan noma'lum yigit — Yo'lchi ekan! Oybek, Qutlug' qon. Ikkimiz baravar kulib yubordik, oramizda g'ov bo'lib turgan noma'lum to'siq ham ko'tarildi-da, go'yo bir-biringizga yana ham yaqinroq bo'lib qoldik. Yarq etib qaragam, yelkasini xarrak suyanchig'iga tashlagancha noma'lum nuqtaga, osmonga termilib o'tiribdi.* O'. Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. *Ular tayinsiz bir rassomning fazl-u irodasi bilan vayron etilgan qandaydir Tursori yani deb tashvish chekib yurishim sababini tushunmasdilar va buni shunchaki oliftagarchilik deb o'ylashar yoxud g'irt safsataga yo'yishardi.* N. Eshonqul, "Tun panjaralari". *Tayinsiz banda edim, ba'zan xudosizlar ongimga qaytadan ta'sir o'tkaza boshlasa, "sodda xudojo'ylar"ning xomtamaligidan ichimda yana kulishga tushardim; ba'zan biron-bir zarurat bois, Yaratguchiga takror yalinishga o'tardim. Quvonchli onimda Tangriga qulluq qilish xayolimga kelmasdi, og'ir damlarda mung'ayib undan ko'mak izlardim.* A. Obidjon, Ajinasi bor yo'lla. *Ma'nili-ma'nisiz, tayinsiz, javobli-javobsiz savollar shuurimdan sirg'alib uchib chiqdi, o'zimni yelkamdan ezib turgan tog'dan xalos bo'lgan qushday ye-engil his qila boshladim, faqat... faqat uning o'rnini o'zim hali-hali anglab yetmagan, hali-hanuz o'zim-o'zimga tushuntirib bera olmaydigan, sehrlarga to'la, boshdan-oyoq mo'jiza tuyg'u egalladi.* X. Do'stmuhammad, Hijronim mingdir mening .O. Yoqubov, Muqaddas. *Ne'mat akaning to'g'ri savolga shu tarzda dudmalroq javob beradigan odati bor edi. Bir gal E. A'zam "Yolg'onchi farishtalar" romanidagi Shamsi To'rayev kimligini so'raganida ham shunday javob bergan edi.* M. M. Do'st, «Zarbulmasal» va boshqa masalalar (Ne'mat Aminov haqida hangomalar). *"Bu vaqtinchalik, tez orada ishlarim «besh» bo'lib ketadi, ana undan keyin alohida yashayveramiz" degan dudmalroq javob bo'ldi.* A. Yo'ldosh, Yolg'on va haqiqat. *Xudoyor ham, Norbibi xdm bu rasmlarda o'uz qishloqlari, uning manzaralari va odamlarini yaqqol ko'rishdi. So'ng rassomdan bularning narxini so'rashdi. Qo'ziboy gangib qoldi, dudmal javob berdi. Qaytib chiqdilar.* Sh. Xolmirzayev, Saylanma. *Bolalar, qizlar qotillik yuz bergan kechasi qayerda ekanliklarini o'ylab o'tirmay, shartta-shartta aytdilar, faqat kichik xonadagi kichik davra ishtirokchilaridan uch bola mujmal javob berdi.* T. Malik, Alvido, bolalik. *Bu mujmal javob Manzurani qanoatlantirmay Olmoniyaga qaytgan kunning ertasiga uyiga qo'ng'iroq qildi.* T. Malik, Shaytanat. *Erining safarni paysalga solishi, Mahmud — Chuvrindining ikki kun avvalgi mujmalroq javobi, nihoyat fojia haqidagi xabar yuragining bir chekkasini jizillatib turgan xavotir cho'g'iga moydek sepilib alanga oldirgan, endi bu o'tni o'chirish mumkin emas edi.* T. Malik, Shaytanat. *Uning nutqida kishini jazava va vasvasaga tushiruvchi, jununini qo'zg'ovchi nimadir bor edi; u gapirar ekan, hech birimiz u gapirayotgan narsa haqida o'ylamas, xayolimizga Malmstining «Yig'i» musiqasi kabi olis shovqin aralash mubham jilvalar kelar, u hayot haqida gapirar ekan, o'z-o'zidan biz o'limning ulug'ligi va qudrati haqida o'yildik.* N. Eshonqul, O'lik mavsum. *Devorga suyanib o'tarman endi, Dunyoga suyanish — bulutdek mubham.* Sh. Orif, Umrim. *Nazarimda, bunday chaqinlar aslida uning ongida ro'y berayotir va shunday*

daqiqalarda **mubham** qiynoqlardan zimiston bo'layotir... Zulfiya Qurolboy qizi, Ikki hikoya. Qurbonoy xolaning ko'ngliga **mubham** xavotir tushdi. O'. Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. Bu to'g'rini so'rag'an edim, **muhmalroq** javob berdi,— dedi usta va yonini kovlab xatni oldi. — Bu xat karimangizga bo'lsa kerak, endi menga ruxsat, — dedi va fotiha o'qub o'rnidan qo'zg'aldi. A. Qodiriy, O'tkan kunlar. Mana, o'sha **mujmal-u muhmal** kinolaring boshlaringga yetdi endi. Xorijiy festivallarda ularni ko'tar-ko'tar qiladigan hamfikir-hammaslak jo'ralaring esa – olisda! Bugun ulardan biror naf-najot yo'q. E. A'zam, Shovqin. Bobur beixtiyor jilmaydi. “**Muhmal**” aslida **noaniq** degan ma'noni bildirardi. Bu suz bilan mulla Binoiy o'z ahvolining noaniqligiga ishora qilmoqchi edi. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. Talosh pallasida deb she'r yozdim u vaqt, Oqshomning bu siri garchand **noayon**. Irimga binoan aynan o'sha payt, Hatto urushlar ham to'xtagan bir on. A. Oripov, Irim. Junun to'la ko'zlarida yonardi har vaqt Bizga – oddiy bandalarga **noayon** shuur... Bu olamning evaziga qodir tabiat Bergan edi yuragiga olamcha surur. E. Vohidov, Ixlos. Rangi ham, tusi ham **noayon** dunyo, Qirqmi yo' ellik bu, umr o'rtasi. A. Oripov, Umr o'rtasi. Unda oldinga surilgan ko'p masalalar mavhum, mujmal, hatto noo'rin joylariham bor. S. Karomatov, So'nggi barxan. Nogoh entikdi-yu, egildi kamon. O'q uchdi **belgisiz** yoqlarga tomon. Keksa otasining qaddin dol etib. Ketib borar edi farzand shu zamon. A. Oripov, Farzand. Ammo u olis, juda olislarda... **belgisiz** yoqlarda. M. Ali, Ulug' saltanat.

NOLA, AFG'ON, FARYOD, OH, FIG'ON, NOLISH, ZOR. Dard-alam, hasratni ifodalovchi nolali ovoq. **Faryod** so'zida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Oh** va **zor** so'zlari semantik jihatdan o'zaro yaqin, shu sababdan matnda ko'pincha juft yoki yonma-yon qo'llanadi. **Afg'on, fig'on, zor** so'zlari badiiy nutqqa xoslangan.

Dutorning nozik torlaridan, tilsimlik yuraklaridan chiqq'an “Navo” kuyi o'z **nolasiga** tushunguchi Otabekdek yigitlarga juda muhtoj edi. A. Qodiriy, O'tkan kunlar. Nihoyat, tintuv tugadi. Dadamlarga kiyinishni buyurdilar. Oyimlar bilan opamlarning **nolasi** ko'kka chiqib, uyimiz achchiq faryoddan zir titradi. O. Yoqubov, Muzqaymoq. Osmonda qat-qat bulutlar ohista suzib borar, baland-balandda tumalaming horg'in **nolasi** eshitilar, ammo o'zi ko'rinmasdi. O'. Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. Tun sukunatida qandaydir mislsiz qiynoqlardan chinqirgan beshimning **faryodi** haram atrofidagi uylarga ham eshilib turardi. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. Boburning qo'shini orqaga qaytib ketishi bilan darvoza oldida shovqin tindi-yu, keyin shaharni u yer-bu yerida itlarning jon-jahd bilan hurgani, odamlarning achchiq **faryodi** eshitila boshladi. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. Ichingda bir **faryod** bordek. Yurak yig'layapti, yurak aza tutyapti! Kechalari uyqu yo'q. Go'yo shunday baxtsizki, bu dunyoda hech kim, hech nima seni yupatolmaydi, joning halqumda, omonat! E. A'zam, Shovqin. -Har holda **fig'on-u** nola yaxshi emas, har banda qudrat qalami bilan yozilganni ko'radi. Oybek, Qutlug' qon.. Sal o'tmay, teatr hovlisi, yo'laklar gavjum bo'lib qoldi. Ko'rishishlar, quvnoq chehralar va. albatta, tashvishli shivir-shivir, allakimdan nolishlar... Sh. Xolmirzayev, Tanlangan asarlar. Chunki bir vaqtlar Boburni qiynab, **fig'onini** ko'kka chirmashtirgan quyunlar hozir Humoyunning atrofida aylanib yuribdi. P. Qodirov, Humoyun va Akbar. Yig'ladi furqatda Furqat Ham Muqimlikda Muqim, **Nolishindan** Hind-u afg'on Qildi afg'on, o'z begim. E. Vohidov, O'z begim. Akobir Masturaning xatlarida **nolish** ohanglarini uqa boshladi. Sh. Xolmirzayev, Tanlangan asarlar. Oh urarman, oh ursam, **ohlarim** tutsin seni, Ko'z yoshim daryo bo'lib, baliqlari yutsin seni. Qo'shiqdan. Ey, telba kechmishning tilsiz guvohi, Tinglanar qalbingdan yillarning **ohi**. G'ayratiy, Qo'shiq. Onalaming hasratidan, **oh** va **zorida**n Odamlaming yuragida ummoni bor. E. Vohidov, Teranlik. Ey, telba kechmishning tilsiz guvohi, Tinglanar qalbingdan yillarning **ohi**. G'ayratiy. Beshigimning oldidan qabrim oldigacha yo'l, Men ketarman bir kuni, navolarim, **zorim** qolur. M. Yusuf, Zorim qolur. Chirqirab yig'layotgan haligi bolaning **zoriga** yana ikki bolaning faryodi qo'shildi. M. Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha. Keta ber, turmagin, sarkarda, beklar, Quloq soling menday nochor **zoriga**. “Murodxon”.

NOLIMOQ, SHIKOYATLANMOQ, SHIKOYAT QILMOQ, ZORLANMOQ, HASRATLANMOQ, HASRAT QILMOQ. O'z noroziligini bayon qilmoq, dard-hasratini aytmoq. **Shikoyatlanmoq** va **shikoyat qilmoq** so'zlari ma'no jihatidan bir-biriga teng.

Hasratlanmoq so‘zi ham **hasrat qilmoq** bilan shunday ma‘naviy munosabatda. **Zorlanmoq** da harakat darajasi nisbatan kuchli ifodalanadi. **Shikoyatlanmoq, hasratlanmoq** so‘zlari kitobiy, nisbatan kam qo‘llanadi.

Ayam dadamdan nolidi. -Topishi yaxshi edi, uyimizdan chaksa yarim, chaksa un, guruch uzilmasdi, xumchada yog‘... Buni ko‘rmaysanmi, do‘konni topshirib Meliboy aminga yigit bo‘lib o‘tiribdi! — dedi. A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. [Yevdokiya Fyodorovna] O‘zi vrach emasmi, u erining ahvoli nechog‘lik og‘ir ekanini aytib, birpas ko‘z yoshi to‘kib oldi. Ayniqsa, Ivan Xaritonovichning o‘jarligidan, operatsiyaga ko‘nmay xato qilayotganidan nolidi. O. Yoqubov, Oq qushlar oppoq qushlar. Zaynab egachisining haligi gapiga rizosizliq bildirdi: — Noshukur ekansiz, opa, — dedi, — pochchamdan nolishingiz yaxshi emas, sizning ham boshingizg‘a manim kunimni solsa nima qilar edingiz? A. Qodiriy. O‘tkan kunlar. Sizning nolishga haqqingiz yo‘q. Ko‘rib turibmiz, hali ham chaqmoqday yigitsiz. L. Bo‘rixon, Kutilmagan tashvish. - E... bizda boylar bir-birini ko‘ra olmaydi, birlashmaydi, shunisi chatoq-da,— shikoyatlandi Salimboyvachcha. Oybek, Tanlangan asarlar. Avvalgi kun kechqurun Salim uning uyiga borib, dadasidan shikoyatlandi. Oybek, Tanlangan asarlar. U pochchasining tagiga ko‘rpacha solib o‘tqazdi va tancha yoniga cho‘qqayib, akalaridan, dadasidan va hokazolardan shikoyatlandi. Oybek, Qutlug‘ qon. Gulsumbibi bu savolga javob berishdan avval kamba-g‘alchilikdan, erining ahvolidan shikoyat qildi. Oybek, Tanlangan asarlar. So‘ngra odatdagi yozuv-chizuv, ssenariylardan gap ketdi. Farhod ana shu dardi bedavo unga rosa xalal berayotgani — hech nima yozolmayotganidan shikoyat qildi. E. A‘zam, Shovqin. U, Nosirovdan shikoyat qilgan sayin, Saidiy uni o‘ziga yaqin ko‘rar, uni qo‘lga olish umidi kuchayar edi. A. Qahhor, Sarob. Mening borgim kelmaydi deyapsanmi! — zorlandi Normat.— Borsam odamlar so‘rayverishadi, so‘rayverishadi. N. Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. -Momojon, — zorlandi Marjonoy. — Buni telefonga aytib bo‘lmaydi. Tuhmat hammasi. Aylanay, momojon. Bir kep ketinglar. Veteran bobomlar bilan bir kep ketmasalaring... biz hammamiz buyoqda... onasidan ayrilgan bo‘taday bo‘zlab qoldik, momojon!.. O. Yoqubov, Adolat manzili. Qizning pinhona azobidan o‘zicha kuyunib, butun aybni yana ho‘ birdagidek Azizga ag‘dardi-da, yana uning «tagi past»ligidan zorlandi. O‘.Usmonov, Girdob. Qurib ketsin, kuya yeb ketyapti bularni, — deb zorlandi Anzirat. — Indamay desang, ko‘zning nuri singgan, indasangiz, ko‘rib turibsiz. N. Eshonqul, Shamolni tutib bo‘lmaydi. Senga o‘xshagan donolar hozir tanqisroq, — deb hasratlandi Bekxo‘ja. A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. Uning bir ryumkasi suhbatni qizitadi, ikkinchisi uchinchisiga talab qo‘zg‘otadi, uchinchi va to‘rtinchisi esa birovning qo‘lini boshqa birovning yelkasiga tashlatib, olamning koridan hasrat qildiradi. A. Qahhor, Sarob. So‘fi otasining davlatida o‘qib olmagani, tirikchilik og‘ir ekani, machitning butun vaqfini imom, qolaversa, mutavalli yeb, so‘figa faqat yalatganidan hasrat qildi. A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar.

NOLOYIQ, NOMUNOSIB. Mos kelmaydigan, to‘g‘ri kelmaydigan. **Noloyiq** keng qo‘llanadi. **Nomunosib** kitobiy.

U Sharifning yuqori lavozimga noloyiq ekani, ishni buzayotganini aytib ogohlantirgan edi. T. Malik, Shaytanat. Ko‘p yillardan beri kattakon ijodiy idora rahbari bo‘lib ishlayotgan bu janobni o‘z o‘rniga noloyiq deb bilaman. Q. Norqobil, Elakda suv turmaydi. G‘afforjonning butun tentak-tantiqliklari, yoshiga nomunosib erka-injiqliklari, meni soqchining qo‘liga tashlab qochib ketgani ham bir bo‘ldi-yu, bu qilmishi ham bir bo‘ldi. A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. Uni hammadan ko‘p larzaga solgan narsa sh u bo‘ldnki, inson degan nomga nomunosib bu ishga sobiq xo‘jayinning eng yaqin shogirdlari tashabbuskor bo‘lishdi! O. Yoqubov, Adolat manzili.

NOMIGA, YO‘LIGA, IRIMIGA, XO‘JAKO‘RSINGA, SHUNCHAKI. Biror harakatni amalga oshirish yoki biror holatda ko‘rinish lozim bo‘lgani uchun; jiddiy maqsad bilan, astoydil

emas. **Irimiga** so‘zi ko‘pincha urf-odat harakatlarini bildiruvchi so‘zlarga nisbatan qo‘llanadi. **Xo‘jako‘rsinga** so‘zida so‘zlovchining salbiy subyektiv munosabati fodalanadi.

Nonushta mahali ham bo‘lib o‘tgan noxushlikdan so‘z ochmadilar. Ikkovi bir-biriga qarab-qarab qo‘yib, nomigagina non tishlab, choy ho‘plab o‘tirdilar. Er-xotinning ishtahasi yo‘q edi. T. Malik, Shaytanat. *Shu boisdan ro‘yxatni nomigagina ko‘zdan kechirishib, eldan yig‘ilgan qo‘ylarni naridan-beri sanagan bo‘lishibdi-yu, juftakni rostlash payiga tush ishibdi.* O. Yoqubov, Adolat manzili. *Oynalari chil-chil singan, tomi-yu kapotlari, orqa-oldi-yu yonboshlari bolg‘a bilan pachoqlangan, shu qadar hafsula bilan, shu qadar erinmay, tartib bilan pachoqlangan ediki, aqalli nomiga bir qarich sog‘ joyi qolmagandi.* O‘. Hoshimov, “Ajdar”ning tovvasi. *Yo tavba, aqalli nomiga bo‘lsayam bir marta “vov” deb qo‘ymadi-ya!* O‘. Hoshimov, “Ajdar”ning tovvasi. *“Zeriktirma” deb shunchaki bu hazilni yo‘liga aytdi-qo‘ydi-da u. Yoki atay tayinlab ketgan – ikkovining tili birmikan? E, men so‘rabmanmi, o‘zi chaqiryapti-ku!”* E. A‘zam, Shovqin. *Bu gapni yo‘liga aytdim-qo‘ydim-da.* S. Ahmad, Ufq. *Bo‘ri polvon mehmon bilan bir qo‘llab ko‘rishdi. Irimiga hol-ahvol so‘radi. Begonasirab o‘tirdi.* T. Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Boqi Xalifa yonidan falonchi o‘ldi, ko‘mish mumkin, degan qog‘ozni olib ko‘rsatdi. Ana shundan keyin g‘assol ikki chelak suv olib, Boqini ichkari uyga boshlab kirdi. Uni yechintirib, taxtaga tortdi. Doka xalta bilan badanini obdan sovunlab yuvib, irimiga bosh-oyoq kafan aylantirib, uni yechib oldi.* S. Ahmad, Tanlangan asarlar. *Osh keldi, maqtab-maqtab yeyildi, irimiga borib oshatildi ham. Keyin hangoma boshlandi.* E. A‘zam, Shovqin....*Bayramxon istasa-istamasa, uning atrofidadagilar davlat tepasiga boshqa odamni keltirmaslikka intiladi. Mabodo, Akbar keladigan bo‘lsa, uni aravadan ag‘darib tashlaydi-yu, boshqa itoatkorroq, yoshroq boburiyzodani xo‘jako‘rsinga podsho qilib ko‘taradi.* P.Qodirov, Humoyun va Akbar. *“Tajribali me‘morlardan jo‘nating” degan taklifga, xo‘jako‘rsinga meni jo‘natishayotganini sezib turdim.* N.Eshonqul, Tobut. *-Endi qo‘ygin, jon xotin, erkak boshimni xam qilib to‘g‘risini aytyapman. Nahotki kechirmasang. Endi u xotinning basharasiga ham qaramayman. Tamom. Poylab boribsanda-a, hammasini ko‘ribsanda-a, shunchaki ko‘ngli uchun bordim. Turgan-bitgani bo‘yoq.*S.Ahmad, Iqror.

NOMUSLI, IBOLI, HAYOLI, ANDISHALI. Andishasi, hayosi bor. **Nomusli, hayoli, andishali** so‘zlaridan keng foydalaniladi. **Iboli, hayoli** asosan qizlarga nisbatan qo‘llanadi.

Asadbekning qarori Zelixonni ham gangitib qo‘ydi. Osmonga ustun bo‘lay, deb turgan odamning farzandini nomusli qiz sifatida o‘z tengiga uzatishga qurbi yetmas ekanmi? Nima uchun shunday qilmadi? T. Malik, Shaytanat. *U, o‘roq o‘rib-o‘rib... ro‘molinig uchi ko‘kragiga tushib-tushib... uni tag‘in yelkasiga tashlab-tashlab... menga qiyo boqib-boqib... Zulflarini toblab-toblab... Ham iboli, ham ginali kulib-kulib... qo‘shiq aytadi!* T. Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Sirasini aytganda, Naima ham juda ko‘hlik, aqlli, iboli qiz edi. Uni maktabda bo‘lsin, tanish-bilishlar orasida bo‘lsin, maqtamagan kishi kam edi... Sh. Xolmirzayev, Saylanma. Chindan ham u juda uyatchan, birovning betiga tik qaramaydigan andishali lo‘li ekan. Xijolatdan boshini ko‘tarmaydi. Dasturxon popugini himarib, jimgina o‘tiribdi. Anzirat bulg‘or qalampiriga qiyma tiqib dimlagan ekan, bir lagan qilib o‘rtaga qo‘ydi.* S. Ahmad, Tanlangan asarlar. *Inshoolloh, farzandlarimiz aslo undog‘ odobsizliklarga yuz burmagaylar, barchasi aqlli, o‘tkir zehni, andishali... Valine‘matlari kim axir?* M. Ali, Ulug‘ saltanat. *Akobirning ota-onasi u yoshligida o‘lib ketgan, u olti yasharligidan yetim bolalar uyida tarbiyalangan, zehni, andishali, bir so‘zli va ko‘ngli yarim yigit edi. Uning bitta tog‘asi bor edi. Tog‘a bola-chaqasi bilan qishloqning shimolidagi chorbog‘ida turar, uning ovdan qo‘li bo‘shamas, bo‘sh vaqtida choyxonada o‘tirib, ov tafsilotlarini ko‘pirib hikoya qilardi.* Sh. Xolmirzayev, Saylanma. *Ahmad bu sof, hayoli, sodda qizga juda shirin so‘z aytgisi keldi..* F. Musajonov, Himmat. *Sherqo‘zi shu taxlit Nodira bilan uchrashdi va... kutilmaganda qiz unga yoqib qoldi. Go‘zal, hayoli, ustiga-ustak, nufuzli xonadondan, tag‘in nima kerak.* L. Bo‘rixon, Kutilmagan tashvish.

NOVCHA, NAYNOV, DAROZ, UZUN. **Novcha** va **uzun** so‘zlarida belgi neytral tarzda ifodalanadi. **Naynov** va **darozi** so‘zlari emotsional-ekspressiv so‘z hisoblanib, ularda

soʻzlovchining salbiy subyektiv munosabati ifodalanadi. **Daroz** soʻzida belgi darajasining ortiqqligi sinonimik qatordagi boshqa soʻzlarga qaraganda aniq seziladi.

-Otang qayerda? — deb soʻradi novcharogʻi. T.Malik, Shaytanat. Ammamga oʻxshagan kichkinamas. Boʻyi novcha, yuzi oppoq, chiroyli. Sochi uzun, yerga tegadi. Oʻ. Hoshimov, Ikki eshik orasi. Yonboshida novcha boʻyli ozgʻin kishi. Taniyman. Oqsoqol buva bilan biznikiga koʻp kelgan. Oʻ. Hoshimov, Ikki eshik orasi. Oldin oyim bilan Salim Karim ovich bu gaplarimni eshitgilari ham kelmagan edi, biroq bir kuni nima ham boʻldi-yu, oyim ertalab chiqib ketib, uyga uzun boʻyli, qotma, sochlari oppoq oqargan, lekin shop moʻylovi qop-qora odamni boshlab keldi. Bu odam Sulaymon aka edi. O. Yoqubov. Adolat manzili. Avvallari qomati alifdek, boʻyi uzun boʻlgan xolam endi toʻlishib, yuzi ham tirsillab, yaltirab qolgan. G. Mamarasulova, “KamAZ”. Kayvoni momo, hamsoyasi Suvon daroz, men qolib ketdim, deb oʻpkalayapti. T. Murod, Oydinda yurgan odamlar. Azamat qomati shu qadar darozki, sahnada tik turgan uncha-munchasi bilan ham boʻylashgudek, xumday boshida yirik “tugma”li, quroqi charm kepka, choynakning qopqogʻidek keladi – goʻyoki nevarasinikini ermakka qoʻndirib olgan; kallasi yargʻoqmi, dim majlisxonada ham uni yechmagan koʻrinadi. E. Aʼzam, Shovqin. Alyosha basketbolchiga oʻxshaydi. Boʻyi baland, oyoqlari xodaday uzun, yurganda tuyaqushday lapanglab yuradi, biroq, shu daroz boʻy-basti bilan oʻzi yosh bolaga oʻxshaydi. O. Yoqubov, Oppoq qushlar, oppoq qushlar. – Kerak, amir Tarmochuq, janoblari, xudo xohlasa!.. Shu qutlugʻ ishning boshida oʻzingiz turibsiz, amirim! Oʻzingiz!..- gapga pishang berdi “gushna” deganlari - nozik qomatli daroz yigit. M. Ali, Ulugʻ saltanat. Hakim naynovchi! Birinchi oʻqituvchilardan emish. Man bilmasam ekan uni! Oʻ. Hoshimov, Bir shingil tabassum. Zero, shu chogʻgacha boʻyining uzun-kaltaligi xayoliga kelmagan, qaytaga, baʼzi naynovlarning dovdirligi-yu kaltafahmigidan kulib, oʻzining pishiq-puxta, uddaburonligi bilan faxrlanib yurar — qisqasini aytganda, gap tashqi qiyofada emas, ichki dunyodadir degan soxtanamo, nochorroq ruhda tarbiya topgan edi. Sh. Xolmirzayev, Saylanma. Tongda naynov nevaram borib qoldi yumush bilan. Shu-shu, dugonangiz ulidan kaltak yeb, qoʻlini sindiribdi, dedi. N. Norqobilov, Kurash “Hormanglarov”, – dedi koʻchadan oʻtib borayotgan Pirimqul naynov devordan boʻylab. A. Yoʻldosh, Ota oʻgʻil.

NOILOJ, NOCHOR, CHOR-NOCHOR, ILOJSIZ. Oʻzi istamagan holda, majburan. **Noiloj, ilojsiz** soʻzlashuv uslubida keng qoʻllanadi. **Nochor, chor-nochor** yozma nutqqa xoslangan. **Ilojsiz** soʻzida majburiylik maʼnosi kuchli ifodalanadi.

Ikkinchi vaqtda: «Oʻtkan kun oʻrdaga borgʻan edim; xonimlar yotib qolasiz deb qoʻymadilar, noiloj bir kecha yotib keldim”, deb soʻz orasigʻa qistirib ketar edi. A. Qodiriy, Oʻtkan kunlar. Zahri sob boʻlgach, tura-tura noiloj yordamchisiga imo qiladi: bor, chaqir! E. Aʼzam, Shovqin. – Iya, bu nima deganing, Akobirov! – Semashenkov tagʻin uning oldini toʻsmoqchi boʻldi, Akobirov tagʻin uni nari surib oʻziga yoʻl ocharkan, noiloj murosa qildi:– Semashenkov, koʻrib turibsan-ku, ukam kelgan. Gaplashadigan gaplarimiz bor! E. Aʼzam, Shovqin. Noiloj “pat-pat”ni yurgizdim. Onam kelinni oʻrabchirmab, lulkaga oʻtqazdi. Oʻzi orqaga mingashayotgan edi, jerkib berdim. Oʻ. Hoshimov, “Ajdar”ning tovbasi. Noiloj arralab tashladik. Oʻ. Hoshimov, “Ajdar”ning tovbasi. Noiloj choʻntagimni kavlab, besh soʻmlik, oʻn soʻmliklami sanay boshladim. Oʻ. Hoshimov, “Ajdar”ning tovbasi. Noiloj oqsoqolning ketidan ergashdim. Yoʻlakda turgan Erkin akaning oldiga bordik. Oʻ. Hoshimov. “Ajdar”ning tovbasi. Biz yigitka qaray - qaray nochor qadam bosar edik. Yigitcha boʻlsa bizdan qolishmay birga kelar edi. A. Qodiriy, Oʻtkan kunlar. U kuni qissaxondan eshitdik-ku, Sulton Jaloliddin haqida... Sulton Chingizxon askarlaridan qochib, nochor Sind daryosi boʻyiga keldi. M. Ali, Ulugʻ saltanat. Oʻzbek oyim yuqoridagʻi oʻzining itob va xitobiga eridan bir iljayib qoʻyish javobini olib dami ichiga tushadilar va chor-nochor oʻttuz kunlab bir zamonni oʻzicha margʻilonliqni qargʻash bilan kechiradir. A. Qodiriy, Oʻtkan kunlar. “Volga” chor-nochor tagʻin oʻzini chapga oldi. - Amakijon! “Zaporoj”ni bilasizmi? - bu safar Shodivoyning ovozi yigʻlamsirab chiqdi. Oʻ. Hoshimov, “Ajdar”ning tovbasi. Shuning-chun ham vujudini kuch-quvvat butunlay tark etgunga qadar koʻtarilib kelib, nihoyat, holi oʻziga ayon boʻlgachgina qarshisidan chiqqan qavatga chor-

nochor o'zini topshirardi. U. Hamdam, Pillapoya. Sodiq o'rtoqlarining jabri ostida ilojsizgina borsa ham, lekin ikkinchi tomondan kutkanini bu kun ham kelmasligiga qarori ham yo'q emas edi. A. Qodiriy, O'tkan kunlar. Amir-ku borishni istamasa-da, xufiyona badbaxt Qozonchi Bahodirdan yozg'irgancha, ilojsiz jo'nab ketdi. M. Ali, Ulug' saltanat.

NOLISH, SHIKOYAT, HASRAT. Norozilik va dard-hasrat mazmuni ifodalangan gap-so'z. Har uchala so'z nutqda faol qo'llanadi. **Hasrat** so'zida ma'no ta'kidi aniqroq seziladi.

Yig'ladi furqatda Furqat Ham Muqimlikda Muqim, Nolishindan Hind-u afg'on Qildi afg'on, o'zbeqim. E.Vohidov, O'zbeqim.Xotinlarning qiy-chuvi orasidan eshakning mungli hangrashi eshitilib qolar, oqsoqol har zamon quloq tutib eshakning nolishini eshitarkan, haro m o'lgur munaqa hangramasdi-ku, yo boshqa eshakmikin bu, deb qo'yar, qizigan bozorni tashlab eshakdan xabar olishga q o'ln tegmasdi. S. Ahmad, Ufq.

Oradan bir hafta o'tgandan so'ng bir kuni kechasi Murodxo'ja domla Saidiyning oldig a kirdi va divanga o'tirayotib gap boshladi:— Sizning ustingizdan shikoyatlar bor,— dedi kulimsirab. A. Qahhor, Sarob. Ko'pdan beri sug'orilmagan bog' yarim tashlandiq bir chakalakzorni eslatar, xiyobonlar qovjiragan xazon, yirtilgan-gazeta, g'ijimlangan qog'oz(ehtimol, inobatga olinmagan shikoyatlardir) parchalariga to'lib ketgan edi. O. Yoqubov, Adolat manzili. Ehson Saidiyning uyiga keldi-yu, uning baxtiga tong otguncha mana shular to'g'risida o'z hasratidan bo'shamay, hisob ham so'ramadi. A. Qahhor, Sarob.

NONKO'R, NONTEPKI, KO'RNAMAK Birovning bergan tuz-namagini, qilgan yaxshiligini qadrlamaydigan, yaxshilikka yomonlik bilan javob beradigan (odam). **Nonko'r** so'zlashuv va kitobiy uslublarda keng qo'llanadi. **Nontepki nonko'r** va **ko'rnamak** ka nisbatan kam qo'llanadi. **Ko'rnamak** badiiy uslubda faol ishlatiladi.

Yo'q, Ali Qushchi unday nonko'r emas. Boshiga qilich kelsa ham sizning yaxshiligingizni esidan chiqarmas, ustod! O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi.Ruqiya nimadir demoqchi bo'ldi, ammo ayol uni gapirtirgani qo'ymadi: — Sen hammasini bilgansan! Bila turib menga aytmagansan! Nonko'r! Bergan tuzim ko'r qilsin seni! Z.Qurolboy qizi,Boyvuchcha.Ul nonko'r [To'xtamish] esa, barining aksini qilib, Dashti qipchoqdan befath-u zafar, mulzam qaytib keldi. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen.Gapning indallosi, Qodir bilan Shokir o'ta bemehr, nontepki, g'irt yaramas odam! R.Yo'ldosh, Qoplon...o'sha nontepki xotiningiz, harom pullarni militsiyaga topshirib yuborganman, dedi. X.To'xtaboyev, Sariq devni minib. -Dadangizni taniyman,— tez-tez gapira boshladi noib. Gapira turib negadir o'rnidan ham turib oldi,— halol ham pokiza bir kishining farzandi bo'la turib bu nontepkilarga nega qo'shib yuribsiz? X.To'xtaboyev, Yillar va yo'llar. [Hindol Mirzo:] Ko'rnamak Amir Bahlul poraxo'r ekan. Sherxonning odamlaridan hamyon-hamyon oltin olib, sizning qurol-yarog'laringizni g'animingizga yashiriqcha sotar ekan. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. [Brahmajit Gaur:]-Bu hammasi rost, olampanoh! Siz hindlarga nisbatan hali hech bir musulmon hukmdori qilmagan nek ishlarni qilmoqdasiz! [Sherxon:] -Nega bo'lmasa sizning ko'rnamak yurtdoshlaringiz mana bu qal'ada turib meni shuncha vaqtdan beri behurmat qilmoqda? P.Qodirov, Avlodlar dovoni. Tog'am bunday javobni kutmagan edi: o'zini tutolmay: “Ko'rnamak!” dedi va Murshidning chakkasiga tarsaki tortib yubordi. N.Rahmat, Fojia.

NOQULAY, O'NG'AYSIZ. Kishini xijolat qiladigan, xijolatli vaziyatga soladigan. **Noqulay** so'zi ham, **o'ng'aysiz** so'zi ham asosan muayyan ruhiy holat yoki vaziyatni bildiruvchi so'zlarga nisbatan qo'llanadi. **O'ng'aysiz noqulay** ga nisbatan ga nisbatan kam ishlatiladi.

Yusupov mashinadan tushar-tushmas G'afur G'ulom ulug' kishi oldida maykachan o'tirish noqulay ekanligini bilib, jujun kitelini shoshib kiya boshladi. S. Ahmad, Ufq. —

Kim? Ravshanmi? Tashqarida u. “Audi” degan yangi o'yinchoq sotib olgan, o'shani qo'riqlab, kutib o'tiribdi. O'zing bilasan, bir oz noqulay unga. E. A'zam, Shovqin. Mana, yaqin bir-bir yarim soatdan buyon Gulyaning kengishgina oshxonasida so'zlashib o'tiribdi. Boshida begonasirab, o'zini birmuncha noqulay sezgan mehmon uy egasining samimiy dildorliklari tufaylimi yo ichilgan ozroq konyak ta'siri-dami, xiyla dadillashib qolgan,

berilgan savollarga burro-burro javob qilayotir. E. A'zam, Shovqin. Tantiboyvachchanning nafasi ichiga tushib ketdi, lekin bu o'ng'aysiz, chatoq ahvoldan qutulish uchun yana o'zini bilmaslikka soldi va sekingina dedi: — Qayerda ekan u daydi qiz? Oybek, Qutlug' qon. U kiyinarkan, chap qo'lini orqasiga o'tqazib kaftlarini silkitardi. Baquvvat gavgali, ammo qarashlari muloyim, yoqimtoy chehrali Do'smatov o'ng'aysiz ahvol ga tushib qoldi. Bu odam gapga no'noq edi. Dovdirab Yusupovga qaradi. Hamid Olimjon Enzenshteynning savolini tarjima qilib berdi. S. Ahmad, Ufq. Bugun dalada Dildor kultivatsiya qilayotgan joyga borganda nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, aytolmadi. Dildor g'o'zalarni payhon qilgani uchun raisning ancha ta'bi olingan, uning oldi da boshqa gap aytish o'ng'aysiz bo'lgan edi. S. Ahmad, Ufq.

NOTINCH, BETINCH, BEZOFTA, BESARANJOM, ALG'OV-DALG'OV. Tinch buzilgan, osoyishta emas. **Notinch** va **betinch** so'zlari ma'no ifodasiga ko'ra bir-biriga yaqin. **Bezovta** so'zi asosan ruhiy holatga nisbatan qo'llanadi. **Alg'ov-dalg'ov** belgi darajasini kuchli ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Oy o'ziga tinch bo'lsa, yer notinch ho'ladi. Hali-beri qishning keti ko'rinmaydi, shekilli. O'. Hoshimov, Ikki eshik orasi. Pushaymon aralash bu notinch o'ylar Rasulga shaharga qaytgandan keyin qam tinchlik bermadi. Shu

bois, qishloqdan qaytgan kuni Ivan Xaritonovichga telefon ham qilmadi, hatto undan oldin qaytib kelgan qizi Nigora bilan ham ochilib gaplashmadi. O. Yoqubov, Oq qushlar oppoq qushlar. Negaki, archazor o'ta notinch sarhad — Ulkan ayiq tomonidan tez-tez buzilib turadi...N. Norqobilov, G'animlar. Kunlar nihoyatda betinch... Z. Saidnosirova, Oybegim mening. Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat, Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam. U — menmi, u — senmi, kim bo'lma, faqat, Senga insof bersin, Uchinchi Odam! A. Oripov, Uchinchi odam. Orom bermas ko'kragida betinch qalb, Bamisoli dastro'molning tuguni. E. Vohidov, Uchi tugik dastro'mol. Mabodo yig'lasam ham... Yo'q, o'glim. Men yiglasam, sen bezovta bo'lasan. Robiya kuyadi. O'. Hoshimov, Ikki eshik orasi. Katta malika amirzodani ovutish bilan ovora-yu lekin bezovta ko'nglini allaqanday g'ashlik sirqirataradi. M. Ali, Ulug' saltanat. Yomg'ir yog'ib utibdi, osmon musaffo, haligina bezovta kezinib yurgan qora bulutlar endi yo'q. M. Ali, Ulug' saltanat. Tushlikka ham u kelmadi. Xolmatjon oshpazga ovqat suzdirib endi jo'nataman deb turganida xurjuni handalakka to'la otliq keldi. Uning ko'zlari besaranjom, oti ham terlab ketgan edi. S. Ahmad, Ufq. Marjonoyning bosh iga og'ir savdo tushiptiki, rahmatlik, ruhi besaranjom, momoning tushiga kirib yuribdi!.. O. Yoqubov, Adolat manzili. Robiya ishdan keladigan payt yaqinlashgan sayin ko'nglim alg'ov-dalg'ov bo'la boshladi. O'. Hoshimov, Ikki eshik orasi. Veteranning beorom alg'ov-dalg'ov xayolini momoning tizginsiz bir dardga to'la mungli ovozi bo'ldi:— Qizalog'im jilay -jilay [yig'lay-yig'lay] esi ketdi. Bor umidimiz Veteran bobomlarda, dedi... O. Yoqubov, Adolat manzili.

NOXUSH, YOQIMSIZ, KO'NGILSIZ. Yoqmaydigan, xush kelmaydigan. **Ko'ngilsiz** so'zi **noxush** va **yoqimsiz** so'zlariga nisbatan kam qo'llanadi. **Yoqimsiz** so'zida belgi darajasi birmuncha kuchli va undan so'zlovchining salbiy subyektiv munosabati anglashiladi.

G'animlari bilan har kun, har soat olishuvchi, har daqiqa biror falokat ro'y berishi mumkinligini hisobda tutib yashovchi odam noxush damlarda tez fikrlash, tez xulosa chiqarishga odatlanadi. T. Malik, Shaytanat. Bugun No'g'ayqo'rg'onda noxush gap tarqaldi. "Qulup" da maylis bo'larmish, Orif oqsoqolni olib tashlab, o'rniga boshqa rais saylasharmish. O'. Hoshimov, Ikki eshik orasi. Ushbu anchayin noxush voqeadan bir osh pishgulik fursat o'tar-o'tmas «Jobir qorovulning qizi bir yigitminan naq mashinaning kabinasiga tiqilib olib... ustidan chiqib qopti... o'z ko'ziminan ko'ripti... beti qursin... qornida uch oylik homilasi bor ekan... do'xtirminan gaplashib kelgan ekan... ertan borib oldirishlari kerak ekan... A. Yo'ldosh, Ota o'g'i. Shu ipakdek muloyim kelini Madinaxon vafot etdi-yu, biror noxush xabar qulog'iga chalinsa, ko'z

oldida tinmay tobut ko'targan odamlar ko'rinaveradi. T. Malik, Davron. Rais Homidbekning eshigiga kelib ham otdan tushmadi. Qamchining dastasi bilan eshikni taqillatdi. Yigitning otasi chiqib odaticha tilla tishlarini ko'rsatib kuldi-da, yoqimsiz bir mulozamat bilan ichkariga taklif qildi. T. Malik, Davron.

Bo'rilarning etni jimirlashtiradigan ulishi, to'ng'izlarning ko'ksov yo'talidek yoqimsiz tovushi, echkamarlarning murda nigohidek sovuq boqishi, har yer-har yerda qolgan ilon po'stlarining ojiz yiltirashi va, nihoyat, do'ngliklarda haykaldek qotgan sahro sultoni— cho'l burgutlarining: bu mening maskanim, odamga yo'l yo'q, degandek viqorli boqishi bu ikki yo'lovchining yuragiga

vahm sololmasdi. S. Ahmad, Ufq. Auditoriya dim, issiq va allaqanday yoqimsiz ter hidiga to'la edi. O. Yoqubov, Muqaddas. O'zi istamagan ko'ngilsiz safarda yurgan kishi kun o'tishini sabrsizlik bilan kutgani kabi Davron bahorni benihoya qo'msardi. T. Malik, Davron. Ularning janjalini, ayniqsa o'tay dadam ning xuddi bir nimadan arazlagan yosh bolaning ovoziday ayanchli ovozi eshitmaslik uchun uyga kirib ketdim. Bir yildan beri davom etib kelayotgan bu ko'ngilsiz janjal menga juda og'ir botardi. O. Yoqubov, Adolat manzili. Jannat eriga bu ko'ngilsiz xabarni yetkazish uchun qadamini tezlatdi. S. Ahmad, Ufq.

NOZ, KARASHMA, ISHVA, ISTIG'NO, TAMANNO, ADO. Maftun etuvchi noz-ishvali harakat. Mazkur so'zlar o'zbek tilida asosan ayol kishiga nisbatan qo'llanishi bilan xarakterlanadi. **Karashma, ishva, istig'no, tamano, ado** badiiy nutqqa xoslangan. **Ishva** so'zida harakat darajasining yuqoriligi ta'kidlanadi. Kontekstda **noz** so'zining **karashma** hamda **istig'no** so'zlari bilan juftlashib kelishi (**noz-karashma, noz-u istig'no**) va bunda ma'no qamrovining kengayishi kuzatiladi.

... ularning [qizlarning]shahar atiri ufurib turgan noz va tamannolari sirli tarzda o'ldirilgan otboqarning azasi orasida ko'zga tashlanmay qoldi. N. Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmydi. —Kirib bo'psiz! —

Saltanatning ovozida gardakkina valima, gardakkina noz, gardakkina buyruq ohangi bor edi. O'. Usmonov, Girdob. - E-e, zo'r-ku! — dedi. Birdan qoshlari chimirildi: — Bu o'yinni qo'yaylik, Yo'ldosh aka. Yarashmaydi, yoshimizni bir qarang. Yangamdan ham qo'rqmaysiz-a? — Saltanat noz bilan o'pkalandi. O'. Usmonov, Girdob. Derazadan boqar sohibjamol oy, Nigohlari to'la karashma, chiroy. U. Azim, Oy. Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku, Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku. Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir...Cho'lpon, Qalandar ishqi. - Yaqinlashma, dayus! Naq ichak-chavog'ingni ag'darib, telpagingni boshingga salla qilaman! — u shunday deb, to'satdan g'alati ishvalar qila boshlagan Malikayi ayyorga yuzlandi. O. Yoqubov, Adolat manzili. Malikayi ayyor bitta-bitta terilgan qoshlarini ishva bilan chimirib kuldi. O. Yoqubov, Adolat manzili. U Anziratga xos bo'lgan ko'ngilchanlik va o'ziga yarashadigan nozli ishvalaridan endi qandaydir yengiltaklik topganday, u butun umr bir buzuk xotin bilan o'zini bulg'ab kelganday, qo'ynida ilonni saqlab yurganday bo'lardi. O. Yoqubov, Adolat manzili. O'lmasboy qizning bu so'zini bir noz va qizlarga xos istig'no dyeb anglagan edi. Cho'lpon, Novvoy qiz. Sal o'tmay yo'limda bir qiz uchradi. "Yaxshimisiz?", dedim. U istig'no bilan labini burdi, terila-terila sichqonning dumidek ingichka bo'lib ketgan qoshlarini chimirdi. A. A'zam, Bir kam dunyo. Ma'shuqaning tamanno zamzamasi oshig'ining to'qson ikki tomirida muzlagan hislarni junbushga keltirdi. G'.Rahmon, Oshiq dunyo. Ayo, jonim yonar o'tda kuydirdi yor tamannosi, Lablarining zarbi bo'lmish jaxon bulbulin savdosi. D.Haydarova, Yor tamannosi. Nazokatda Kumushoy-u Ra'nolardan dars olib, Xalqimga xos odobi-yu nozik adosi go'zal.Z.Ne'mat, O'zbekim go'zallari. Sanamlarning noz-ibosi birla nozik adosi Tovus misol ibolanib yurishidan bilingay. Z.Ne'mat, Bilingay.

NOZIK, NAFIS. Yuksak mahorat va did bilan ishlangan. **Nozik** barcha uslublarda teng qo'llanadi. Nafis esa yozma nutqqa xoslangan. **Nafis** so'zida belgi **nozik** so'ziga nisbatan ta'kidlab ifodalanadi.

Javonlarning birida, bitta-bitta terilgan serjilo kitoblar orasida nozik o'ymakorlik bilan yasalgan bejirimgina yog'och rutina turardi. O. Yoqubov, Adolat manzili. ... qishloq xo'jalik bo'limining mudiri Zokir Qo'shmoqov qotmadan kelgan, jikkakina yigit bo'lib, Rasul Olloyorovichnikiga o'xshash nozik ko'zoynak taqqan, ustida odmi kostyum, sochini tipratikan nusxa-da oldirgan, harakatchan odam edi. O'. Usmonov, Girdob. Muhiddin Jabborovich issiqni pisand qilmay, endi maydonning qoq o'rtasida turib olgan, goh engashib adl g'o'zalardagi ochilgan ko'sakl arni sanar, goh tolasini tortib ko'rar, keyin nozik narsani avaylayotganday yana kafti bilan joyiga itarib-itarib qo'yardi. O'. Usmonov, Girdob. - Sizni men... bir maslahatga chaqirdim, — dedi Rasul Olloyorovich nafis ko'zoynagi ostidan Azizga qattiq tikilarkan, u tomonga xiyol egilib. O'. Usmonov, Girdob. Archalar orasida tovlangan oq, sariq, nafarmon va qizil gul kosachalarini limlim to'ldirgan tiniq tomchilar, go'yo nafis piyolachalarga quyilgan mayday gul-gul yondi, borliqni bulbul xonishi tutdi. O. Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. Rasul Olloyorovich nafis ko'zoynagi osha Azizga kulib qaradi-yu, nasihat qila boshladi. O'. Usmonov, Girdob.

NOZIK, QALTIS. O'ta ehtiyotkorlik talab qilinadigan. **Qaltis** so'zi da belgi **nozik** so'ziga qaraganda kuchliroq ifodalanadi.

Bu nozik ishlarning hammasi Abu Yusuf Argunning harakatlari bilan bitayotganini yaxshi biladigan Shayboniyxon yasovulga buyurdi:— Abu Yusufbekka mening eng chopqir otlarimdan birini in'om qiling! P. Qodirov, Yulduzli tunlar. Endi ular mana shu nozik ishni qaysi kanizga topshirishni o'ylay boshladilar... P. Qodirov, Yulduzli tunlar. Xo'p. Ishqilib uyatga qolmaylik. Hozirgi paytda bu nihoyatda nozik masala.. O. Yoqubov, Adolat manzili. Masalaning bu nozik tomonlarini u to'pori odam qayoqdan bilsin? O'. Usmonov, Girdob. Mehmonlar yaxshi kishilar bo'lishsa-ku, nur ustiga nur, basharti oralarida birorta ayg'oqchisi bo'lib, bu yerda bo'ladigan qaltis suhbatni tegihisli joylarga yetkazsa-chi? O. Yoqubov, Adolat manzili. Ayniqsa, tayyorgarlik pallasi qaltis. Albatta nimadir xalal beradi, albatta nimadir yo'qolib yo yetishmay qoladi. E. A'zam, Shovqin.

NOZLI, ISHVALI, ИШБАКОП, SERISHVA, SERNOZ, KARASHMALI, FАМЗАЛИИ. Noz, ishva, karashmasi bo'lgan. **Serishva, ishvakor, sernoz** so'zlarida belgi darajasi kuchli ifodalanadi.

Saltanatning yuragi battar dukirlab, chap yelkasi bilan nozli bir yulkindi-yu yugurib uyiga kirib ketdi. O'. Usmonov, Girdob. Aziz xotiniining «kurort» deya aytgan nozli kesatigiga kulgisi kistadi-yu, jilmayib qo'ydi... O'. Usmonov, Girdob. Sochini ro'vakka o'xshatib yelkasiga yoygan, toza, yangicha atlasdan kalta ko'ylak kiyib, bosqon-poshna xashamdor tuflida nozli taysallab, beg'am-betashvish gaplashib turgan chuchuk til qizlarga o'grayib-o'grayib qo'yardi-da, ichida Azizni qarg'ardi. O'. Usmonov, Girdob. Kelinchak hamisha o'zini shaharlik ayolga qaraganda ojiz va xunuk bo'lsam kerak deb o'ylar, erining aqlini olgan ayol nazarida o'zidan go'zalroq, mehribonroq ishvaliroq, jozbaliroq va nafosatliroq bo'lib tuyulardi. N. Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmydi. Tarix, kechagi kun — bamisoli serishva jonon, har kim uni ta'biga moslab olaveradi; davr shamoliga qarab o'zgaravergani sayin chin haqiqatni aniqlash mushkullashib boradi. E. A'zam, Shoirning to'yi. Xuddi shunday tim qora sochlar, xuddi shunday fusunkor yuzlar, xuddi shunday yurakka o't soluvchi ishvakor tabassum... Umrining eng beg'ubor damlarini Amir o'sha sirli jilmayishlarga baxsh etgan edi... A. Ibodinov, Ko'l bo'yida. Bir ilhom parisin ko'rdim ishvakor, Ayt, sen Ajiniyoz qo'shiqlaridan. A. Oripov, Ayt, sen Ajiniyoz qo'shiqlaridan. Osmondan tushgandek, ko'chamizda u To'raqulboy favqulodda paydo bo'ldi. Boshida furajkasi qirra, bir chetidan jingalak sochlari qaynab chiqqan; o'ng qo'lida sirtiga jonon tasviri solingan ixchamgina chamadon... E. A'zam, Fayzining amakisi. G'azal ham bo'lurmi muncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar sernoz. E. Vohidov, Fuzuliy haykali qoshida. Er-xotinni o'zining shaxsiy mulki

ekaniga shubhasi qolmagach, ko'chadan yangi, **serishva**, nozanin ma'shuqa qidirishga tushadi. R. Jabborov, Intihor. - Mana bu uzumni oling, juda yaxshi pishibdi, qo'limni qaytarmang! — dedi-da, yigitlarning ko'nglini larzaga soladigan sho'x, **karashmali** kulgi bilan kuldi. Oybek, Tanlangan asarlar. Bular endi ko'proq erkakalarga xos. Ayollarda esa **nozli, karashmali**, pismiqona, makkorona, kuydiradgan, o'ldiradigan toifa-turlari ham uchraydi. T. Eshbek, Elni shod aylamak kerakdur... Gulyuz Rashidga qarab **g'amzali qiz**, beli tolma, men Ayolman, sen – baxtiyor Er, qo'llaringni qo'limdan olma. Z.Rahimova, Hech kim bilmas, qayda tugar ishq...

NUR, SHU'LA, YOG'DU, ZIYO, PARTAV. Yorug'lik manbayidan taraladigan energiya. **Yog'du** so'zida 'yorug' ifodali ma'no qirrasini aniq seziladi. **Shu'la, yog'du, ziyo, partav** badiiy uslubga xoslangan. **Partav** eskirgan, kitobiy. Hozirgi adabiy tilda juda kam qo'llanadi.

Marat taqqa to'xtadi-da, Hilolaning ko'zlariga tikildi. Neon lampalar nuri ostida qizning chehrasi bir oz rangsiz, ammo jozibali ko'rinar edi. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Tom boshidan botishqa yaqinlashgan oy nuri arang-arang ko'zga chalinar edi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. Hech zog' bo'lmagandan keyin, yilt etgan nur ko'rinmaganidan keyin zerikadi-da, odam. O'. Hoshimov, "Ajdar"ning tovbasi. Darpardani tortib qo'yganimiz bilan Shodivoyning ham, mening ham yostig'im ustiga bir tutamdan nur tushib turibdi. O'. Hoshimov, "Ajdar"ning tovbasi. Bobur quyoshli kunda Oynatog' tepasiga chiqib, Qo'qon tomonlarga oqib ketayotgan So'x soyiga tikiladi. Bu soyning suvida tillarang shu'lalar o'ynaydi. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. – "So'ngan yulduz shu'lasi"da o'zingizni yozganmisiz? O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Poytuq tarafda ketma-ket mushak otildi. Mushakning ko'k, sariq, qizil shu'lalari tuproq uyumlarini, choyxona tomlaripi uzoq yoritib turdi-da, keyin asta so'ndi. S. Ahmad, Ufq. Tumbochkamni titkilay-titkilay to'rt enlikkina sham topib yoqdim. Uning xira yog'dusida xatimni davom ettirdim. O'. Hoshimov, Sevgi qissalari. Tilla jabduqli qizil ayg'irg'a mingan, quyosh yog'dusi bilan

turlik tuska kirib tovlanadig'an, yoqa va etaklariga oltin uqa tutilgan kimxob to'n kiyib, belidagi oltin kamarga kumush qinli jazoiri qilich osqan, boshig'a oq shohidan salla o'rab,oyoqlarini kumush uzangiga tiragan, siyrak qoshlik, cho'qqi soqol, bug'doy ranglik, qirga besh-ellik yoshlar chamaliq bir kishi edi. A. Qodiriy, O'tkan kunlar. Biroq bu ikki baxtiyor oshiq-ma'shuq

oldinda taqdirning qandoq o'yinlari borligini bilishmas, cho'qqilar sari suzib borayotgan bir tovoq qaymoqdek oppoq oy ertaga yana chiqadimi, Lutfinisaning sochlariga, yelkalariga yana kumush yog'dularini sochadimi, bu ularning xayollariga aslo kelmasdi. S. Ahmad, Ufq. O'g'lim, so'ramasman sendan mol-dunyo, Uy ham qurib berma, mayli, alomat. Mayli, ko'zlarimga bo'lmagil ziyo, Yonimda yursang bas sog'-u salomat. A.Oripov, Ota duosi. Xayyom tashqariga chiqib, oshyonasining eshigi ro'parasidagi naqshinkor panjara yoniga keldi. Ko'ksini to'latib nafas olarkan, cho'zib chiqarish asnosida to'lin oy ziyosida oqish ko'ringan ko'kka tikildi. N.Jaloliddin, Umar Xayyom. Bu quyosh ziyosi tushmagan uy kam, Yog'dusidan bahra olmagan qalb yo'q. B.Boyqobilov, O'zbekiston. Ko'zlarimning qarog'ida hayot ziyosi, Quyosh misol jilolanar, yonar parpirar. B.Boyqobilov, Assalom, istiqbol. Sani vaslingni, ey jono, mane afgor sog'indim, Shabi hijronda qoldim, partavi diydor sog'indim. Mashrab, Sog'indim. Uning [Kumushbibining] ko'z o'ngida joy olgan qoraliklar shu yoqila boshlagan najot shamlari partavi bilan o'z-o'zlaridan yo'qolgandek ko'rinarlar edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

O

OBDASTA, OFTOBA || OBTOVA. Yuz-qo'l yuvish uchun ishlatiladigan, uzun va ingichka jo'mrakli, dastali idish; ro'zg'or asbobi. **Obdasta** adabiy tilda, **oftoba (obtova)** shevaga xos. **Oftoba** badiiy asarlarda ham ishlatiladi.

Domla nima qilibdi deng: qo'rg'onchadan bog'ga kiradigan eshik oldiga ikki obdasta suv, eshik halqasiga uchta to'n bilan salla ilib qo'yibdi. S.Ahmad, O'rik domla. Momo bir narsa dedi, shekilli, izidan mezbob bola keldi, **obdastani** olib, suv quya boshladi. B.Aytmurod, Qo'noq. Bandi eshon har kuni saharda avrod o'qir ekan, ayam har kuni saharlab O'lmasoyni ko'tarib avrodga boradigan bo'ldi; bir kuni qo'limga bir **obdasta** suv berib, meni ham olib bordi. A.Qahhor, O'tmishdan ertaklar. Tursun mergan cho'nqayib o'tirib, **oftobadan** suv quyib, qo'lini yuwardi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Birinchi G'ulom Meshpolvonga yaqinlashib, o'zini o'ng qo'lida **oftoba**, chap qo'lida chilopchin tutgandek ko'rsatdi, "qo'lni chayqasinlar", deya qaddini egdi. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. Uning hovlisi, tashqaridan qaralganda Qo'shchinordagi boshqa uylardan chandon farq qilmasa ham, Kapsanchilarda shundoq hovli bo'lishini sira ko'z oldiga keltirmagan Safarovni hayratda qoldirdi: baland g'isht poydevorlik to'rt uy, dahliz, devoriga tolgul va bo'yni uzun **oftobaning** surati solingan baland ayvon, oshxona, son-sanoqsiz mevali daraxtlar, tok, bir tomonda otxona, bir tomonda og'il, ombor... A.Qahhor, Tanlangan asarlar. **Obtova** baldog'ini mahkam ushlab qotib qoldi. **Obtovani** otib yuborishini-da, ushlab turishini-Hoda bilmadi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. Qarasa, **obtova** tarnovdan tushayotgan suv bilan to'lib turibdi. N.Chori, Tashvishi yo'q odamlar. Oqpodsho bobomiz qo'llarini ozod etadi. Bobomiz **obtovadan** tahorat oladi. Bobomiz qibla taraf belbog' yoyadi. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar.

OBRO', E'TIBOR, NUFUZ. Insonning o'z faoliyati va shaxsiy fazilatlarini tufayli jamoatchilik o'rtasida topgan e'tibori, hurmati, egallagan yuksak maqomi. **Obro'** so'zi barcha nutq uslublari qo'llanadi. **Nufuz** va **e'tibor** so'zlari kitobiy.

O b r o' g a, izzat va hurmatga ega bo'lishni xohlasang - halol mehnat qil. T.Malik, Odamiylik mulki (Axloq kitobi). [Eshonxon:] *Ishim olchi, amaki, o b r o' katta, boyning jilovi qo'limda, chizgan chizig' imdan chiqmaydi.* Oybek, Ulug' yo'l. *Siz mirzo Anvarning o b r o' s i g' a to'qunmoqchi bo'lg'an bir yomonliqning xabarini oldindan olib kelgansizkim, mirzo Anvarning bir do'sti bo'lishim sifati bilan sizga minnatdorchilik izhor qilaman va shuning bilan birga bu xabarni mirzoga bildirmasligingizni, hozircha bu sirning ikkimizning oramizdag'ina qolishini sizdan so'rayman.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon Nizomiddinning ko'z oldida bu notanish odamning e'tibori yana-da oshdi. Sherbek zargar viloyat podshohining xizmatiga o'tgan ekan. *Shu bois, Andijon ahli orasida birmuncha e'tibor topibdi.* T.Malik, Falak. Mirmuhsin, Me'mor. *Shoh n u f u z i bilan donishmanddan ustun bo'lsa, donishmand shohdan bilimi ila ulug'.* T.Malik, Falak. *Biroq, Anvarning homiysi - Muhammad Rajabbek katta e'tibor va n u f u z g a molik, ham xong'a inobatlik, shuning uchun mirzolar Anvarga qarshi hech narsa qilolmas edilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

OBRO'LI, NUFUZLI, OBRO'DOR, E'TIBORLI, OBRO'-E'TIBORLI, MO'TABAR. Obro'ga, chuqur hurmatga, e'tiborga ega bo'lgan. **Obro'li** barcha uslublarda qo'llanadi. **Nufuzli**, **mo'tabar**, **e'tiborli** so'zlari kitobiy, odamdan tashqari predmetlarga ham nisbatan qo'llanadi. **Mo'tabar** so'zida 'muqaddas' ma'no qirrasini mavjud. **Obro'dor** asosan badiiy uslubga xos bo'lib, kam ishlatiladi. **Obro'-e'tiborli** so'zida belgi darajasi sinonimik qatordagi boshqa so'zlarga nisbatan kuchli ifodalanadi.

Tog'a obro'li odam. Deputat odam, gapini qaytarishmaydi. S.Ahmad, Ufq. *Salobatli, obro'li bir yigitning muhabbat izhorini eshitib, cho'g'day qizib, hayajondan yuragi, gursullab urayotibdi-ku.* P.Qodirov, Uch ildiz. *U endi faqat o'ziga ishonishga, dunyoda yomon odamlar yo'q emasligiga, yaxshi o'qib, katta obro'li odam bo'lib yetishishga astoydil qaror qilgan edi.* O.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. *Qishloq obro'dorlarining ma'lumotlari bo'yicha oqsoqolning qotili deb Berdiboy ko'rsatildi.* A.Qodiriy, Kichik asarlar. *Esingizdami, talabalik yillaringiz jonajon Toshkentdagi eng nufuzli hisoblangan "Toshkent" va "O'zbekiston" musofirxonalari oldida bitta-yarim ajnabiy sayyoh atrofga xuddi mana shunday olazarak, hangamatalab nigoh bilan tikilib turardi?* E.A'zam, Chapaklar yoki chalpapaklar mamlakati. *Nomini tutib baloga qolmaylig-u, poytaxtdagi nufuzli, ko'chadan kelgan har qanday odam ikki dunyoda ham ostonasiga qadam bosolmaydigan bir bilimgo'ning yil sayin qabul hay'atida bakovullik qiladigan yo'g'on domlasi qanaqa davron surishi mumkin - tasavvur qilib olavering.* E.A'zam, Pakananing oshiq

ko'ngli. O'zi ham, soqol-mo'ylovi ham qop-qora Xo'ja Abdulla katta olim bo'lishidan tashqari, Andijon beklarining eng nufuzli piri hisoblanar edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. "XX asrning boshlarida Andijondagi Jome masjidi qoshidagi madrasada e'tiborli bir mudarris bo'lar ekan. Ul zotning oldiga ilmtalab farzandlarini yetaklab kelgan otalar "eti – sizniki, suyagi – bizniki " deya shogirdlikka topshirar ekanlar." R.Qo'chqor, Orzum- ruh tarbiyasi. ...Turdi Farog'iy davrining eng e'tiborli shoirlaridan biri bo'lgan.Sh.Xolmirzayev, Adabiyot o'ladimi? Lashkar ichidagi ko'p sarkardalar Inolxonning yaqin do'stlari o'lib, o'zi Xorazm saltanatiga ko'p xizmatlar qilgan obro'-e'tiborli sarkardaligi, "malik" darajasidan oshib ketgan mansabdorligi bilan tajang, muhokamasi sayoz sultonga ba'zan soya tushurib qo'yadigan qiliqlari ko'p bo'lardi. Mirmuhsin, Temur Malik. Qavmining yosh-u qarisini ardoqlaydigan, qo'l ostidagi asir-u qullarga ham mehribon, mard jangchi, qattiqqo'l, obro'-e'tiborli, hech bir ishni bemaslahat qilmaydigan bu bekning mag'lub bo'lganini hech kim hech qachon eshitmagan, ko'rmagandi. M.Choriyeva, Suyunchi. Bolxin terimchi obro'-e'tiborli ayol. Bolaga bir nima bo'lib qolsa, onasidan baloga qolamiz. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. [Abu Abbos Ma'mun:] Bu tong tangri taoloning yetuk hikmati ila Yaminuddavla va Aminulmilla sulton Mahmud G'aznaviy ibn Sabuqtagin nomasi qo'limizga yetub keldi. Shu noma bois ahli risolatni yo'llab, siz mo'tabar donishlarni chorlab kelturdim. T.Malik, Tiriklik suvi. «Qariyalar uyi»da otasi yoki onasiga joy hozirlayotganlar unutmashlarkim, ular ayni choqda do'zaxdan o'zlariga o'tli joy tayyorlayaptilar. Zotan, do'zaxning «hasrat qudug'i» deb nomlangan eng yomon joyi ota-onasini xorlaganlar uchun ekanligi mo'tabar kitoblarda alohida zikr etilgan. T.Malik, Odamiylik mulki.

OBUNACHI, MUSHTARIY. Gazeta va jurnallarga oldindan haq to'lab uni muayyan muddatda olish huquqiga ega bo'lgan odam yoki tashkilot. **Obunachi** keng qo'llanadi. **Mushtariy** yozma nutqqa xos.

Bugungi kunda bosma davriy nashrlar adadlarining ozligi, obunachilarning, gazetxonlarning kamligi sababli matbuotda internet va elektron nashrlar ko'paygani uchun gazeta-jurnallar inqirozga yuz tutadimi, degan mulohaza paydo bo'lmoqda. K.Matyoqubov, Gazetalar inqirozga yuz tutadimi? Gazeta jurnalistining bir tomonida muassis, bir tomonida obunachi. U har ikkisiga ham qaram... R.Maqsudov, "Gazetangizga obuna bo'lmaymiz". Mana, 5 yildirki, Farg'onada chop etilayotgan, muxlislari – mushtariylari ko'payib borayotgan nomi ixchamgina, bejirimgina "Olam aro" jurnaliga ham Muhammadjon Obidov bosh-qosh. Jurnalni varaqlagan mushtariy dunyoni bir kezib chiqqanning zavqini oladi. X.Do'stmuhammad, Farg'onaning fidoyi farzandi.

ODAM, ODAMZOD, KISHI, INSON, KIMSA, BASHAR. Tafakkur qilish, so'zlash, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu sababli boshqa maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot. **Odam**, **odamzod**, **inson** so'zlari ma'nosida tafakkur qilish, yaratuvchanlik belgilari ifodalanadi. **Kishi**, **kimsa**, **bashar** so'zlari bunday ma'no qirralariga ega emas. **Inson** so'zidan ijobiy munosabat anglashiladi. **Bashar** asosan badiiy uslubda qo'llanadi.

G'ulom aka bir narsasini yo'qotgan odamdek karaxt bo'lib, orqasidan qarab qoladi, keyin ichkariga kirib, "Bog'aro" plastinkasini yana qo'yadi. O'Umarbekov, Qiyomat qarz. Ot kavsh qaytarishini ko'rgan odam, yo telbanamo bo'ladi, yo sho'rpehona bo'ladi, yo baxtli, yo dono, yo nuqtadon bo'ladi! T.Murod, Ot kishnagan oqshom.Ot sendan, mendan qo'rqqanidan tashlamadi, yo'q, odamzodga fidoyiligidan tashladi!T.Murod, Ot kishnagan oqshom. Sizlar qilgan va qilayotgan ishlarni ko'rib, odamzod hamon yashab kelayotganiga ishonmay qolaman. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi.Odamzodning bola-chaqasi, qavm-qarindoshi, urug'-avlodi-yu qabila, millati son-sanoqsiz bo'lishi mumkin, lekin o'zi yagona, bir nusxalik, xolos! E.A'zam, Shovqin.U kishining diqqat-e'tibori esa, davrining yana bir qahramoni, yo'q-yo'q, gultoji desa arzigulik Zubaydaxon ismli benihoya sohibjamol juvonda edi. E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. Bir qo'lida katta chamadon tutgan, katta tugunni qo'ltiqlab olgan, kiyimlari ancha uringan, soch-soqoli o'sgan o'ttiz besh yoshlardagi kishini avvaliga tanimadi. T.Malik, Davron. O'sha kishi – ustozlari mening shunaqa hayot yo'ldoshim bo'lganida o'n marta doktor bo'lardim dedilar. O'Umarbekov, Qiyomat qarz.Faqat savob borki, jahon bus- butun, Faqat savob borki, azizdir Inson!A.Oripov, Savob.Keyin harqalay shuncha kun bizga hamroh yurib, qadrdonlashib

ketgan bu insonni allanechuk mehriboniyatim bilan qabul qildim. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpapaklar mamlakati. Darhaqiqat, bizning qarshimizg'a yo'lbars chiqsa, biz qattig' qo'rqamiz, chunki bizni o'lum kutadir, inson uchun dunyoda o'lumdan qo'rqunch narsa yo'q. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bu toqati tog', joni temirdan insonning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko'rishini uning o'zidan ham ko'proq tilar edim. A.Qahhor, Ming bir jon. Ba'zi og'ziga bo'sh kimsalar bularni shafqatsiz, deb gap tarqatishadi, aslida bulardan mehribon va ko'ngilchan odamlar yo'q. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. Bu... ikki daryo oralig'idagi tanida joni bor, og'zida kalimayi shahodati bor kimsa borki... otlanadi!.. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Ayt, axir o'zing ham to borsan sobit, Kimsaga nasiba uzatganmisan? Ko'changda lapanglab o'tganda tobut, Sen uni to'rt qadam kuzatganmisan? A.Oripov, Savob. Alqissa, pir o'tga berib jonini, Asrab qoldi bani bashar nonini... A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. Sanskrit tili shundoq edi, yunon tili, chinmochin tili, so'ngra lotin shundoq holni boshdan kechirdi, bashar kamoli uchun xizmat etdi. M.Ali, Abadiy sog'inchlar.

ODAMGARCHILIK, INSONGARCHILIK. 1 Boshqalarga haqiqiy insonga xos bo'lgan muhabbat, mehribonlik, samimiylilik, insof bilan munosabatda bo'lish. **Insongarchilik** odamgarchilikka nisbatan kam qo'llanadi.

Begim, garchi achchig'lansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va'da, vafo, yaxshilikni bilish, boring-chi, odamgarchilikdan hech gap yo'q emish. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Eri odamgarchilik qilishni istamagan bo'lsa, uning o'zida ham pul bor edi-ku. O.Yoqubov, Billur qandillar. -Odamgarchilig'ingizdan o'rgulay, - dedi kampir va og'zig'a kelgan so'zlar bilan duo qila boshladi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. - Odamgarchilikni ham biladi, bu tuz ko'r qig'ur! — dedi zaharxanda ichida tunqotar va xatni buklab yonig'a soldi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Demak, unda insongarchilik, o'z nomaqbul ishidan xijolat bo'lish fazilati bor ekan. Mirmuhsin, Temur Malik. Lekin bekorga xafa bo'lmayapti-ku, deb o'yladim: "Buxoroga kelsa-yu, uni men kutib olmasam. Axir insongarchilik bunday bo'lmas...". N.Boqiy, Rohila.

2 Insoniy qiyofa. Sekin belimdan necha kundani beri meni **odamgarchilikdan** chiqazgan pul tugilgan belbog'ni yechdim. Uni hozir suvga uloqtiraman. Uloqtiramanu, asli holimga, jinoyatga qo'l urmagan pok odamga aylanaman. S.Ahmad, Sud.

ODAMOXUN, ODAMSHAVANDA, ODAMJON. Odamning izza- hurmatini joyiga qo'yadigan, qadrlaydigan, odamgarchiligi bor. Mazkur so'zlar tilda keng qo'llanadi. **Odamshavanda** hamda **odamoxun** so'zlarida shinavandalik, kirishimlilik belgilari; **odamjon** so'zida mehribonlik belgisi ham anglashiladi.

Mohruh esa, o'ta xushmuomala, odamoxun, kirishimli edi. S.Hidoyat, Obji xonim. O'zining qadrini biladigan, lekin kibri yo'q, odamoxun, shu odamoxunligida ham hamsuhbatini o'ziga bo'ysundiradigan nimadir kamtarligi bor edi. A.A'zam, Ming o'limdan qolib. Omon bo'lgur o'ziyam juda xushchaqchaq, odamoxun-da. Ko'rdingiz-ku, Temurjon, birpasda siz bilanam apoq-chapoq bo'lib oldi... O.Ergash, Shohsanam. Uyda odamshavanda kampiring bo'lgandan keyin erkak bori- yo'g'i bilinmaydi, barakalla-barakalla, Salim aka o'n yillarcha bizning padari buzrukvor qo'lida xizmat qilganlar, ya'ni ota qadrdonimiz. S.Nazar, Yashil boylik. Xayriyat, Cho'ntoqdan yigirma-o'ttiz otni olib, o'zlarining otlariga matab yetib kelgan manzillari — Soybo'yining oqsoqoli odamshavanda chiqdi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Begovotliklar odamshavanda, xushmuomala, sodda-sofdil bo'larkan. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. Ne'mat qurmagur juda odamjon narsa. Har gapiga maqol, matal qo'shib gapiradi. U shundoq mehribon, shundoq mehribon... S.Ahmad, Mening do'stim Babbayev! Baraka topsin mirzam, odamjon-da, odamjon; bizdek faqirlar bilan ham og'ayni, sizlar bilan ham shunday, barcha barobar. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

ODAT, RASM, TAOMIL, UDUM, URF, AN'ANA. Jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan hatti-harakatlar, tartib- qoidalar. **An'ana** so'zi bajarilishi odat tusiga kirgan harakat-holatga nisbatan qo'llanadi. **Taomil, udum, urf, an'ana so'zlari** badiiy va publitsistik uslublarda nisbatan ko'proq qo'llanishi bilan farqlanadi.

Bu yerlarning odatiga ko'ra chopar hammadan avval askar oilasiga xushxabar yetkazishi va bu epchilligi, chekkan zahmati evaziga suyunchi olishi zarur. Lekin bu quvonch, bu ulug' baxt

qaysi bir xonadonga nasib bo'lishini hali hech kim bilmasdi... M.Baxtiy, Xubon. Ertalab, odat bo'yicha, Nuri to'r ro'mol yopinib, beshikdagi boladan to keksalarga qadar – hammaga salom qilar ekan. Oybek, Tanlangan asarlar. Farhodga gap topildi. – Xayriyat, bizda bunaqa yovuzliklar rasm bo'lib ulgurganicha yo'q. O'sha sen aql o'rganib kelgan tomonlarda jini suymagan odamini otib tashlash ayb sanalmaydi, to'g'rimi? – dedi u istehzoli iljayib. X.Do'stmuhammad, Kuza... Ularning rasmi shunaqami, ishqilib, avval obdan g'azal aytishdi, keyin ichkari kirishdi. S.Siyoyev, Yorug'lik. Zohid qalin daftar ochib, taomilga ko'ra Namozovni so'roq qila boshladi. T.Malik, Shaytanat. Bu hukm garchi boshqa bir paytda qaror topgan taomil mezoniga muvofiq kelmasa-da, shu tobda adolatli va insonparvar edi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Bosib olingan yer, uning har bir qarichigacha ulug' imperiya hisobiga darhol kirgizilishi shart, mustamlakachilarda taomil shundoq edi. M.Ali, Abadiy sog'inchlar. - So'ngra to'y kunlari ichkarida samovarni ko'pincha erkak kishi qaynatishi eskidan bir taomil bo'lib qolgan. Oybek, Qutlug' qon. Shunday qilib, ajdodlar udumi bajo keltirildi. Yoshlarga yo'l ochildi. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. -Bu mo'ylabli yigit qadim shohlarning faqat nazarinigina olgan, qolgan udumlardan «feodal sarqiti» sifatida voz kechgan deyish mumkin emas. T.Malik, Shaytanat. Bular o'z oralarida allaqanday yo'sinda rasm bo'lgan udumni bajo keltirishgan edi: ya'ni, To'g'aysari unga bo'lgan chuqur ixlosi-yu hurmatini biron-bir tarzda ado etishi lozim bo'lgani uchun shunday ta'zimlar qilgan, bosh eggan, pirovardi, “azizim”, degandi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Kunlardan birida ustozning muolajada ekanini eshitib, ziyoratiga bordik. Tabiiyki, o'zbekning urfiga ko'ra, davolanayotgan odamning oldiga quruq qo'l bilan borilmaydi. N.Jabborov, Ibrat va hikmat dorilfununi. O'sha paytlardagi urfga ko'ra, aravada umr yo'ldoshining uyiga kelgan kelinni zavji ko'tarib, yerga tushirmog'i lozim edi. Sh.Murodova, Ayolini kaftida ko'targan adib. Xalq nimasi dilan xalq? O'zining urf-odatlarini bilan xalq! Otabobosidan qolgan milliy an'analarini bilan xalq! T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. - Eski fikr, an'analar endi butkul uzildi. T.Malik, Shaytanat. O'z madaniyatimizning, urf-odatlarimizning unutilishiga, an'analarimizning buzilishiga, oyoqosti qilinishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi, yo'l qo'ymaydilar ham. M.Ali, Abadiy sog'inchlar.

ODATLANMOQ, ODAT QILMOQ, O'RGANMOQ. Biror hatti harakatni muntazam bajarishni odat tusiga kiritmoq. **Odat qilmoq odatlanmoq** va **o'rganmoq** so'zlariga nisbatan kam ishlatiladi.

Har gal kuzatganimdek, kostyumining pastki tugmasi qadalmagan — shunga odatlangandir. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. Keksa kimsalarni nihoyatda hurmat qilishga odatlanganidanmi, darhol tugunli qo'lini ko'ksiga yaqinlashtirib salom berdi. Mirmuhsin, Temur Malik. Hamshiralar norozi bo'lavergach, karavotida shiftga tikilib yotishni odat qildi. T.Malik, Shaytanat. Kishi bilan so'zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to'g'ri, baquvvat o'skan soqolini tutamlab o'ng ko'zini bir oz qisib qarar, odat qilg'andan bo'lsa kerak, gap orasida “habba” degan so'zni ko'proq ishlatar edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Bolalar intizomga o'rgangandan keyin ota-onasi bor bolalarga har payshanba kuni uyga borib yotib kelgani javob beriladigan bo'ldi. A.Qahhor, O'tmishdan ertaklar. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas. Maqol. Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi. A.Qahhor, O'g'ri.

ODDIY, SODDA, ODMI, BEHASHAM, BEZAKSIZ. Ko'rinishi hashamdor emas, bezak berilmagan. **Oddiy, sodda, odmi, bezaksiz** so'zlari keng qo'llanadi. **Behasham** badiiy uslubga xoslangan bo'lib, belgi darajasi kuchli ifodalanadi.

Ikki ryumkadan so'ng Po'latga bu hashamatli restoran xuddi studentlar oshxonasidek oddiygina bo'lib ko'rinsa boshladi. O'Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Jihozlar sodda, ozoda va tartib bilan o'rnatilgan, hech qanday ortiqcha narsa yo'q. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. Xonning so'l tomonidagi oltin hallik kursi kishidan bo'sh, o'ngdagi — ichki saroyga kiradigan eshikcha yonidagi kursi ustida O'ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog'lab, soddagina qilich taqing'an, boshig'a oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarlik tekis yaratilg'an, o'rtacha soqol, qisq ko'z, bug'doy rang, o'rta yoshliq bir qirg'iz— Musulmonqul o'lturar... edi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Qator-qator soqchilar

tekshiruvdan o'tkazib, odmigina bir xonada tovarish Yak bizni biri biridan ko'hna ikki qariyaga ro'para qildi. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. Bekxo'ja yosh olimning tartibsiz to'zg'ib turgan sochlari, egnidagi **odmigina** kostyumiga istehzoli ko'z yugurtib chiqqach, "erib turganimda opqolsang-chi", degan ma'noda kiprik qoqib, muloyim jilmaydi. A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. Ular shaharga dong'i ketgan odamning xotini dur-u gavharlarga ko'milib yashaydigan malika deb o'ylashganmi, ustida **odmigina** qora duxoba nimcha, oyog'ida mahsi-kalish bo'lgan Manzurani cho'ri gumon qilib, hovlida turib qolishdi. T.Malik, Shaytanat. Shunday paytlarda bobosi qovog'ini solib, nevarasining mashqlarini zimdan kuzatib turar, Ulug'bek otga chaqqon minolmasa yo qilichbozlikda no'noqlik kilsa darg'azab bo'lar, behasham po'lat g'ilo'fga solingan qilichini sug'urib olardi-yu, ko'zlari yonib, yonida kim tursa shu bilan qilichbozlik qilib ketardi... O.Yoqubov, Mirzo Ulug'bek.. Ular [Rahmonali tegirmonchi, mulla Berdiboy] behasham mehmonxonaga kirdilar. A.Suyunov, Yo'qchi. Sherxon shomiyona to'ridagi baland shahnishinda chordana qurib sokin o'ttiribdi. Kiyimlari bezaksiz odmi ipakdan, kichkina sallasiga ham gavhar yoki boshqa toshlar qadalmagan, ammo burgutnikiga o'xshash ko'z qarashlari va mag'rur o'ttirishi Bayramxonda hayiqishga o'xshagan bir tuyg'u uyg'otdi. P.Qodirov, Humoyun va Akbar. Madrasa deyarli bezaksiz. Unda [Abdulazizxo'ja madrasasida] Qashqadaryo viloyati tarix-o'lakashunoslik muzeyi joylashgan. "O'zME".

ODOBLI (ADABLI), BOADAB, AXLOQLI, XUSHAXLOQ, TARBIYALI. Xulq-odobi yaxshi, yaxshi tarbiya ko'rgan. **Boadab, adabli, xushaxloq** so'zlari badiiy va publitsistik uslublarda nisbatan ko'proq qo'llanishi bilan farqlanadi. **Boadab**, odatda, kattalar nutqida ishlatiladi. **Xushaxloq** so'zida ijobiylik o'ttenkasi bor.

Agar oiladagi ota-ona tarbiyasi, odobli va bir-birlariga xushmuomalali bo'lishsa farzandlari ham ulardan ibrat olib, shunday fazilatlar egasi bo'ladilar. T.Malik, Odamiylik mulki (Axloq kitobi). U yonimga yaqinlashsa bas, sinfdoshlarim, keyinroq borib esa, hatto maktabdoshlarim asta-sekin, sezdirmasdan, benihoya odobli kishilarga xos tarzda bizni yolg'iz qoldirishga urinishardi. N.Ismoilov, Kechir meni, Ra'no. Kichik kelin odobli, farosatli, odamning ichiga kirib ketay derdi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. (Nor xola:) Kelinimni ko'rdim, biram odobli, biram shirinsuxan, kattalikni hech ham bilmaydi. S.Nazar, Yashil boyluk. O'zingni hammaga sevdirishni istasang – fe'l-atvoringni tuzat, adabli, tarbiyasi bo'l.T.Malik, Odamiylik mulki (Axloq kitobi). Adabli, tarbiyasi odam boshqalarga muhtoj bo'lmas.T.Malik, Husni xulq. Bu yigitning boadab bo'lg'onidan ham durust odam, deb o'ylag'on edim. A.Qodiriy, Kalvak maxzumning xotira daftaridan. Odamlarimiz juda boadab, chiptasiz chiqqan bo'lsa, chiptali joyga o'tirmaydi, o'tirib tursa ham egasi kelsa, joyini bo'shatadi. A.A'zam, Avtobus. Muxtorjon bitta bo'lsayam o'ntaga tatiydigan yngit chiqdi. Axloqli, odobli... O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. Ota-ona bolani odobli, axloqli qilib voyaga yetkazganlari uchungina olqishga sazovor bo'ladilar. T.Malik, Odamiylik mulki (Axloq kitobi).[Darvishlar]]Mutavoze', **xushaxloq**, birovga zarari yo'q, o'z maslagida sobitqadam bo'lganlar. T.Malik, Odamiylik mulki. Uning [Alisher Navoiyning] yozishicha, har bir ziyoli zohiriy ilmlar (dunyoviy fanlar) bilan birga, botiniy ilm (tasavvuf)ni ham egallashi lozim, bu uning fazlu kamolini oshiradi, xushaxloq, halim va odamshavanda bo'lishga ko'maklashadi. N.Komilov, Tasavvuf. Yigitning o'zi ham nihoyatda xushmuomala. Maxsus maktabda o'qiganmi deysiz. Kinolarda ko'rganimdek yuzi buzuq bandit-bezorilardan emas, juda **boadab, tarbiyasi**, qo'li ko'krigidan tushmaydi. A.A'zam, Noto 'g'ri tush. Гўзал хулқ ва тарбияли онанинг хислатлари, яхши феъл-атвори фарзандларида ҳам намоён бўлади. T.Malik, Odamiylik Mulki (Axloq kitobi).

ODAMOVI, YOVOYI. Odamlardan o'zini olib qochadigan, odamlarga aralashmaydigan. Har ikkala so'z keng qo'llanadi. **Yovvoyi** so'zida belgi darajasi **odamovi** ga nisbatan kuchliroq ifodalanadi.

O'lmas biron asar yozadigan bo'lsa "odamovi" bo'lib qolardi. Boshqa ishlarni unutar, faqat yozayotgan asarini o'ylardi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. U odamovi! U olislardan ko'z uzmaydi, kipriklarini-da pirqiratmaydi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. Mayli, o'rtoqlari hozir undan kulishsin, qizlar uni odamovi, kekkaygan, deyishsin. Uning kimligi keyin ma'lum bo'ladi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Egnida o'sha kalta po'stin, boshida baroq telpak. Qandaydir

yovvoyi bo'lib turipti, olomonga yopishmaydi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. - *Qani, amakingga salom berchi. — Kabir bolani yerga qo'yib, maqtanganday Alimardonga qarab qo'ydi... Ammo bolakay Alimardonga yotsirab qarab qo'ydi-da, kattalarday qoshini chimirib, hurpayib oldi. — Voy, tentag-ey, salom berishni esingdan chiqarib qo'ydingmi? — Kabir kuldi. -Yovvoyi-da, amakisi, yovvoyi bu. — Keyin Alimardonga qarab iltifot qildi. O'. Hoshimov, Bahor qaytmaydi.*

OILA, XONADON, UY, RO'ZG'OR. Er va xotin, ularning bolalari, kelini va nabiralari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar jamoasi. **Oila, xonadon** kitobiy uslublarda ko'proq qo'llanadi. **Uy, ro'zg'or** esa so'zlashuv uslubida nisbatan faol ishlatiladi. **Ro'zg'or** so'zida 'oila' bilan birga 'oila uchun kerakli narsalar' ma'no qirrasini ham mavjud.

Qutidor oilasida boshqa er zoti bo'lmag'anliqdan Oftob oyim qarindoshlaridan "jonkuyar" deb tanilgan kishi Kumushning tog'asi Ahmadbek bo'lib, ul ham umrining ko'pini Qo'qondami, Xo'jandami o'tkarar, shuning uchun undan ham yori kutish uzoq gap edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Xullas, rashk mavjud, ammo xiyonatga begona oila sohibasi garchi Anvarga mehri bo'lsa-da, chegaradan chiqqan olmas edi. T.Malik, Shaytanat. Bu ixtiyoriy ravishdagi hozirlikdan so'ng, "mamlakatimdagi har bir xonadon bitta ketman va bitta mardikor bersin!" deb istisnosiz umumiy bir farmon ham bo'ldi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon Qarshidagi bo'g'oti tushib o'rtasi yemirilgan, devorlaridan baqa sallasi unib chiqqan xaroba binolarning o'nda-so'nda ko'rilmada bo'lgan eski naqshlaridan va sirlaridan bu oilaning ilgarida davlatlik bir xonadon bo'lganligi, ammo bu kunda ortiqcha faqirlikda yashaganligi onglashilur edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Men bu uydagi har bir odamning ko'zlariga qarab, ularda menga atalgan g'alati bir narsani ko'rar edim. M.Zohidova, Sarhadsiz sadoqat. [Uka:] -Opa, bu uyda boshqa ayolning yurishiga chidashim qiyin. Uyga begona xotin kirishi bilan keliningiz go'rida tik turadi. U meni kechirmaydi.[Opa:] - Bekor aytibsan. Erkak kishining beva yurishi mumkin emas. Bolalaringga rahming kelsin. Qachongacha sarson yurishadi?

T.Malik, Talvasa. *Bo'zchi belboqqa, temirchi taqaga yolchimas, deganlaridek, marhum dadasi ham, bor kuchini kolxozdagi qurilishlarga sarflab, o'z ro'zg'origa deyarli qaramas edi. O.Yoqubov, Billur qandillar. Qo'chqor. Endi-i, Alomatxon, mana shu ro'zg'orning og'ir-yengili ikkovimizning bo'ynimizda, xo'pmi. Sh.Bos hbekov, Temir xotin.*

OKEAN, UMMON. Yerning materik va orollarni o'rab turuvchi suv qobig'i. **Okean** barcha uslublarda keng qo'llanadi. **Ummon** badiiy uslubga xoslangan.

Gidrologik rejimining tabiiy-geografik xususiyatlariga ko'ra, Dunyo okeani alohida okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlar, buxta va bo'g'ozlarga ajralib turadi."O'zME". Okean orqali telefon aloqasi o'rnatildi, endi odamlar bemalol gaplashadi. A.Muxtor, Tundaliklar. Ummonlar ko'rinar qatra yosh misol, Chigit uvog'icha kelmas tog'lar ham. Qit'alar, dengizlar aftoda bir hol, Bari bir nuqtaga bo'lib olmish jam.A.Oripov, Ona sayyora. Mashriq mamlakatlaridan birida hududsiz ummonlar orasida mo'jazgina bir orolda.mo'jiza bir daraxt o'sarmish. O.Yoqubov, Ko'hna dunyo. Daryodan daryoni talab aylagil Va lekin hech qaon ummonni kutma. A.Oripov, Donishmand deydi...

OLA-BULA, OLA, OLA-QURA, OLABAYROQ, OLATAROQ, OLAPES. Oq va boshqa har xil rang aralash tusli. **Ola-bula, ola** so'zlari barcha uslublarda teng qo'llaniladi. **Ola-qura** kam qo'llanadi. **Olabayroq, olataroq, olapes** so'zlarida belgi darajasi kuchli ifodalangan. **Olabayroq** so'zining ma'no tuzilishida 'yo'l-yo'l' va 'katak-katak'; **olataroq** so'zida 'rango-rang'; **olapes** so'zida 'tusi aynigan' xususiy ma'no qirralari bor. Shuningdek, **olabayroq, olataroq, olapes** so'zlaridan subyektiv salbiy munosabat ham anglashiladi.

Tandir tagida uch-to'rtta chumchuq ovqat qidirib sakrar, tumshuqlari bilan qor ostida ola-bula ko'ringan yerni titkilar edi. S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. Ana, bo'ynini ola-bula sharf bilan o'rab olgan qizaloq, ukasi bo'lsa kerak, besh-olti yoshlardagi bolakayni chanaga o'tqazdi-da, tepalikdan itarib yubordi. O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. Sal o'tmay, bo'yniga ola-bula sharf o'rab olgan badqovoq yigit ichkaridan g'o'dayganicha chiqib kelib, tajang qiyofada mudirga yuzlandi. A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi. Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi. — Ha, sigir, yo'qoldimi? — Yo'q... sigir

emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi. – Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!.. A.Qahhor, O'g'ri. *Oyoqlariga qizil botinka, ustiga ko'k ishton-ko'ylak, boshiga eski ola do'ppi kiyib olgan uch yashar nevara, hammadan oldin o'rnidan turib, ayvonga chiqadi.* T.Murod, Bobosi bilan nevarasi. *Tong azon bo'lishiga qaramasdan, bir to'da och ola-qura itlarni ergashtirib, eski Kappon tomondan Mallajinni javrab kelar edi.* G'.G'ulom, Shum bola. *Oldindagi mashinada lunjini shishirib surnay chalayotgan surnaychining yonida turib, beo'xshov o'yinga tushayotgan olabayroq to'n kiygan bir kishiga ko'zim tushdi, sinchiklab qaragam – mehmon!* A.Qahhor, Dumli odamlar. *U jiyakli olabayroq ipak to'nining etaklarini tizzalari orasiga olib, po'stak ustiga yonboshlagan mehmonning tomirini ushlab, shiftga qaradi-da, Husaynga eshittirib, shunday dedi...* M.Osim, Ibn Sino qissasi. *Temiryo'lchi o'likning olataroq yuziga, tizzasigacha ko'tarilgan no'xat gulli yupqa ko'ylagiga, barmoqlarida uzuqlar yaltirab turgan qo'llariga tikilar ekan, hech narsa tushunmasdi.* O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri.

OLD(IDA), HUZUR(IDA), YON(IDA), QOSH(IDA). Biror kimsa yoki narsaga juda yaqin joy (aniq va abstrakt ma'nolarda). Bu so'zlar mazkur ma'noda kelganida egalik qo'shimchasi va makon-zamon kelishiklari bilan turlanadi. **Old(ida)**, **yon(ida)** keng qo'llanadi. **Huzur(ida)** kitobiy. **Qosh(ida)** badiiy uslubga xoslangan.

Juvon deraza oldida muztargina turibdi .U.Ali, Ikki qutb. U ko'cha eshik oldida to'xtagan yap-yangi "Volga" mashinasining yonid a xayo lsurgande kqimirlamay turardO'.Hoshimov, Xayollarga bo'laman tutqun.. Ismoil polvon bir-ikki qadam tashlab, olov oldida to'xtadi. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Men yan aancha-ancha gaplarn iaytgim, yuragimda gi hislarimning hammasini to'kib solgim kelardi-yu, ammo shu hisla roldidao'zim ojiz edim... O'.Hoshimov, Xayollarga bo'laman tutqun. Sen chindan ham go'zalsan, Huzuringga keldim bot. A.Oripov, "Noma'lum qiz" suratiga. Bek huzurida hisob berguvchi bir mo'min kabi qo'llarini tizzasiga qo'yib, nihoyat, to'rga qarashga jur'at etdi... Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Tilmachi uzatilgan kaftiga bir nima tashlamaguningcha, huzuringdan nari ketmagani kabi, Jobirbekni ham xotini haqidagi o'ylar sira tark etmasdi.F.Tilovat, Qora Quzg'un. U eshikning ham ikki yonida soqchilar turishar — ikkitasi choponli, ikkitasi sallali edi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Zohid Sharipov prokuratura joylashgan imoratning ro'parasidagi katta chinor yonida turgan ayolni darrov tanidi. T.Malik, Shaytanat. Hech qachon eldan qolmang, aka. Xususan ikki vaqt elning yonida bo'ling.T.Murod, Ot kishnagan oqshom.Asqar ota erkaklar qoshida ko'p muhtaram xotinlarni ko'rgan, lekin bularning ko'pchiligi rais, mudir, direktor deganday rahbarlik o'rindagi xotinlar edi. A.Qahhor, Dahshat. Uch oydan beri Anvar qoshida — o'z huzurida mirzoliq qilib kelar va ikkinchi oydan besh tilloliq mohonaga ham yozilg'an edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.*

OLDINGA, ILGARI, OLG'A. Old tomonga. **Ilgari** so'zi mazkur ma'noda **oldinga** va **olg'a** so'zlariga nisbatan kam qo'llanadi. **Olg'a** kitobiy. Bu so'zda "old tomonga" ma'nosi kuchliroq ifodalanadi

Shu holda kemalar tun qorong'iligini panoh etib, oldinga suzib borishardi. Mirmuhsin, Temur Malik. *Boshqa hamma narsani bosib-yanchib o'tish mumkin, faqat oldinga, maqsad sari intilish zarur.* N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Quadrat bilan G'ulomjon ham bir necha odim ilgari yurdi.* M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha. *O'lgan, yarador bo'lganlarga qaramay, qo'zg'olonchilar katta suron bilan ilgari otilib, toshbo'ronni kuchaytirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qo'rg'on ustida yasov tortgan qahramonlar qo'l bog'lab, ikki bukilgansimon ta'zim bilan Azizbekni ilgariga o'tkaza boshladilar.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *U allanechuk bo'lib orqaga tortildi-da, yana olg'a intildi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *Biz tushgan "Neksiya" dala yo'lining tanobini tortib olg'a intiladi.* M.Ahmad, Faoliyat odami.

OLIFTA, FASON (POSON), BASHANG, PO'RIM, SATANG. Pardoz-andozga, kiyinishga, o'zining tashqi ko'rinishiga zeb beruvchi. **Bashang** so'zida belgi darajasi kuchli. **Po'rim**, **satang**, **poson** so'zlashuvga xos. **Satang** so'zidan so'zlovchining salbiy munosabati anglashiladi.

Elchinni hayron qoldirgan narsa bu emas, bunday olifta yuruvchilar ko'p. T.Malik, Shaytanat. *Institutda o'qimagansan deb, meni tashlab, bir oliftaga tegib ketdi.* E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli. - *U bir olifta, — derdi u, — o'zi hozir to'kilib tushaman deyapdi-yu*

dag'dag'asini qarang, nuqul madorsiz qomatini tutaman deb chiranadi. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. *Kecha sizni o'zi yuvintirib-kiyintirib, fason qip ketdi-ku. Nima, darrov esingizdan chiqdimi?* N.Norqobilov, Ayriqliq quvonchi. *Katta shahardan kelishgan bu odamlar juda g'alati tuyular, dam hurkak qishloq qizlarini suratga olib, dam "Tarzan" bo'lib daraxt shoxlarida uchib yuradigan xushsurat "poson" yigitcha esa bir yuragini jizillatar, bir cho'chitar edi.* O.Yoqubov, Matluba. *Ikki chetiga xonaki archalar ekilgan yo'lkadan ola xalat kiygan bemorlar, bashang kiyingan kishilar tinmay o'tishadi.* O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. *Eshikdan birin-ketin ikki kishi kirdi. Oldingisi bashang kiyingan edn: boshida chaqmoq telpak, egnida adras to'n.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *Axir u odamlarga o'xshab bashang kiyinishni, ziyofatlarga borishni, uy-joy solishni shunchaki mayda gaplar deb yurardi-ku.* O'.Hoshimov, Uzun kechalar. *Unda [u vaqtda] manavi mishiqli po'rim onasi qornida yo bor edi, yo yo'q edi.* T.Murod, Momo Yer qo'shig'i. *Hali gap avvalida ta'kidlaganimdek, do'stimiz ishga po'rim borib, po'rim qaytadi.* L. Bo'rixon, Ota va oila. *Mahalla-yurt deb kimni aytyapsan? Og'ziga kuchi yetmagan uch-to'rtta satanglaringnimi?* O.Yoqubov, Billur qandillar. *-Satang sovuqda o'ladi? – dedi yana po'ngillab Turkon xotun, – katta xotiningizga Badaxshondan keltirilgan la'lni beribsiz, hammaga ko'z-ko'z qilibdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Serjant kapitan tomon qayrilganda, oxirgi stulga o'tirgan Guvoh shoshib o'rnidan turdi-da, satangga joy berdi: - Siz o'tiring, opa.* N.Jaloliddin, Vokzal.

OLOV, O'T, OTASH, NOR. Yuqori haroratda yonib, nurlanib turgan gaz.**Olov** va **o't** so'zlari adabiy tilda teng qo'llaniladi, lekin ayrim holatlarda bu so'zlarning birini ikkinchisi o'rnida qo'llab bo'lmaydi. (Masalan, *quyosh olovi* va *quyosh o'ti*.) Ba'zi shevalarda **o't**, ba'zilarida **olov faol** ishlatiladi. **Otash** va **nor** badiiy uslubga xoslangan. **Nor** so'zida eskilik bo'yog'i mavjud. *Davrada chirsillab yonayotgan shuvoqdan buralib-buralib olov o'rladi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Bog'lar zebolanib olar alvon tus, Holbuki, saraton — jazirama yoz. Bamisli olovda to'ragan qaqnus, Xayolimga keldi nogoh shu qiyos.* O.Tohir, Anor guli. *Bir qiz olov girdida barmoqlarini qirsillatib-qirsillatib, changqovuz nag'malariga xirom etdi* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Tantiboyvachcha xotinga yana yaqinroq suqilib, uning deraza yuqorisidan tushgan oftobda qora olov kabi yongan sochlarini silab qo'ydi.* Oybek, Qutlug' qon. *Yilqichilarning yozi bilan o't yoqilaverib tutundan qorayib ketgan o'tovlari katta soyning u yer-bu yerida ko'zga tashlanardi.* Ch.Aytmatov, Jamila. *U tagida o' t lovullab yonayotgan qozonni o'rab turgan bolalarni ko'rib, «xayriyat-e, xayriyat-e», deb ularga yaqin bordi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Kech kirishi bilan o'n olti manjaniqdan yonartosh otishar, daryo tepasidan shig'illab kelayotgan otashni ko'rgan otlar hurkib qochardi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Darveshlar qalbidan joy olsangiz, bas, Sizni kuydirolmas do'zax otashi.* E.Shukur, Naqshband. *Nori hijron bag'rim yomon kuydirdi, Beparvo yor, qoshi kamon kuydirdi. Pari chehra, karashmali-shevali, Vaslu diydor menga armon, kuydirdi.* O.Tohir, Nori hijron. *Man Yo'q edim. Bor etti Ishq, ujmoh edim, nor etti Ishq, bir boshga ming savdo sola borimni bozor etti Ishq.* M.Benazir, Man Yo'q edim..

OLXO'RI, OLU, OLHIROT, G'AYNOLI, QORAOLI(U) || QAROLI, GURDOLI. Ra'noguldoshlar oilasiga mansub, shirali mevasi qoramtir-siyohrang, to'q qizil ranglarda bo'ladigan daraxt. **Olu**, **g'aynoli**, **olhirot**, **qoraoli** sheva so'zlari hisoblanadi va adabiy tilda **olxo'ri** ga nisbatan kamroq qo'llanadi.

Devor tomonda to'rt tup qora olxo'ri bor. Zaynab xola olxo'riga o'ch edi. O'.Umarbekov, Kimning tashvish yo'q. *Yoqut ularning oldiga bir tarelkada yangi olxo'ri bilan choy olib kelib qo'ydi-da: — Idoraga borib kelay-chi,— dedi ohista, tashvishini onasiga sezdirgisi kelmay.* S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. *Chilonjiyda tagida do'ng peshonasidan osilib tushgan quyuuq, uzun tolalar ko'zlarini butunlay to'sib qo'ygan oppoq bir kuchuk bola yoniga yaqin kelgan musichaga g'ashlik qilib akillayapti. Kichikroq olxo'ri krqisidek qop-qora tumshug'i bo'lmasa uni bir hovuch paxta deb o'ylash mumkin edi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Baland-baland so'qir paxsa devorlar osha, ko'cha tomonga shaftoli, olhirot, ba'zan aymoqi tog'uzumlar osilib tushgan.* G'.G'ulom, Yodgor.- *Shunaqa, giyohbonlar takyalarga ho'l meva, sovuq suv, olicha, olhirot, ko'ksulton, anor, sut, qatiqni sira yo'latishmasdi.* G'.G'ulom, Shum bola. *Ay, olhirot!.. Senga havasim keldi, Hasadim ham desammikin, to'g'risi!..* A.Boyqo'ziyev, Qo'llar bo'sasi. *Oq o'rik, shotut, shaftoli va g'aynolining sap-sariq yaproqlari hovli betini ko'mib yotibdi.* I.Rahim,

Chin muhabbat. *Dasturxonning mehmon o'tirgan tarafida pistayu bodom, olmayu anor po'choqlari, o'rigu shaftoli, gilosu g'aynoli danaklari, uzumu tarvuz urug'lari, behiyu nok qoldiqlaridan yangi «Oloy tog' tizmasi» paydo bo'la bordi.* A.Obidjon, Oltin vasvasasi. *Olxo'rini kimdir olu deydi, yana kimlardir olhirot yo g'aynoli deydi.* M.Yo'ldoshev, Gurdoli. *Bir gektarcha keladigan uzumzor, atrofida turfa daraxtlar: olma, o'rik, yong'oq, shaftoli, olcha, qaroli...* M.Hazratqulov, Ta'til kunlari. *Buni [olxo'rini] qirg'izlar qora o'rik deyishardi. O'sh-u O'zgan qolmagan, oborib sotganmiz bir vaqtlar. Samarqand tomonlarda qaroli deyishadi...* M.Yo'ldoshev, Gurdoli. *[Mevali daraxtlar] Qoraoluning bahosi ko'tarilib, soyasida qolib ketarlaridin hamiyatlari lat yeb, bo'stonda g'ovur ko'pturubdurlar. G'alayonning sharpasi bog'bonlar bog'bonining ham qulog'iga yetganmu, ozurda qolubdur.* B.Murod, Ko'kto'nilar. *Onam rahmatlik Buxorodan edi. Gurdoli derdi olxo'rini.* M.Yo'ldoshev, Gurdoli.

OMONIM, SHAKLDOSH. Shakli va talaffuzi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar. **Omonim** so'zi tilshunoslikka oid fundamental asarlar va ilmiy tadqiqotlarda qo'llanadi. **Shakldosh** so'zi asosan maktab darsliklarida ishlatiladi.

Masalan, ot, oz, ol omonimlarining tarkibiga kiruvchi bir so'z til tarixida cho'ziq a: bilan talaffuz etilgan edi. O'zbek tili leksikologiyasi. *Omonimlarni qorishtirish natijasida yuzaga keladigan nutqiy noaniqliklar ko'proq o'quvchilar nutqida kuzatiladi, bu, albatta, ularda nutqiy ko'nikmalarining yetarli darajada muntazamlashmaganligi bilan izohlanadi.* N.Mahmudov, O'qituvchi nutqi madaniyati. *Dastlabki omonimlar doirasida fonetik strukturasi k + k yoki k + V + k + k bo'lgan so'zlardan tarkib topgan omonimlar ham bor.* O'zbek tili leksikologiyasi. *Ikki xil sememaga ega bo'lgan fe'llar o'zaro shakldosh leksemalarni yoki ko'p sememali so'zlarni, degan mantiqiy savol tug'iladi.* H.Ne'matov, R.Rasulov, O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. *Shakldosh so'zlar, ya'ni omonimlarni ham farqlay bilish so'zlarni to'g'ri qo'llash va demak, nutqning aniqligini ta'minlashga yordam beradi.* N.Mahmudov, O'qituvchi nutqi madaniyati.

OMONIMIYA, SHAKLDOSHLIK Turli ma'noga ega bo'lgan til birliklarining talaffuz va yozilish jihatidan bir xil bo'lishi. Har ikkala so'z keng qo'llanadi. Tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarda **omonimiya** so'zi nisbatan ko'p uchraydi.

Konversiya usulida so'z yasash shuncha qadimiy ekan, uniig patijasida omonimiyaning yuzaga kelishi ham shuncha qadimiydir. "O'zbek tili leksikologiyasi". O'zbek tilidagi omonimiyani yuzaga keltiruvchi ichki manba so'z yasash usullaridir. "O'zbek tili leksikologiyasi". Ulkan adib Abdulla Qahhor "San'atkor" nomli hikoyasi (1936 yil) da bo'lsa fe'lining adabiy talaffuzdagi bo'sa shakli bilan bo'sa (o'pich) oti o'rtasidagi shakldoshlikdan foydalanib, mazkur fe'lining faqat bo'lsa shaklini adabiy talaffuz deb tushunadigan, hatto bo'sa (o'pich)- ni ham bo'lsa tarzida aytadigan "madaniyatli" artistning benihoya kulgili qiyofasini chizgan... N.Mahmudov, O'qituvchi nutqi madaniyati.

ONA, ENA, OYI, OPA, VOLIDA, BUVI. Farzand ko'rgan, farzandlari bo'lgan ayol. **Ona, volida** kitobiy uslublarda qo'llanadi. **Oyi** so'zlashuv uslubiga xos. **Volida** so'zida eskilik bo'yog'i bor, shuningdek, subyektiv ijobiy munosabatni bildiruvchi ma'no qirrasini mavjud. **Ena, opa, buvi** so'zlari shevalarda qo'llanadi.

Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang kilib atrofda manzaralarni tomosha qilar edi. O'.Hoshimov, *Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Eng toza tuyg'u nima? Birinchi maoshingizni keltirib berib, otangizning duosini olganingizmi? Birinchi marta sovg'a ko'tarib kelganingizda onangizning ko'zida kalkigan yoshmi?* O'.Hoshimov, *Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Oyingniki, — dedi Nazir ota eslab. — Yo'qolib ketgan, deb yuruvdim men. Sen tug'ilgandan beri taqmasdi, — u «onang vafot etgandan beri» deb aytolmadi, tili bormadi.* O'.Umarbekov, *Kimning tashvishi Ena, men sezib turibman, bu g'oz qaytmaydi. Menga boshqa g'ozning nima keragi bor?* U.A'zim, *G'oz. Xayriniso enasining uyidan ko'ngli cho'kib, qaddi bukilib qaytadi. Qir etagidagi o'z uyiga kelguncha boshida turfa xayollar aylanadi.* Q.Norqobil, *Osmon ostidagi sir. Ena, qo'ying, yotaversin edi, — dedi juvon past ovozd. — Sizlarni ham ovora qildik...* B.Aytmurod, *Qo'noq. Bo'ldi, bo'ldi, oyi, bilaman, — deya Abdulla bu mavzuga nuqta qo'yimoqchi bo'ldi bu safar.* G.Mamarasulova, *Pariro'y. — Orif yo'q, — dedi oyisi, — magazin tomonga ketuvdi.* X.To'xtaboyev, *Sariq devni minib. Oyi, menga ho'l latta bering, uni qutqarishim*

kerak! – dedim hovliqib. Oydinniso, Hayot daraxti. Volidangiz tayinlab yubordilar. Darhol Andijon qo'rg'oniga borib, beklarni to'plamaoq kerak. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Men o'zimni dunyoga keltirgan, oq sut bergan, mudom oq yuvib-oq taragan validam bilan – dunyodagi eng aziz, eng mehribon kishim bilan mana shunday vaziyatda abadul-abadga vidolashdim. A.Haydarov, Qo'sh ustunimning biri. -Qo'ying, buvi, xafa bo'lmang, — dedi G'ulomjon onasini ichkariga yetaklab. M. Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha.

OPA, EGACHI. Bir ota-onadan tug'ilgan bolalar ichida o'zidan kichik qiz farzand yoki o'g'il farzandga nisbatan katta qiz. **Opa** so'zi keng qo'llanadi. **Egachi** asosan singilga nisbatan, tarixan va ayrim shevalarda esa ukaga nisbatan ham qo'llanadi.

Hojar yuzi lo'ppi, Normatning opalariga tortgan, do'mboq, to'ladan kelgan qiz edi. N.Eshonqul, Urush odamlari. Xoh ishonib, xoh ishonmang, yo'qlab kelgan yigit bezot-bebaqo Qulovning tus jiyani bo'lib chiqdi, qondosh-qorindosh opasining o'g'li! E Aarbob quloa parijsa boradi Bilaman, bu bolalarning har biri hozir xayolan otasining tizzasida o'tirib, yuzlarini asta silab, mo'ylovidan beozor tortqilab erkalanayapti, boshqasi allaqachon opasi bilan topishib olgan, yuzlarini yuzlariga bosib bir-birlarining boshini mayin silab, hayajondan entikishib, iliq-iliq ko'z yoshi to'kishyapti...X.To'xtaboyev, Besh bolali yigitcha. Shayboniyxondan shunchalik shafqsiz o'ch olgan Shoh Ismoil xonning Marvda asir tushgan xotinlaridan biri — Bobur mirzoning egachisi ekanligini eshitib, unga alohida iltifot ko'rsatgani tasodifiy emas edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

Zaynab egachisi Xushro'ydand yetti yosh chamasi kichik edi. Marvdagi voqealarni Qunduzda turib eshitgan Bobur Shoh Ismoilga maxsus maktub yo'llab, uni Shayboniyxon ustidan erishgan katta g'alabasi bilan tabriklagan, so'ng xon haramidagi egachisi Xonzoda begimni beshkast Qunduzga jo'natib yuborishni iltimos qilgan edi P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

OO, OPPOQ, BO'Z, BO'ZRANG, SUTRANG, BAYZO. Qor, sut, paxta rangidagi. **Oq** keng qo'llaniladi. **Bayzo** kam qo'llaniladi va badiiy (she'riy) nutqqa xoslangan. **Oppoq** va **bayzo** so'zlarida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Bo'z** so'zi asosan ko'kka moyil oq rangdagi ot tusini bildiradi. Bo'zrang ham oqish-ko'kish rangga nisbatan ishlatiladi. **Sutrang** so'zi badiiy va so'zlashuv uslublariga xos.

Yarmi oq, yarmi qora bu chavkar toshdagi egarchada xuddi otda o'tirgandek o'tirgan bo'lardi. Ch.Aytmatov, Oq kema. –[Zaynab opa:] Bir oz o'tirgach, keskin o'rnidan turdi-da, sandiqdagi oq surpni olib, erkaklar kiyadigan ko'ylak bichdi. Ch.Aytmatov, Oq yomg'ir. Daraxtorning ichkarisida oq imorat ko'rinadi, yonida yana nimadir qurilayotir. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. Negadir bar bir xil muddatda bino etilmish son-sanoqsiz oppoq qasr-u saroylar, ko'rkam bog-u keng-keng sayilgoh maydonlar, necha yilda qurib bitkazilishi, afsus, esimda yo'q, lekin shaklan bir-birini aslo takrorlamaydigan (ular da odam bor-yo'qligidan so'z ochib, malomat orttirib yurmaylik tag'in!) alomat musofirxonalar! E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. Ertasiga ertalab odamlar uyg'onganlaridan so'ng tashqariga chiqib, hayrat bilan uzoq – uzoqlarga boqdilar: hammayoq oppoq qor edi, go'yo butun dunyo oppoq edi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Gulchehra uni faqat qoshlarigina qorayib turgan, oppoq, rangsiz yuziga tikilar ekan, nima demoqchi ekanligiga tushunmasdi. O'Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Bobur bo'z otni choptirib borib, navkarga yetganda oyoqlarini uzangidan bo'shatdi, qamchini tishiga oldi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Birodarlar, bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday oppoq bo'ladi! T.Murod, Ot kishnagan oqshom. Tutzorning narigi tomonida bo'zrang bir uzun imorat ko'rinardi. Sh.Xolmirzayev, O'zbeklar. Mashina qattiq siltanib, o'rnidan jildi. Uning izidan ko'tarilgan bo'zrang chang tun bo'lsa-da, negadir aniq ko'rinardi... N.Jaloliddin, Dayus. [Begmat Dadamatov:] U birinchi marta qishloqqa sutrang "Volga"da kirib kelganida, har turli mish-mishlar tarqadi. X.Sultonov, G'ulomgardish. Eshikning sutrang, bujur oynasi orqali Azizning sharpasi ko'rinardi. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. Yo'l yoqasidagi bo'ychan simyog'ochlarga o'rnatilgan sutrang chiroqlarni ham mudroq bosayotganga o'xshar, trotuar chetidagi bog'kursilar esa chinorlar ostiga uzala tushganicha qotib uxlayotgandek ko'rinardi. A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. Havoda "Ollohu akbar" degan sas yangraganda gumbazli bino tepasiga bordi-da, bir charx urib, so'ng yengil harakat bilan boyagi bayzo mashina ketgan yoqqa yeldi...U.Hamdani, Musulmon. Subhi bayzodek gul uzra Shomi savdo tusli barg. E.Vohidov, Barg.

OQARMOQ, BO'ZARMOQ. Qoni qochib, rangi o'chmoq. **Oqarmoq** va **bo'zarmoq** nutqda keng qo'llanadi. Bo'zarmoq so'zida holat darajasi **oqarmoq** qa nisbatan kuchli ifodalanadi.

Meni hamma yukchilar qurshab oldi. Oqarib, qaltirab ketdim: ularning menga tikilishi shunday qo'rqinchli edi. A.Muxtor, Daryolar tutashgan joyda. *Oychechakning rangi oqarib "darvish"ga qaradi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Mahkam ortiqcha sir berib qo'rganini sezib oqarib ketdi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Qizardi, bo'zardi va shunday bir qarash qildiki, mulla Nusrat qo'rqib ketdi.* S.Nazar, Yashil boylik. *Oymomo rangi bo'zardi, Oymomo yuzini yerga egdi.* T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. *Choyxonachi angrayib qoldi. Yuzlari bo'zardi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

OQARMOQ, O'NGIMOQ. Tashqi ta'sirlar natijasida rangi xiralashmoq; rangi o'chib ketmoq. **Oqarmoq** va **o'ngimoq** nutqda faol qo'llanadi. **O'ngimoq** so'zi **eskirmoq** ifodali ma'no qirrası bilan ajralib turadi.

Boltaboy ota o'g'illaridan kelgan xatni yuvilaverib oqarib ketgan ko'k satin belbog'iga tugib yuradi. S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. — *E, qo'ying, sun'iy charm yozda — o'tobda oqarib, qishda namdan shalvirab qoladi.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. - *To'q yashil movut pidjagining yoqasidan galstuksiz ko'ylagi oqarib ko'rinadi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Ustidagi gimnastyorkasi yomg'irda yuvilib, o'tobda o'ngib, oqarib ketgan edi.* I.Rahim, Chin muhabbat.[Chol] *To'nini yechib, astarini ag'dardi-da, qatlab ustiga o'tirib oldi, kashtalari o'ngib ketgan belbog'ining uchini terlagan peshonasiga bosdi.* M.Safarov, Ayrishox. *Qo'lingiz pul ko'rsa, manavinaqa tiviti to'kilgan kamzir, guli o'ngib ketgan ro'molda yurishdan qutulasiz, andak odambashara bo'lasiz.* A.Obidjon, Mo'ttivoymisan, Mittivoymisan.

OQIBAT, NATIJA, YAKUN. Harakat-holat, voqea-hodisadan kelib chiquvchi yakuniy holat. **Natija, oqibat** so'zlari barcha uslublarda keng qo'llanadi. **Natija** so'zi ko'p hollarda aniq narsalarga nisbatan qo'llanadi. Shu sababli uning o'rnida har doim ham **oqibat** so'zini ishlatib bo'lmaydi (Masalan, *imtihon natijasi, qon tahlili natijasi* deyish mumkin, lekin *imtihon oqibati, qon tahlili oqibati deb bo'lmaydi.*) **Yakun** mazkur ma'noda kam qo'llanadi.

G'irt mast. Bilagida igna izi bor. Hozir qon olishdi, natijasini aytib qolishadi. T. Malik, Shaytanat. - *Hali insho nima bo'lishini ayting! Domla og'rib qolgan ekanlar. Bugun kelibdilar. Natijasini tushdan keyin eshittirishar emish, — dedi u va qo'lidagi kichkina soatiga ko'z tashlab qo'shimcha qildi. —*

Nima bo'lsa ham tezroq eshittirisha qolishsa bo'lardi. O. Yoqubov, Muqaddas. *Bu ishni xaspo'shlashga intilish yaxshi natija bermadi, adolat qaror topganday tuyuldi.* T. Malik, Shaytanat. *Qora dorining topilishi ham shunday "xolis xizmat" oqibati bo'lishi mumkin.* T. Malik, Shaytanat. *Men katta bir adolatsizlik va insofsizlik qilib qo'rganimni bo'ynimga olaman, ammo, birinchi dan, buning oqibatini yaxshi o'ylamagan bo'lsam, ikkinchidan, meni bunga majbur etgan narsa... Muqaddas edi-ku, sevgimiz edi-ku!* O.Yoqubov, Muqaddas. *U menga qandaydir taqiqlangan daraxt haqida so'zlab berdi: "O'shanda men ham siz kabi hali buning oqibati nima bo'lishini bilmasdim".* O. Yoqubov, Muqaddas. *Ko'p tortishuvlardan keyin yashirin ovozga qo'yilib, Mansur mesh 17 foiz, Suyun burgut 73 foiz ovoz olibdi. Bu yakun e'lon qilinganda butun ahli sovhoz o'rinlaridan turib, yarim soat qarsak chalishibdi.* O. Yoqubov, Adolat manzili.

ORIQ, OZG'IN, QILTIRIQ, DIRDOV, IPILTIRIQ, RAMAQIJON, LOG'AR. Eti qochgan, vazni me'yordan kam. **Oriq** odam va hayvonlarga nisbatan qo'llanadi. **Ozg'in** va **ramaqijon** asosan odamga nisbatan qo'llanadi. **Dirdov** ot, qo'y, buzoq kabi hayvonlarga nisbatan qo'llanadi. **Ipiltiriq** odam bilan birga o'simliklarga nisbatan ham qo'llanadi. **Qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon** so'zlarida oriqlik belgisi kuchli ifodalanadi. **Ramaqijon** so'zining ma'noviy tarkibida mavjud bo'lgan 'holdan toygan' semasi mazkur so'zning ekspressivligini ta'minlagan. **Dirdov, ipiltiriq, ramaqijon** so'zlarida so'zlovchining kamsitishdan iborat shaxsiy munosabati anglashiladi. **Log'ar** eskirgan.

Bu tashlandiq qo'radagi qarovsiz oriq otlar orasida otasining Chopdor va Chontor degan otlari ham yurar edi. U.Hamdami, Ko'zini ochib yumgan odam. - Kecha ov qilib yursam, ulardan ikkitasi qarshimdan chiqib qoldi: bittasi vajavang semiz, boshqasi chakachak oriq. A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola. - Jannat xola oriq barmoqlari bilan o'g'lining yuzlaridan silab, ko'zlarinni bir nuqtaga tikkanicha ovoz chiqqazmay yig'lardi. S.Ahmad, Ufq. Eshik oldida qotgan o'rta yosh, ozg'in, novcha kishi yarim o'girilib, yonidagi xotinini tashqariga chiqartirdi. O.Muxtor, Mezon. So'zlarinigizni jon qulog'imiz bilan eshitdik, xo'p dono yigit ekansiz, otangizga balli, — dedi ozg'in qariya. T.Malik, Devona. Kampirning ketidan o'rta yashar ozg'in bir erkak yugurib chiqdi-yu, otliqlarni ko'rib, qo'rqqanidan bir lahza ag'rayib turib qoldi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Go'dakligida to'yib ovqat yemagan o'g'il bolalar katta bo'lganda nimjon, qiltiriq, lanj, og'ir ishga yaramaydigan bo'lib qoladi, deganding. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. Hamon bidillayotgan Bonu, yaltiroq tuflisini silkitayotgan qiltiriq xotin, kostyumining qo'yni do'ppayib turgan yana allaqanday odamlar oldidan o'tguncha nafasi qaytib ketdi. O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. Sumakday bo'lmay o'lsin, namuncha qiltiriq bu? Sh.Boshbekov, Temir xotin. [Soliya amma kelini haqida:]Ha, ishlab nima ham topardi. Yarim oylik moyanasiga sakkizta dirdov qo'y ham kelmaydi. S.Ahmad, Gap. Bunaqa dirdovlarning tog' tugul, oddiy yo'lda ham dadil yurishiga ishonch yo'q. Q.Kenja, Ko'ktoy. Yenglari tirsakka qadar shimarilib, ariq bo'yiga cho'nqaygan Mirzaxo'ja hojimning xayoli qirg'oqdagi maysalaru sambitgullarning oqish-ipiltiriq ildizchalarini o'pib o'ynoqlagan suv ham qolib, tamomi bo'lak narsaga qochgan edi.M.Mansur, Judolik diyori. Biroq uloqlar ichida uloqdan ham kichik jussali, yuziga yillarning beshafqat muhri bosilgan hamda yolg'izlikka mahkum etilgan, har bir soniyaning musibat-u anduhli asorati porlab turgan kichkina, jimitday, sochlari oppoq bo'lib qolgan kampirni ko'rishgach, negadir botinisha olmadi – ular qarshilaridagi ramaqijon kampir bilan devday Zamon otboqarni qiyoslashib, o'z shubhalaridan uyalib ketishdi, chog'i, indamay iziga qaytdilar. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Qishdan ramaqijon bo'lib chiqqan dehqon sho'rlikda don qoptimi? I. Rahmon, Kelin. Ayniqsa, qo'llari ajoyib ekan, bilagi uzun, ammo kafti juda kalta, barmoqlari ramaqijon. N.Jo'rayev, Kibor yoxud ikkinchi qiyofa. Yopirilib pashsha, chivin, tirnadi log'ar badaning. Qimir etarga holing yo'q, yelpig'ich duming, sigirim. "Mushtum".

ORQA, KET, ORT. Odam yoki narsaning yuz, bet, old tomoniga qarama-qarshi bo'lgan tomon. Bu so'zlar mazkur ma'noda kelganida egalik qo'shimchasi va makon-zamon kelishliklari bilan turlanadi. **Orqa** keng qo'llanadi. **Ket** so'zlashuv uslubida faol ishlatiladi. **Ort** badiiy uslubga xoslangan.

[Kampir choliga:] *Yo'q, avval menga bir aytib ko'ying, qachongacha boladek orqamdan ergashib yurasiz! Dastingizdan na kurortga borolaman, na qurultoyga. S.Ahmad, Suyanchiq. Bu jangchi, qahramon otning qabri. U frontda yaralangan egasini olib ketayotgan sanitar vagoni orqasidan yugurib, poyezd tezlab ketganda yetolmay, yo'lda qolib ketgan. S.Ahmad, Ot bilan suhbat. Qobil bobo, qo'l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig'lar edi. A.Qahhor, O'tmishdan ertaklar. Shu payt eshik taraqlab ochiladi, qopini sudrab, jahl bilan Su laymon ota kiradi. Ketidan hovliqib sekretar kiradi. O'.Umarbekov, Qiyomat qarz. Pishak suyuqoyoq ayolday gap. Kim qornini to'yg'azsa bo'ldi, pish-pish, deya boshini silasa bo'ldi, ketidan ergashib keta beradi. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. Dadamning ortidan saf tortib, qo'ng'iroq ovozigga quloq solganimizcha buloq bo'yidagi tog'olcha ostidan o'tib borayotgan paytimizda "zuv-v" etgan tovush eshitilib qoldi. A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. O'zi «onang buzuq», dedi, masxara qildi, – dedi Xolmat onasining ortidan yig'lab... N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Qaramayman ortingdan men ham, Tezroq bundan ketmoq tilagim. M.Yusuf, G'urur.*

ORTIQ, OSHIQ, ZIYOD(A). Muayyan miqdordan yoki me'yordan ko'p. **Ortiq**, **oshiq** so'zlari **ziyod** so'ziga nisbatan faol qo'llanadi. **Ziyod** so'zida kitobiylik aniq sezilib turadi.

Bunda ikki yuzdan ortiq bola dam oladi. Biri cho'milib shamollasa, boshqasi parmanchak teraman deb oyoq-qo'lini timdalatib keladi. S.Ahmad, Zumrad. Ayting, yana ne qilayin imkondan ortiq, Hammasini qo'yib bering, eplayman o'zim. F.Afro'z, Men ayolman. Lekin har kecha ikki-uch soatdan oshiq ishlatmang! S.Nazar, Yashil boylik. Qarasa, o'z mo'ljalidan oshiq, 53 pilla poya bo'libdi, uzoqdan oqarib yo'lovchi-yu, sayyohlarni o'ziga chorlab turibdi. Joyida! A.Muxtor, Qora

domla. ...uydagi to'rt mingdan oshiq kitoblarimning hammasini bir boshdan titib, o'sha kitobni axtardim, topilmadi. A.A'zam, Soyasiniyo'qotgan odam. [Hojiakbar] Shayxov ZO dan ziyod ilmiy-fantastik hikoyalar, qissalar va romanlar muallifi."O'zME". Meni hatto mendan ziyod sevar eding, Meni desa joningni ham berar eding. I.Mirzo, Meni desa...

ORTMOQ, YUKLAMOQ, BOSMOQ, JOYLAMOQ. Yukni biror transport vositasining ustiga yoki ichiga joylamoq. **Ortmoq, bosmoq** shaxs va narsalarga nisbatan qo'llanadi. **Yuklamoq, joylamoq** esa faqat narsalarga nisbatan ishlatiladi. **Bosmoq** so'zi odamga nisbatan qo'llanganda 'majburan' ma'no qirradi, narsalarga nisbatan ishlatilganda esa 'ko'p miqdorda', 'zich holda' ifodali ma'no qirralari ham anglashiladi.

Qoplari kichkina-kichkina. Bir tuyaga elliktasini ortib kelishadi. O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. *Kofirunga u yog'i – Xorazm, bu yog'i – Farg'ona, Samarqanddan ming-minglab navkarlar kelib qo'shildilar, Qobuldan esa (Kofirun adog'i—dasht ochiq edi) qurol-yarog' ortilgan tuya karvonlari kelardi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. *O'n kundan keyin esa Sadirqimorbozning uyi sotiladigan bo'ldi. Uning xotini uyga xaridor chiqishini ham kutmay: «Sadir akamlar katta shahardan joy olibdilar», deb ko'ch-ko'ronini yuklab jo'nab ketdi.* T.Malik, Shaytanat. *Traktorlar gurullab-varillab yovvoyi jiyda, changal, turong'u, tol, do'lana singari buta va mayda daraxtlarni tag-tomiri bilan qo'porib tashlar, kesilgan katta daraxtlarning to'nkasiga zanjir bog'lab tortar, arra, bolta ko'targan odamlar bularni kesib-qirqib aravalarga yuklashar edi.* A.Qahhor, Tanlangan asarlar. *Ko'k shapka kiygan temiryo'l xizmatchilari chamadon yuklangan aravachalarini gizillatib o'tib qolishadi...* O'.Hoshimov. *Bahor qaytmaydi. Uning issiqda ham tulki teridan tumog', oyogida bashang etik kiyganidan So'htu no'yon deb o'ylashdi. Dam oyog'idan, dam yelkasidan tortib, sudrab, baqirtirib, kemaga bosishdi.* Mirmuhsin, Temur Malik. *Yelkasidagi xurjinni eshakka bosib, indamay ketaveribdi.* O.Qo'chqorbekov, Kulgi darg'alari. *Ikki militsioner ikki yonimdan keldi. Qo'llarimni ketimga qayirdi. Ketimga bir tepdi. ...Maydagina mashinaga bosib jo'nadi.* T.Murod, *Ot kishnagan oqshom. Sohibqiron. Bugun tunda hujumga bormaydiganlar qurol-yaroqlarni, xo'raklarni kemalarga joylab qo'yishlari lozim, – dedi Shohmurod Ko'histoniy atrofidagi qilich osgan sarbozlarga.* Mirmuhsin, Temur Malik.

OSMON, KO'K, SAMO, FALAK, GARDUN, FAZO, SIPEHR, MI(Y)NU. Yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turuvchi havo qatlami. **Ko'k, samo, falak, gardun, fazo** kitobiy. **Ko'k, samo, falak, gardun** so'zlari badiiy uslubga, xususuan, she'riy nutqqa xoslangan. **Gardun** so'zida eskilik bo'yog'i bor. Asosan "makon" va "koinot" ma'nolarini ifodalovchi **fazo** so'zi bu ma'noda kam qo'llanadi. **Sipehr, mi(y)nu** eskirgan, hozirgi o'zbek adabiy tilida deyarli qo'llanmaydi.

Narida bosh ko'targan butalar o'zidan tig'iz o'ram hosil qilib, javlon urib o'sib yotar, lojuvard osmon esa har galgidan tiniq va musaffo, feruza bulutlar esa falakda orom olib suzib yurardi. Sh.Ulug', Jayhun epkinlari. *Shu so'zlarni aytayotganda, yaraqlagan osmonga ilkis qora bulut chiqqandek, Binafshaning chehrasi bir zum ma'yuslandi.* A.Ko'chimov, Binafsha. *Tiniq buloqlarday pok bo'lar bari, Orzulari mo'l-u yo'q hunarlari, Moviy osmonlarning oq turnalari — Shoir bo'laman deb kelgan bolalar.* S.Sayyid, *Shoir bo'laman deb kelgan bolalar. Qator orasida ketmon urayotgan chiroyli, kichik yuzli Qumri ko'kka tikildi: — Yog'adi, attang!..* S.Nazar, Yashil boylik. *Uchar likopcha shiddat bilan yuqoriga suzdi, hovli ustida xayrlashganday bir aylandi, so'ng besas samoga ko'tarilib, izsiz g'oyib bo'ldi.* A.Yo'ldoshev, Samo elchisi. *O'rnimdan sapchib turib, yugurgim kelar, ovul chetidagi keng dalaga chiqib yuragimga g'ulg'ula solayotgan tashvish bilan quvonchning siri nimadaligini yer va samodan qichqirib so'ragim kelardi.* Ch.Aytmatov, Jamila. *Har vaqtdagidan ko'rkamroq, tiniqroq ko'ringan to'lin oy samoning bir nuqtasida qotgan kabi...* Oybek, Qutlug' qon. *Jahonning mehri ikkidur: biri – sensan, biri – oftob, Tarozu pallasi ikki: biri Yerdur, biri gardun.* E.Vohidov, Rubobim tori ikkidur... *Yulduz sachratib gardun Pasayar. Torayar tun...Ruhda notanish mazmun –Qayta bo'lyapman bunyod.* U.Azim, Tun – erimas... *Osmon-u falakda yakka-yolg'iz to'rg'ay nola chekdi.* O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Olam ko'm-ko'k. Falak zangori.* T.Murod, *Yulduzlar mangu yonadi. Ha, bukun elda ham, dilda ham bahor, Shodlik xandalari falakka tutash.* E.Vohidov, *Sakkizinchi mart. Daka varrak tiniq zangori fazo Tubiga intilar, sho'ng'ir naq xayol. Zulfiya, Nevaramga. Polvonlar qadamiga osmon poya, Jaranglar bosh ustida nilgun fazo. G'.G'ulom, Stadion oqshomi. O'rtanur, ey voiz, ohimning*

sharoridin sipehr, Ne so'ray, do'zaxqa mundoq bir sharar bo'lg'aymu deb. Alisher Navoiy. *Gar egilsa qomatim yo'qlug' yukidin, qilma ayb, Kim sipehr uzra bu og'ir yukin qo'ysang xam bo'lur.* Alisher Navoiy. *Uyolib ter oqizdi anjum emas, Shomi hajrimda torami miynu.* Alisher Navoiy, *Badoyi' ul-bidoya. Jomi minoni ilikdin qo'ymakim, bu shevasiz, Kimsa xushhol bo'lmadi bu toqi minu ostida.* Alisher Navoiy, Navodir un-nihoya.

OSON, YENGIL, O'NG'AY. Qiyin, murakkab emas. **Oson** va **yengil** narsa va harakat-holatga nisbatan ishlatiladi. **O'ng'ay** asosan hatti-harakatga nisbatan qo'llanadi.

Ayol qalbidek yumshoq, har narsani oson kechiradigan qalb bo'lmaydi. S.Ahmad, Ufq. *Lekin ustoz Michurin aytgandek, bog' yaratish oson emas.* S.Nazar. *Yashil boylik. Sharafatga ota uyidan chiqib ketish oson bo'lmadi. Bu ishning butun og'irligini yo'lning yarmiga yetganda sezdi.* S.Ahmad, *Seni izlab. "Yana nimani boshladingiz?" deb so'raydi Tohir aka o'tirgan joyida yengil jismoniy mashqlar bajarib.* N. Boqiy, *Haq so'z xizmatkori – Tohir Malik haqida. Yengilroq bir ish bersak-chi, — degan edi sekretar, opa xafa bo'lib ketdi. — Men hali holdan toyganim yo'q. Keksayganim ham yo'q. Nega yengil ishni qilar ekanman?! Sh.Xolmirzayev, Kechagi kun kecha. Bir nafas cho'nqayib o'tirdi, tag'in olis bir qadrdon narsasini qo'msagandek uvladi va so'qmoq bilan chopa ketdi. Yo'l nishab edi, yurish o'ng'ay.* Sh.Xolmirzayev, *Uchinchi hamroh Yugurishga o'ng'ay joy ham umumiy mashina yo'li, har zamon patirlab biror traktor yoki mototsikl changitib o'tib qolardi.* S.O'nar, Bibisora.

OT, NOM, ISM. Shaxs yoki narsalarga atab qo'yiladigan ot. **Ot** shaxslarga va jonli narsalarga nisbatan ishlatiladi va keng qo'llanadi. **Nom** asosan shaxs va narsalarga nisbatan qo'llanadi va so'zlashuvga nisbatan kitobiy uslublarda ko'proq uchraydi. **Ism** faqat shaxsga nisbatan qo'llanadi.

Bola raisning o'g'li bo'ldi. Bo'ri polvon atayin shu bolani yetaklab keldi. Otingiz nimaydi, polvon? — dedi. — Shukuy! T. Murod, *Yulduzlar mangu yonadi. Bizniki o'zi ana shunday baynalmilal oila! Asl otimni aytaymi? Gulgun! Buvam qo'yganlar. U kishi meni Gulgunoy deb atardilar.* E. A'zam, Shovqin. *[Mirzakarimboy:] Oting nima jiyan? -Otim Yo'lchi.* Oybek, *Tanlangan asarlar.* Yaxshi qiz, *kechirasiz, otingizni bilmayman, siz xotirjam bo'ljg, biron joyi bir nima bo'lsa, o'zim tuzatib beraman.* S. Ahmad, Ufq. *-Ha, faqat nomingiz bor. Gapimdan ranjimang, yolg'iz siz emas, hammangiz... birsiz... Aslida erkak zoti qolmagan. Hammayoqni xotinchalish bosib ketgan.* T.Malik, Shaytanat

.Qog'ozga Gulnor bilan Yo'lchining nomlarini yozardim, aslida esa o'z muhabbatimni hikoy a qilardim. Oybek, *Qutlug' qon.- Og'ayni, tanishib olaylik, ismingiz nima edi?— Elchin bu yigitni avval yaxshi tanigan-u, shu damda ismini unutib qo'yganday so'radi.* T. Malik, Shaytanat. *Raqam yoniga mahbusning ism va familiyasi qayd etib qo'yilgan edi.* S. Ahmad, Sarob. *Ha, mana bizning fakultet!.. Ko'zlarim uzun ro'yxatga qadaldi. O'z ismim va familiyamni q idira boshladim.* O. Yoqubov, Muqaddas.

OTA, DADA, ADA, PADAR, QIBLAGOH. Farzandli, bola-chaqali erkak (o'z bolalariga nisbatan). **Ota, dada** adabiy tilda ham, shevalarda ham qo'llanadi. **Ada** shevaga xos so'z. **Padar** va **qiblagoh** asosan badiiy va publitsistik uslublarda qo'llanadi. **Qiblagoh** so'zi ma'nosidan otani ulug'lashdan iborat ijobiy munosabat anglashiladi.

[Mirzo Ulug'bek:]Lekin yolg'iz tilagim: ilm yo'lida otang qilgan ishlarga, uning shogird va ustodlariga tegmagaysen. Tegsang... ota qarg'ishiga uchrab toabad badnom bo'lursen!.. Ota rozi – Xudo rozi, yodingda bo'lsin: al qasos-ul minalhaq! O.Yoqubov, *Ulug'bek xazinasini.* *Otasi uni hech qachon urmagan, hatto chertmagan ham, lekin qattiqroq gapirganda, u bo'ynini qisadi, yelkalarida titroq turadi.* A.A'zam, *Oyning gardishi. Otasi u qada, kishi yuragiga vahm soladigan haybatli, devqomat emas, hamma qariyalarga o'xshagan oddiy mo'ysafid, faqat bo'yi balandroq, yoshi oltmishdan oshgan bo'lsa-da, qomatini tik tutib yuradi.* A.A'zam, *Oyning gardishi. Ertalab oyim: «Tur, tur tezroq, dadang kelsa nah o'ldiradi!» — deb ustimdan ko'rpani tortib tishladi. Men uyquli ko'zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» — deb so'ragan edim, oyim: — Esonboyning janozasida! — deb javob berdi.* A.Qodiriy, *Uloqda. Po'lat ichkariga, o'z xonasiga kirib, yechindi, yuvinib, uy kiyimlarini kiydi va adasi yoniga chiqdi.* O'.Umarbekov, *Mo'jiza. Adamga telefon*

qilamiz! Rahmat, deymiz! Rahmat, ada, haqiqatni tiklashga yordam berganingiz uchun ming rahmat! O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. [Mirzo Ulug‘bek:] Bu suhbatdan yolg‘iz muddaom – otalik nasihatimni bermoq edi. Taassuflar bo‘lg‘aykim, senga padar nasihati emas, oltin kerak ekan!..O.Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. Shahzoda gapini bo‘lmoqchi ekanini ko‘rgan Mirzo Ulug‘bek keskin qo‘l siltab: “To‘xta!” deb buyurdi. – Ota so‘zi amri vojib, deb bilursenmi, yo‘qmi – ixtiyor senda. Va lekin so‘nggi nasihatimni eshit, xohla o‘z padaringni qatl et, xohla Movarounnahr sarhadidan haydab, darbadar qil – boz ixtiyor sendadur. O. Yoqubov, Ulug‘bek xazinasi. Shayxning yuragi sidirildi, keksa ko‘ngli g‘alayon qildi. Isfijob uning ota yurti, kindik qoni to‘kilgan manzil. **Qiblagohining** turbati, onaizorining bir siqim turpog‘i Isfijobda. Necha yildirki, ziyoratiga yetolmadi.S. Siyoyev, Ahmad Yassaviy. Andak shirakayfiroq muallif ushoqqina muharririni ter hidi kelib turgan haybatli bag‘riga bosadi. Kun bo‘yi moshinka chiqillatish asnosi necha bor sho‘rlik muallifning «qo‘llarini sindirib», yetti pushtining go‘riga g‘isht qalab charchamagan muharrir — mehrga zor banda xuddi umrida ko‘rmagan **qiblagohi** yo jigargo‘sha og‘asining isini tuygan kabi raisning keng-mo‘l, sermuruvvat bag‘rida erib ketadi.E.A‘zam, Yozuvchi. Otaning bir nomi **qiblagoh**, derdi onasi, uzun tunlari ertaklar, dostonlar aytarkan. Ota rozi — Xudo rozi, Ota o‘tirgan uyning tomiga chiqib bo‘lmaydi, deb g‘amgin bo‘lib qolardi.S.Tursunov, Bir poy kavush.

OTMOQ, ULOQTIRMOQ, IRG‘ITMOQ, ITQITMOQ. Qo‘lidagi narsani qo‘lni siltalab yoki qulochkashlab, keskin harakat bilan uzoqqa yoki mo‘ljaldagi joyga tashlamoq. Mazkur so‘zlarning barchasi adabiy tilda qo‘llanadi. **Itqitmoq** ko‘proq shevalarda ishlatiladi. **Uloqtirmoq** da sinonimik qatordagi boshqa so‘zlar nisbatan harakat kuchliroq ifodalanadi.

Lekin Begimqul qo‘lini bir siltab, Nilufarni otib yubordi. O.Yoqubov, Billur qandillar.- Jamila bora-borguncha Doniyorga «ilib ol!» deb olma otib bordi. Ch.Aytmatov, Jamila. Nimalar qilib qo‘yding?.. Ol xatni, yirt, uloqtir! Sh.Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor. Hozir qaytarib ol! Yo bo‘lmasa, o‘sha emanpasingni ko‘rsatib qo‘yaman derazadan uloqtirib! O‘.Umarbekov, Qiyomat qarz. – “Yo‘qoling”, — baqirdim uning gapidan o‘zimni tutolmay va unga oldimda turgan piyolani uloqtirdim. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. Yigit to‘nini yeshib uyning to‘riga irg‘itdi, boshidan qalpog‘ini olib qoziqqa ildi. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar.Temur Malik jon holatda qichqirib, na‘ra tortib, orqasida iljayib turgan kallani itqitib tashladi. Mirmuhsin, Temur Malik. O‘rtog‘ing yaramasroq bo‘lsa, orani ochiq qilib qo‘yish oson – payt poylab turib, unga itqitilgan suyakni olib qochsang bas, sen bilan bir umrga salom-alikni yig‘ishtirib qo‘yaqoladi. A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. Rais oynadan sigaret qoldig‘ini irg‘itdi-da, orqaga suyandi. M.Hazratqulov, Ko‘kko‘l.

OVOZ, TOVUSH, UN, SADO, SAS, NIDO, SAZO. Gapirish, qichqirish, shivirlash, kuylash, sayrash vaqtida o‘pkadan chiqayotgan havoning urilishi natijasida tovush paychalarining tebranishidan yoki ikki jismning bir-biriga tegishidan hosil bo‘ladigan, nutq organlari orqali eshitiladigan fizikaviy hodisa. **Ovoz, tovush** so‘zlari deyarli barcha nutq uslublarida qo‘llanadi. **Un, sado, nido, sazo** so‘zlari badiiy uslubga, shuningdek, **un** so‘zi so‘zlashuv uslubiga ham xos. **Un** so‘zi faqat insonga nisbatan qo‘llanishi bilan ajralib turadi. **Sas** so‘zi shevaga tegishli, ayni vaqtda she‘rlarda yuqori poetik uslubni yaratishga xizmat qiladi. **Nido** so‘zida ‘muayyan kayfiyatni ifodalovchi‘ tarzidagi xususiy ma‘no qirrasini bor. **Sazo** kam qo‘llanadi.

Anchadan keyin, ko‘chki tinib, buloq boshida chang buluti bosilgach, sho‘x o v o z l a r, chinqirib aytilgan behayo so‘zlar, kulgi aralash baqiriq-chaqiriqlar eshitildi. A.Muxtor, Qora domla. O‘tgan gal ham shunday degansiz,— dedi ovozini pasaytib.— Kim urdi desak, xuddi bezabon, indamaysiz. A.Muxtor, Taqdir kimning qo‘lida. Meshpolvon «orqangga qara», deb qichqirmoqchi bo‘lgan ediki, yonginasida “tup” etgan tovush eshitildi. A.Obidjon, Meshpolvonning janrlari. Ichkarigi xonaning eshigi ochiq, undan bosiq yig‘i tovushi eshitildi. A.Muxtor, Taqdir kimning qo‘lida. Ularni qilday umid ushlab turar, dam-badam uzoq jim qolib, tiq etgan sadoga ilhaq, tepaga qarar, quloq osar edilar. A.Muxtor, Fan va Baqo. Qirq kun deganda Jayhunning Xorazm sohillarida Amir Temur lashkarlarining to‘zon bulutlari va suron sadolari osmonni tutdi. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen.—Oh!... Oh!.. Oh!.. - mutaassir bo‘lgan shogirdlarning ingroq saslari eshitildi. M.Ali, Abadiy sog‘inchlar. -Sas chiqarmoqqa qo‘rqaman –

ko'rib qolsa, "Davay, men cho'milaveray, sen shu yerga opkelib o'qib berasan!" degudek bo'lsa!..E.A'zam, Shovqin. Sas keldi, quloqqa ila olmadim, Men kimman, nedir ul-bila olmadim. So'ksalar, himoya qila olmadim— Unutib seni...O'. A'zam. Hayqiraman, Tog'lar bag'ridan Gumburlagan sado keladi, Ona-Yerning otash qa'ridan "O'g'lim!" degan nido keladi. E.Vohidov, Nido. Boshim uzra horg'in to'zigan Samovatdan bir nido kutdim. U.Azim, Saylanma. Xotinidan sazo chiqmagach, Sohib qori qo'lidagi sarpalarni Xolidaning boshidan oshirib, ichkariga otdi. I.Rahim, Chin muhabbat. Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan Tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo, Qo'yningda bir quchoq oq va nafis gul, Lekin ruhing to'la motam va azo. H.Olimjon, Ofeliyaning o'limi. Ishqiy tug'yonlarga qaynab yurakdan Chiqalmas bir tovush, bir sazo, bir un. H.Olimjon, Ofeliyaning o'limi.

OVORA, SARSON, SARGARDON. Muayyan maqsad yo'lida yoki biror sababdan darbadar kezish, bir joyda qo'nim topmaslik holati. Bu holat **sargardon** so'zida **ovora** va **sarson** so'zlariga nisbatan, **sarson** so'zida **ovora** so'ziga nisbatan kuchliroq ifodalanadi.

Jon degay, o't oraman, tan aytadir, ming poraman, To muhabbat dashti bepoyonida ovoraman. E.Vohidov, Navoiy g'azaliga muxammas. Qismat kimni siylar, kimni kamsitar, Kim obro' - martaba istab ovora. I.Mirzo, Singlimga. Sevgi asrorini izlamay qo'ying, Topilmas narsani qidirmoq nechun? Muhabbat sirini bilolmay o'tgan Karbalo dashtida ovora Majnun. E.Vohidov, Sakkizinchi mart. "Ikkalamiz ham baxtsizmiz, ikkalamiz ham sarsonmiz", deb o'ylardi qorovul ko'zlarini chetga olib qocharkan... N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Xonavayron bo'lgan xalq kimga dodini aytishni bilmay sarson-u sargardon emish... M.Ali, Abadiy sog'inchlar. Bolaligim mening ortimdan Kezib yurar, hanuz sargardon. Chaqnoq ko'zi yalinar zimdan, Qaytaylik deb imlaydi nodon. A.Obidjon, Bolaligim. O'rmonlar bag'rida sayr etgan sayyoh, Changalzor qo'ynida sargardon ovchi, Mo'jaz boshpanani ko'rdingmi nogoh, Uni qoldirmishdir qay bir yo'lovchi. A.Oripov, Savob. So'z izlab sargardon, so'z ichra zorman.... Gapdon davralardan qochib ketdi til. B. Fazliddin.

OVQAT, TAOM, OZIQ, TOMOQ, XO'RAK, YEMISH, NE'MAT, YEGULIK. Iste'mol qilinadigan, odam, hayvon va o'simliklar uchun oziq bo'luvchi tayyor narsa. **Ovqat, oziq, xo'rak, yemish, yegulik** so'zlari barcha tirik organizmlar, jumladan, odamlardan tashqari hayvonlar, jonivorlar, o'simliklar ham iste'mol qiladigan narsani bildiradi. **Taom, tomoq** va **ne'mat** esa odamlar yeydigan narsaga nisbatan qo'llanadi. **Taom, tomoq, yegulik, yemish** so'zlarida odamning yeyishi uchun maxsus pishirilgan narsa ma'nosi aniq bilinib turadi. **Taom, ne'mat** so'zlari badiiy uslubga, **tomoq** so'zi so'zlashuv uslubiga xoslangan.

Ajabo, qorni ochmas edi ham, ustiga ustak bir lahza bo'lsin, nima yeyman, deb ovqat topish tashvishini chekmas edi ham. M.Ali, Abadiy sog'inchlar. Bir kuni uy bekasi mendan cholga kechki ovqatchiqarib berishni iltimos qilib qoldi. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. Ilgari bu pulni uning qo'liga berishmas, tegadigan maoshidan ovqati bilan kiyim-kechagiga bosib qolishardi-yu, qolgan ellik-oltmish so'mini uning omonat daftarчасiga o'tqazib qo'yishardi. O.Yoqubov, Billur qandillar. Tomiringiz betartib, notekis urmoqda, bugun yo ovqatni ko'p yeb qo'ygansiz, yo birov sizni xafa qilgan, ammo bilurman, taomni oz yeysiz, ikkinchi taxminim to'g'ri bo'lsa kerak. M.Osim, Ibn Sino qissasi. Akmalga dunyoda ivitilgan zog'oradan lazzatliroq taom yo'qdek tuyulardi. O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. Suvon. Endi-i, mulla Qo'chqor, taom yeb yurgan joyimiz. Xudo xohlasa, hali ko'-o'p kelamiz... Sh.Boshbekov, Temir xotin. -\ U xush bir musiqa eshitgan, totli, to'yimli taomdan keyin uyquga moyil holatga tushgandek edi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Bir kunlik yo'lga chiqsang, bir haftalik oziq ol! Tomiringiz betartib, notekis urmoqda, bugun yo ovqatni ko'p yeb qo'ygansiz, yo birov sizni xafa qilgan, ammo bilurman, taomni oz yeysiz, ikkinchi taxminim to'g'ri bo'lsa kerak. M.Osim, Ibn Sino qissasi.

Maqol. Yozning yozig'i – qishning ozig'i. Maqol. Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz kechira boshladi: Otabeklar nega qamaldilar, qanday gunohlari bor ekan? A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Cho'loq turnaning mayda shag'al toshchalar ustidan o'tishi ham mashaqqatli bo'ldi.Nihoyat, o'zini o'nglab, ne bir his-sezgi bilan quruq yerga tumshug'ini urdi. U ovqatga muhtoj — yangi olamda xo'rak topish shu tarzda sodir bo'lishini tuyg'u bilan tuygan edi. Sh.Xolmirzayev, Cho'loq turna. Tomoq tomoq emas, tomoqdan o'tgani tomoq. Maqol. Tomiringiz betartib, notekis

urmoqda, bugun yo ovqatni ko'p yeb qo'ygansiz, yo birov sizni xafa qilgan, ammo bilurman, **taomni** oz yeysiz, ikkinchi taxminim to'g'ri bo'lsa kerak. M.Osim, Ibn Sino qissasi. -Boshimga og'ir musibat tushdi... – dedi dehqon ho'ngrab yig'lab, – kecha chaqalog'imni beshikka belab, onasi bir muddatga bizning yonimizga xo'rak olib ketgan edi... Mirmuhsin, Temur Malik. Bahor. Dala. Qandaydir go'zal o'tloq. Chetroqdagi stolda har xil yemish va ichimliklar. O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. Xudo har jonivorni o'z rizqi- ro'zi bilan yaratadi. Ot bitdi — qanot bitdi. Yemish topiladi. T.Murod, Ot kishnagan oqshom. Yemish izlab sarson kezmaydilar ham. Hamma narsa muhayyo! T.Malik, Davron. - Shuning uchun chiqargan yog'ingda baraka yo'q! – jerkidi yog'chi va biroz sukut qilgandan so'ng, – Ollo deyaver, u dunyoda mo'l-ko'l ne'matlarini ko'rsatadi, – dedi. Oybek, Qutlug' qon. Bir necha qarindoshlarning titrab-qaqshab qilg'an ziyofatlari bilan “uydan uyga o'tib ne'matlar ichida suzib yurish” xayoli ham “bir xayol” bo'lib qoldi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Duxtir doktor juda ko'p **yeguliklarni** ta'qiqlab tashladi, go'sht, yog' yemasin, xamirli ovqat, non yemasin, eng yomoni yeydigan osh-ovqatlariga umuman tuz solinmasin, dedi. J.Ergasheva, Shom shafag'i jilvalar. Men o'sha kun, odatdagidek, tug'ruqxonaga **yegulik** ko'tarib bordim, bu, chamasi, o'g'lim tug'ilganining ikkinchi kuni edi, xotinim deraza tabaqasidan engashib **yegulikni** olar ekan, o'g'limga ism qo'yish lozimligini aytib qoldi. Sh.Hamro, Qaqnus qanotidagi umr.

OVUNMOQ, YUPANMOQ 1 Yig'idan to'xtamoq. **Yupanmoq** so'zi **ovunmoq** so'ziga nisbatan kam qo'llanadi.

- Mana, keldik. Rahmat. Shu yerda trolleybusga chiqamiz. – U o v u n i b q o l g a n o'g'ilchasini ko'tarib shosha-pisha mashinadan tushdi. O'. Hoshimov, Dunyoning ishlari. Shu bilan namozshomda ovqatga chaqirgani kirgan momom shiftning qiyshiq-qing'ir bololariga tikilgan ko'yi jon bergan bobomni ko'ribdi. Bu voqea juma kuni bo'lgan ekan. Bobom jonini kimga bergani haqida so'rayman, deb qarasam, haligina ovunib, ko'z yoshlarini artgan momom yana yig'lashga tushgan bo'ladi. M.Jumayev, Arilar ko'zyoshi. “Men yig'lamay kim yig'lasin” deb nomlangan latifada ham shunga yaqinroq manzarani ko'ramiz: “Bir oy ichida Afandining ham xotini, ham eshagi o'lib qoldi. Xotini o'lganida Afandi bir-ikki kun yig'ladi-yu yupandi...”. Otauli, Afandining yo'rig'i.

2 Biror ish bilan mashg'ul bo'lish natijasida noxush hissiyotlarni unutib xotirjam bo'lmoq, tinchlanmoq.

Bo'ri polvon endi orzu bilan ovundi: o'g'li Tilovberdi balog'atga yetyapti — ot o'rnini toy bosadi... T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. - So'laymon ota: bu gapi to'g'ri. Qo'ylardan qutuldim. Tashvishim yo'q. Lekin yuragim g'ash. Shu qo'ylar bilan ovunardim. O'.Umarbekov, Qiyomat qarz. - Haqiqatan, endi bu iztiroblardan foyda yo'q, vujudini qaqshatgan bu tizginsiz g'amni jilovlay bilmoq, nima bilandir ovunmoq kerak! O.Yoqubov, Billur qandillar. ...rostdan ham kotibni xuddi o'z jigariday to'yib-to'yib quchgisi, xuddi go'dakday og'ushiga olib ovuntirgisi kelardi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Yo'lchi bu gal ham kasalning ko'nglini ko'tarish uchun, unga taskin beruvchi umidbaxsh so'zlar aytdi. Shunday yupantiruvchi so'zlarni har kimdan eshita-eshita ularga e'timodi qolmagan va badani kundan-kun ko'proq erigan sari umidbaxsh so'zlarning shunchalik mo'lroq yog'ilgani uchun, bu so'zlarning ma'nosizligini anglagan Tohirjon kinoya bilan jilmaydi... Oybek, Qutlug' qon. Baxtli onlar umr tunida, yulduzlar kabi chaqnaydi, ular yurakka totli hasrat va yupanish bag'ishlab imlaydi. Oybek, Qutlug' qon

OVUNCHOQ, YUPANCH(IQ), ERMAK. Ovuntiradigan, yupanch beradigan narsa, odam, harakat-holat, hodisa. **Ovunchoq, yupanch(iq)** so'zlari shaxs, narsa va hodisalarga nisbatan qo'llanadi. **Ermak** so'zi esa asosan narsaga nisbatan qo'llanadi. **Ovunchoq, yupanchiq, ermak** so'zlari asosan so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarga xos. **Yupanch** shakli badiiy uslub, xususan, she'riy nutqqa xos ekanligi bilan ajralib turadi.

Yo'lchi o'zi uchun ovunchoq xayollariga berilib, sovuqni-da sezmay tanho yurarkan, Shoqosim chiqdi, ko'kka boqib, bo'g'iq tovush bilan “yohu!” deb qichqirdi-da, o'tin keltirish uchun qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Oybek, Qutlug' qon. Arab tili! Bora-bora gap nima haqtsa ketayotganini anglaydigan bo'ldim. G'ayrat qilsam, bu ketishda uch-to'rt kundayoq muqaddas kalomulloh tilini uncha-muncha bilib oladigandekman. Anjuman soatlari mashg'ulotim ham, ovunchoq-ermagim

ham shu bo'lib qoldi. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. Yupanch topoldingmi, dunyoga kelib, Ustoz yo shogirdan yoki tengdoshdan? A.Oripov. O'g'lidan qoraxat kelganidan keyin bechora o'n yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dog'ida ado bo'lay dedi. O'zi esa cho'p bo'lib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. Ermagi – choyxona. O'.Umarbekov, Choyxona . Domlaning birdan-bir ermagi, ovunchog'i mana shu bog', mana shu daraxtlar edi. E.A'zam, Yozuvchi.

OXIR, SO'NG, KET, OYOQ, ODOQ (ADOQ), NIHOYA, PIROVARD, INTIHO, POYON. Biror predmet, masofa, davomli hodisa, davomli narsalarning so'ngi, nihoyasi. **Oxir** keng qo'llanadi. **Ket, oyoq, odoq** kam qo'llanadi. **Nihoya, pirovard, intiho, poyon** so'zlari kitobiy. **Pirovard** so'zida 'natija' ifodali ma'no qirrasini bor. **Poyon** so'zi makonga nisbatan qo'llanganida 'chegara' dan iborat ma'no qirrasini ham reallashadi.

Qishning oxiriga borib, ikkalasi ham nihoyatda holdan toydi. A.Obidjon, Oxirgi sedanatut qissasi. Yozning oxirlarida eri uni o'zi ishlaydigan, imoratlar pala-partish, ham tartibli qurilgan katta shaharga olib bordi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Tangriqul bobo loysuvoq devorga suyanib bir lahza shiftga termildi. Baytni mulohaza qilib jilmaydi. Keyin kitobni ochib, qayta o'qishga tutindi. Mutolaa so'ngida tomoq qirib, sandal atrofida o'tirgan yaqinlariga qaradi. B.G'oziddinov, Tong va shom orasida. [Bobur Mirzo] Kech kuzakning rutubatli, sovuq izg'irinlari esa boshlaganda u uch oydan ortiq davom etgan qamal so'ngida – ochlik, miskinlik, xor-zorlik nihoyasida, yer yuzining sayqali bo'lmish shahri azim Samarqandni g'addor dushmani Shayboniyxonga tashlab chiqdi. Saltanat va harbu zarb borasida hali achchiq tajribalar orttirib ulgurmagani yosh hukmdor omon qolgap yetmish-sakson chog'li navkari bilan najot izlab ota yurti Andijonga otlandi. X.Sultonov, Panoh. — Podachi podaning oyoq tomonidan chang yutib, elan-qaran yurib kelayotgan sigirni tayog'i bilan ko'rsatib: "Anavi seniki", dedi. S.Anorboyev, Hamsuhbatlar U navbatchi ayoldan kalitni olib uchinchi qavatga chiqd-ida, borib adoqdagi eshikni ochdi. E.A'zam, Shovqin. — To'yxona qishloqning adog'ida bo'lgani bilan poyga yo'lini uzoq deb ham bo'lmasdi. R.Xolbek, Qora yo'rg'a. «Adog'i yo'q tuproq yo'ldan aravaga tushib kelganim yodimda, — derdi onam va shu zahoti ko'zlaridan duvullab yosh oqib ketardi. — Otam bilan onamni elas-elas eslayman...» X.Sultonov, Onamning yurti. Men Bag'dodda yashagan vaqtimda, toychoq, bir risola boshlab erdim, ash-shukrilillah, o'sha risolani bugun nihoyasiga yetkurdim... M.Ali, Abadiy sog'inchlar. Yashayverasan, yashayverasan, bu yashashning, qani, oxir — nihoyasi bo'lsa. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Anjuman nihoyasida o'zaro sovg'a-salom almashuv shunchalik avj oldiki, ulug' dohiy ziyoratiga quruq qo'l bilan borgan bizning delegasiya (tov. Baxtiyor va tov. men) xijolatdan qochishga joy qidirib qoldik. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar. Chumoli tinmay chiranaverdi va pirovardida, tuyqusdan sip-silliq orqasi yorildi, yoriqlaridan oqish-sarg'ish suyuqlik otilib chiqq boshladi, havoni chumoli zahrining o'tkir isini tutib ketdi. I.Sulton, Munojot. Hazrat bir xumcha musallasim bor, ozgina sabr eting... Bu dunyoning na ibtidosi va na intihosi bor... Mirmuhsin, Temur Malik. Xolalar goh "qog'ozga o'rab", goh ochiqchasiga shaddodlik bilan hamma gapni aytib bo'lishgan, aytgani boshqa gap qoldirishmagan edi.

Shu bilan hammasi poyoniga yetdi. Ra'no qiz – kecha o'z uyining yo'laklarida potirlab, jayronday chopib yurgan o'sha qizaloq bugun oyday kelin bo'ldi. I.Sulton, Onaizorim. Poyoni yo'q adirda bu on O'tlab yurar kirtillab bir ot. X.Davron, Yulduzlarni ko'kka sochdi g'ayb...

OXIRGI, SO'NGGI, KEYINGI. Narsa, voqea- hodisalar qatorining eng so'ngidagi. **Oxirgi** so'zi keng qo'llanadi. **So'nggi** kitobiy. **Keyingi** so'zi eng so'zi bilan birga kelganda "oxirgi" ma'nosi yana-da aniq ifodalanadi.

Nihoyat, oxirgi kunlardan birimidi, tushlikdan qaytayotib balki so'nggi bor omadimizni sinab ko'rmoq bo'ldik. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar. Oxirgi turishda obrezda yarim satil sovuq suvni boshidan quydi-da tandir biqiniga suyalgan lo'mni yelkasiga olib, chiqib ketdi. A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. Duch kelgan telefonni ermakka "buzib" yuraverdik Said Mahmudxon To'ra xufton namozidan so'ng, "Haj" surasining oxirgi uch oyatini ixlos bilan tilovat qildi. M.Ali, Abadiy sog'inchlar. Lekin Bobur so'nggi yillarda ko'p kasal bo'lib, juda ozib ketgan, jussasi xiyla kichrayib qolgan edi. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. U shod edi, jimjit

ko'chadan uyiga qaytar ekan, bir nimalarnidir xirgoyi qilar, Toshkentni so'nggi marta ko'rayotgandek, hamma narsaga suq bilan qarardi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Zaynab xola umrining so'nggi yillarini shu xonaga ko'chib chiqib o'tkazdi. O'.Umarbekov, Kimning tashvishi yo'q. Hikmatillo so'nggi yillarda dadasining qon bosimi oshib, tez-tez xastalanib yurganini bilar, lekin bu kasal bunday og'ir fojiaga olib keladi degan o'y yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi! O.Yoqubov, Billur qandillar. Keyingi ikki-uch yil ichida shu mamlakat fuqarosi va millat vakili sifatida meni xursand qilgan birdan-bir jihat bu tabiiy ravishda siyosiy plyuralizmning kuchaygani. Odamlar o'z fikrlarini erkin ayta olayapti. N.Eshonqul, Samimiyat va o'zaro yaxlitlikning yo'qligi – eng katta muammomiz”. Eng keyingi vidolashish kuni yetdi. A Qodiriy, O'tgan kunlar. Keyingi yillarda respublikamizda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bilan bog'liq qarorlar, farmonlar, farmoyishlar qabul qilindi. K.Matyoqubov, Gazetalar inqirozga yuz tutadimi?

OY, OYMOMA(O), QAMAR, HILOL Oy, oymomo, qamar oyning har qanday ko'rinishdagi holatiga, **hilol** esa yangi chiqqan oyga nisbatan qo'llanadi. **Oymomo, qamar, hilol** so'zlari ko'proq badiiy uslubga xos. **Qamar** she'riy nutqqa xosligi bilan farqlanib turadi.

To'lin oy juvon holicha yerga tegayotgan qizning ahvolini bir ko'ray deb naq deraza tepasiga sulohlik bilan qo'nib olgan. T.Malik, Shaytanat. Uning oy nuri yoritib turgan ko'zlari namdanmi, yo sevinchdanmi xuddi boyagi uzukning brilliant ko'zlaridek yaltirardi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Geyne aytganday, “osmonda osoyishta suzib yurgan oy notinch suvda akslanib to'lqinlandi, xolosmi?”. P.Qodirov, Uch ildiz. Go'dak ko'zlaridan qalqdi-da, to'lib Ko'z yoshi to'kildi, uni shimdi tosh.Unga ko'ksin tutdi nurga ko'milib Tunlari oymomo, kunduzi quyosh. -Opa, biz-chi oymomodan kulcha so'radik. – Tandirga yopilganidan, – qo'shib qo'ydi Shohruh. Sh.Rahimxo'jaeva, Kulcha tashlang, Oymomo. Bukun koinotda Shams – podsho, Qamar vazirdir. Oybek, Navoiy. Osmonimni obod qilgan qamar eding, Balolardan asraguvchi tumor eding .I.Mirzo, Meni desa... Ana, derazangga Qo'nibdi hilol. Boshingga egilib So'rmoqchi savol.E.Vohidov, Nido. Shomlari yulduz aro sohibi osmondir hilol, Menga shodlik, senga orzu, kimga armondir hilol. B.Mirzo, Hilol. Nur qo'ynida yonar falak ham, yer ham, Hilol ko'kdan pastga ohista suzar. O'ylayman, Hozir men darchani ochsam Kapalakday uchib kirar yulduzlar.E.Vohidov, Quyosh maskani.

OYLIK, MAOSH, MOYANA, MOHONA. Qilingan ish uchun beriladigan pul. **Oylik** bir oylik va umuman ish haqini bildiradi. **Maosh, moyana, mohona** umuman ish haqini bildiradi. **Oylik** va **moyana** so'zlashuv uslubida, **maosh** va **mohona** kitobiy uslublarga xoslangan. **Mohona** so'zi eskirgan.

Klaraning xabari yo'q, bugun men oylik oluvdim.— U cho'ntagidan pul chiqarib, dasturxon chetiga qo'ydi. O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. Buvim parranda fermasida ishlab oylik o'rniga tuxum bilan pati yulingan tovuq oladi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. O'zining do'q-po'pisalarini ishga solib ham inspektor qorovulni ko'ndirolmagach, oylik maoshidan yuborib turishga va'da qilib Omon Juma ayolni iziga qaytarib yubordi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. Sabridin maosh qo'liga tekkan paytdagi holatlarni ovoz chiqarib aytib eslayaptimi yoki xotini va bolalariga hisobot beryaptimi — tushunish qiyin edi. X.Do'stmuhammad, Ma, osh. Ilgari bu pulni uning qo'liga berishmas, tegadigan maoshidan ovqati bilan kiyim-kechagiga bosib qolishardi-yu, qolgan ellik-oltmish so'mini uning omonat daftarchasiga o'tqazib qo'yishardi. O.Yoqubov, Billur qandillar. Uxlaganingga qarab moyana to'lashadi azamatlar. A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi. Ma'mur. Voh, pul tutmayman emish. Do'xtirlik ham ish bo'ptimi? Har o'n besh kunda moyana poylab o'tirasiz. S.Ahmad, Kelinlar qo'zg'oloni. Nazarov. Ushalarga bo'lmay kimga bo'lardi? Moyana olganimda, bir siylab qo'ymasam bo'lmaydi. S.Zunnunova, Tanlangan asarlar. [Anvar]Uch-to'rt yillardan beri o'rdada mirzolik qilib, necha tillo mohona olar emish... Bu so'rashtirib bilishdan keyin Abdurahmonning ichi yana yonib ketdi... Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon. [Anvar] Ikkinchi yildan boshlab yetti tillo mohona bilan maoshliq mirzolar qatorig'a o'tdi. Mohonadan tashqari soliqlardan ham darxonliq qog'ozi oldi. Soliq (roman). A. Qodiriy, Mehrobdan chayon

OYNA, KO'ZGU, TOSHOYNA. Qarshisidagi narsalarni aks ettiradigan, inson o'z aksini ko'rish uchun foydalanadigan, orqa tomoni sirlangan maxsus shisha. **Oyna** barcha uslublarda teng qo'llanadi. **Ko'zgu** badiiy uslubga xos. **Toshoyna** so'zlashuv uslubida, shuningdek, badiiy uslubda ham ishlatiladi.

Men oyna oldida bitta-bittadan shlyapa kiyib ko'rdim. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Gavharning sumkachasini ochdi: Ro'molcha.* **Oynacha.** Pul. P.Qodirov, Uch ildiz. *Suluvko'z. Saroyga ot surib kelib, ko'zguga qaragam, rostdan-da lab ermas, cho'g' tegibdur yonog'imga.* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *Begimqul galstugini to'g'rilab, ko'zgudagi o'z aksini yana bir ko'zdan kechirdi-da, polda bodrab yotgan shisha siniqlarini patir-putur bosib, uydan chiqdi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Jamshid orqa tomonidagi o'tkir nigoh ta'qibini sezib, dam-badam ko'zgu orqali unga qarab olardi.* T.Malik, Shaytanat. *Eski toshoyna xira yiltiraydi. Toshoyna burchagiga qistirib qo'yilgan rasm oqarib ko'rinadi.* O'.Hoshimov, Dehqonning bir tuni. *Katta toshoynadan unga gaz masteri Begimqul emas, kamida fan kandidati, hatto yosh professorlarga o'xshab ketadigan, qaddi-qomati ketvorgan, salobatli va ayni zamonda xushsurat bir yigit mag'rur jilmayib qarab turar edi!* O.Yoqubov, Billur qandillar. *U [kelinchak] toshoyna oldiga o'tirib olib, sochlarini yoyib taradi, so'ng ko'ziga qora surma surdi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi.

OZGINA, BIR OZ, OZ-MOZ, PICHA, SAL, XIYOL, JINDEK (JINDAY, JINDAK), QITDAY, JICHCHA, ANDAK, GARTAK, ZIG'IRCHA, CHIZI. Narsa, vaqt, masofa, belgi, harakat-holatning miqdor-darajasi juda oz. Mazkur sinonimik qatordagi barcha so'zlar harakat-holatga nisbatan qo'llanishi bilan umumiy xususiyat kasb etadi. **Sal, xiyol** harakat, vaqt, belgining miqdor-darajasini bildirishi bilan bir-biriga semantic jihatdan yaqin. **Qitday, zig'ircha, xiyol, sal** so'zlari so'zlashuv uslubida keng qo'llanadi. **Gartak, jichcha** shevaga xos. **Chizi** juda kam qo'llanadi.

Safar bo'zchi tunovi kungi adabsizlikni taqsimning ko'nglidan chiqardim, deb mulla Abdurahmonning ko'zini uchratishka va ozgina bo'lsa ham taqsimdan minnatdorchilik olishg'a tirishar edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Oyimlar ozgina pul olib kelgan ekanlar, dir-dir titragan qo'llari bilan dadamlarga tutdi, dadamlar esa: – Bolalaringga yarat, Gulshan! – deb yolvorar*

O. Yoqubov, Muzqaymoq. *Anvar tumbochkani shu qadar zarb bilan mushtladiki, tagida ozgina choy qolgan stakan zirillab ketdi.* O'.Hoshimov, Uch xil odam. *Yaxshi oilaga kuyav bo'lg'anidek, shahardagi boshqa davlatmandlar bilan ham aloqa bog'ladi va ularning ziyofatlari vositasida ba'zi madrasalarning mudarrisalari, mukarrirlari bilan ham tanishdi, qisqasi, biroz burni ko'tarilayozdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Sarosimasi bosilmagan Boshliqqa bu iltimos ulug' bir lutf bo'lib tuyulib, xona eshigini ochib, biroz ta'zim qilgan holda "marhamat", dedi.* T.Malik, Shaytanat. - *Sizga baribir emasmi? – Klara hamon uning qo'lini qo'yib yubormas, oydinda chehrasi biroz rangsiz, ammo jozibali ko'rinardi.* O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Mavlono qovuni esa, aksincha, hali biroz xom, pishishiga picha bor ekan...*M.Ali, Abadiy sog'inchlar. *Nihoyat, Ibrohimbek: - Janob posho, so'zlarinigizni oz-moz tushundim, – dedi.* Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. - *Men pul beray, shu atrofdan oz-moz durust, oyoqqa ilinadigan bir narsa topib bering, – Yo'lchi murojaat qildi Qora Ahmadga.* Oybek, Qutlug' qon. — *Ana bu boshqa gap, tovarish Erkin aka! — deya maqtadi meni tovarish Yak, siyosiy ongim picha oshganidan chiroyi yorishib.* E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. - *Mehmon miltiq doridan pichasini yoqib, usti qizil va ichi oq chiroyli pistondan bittasini chaqib ko'rsatdi.* A.Qahhor, O'tmishdan ertaklar. *Qani esa ketdik, — dedi Chori gapni kesib. – Biron joyga borib picha otamlashamiz.*M. Hazratqulov, Chiroq o'chmagan kecha. *So'ng qo'shib qo'yadi: - Shu-u bu yil uzumning sal cho'g'i pastroqmi deymen, xotin?* N. Norqobilov, Ayriqliq quvonchi. *Yo'q, xayriyat, sal kunda odamlar insofga kelishdi, cholning ishi yengil bo'lib qoldi.* A.Qahhor, Dahshat. *Uning sal narsaga qizarishi ham, qizlardek tortinchoqligi ham, chiroyli chehrasi ham ko'pincha Alimardonning jig'iga tegardi.* O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. *Eshoni Sudurning oppoq jelakda, oq dastorda ko'rinishi, xiyol cho'ziq, ammo iyagi to'rtburchak, sergo'sht yuzi, bir oz chuqur va mungli ko'zlari...* Sh.Xolmirzayev. *Maydagina eshakdan yiqilsa, xiyol vaqt qimirlamay yotadi.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom. *Bu hol uni jindek*

ranjitdi, u o'z yulduzi quyoshdek bo'lishini istardi. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. Siz hammasini jindek-jindek tatib ko'rib oxiri og'zingizga yoqqanini olib qolasiz. S.Ahmad, Kelinlar qo'zg'oloni. Sizdan yashiradigan qitday sirim bo'lsa til tortmay o'lay, ayting. S.Nazar, Yashil boylik. Nurining harakatida agar qitday shubha sezsa, qolganini kampir o'zi to'qib-jo'yib ola bilishiga qiz ishonar edi... Oybek, Qutlug' qon. Shu o'rinda, shoirlar tili bilan aytganda, qitday lirik chekinish qilishga ijozat bersangiz. N.Rahmat, Omadsizlik.

- K o'p emas, jichchagina, – dedi kosagul iljayib. Hoji aka og'ir muammo qarshisida qolgandek bir zum o'yga toldi. - Kaminani ko'p xijolatli ahvolga sopqo ydilar-da, - dedi xo'rsinib. - Keling, yigitning sazasi o'lguncha shaytonning bo'yni uzilsin! - Qaysi biridan? - Kaminaga „qizili“yam bo'laveradi, - dedi Hoji aka kamtarlik bilan. O'.Hoshimov, “Butilka “hoji. Kasalga chalinib qoldida bolam boyoqish. Paxta paytida telejkadan tushayotgan paytida yiqilib, qovurg'asi jichcha lat yegan ekan. O'.Hoshimov, Sevgi qissalari. Berigi uyda Mo'minning opasi, ammasi va bir-ikki xotin-xalaj u bilan ovora – tinmay ovqat yeyishga qistashadi: - Jichcha yegin, Mo'mintoy! N.Jaloliddin, Yig'i. Xizmatigizga Safarboy bilan ushbu xatni ozg'ina kechiktirib yuborishim boisi ham, mazkur xavflar borlig'indin bo'lib, ma'lumingizdir, Safarboyning tabiatida andak beboklik va loqaydlik bor. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Xotin – Hikmatoy sovuqqon, xotirjam ham andak qo'polroq edi. Sh.Xolmirzayev, Nimadir yo'q bo'ldi. Qishloq kayvonilaridan biri Hamidqul oqsoqol andak iddaoli, andak zardali ohangda raqibi – yakkaqayrog'ochlik Asilbekning nomini tilga olmaguncha Omonali tayinli biror gap aytmadi, tagidagi po'stak junini barmoqlari bilan tarab, tortqilab hardamxayol bir alfozda miq etmay o'tiraverdi. N.Norqobilov, Tog'dagi yolg'iz odam. Og'a Yunus pari sollarib ro'molini boshiga yozib tashlab, gajakbel bo'lib, oyday to'lib, miyig'idan kulib, karashma qilib, gartak uyalgan bo'lib, kokillarini yozib tashlab, turlicha qiliqlar boshlab, oyoqlarini yerga avaylab tashlab, qosh-u ko'zlarini suzib, hovli o'rtasida suqsurday suzib yuribdi.”Go'ro'g'li”. Og'ilning tomi har safar loysuvoq qilinganida, gartak xarxasha qilib bo'lsa-da, tepaga chiqib olardim. H. Karvonli, Qishloq. Oxirgi muyulish yoqasida esa, Qodir yurishdan to'xtadi.

– Oshnalar, shu yerda gartak dam olamiz, – dedi so'ng sir boy bermaslikka urinib, azza-bazza cho'nqayib o'tirib olarkan. B.Ali. Tunkezar bolalar.Ey, sultonim, ishing o'sal bo'lgandi, Turkmandan elingga dushman kelgandi, Gartak g'ofil qolib, agar kechiksang, Ajal kelib, paymonang ham to'lgandi. ”Go'ro'g'li”. Hatto dovyurakroq bolalar suvda oqib borib, ko'prik ostiga kirib yo'q bo'lib ketishardi-da, yana bir muddat o'tib, boyagi-boyagiday chalqancha oqib chiqib kelishar (ana qahramonlig-u mana qahramonlik!), keyin o'rab olgan bolalarning: - Hecham qo'rqmadingmi? — Zig'irchayam-a? – degan savollariga bosh chayqab turib olishar, hamma birdan “Vu-uy” deb yuborar edi! Belingda jindakkina quvvat bo'lsa, mehnat qil, ko'zingda zig'ircha nur bo'lsa, mehnat qil. C.Ahmad, Yer uyg'ondi.M.Mansur, Judolik diyori. [Beshikchi] Choyning tagini sepib tashlab, bunga qaradi, – qo'yaymi o'zlariga? – Quy, juda yutimli bo'pti. Nima balo, ko'zni shamg'alat qilib ko'knoridan zig'ircha tashlavorganmisan? — Ko'knor otliqqa yo'q-ku, aka pochcha, kiyik o't shunaqa bo'ladi. M.Mansur, Judolik diyori. Kimki yo'ldan chizi toysa, Pokistonning chin o'g'li emas u. Oybek, Nur qidirib. Alqissa, ba'daz janoza faqirning qo'limga chizi hadya berib uzatdilar. A.Qodiriy, Kichik asarlar.

OZMOQ, OZIB-TO'ZMOQ, ORIQLAMOQ, OZG'INLANMOQ, TIRRAYMOQ. Ozg'in holatga kelmoq, eti qochmoq. Mazkur sinonimik qatordagi barcha so'zlar odam va hayvonlarga nisbatan qo'llanadi. **Oriqlamoq** hayvonlarga nisbatan ko'proq qo'llanadi. **Ozib-to'zmoq** so'zida ozish holati kuchliroq ifodalanganB shuningdek, unda 'o'zini oldirmoq' dan ibora qo'shimcha ma'no qirrasini mavjud. **Ozg'inlanmoq** kam qo'llanishi bilan xarakterlanadi. **Tirraymoq** shevaga xos.

Bir vaqtlar gavdali va chiroyli bo'lgan o'ttiz yashar yigit hozir cho'pday ozib ketgan. Oybek, Qutlug' qon. Akmal pechka g'irasndai tushayotgan yog duda yangasining dog' bosgan yuzini ko'rib, yanayam ozib ketganini, chehrasi g'amgin ekanini sezdi. O'.Hoshimov, Nimadir bo'ldi. Shundan keyingina uning ancha oriqlab, qorayib qolganini, ko'zlarida avvalgi shodlik uchqunlari yo'qligini payqadi. O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi. Otasi saksonga borib qolgan, oxirgi marta ko'rganida juda oriqlab ketgandi, lekin badanida tetiklik bor edi.M.Sharif, Hadik.

Eshikni Otaqul Qulievichning xotini ochdi. ...O'tgan yetti yil mobaynida u oriqlagan, zaiflashgan, keksaygan edi N.Rahmat, Zarpechak. [Kumushning] Burungi to'raligi ketib, ozg'inlangan va lekin bu ozg'inlik uning husniga kamchilik bermay, bil'aks yuqorilatgan. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Olti botmon arpa yeb Tirrayib qotgan otim.

OZOD, ERKIN, HUR, SARBAST. O'z erki, haq-huquqi o'z qo'lida bo'lgan, ozodlikka erishgan. Ozod, erkin hur va sarbastga nisbatan ko'p qo'llanadi. **Hur** va **sarbast** badiiy uslubga xoslangan.

*Bu ko'ngil Vatan der va ona quyosh Nurini shimirib men tirilaman. Va bag'rim tuyadi ozod, bepoyon, Ulug' Vatanimning muhabbatini. X.Davron, Muqaddas so'zim Vatandır. Ozodlik orolining odamlari. Ozod, erkin odamlar. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. Tiriksan, o'lmagansan, Sen-da odam, sen-da insonsan; Kishan kiyma, bo'yin egma, Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!.. Cho'lpon, Ko'ngil. Ey ona yurt, jonimdagi ildizimsan ,Ko'zlarimda yonib turgan yulduzimsan, Yuragimni yashnatguvchi hur so'zimsan, Zabonimda gul unadi seni desam. O.Bekmurodova, Vatan haqida qo'shiq Bo'g'izda tiqilib, o'rtada to'lib turgan nafasni faqat **sarbast** gap bilan, o'rtadagi taranglikni yo'qotuvchi erkin so'z bilan o'nglash mumkin edi. M.Ismoilij, Farg'ona t.o. U har bir musulmon qizi kabi, o'yin-kulgidan, sarbast ovoz chiqarishdan mahrum, ota-ona, tanish va begona, erkak-ayol – hammaning oldida soqov bo'lishga majbur esa-da, lekin yuragida muhabbat to'lqinlanib, ba'zan unga kuch va jasorat beradi. Oybek, Qutlug' qon.*

OG'IR, VAZMIN, ZILDEK, ZIL, ZIL-ZAMBIL, ZALVARLI, SALMOQDOR. Og'irlik o'lchami katta, yengilning aksi. **Vazmin** va **salmoqdor** so'zlari bu ma'noda nisbatan kam qo'llanadi hamda kitobiy uslublarga xos. **Salmoqdor** so'zi asosan ilmiy uslubdagi matnlarda ishlatiladi. **Zildek, zil, zil-zambil** so'zlari so'zlashuvga xoslangan. Bu so'zlarda og'irlik belgisi kuchli ifodalanadi. **Zildek, zil-zambil** so'zlarida 'juda' (*juda og'ir*), **zalvarli** so'zida 'katta' (*katta va og'ir*), **salmoqdor** so'zida 'nisbatan' (*nisbatan og'ir*) ifodali xususiy ma'no qirralari mavjud.

Oriq Zokiralining chillakday oyog'iga, og'ir yukdan egilib, qiltillab yurishiga, uning ustida chalpakday bo'lib turgan Niyozga qarab Davronning ham kulgisi keldi, ham nafratdan bo'g'ildi. T.Malik, Davron. Shundan keyin u o'rindiq ostidagi to'rvadan bir quchoq keladigan og'ir kitobni chiqarib menga ko'rsatdi. E.A'zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati. Mahalla do'konida qorovullik qiladigan aya ishdan qaytayotgan bo'lsa kerak, oyog'ida og'ir kirza etik, egnida paxtali fufayka, yelkasida miltiq, chollarday vazmin, bamaylixotir odimlab kelardi. O.Yoqubov, Billur qandillar. Yigitalining hovlisiga vazmin cho'yan darvoza orqali kirilar, uning yonboshidagi.. kichik uyhada cho'qqisoqol qorovul o'tirardi. D.Nuriy, Osmon ustuni. Hash-pash deguncha bo'lmay, zildek qopni bir siltab yelkasiga oldida, koppon tomon yura boshladi. Ch.Aytmatov, Jamila. Biyday dalada saratonning zilday hovuri kezadi. A.Suyunov, Ota va o'g'il. U oyoq-qo'li uvishinqirab, lohas bo'lib uyg'ondi. Zil-zambil boshini bazo'r ko'tarib, devorga orqa tiradi. Q.Norqobil, Yangi yil kechasida. - To'xta! To'xta deyman senga! – Begimqul qo'llarini silkitib uning ketidan talpindi, biroq oyoqlari ostida yotgan kolbasa parchalariga sirg'anib ketdi-da, ayiqday zil-zambil gavdasi bilan polga gursullab yiqildi. O.Yoqubov, Billur qandillar. Oshiqbola bilan Chumakov zil-zambil qopni yerdan uzayotgan kabi chiranib harakat qilishibdi, boyning kuragiga bittadan gupullatib musht urishib, yukni ortgan bo'lishibdi. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. Azizxon zalvarli bir tosh nokni qo'lga olib salmoqlab ko'rdi. S.Ahmad, Ufq. Qirra burun, burgut ko'z Shohmurod Ko'histoniy ot ustiga zahcha qo'ngandek yengil qo'nar, sarkardaning zalvarli gavdasi xususida ham hazil qilgan: «Otning beli egilgani ma'qul-u, ammo mamlakat beli egilmasin...». Mirmuhsin, Temur Malik. Qorako'z begim uni cho'chitib yuborishdan qo'rqib, mayin tovush bilan: — Hazratim! — deb chaqirdi. Bu ham kor qilmadi. Qorako'z begim gilam uzra cho'kkalab, vahimadan xiyol titrayotgan nafis qo'llarini hazratning mayin choyshab ustida yotgan zalvarli bilagiga qo'ydi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. "Istiqol davri adabiyoti" ruknida "Isajon Sulon nasri badiiyati" nomi ostida qirqdan ortiq xorijiy va o'z yurtimiz yetuk munaqqidlarining Isajon Sulon ijodiga oid maqolalaridan iborat qariyb 400 sahifali salmoqdor to'plam chop etildi. U.Normatov, Noyob tamoyillar, yangicha kuzatishlar. Demak, urug'lik chigit qanchalik yirik va salmoqdor bo'lsa, uning sifati shunchalik yuqori bo'ladi."Agro ilm".

OG'IR, VAZMIN, BOSIQ, SIPO. O'zini tuta biladigan. **Og'ir, bosiq** so'zlari asosan so'zlashuvga xos. **Og'ir** so'zi ba'zan **vazmin** hamda **bosiq** so'zlari bilan juftlashib kelib (og'ir-vazmin, og'ir-bosiq), belgi darajasining kuchli ekanligini ifodalaydi. **Vazmin, sipo** so'zlarida ko'proq kitobiylik seziladi.

Katta o'g'li og'ir odam edi. Enasining javrashlariga jilmayib qo'yardi, xolos. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. *Aminjon, o'zi yosh bo'lsa ham, juda pishiq, og'ir, g'ayratli.* A.Qahhor, Xotinlar. A.Qahhor, Xotinlar. *Qiziq, otalarning hammasi tabiatan shunaqa ichidagi dardini sirtiga chiqarishdan iymanishadigan og'ir, vazmin bo'lisharmikin-a?! L.Mahmudov, Qopga yashiringan odam. Bo'ri polvon, Tilovberdi joyidan turib, Maksim polvon bilan yoqalashib ketadi, deb o'yladi. Yo'q, o'g'li vazmin yigit bo'libdi. Joyidan tura-tura, Maksim iolvonga o'qrayib-o'krayib qaradi. Shu bilan bo'ldi qildi.* T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Deyarli butun hayoti turli tahqirlashlarga chidash bilan o'tgan Rayhon qiziqning bosiq ekanligi qo'l kelib, tezda esini yig'ib oldi, o'zini allanarsaga non botirib yeyayotgandek, choyni xo'rillatib ichayotgandek qilib ko'rsatdi.* A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. *Normat ancha bosiq, ayollarning oldida o'zini tuta oladigan, lekin fe'li kelsa, otasini ham ayamaydigan odam edi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. *Ochil unga tasalli beraman deb urinmasdi, chunki bilardi: Mahkam vazmin yigit, uning qalbida bo'ron qo'zg'alishi qanchalik qiyin bo'lsa bosilishi ham shunchalik qiyin.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Chorjetimliklar hali hech kimdi sharmanda qilmagan, og'izga qarab gapiring, rais, — dedi Sh arif ko'sa o'ksingan va haqoratlangan qiyofada. U juda orkash, lekin sipo odam edi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. *So'ng oppoq "Volga"lar bir daqiqaga to'xtab o'tishadi. Undan tushgan sipo odamlar atrofga alanglab olib, yerto'laga sho'ng'ishadi.* T.Malik, Shaytanat.

OG'IRKARVON, SUSTKASH. Juda sekin harakat qiladigan, imillagan. **Og'irkarvon** so'zida **sustkash** ga nisbatan belgi darajasi kuchliroq ifodalanadi. Shuningdek, **og'irkarvon sustkash** ga nisbatan nutqda faolroq qo'llanadi.

- *Qolaversa, ular o'qituvchilarini sevadi, bu — bir qadar xo'mraygan, og'irkarvon va allanechuk odamovi yigitni hurmat qilishadi.* Sh.Xolmirzayev, Ot egasi. — [Abdusamad buva:] *Bu gapi bilan teshikmozorga qaerdagi, "belaqab odam"ni olib kelmaganini, eng muhimi, og'irkarvon deb nom qozongan bunaqa brigadani tortib ketishi uchun mana shunaqa, To'lqinjonga o'xshagan nortuyaday baquvvat kadrlar shart, degan siyosatini o'tkaza olgan ekan.* A.Boyqo'ziyev, Teshikmozor hangomalari. *Odamlar ehtiyotkor, sustkash va hushyor bo'lib qolishdi. Har kim o'z sog'lig'ini diqqat bilan nazorat qiladigan, ozgina tobi qochsa vahima ko'taradigan odat chiqardi.* H.Shayxov, Sirli nur. [Мясников:] *Туя медлительный экан. Сусткаш . Ўйлаб-ўйлаб, унияш оклашибди. Сусткаш бўлгани билан бўйни узун, узоқни кўраркан. Ташиналикка чидаркан. G'ayratning yukchilarga xos bo'lmagan sustkash xatti-harakati hamda dam-badam "choy"lanib turishlari hammaga ham yoqavermasdi.* N.Norqobilov, Kurash.

OCHKO'Z, BADNAFS, OCHOFAT, SUQ, SUQ(A)TOY, EBT'YIMAC, MECHKAY, YUHO. Nafsini tiyolmaydigan, nafs buzuvchi, yeb to'ymaydigan. **Ochko'z** keng tushunchaga ega, faol qo'llanadi. **Badnafs** katta yoshdagilarning nutqiga xos. **Suqatoy, mechkay** so'zlashuv uslubiga xoslangan. **Yuhoh, suq** sinonimik qatordagi boshqa so'zlarga nisbatan kam qo'llanadi. **Ochofat, yebto'yimas, yuhoh** so'zlarida belgi darajasi kuchli ifodalanadi. **Suqatoy** so'zidan boshqalarning ovqatiga suqlik bilan qarash ma'nosi ham anglashiladi. **Yebto'yimas va mechkay** ma'no jihatidan bir-biriga yaqin.

Oltin —avvalo ilonlarni o'ziga rom qiladi. Ilondan keyin, ilonsifat xalqni o'ziga tortadi. Ilonday ochko'z xalqni o'ziga rom qiladi. T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. *Kotib esa xona o'rtasida o'zining azmi irodasidan biror marta chetga chiqmagan, o'zi aytganidek xonaki to'riq kabi yuvosh, fahmsiz, isliqi va aroqxo'r, qulday itoatkor qorovulga g'azab bilan qarab turardi, uning ko'zlarida o'ljasidan ayrilgan bo'rinikiday ochko'z va qizg'anch bir ifoda yonardi.* N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. *Bir kuni ochko'z chigirtkalar yoprilib kelishdi-yu, biz ov qiladigan joylarni egallab olishdi.* A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. *Adashmasam, sen boshqalardan ancha badnafsroqsan, - dedi u nihoyat Bo'riga qarab.* A.Obidjon, Baloga qolgan futbolchi. - *O'yin rosa avjiga chiqqan pallada Xoldor, badnafsligi qo'zib, hali shira yig'ib ulgurmagan kuzgi olmaga kesak ota boshladi.* A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. — *E, ha, Bo'g'irsoqning o'g'limisan? Otang*

rahmatli ikki lagan palovdi ko'rdim demay, yeb yuborardi. Juda **badnafs** edi. T.Malik, Xazonrezgi. Pilla urug'i **ochofat** bo'ldi! Onamiz urug'lar uzra barg yoyib, o'ng-chapiga qaragunicha novdalar shipshiydam bo'lib qola berdi. T.Murod, Oydinda yurgan odamlar. - *Obbo ochofat-ey! Qo'l-oyoqli oziq-ovqat omborimi bu? A.Obidjon, Oltin yurakli avtobola. – Endi bizniyam shartimiz bor, – deya qora papoqlilar tomonga qichqirdi Meshpolvon. – Qahratoniyadagi manaman degan ochofat ovqat yeyishda men minan bahslashib ko'rsin. A.Obidjon, Meshpolvonning janglari. [Nazirpalvon:] Papiros tutatar ekan, ikki tomondan lip-lip o'tib turgan ko'm-ko'k daraxtlarga, ko'kda ko'zni qamashtiradigan darajada jimirlayotgan oq-sariq yulduzlarga suq bilan qarab qo'yardi. O'.Umarbekov, Yulduzlar. Atrofi pastak paxsa devor bilan o'ralgan bu uzumzorning yuz xil rangdagi uzumlari hammaning havasini keltirar, o'tgan ham, ketgan ham suq bilan qaramay iloji yo'q edi. O'.Umarbekov, Charos. - Mana, u qo'llarida zarhal patnis tutib, turfa shirinliklar olib kirgan Xon Sultondan ko'z uzmay, unga suq bilan tikilib qoldi. Sh.Ulug', Jayxun epkinlari. Jo'jalarning orasida bo'yni uzun, suqatoy bir jo'ja bor edi. X.To'xtaboyev, To'pdan ayrilganni bo'ri yer. Uni dahshatga soladigan narsa ukalarining o'pqundek yamlog'ich, yebto'yimas oshqozonlari emasdi. Bo'sh qo'l bilan qaytganida bu ikki chillashir norasidaning beadoq nafrat bilan boquvchi ko'zlariga qarashdan qo'rqardi. .S.Ali, Ayron. Karimjon uzoqdan bir muddat kuzatib turdi. Aftidan, daroz yebto'yimas Baroni bilan qaygadir aylanishga ketganga o'xshaydi.A.Yo'ldosh, Javobi bor... Dasturxonda bor-yo'g'i konfet qog'ozchalari bilan non uvoqlari turganini ko'rib, yebto'yimas Sullavoy yomon ezilibdi, irg'ishlab-irg'ishlab dodlagisi kelibdi. A.Obidjon, Uch og'a-ini. Qo'lidan bir ish kelishi dargumon, cho'ntagida hemiri yo'q bu mirquruq yoshlar o'zlari yetisholmagan narsa borki, yomonlashadi. Keyin Sherqo'zi hech ham mechkay emas, ovqatni taniga qarab tanlab yeydi. A.A'zam, Odamning olasi.[Orifjonning]... endigina besh yoshga kirgan Omon ukasi bo'lsa temir qanot bo'lgan chumchuq bolasiga o'xshab chirqillab, ovqat so'ragani so'ragan; shunaqangi mechkayki, hatto uxlaganda ham og'zini ochib uxlaydi.U.Normatov, Sarguzashtlar sardori. Goh qanoatda sobit, daho bo'ladi inson, O'z nafsin yo'lida goh yuho bo'ladi inson. H.Xudoyberdiyeva, Bir qadam.*

OSHIQ, XUSHTOR, SHAYDO, SHAYDOYI. Birovga mehr-muhabbat qo'ygan; juda sevib, shaydo bo'lib qolgan odam. Mazkur so'zlar nutqda keng qo'llanadi. **Xushtor** ko'pincha so'zlashuv uslubida ishlatiladi. **Shaydo, shaydoyi** kitobiy. Bu so'zlardan "yaxshi ko'rmoq" ma'nosi bilan birga "maftun bo'lmoq" ma'nosi ham anglashiladi. **Shaydoyi** da **shaydo** ga nisbatan ma'no kuchliroq ifodalanadi.

Hech narsadan xabari yo'q oshiqqlar esa butun umr ta'qib etadigan xayfli dunyoni go'yo unutib qo'yishgandi. G'.Rahmon, Oshiq dunyo. Saksonga kirgan chol ajinaga oshiq bo'lib qolibdi, deya kulsalar, qaysi bir kampir chidaydi? T.Hayit, Oshiq. Nahot shunchalik xushtor bo'lsaki, ko'ziga mol-dunyo ham ko'rinmasa-ya! A.Qahhor, Tanlangan asarlar. — Ko'ribdi-yu, oshiq bo'lib qolibdi, — davom etdi Zulayho. — Yugurib borib yerdan pardani olibdida, qizga eltib beribdi. Qiz ham uni ko'rib, xushtor bo'lib qolibdi. O'.Umarbekov, Kimning tash vishi yo'q. Men ham shaydo, men ham maftun, Men ham hech kimi yo'q Majnun, Meni Laylo tushungaydir, Sen ey jonon, tushunmaysan. M.Yusuf, Mayus kunim ko'zim tushsa...Sanam, sochingdan ham shaydolaring ko'p, Husning oshiqqlari — adolaring ko'p. Nimang ko'p, ko'yingda gadolaring ko'p, Ammo men bittaman, men bittadurman.M.Yusuf, Men bittadurman. ... uni bilmay turib, meni yaxshi kuradi deb shaydoyi bulib yurganimni uyladim-da, nomusdan, rashkdan kovurildim. O.Muxtorov. O'zingiz ham biror qizni shaydoyi bo'lib sevganmisiz? Shukrullo, Javohirlar sandig'i.

OSHQOZON, ME'DA. Inson va hayvonlarda ovqat hazm qilish a'zosi. **Me'da** so'zi **oshqozon** so'ziga nisbatan kam qo'llanadi.

Aksiga olib so'nggi imtihon oldidan bir hafta yotib olsam bo'ladimi. Oshqozon nosog'da.С.Ахмад,Таъзим. U yoq- bu yoqda «Mamasiddiq aka oshqozon raki bo'lgan ekan, baribir tuzalmayman, deb do'xtirgayam bormabdi», degan gaplarni biz ham eshitdik. И.Султон, Тодд. Sakkiz-to'qqiz oylab qovun ko'rmagan me'daga odatdan tashqari ko'p tiqilgan yangilik o'z ishini qiladi. A.Qodiriy, Obid ketmon. Lola sayli kishi dilidagi g'uborni yo'qotur, ravoch me'dani tozalaydi. Mirmuhsin, Me'mor.

ONG, SHUUR. Faqat insonga xos bo'lgan va uning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va qarashlaridan tashkil topuvchi, ruhiy faoliyatining eng yuksak shakli. **Ong** keng qo'llanadi. **Shuur** kitobiy. Badiiy va publitsistik asarlarda faol qo'llanadi.

Dildor uning bag'ridan uzilib chiqishni istamasdi. Ammo qandaydir hayo, qandaydir andisha sekin-asta ongiga quyilib kela boshladi. S.Ahmad, Ufq. *Nihoyat Akbarovning bir gapi uning ongiga sal tegib o'tdi: — Kamida o'n yil, bo'lmasa o'n to'rt-o'n besh yil o'qigan yoshlar nahotki majlisning nimaligini-yu, ijtimoiy ishning nimaligini tushunmasa?* P.Qodirov, Uch ildiz. *Kimki, bu dunyoda yomonlik qilsa— xoh shoh bulsin, xoh gado – u jazosiz qolmaydi! Insonga aql va shuur shu maqsadda berilgankim, u bu teran haqiqatni gushunsin!* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Uning shuuri, ongi ta'qibga, qo'rquv va vahimaga moslashib borar, hatto oyoqlari ham chaqqonroq bo'lib ko'zlari o'tkirlashgan, quloqlari har bir sharpani tutib yuradigan bo'lib qolgan edi – u kundan-kun o'zining hayoti doimo xayf ostida bo'lgan qandaydir ojiz maxluqqa aylanib borayotganini his etardi.* N.Eshonqul, Istilo. *Buni qarangki, bandasi o'lmoqni harchand istamasin, ong-shuuri baribir tiyrakligicha qolaverarkan...* N.Norqobilov, Kurash.

Q

QABR, GO'R, MOZOR, SAG'ANA, LAHAD, DAXMA, TURBAT, MOZORQO'RG'ON, O'BA, QO'YINDI. Odam o'ligi (murdasi) ko'miladigan yoki ko'milgan maxsus joy. **Qabr, go'r, mozor** ham adabiy tilda, ham so'zlashuvda keng qo'llanadi. **Go'r** ko'proq salbiy bo'yoqdorlikka ega. **Sa'g'ana, lahad** badiiy nutqqa xos. **Daxma** ko'proq yuqori tabaqali kishilar, aziz-avliyolar dafn etilgan qabrlarga nisbatan qo'llanadi. **Mozorqo'rg'on, o'ba** arxeologiyaga oid terminlar bo'lib, chorvadorlar mozorini ifodalash uchun xizmat qiladi. **Turbat** kam qo'llanadi. **Qo'yindi** – shevaga xos so'z.

Zarang markazidan chiqaverishdagi eski qo'rg'on devorlari yaqinida Farhod o'quvchilik yillari juda muqaddas sanalgan e'tiborli bir q a b r bo'lardi. (E.A'zam, Shovqin). [Oqsoqol] – *O'lik ko'mishning o'zi bo'lmaydi. O'lgan o'lib ketaveradi, qolganga qiyin. O'lik g o' r ga kirmasdan xarajat boshlanadi.* (S.Ahmad, Ufq). *Tursunboyning go'ri yonardi, Ikromjon endi o'g'lining m o z o r i yonayotganini ko'rmas, ko'zlarini yumib, ingroq, alam, iztirob bilan to'lg'anardi.* (S.Ahmad, Ufq). *Unsin bir necha qadam bosganidan keyin parangi-chimmati s a g' a n a ning oldida qolganini eslab to'xtadi, lekin qaytib borgani botinolmadi, hozir qaytish emas, qayrilib qaragani ham yuragi dov bermas, nazarida hamma o'liklar s a g' a n a lardan, go'rlardan boshini chiqarib, ketidan qarab turganday edi.* (A.Qahhor, Dahshat). *Kimdir Yaratganning huzuriga borayotganiga shukr qilib ko'z yumar, kimdir l a h a d da yolg'iz yotishini o'ylab qo'rquv bilan jon berar, kimdir to'plagan boyligi qolib ketayotganidan achinib o'lar...* (T.Malik, Murdalar gapirmaydilar). *Hazrati Xizrni uchratgan azizlarning d a x m a lari uzra esa ko'pincha bir dona tug', bir tup gujum yoki qoyatoshdan uzilib tushgan katta xarsangtosh bo'ladi.* (I.Sulton, Hazrati Xizr izidan). *-Shu turbatda istirohat qilib yotgan Xo'jaubon hazratlari, – deb farrosh qabrni ko'rsatibdi.* (S.Ayniy, Esdaliklar). *Tez orada qabristondagi go'dak turbatini eslatuvchi tanish mozor yonida yangi qabr paydo bo'ldi. Lallay titroq qo'llari bilan o'g'lining mozorini silab-siypalab, mo'jaz qabrga yuzlandi.* (G'.Shermuhammad, Quduq). *Afsus, vayronadir uning [Beruniyning] turbati.* (A.Oripov). *Sharqiy Yevropa, Janubiy Sibir, Shimoliy Kavkaz, Oltoy va Qozog'iston cho'llaridagi urug' va qabila oqsoqollarining m o z o r q o' r g' o n lari o'zlarining boyligi va kattaligi bilan ajralib turgan.* (“O'zME”). *Besshatir o' b a lari Yettisuvdagi saklarning ijtimoiy-maishiy, xo'jalik tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.* (“O'zME”). – *Shu yerdan o'tgan Non ber ota kimdan kam. – dedi [oqsoqol]. – Kelinglar, shu zotning q o' y i n d i sini obod qilaylik!* (S.O'nar, Vijdon).

QABRISTON, MOZOR, GO'RISTON, MOZORISTON, MOZORBOSHI, MOZOROT, QO'YINDI. Marhumlar dafn qilinadigan maxsus joy; qabrlar majmui. **Qabriston, mozor** adabiy til

va so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. **Go‘riston** va **mozoriston** nisbatan kam qo‘llanadi. **Mozorboshi**, **mozorot** va **qo‘yindi** shevaga xos so‘zlar.

U [Shodmonbekov] **q a b r i s t o n** ning yarmini asta-asta aylanib, *Van Gogni ko‘rgan joyiga yetdi va yo‘lakchadan sal narida – qabrdagi yodgorlik poyiga bag‘ir bosib yotgan bir dasta qizil gulga ko‘zi tushdi.* (U.Azim, Bir dasta qizil gul). *Masjiding uzoq bo‘lsa ham, m o z o r ing yaqin bo‘lsin degandek, qo‘yindi ham shundoqqina qishloqning biqinida.* (N.Qobul, Kechikkan turnalar). **Go‘riston** to‘g‘risida *dodxo nimalar eshitgan bo‘lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi g o ‘ r i s t o n dodxo xayolida qandoq dahshatli bo‘lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli...* (A.Qahhor, Dahshat). **Mozoriston** odam bilan to‘lib ketdi: *hisobchi ko‘p kishilarga yaxshilik qilgan edi.* (N.Eshonqul, Xayol tuzog‘i). *Nega desangiz, [Do‘xtir amaki] ko‘chadan shoxdor jinaravasini minib o‘tganda ko‘chamizdagi bolalar to m o z o r b o s h i gacha orqasidan yugurib, ko‘chani changitib... masxara qilib borardik.* (X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar). [Abdurasul] *So‘ng tor ko‘chadan rayonga qatnab o‘qigan chog‘lari – bu m o z o r o t yonidan o‘tayotganda oyog‘i uchida yurganlarini esladi.* (Sh.Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida). *Xayriniso m o z o r o t ichidan o‘tgan so‘qmoq bo‘ylab erining qabri tomon yo‘l oldi.* (Q.Norqobil, Osmon ostidagi sir). *Avtobus katta q o ‘ y i n d i – qabristonning o‘rtasidan go‘ristonni ikkiga bo‘lib, xuddi endi mayit olib kelgan ulkan tobutdek lapanglab borardi.* (B.Qobul, Ena shamol).

QADAM, ODIM, HATLAM. Oyoq bilan oldga, ortga, yon tomonga bajarilgan harakat. **Qadam** adabiy tilda ham, so‘zlashuvda ham faol qo‘llanadigan so‘z. **Odim** badiiy uslubga qo‘llansa, **hatlam** – shevaga xos so‘z.

Zirillama guzariga chiqqanlarida o‘tkinchi aravadagilar, otliq ketayotganlar yo‘ldan to‘xtab tobutni yelkaga olishar, yetti q a d a m yurib dastani boshqasiga berishardi. (S.Ahmad, Ufq). *Alimardon tramvaydan tushdi-da, Estrada teatri tomonga yengil, dadil q a d a m lar bilan yurib ketdi.* (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). *Munisxon ketidan uning kelayotganini, ko‘chaga ham chiqishini bilib qadamini tezlatdi. Ko‘chaga chiqilganda Saidiy uning tirsagidan ushladi.* (A.Qahhor, Sarob). *Men mardona-mardona o d i m qo‘yib, kuyov bo‘lib kirdim. Momosuluvga ko‘rgan tushimni aytib berdim.* (T.Murod, Ot kishnagan oqshom). *Yo‘lchi o d i m i ni katta otib jo‘nadi. Biroz nari borgach, orqasidan Qambar chaqirdi: – Beri keling!* (Oybek, Qutlug‘ qon). [Kim] *Hozir ham xuddi sahnaga chiqqandek yengil o d i m lar bilan yurib, burchakdagi toshoyna oldiga keldi.* (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). [Otamurod chol] *Qolaversa, “Ikki h a t l a m joy, bir zumda boraman-u qaytaman-da” deb o‘yladi.* (O.Abdiyev, Rizq).

QALBAKI, SOXTA, YASAMA, SUN‘IY, YOLG‘ONDAKAM, BOTIL, KONTRAFAKT. Asliyatga mos emas, haqiqiy emas. **Qalbaki**, **soxta** ma‘no jihatdan keng qamrovli, adabiy tilda faol, ammo so‘zlashuvda kam qo‘llanadi. **Yasama**, **yolg‘ondakam** so‘zlashuv uslubiga xos. **Yasama**, **sun‘iy** inson xatti-harakatlariga nisbatan ham, narsa-predmetga nisbatan ham ishlatiladi, **yolg‘ondakam** faqat inson xatti-harakatlariga nisbatan, **kontrafakt** esa faqat mahsulotlarga nisbatan qo‘llanadi. **Botil** eskirgan so‘z bo‘lib, badiiy nutqqa xos.

Hamma narsa Hojining ko‘ziga q a l b a k i ko‘rindi shekilli, butun jihozlarni alohida-alohida ko‘zdan kechirdi, hatto devorlarni chertib ko‘rdi. (A.Qahhor, Yillar). *Norqobil esa do‘stlari tayyorlab qo‘ygan grajdan kiyimi bilan, ular to‘plab bergan anchagina pul bilan, suvrati yopishtirilgan, haqiqiylikiga hech kim shubha qilmaydigan q a l b a k i pasport bilan shu besh kun ichida Termizga yetib keladi.* (S.Ahmad, Taqdir, taqdir). *Shahar bankida yong‘in boshlanganligi haqidagi q a l b a k i ma‘lumotni o‘t o‘chirish qismiga Hasanovning o‘zi xabar qilgan edi.* (M.Xayrullayev, Tilla marjon). *Qiziq, uning [Behzodning] bu ishlari ba‘zan xushyor paytida yaratgan asarlaridan xam yaxshi chiqar, bu narsa unda allaqanday ilohiy bir kuch va sehr bor, degan s o x t a shov-shuvlarga sabab bo‘lardi.* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) U [O‘rolboy] *Barchinoy bilan s o x t a bo‘lsa-da, jilmayib gaplashib, shahar istirohat bog‘iga bordi.* (T.Murod, Er-xotin). *Kuch – bu Yer yuzida xom sut emgan banda paydo bo‘libdiki, jami nisbiy va s o x t a haqiqatlarni zo‘rlik bilan qaror toptirishning eng sinalgan usuli.* (H.Shayxov, Tutash olamlar). *Kechqurun Fazliddin akasi Abdullaboy bilan uzoq gaplashib, so‘ng, o‘z uyiga kirgach, Nuri y a s a m a noz bilan dedi: — Maskovga jo‘narmishsiz, nimaga manga bildirmaysiz?* (Oybek, Qutlug‘ qon). *Bobur bu y a s a m a e‘tiqodlardan g‘ashi kelib, bosh chayqadi-yu: – Taajjub! – deb*

qo'ydi. – Marhum Shayboniyxon o'zini “Xalifayi rahmon, imomi zamon” deb yurib, oxiri nima bo'ldi? Dinni siyosatga aylantirish ne hojat? (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Mashina “O'zbekiston” mehmonxonasi yonidan o'tib o'ngga burilganida Vika **y a s a m a** tahlika bilan so'raydi: – O'rtoq komandir, qayoqqa olib ketyapsiz meni? (E.A'zam. Shovqin). “Bor baraka top!”lar ham yo'q. Faqat, har bir do'konda ko'pincha bir xil tovush: shaq-shaq, shuq-shuq cho't qoqiladi. Rastaning ichida besh-o'n kishi paydo bo'ladi, ular **s u n' i y** tavoze bilan shovqinsiz muomalaga kirishadi. (Oybek, Qutlug' qon). Endi, yozuvchilik “sirlari”ni ozmi-ko'pmi o'rganganimdan keyin, romanning butun realistik kuchi va kishini rom qiluvchi go'zalligi ham, xarakterlarning betakror milliy koloriti ham, shu bilan birga realistik uslubda yozilgan va bugungi kitobxon uchun **s u n' i y** tuyuladigan ayrim sahifalar ham ko'zimga tashlanadi. (O.Yoqubov, Adolat manzili). – Xolida, kechirasiz, mumkin emas, – dedim **s u n' i y** iljayib. Daftaramni cho'ntagimga solib qo'ydim. (O'.Hoshimov, Xayollarga bo'laman tutqun). – Yana sovuy suvga yuvindingmi? – dedi u [Anvar] **y o l g' o n d a k a m** po'pisa qilib. (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). Ilgari xonga aniq, axborotlar berib turadigan maxsus odamlar bu gal Shoh Ismoilning **y o l g' o n d a k a m** chekinayotganini va harbiy nayrang ishlatmoqchi ekanini bilmay qolgan edilar. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Akmal Hamdam **y o l g' o n d a k a m** sharaqlab kuldi. (F.Musajonov, Himmat). **B o t i l**.. so'zlarga quloq solma. (Mirmuhsin, Temur Malik). – Nima qilishim kundan ham ravshan, – dedi O'zbek oyim va tamom qanoat va ishonch bilan boyag'i maqsadni takrorladi: – o'zingga aytkanimdek, Marg'ilondag'i hindi domlaning o'zidan bir martaba qaytariq qildirsaq marg'ilonliqning sir-jodulari **b o t i l** bo'lib, Otabek o'z-o'zidan andini taloq qilib yuboradir... (A.Qodiriy, O'tkan kunlar). Zero, inson yo'li Odam Atoning olmaga uzalgan qo'lidan tashqariga solingan **b o t i l** yo'l emas, balki Odamning ko'ngliga, ichkariga uloqqan sahih yo'l edi. (U.Hamdam, Yangi inson). Asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining **kontrafakt** nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish... fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. (O'zR Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi).

QALIN, ZICH, TIG'IZ, BAROQ Ko'p va bir-biriga yaqin joylashgan, siyrakning aksi. **Baroq** jun, yung, mo'ynaga nisbatan ishlatiladi va qalin, o'siq ma'nolarini anlatadi.

Bobur esa to'g'riga ketgan tor so'qmoqdan, **q a l i n** daraxtlar orasidan yelday uchib boryapti! (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). - Muqad! – U dadasining yo'g'on ovozi eshitib, boshini ko'tardi, qorong'ida uning **q a l i n**, hali oq oralamagan soqolini, quyuq qoshlari tagidan sinchiklab tikilib turgan ko'zlarini aniq ko'rdi. – Nima qilib turibsiz? – Dadasining baland ovozi yana uning quloqlariga mixday qoqildi. (O'.Hoshimov. Bahor qaytmaydi). “Otam bechoraning nafaqasi yaxshi-yu, o'zi yomon bo'p qoldimi, – deydi **q a l i n** qoshlarini chimirib. Ko'chalarda odam **qalin**... Ko'zlarda sevinch chaqnaydi. (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). (N.Norqobilov, Ayriliq quvonchi). Xona ichida shovqin pasaydi. Charchagan ayollar uyni to'ldirib, **z i c h** o'tirishdi. Urf-odat va an'ana, go'yo jadvalga yozilgandek ma'lum tartib bilan davom etdi. (Oybek, Qutlug' qon). Ariq bo'yida qad ko'targan **z i c h** oqterak yaproqlari shitirlab turadi. (I. Sulton, Men, Onam va O'rta Yer dengizi). Shu sababli xiyobonda daraxtlar shunchalik **z i c h** va tarvaqaylab ketgan, ustiga ustak, shaharning barcha qushlari ancha yillardan beri arra tovushini eshitmagan daraxtlarga uya qurgandi. (N.Eshonqul, Bahoviddinning iti). Bu qishloq Qiziriq cho'lining kun botish tomonida. **Tig'iz** guvala uylar, qo'ralarning o'rinlarigina qolgan. (M.Safarov, Ayrishox). Boburdan orqaroqda turgan ko'zlari katta-katta ozg'in qora yigit - Hindubek **t i g' i z** oq tishlarini ochib kuldi: - Amirzodam merganlikda hazrat otalariga tortmishlar. (P. Qodirov, Yulduzli tunlar). Begmat Dadamatov marjon shodasidek **t i g' i z** qishlog'imizdan uzilib ketgan birinchi dona edi, shu boismikan, ko'pchilikning nazarida allanechuk g'alati, juda oqpadar bo'lmasa hamki, har qalay, darbadar bir kimsa bo'lib ko'rinardi. (X.Sultonov, G'ulomgardish). [Shofyor] Qora **baroq** qoshlarini chimirib, bir zum dengizda suzib borayotgan teploxodga qarab turdi-da: – Yuring! – dedi va mashina tomon tez-tez yurib ketdi. (O'.Umarbekov, Haykal). Habibulla uning uzatgan oyoqlarini ushlab, oldiga tortdi, quymuchiga itning o'mrovini

tirab, **baroq**, oq junlarini siladi, egilib qoramtir tumshug'idan o'pib oldi. (Sh.Xolmirzayev, Jo'raboshi). Eski ko'kish kostyum kiyib olgan qorovul chol oyoqlari ostida cho'zilib yotgan qizg'ish tusli itning boshini silab-silab qo'yar, allanimalarni gapirar, it esa ko'zlarini yumib, **baroq** dumi bilan zaxkash yerni savalar edi. O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor.

QALTIS, NOZIK Xushyorlik va o'ta ehtiyotkorlikni talab etuvchi.

Azbaroyi kimningdir aybi bilan o'z vaqtida yechimini topmagan mayda bir kelishmovchilik deymizmi, norozilikmi bugunga kelib, mana, **qaltis** g'avg'oga aylanib turibdi. (E.A'zam, Shovqin). Cho'nqayma g'oyat **qaltis** san'at: bordi-yu, cho'nqaymaga olinmish polvon chili chiqib ketsa, yerga... harommag'izi bilan borib tushadi. (T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi). Azbaroyi kimningdir aybi bilan o'z vaqtida yechimini topmagan mayda bir kelishmovchilik deymizmi, norozilikmi bugunga kelib, mana, **qaltis** g'avg'oga aylanib turibdi. (E.A'zam, Shovqin). Asrora o'ylab qarasa, ko'ngil ishi **nozik** narsa ekan. (S.Ahmad, Ufq). Pul qistirish, artistga haq to'lash – bu masalalar ko'p **nozik**, do'stim! Bizgayam gap tegadi... (Sh.Xolmirzayev, Keksa g'ijjakchi). Xo'jasoatliklar Tilovberdi polvon beparvoligi oqibatida ro'y berayotgan **nozik** vaziyatni ko'rib turdi. (T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

QAL'A, QO'RG'ON, ISTEHKOM, KO'HANDIZ. Yashash va mudofaa maqasadida qurilgan mustahkam inshoot. **Ko'handiz** kam qo'llanadi, asosan, arxeologiya sohasidagi adabiyotlarda uchraydi.

Qurbon... mutaassir bo'lib turardi: bir zamonlar o'lkaning biron kentida, qishlog'ida, shaharda isyon ko'tarilsa, uni bostirish uchun uzoq-yaqindagi oqposhsho garnizon – **qal'alaridan** "jazo otryadlari" ham jalb etilardi. (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik). Agra **q a l' a** sidagi xilvatxona devoni xos bilan podshoh oshxonasining oralig'ida edi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Har shanba tikanli sim bilan chegaralangan bu **q a l' a** ro'parasiga kamida 150-200 ayol, chol-kampirlar yig'ilishadi, bular "xalq dushmanlari"ning oila a'zolari. (O.Yoqubov, Muzqaymoq). Oltinoyning aytishicha, yong'indan bir hafta avval **q o' r g' o n g a** kechasi ikki ta qashqir tushib, besh-olti qo'yni bo'g'izlab ketgan ekan. (O.Yoqubov, Adolat manzili). Malika **q o' r g' o n** darvozalarining kalitini Jamna bo'yida Boburga topshirayotganda ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. (P. Qodirov, Yulduzli tunlar). Yetti istehkomni qon bilan olgach, to'xtadilar. Bu **q o' r g' o n** ni yanchib o'tish asli hech gap emas edi. (A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen). Xo'jandni ikki bo'lib oqqan Sirdaryoning o'rtasida, shahardan bir chaqirim quyiroqdagi orolda qadimdan qolgan bir **istehkom** bor edi. (M.Osim, Temurmaliq). Sohibqiron lashkarlari Ikki hafta o'tib, rabbiul-avval kirganida hirovul to'dalari bir kichik kent qo'rg'onining mustahkam **i s t e h k o m** lariga yo'liqdilar. (A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen). Meshpolvon o'z lashkari uchun Qizqo'rg'ondan yarim chaqirimcha naridan zo'r **istehkom** topdi. (A.Obidjon, Meshpolvonning janglari). Yunon-Baqtriya davrida bu yerda [Dalvarzintepada] **k o' h a n d i z** paydo bo'ladi. ("Surxondaryo vohasida moddiy madaniyat tarixi").

QAMAL, QURSHOV, MUHOSARA O'rab, qamab qo'yilgan holat. **Muhosara** eskirgan so'z bo'lib, ko'proq tarixiy asarlarda qo'llanadi.

Axsi qal'asining **qamalda** qolishi Mirzoga endi muqarrardek tuyuldi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Kech kuzakning rutubatli, sovuq izg'irinlari esa boshlaganda u uch oydan ortiq davom etgan **qamal** so'ngida – ochlik, miskinlik, xor-zorlik nihoyasida, yer yuzining sayqali bo'lmish shahri azim Samarqandni g'addor dushmani Shayboniyxonga tashlab chiqdi. (X.Sultonov, Panoh). Urganj **qamali** boshlanib, uning darvozalariga yaqin yo'lash mushkulligini va qap'a devori ustida har gal shayx paydo bo'lganida cherik beixtiyor orqaga serpilishini o'z ko'zlari bilan ko'rgach, bu ishonch diliga tag'inda maxqamroq o'rnashdi. (E.Samandar, G'ayb qushlari). Xonzoda begim hamma balolarga o'zini tutib berib ukasini yov **qurshovidan** xalos qilganini Bobur bilmasa ham Qutlug' Nigor xonim yaxshi bilar edi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Biz ikkita razvedkachi – Vladimir Kazakov va men Kursk yonida **qurshovda** qoldik. (O'.Umarbekov, Bahor nafasi). Ammo turk kemalari Fors ko'rfaziga kirganda portugallarning 32 ta eng yaxshi qurollangan harbiy kemalari ularni **qurshovga** oladi. (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). Yetmish kunlik bir **muhosaradan** keyin uch ming sipohni bir yarim mingga tushurib, bir yarim ming sipohni Toshkand qo'rg'onlari ostida qurbon berib, Normuhammad qushbegi quruq qaytishg'a majbur bo'ldi. A.Qodiriy, O'tkan

kunlar). Biroq, bu [shamol] jang shiddatini susaytirmadi, **muhosara** kuchaygandan kuchayar, har ikki tomon bir-birini ayashni xayoliga ham keltirmasdi. (X.Davron, Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat). [Qamariddin:] Aysi qal'asining **muhosara** qilinganini o'zim ko'rdim. (T.Malik, Falak).

QAQSHAMOQ, ZIRQIRAMOQ, SIMILLAMOQ, SIZLAMOQ Achitib og'rimoq; og'riqli zirqiroq tutmoq. **Simillamoq** kam qo'llanadi. **Sizlamoq** – shevaga xos so'z.

Eng chekkadagi karavotda qarta o'ynab o'tirgan davraning dam jimib qolishi, dam asabga teguvchi g'o'ng'illashi, dam baland ovozda gap talashishlari ham tumanli ufq bag'riga singib ketdi. (Kim) Ko'ngli aynib, a'zoyi badani **qaqshadi**. (T.Malik, Shaytanat). – Yuring, oyi, tanchangizda biroz o'tiraylik, oyog'im **qaqshab** qoldi, — Anvar shunday degach, kampir o'rnidan turdi. (T.Malik, Shaytanat). Ikki kundan buyon betinim uvlayotgan izg'irin bug'ularni suyak-suyagigacha **qaqshatib** yubordi. (M.Safarov, Ayrishox). Bellarim **zirqirab** og'ridi. (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar). Boldiri **zirqirab** og'rir, o'ng yelkasi achishardi. (S.Ahmad, Ufq). Butun tani zirqirab og'risa ham, ko'ziga uyqu kelmasdi. (S.Ahmad, Ufq). Muzaffar tirnoqlarigacha **zirqirab**: — Nima qipti [qilibdi] Fotihga? — dedi arang. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Davosi kelmas dardday Jon-u tan **simillard**. Yog'olmagan bulutday Fasllar imillard. (Sh.Salom, Alpomish ekan). Tonggacha mashinaning motori sovib qoladi. Bazo'r o't oldirdim. Salonda o'ynab turgan buyuqdan etim **simillaydi**. (J.Kengboyev, G'urbatxona). Yuragimning qayeridir kuyadi, **Simillaydi**, charsillar, sanchar, Go'yo ming yil yuraksiz yashab. Bir qadoq og'riqqa kunim qolganday... (F.Afro'z). Sen ayolga berolmay qolib ketgan baxt yurakning qay chekkasidadir azob berib, achchiq **simillar**. (Faxriyor). Suyg'un(kiyik)ning bir shoxiga ursang, ikki shoxi **sizlaydi**. Maqol. Tovuimga chaqir tikanakday botguvchi – g'ashlik, Bedavo sizloviqday **sizlatguvchi** – g'ashlik. (Mirtemir, Onaginam).

QARAM, TOBE, MUTE, IZMIDA. Erki, ixtiyori o'zida emas, boshqaga bo'ysungan. **Tobe** so'zlashuvda kam qo'llanadi. **Mute, izmida** asosan badiiy nutqda qo'llanadi.

U [Dildor] cho'lga kelib hech kimga **qaram** bo'lmay, mustaqil yashay boshlagan bo'lsa, bugun butun vujudini bosib yotgan alam yuklaridan xalos bo'lib yangi tuyg'ular, yangi orzular bilan entikar... (S.Ahmad, Ufq). Vatan – Iymon, Vatan – Dard, kimki jon-tanin sevar – Hech kimdan kam bo'lmagay, Aslo **qaram** bo'lmagay! (O.Hojiyeva, Aslo qaram bo'lmasmiz). Dala-dashtlar o'z-o'zidan Eram bo'lmagay, Lekin sendan beminnat bir karam bo'lmagay, O'zbek eli hech kimsaga **qaram** bo'lmagay, Menga qanday yashamoqni o'rgatmagin sen! (I.Mirzo, Qo'shiq). [Bobur] - Men o'zim ham shohlik zanjiridan butunlay ozod bo'lishga intilmoqdamen, janob Qosimbek. Bu zanjirning bir uchi **tobe** odamlarga bog'langan bo'lsa, uning ikkinchi uchi shohning o'ziga bog'lanur ekan! Shu sabab, **tobelarni** zanjirdan bo'shatmaguncha podshohning o'zi ham zanjirband bo'lur ekan. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Biroq, uning [To'g'aysarining] Anvar poshoga **tobe** bo'layotgani [Ibrohimbekning] g'ashini keltirardi, shu xususda unga bir nimalarni uqtirib qo'yishni ham istardi... (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik). O'z yurtningda o'zgaga **tobe** bo'lub yashagandin o'lgan yaxshidir! (E.Samandar, G'ayb qushlari). Boshqa bir yurt hukmdorining qovog'iga qarab **mute** bo'lib yashashning qanday ruhiy azoblari borligini u Humoyun birinchi bor Mashhadda qirq kun shohning navbatdagi ko'rsatmasini kutib qolganda sezgan edi. (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). Elim, Seni **mute** ko'rsam, Ko'zdan qolay, ko'zim kuysin... (H.Xudoyberdiyeva, Hurlik o'ti). **Mute** holida turgan o'rtog'ining bunday baqirishi G'ayratdagi g'azab oloviga moy sepdi: - Sen ablahsan! Sen hayvonsan! (T.Malik, Talvasa). Sardorning haramida undan tashqari yana to'rtta qorako'z urg'ochi bug'u bor. Ular ham Sardor **izmida**. Bu – ona bug'uga yoqmasa-da, noiloj, to'qay qonuniyati shunday. (Jo'ra Fozil, Xongul). A'zoyi badanimning qaysidir puchmog'ida tibbiyot olami uchun noma'lum bir a'zo paydo bo'ldi desam ishonaver... Faqat shunisi shakshubhasizki, o'sha noma'lum a'zo bosh miya va yurak singari vujudimdagi eng muhim a'zolardan biriga aylandi. Hatto ichimdagi barcha a'zolar xuddi bosh miyaga bo'lgani singari, unga qaram, uning **izmida**, uning ra'yiga mahkum, uning amriga muntazir bo'ldi-qo'ydi. (X.Do'stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz).

QARAMLIK, TOBELIK, MUTELIK, QULLIK. Erki, ixtiyori o'zida emaslik, boshqaga bo'ysunganlik. **Qaramlik, tobelik** faol qo'llanadi. **Mutelik** ko'proq badiiy nutqqa xos.

Har bir fuqaro: “Fikrim mustaqil – men mustaqil! Men mustaqil – yurt mustaqil!” – degan tushunchani dil-diliga jo qilgandagina, mamlakat **qaramlik** isnodidan abadiy xalos bo‘ladi. (A.Obidjon, Tip-tiniq vujud). – Tangri turk kabi erksevar elga doimiy **qaramlik**ni ravo ko‘rganiga inonib bo‘lmaganidek, Inalning, qolaversa, har bir turk yigitining kelajagi yorug‘ bo‘lishini umid qilmog‘imiz kerak, – dedi yabg‘u. (G‘.Karimiy, Temirchilar isyoni). Dastlabki davrlarda o‘rtaosiyolik, jumladan, xorazmlik davlat hukmdorlari o‘zlarini yarimqaram deb hisoblagan bo‘lsalar, keyinchalik mamlakat rivojlanib quldorlik mustahkamlangan sayin **qaramlik**dan butunlay ozod bo‘lishga intilganlar. (I.Jabborov, Buyuk xorazmshohlar davlati). Juvon ham, erkak ham shu tobda mushtdek bo‘lib qolgandi. Ularning sukutga to‘la bu turishida qismat hukmiga, **tobelik** alomatlarini mujassam edi. (E.Norsafar, Oq yomg‘ir). Ammo har ikkovi [Madumar va Muslim] ham payti kelsa Zokirni o‘ldirib o‘zim Sardori a‘zam bo‘lib olaman degan pinhoniy bir niyat bilan **tobelikka** rozi bo‘layotgan edilar. (X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar). Eng achinarlisi – urushda mag‘lubiyatga uchragan davlatlar qisqa davr ichida o‘zlarini tiklab oldilar, g‘oliblar esa soxta shiorlar, havoyi orzularga ko‘milib qolaverdi. Buning boisi shuki, uzoq vaqt davom etgan, inson ongiga singdirilgan siyosiy-ijtimoiy **tobelik** bora-bora ma‘naviy **tobelikka** ham aylangan edi. (A.Meliboyev, Yolg‘iz yashab bo‘lmaydi). Bepoyon kengliklar, tog‘, sahrolar farzandlari bo‘lmish turklar tutqunlik va **mutelikka** sira toqat qilolmasdilar. (J.Fozil, Ayriqliq ostonasi). Mashaqqatli mehnatda ezilgan, **mutelik**dan bezillagan jonivor shataloq otib, boshi og‘gan yoqqa ketadi, balki o‘z qavmlarini topib, ularga qo‘shilib olar, deb o‘ylashdi. (Q.Kenja, Ko‘ktoy). Hayriyat-e, bu ishxonada bir nafargina bo‘lsa ham o‘z erki va g‘ururi bilan **mutelik**dan xoli holda yashayotgan inson ham bor ekan-ku... (Q.Norqobil, Tirik haykal). Qamariddin bu ayolni ustoz huzurida hamisha **mutelik** holida ko‘rgani uchun hozirgi turishidan ajablanmadi. (T.Malik, Talvasa). Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman, O‘ynagan boshqalar, ingrangan menman, Erk ertaklarini eshitgan boshqa, **Qullik** qo‘shig‘ini tinglagan menman. (Cho‘lpon). Aleksandr II 1861-yilda krepostnoy huquqni bekor kildi. Dehqonlarni... **qullikdan** ozod etdi! (T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi). Qo‘rqitish siyosati oqibatida xalqning haqiqiy guli yo‘q qilingan bo‘lsa, boshqa bir beqaror toifasida ma‘naviy aynish yuz berdi. Bu – sharoitga moslashish, itoatkorlik, **qullik** zanjiriga ixtiyoriy bo‘ysunish edi. **Qullik**, **mutelik** falsafasi uzoq yillar qoniga singib, zot belgisiga aylangan amaldorlar toifasi paydo bo‘ldi. (O.Tog‘ayev, Qanoti qayrilgan lochin).

QARASHLI, TEGISHLI, TAALLUQLI, OID, MANSUB, TOVIN.

Boshqaruvida, tasarrufida bo‘lgan, doirasiga kiradigan; bo‘ysunadigan. **Mansub** badiiy uslubga xos. **Tovin** shevada qo‘llanadi.

Rais o‘ziga **qarashli** yasovul va navkarlar bilan bozorga kiribdi. (Sh.Xolmirzayev, Ota yurt). Ma‘munning otasi xalifa Horunarrashid o‘zining eroniy vaziri Ja‘far ibn Yahyoni arzimagan bir gunohi uchun qatl ettirgan edi. Shundan keyin unga **qarashli** Eron va Xurosonda norozilik boshlanadi, u yer-bu yerda isyonlar ko‘tariladi. (M.Osim, Aljabrning tug‘ilishi). Hisob-kitobni qaytadan boshlamochi bo‘lib turganingizda, dabdurustdan poshsholikning odamlari kelib qoladi, bug‘doylarni Sepkilshohga **qarashli** yerlarda o‘stirding, endi haqini cho‘zib qo‘y, deyishadi. (A.Obidjon, Meshpolvonning janglari). [Omon Fatullayev] Bizda bir necha rubrikalar bor, ular bilan keyincha tanishasiz. Bular ichida “Tabiat va Odam” degan rubrika sizga **tegishli**. Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam. Asosiy ish faoliyatim ijod va ijodiy sohaga **tegishli** xizmatlar bilan utayotir. (A.Oripov, Ko‘rgan-bilganlarim). Nima bo‘ldi-yu, Eshmat “Robinzo Kruzo”ni qayta o‘qimoqchi bo‘lib qidirdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, unga **tegishli** shkaf bo‘lmasning ag‘dar-to‘ntar qilingan, estaliklar daftari yirtilgan edi. (M.Ziyo, G‘ashlik). Qishloqning bir burchidagi shivir shu lahzaning o‘zidayoq qanot bog‘laydi, qarabsizki, kiprik qoqib ulgurgancha hamma-hamma boxabar. Shunday bo‘lgach, televizor ta‘kidlab, radio tasdiqlab turgan, aynan shu qishloqqa **taalluqli** Xayri bevaning farzandi bilan bog‘liq jahoniy xushxabar qishloq osmonida momoqaldiroqday gumburlamasligi mumkinmi? (Q.Norqobil, Osmon ostidagi sir). Shunday tuyuldiki, hatto Ofiyat bilan Shodi aka o‘rtasida ikkalasiga **taalluqli**, menga aytilmaydigan bir sinoat borday, Ofiyat shu sirning ochilib, turmushimizga rahna solishidan ko‘rqayotganga o‘xshadi... (A.A‘zam, Asqartog‘ tomonlarda). Direktor yon daftarni chetga surib qo‘yib, sovigan choy ho‘pladi: — Endi, Suyar aka, bir ish qilsangiz. Kundalik tuting-da, bug‘ular galasiga **taalluqli**

bo'lgan neki hodisani kuzatsangiz, yozib boring. (M.Safarov, Ayrishox). – *Chakki qilursiz! Arkoni davlatga, siyosat dag'dag'asig'a mansub har kimsa beistisno tezfaahm bo'lmog'i lozim, – dedi Bobur xiyol yumshab.* (X.Sultonov, Panoh). *Ona tabiat Surxonni qay yo'sin ibtido shiddat bilan yaratgandagi borliq dahshati, asovligi, qudratini ko'rish nasib etgan baxtiyor avlodga mansubman.* (M.Safarov, Sarbasta Surxon). *Topgan-tutganingni halqqa ber, qo'zim, O'shanda hech qachon topmaysan to'zim. Lekin bir mantiqni unutma aslo: Ya'ni, mansubdirman xalqqa men o'zim.* (A.Oripov, Bir ustoz o'giti). *Shoh Ismoil Movarounnahrqa oid hamma ishlarni Najmi Soniyga ishonib topshirgan edi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Baxtga qarshi, qazilma ishlari ular kutgan natijalarni bermadi. O'n beshinchi, nari borsa, o'n to'rtinchi asrga oid sopol buyumlar, xo'jalik asboblari, zanglab ketgan bir necha qilich-qalqon-u ko'zachalardan boshqa hech narsa topilmadi.* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) *To'nkalar allaqachon tosh-metinga aylangan, yoshiga oid biron belgini aniqlashning hech bir iloji yo'q edi.* (M.Safarov, Ayrishox). *Ko'p boshni qotirma! – dedi pisanda ohangda. – Qara, bu tosh sendan ko'ra ko'proq menga tovin... – Qachondan beri ena kimgadir tovin bo'lib qoldi? – dedi Tog'ay uning sha'masini anglab.* (N.Norqobilov, Enatosh). *Yakkasuv teng oraliqda joylashgan bo'lishiga qaramay, ikki qishloq yoshlari o'rtasida doimo talash, "bizga, yo'q, sizga emas, bizga tovin", deya dam-badam ular orasida chaqin chaqnab turadi.* (N.Norqobilov, Yakkasuv). *Maydaqadam modaning ustida o'z maylida tebranib borayotgan mana bu jinqarcha Bozirgan cholning nevarasi. Huv-v, ana u chayla esa Bozirganga, to'g'rirog'i, uning kenjasi – Eshboy eshchiga tovin.* (N.Chori, Tashvishi yo'q odamlar).

QARAMA-QARSHI, ZID, KONTRAST, QUTBIY Bir-biriga teskari. **Qarama-qarshi, zid** ko'qo'llanadi. **Kontrast** ko'proq terminologik ma'noda adabiyotshunislikka oid asarlarda qo'llanadi.

Farhodning esa dami ichida: Vika keladi, Vika! Uy-joyimni ko'rib nima derkan u? Ammo bir-biriga qarama-qarshi chigal o'ylardan ko'ngli g'ash... (E.A'zam, Shovqin). *Chorraha chegarasi uning markazidan qatnov qismlari oxiridagi qarama-qarshi tomonlarning eng uzoq burila boshlagan joylarini tutashtiruvchi tasavvur qilinadigan chiziqlar bilan aniqlanadi.* (Yo'l harakati qoidalari). *Muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir, asos aktivni xarid qilishga qaratilgan operatsiyalar uchun qarama-qarshi yo'nalishdagi operatsiya deb – asos aktivni sotishga qaratilgan operatsiya, asos aktivni sotishga qaratilgan operatsiya uchun esa — asos aktivni xarid qilishga qaratilgan operatsiya e'tirof etiladi.* (O'zbekiston respublikasining Soliq kodeksi). *Xondamir beixtiyor Hirotni va Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi murakkab munosabatlarni esladi. Bu ikki zot yoshlikdan bir-birlarini yaxshi ko'rar edilar, ammo podshohning shafqatsiz ishlari shoirning nafis tuyg'ulariga shu darajada zid kelar ediki, Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan bir shaharga, hatto bir mamlakatga sig'ishmay qoladigan va Xurosonni tashlab hajga ketishga astoydil intiladigan paytlari bo'lardi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *O'shanda xam Fotihning ovozidagi betaskin iztirob undagi g'urur va manmanlikka shunchalik zid ediki, Nigora xiyol yumshab: — Mayli, o'tgan ishga salavot, Fotih aka! — degan edi.* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) *Meni turli-tuman, bir-biriga zid tuyg'ular kemira boshladi.* (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). *Bu o'rindagi ma'naviy-axloqiy sathda olingan kontrast hikoya yakunida yanada kuchaytiriladi.* (D.Quronov, Cho'lpon nasri poetikasi). *Conet janri qoidasiga binoan, unda faqat bir syujet ifodalangan bo'lishi zarur. Dastlabki misradayoq mazmun bayon qilinib, keyingi misralarda u rivojlantiriladi, obrazlar talqini, kontrast holatlar va ishqiy kechinmalar me'yoriga yetkazib ta'riflanadi.* (M.Xolbekov, "Ishqing saqlaguvchi ko'ksim beqalqon" yoxud Shekspirning xushta'b sonetlari).

QARAMA-QARSHILIK, ZIDDIYAT, ZIDLIK, KONTRAST, QUTBIYLIK Bir-biriga teskari bo'lgan holat. **Kontrast** ko'proq terminologik ma'noda adabiyotshunislikka oid asarlarda uchraydi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni – dialektikaning qonunlaridan biri. "O'zME". *G'oyalar kurashining g'oyatda qarama-qarshiligi bugunga kelib hammaning diqqat markazida turibdi. Keskin kurashlardan iborat bu mafkuraviy siyosatlar ichida milliy masala alohida o'rin tutadi.* (T.Murod, Tanlangan asarlar). *Oqibat shunday bo'ldiki, Saidiyning ichki hayoti bilan tashqi*

hayoti orasidagi kundan-kun o'sib borayotgan **qarama-qarshilik** uning joniga qasd qilarli darajaga yetdi. (A.Qahhor, Sarob). – Ajoyib ayol! – dedi [Qamariddin]. So'ng o'g'lini bag'riga tortdi. – Odamzod ana shunday, mulla Jahongir! Bu hayot kutilmagan **ziddiyatlarga** to'la! (Sh.Xolmirzayev, Qush tili). Insonning umri, shaxsiy-intim kechinmalar haqidagi **ziddiyatlarga** to'lib-toshgan adoqsiz o'ylar men o'zimga aylantira olmagan go'zal qalbning o'zgacha dukurlashiga sabab bo'ladi... (X.Do'stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz). [Akmalning] O'g'li bilan xotini orasidagi **ziddiyat** yil o'tgani sayin kuchayib borayotgan edi. (T.Malik, Talvasa). Sohibqiron harbiy safarda hali bunday beqaror bo'lganlari yo'q edi, yobonda sochilib yotgan laklak lashkargina emas, go'yo butun dunyo buyuk hukmdorning tonggi hukmini kutar, ammo u zotning xayollarida **ziddlik** tarozusining shayini muallaq edi... (A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen). Kutilmagan izlanishlarga boy o'zbek adabiyotida ham **ziddlik** ma'nosi butun bir asarning boshidan oxiriga qadar bu qadar izchillik bilan va sezdirmay ifoda etilgan she'rlar juda kam uchraydiki, bu hol Faxriyor poeziyasi betakrorligidan belgidir. (Q.Yo'ldosh, Noziklashuv jarayoni). Tabiiyki, adabiy davralarga, u yoki bu ijodkorga ozmi-ko'pmi yaqin bo'lgan kishilardan olingan ma'lumotlar tez yoyiladi – urchiydi, semiradi. Natijada adib-u shoirlarimizning ikki xil qiyofasi paydo bo'ladi: har ikkisiidagi chizgilarning aksariyati bir odamga tegishli bo'lganlari holda bir-biriga **ziddlikda** yashay boshlaydi... (D.Quronov, Surat va siyrat). So'zlardagi ma'no ziddligi shoir va yor o'rtasidagi munosabatni oydinlashtirishga xizmat qilmoqda: lab – shirin, ammo undan chiqqan so'z – achchiq; keyingi misrada **kontrast** ajoyib yechimga ega: bol(lab) har qancha achchiq bo'lsa, oshiqqa shuncha xush yoqadiki, oshiq undan-da mastroq bo'ladi. (M.Tojiboyev, Muhammad Shayboniy lirikasida badiiy til muammolari). Lekin dugonalar orasidagi suhbatni psixologik **kontrast** asosiga qurgan Cho'lpon Saltining ham o'zicha haqligini ko'rsatadi (D.Quronov, Cho'lpon nasri poetikasi).

KELISHMOVCHILIK, NIZO, IXTILOF, NIFOQ. O'zaro kelishmaslik, manfaatlar to'qnashuvi.

Xuddi shu yerda **kelishmovchilik** yuz berdi. (T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi). Boshqa jins daraxtni boshqasiga payvand qilganda begonasirab, tutib ketishi qiyin bo'lganidek, bu kichik oiladagi **kelishmovchiliklarning** sababini ham ancha olisdan axtarmoq kerak edi. (O'.Usmonov, Girdob). [Kim] Namoz ikkovlari o'rtasida tez- tez yuz berib turadigan **kelishmovchiliklardan** agentlar xabardor ekan-da? (X.To'xtaboyev, Qasoskorning oltin boshi). U [Kim] ham ham har xil janjallardan, **kelishmovchiliklardan**, aymoqlar, qarindoshlar o'rtasidagi nizolardan bezib, faqat o'g'illari va nevaralaridan iborat bitta totuv qishloq qurmoqchi bo'ladi. N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi. [Ma'mur] Endi hazrat Shohruh keksaydilar. Shahzodalararo tag'in **nizolar**, jang-qirg'inlar alangalanib ketmagay, deb gumon qilurmiz. Oybek, Bola Alisher. [Akobirov] – Demak, mening vaziyatimni o'zlaring tushunib turibsizlar. Shuning uchun, iltimos, o'pkalamaysizlar. Xolis bir odam sifatida fikrimni aytadigan bo'lsam, bu ikki tomonning o'rtasida asli nizoga borgulik bir **ixtilof** ko'rinmaydi. E.A'zam. Shovqin. [Asadulla] – Faqat odam emas, olam o'zgarib ketdi. Zulmga, **nifoqlarga**, urushlarga... faqat jaholat sabab, xalq savod chiqarsa hammasi barham topadi, degan aqidamiz, u qadar to'g'ri emas ekan. (T.Malik, Savohil).

QARAMOQ, BOQMOQ, NIGOH TASHLAMOQ (QADAMOQ), NAZAR SOLMOQ (TASHLAMOQ), KO'Z TASHLAMOQ, SIN SOLMOQ, SINGALAMOQ Ko'rish uchun ko'zni biror tomonga, narsa yoki kimsaga yo'naltirmoq. So'zlashuvda ko'pincha **qaramoq** so'zi ishlatiladi. **Boqmoq, nigoh tashlamoq (qadamoq), nazar solmoq (tashlamoq), ko'z tashlamoq** badiiy adabiyotda ko'proq qo'llanadi. **Sin solmoq, singalamoq** shevaga xos so'zlar bo'lib, sinchkovlik bilan qaramoq ma'nosini anglatadi.

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko'chaga **qarab** o'tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo'lsa-yu, oyoq-qo'li butun odam ko'chaga chiqolmay, derazadan mo'ralab o'tirsa!.. (A.Qahhor, Ming bir jon). Yigit gapini yo'qotib chaynaldi. Qizga yalingandek javdirab **qaradi**. (S.Ahmad, Ufq). Shovvoz o'z quloqlariga ishonmay chang kipriklarini pirpiratib, ro'parasida qoyaday qaqqayib turgan yosh direktorga **qaradi**. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Dildor bu mehribon, otasidek muloyim kishiga

allaqanday mehr bilan **boqdi**-da, xo‘p bo‘ladi dedi-yu, haligacha motori o‘chmay patillab turgan traktoriga o‘tirib mashina izi tushgan yo‘ldan rais ko‘rsatgan qartaga qarab ketdi. (S.Ahmad, Ufq). [Fadeyev] Menga tez-tez **boqib**, ko‘zlarini qisardi-da, tag‘in kulardi. (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). Tog‘ning chuqur bag‘rida bir shu‘la yilt etdi, nurlar o‘ynab, halqaning sirtida o‘z aksimni ko‘rdim. Undan yillar yuziga ajin bo‘lib muhrlangan, qaddi egilgan, nigohi xiralashib, ruhi zaiflashgan bir odam jim **boqib** turar edi. (I.Sulton, Manzil). Mohim begim shunday deb, ichki uyning ochiq eshigidan ko‘rinib turgan shohona to‘shaklariga olovli bir **nigoh tashlab** oldi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). „Ayrish...“ dedim. Shunda bir **nigoh tashladi**. Yana otini aytib chaqirdim. (M.Safarov, Ayrishox). Jamshid Shilimshiqning gaplarini qaydan bilsin. Hozir **nigohini qadab** o‘tirgan odamning qahrli hukm chiqarayotgani ham unga ma‘lum emas. (T.Malik, Shaytanat). Birortasi bormidi? – shunday deb Akobirov quvlik bilan nari-beriga **nazar soldi**; negadir shkafga tikilibroq qaradi. – Ha-a, chatoqsan, bola, chatoqsan! (E.A‘zam, Shovqin). Kallaklangan tutzor orqasidan Dildorlarning oq tunuka tomli uyi ko‘ringanda Nizomjon bir dam ma‘yus **nazar tashladi**-yu, ortiqcha hislarga berilishdan o‘zini saqlab jadal yurib ketdi. (S.Ahmad, Ufq). Kechgan har oningga **nazar solsang** gar, Shoirning shoh satri ravodir balkim, Oltin uydi axir fazolar qadar, Mening bobo yurtim, azamat xalqim. (A.Oripov, Qutlov). Shovvoz nogahon shunday ikkilanib qoldiki, hatto qora papkaning boshini orqaga burgisi ham keldi, biroq Oysuluvga o‘g‘rincha **ko‘z tashladi**-yu, yuragi yana kechagiday bezillab, bu fikridan qaytdi... (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Uy yonidan O‘tarkan, sekin **Ko‘z tashlarsan** bo‘m-bo‘sh makonga. (A.Oripov). Sen shu tobda muallif-muxlisingning mulozamatiga ham qaramas, gaplarini ham eshitmas eding. Ustma-ust tamaki tutatib, bir nuqtaga tikilib o‘tirarding. Chorburchak ustun tarafga boz qaytib **ko‘z tashlamoqdan** qo‘rqar, ham allanechuk uyalar, or qilar eding. Miyang-u vujud-vujuding qizib-qaynab ketgan. (E.A‘zam, Shovqin).Ularning tanish, lekin turmush tashvishlari to‘r tashlab uzoqlashtirgan qiyofalariga **sin solib**, imkon qadar har bir ifodani, har bir dog‘ni, har bir ajinni eslab qolishga urindi. (I.Mirzo, Iltimos). Bo‘ri polvon yuzini yerga oldi. O‘zini ko‘rmaslikka soldi. Aspirant yomg‘ir pardasi oralab, qariyaga tuzukroq **sin soldi**. (Abdunabi Hamro, Shoirning janozasi). U [Yoqit momo] bir maromda qadam tashlarkan, yon-atrofga salqin **sin soldi**. (Komil Avaz. Yoqut momo). Yer **singalab**-yer **singalab**, supa chetiga borib o‘tirdi. (T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. Turdixol kampirni taniy olmayotgan qizi onasining jinjigidan pilayogan Eshpul dalloldan ijir‘anib, yer **singalagancha** mo‘ltirab ovoz berdi. (N.Chori, Qizg‘aldoq). Daraxtlarga qayta boshdan **singalab** qaradi-yu qishda bexosdan suvga yiqilib tushgandek qaltirab ketdi. (Xolmuhammad Karimiy, Chorva odami).

QARASH, BOQISH, NIGOH, NAZAR. Ko‘zlarnig biron narsa, voqea-hodisaga yo‘nalgan holati; ko‘z tashlash. **Qarash, boqish, nazar** ham adabiy til, ham so‘zlashuvda faol qo‘llansa, **nigoh** poetuk nutqqa xos.

Ko‘zlari cho‘lpondek nozli sevgilim! Bir **qarash** tashlading, men sevdim seni. (Oybek, Uzoqdan turib...) Shunda o‘tgan yozda chorpoya ustidagi qahqahalar, Nazirning sho‘x va quv **qarashlari** [Nazokatning] yodiga tushdi. (M.Safarov, Armon). Ikromjon amakining **qarashlari** jiddiy, nimadandir xafaroq ko‘rinardi. (S.Ahmad, Ufq). Azizxoning bosiq ovozida, o‘ychan **boqishlarida** yurt ko‘rgan, tirikchilikning achchiq-chuchugini totigan erkak nuqsi sezilib qolgandi. (S.Ahmad, Ufq). Nigora esa hanuz o‘sha-o‘sha, g‘aroyib qushchaday bejirim, bekami ko‘st, nozik. Go‘yo farzand ham ko‘rmagan, go‘yo oila g‘urbatlarini ham chekmagan. O‘zi ham, ma‘yus **boqishlari**-yu, xiyol g‘amgin kulib qo‘yishlarigacha — hammasi o‘sha-o‘sha, birinchi ko‘rishdayoq Fotihning yuragiii cho‘gday “jaz” ettirgan Nigora! (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Jingalasochoq termish paxtasini Xursandoyini etagiga tashladi. – Tushudingizmi? – dedi. – Nigohlaringizda muhabbat, vafo, sadoqat balqib tursin! **Boqishlaringizda** paxta ishqi barq urib tursin! (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar). Davradagi bitta begona – yetimxonadan taklif qilingan Zoya ismli qiz edi. Bir-biriga bildirmay hammaning **nigohi** shunda. (E.A‘zam, Shovqin). Kitobidan bosh ko‘tardi Malika nogox, Shikvali bir qarash qildi: - Tabibmi sen ham?! Vo ajabo, qayoqda bor bundayin **nigoh**, Malikaning ko‘zlarida charaqlardi g‘am! (A.Oripov, Hakim va ajal). Dumkashak Anushbiy va Komila sari yuzlangan hamono Sevinchak oqbadan parivash **nigohidan** ajib ma‘nolar uqib rag‘batlandi. (A.Dilmurod, Oqbadan parivash nigohi). Yodgor yonlamasi turgan cha shim

kiyarkan, Azizaning bir lahza tashlagan g'amzalik **nazarini** ilib oldi-yu, yuragi gupullab ketdi. (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol). *Bu gapni eshitib, afg'onlar bir-birlariga savol nazari bilan qarab oldilar.* (T.Malik, Savohil)...*tarix hududsiz vaqt maskani, har bir tirik inson uning nishonida. Uning olmos nazaridan na shoh, na gado, na zohid, na fozil, na dono, na junun qochib qutula oladi.* (M.Safarov, Sarbasta Surxon). *Muridlar ustozga savol nazari bilan boqdilar. Ularning ko'nglidan nimalar kechayotganini hazrat ko'rib-anglab turardi.* (E.Samandar, G'ayb qushlari).

QARINDOSH, URUG', AVLOD, TUG'ISHGAN, JIGAR, BOVUR, JIGARBAND, JIGARGO'SHA, QONDOSH, QARDOSH, XESH. Nasliy, irsiy yaqinlikdagi shaxslar bir-biriga nisbatan. **Qarindosh** ham so'zlashuvda, ham adabiy nutqda faol qo'llanadi. **Tug'ishgan** so'zlashuvda faol qo'llanadi. **Urug', avlod** bu ma'noda kam qo'llanadi. **Jigarband, jigargo'sha** poetik nutqda faol. **Bovur, xesh** shevaga xos so'zlar.

Rasul necha marta mehmon bo'lgan katta choxxari xona ayollarga liq to'la. Ulardan bir guruhi – bular eng yaqin qarindoshlar bo'lsa kerak – ustlariga ko'k ko'ylak kiyishgan, boshlariga uzun ko'k ro'mol tashlab, yuzlarini to'sib olishgan. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) *Allaqachon dunyodan o'tib ketgan uzoq bir qarindoshini ko'z oldiga keltirmoqchidek, Farhod Ramazon aftini tirishtiradi.* (E.A'zam, Shovqin). *[Kerim] Yo'l bo'yida to'planib turgan odamlarga ko'zi tushib, avvaliga ajablandi. Yaqinroq kelib, tanishlarini, qarindoshlarini ko'rdi-yu, hayrati yanada oshdi.* (T.Malik, Talvasa). *[Ahmad Tanbal] – Men ham bu yerda xor bo'lib yurmoqchi emasmen. Omon bo'lsam, podshoh topilur. Axsida Jahongir mirzo bor. Buxoroda Sulton Ali mirzo bor. Bularning urug'i ko'p. Hammasiga siz-u bizdek beklar kerak. Sizga mening maslahatim – Andijonda ko'p turmang. Ilikka tushib qolursiz.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *[Usta] Payg'ambarlarimiz qabrlar ustiga faqat bittagina belgi qo'yishni buyurganlar. Sababi, Rasululloh alayhissalom Usmon ibn Maz'un qabri boshiga bittagina tosh qo'yganlar. Bu tosh: “Birodarim qabri qayerdaligini bilishim va boshqa qazo qilgan urug'larimni ana shu qabr qabatiga olib kelib dafn etishim uchun belgidir”, degan.* (A.Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen). *Amakilaringdan xabar ol. Ota urug' sir-haybat saqlab turadi. Ota urug'da otangning qoni oqadi.* (I.Sulton, Onaizorim). *[Akbarali Lutfinisaga:] - Yigit boshimni egding, onamning arvochini chirqillatding, butun avlodimizni isnodga qo'yding.* (S.Ahmad, Ufq). *Mahmudxon shuni o'yladi-yu, o'z qo'shiniga Boburni sarkarda qilish fikridan darhol qaytdi. Gapni boshqa yoqqa burib: - Sho'rlik Xonzoda begim... ne ko'ylarga tushdi-a? — dedi. — Shayboniyxon makkor tulki-da. Xonzoda begim ona tomondan bizga avlod, ota tomondan temuriylarga mansub. Begimni olsa obro'si oshishini bilgan.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Husayn Boyqaro avlodidan bo'lgan bu mirzolar avval ham o'z qarindoshlari Akbarga baxilligi kelib, nuqul uning dushmanlariga yordam berib yurishardi.* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). *Siyosat o'gayni ham Tug'ishganim dedirar. Aytmaganni ayttirib, Yemaganni yedirar.* (A.Oripov, Imom Buxoriy). *Bu shunday bevafo dunyo, bu hayot, Tunda tug'ishganing tongda yetti yot. Balki taqdir shudir, balki shu qismat, Bizdan rozi bo'ling ruhi notinch zot.* (M.Yusuf, Tillaqo'ng'iz). *Fozil ham shu azaliy zinalarni bosib kelardi. Biroq takdir uning yelkasiga og'irroq yuk ko'ydi. Urush, otasizlik, sag'irlik, muhtojlik, tug'ishganlardan judo bo'lish, takdir ato qilgan zarbalarga bardoshli bo'lish, unga karshi zaifona isyon, qamoq, o'z qo'li bilan qurgan hayot mevalarini ko'rgandagi baxtiyorlik, oila va farzand, yana judolik, qalbida bitmas-tuganmas armonlar.* (M.Safarov, Olis qirlar ortida). *Sen unda ter to'ksang, singlim, jigarim, Men nechun yuraman axir ishratda?!* (A.Oripov, Yuzma-yuz). *O'yim uzaymoqda ulg'aygan sarim, Kengroq bo'lsak, deyman bu keng dunyoda. Farg'onada bo'lsa yarim jigarim, Jigarimning yarmi Surxondaryoda.* (M.Yusuf, Mish-mish). – *Men senga gapirsam... – dedi Farmonov, alamdan yuragi behush bo'lib. - O'z jigarim, pushtikamarimdan bo'lgan yolgiz o'g'lim deb gapirlyaman. Jonim achigandan gapiryapman, bolam!* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) *Shundoq ajib yurtsan, jon Qozog'iston, Qardoshim, qurdoshim, bovorim azal!* (A.Oripov). *Ayo, tug'ishganim, do'stim, bovorim, Otalar ruhini qilmoq uchun shod Xudoning kalomin takrorlay turib, Tarix sabog'ini aylagaysan yod.* (I.Mirzo, Ata bayit). *Hammamiz qo'ng'irotning bovuqlarimiz.* (A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi). *Bobur jigarbandlariga dil yorib so'zlar ekan, ilojsizlikdan ko'ngli ezilib, ruhi qiynalar, ko'zlariga yosh quyulib kelardi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). – *Bu qandoq*

bo'ldi? – dedi u [Salim Karimovich] qandaydir yig'lamsiragan, titroq tovush bilan. – Sen kimni fosh etmoqchi bo'lib yuribsan? Men seni o'g'lim deb, **jigarbandim** deb o'rtoqlarga yelib-yugurib ishingni to'g'rilab bersam-u, sen bunaqa qilsang? O.Yoqubov, Muqaddas. U [Behzod] bir necha yil davomida faqat shu bitta qalb rozi bilan — o'zi bilan o'zi sevgan aziz **jigarbandlari** va ularning dard-u hasratlarini ifoda eta oladimi, yo'qmi — faqat shu o'y, shu xayol bilan band edi! (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) U [Behzod] o'z asarini, asaridagi jangchinigina emas, o'z **jigargo'shalarini** yo'qlab faryod chekayotgan mushfiq ayollarni shunday aniq tasavvur etdiki, bu manzaradai yuragi uvishib ketdi. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Ularni shu darajada ko'r-ko'rona yaxshi ko'rganidan boshqalar ham, masalan, shu kuyovi Aziz ham birovning xuddi o'zinikiga o'xshash shirin-shakar dilbandi, **jigargo'shasi** ekanini ham tan olgisi kelmay, shu boisdan u ba'zan ertaklardagi jodugarga o'xshab ketardi. (O'.Usmonov, Girdob). Necha zamon o'tib, goh kitob chiqarish, goh universitetda tahsil olish, goh ishga joylashish umidida Toshkentga qatnab, yotoqxona topolmay sarson yurganimda; topsam ham biri shahar markazidan uzoqda, biri sharoiti og'ir bo'lgan xonadonlarga duch kelganimda; poytaxtdagi bu ikkala **qondoshimdan** loaqal bittasi tirik emasligidan, ulardan so'ng aloqalarimiz uzilib qolganidan afsuslanib ketardim. (A.Obidjon, Ajinasi bor yo'llar). Devor-darmiyon qo'shnisi – akasidan shubhalanishiga mutlaqo asos yo'q. Devorning bu yoqqa emas, qaytanga, narigi tomonga og'ishi ham bunday gumonsirashga izn bermaydi. Qolaversa, **qondoshlari** o'zining ustiga devor yiqitadigan darajada nodon emas... (N.Ochilov, Darcha). Mangu elda esdalik bo'lsin deb mendan, Borib yetgay bu xatim senga daf'atan. Oh, **qardoshim**, og'ajon, piri barkamol, Qirq yillik bir daftardir xotira, xayol. (M.Shayxzoda, G'afurga xat). Umidim bor Tangrim marhamatidan, **Qardoshim** xo'rsinsa, ko'zim to'la yosh. U ham bovrin deb tushib otidan Chinni kosasida tutar go'ja osh. (I.Mirzo, Kosa). [Bobur:] Hirotda Badiuzzamon mirzo bilan Muzaffar mirzodek tojdor **xeshlarimiz** biz uchun orasta bazmlar berib, chog'ir taklif qilganlari majlis axdiga ma'lum bo'lsa kerak. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Qolaversa, qondoshlari o'zining ustiga devor yiqitadigan darajada nodon emas... To'xtasin bobom **xeshimiz** edi, Xudo rahmatli cholingizning ham ruhi shod bo'ladi, niyat qilganman, momo. (Q.Norqobil, Osmon ostidagi sir). Oqshom esa yuzi-ko'zi bejalgan Abdukattaning **xeshlari** dov to'kib kelishadi. (N.Norqobilov, Kurash).

QAROR, AZM, JAZM, AHD, TO'XTAM. Biror ish, masala va shu kabi yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr.

Boburning qaltis **qarorini** Qutlug' Nigor xonim Qosimbekdan eshitgan ekan shekilli, tahluka to'la tovush bilan gapirdi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Bu fikr uning Nizomjonning **qarorini** yanada qat'iyilashtirib yubordi. (S.Ahmad, Ufq). To'satdan kechagi **qarorimni** unutib qo'yganimni, Muqaddasga sevgim to'g'risida bir og'iz aytmaganimni esladim. (O.Yoqubov, Qissa). Nega unda hali hech narsa qilmay turib, aqlimiz "hamma narsani qilish mumkin"ligi ehtimolidan ogohlantirmoqda, orqaga qayirmoqda, qayta qurish shahdini, **azmini** yana loqaydlik bilan almashtirishga urinmoqda. (I.G'afurov, Najot haqiqatda). Jangchining qonidan rang olar alvon, Jangchining **azmidan** nurli istiqbol. (Nazarmat, So'nggi granata). Karvon qo'ng'irog'i jaranglardi goh - Yo'Ichilar **azmidan** yagona guvoh. (B.Boyqobilov, Jonginam). Jarchi bo'lsa, bularga parvosiz edi. Ko'rinishi va xatti-harakatidan u bir narsaga qattiq **jazm** qilgani, hozir ko'ziga o'sha **jazmidan** boshqa narsa ko'rinmayotgani balqib bilinib turardi. (Nurulloh Muhammad Raufxon, Qiyomat). Tokim, yurak taftin baxsh etay elga, Elning azm-u **jazmin** naqsh etay dilga. (B.Boyqobilov, Jonginam). Tugalboy uyga qadar go'yo hovuch-hovuch cho'g'ni titrab-qaqshagan ko'yi yalangoyoq bosib keldi, ertalab lovullash to'piqlari osha boldiri tomon surilganini yaqqol tuydi-da, ikki boylam pulni qo'yniga tiqib, qolganini Shafolatga tutqazdi va **ahd**-u qarorini ma'lum qildi. (A.Dilmurod, Qo'ng'iroq). – Salim ota Lekin meni... ma'zur tuting. Shohlar ko'shikiga qaytib qadam bosmaslikka **ahd** qilganmen. Qariganimda bu **ahdimni** buzolmagaymen. (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). Uning [Asqaralibekning] **to'xtamini** otasi tuyibdi, yugurib kelib oldiga ko'ndalang turdi. (B.Murod Ali, Ko'kto'nliklar).

QAROR QILMOQ, AZM QILMOQ, JAZM QILMOQ (ETMOQ), AHD QILMOQ, TO'XTAMGA KELMOQ.

QASAM, ONT, QASAMYOD Muayyan shartlarni qabul qilib berilgan qat'iy va'da. **Qasam** ham so'zlashuvda, ham badiiy nutqda faol qo'llanadi. **Qasamyod** ko'proq harbiy sohada qo'llanadi. — Azbaroyi xudo, olmadi ! — dedi Safar va asabiylashib o'rnidan turib ketdi , — shu ka'batulloning ichida o'turib yolg'on gapirgan odam musurmon emas , kishining **qasamig'a** oshonmag'an ham yetti mazhabda mo'min emas! A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Qattiq, hayajonga tushgan Amir Qora Yusuf o'zini bosolmasdi, u jahl ustida dillarni pora- pora qiladigan ont-u qasamlarga yuz burdi, xatto: "To'rt xotinim ham uch taloq bulsin!"*, deb yubordi... (M.Ali Ulug' saltanat). *Onaxon Jo'raxonning tobuti yonida yuragimizdan alamli faryodday bo'lib chiqqan qasamimizni oyoqosti qilmassiz deb o'ylagan edik...* A.Muxtor, Opa-singillar. *Lenin qiyinchiliklar orqada qolib, ishi sal yurishgudek bo'lsa, o'ziga bergan va'dalari, ichgan o n t lari yana esidan chiqib, yana hovliqa boshlaydi [Otaqo'zi]...* (O.Yoqubov, Diyonat). *Ona-bola kiyik voqeasini va bundan buyon qo'linga multiq olmaslik o n t imni eshitgan Ukkiboy ota kulimsiradi-da: – Ovchilikda ne balolar bo'lmaydi, – dedi qo'l silkib.* (A.Asil, Ukkiboy otaning oxirgi ovi). *Bundan tashqari harbiy qasamyodga sadoqat, ofitserlik burchi, degan gaplar bor!* (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar).

QASAM ICHMOQ, ONT ICHMOQ, QASAMYOD QILMOQ

O'zining haqligi, so'zining to'g'riligi va sh.k. ni tasdiqlash, unga boshqalarni ishontirish uchun muqaddas narsalar, kimsalar nomini og'izga olmoq. **Qasamyod qilmoq** harbiy sohada faol qo'llanadi.

Nizomjon safda turgan yangi jangchidek qasamyod qildi. Endi u o'zini katta qo'shinning sodiq jangchisi deb biladi!.. S.Ahmad, Ufq. - *Hazrat oliylari, - dedi. – Bu borada bir so'zni yashirgan bo'lsam, boshim oyboltangiz tagida. Kalomullo bilan ont ichaman! – Qurbon birdan so'lg'in tortib, qo'l qovushtirdi.* (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik).

QAZIMQ, KOVLAMQ, O'YMQ. Tuproq, tosh, shag'al kabilarni ma'lum qismini olib, chuqur hosil qilish.

Pollarni aylantirib ariq qazidim. Ariq endi bir ketmon enicha bo'ldi. Ariq chuqurligi tizza bo'yicha bo'ldi. (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar). *U to'gon boshiga borishini ertaga qo'yib, kunni shu yerda o'tkazdi, lekin kuni bo'yi tinmadi: ayvonchani, har ikkala uyni, hovlini tozaladi; to'lib qolgan kir o'rani ko'mib tashlab boshqa o'ra qazidi.* (A.Qahhor, Sarob). *Ketmon olib borib, yorma go'r qazidi va qorabayirni tushirib ko'mdi.* (Sh.Xolmirzayev, Ot egasi). *Adolat bir joyni panjasi bilan tataladi, ketmonda kovladi, ammo buloq ko'zini topa olmadi.* (I.Rahim, Chin muhabbat). *Botir firqa serrayib turdi. Endi, o'zi enib kel-mish tuproqni kovladi.* (T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi). *Agar zindonlar tekis yerdan qazilsa devorlariga tosh-u g'isht qalangani bilan yomg'ir faslida suvga to'lib qolar va odam yashashi mumkin bo'lmas edi. Shuning uchun ularning o'rasi suv to'planmaydigan tepalik yonbag'riga o'yib ishlangan, mahbuslarga har zamonda non-u suv berib turiladigan temir panjaralar ham tepaga qarab ochiladi.* (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). *Qorachikda salqin bo'lsin, deb bir metr chuqurlikda yerto'la o'yiladi, so'ng uning ustiga 1,5 metr balandlikda paxsa devor olinadi; nixoyat, tom mayda yog'och shoxlar bilan yopilib, suvaladi. Bu o'chak deb ataladi. O'chak ichida devorlarni etdan-betdan tasha bilan o'yib, idish-tovoq qo'yish uchun tokchalar qilinadi.* (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). *Muz qotgan yerlarni o'yar edik. O'yib bo'lib, hosil bo'lgan chuqurni g'o'zapo'choqqa to'ldirgach, paqirda ariqdan suv tashir, tizza bo'yi keladigan suvga tushib olgan otam g'o'zapo'choqni suv bilan qorishtirib bir tomonga uyaverar, nihoyat, zahmatli shu ish tugagach, ustiga go'ng aralash tuproq tortilib, eski-tuski ko'rpalar yopilganida dildirab uyga kirardik.* (I.Sulton, Uzuk).

QATTIQ, METIN, ZARANG, TOSH Umuman, shakl o'zgarishlariga, tashqi ta'sirga yaxshi qarshilik ko'rsatadigan; sindirish, ushatish, kesish qiyin bo'lgan. **Zarang, tosh** ko'chma ma'noda qo'llanadi.

Uch-to'rta o'q shoxlar orasidan o'tib filning orqasiga urildi, lekin po'latday qattiq va qalin fil terisiga botolmay, yerga uchib tushdi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Oysuluv bilan dugonasi boshqa xonada o'tirib, yigitlarga ko'rinmay, ularga xizmat qilishdi: jo'xori bo'tqa pishirishdi, tutmayiz, olmaqoqi, so'k qo'shib qattiq nondan tolqon qilishdi, haqiqiy choy o'rniga kiyik o'tidan*

choy damlab berishdi. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Chorasiz qolganda joningda qiynoq, Yerni **qattiq**, deding, osmonni uzoq. Uzatsang, hech yerga yetmaydi qo'ling, Ko'ngling yorishmaydi, yoqsa-da chiroq. (B.Boyqobilov). Axir o'sha oqshom Lochin aytgan so'zlar quloqlari ostida hanuz yangrab turgan bo'lsa, lablarida lablarining harorati, uni quchgan, sochlarini, peshonasini silagan **metin** qo'llarining tafti hamon vujudini lovullatayotgan bo'lsa-yu, uni ko'rmay qanday ketadi? (O.Yoqubov, Adolat manzili). Oqsoqol oldinda. G'izillab boryapti. Otlarning tuyoq tovushi **metin** devorlarga urilib, aks sado beradi. Yerga qor kam tushgan. (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik). Yo'lovchilar daraga kirishdi, atrof g'ira-shira yorug' bo'lib, daraning **metin** qoyalari xayoliy soya tashlab turardi, qoq toshga tushgan eshak tuyoqlari sasi jaranglab ketadi. (Sh.Xolmirzayev, Uchinchi hamroh). Polvon iyagini **zarang** yerga tiragan ko'yi qotib yotaverdi. (M.M.Do'st, Dasht-u dalalarda). Jalol Shilimshiqning gapi og'zida qoldi. Tumshug'iga tushgan musht zarbidan boshi daraxtning **zarang** tanasiga zarb bilan urilib, gangib hushidan ayrilay dedi. (T.Malik, Shaytanat). Uch buxorolik azamat yigit lom bilan, belkurak bilan toshga aylanib ketgan **zarang** yerni kavlab qabr ochguncha terga pishib ketdilar. (S.Ahmad, Ufq). Xotinlar bosh egib kelayotgan kuyov ustidan tanga, shirinliklar sochishardi. Azizxon zalvarli bir **tosh** nokni qo'liga olib salmoqlab ko'rdi. (S.Ahmad, Tanlangan asarlar). Onajon, **tosh** qalblar turarmidi tinch. Kuylarman xotirang balki vaqt yetib. (A.Oripov, Bahor). Do'st ko'zida nogahon Miltillagan yosh ko'rinsa, Farzand qilib beposbon Peshanasi **tosh** ko'rinsa, Muhojir izlab makon Og'u unga osh ko'rinsa, Yo'ldan adashsa inson, Desalar gar: "Qoch, ko'rinsa", Ruhimga berib ozor Shafqati ummon qo'zg'alur. (B.Boyqobilov, Qo'zg'alur).

QOMAT, QAD, BAST, BO'Y-BAST, DO'XT, KELBAT, QADDI-QOMAT, SOXT, SOXT-SUMBAT, SUMBAT, ANDOM, BICHIM

Uning [Oyisha begimning] boshiga kiygan serbezak baland toqisi, bo'yniga taqilgan zebigardon va marjonlar nozik **qomatiga** og'irlik qilayotgandek tuyuladi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Uning [harbiy vrachning] novdadek tik **qomati** shunday kelishgan, o'zi shunday xushmuomala va yoqimtoyki, hatto harbiy kiyimda ham u eng qimmatbaho liboslar kiygan go'zallardan ham go'zal ko'rinadi. (O.Yoqubov, Oq qushlar oppoq qushlar). Ne qilarding menga tegib sen, Yengilmagan edim – yengib sen, Boshlarimni yerga egib sen, **Qomatimni** bukib qo'ydingku. (M.Yusuf, Muhabbat). Eshoni Sudur ancha yergacha **qaddini** rost tutib bordi-da, keyin pasaydi – egarga cho'kib qoldi. (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik). U bir bukchayganicha boshini, **qaddini** ko'tarmadi. To'lqinlar uning ustidan sapchib ikki-uch metr o'tib ketdi. (S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong). Hamid G'ulom yetmishdan oshib ketgan bo'lishiga qaramay **qaddi** tik, gapga chechan, tinglovchilarni gap bilan «sehrlab» qo'yadigan, usta notiq. (S.Ahmad, Tanlangan asarlar). To'rt mucha sog', qaddim tik, Lekin ko'rmadim ko'prik, Savoblar... **basti** egik, Istig'for, istig'for. (A.Suyun, Istig'for). Ey do'st! Cho'l chechagin o'z nozi bor, o'z sasi bor, Bog' qiyog'in o'z bo'yi bor, o'z basti bor. (A.Suyun, Ey, do'st). Huzurini sandiq ko'rgan to'n – **bastlarni** sog'inib-sog'inib titilar. (I.Otamurod, Ichkari... Tashqari...) [Kimning] **Bo'y-basti**-yu alang-jalang qarashlaridan tortib ovozi-yu gapirish-qo'yishigacha – o'sha-o'sha! (E.A'zam, Shovqin). Sobirjon katta ko'chada yamoqchilik qiladi. Do'koni bor. Nop-nozanday yigitsan, nega yamoqchilik qilasan, **bo'y-bastingga** yarasha ish qilsang bo'lmaydimi, deb ko'pincha so'ramoqchi bo'ladi Savri xola, lekin so'ray olmaydi, uyaladi. (O'.Umarbekov, Kuz havosi). Rasul bir mahallar butun polk soldatlarini maftun qilgan bu xushsurat, muloyim ayolning ikki bukilib qolgan **bo'y-bastiga** zimdan tikilib, uning ko'zyoshi aralash aytgan gaplariga quloq solarkan, hayotning, vaqtning shafqatsizligi haqida o'yladi-yu, yuragi shig'illab ketdi. (O.Yoqubov, Oq qushlar oppoq qushlar). – Ko'rmaganman-u, lekin u ham sizchalik bo'lgandir-da, – dedi-yu, so'ng shosha-pisha izoh berib qo'ydi kampir: – Pahlavonlik **kelbati**-yu guldiragan tovushlarini aytaman-da. (E.A'zam, Shovqin). Farhodning og'zi ochilib qoldi. Odam odamga o'xshasa bundan ortiq bo'lmas! Tavba! Aftidan, **kelbati** u zotga yaqinligini bilgan-u taqlid qilaverib battar o'xshashib ketgan. Yagona farqi – peshonasida anovi mashhur qizg'ish nor ko'rinmasdi, xolos. (E.A'zam, Shovqin). So'zlariyam, ko'zlariyam, jahli chiqqanda dikrayib ketadigan mo'yloviyam, kelishgan **kelbati-yu** qiyg'ir qarashlariyam, hamma-hammasi momo suyib qovushgan Mamat merganning o'zginasi! (O.Yoqubov, Adolat manzili). Aftidan, **kelbati** u zotga yaqinligini bilgan-u taqlid qilaverib battar o'xshashib ketgan. (E.A'zam,

Shovqin). *Birinchi bo'lib ostona hatlagan burundor militsioner uning [Ernazar polvonning] zabardast kelbatidan ham ko'ra, qo'lidagi andavadan hadiklandi.* (N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun). *O'rtadagi muloqotga quloq solib turgan Oqbo'yin fermaxonadagi itning yovqur tabiatini his etdi. Kelbatini tasavvur qilolmadi.* (N.Norqobilov, Oqbo'yin). *Unga ergashib ikkinchi qavatga chiqarkan, oldinda dikirlab ketayotgan juvonning qaddi-qomatini Farhod endi baralla ko'rib, xayoli bir yoqlarga borib keldi.* (E.A'zam, Shovqin). *Salla, oq to'nlar ko'rub, soxtimni inkor aylamang, Bo'lmasam hamkim asl devona, kal devonamen.* (Muqimiy). [Go'zalshoh:] *Xushvaqt bo'lib aytdim sizga dardimni, Yaxshi odamman xo'p ko'rdinglar soxtimni, yoshlik qilib hech beparvo bo'lmanglar, Ikkingga berayin ildam otimni. "Yusuv va Ahmad". Akmal o'ris qamchisini etigining soxtiga shart-shurt urib chiqib keta boshladi.* (M.Mansur, Judolik diyori). *Begimqul, soxtsumbatiga mos tushmagan, xuddi tishlariday bitta-bitta yozilgan yirik harflarni ipga tergan sadafday terib, undan, hamqishloq do'stidan yana uzr so'ragan, yana maqsadi jiddiyligini aytib, Hikmatilloni yaqinda bo'lajak to'yga taklif qilgan edi.* (O.Yoqubov, Billur qandillar). *Darhaqiqat, qiz to'lishgan – qarg'ashoyi keng ko'ylagi ham uning yetilgan sumbatini ko'zdan yashirolmas edi.* (Sh.Xolmirzayev, Tanlangan asarlar). *Shunisi qiziqki, bu manzaraning Tursunoy bilan sira aloqasi yo'q. Aloqasi bo'lsa, hayotning biron burchagida sumbatini ko'rsatar edi-ku!* (Sh. Xolmirzayev, Tanlangan asarlar). *Ikki oy-u ikki yil Yursang bog'lab mahkam bel Makoniga borarsan, Andomiga qararsan.* (H.Olimjon, Semurg'). *Ammo osmon yiroq, zamin qattiq-da tag'in andomiga qaytar tolginlik. Tag'in xayol surar turgancha tikka, [Navoiy] hazratni qiynaydi hamon yolg'izlik.* (Sh.Rahmon, Shoirlar hiyobonida). *To'g'ri, ba'zi yigitlar uni ko'rganda miyig'ida jilmayib, unga ishora qilar, goho uning bichimi kelishgan qiz ekanini yuziga ham aytar, Mastura bulardan mamnun bo'lar, biroq, shulargina uni qanoatlantirmas edi.* (Sh.Xolmirzayev, Tanlangan asarlar).

QIZIL, QIRMIZI, OL, ALVON, LA'LI, GULGUN, GULRANG, OLOVRANG, ANORDAY Qon rangidagi, qon tusidagi. **Qizil, qirmizi** so'zlashuvda ham, adabiy tilda ham faol qo'llanadi. **Ol, alvon** och qizil rangni ifodalaydi. **La'li, gulgun** poetik nutqqa xos bo'lib, la'l, asosan, lab, dudoq, gulgun esa yuz, yonoq, may qizilligini ifodalash uchun qo'llanadi. **Anorday** o'xshatishi asosan yonoq, yuz qizilligini ta'riflashda qo'llanib, ko'proq folklor asarlarida uchraydi.

-Mamlakatning tinchlig'i qipchoqlarni kesish bilan hosil bo'lsa, mayli, kessinlar! Yurtning obodlig'i gunohsiz qipchoqning **qizil** qonig'a qolg'an bo'lsa mayli, o'ldirsinlar! (A.Qodiriy, O'tkan kunlar). **Qizil** barkashdek oy shoshilmay osmonlay boshladi: *Ikromjon frontda, okopda yotganida ham oy shunaqa bo'lib chiqardi.* (S.Ahmad, Ufq). *Mehriniso bugun odatdagidan barvaqtroq turdi, qichiq atlasdan tikilgan ko'ylagi va parcha-parcha qizil gul solingan paxmoq koftasini kiydi, sochlarini chiroyli turmakladi.* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) *Bildim — ayolimiz qirmizi olma, dedi. Bildim — ayolimiz qirmizi olmaga yerik bo'ldi!* (T. Murod, Otamdan qolgan dalalar). *Bogoslavskiy yonimga keldi-da, cho'g'day bir qirmizi atir gulni menga tutqazib, ruschalab dedi: — Pust tvoya jizn budet takoy je prekrasnoy, kak eta roza!* (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). *Bo'sag'ada meni sarvqomat, ko'zlari ohunikini eslatadigan jonon qiz qirmizi dudoqlarida nim tabassum ila kutib oldi.* (U.Hamdani, Bir piyola suv). *Degaylarki, charos-u Ol gilos olmish labingdan rang.* (E.Vohidov). *Sochi qumrol, dudog'i lola, yuzlari oq, yonoqlari ol, o'ynab harir etaklarini, quchoqlardi bolakay shamol.* (Sh.Rahmon). *Nogiron qo'lini ko'ksiga bosdi, Bag'rini ol etdi tirqiragan qon.* (B.Boyqobilov, Haqiqatga suiqasd). *Shahidlarning qirmiz qonidan Alvon bo'ldi qora tunlaring. Qonga to'lgan kafanim manim, O'zbekiston, Vatanim manim.* (A.Oripov, O'zbekiston). *Yurak qoning to'kilgan so'qmoq Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq, Senga toshlar otdi qay gumroh, Jayron, nega ko'zing to'la yosh?..* (M.Yusuf, Jayron). *G'oyibdan paydo bo'lganlarning biri harir alvon ko'ylak kiygan juvon, biri paxtasi qavilmagan ko'k yaktakni to'rva qilib, nimanidir orqalab olgan yigit.* (M.Safarov, Ayrishox). *Hajring boshima tushgach, ey la'li labi gulgun, Bori alam ostida qaddim dog'i bo'lmish nun.* (A.O'tar). *La'li labingdagi G'uncha tabassum, Albat toleyingga Muhr bo'ladi.* (G'.G'ulom, Sen yetim emassan). *Siz meni eslaysiz, la'li labingiz Toza tabassumni sog'inganida.* (A.Anvar, Siz meni eslaysiz). *Ketur soqiy, qadah andoqki gardun, Shafaqdek boda solib anda gulgun.* (Navoiy, Farhod va Shirin). *To bor ekan bu olam, Biz bor ekan dahr aro Yangi yil bor, may gulgun, Sukunat begonadir.* (E.Vohidov, Yangi yil orzulari). *Bo'z yigit, men seni tinglayman har kun, Siringga oshnaman, o'zing bilmaysan. Yulduzlar charaqlab,*

boshlanganda tun, Garmonga jo'r bo'lib sekin jirlaysan, Xayolingda kezar yuzlari **gulgun**. (S.Zunnunova, Garmonchi). *Ilgin ul **gulrang** etibdur lola yafrog'i bila, Kaflarin bargi bila, tirnog'larin dog'i bila.* (Navoiy). *Shah o'turdi, yonida shohzoda, Qilib orazlarin **gulrang** boda.* (Navoiy, Farhod va Shirin). *Endi unga qizning olov chaqnatib turgan qop-qora ko'zlari, bu ko'zlarga nihoyatda yarashgan **gulrang** yonoqlari aniq ko'rindi. Bobur bu ko'chadan avval ham o'tgan edi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Ufqda anchadan beri kimxobdek ko'zni olayotgan **olovrang** shafaq suv purkagandek bir zumda o'chdi-yu, cho'l ustini nim qorong'ilik bosdi.* (S.Ahmad, Cho'l oqshomlari). *Egri-bugri sayhonlik etagidan chiqib kelayotgan otliq shu tomonga o'rladi. Goh pasayib, goh tezlashib turgan yel bir maromda tebranib kelayotgan jiyronning dumi va yolini chiltor qillaridek o'ynaydi. Oftob uning xurmo tusiga **olovrang** jilo beradi.* (Anvar Suyunov, Yo'qchi). *Ayolning ortiq darajada hayajonlanayotgan yurak zarblarini o'zida aks ettirib, titrab shu'lalanardi qulog'idagi yoqut ko'zli halqa. Va mayingina siypalardi uning yonoqlarini **olovrang** bu shu'lalar.* (N.Arslon, Ashirit). *Ko'zlari yarqillab, yuzi **anorday**, Satta qizlar hulcardayin to'p bo'lib, Oyimining qo'ltig'idan suyadi.* ("Gulnor pari").

QIRG'OVUL, TUSTOVUQ, YOZTOVUQ, SULGUN Tovuqlar zotiga mansub, patlari chiroyli, asosan to'qayzorlarda yashaydigan, ovlanadigan qush. **Sulgun** eskirgan so'z bo'lib, turkman tili va Xorazm dostonlari leksikasida saqlanib qolgan.

*Bo'ylarida suxsur uchar, g'oz uchar, **Qirg'ovul**, oqquvlar etib noz uchar.* (Mirtemir, Yali-yali). *Ammo bugun ham [Olim] kitob va jurnallarni oldilar-da, osh, **qirg'ovul**, patir va boshqa mayda-chuyda yeguliklarni qaytarib berdilar.* (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). *Otamlar tog'dan **qirg'ovul**, kaklik otib kelar ekanlar. O'zlari tosh qalab archa yoqib, kabob qilar ekanlar.* O.Yoqubov, Adolat manzili. *Sher o'rmonda och yotadi, Tulki **tustovuq** yeydi.* (Maqol). *Qutbiddinovga ovchi oshnasi ikkita **tustovuq** in'om qildi. **Tustovuqlar** tozalanib, tuzlanayotganda Qutbiddinovning fe'li aynidi, ya'ni bironta shinavanda ulfat bilan birpas dilkashlik qilg'usi keldi.* (A.Qahhor, O'jar). *[Shofyorning] Nazarida hozir bir o'rdak yo bir **tustovuq** uchib chiqadigandek bo'ldi.* (Sh.Xolmirzayev, Farzand). *Zarafshonning chimtol yoqalarida Chirqillar **yoztovuq** polaponlari. O.Hojiyeva, O'zbekning yozi. **Yoztovuq** yavshanzor – Vatanim deydi.* (O.Hojiyeva). *Qizlarining yuzi gulgun, Tog'larida yurar **sulgun**, Yetib borsang agar bir kun, Bog'ida gullari bordir.* ("Gulruh pari"). *Erhasan kunlardan bir kun Go'ro'g'lidan ruxsat so'rab shikora chiqish tadorikini ko'rdi. Otini, tozisi, qushi, yoyi, asbob-anjomlarini shaylab to'rt-besh yigit bilan jo'nab ketdi. Cho'l-u sahrog'a chiqib, kiyik, quyon, **sulgun**, qo'ton ovlab yurdilar.* "Oshiqnoma".

QIYIN, MUSHKUL, MAHOL, OG'IR, MASHAQQATLI, SERMASHAQQAT, AMRI MAHOL, DUSHVOR Qiyinchilik bilan amalga oshadigan, osonning aksi.

*Kobulning yengil va quruq tog' havosiga o'rgangan [Mohim] begim Jamna bo'yidagi issiq kunlarda sernam dim havodan nafas olish qanchalik **qiyin** bo'lishini avval ham eshitgan, bir chekkasi shu sababdan to'rt yilgacha Agraga kelmay yurgan, axiri Boburning yuzidan o'tolmay bultur kelgan edi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *O'sha gap, Toshkentda chaynalgan o'sha tashxis: koxlear nevrity, ya'ni ichkari quloqdagi tovush qabul qilish paychalari karaxtlangan, qurib-qovjiray boshlagan, ularni jonlantirish esa **qiyin**, juda **qiyin**, deyarli imkonsiz; birdan-bir chorasi – vaqti-vaqti bilan davolanib, o'ziga qarab, miyani teshvoradigan manovi chiyillashu vishillashlarga mardona chidab yurmoq, tamom!* (E.A'zam, Shovqin). *[Bobur:] Shu **mushkul** damlarda bir-birimizni tark etmaylik. Men bilan birga yuring.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Oldinda allaqancha **mushkul** ishlar borligini, otalik burchi hamma narsadan zo'rligini, Dildor oldidagi kechirib bo'lmas gunohlarini yuvish, mehnat, ro'zg'or, har qanday mayda kechinmalardan, mayda havaslardan yuqori tura bilish kabi kattakon ishlar borligini endi tushundi.* (S.Ahmad, Ufq). *U [kim] kechalari turli rejalar chizib chiqar, tong otishi bilan bu rejalarining hammasi bema'ni ekanini, raqibining ostonasiga bosh egib borishi **mushkul** ekanini bilar, o'g'lini qaytarish uchun yana yangi rejalarini izlar edi.* (O'.Hoshimov, Sevgi qissalari). *Azaldan bunaqa rasmiyatlariga tob-toqati yo'q, asovroq Farhod hech qachon yodgorlik sirtidagi yozuvlarga diqqat bilan qaramagan, shuning uchun hozir bir nima demog'i **dushvor** edi.* (E. A'zam, Shovqin). *...va olding'a tushib yurib berdim, chunki sovchig'a uchrashib haqiqatni onglash ham menga **dushvor** mushkul kelgan edi.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar). *Ko'kdan oftob to'kilsa-da, quritmoq **dushvor** yog'du savatlarida.*

(O.Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli). *Buning ustiga, tushlik ham kechikayotir. Bamisoli kimdir o'lgandek yoki mana-mana o'ladigan – qazosi kutilayotgandek og'ir vaziyat!* (E.A'zam, Shovqin). *Ammo bola ko'targan Dnldorinng shntob bilan o'rikzordan o'tib so'qmoqqa chiqishi, hali odam bo'yi kelmagan sariq tollar orasidan ketishi uning diliga allaqanday og'ir, ko'ngilni ezuvchi bir mung tashlab ketgan edi.* (S.Ahmad, Ufq). *Umuman, loaqal birga dars tayyorlashni ham xohlamagan notanish bir qizni deb, og'ir bo'lsa ham sharafli yo'ldan yurmasdan boshqa yoqlarga burilib ketishim to'g'rimi?* (O.Yoqubov, Muqaddas). *Domlaning boshiga og'ir kunlar tushdi. U na uyga sig'ar edi, na ko'chaga.* (A.Qahhor, Sarob). – *Yigirmanchi asr talabiga javob beradigan mukammal maktablarni bu usulda tashkil qilish mahol,— dedi Abdishukur,— faraz qilaylikki, shu yo'lni tutdik. Lekin ko'p otalar shu juz'iy yordamga, har hafta uch tiyin, besh tiyin berishga ham qodir emaslar. Bunga nima deysiz?* (Oybek, Qutlug' qon). – *So'ng kimlargadir xitob qildi: — Kim o'ylapti bo'nday kunlar boshimizga tushishini! Tushda ko'rish ham mahol edi... Qavlu balo, qavlu balo!* (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik). *Ha, sarkardaning onaxoni uyiga burilishiga ehtiyoj yo'q (bo'lsa ham shu mahalda borishi mahol), boshqa kishi bilan gaplashishi kerak edi: u tutun o'rlayotgan adirlar orasidan ot choptirib kelayotgan begona yigitlarni ko'rgan edi.* (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik). *Ko'prikning o'rtasida boyagi yigitlar mixlarni sug'urib, to'sinlarini arralab ketgan joy bunchalik og'ir yukka bardosh berishi amri mahol edi.* (P.Qodirov, Tanlangan asarlar). *Ba'zan surinmay -turtinmay yurish amrimahol.* O. Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli). *Bas, Mohlar oyim o'z tirikligida maxdumning “ boshini ikki ” qilmasa, o'zidan so'ng uning uylana olishi amrimahol.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). *Shu kundan boshlab Lolani ko'rish hajriga tushdim. Bo'yi yetkan qizlarni ko'ra olish bu kunlarda ham amri mahol bo'lg'anidek, mundan o'n yillar ilgarida yana mushkilroq edi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). – *Sening misoling, - dedi maxdum, - nodirai voqi'adir ... Agar shunday hodisalarni o'ylab tursang, o'rdada emas, hatto ko'chada ham yurishing maholdir.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). *Hirotda bir marta borib kelgan mavlono Fazliddin notinch o'lkalardan oylar davomida yurib o'tiladigan behad mashaqqatli yo'llarni ko'z oldiga keltirdi-yu, yuragini g'am bosdi.* (P.Qodirov, Tanlangan asarlar). *Xondamir bu uzoq, va mashaqqatli safarga Boburni orqa qilib chiqqan edi.* (P.Qodirov, Tanlangan asarlar). *Sulton o'z xundor dushmanini eng mashaqqatli yo'llardan boshlab boradi, uning azob tortganlarini ko'rib bir alamdanda chiqadi.* (P.Qodirov, Tanlangan asarlar). *Mazkur chiziq - yo'llar sermashaqqat taqdirdan so'ylab tursa, el-yurt tarixidan so'ylab tursa.* (T.Murod, Tanlangan asarlar).

QIYSHIQ, QING'IR, EGRI Tepaga yo'nalishi to'g'ri emas, biror tomonga og'gan; qiyshaygan.

- *Sen? — uning kaltarib qolgan choponi, kir salla- si va oyog'idagi poshnasi qiyshiq kavushiga boqdi. So'ng: - Qoch! – deb baqirib yubordi. – E, enangdi!..* (Sh. Xolmirzayev, Qil ko'prik). *Men biron qog'ozga o'qimasdan qo'l qo'ysam, sen biron ko'ylakning yoqasini qiyshiq qadab qo'ysang, ishga sovuqqonlik bilan qaraganimiz uchun javobgar bo'lamiz, nima uchun bola tarbiyasiga sovuqqonlik bilan qaragan o'qituvchiga qonun yo'q, qani, chaqir bu yoqqa Hamdamni!* (A.Qahhor, Ayb kimda?) *Qizilbosh navkar egri qilichini qinidan sug'urib, kesak otgan odamni ko'zlari bilan qidirdi, ammo topolmadi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Ot o'zi yurmish egri so'qmoqdan yuraman, dedi.* (T.Murod, Oydinda yurgan odamlar). *Charx azal kaj aylanur, garchandki dardi bedavo, Rost kelturmak qasdida o'zimni Farhod ayladim.* (B.Boyqobilov).

QIYSHAMOQ, EGRI BO'LMOQ, MAYISHMOQ, KAJ BO'LMOQ, QING'AYMOQ Biror tomonga og'moq.

Yuki og'irligidan xotin bir tarafga qiyshayib, qiynalib borardi. (S.Ahmad, Ufq). *Ahmad brigadir xali xech narsadan xabari yo'q, qo'lida to'rxalta, pidjagi yelkagay, do'ppisi chapga biroz qiyshaygan holda tuya yurish qilib kelardi.* (T.Malik, Kurort). *[Eshmat] Velosipedni to'g'ri borib so'kichakni ustuniga suyab qo'ydi. Ammo yaxshi o'rnashmagan ekanmi, sidirilib ustunga tiralib qoldi, qanoti qiyshaydi.* (M.Ziyo, G'ashlik). *[Xolxo'ja] Qars-qars tebranayotgan zinapoyadan o'zini pastga otdi, xuddi gugurt qutisiday mayishib yanchilayotgan beton qavatlardan nechtasi orqada qoldi – bilmaydi, ro'parasidagi eshik kesakisi bilan o'pirilib, qattiq gumburdan keyin orqa-o'ngida quyuyq to'zon ko'tarildi.* (A.Muxtor, Fano va baqo). *“Chena” jarlikka qarab ag'anagan,*

vater **kaj bo'lib** ketgan, simlarni tirs-tirs uzib, jarning qizil tuprog'ini o'pirib pastga yumalamoqda edi. (A.Muxtor, Opa-singillar).

QUYOSH, KUN, OFTOB, SHAMS, XURSHID, Termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorug'lik va issiqlik tarqatuvchi ulkan gazsimon shar; quyosh sistemasidagi markaziy jism, yoritqich. **Quyosh** ham adabiy tilda, ham so'zlashuvda faol qo'llanadi. **Kun** so'zlashuvda faol. **Shams, xurshid** so'zlari poetik nutqqa xos.

Bobur ham shunaqa bir tepalikda otlig turar, uning orqasidagi daryoning suvi ertalabki quyosh nuridan tovlanib ko'rinardi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Kun chiqish tomondagi to'rt qavatli bino ustidav ko'tarilgan quyosh ko'chalarni nur seliga ko'm ib yu borgan, odamlar o'zlarini daraxtlarning soyasiga ura bosh lagan edilar.* (O.Yoqubov, Adolat manzili). *Bu gapga maydonchada bor odam, sal narida – adirlikning kungayida somon qalpog'ini yuziga qoplab, oppoq badanlarini quyoshga toblab yotgan bekorchi kinixonimlargacha – bari negadir kulib yubordi.* (E.A'zam, Shovqin). *O'zi kun botib, qosh qorayib qolgan edi, har yer- har yerda gulxan yonyapti, bola- chaqalarning yig'i-sig'isi, ayollarning g'ala-g'ovuri, erkaklarning so'kingan ovozlari, yosh -yalanglarning qo'shiqlari, otlarning kishnashi- hammasi qo'shilib, bir ajib manzara kasb etgan.* (O.Yoqubov, Adolat manzili). **Kun** qizib kelayotgandi. *Mayli, bir oz yuray, keyin eshakdan tushaman. Archazor boshlanadi. Soyasidan ketaveraman.* (Sh.Xolmirzayev, Olma yemadim). **Kun** chiqish tomondagi to'rt qavatli bino ustidav ko'tarilgan quyosh ko'chalarni nur seliga ko'mib yuborgan, odamlar o'zlarini daraxtlarning soyasiga ura bosh lagan edilar. (O.Yoqubov, Adolat manzili). *Tong endi otgan, hali oftob chiqmagan bo'lsa ham ko'pchilik beklar va mulozimlar devoniomda hozir erdilar.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *Xudo hech bir bandasining boshiga solmasin, bunday notinch mavridlarda soat ham imillab yurar ekan, osmondagi oftob ham joyidan jilmay turib qolar ekan!* (O.Yoqubov, Adolat manzili). *So'nggi yillarda qurum bosib qolgan ko'ngliga daf'atan kuz oftobi yanglig' hazin bir yog'du ochilgandek bo'ldi. "O'zi qanday, nima ishlar qilib yuribdi?" deb so'radi sir boy bermaslikka tirishib.* (E.A'zam, Shovqin). *Shamsibek gapga og'iz juftlagan edi, Chalabiyning so'zlari xayolini tortdi: - Kurrayi arzning Shams atrofida aylanajagini aytaman, deb edingiz. Bu hodisani qanday tafsir etmoq kerak? — Kurrai arz Shams atrofida aylanadir, deb tafsir etsak, go'rimizga yana g'isht qalasharmikin? — Ulug'bek shunday deb kuldi.* (T.Malik, Falak). **Shams** ila olamni qizdiradi *kun, Birgina oy ila olamni yoritar osmon, Hamisha bor baxtli yashashga imkon!* (Oydinniso, Afv). *Gar ko'rmading shafaq uza xurshid, ey ko'ngul, Ixlos qil oni yuz-u gulgun qabosidin.* (Navoiy). *Ey o'shal xurshid yanglig' tal'atingdin o'rgulay, Zulfi rayhoning bilan xol-u xatingdin o'rgulay.* (Muqimiy, Tal'atingdin o'rgulay). *Bo'ldi osmoning charog'on Tole xurshidi bilan, Bo'ldi asriy tiyra shoming Shu'la afshon, o'zbejim.* (E.Vohidov, O'zbejim).

QUCHOQ, QO'YIN, BAG'IR, OG'USH Quchish, o'rash bilan hosil bo'digan holat.

Xonzoda begim ikki yarim yashar Akbarni quchog'iga bosib, qulog'iga shivirladi: - Anu amakilarning ilkidan hech narsa olmagin, eng shirin narsani bersa ham yemagin, xo'pmi, jonim? (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). *Behzod uning [Akmalning] tagida tuzoqqa tushgan qushday pitirlab, quchog'idan chiqib ketishga intilar, ovozi xirillab: "Qo'yvor, ayiqpolvon, qo'yvor!" – deb jonjaqdi bilan olishar...* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar). *Otam, yigitsan, o'g'lim, Uylanmasang, or, dedi. Qiz yarashar quchoqqa, Otga nima bor, dedi...* (M.Yusuf, Oq tulpor). **Quchoqqa** sig'madi "chinor" tanasi, *Chuqur ildiz otdi yerning qa'riga. Shoxida sayradi "baxt" bedanasi, Ammo dosh bermadi zamon zarbiga.* (B.Boyqobilov, Qoyalar va soyalar). *Muhabbat bog'iga kirmadim bir bor, Suyib bir gulga qo'l urmadim bir bor. Endi tunlar yig'lar menga qo'shilib, Ko'nglimda bir yor-u qo'ynimda bir yor.* (M.Yusuf, Ko'nglimdagi yor). *Sodiq qo'ynidan qog'oz-qalam chiqarib nimadir yozdi.* (O.Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli). *Paxtazor qo'yniga cho'kmish farahli bir tun, Egatlar oralab esar sarin shaboda.* (B.Boyqobilov, Hayot maxzani). *A'zamjon Bir chekkada bolasini bag'riga bosib mungligina bo'lib o'tirgap xotining tepasiga kelib o'dag'ayladi.* (S.Ahmad, Ufq). *Qayiq bir gal pista po'chog'i bo'lib o'ynaganida hushimdan ketgan ekanman, qayiqni ham, meni ham qo'yvormay balo-qazodan saqlagan keksa xizmatkorim (Ibrohim)ning bag'rida o'zimga keldim.* (O.Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli). *Farhod ijrig'anib ketdi: he, sen ham shu irkit cholning bag'riga otilmay o'l-a!* (E.A'zam, Shovqin). *U Hikmatilloga*

shunday yaqin turardiki, yengsiz koftasini turtib chiqqan bo'liq ko'kraklari yigitning ko'ksini tobora yondirib borar, umrida birinchi marta qiz quchgan sodda qishloq yigiti butun vujudi bilan hozirgina **og'ushida** bo'lgan qizning allaqanday silliq, durkun gavdasini his etib, titroqqa tushgan edi!.. (O.Yoqubov, Billur qandillar). U [Muqaddam] o'zini yo'qotib qo'ygan, Alimardonning **og'ushida** talpinar, ammo chiqib ketolmas edi. (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). A'amjon shu paytda, yulduzlar osmon-u zaminni to'ldirib jimirlayotgan yoz oqshomida anorlar gullagan, rayhonlar hid sochgan, arig'idan qo'ng'iroq chalib suv oqayotgan sokin hovlida o'zga yor **og'ushida** barq urib uxlardi. (S.Ahmad, Ufq).

QUCHOQLAMOQ, QUCHMOQ, ACHOMLAMOQ, ACHOM QLMOQ, BAG'RIGA BOSMOQ, BOVURLASHMOQ. Qo'llar harakati bilan o'z quchog'iga olmoq. **Achomlamoq, achom qlmoq** bolalar harakatiga nisbatan qo'llanadi.

– Ha, qochiq! – dedi Farhodga yuzlanib va so'mka-po'mkasi bilan kelib uni **quchoqladi**-da, ckakkasini bo'saga tutdi. (E.A'zam, Shovqin). – Zahar! – birdan qichqirdi Gulsumbibi. – Qay tig'parronga uchragur, sani zaharlaydi. Sho'rim qursin! Zahar! – Tizzaga urib, qizini **quchoqladi** ona. (Oybek, Qutlug' qon). Tol tagidagi qurib qolgan ajriq ustida kimdir g'ujanak bo'lib to'niga o'ranib yotar, sovqotganidan tizzalarini **quchoqlab**, boshini bo'yni ichiga tortib olgandi. (S.Ahmad, Ufq). Qabrni **quchib** nola qilayotgan Azizxonni Tog'a kelib bilagidan ko'tardi. (S.Ahmad, Ufq). Men bugun barini bir-bir **qucharman**, Yuragi kuyuklar uchun icharman!.. (M.Yusuf, Qadahso'z). Xartumlar bir-birini siypalab, **quchdi**. (O.Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli). Ammo yanglishgan ekanman. M. borib otasini **quchdi** va yelkasiga qoqib: “Qo'rqmang, – dedi. – Hech narsadan qo'rqish kerak emas. (N.Eshonqul, Tun panjaralari). – Uyg'ondingmi, toylog'im, – so'radi bobom. Uyqusirab turgandim, shunday bo'lsa ham yugurib borib bobojonimning bo'ynidan **achomlab** oldim. (X.To'xtaboev, Jannati odamlar). Ikkisi **achomlashdi**. Rahbar mehmonni idoraning poyigacha kuzatib qo'ydi. Ikkovi ham bir birini “ajoyib odam ekan!” deb o'ylashardi. (Sh.H.Ismat, Chalinmagan chanqovuz). – Aynonay do'xtir qizimdan! – Oyim Darmon opa bilan **achomlashib**, o'pishib ko'rishdi. – Shu desang, qizim, kecha baliqdan kelib, qo'l-oyog'i o't bilan olov. (F.Salaev, Qamish qayiqchalar). Qurbonoy xola bo'ynidan **achom qilib** yotgan nevarasini uyg'otib yubormaslik uchun sekin qaddini rostladi. (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). Ikki dugona **achom-achom qiladi**, hol-ahvol so'rashadi. (E.A'zam, Stupka). U [Mengboy] o'g'lini ko'rganda, yuragi uvishib og'rib, to uni **bag'riga bosib** yig'latib, o'zidan bezdirmaguncha qo'lidan qo'ymaydi. (Sh.Xolmirzaev, Farzand). Ozoda yoshli ko'zlarini yumib javob berdi: — Homiladorman. Murod mast kishidek dovdirab qoldi. – Rostmi?! – Murod uni **bag'riga bosib**, dast ko'tarib oldi-da, uyni ikki marta aylantirib chiqdi. Uning ko'zlari porlar, yuragi sevinchdan gupillab urardi. – Nega xafa bo'lasan? (S.Ahmad, Alla). Aldanma yor, aldanchilar makriga, Malak bo'lma bevafo ishq shahriga, Ular seni bir **bossa bas bag'riga**, Seni hech kim sevolmaydi meningdek. (M.Yusuf, Suvpari). To'yga tevarakdagi ovullar yoppa xabar qilindi. Biri qo'y, biri echki yetaklab keldi. To'y bahona ko'rishib-tanishib, **bovurlashdi**. (M.Burxonov, Ikki tog' orasida).

QORONG'ILIK, QORONG'I, ZULMAT, ZIMISTON, QORONG'IZOR Yorug'lik mavjud bo'lmagan holat, yorug'ning aksi.

Ko'zlari **qorong'ilikka** o'rganguncha bir lahza eshik og'zida turib, alanglay-alanglay bo'sh joy qidirayotganlarida “Farhod, bu yoqqa!” degan ovoz eshitildi. (E.A'zam, Shovqin). Quyosh botgan, bog'ni faqat yoz oqshomlaridagina bo'ladigan mayin va sokin bir **qorong'ilik** chulg'amoqda edi. (O.Yoqubov, Adolat manzili). Kun qorayishi bilan butun qishloq **qorong'ulik** ichiga g'arq bo'ladi. (O'.Umarbekov, Sevgim-sevgilim...). Shorahim amaki **qorong'ida** paypaslab, unga [Oysuluv xolaga] suv berdi, allanimalar deb yupatdi. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar). – E-ee... — O'tloqdan otni keltirishni ham unutgan ekanman. O'tloqqa yugurdim: ot yo'q! Bu **qorong'ida** filni ham topib bo'lmaydi. Buning ustiga, hammayoq tog', archazor, jardara... Uyga borsam, otam terimga somon tiqadi. (Sh.Xolmirzayev, Bir ko'rgan tanish...) – Kim kerak edi sizga? – dedi qiz **qorong'ida** yaxshi ko'rmayotgani uchun bo'lsa kerak oldinga egilib. (O'.Hoshimov, Qalbingga kuloq sol). Osmonga tikildim. Boshimning qoq tepasida sarg'ish dog' ko'rindi. Oy bo'lsa kerak... Dog' qoraya-qoraya **zulmat** ichiga sho'ng'ib ketdi... (O'.Hoshimov, Cho'l havosi).

Yo'q, shundan keyin ko'z o'ngidagi **zulmat** chekinib, atrof yorisha boshlaydi. (O.Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli). Hozir quloq-miyasidagi shovqin bir yoqda qolib, xotirasida **zulmat** bosib yotgan olis sas-tovushlar bosh ko'targan edi go'yo. (E.A'zam, Shovqin). Dara, to'g'rirog'i, uning ko'z ilg'amas, tubsiz, **zimiston** qa'ridagi asov daryo go'yo uni o'z bag'riga chorlayotganday allaqanday sirli shovullar, kishini o'ziga rom qiluvchi maftunkor sado tarqatib, betinim guvullar edi! (O.Yoqubov, Adolat manzili). [Alimardon] **Zimiston** qo'ynida Kabirga urilib ketganini ham, yugurib borib mashinaga o'tirganini ham sezmedi. (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). Olamni qahrli **zimiston** chulg'ayotganidanmi yoki yana uvlay boshlagan achchiq shamolning shom ayozini boshlab kelishi muqarrarligini sezganidanmi, ona bug'u qalt-qalt titradi. (M.Safarov, Ayrishox). [Otabek] Shu **qorong'izor** bilan qo'shilishib ketgandek va qorong'ilikning quchog'iga kira borgandek, mevazorning ichkarisiga yura bordi. (A.Qodiriy, O'tgan kunlar). Xonadon... motamxona bo'ldi. **Zim-ziyo qorong'izor** bo'ldi. Jimjit zulmat bo'ldi. Mungli ham qayg'uli bo'ldi. (T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi).

QORONG'I, ZIM-ZIYO, SIM-SIYO(H) Yorug'lik bo'lmagan, zulmatdan iborat, yorug'ning aksi.

Eshik darichalariga g'isht qalanib, qamoqxonaga aylantirilgan **qorong'i** uyda singillari Gulbadan ham bir necha oy zindon azobini tortgan, endi u ham Komrondan ko'rgan azoblarini unuta olmas edi... (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). Mehriniso oyoq uchida yurib borib, o'z karavotiga sekin cho'zildi. Hali tong uzoq bo'lsa kerak, xona **qorong'i**, yarmigacha qirov qoplagan derazadan hech narsa ko'rinmas, chamasi, navbatchilar ham pinakka ketgan, yo'lakda tiq etgan tovush eshitilmas edi. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) **Qorong'i** cho'l esa o'z nafosatini, sirlarini xufiya aylab turadi. (M.Safarov, Olis qorlar ortida). Ular yerga cho'kkan **zim-ziyo** zindonga kirib, kutilmagan holatga duch kelishdi. (O.Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli). Keyin avtobusdan tashqaridagi **zim-ziyo** qorong'ilikka, derazaga shart-shurt urilayotgan izg'irin aralash yomg'irga termilganicha, yengil ust-boshi va poyabzalini o'ylab borarkan, to'satdan og'zida qandaydir bemaza ta'm sezdi-da, ko'ngli aynayotganga o'xshadi. (O'.Usmonov, Girdob). Ozodlik zarbidan qulab toj-u taxt, **Zim-ziyo** tunlardan kunduz yaralgan. (B.Boyqobilov). Ne zotlar o'tdilar hasratga to'lib, Kunlari zimiston, tuni **sim-siyo**. (A.Oripov, Ziyo). Sukut saqlayinmi, baqiraymi yo? - Gohida **zim-ziyo**, goho **sim-siyo** Sen kezgan dunyoyu, men sezgan dunyo... (U.Azim). Olam bir alamdir, **sim-siyoh** cheti, Alam bir alamdir endi, sevarim. O'rik gullaridek sochilib ketdi Kaftimdagi bir juft sitoralarim. (I.Mirzo, Kelinchak).

QOCHMOQ, QUYON BO'LMOQ, QUYONNING RASMINI CHIZMOQ

QURUQ, QOQ, SUR Namligi qolmagan, xo'lning aksi. **Qoq** so'zida belgi darajasi kuchli. **Sur** so'zi asosan go'sht, baliqqa nisbatan qo'llanadi.

Tohir chakmonning tagidan qo'ltig'iga qisib olib kelgan **quruq** poxolni shu cho'qqa tutdi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar)... Nazokat tikanli, **quruq** changalzor ichidan chiqib qoldi, devorday bo'lib tikka o'sgan changalga yuzi bilan borib taqalib, to'xtab qolganida orqasida o'q tovushi eshitildi... (A.Muxtor, Opa-singillar). Oppoq to'lin oy o'sha **quruq** qayrag'ochgayam, uqalanib ado bo'lgan devor sarxoklarigayam, yo'l chekkasidagi ko'rpa bo'lib yotgan o'tlargayam nurini birday, ayamay to'kar edi. (M.Mansur, Judolik diyori). Dunyoga qayta kelishimga ko'zim yetsaydi, Yigit yoshim to'lmay turib, Ayriqliq zaylida **qoq** yog'ochday qurib Jon bergan onamni ko'rishimga ko'zim yetsaydi... (Mirtemir, Onaginam). Dildor Kela turib tut tagidagi **qoq** kesakka qonga o'xshash bir nima tomgannni ko'r-di-da, to'xtadi. (S.Ahmad, Ufq). Shisha sinig'idek botar bo'g'zimga, Sensiz yutilyotgan bir burda oq non. Xayolimda jannat – bog', zimdan Meni kuzatyapsan qo'lingda **qoq** non. (Jontemir, Jo'ram). Ot go'shti, sigir go'shti, echki go'shtlari, ayniqsa tuzlik **sur** go'shtlar bo'lsa, ko'p ziyon qilur. (A.Sog'uniy, Shifo ul-ilal). Qozoq qizi tutgan qimiz, qalbidek sof, Esdan chiqmas **sur** qazining to'g'ramchasi. (S.Abdulla).

QO'ZG'ALMOQ, JILMOQ, SILJIMMOQ, QIMIRLAMOQ, KO'CHMOQ, QALQMOQ Tayanch joydan uzilmoq, tayanch nuqtadan ko'chmoq.

Xuddi ataylagan kabi Akobirov talay zamon allanimalarni ezmalab o'tirdi-yu, nihoyat, "Mayli, ertalab nonushtada yana ko'risharmiz", deya eran-qaran joyidan **qo'zg'aldi**. (E. A'zam, Shovqin). Botir firqa inqillab **qo'zg'aldi**. Esnab kerildi. Uyquchil kiyindi. (T.Murod, Bu dunyoda

o'lib bo'lmaydi). Uydaligida ertalab soat yetti-sakkizsiz to'shakdan **qo'zg'alolmaydigan** odam, bu yoqqa kelganiga, mana, yigirma kunlardan oshibdiki, tong azonda uyg'onib ketadi – hamon o'rganolmadi, uyqu adashgan. (E.A'zam, Shovqin). Gulnor o'rnidan **qo'zg'aldi**, darmonsizlikdan oyoqlari titrab pastga tushdi-da, hovlining burchida samovar qo'ya boshladi. (Oybek, Qutlug' qon). “Ha Ramzan, siz kim taraf?” deb so'ramoqni unutmadi. Ammo javob-pavobini kutmay, yana baqir-chaqir bilan nari **jildi**. (E.A'zam, Shovqin). Go'yoki uning ko'nglidan kechganini payqagandek, Kamolova g'alatiroq tumtayib nari **jildi**. (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). Mashinasini **jildirdi**. Mashinasini **jildirib** bozor darvozasidan chiqayotsa, Shahmoza turibdi. (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). Beixtiyor o'sha tomon **jildilar**. (E.A'zam, Shovqin). Bir necha minutdan so'ng, darvozaning tirqishlaridan shu'la **siljidi**. (Oybek, Qutlug' qon). Nihoyat, uloq yerdan ko'tarildi. To'da asta-asta jonlandi. Otlar qulog'i lik-lik etdi. To'da pastga **siljidi**. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom). Ra'no goh chalg'ib, goh to'xtab, quyig'a **siljidi**: Yerga tushishka bir gaz chamasi masofa qolg'anda devor ostida kutib turg'an Anvar uni ko'tarib oldi. (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). Baland peshtoqli deraza ostidan oppoq bir narsa **qimirladi**. (T.Murod, Tanlangan asarlar). – Qo'ying, Mullajon, astoydil sevs, qaytib keladi. Mullajon tasalli berayotgan kishiga qarab, nimadir demoqchi bo'ldi, ammo o'pkasi to'lib, tomog'idan gap o'tmay entikdi, mo'ylovining ko'z yoshidan ho'l bo'lmay qolgan bir uchi sal-pal **qimirladi**. (S.Ahmad, Tanlangan asarlar). Xanjarga o'ralib turgan uzun ilon uning muskullari bilan birga **qimirladi**. (P.Qodirov, Qadrim). [Oyisha begim:] – Koshki edi... Biroq men... o'zim keturmenmi? [Bobur] – Yo'q, Samarqand nasib bo'lsa, bu yerdan hammamiz **ko'chib** keturmiz. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Do'stlar davrasidan ketaman xatto, Olis yulduzlarga **ko'char** xilqatim. (A.Oripov, Yuzma-yuz). Yozgan kitoblarim – qog'oz kemadir, Men ketsam, ular ham **ko'char** izimdan. (M.Yusuf, Ertak). Dunyo goh simobday **qalqir** beomon, Nogahon qaydadir otilgay vulqon... Ey aziz odamlar, ogoh bo'lingiz, G'aflat uyqusidan uyg'oq bo'lingiz! (Z.Ne'mat, Ogoh bo'ling, aziz odamlar). Ona ro'moli uchiga tugiklik bir nimani qo'ltig'iga oldi. Tugunni ehtiyotlab-ehtiyotlab qo'ltiqadi. Yo pirim, deya, joyidan qo'zg'aldi. Oyoqlayotib, **qalqib-qalqib** oldi. O'zini o'nglab oldi. Bir-ikki qadam bosdi. (T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi). Norboy chavandoz hazil odammi, “hap, senimi”, deb oyoqqa **qalqdi**, besh o'g'lini besh tarafga quvaladi. Tog' qolmadi, dasht qolmadi. (O'.Qobil, Ot o'g'risi). Hamida bonu goh o'g'liga intiq Humoyunning chappor urib quvonishini ko'z oldiga keltirar, goh Jamna ustida Nizomning qayig'ida **qalqib** suzib borayotgan bo'lar... (P.Qodirov, Avlodlar dovoni).

QO'NMOQ, O'TIRMOQ, TUSHMOQ, INMOQ, DO'NMOQ

Havoda harakatini yo'qotib, biror sathda qaror topmoq. **Inmoq** poetik nutqda ishlatiladi. **Do'nmoq** shevada, folklor asarlarida uchraydi.

Chunki Hakimboyyachcha “or-nomus”ni biladigan va uni qo'riqlaydigan kishi, u o'zining va oila a'zolarining ustiga chang **qo'ndirishni** istamas, oilasi bilan hech qanday oilani tenglashtirmas edi. Mirzakarimboy xonadoni! Bu qanday ulug'vor, toza, dongdor oila!. (Oybek, Qutlug' qon). Yaxshilarning boshiga Qirov **qo'ndi**, Marjontov. (O.Yoqubov, Adolat manzili). Yechilib, to'zg'ib ketgan o'rim sochlar yana turmak bo'lib boshga **qo'ndi**. (S.Ahmad, Tanlangan asarlar). Ipaklar siyralib qiz barmog'idan, Buralib **qo'nadi** qiz barmog'iga. (O'.Mirzayor, Tovush). Bor kuchi bilan o'zini pastga otgan Farhod yumshoqqina butazor ichiga kelib **tushdi**. (E.A'zam, Shovqin). Azizxon otdan **tushib** jilovni egar qoshiga tashladi-da, motamsaro bir qiyofada eshik tomonga yura boshladi. (S.Ahmad, Ufq). Katta supurgi bilan supurar eding xazon, Majruh qo'lingdan jo'rob tushib ketdi nogahon. (Z.Ne'mat, Sog'inch). Yaproq **tushdi**. So'ldi. Ezildi. Bu shunchaki, oddiy bir holmi? Unda nega ko'zing yoshlandi? (O'.Mirzayor). Quloq os: Nur **inar** yashil bog'larga, Bahor toshqinlari dara, tog'larda. Tengdoshim chiqaqol, chiq bu yoqlarga, Yoshlik huzuriga chaqiraman men! (A.Oripov). Sochimizga qirovlar **indi**, Baxt otiga birovlar mindi, Dilda bo'lak so'rovlar tindi – Qulamasdan hayot chinori, Qaytarmikan umr bahori? (B.Bobomurod, Umr bahori). Xayollar tasviri qiyiqqa **inar**, Ko'chada bir tovush - o'xshar ismiga. Oynaga talpinar, nigohi sinar, Suyanar deraza kesakisiga. (O'.Mirzayor, Tovush). Quyuyq hislarimdan yo'qoldi maza, horg'in lablarimga **inmadi** hech ta'm. (R.Bobojon, Umrinning birinchi yomg'iri). Oshib borib Qora tog'dan, Hindistonga **do'ngin** endi! “Gulnor pari”. Orsizlar joy tiklagan qirlik, jarliklarga **do'nar** bir sinat,

Qalbni pastga urish – ko‘rgilik, qalbga nasog‘ tushirish – la‘nat! (I.Otamurod, Xaritaga tushmagan joy). *Bu yurakda nelar bor, Ochib ko‘rar zamon yo‘q. Boshimga do‘nar burgut, Ko‘zi och-u qorni to‘q.* (Sh.Salom, Tog‘ay Murod xotirasiga).

QO‘RS, QO‘POL, TO‘NG, DAG‘AL, TO‘RS, TERS, TUND, TERSFE‘L

Yoqimsiz javob-muomali. **Qo‘rs, to‘ng** so‘zlarida belgi darajasi kuchli.

Manovi qo‘rs-u qaysar bola bilan bir xonada o‘tiraverib siqilib ketdi. (E.A‘zam, Shovqin). *Ko‘rinishdan u [Abdulla Qodiriy] xiyla qo‘rs va to‘ng odam edi. Lekin ko‘ngliga yoqqan kishilar bilan xushmuomalada bo‘lar, ularga iltifot ko‘rsatar edi...* (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). *Qiziq, Shahnoza nimasini yoqtirgan bu bolaning! O‘lgudek qo‘rs bo‘lsa, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otsa.* (O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). *Ularga nisbatan u har chog‘ qo‘pol, har chog‘ xirpalovchi edi. Chunki u pul kuchi bilan qattiq mast edi. Mast uchun gulzor bilan sho‘razor baravar, yanchib o‘taveradi.* (O.Yoqubov, Adolat manzili). – *Ha, nima deysiz? – to‘ng qichqirdi Salimboyvachcha. Abdixoliq yaqinlashib, yuzidan chang va terlarini artib, harsillab gapira boshladi.* (Oybek, Qutlug‘ qon). – *Rahmat, Mirishoq aka, olmayman, - to‘ngroq javob berdi Yo‘lchi.* (Oybek, Qutlug‘ qon). *Mulla Ikrom usta bilan gaplasha boshladi. Lekin u to‘ng odam edi.* (Oybek, Qutlug‘ qon). *Yormat ular bilan birga yashab, birga oshab, birga ishlasa-da, ularga to‘ng muomala qilib, o‘zini xo‘jayinning sodiq vakili sifatida ko‘rsatganidan, hammaga yot ko‘rinar edi.* (Oybek, Qutlug‘ qon). *Haqiqatda sofdil mutaxassislar undan nafratlanadi, chunki o‘lgunday dag‘al, odobsiz.* (A.Qahhor, Sarob). *O‘sha kuni esa uning haziliga naqadar dag‘al javob berayotganimni hatto sezmas ham edim.* (O.Yoqubov, Muqaddas). *Yo‘lchining so‘zlari, javobi Nurini esankiratdi. Chunki u bunday “dag‘al” muomalani aslo xayoliga keltirmagan edi.* (Oybek, Qutlug‘ qon). *Men ham, chamasi, Hamza aka ta‘sirida boy tog‘alarimning badjahl va dag‘al fe‘lini, ahmoqona g‘ururini, insoniy xislatlarining puchligini anglay boshlagan edim.* (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). *“Men adashib qoldim, - dedi N. – tashqariga qanday chiqib ketishni bilmayapman”. “Men ham bilmayman, – dedi ichkaridan to‘rs va qo‘pol ovoz, – sizga yordam berolmayman”. (N.Eshonqul, Go‘ro‘g‘li yoxud Hayot suvi). [Yozuvchi:] – Muazzam bu turmushdan juda bezgan. Bu dim va jazirama dalalar, uni hech qachon tushunmaydigan qo‘pol-to‘rs odamlar, qaysidir yovvoyi zamonlardan saqlanib qolgan yovvoyi udumlar, keyin sizning mana bu xirmon tashvishlaringiz hammasi juda joniga tek-kan, yuragi bezib, juda ko‘rkam orzulari tufayli odamlardan ajralib, yolg‘izlanib qolgan.* (N.Eshonqul, Momoqo‘shiq). *Ochiq chehra bilan kutib oladimi, yo jon shirin, idora xodimlariga o‘xshab ters muomala qiladimi?* (O.Yoqubov, Adolat manzili). *Bukrini go‘r tuzatar deganlaridek, tabiatan ters odam, kamina shu ishni qilolmay yolg‘iz jiyanimni qon qilib, o‘zim ham og‘ir ahvolda to‘shakda yotibman.* (O.Yoqubov, Diyonat). *....Erining ters savolidan so‘ng Karima ham to‘nini teskari kiyib oldi.* (R.Jabborov, Ilon). *Oila boshlig‘i kecha ot sotib olgan edi, necha yillik orzusi ushaldi, badjahl, ters odam mumday erib, ajoyib hikoyanavisga aylandi-qoldi.* (A.Qorjovov, Yigit baxti). *Birov bilan ishi yo‘q, qachon qarasa tund yurgani uchunmi, boyoqishning yo‘qliga ham uncha bilinmaydi.* (O‘.Usmonov, Girdob). *Doim tund yuradigan “bedachi professor” Tolmas Azimov, protez oyogini en-gashib ko‘targancha, rangi uchib o‘rnidan turdi va odati bo‘yicha duduqlanib direktorga zahrini sochdi.* O‘. Usmonov, Girdob. *Negadir hammasining qiyofasi bir xil: tund, loqayd.* (O.Yoqubov, Diyonat). *Shu pallada, to‘rsimon kepka kiygan tersfe‘l yigitcha Bosvoldi va Go‘ga Gadoyevichning orasidan muzyorardek o‘tib kelib, sotuvchiga ko‘kintir ko‘zoynakning ustidan mo‘raladi.* (A.Obidjon, Qora bodring). *Alhazar, kechagi badniyat, tersfe‘l Tantiga aylanar bitta yumalab. Nega uyg‘onishdan qo‘rqadi bu el, Suyab-suyganlari yotibdi talab.* (B.Fazliddin).

QO‘RQUV, XAVOTIR, HADIK, HAYIQISH, QO‘RQINCH, VAHIMA, DAHSHAT, VAHSHAT

Qo‘rqish his-tuyg‘usi, shunday his-tuyg‘uli holat, ruhiy holat. **Xavotir, hadik, hayiqishda** belgi darajasi kam. **Dahshat, vahshat** so‘zlarida belgi darajasi kuchli.

Mohim begim yig‘idan to‘xtab, Boburga qo‘rquv aralash hayrat bilan tikilib turardi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). *[Kim] Kechalari ba‘zan shuni o‘ylab qattiq bezovta bo‘ladi, zirapcha misol qadalib yotgan allanima yurak-yuragini zirqiratib yuboradi, hoziroq turib nimadir qilgisi, bir nimalar yozib tashlagisi keladi, ammo kunduzgi horg‘inlikmi, allaqanday qo‘rquv – jur‘atsizlikmi*

qo'lini chandib, o'rnidan qo'zg'atmay qo'yadi. (E.A'zam, Shovqin). *Salimboyvachchaning rangi oqarib, ko'zlari qo'rquvdan bir lahzada jonsizlandi. Titroq lablari bilan so'radi: - Kim gumon qiladi? (Oybek, Qutlug' qon). Xolxo'ja ham ko'ngildagi xavotir, shubha, vahimali o'ylarni darrov unutib, bir umrlik qadrdonday quchoqlashdi. (A.Muxtor, Fano va baqo). Humoyun chodir tikdirib, hammaga ikki-uch kun dam berdirar edi. Uning eng ko'p xavotiri – Hamida bonuning bemavrid tug'ib qo'yishidan edi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). – Ha, jonivor miltiqning hidini sezgan, xavotiri bor ko'nglida, - dedi Islom. (Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam). U [Muzaffar] bir qarashda vajohatidan ot hurkadigan ustivor odamga o'xshasa ham xozirgi notinch vaziyatda ishtonsizning hadigi cho'pdan, degandek, har narsadan hadiksirayveradigan bo'p qolgan edi. (O.Yoqubov, O qushlar, oppoq qushlar...) Qayer chuqur, qayer o'r, bilib bo'lmadi. Ko'nglimga hadik tushdi. Uloqqa oyog'im tortmadi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom). Birozdan keyin o'zini zo'r-bazo'r jilovlab, o'ziga hadik-la termilib turgan itlaridan xijolat tortganday, kuylamoqdan tiyiladi. (N.Norqobilov, Kurash). Otasi biron kimsa bilan urishmagan, san-manga bormagan bo'lsa-da, qishloqdagilar undan hayiqadi, hayiqish aralash hurmat qiladi. (A.A'zam, Oyning gardishi). – Voy o'lay, dadasi, nima bu? – dedi xotin, yuragiga vahima aralash hayiqish o'rmalab. (I.Sulton, Farishta). Xufton vaqtida O'roz bir tanish aravakashning aravasiga bir necha bog' poxol ortib keltirdi. Qorong'ida Yo'Ichini aravaga yotqizib, ustiga poxol tashlab, qo'rqinch, tahlika ostida Saodat kampiriikiga jo'nashdi. (Oybek, Qutlug' qon). Zum o'tmay ichkaridan ayol kishining "Nima qilyapsizlar?" degan qo'rqinch to'la xitobi eshitildi. (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). Ona bug'u bu lahzalarni ham sevinch, ham qo'rqinch bilan kutardi. (J.Fozil, Xongul). Xos navkarlar qurshovida borayotgan Xurramshoh goho qilichlarning bir-biriga shaq-shuq urilganini eshitib qolardi. Bu tungi jang unga juda qo'rqinchli tuyulsa ham u vahimani yengishga tirishardi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). [Kimning gapi] Vahima ichida joyidan turib ketgan Raf'iullin o'zicha sening yo'lingni to'sib olgan edi. (E.A'zam, Shovqin). Anvar Muqaddamning ovozi eshitib burilib qaradi-yu, uning vahimadan katta-katta ochilib turgan ko'zlarini qorong'ilikda aniq ko'rdi. (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). Dahshat uning Unsinning yuragiga raxna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari xayolidan ko'tarilib, ko'z oldiga oppoq kafanga o'ralib sag'ana va go'rlar atrofida yelib yurgan arvohlar keldi. (A.Qahhor, Dahshat). Bahaybat qoyalar orasida ko'milib qolgan jajji qishloq tabiat qudratidan vahimaga tushganday pusib qolgan, kichik-kichik derazalarda chiroq ko'rinmas, go'yo hamma allaqanday yengilmas dahshat oldida titrayotganday edi. (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). To'p o'qining vahshati bilan birga bolaning qalbiga o'rnashib qolgan o'kinch va jahl hech tarqamas, Akbar o'zini u yoqdan bu yoqqa otib yig'lar, qo'liga tushgan narsani uloqtirardi. (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). Pliniyga ko'ra, katoblepas juda beso'naqay maxluq. Boshi og'ir va katta bo'ladi. Ko'pincha o'z boshini o'zi ko'tarolmay yuradi. Uning hamma vahshati ko'zlarida, vazmin qovoqlarini arang ko'tarib qarasa, u qaragan jonzot o'sha zahoti til tortmay o'ladi, deyishadi. (I.Sulton, Kichkina pushtirang maxluqcha). It ko'ksini kerib, boshini mag'rur ko'targan cha battarroq vahshat bilan irillay boshladi. (B.Abdurazzoq, Qiron).*

QO'RQINCHLI, HADIKLI, DAHSHATLI, VAHIMALI, MUDHISH Qo'rquv tuyg'usini uyg'otadigan. **Dahshatli, vahimali** so'zlarida belgi darajasi kuchli. **Mudhish** adabiy tilga xos.

Boshqa yerlar ola-chalpoq nim oydinlik. Nuriga endi kecha va jimjitlik, nechundir qo'rqinchliroq tuyuldi. (Oybek, Qutlug' qon). Shunda Robiyaning tushiga kirgan qo'rqinchli voqea uning esiga tushdi-da, noma'lum bir xatar vujudiga larza solib o'tdi... (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Ko'l yana bezovtalandi, tunlari vahimali gulduradi, ayg'ir otning kishnashidek qo'rqinchli ovozlari tog'larda aks-sado berdi. (M.Safarov, Sarbasta Surxon). Tunlarim uyqusiz va serg'ash, **Hadikli** tushlarni ko'rarman. (O'.Hoshimov, Uzun kechalar). Halima xolaning diliga qora bulutday yopirilib turgan dardli-hadikli o'ylar bir zumda tarqalib ketganday bo'ldi. Onaning yuzi quvonchga to'ldi. (M.Murodov, Gunoh). Tun sukunatida allaqanday sehr bor. To'g'ri, biroz vahimali, **hadikli**, ammo bilgan odam uchun orombaxsh, huzurbaxsh. Ana shu tun allasi butun charchoqni yozadi. (A.Abdullayev, Dard). **Dahshatli** portlash tovushlarni, yerning tinay silkinishi, Norinning chayqalishni odamlarni vaqimaga solib qo'ydi. (S.Ahmad, Ufq). Shu ondayoq **dahshatli** bir haqiqat uning yuragini qiymalab tashladi. (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). Boyagi

sharaqlashdan ham ko'ra bu sukunat **dahshatliroq** edi. Saidiy lip etib, kattakon butaning tagiga kirib ketdi. (A.Qahhor, Sarob). Dodxo darchani zichlab yopib, joyiga o'tirib tasbeh o'girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham, qulog'i g'uvullayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: "Hozir go'riston qanaqa **vahimali** bo'lsa ekan..." (A.Qahhor, Dahshat). Bo'rilarining **vahimali** ulishi avjga chiqdi. Chirildoqlar temir egovlagandek tovush chiqaradi, qamishlar orasidan chiyabo'rilarining ko'kimtir ko'zlari o'chadi, yonadi... (S.Ahmad, Ufq). Muzaffar Farmonov yuragini chulg'ab olgan bu **vahimali** tuyg'udan qutulish umidida xayol jilovini boshqa tomonga burishga, yoshlik yillarini, do'stlarini eslashga urinib ko'rdi. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Go'yo Gulnor hozir oshni ichadi-da, darrov baqiradi. Uyda hech vaqt ko'rilmagan, **vahimali** bir qiyg'os ko'tariladi... (Oybek, Qutlug' qon). Keyin, **mudhish** sokinlik va sovuqqonlik bilan boyvachchaning etagidan tortib tushirdi, qalin yumshoq tuproqda sudrab, jar yoqasiga keltirdi va jasadni, butun kuchi bilan pastlikka uloqtirdi. (Oybek, Qutlug' qon). Tog'a uning kechadan beri uxlamagapni, o'sha **mudhish** xabarni eshitgandan beri shu ahvolda telba bo'lib yurganini sezdi-da, boshqa biron narsaga alahsitmoqchi bo'ldi. (S.Ahmad, Ufq). Tog'da navqiron navnihol archa o'n-o'n ikki yilda bir qarich o'sishini inobatga olsak, unda chinakamiga tashvishlanishimizga asos bo'ladigan **mudhish** hol yuz berganini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. (M.Safarov, Sarbasta Surxon).

QO'RQMOQ, HADIKSIRAMOQ, HAYIQMOQ, CHO'CHIMOQ, XAVFLANMOQ, DAHSHATGA TUSHMOQ (KELMOQ), VAHIMA BOSMOQ

Qo'rquv hissini tuymoq. **Hadiksiramoq, hayiqmoq, cho'chimoq** birliklarida belgi darajasi kamroq. **Dahshatga tushmoq, vahima bosmoq** fe'llarida qo'rquv darajasi yuqori.

Asqar ota avval **qo'rqdi**, keyin juvonning ot chopishini ko'rib shunchalik zavqi keldiki, otiga ustma-ust qamchi bosganini o'zi ham bilmay qoldi. Juvon saman ot minib uni kutib turar edi. (A.Qahhor, Dahshat). To'g'ri aytgan ekan. Bir hafta-o'n kun o'tib, qizlar to'shagi ustida o'rmalab yurgan sichqonni ko'rsa **qo'rqmaydigan** bo'lishdi. (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). Rayimberdi tog'a bu tomonga ko'p kelmagan. Yeshligida bolalar bilan mol boqqani uncha uzoq bormasdi. Bo'ridan, echkemardan **qo'rqardi**. (S.Ahmad, Ufq). Bir qorovulxonaga yaqin kelganlarida ichkaridan kimdir naymancha talaffuz bilan uyqu aralash: — Irisbay, keldingma? — deb so'radi. Devor ustidan kelayotganlar taqqa to'xtashdi. Tohir qo'lidagi boltaning sopini ikki qo'llab qisdi-yu: - Ha, - dedi. Ammo ichkaridagi qorovul uning ovozi tanimay **hadiksiradi** shekilli, uyqusi birdan o'chib: - Kimsan? — dedi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Turma desa sochining tomirigacha muzlab, **hadiksirab** yurgan Xolxo'jaga bu — o'limdan battar, undan ko'ra o'sha yerto'lada ko'milib ketgani maq'ul edi. (A.Muxtor, Fano va baqo). Erkak hayiqdi, yerda yotgan bir cho'pni olib "Ket, ket!" deb kuchukka otgan edi, kuchuk ilib oldi-da, g'ajib, maydamayda qilib tashladi, keyin bo'laklarni panjalari bilan bosib, yana tahdidli irilladi. (I.Sulton, Farishta). Shu yig'inlarning hammasida Normat rais yuragini hovuchlab o'tirdi. Chaqirishmasa ham bordi. Men yo'g'imda masalamni hal qilib qo'yishmasin, deb **hadiksiradi**. (S.Ahmad, Azob). Bu uchunchi oilaga ko'chishda Anvarni eng xursand qilg'an narsa maktabdagi bolalarning ozor berishlaridan qutilishi va domlaning asrandi o'g'li maqomini olishi bo'ldi. Bolalar uni ehtirom qilmasalar ham, unga burung'icha yomon muomala qilishdan **hayiqib** qoldilar. (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). [Bayramxon] Biz Tahmaspning yoniga kirsak, shohning dushmanlari tajovuzdan **hayiqib** qolishlari mumkin. (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). Bu uylarnishg egalari ham shunday, hammasi sodda, hazilkash, lekin oldidan biror to'siq chiqsa hech narsadan **hayiqmaydi**, o'zining "o'rtoq" bo'lgani bilan kuchli, tanti. (A.Muxtor, Opa-singillar). [Kim] **Cho'chib** uyg'ondim. Tomog'imda o't yonayotganga o'xshardi. (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). Biroq, Oysuluv na qorong'i tun sharpalaridan havotirlandi, na tepasidagi arxar muguzida oq lattalar hilpiragan yolg'iz qabrdan **cho'chidi!**. (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Katta kelin esa hali ham hurkak, o'z soyasidan **cho'chigandek** bo'lar, bu esa Biydi momoning g'ashini keltirardi. (N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaytdi). Man qizlik vaqtimda u **xavflandi**, mandan qochishga intildi. Bu narsa yaxshi bo'ldi. Man unga, albatta, tegmasdim. (Oybek, Qutlug' qon). Kun bo'yi uyida, bir burchakda, o'g'illarining kiyimlarini titib, allakim bilandir gaplashib o'tiradigan va odamlarga begonasirab qaraydigan, odamlardan **xavflanadigan** va ularga adovat

bilan tikiladigan odat chiqardi. (N.Eshonqul, Shamolni tutib bo'lmaydi). *Shunda mo'isafid: — Qiziq. Bu jonivorlar nechuk bunday chirqillashib qoldi? — dermish va ayvonga chiqarmish. Shu paytda uya tomon o'rmalab borayotgan qora ilonni ko'rib, u ham dahshatga tusharmish...* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...) Akbar o'ziga maqbara qurdirmoqchi ekanini eshitgan Hamida bonu o'g'lining xilvatxonasiga kirdi-yu, uning sag'ana tarhini chizib o'ltirganini ko'rib **dahshatga keldi**: — Sizga ne bo'ldi, shoh o'g'lim? Hali men, onangiz, tirik yuribmen... (P.Qodirov, Avlodlar dovoni). Boy ba'zan o'ylab **dahshatga kelar edi**: hali umr bo'yi, ayniqsa keyingi yillarda titrab-qaqshab to'plagan davlatim shunga qoladimi? (A.Muxtor, Opa-singillar). U [Yodgor] ajaldan qochib qutulish mumkin bo'lmaganidek, e'londan ham qutulib bo'lmashligini his etib turar, yuragini **vahima bosar**, “axloqi” degan so'z sharmandalarcha bong alayotganini bilib, quloqlari shang'illar edi. (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol). [Xolxo'ja] Vaqtni so'rab, Ochilda ham soat yo'qligini bilgach, ko'nglini yana **vahima bosdi**. (A.Muxtor, Fano va baqo). *Hamma jim qoldi. Shunday sukunat cho'kdiki, u cho'zilgan sayin barchani vahima bosardi*. (M.Safarov, Olis qirlar ortida).

QO'RQOQ, HURKAK, YURAKSIZ, QUYONYURAK

Qo'rqoq rais darrovagina rozilik bergan, Ustoz-pustozga yo'llamoqdan og'iz ham ocholmay qolgan: markazga aloqador odam! “Ravshanbek Usmonovich oladigan bo'lsalar, nimayam derdik, muvaffaqiyatlar tilaymiz faqat!” deya tilyog'lamachilik qilgan. (E.A'zam, Shovqin). [Kim] Ikki marta o'zimni o'ldirmoqchi ham bo'ldim. **Qo'rqoq** ekanman. O'ldirolmadim. (S.Ahmad, Ufq). *Nega shunday bo'ldi? Nega unipg bolasi qo'rqoq chiqdi?* (S.Ahmad, Ufq). *Shu joylarda xovtag'ay degan yovvoyi tuyalar yashaydi. Ularni kamdan-kam odamlar ko'rgan, juda hurkak, asov hayvon.* (M.Safarov, Ayrishox). *Jo'raxon ko'cha bo'ylab kelarkan, bu hurkak xotinlarning hamma harakatini ko'rib, butun tashvishini payqab, bilib turardi.* (A.Muxtor, Opa-singillar). *O'sha tinchimas jon, o'sha bedavo, O'sha dardi yolg'on, o'sha hurkak qiz. Qalin barglar aro qilardi navo, O'sha nag'masini qoldirmay bir so'z.* (M.Yusuf, Bulbul). *Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam edi: hamma boylar kabi, ayyor, mug'ambir, puxta-pishiq; u yuraksiz emas, balki har ishda ehtiyotkorlikni ma'qul ko'rur edi.* (Oybek, Qutlug' qon). — [Qobilboy] *Agar biz uning qamalg'an joyini bilsak, nima uchun mumkin bo'lmasin, Anvar? O'rtoqlarim yuraksiz yigitlar emas, bu yog'idan xotirjam bo'lingiz.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). *Cho'pon vahimali mishmishlarga dastlab unchalik e'tibor bermadi. Quyonyuraklar aravani quruq opqochayotgan bo'lsalar kerak, deb o'yladi. O'zining qo'rasidan ketma-ket ikki to'qli yo'qolgandan keyingina ahvol jiddiy ekanligiga ishondi.* (A.Asil, Sirtlon). — [Hamdam:] *Shu quyonyurak bilan bunaqa shilta ishlarga aralashib yuribsanni? — [Sayfi:] Men bunaqaligini bilmovdim.* (T.Malik, Shaytanat). *Shovvoz quyonyuraklardan bo'lmasa ham xatni o'qib, ko'z oldi qorong'ilashib ketdi, Shoqosim esa avval xatdagi tahdidni pisand ham qilmadi, miyig'ida kulib qo'ya qoldi, lekin keyin bundan bir-ikki oy muqaddam Po'lat papka dashtga soxta vedomost ko'tarib borganida bo'lgan janjal esiga tushib, yuzi tundlashdi.* (O.Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar...)

QO'RQOQLIK, YURAKSIZLIK, QUYONYURAKLIK, JABONAT

Urushda **quyonyuraklik** qilib xandaqqa pisib olgan yigitlarni ko'rganida: “Peshonangga o'lim yozilmagan bo'lsa, ustingdan tank bosib o'tsa-da o'lmaysan, umring kalta bo'lsa, Azroil pusib yotgan joyingdan ham topib oladi. O'limdan qo'rqqaning bilan undan qutulolmaysan. Shuning uchun qo'rqmay o'lgan afzal”, derdi. (T.Malik, Shaytanat). - *Sening misoling, - dedi maxdum, - nodirayi voqiadir... Agar shunday hodisalarni o'ylab tursang, o'rdada emas, hatto ko'chada ham yurishing maholdir. Baxting bunchalik kulgan ekan, jabonat bilan davlat qushini qo'ldan uchurish kufroni ne'mat, bolam!* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon).

QO'SHILMOQ, BIRLASHMOQ

Bu orada tag'in o'sha gazetada “Sigun” tabobat markazining bir shoxobchasi “bepoyon yurt” poytaxtida ham ish boshlaganini o'qib, bor tinchini yo'qotdi; katta do'xtirlarga ko'rinish zarurati ham **qo'shildi-yu** bu yoqqa yurish ahdi qat'iylashdi. E. A'zam. Shovqin

Yonidagi sheriklari ham **qo'shildi**, ammo sening tushunmog'ing qiyin bo'ldi. Asli, olib kelgisi yo'q, qurumsaq ekan, deb o'yladi hammasi. Erkin A'zam. Shovqin

*Ichidagi muzi hali erimagan Farhod ham beixtiyor olqishga **qo'shildi**. E. A'zam. Shovqin Mirzaorollik sobiq batrak va chorakorlar tutgan yo'ldan borilganda yangi, eskilari ham nimjon xo'jaliklar **birlashib** katta kuch holiga keladi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari*

*Bu dushmanlik bu ikki xalqqa o'zining haqiqiy dushmanini ko'rgani, bu ikki xalqni birlashgani, **birlashib** o'z ozodligi uchun kurashgani qo'ymaydi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari*

*Kuch-quvvati baravaf, bir-biriga joni achiydigan odamlar **birlashib** kolxoz emas, kolxozcha bo'lishsa qandoq bo'lar ekan? A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari*

R

RAVSHANLASHMOQ, OYDINLASHMOQ. Ravshan holga kelmoq, ifodasi yorqin holga kelmqo. **Oydinlashmoq** so'zida belgi darajasi kuchli.

*Bu ruhiy holat bo'limi bo'ladi: kasalni uning qarshisiga olib kelib tomosha qildiramiz, so'ng xuddi kasalning miyasidagi kabi nozarur qismning chirog'ini o'chirib, qolgan qismlarini **ravshanlashtiramiz**. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). O'z shubhamni **oydinlashtirish** uchun ertasiga tanishimga sim qoqdim va jasad qay holatda topilganini so'radim. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).*

RANG, TUS. Yorug'lik toni. **Rang** so'zi **tus** so'ziga nisbatan keng qo'llanadi.

*Nashvati, noklar, kuzda pishar olmalarga – ko'k va qizil, shaftolilarga oltin **rang** kirmoqda, behilar guldand chiqib, meva tugib yotibdi. (O.Yoqubov, Tengdoshlar). Begijon teskari qarab o'tirib omborda nimayiki bo'lsa, hammasini — qaerda turganini, qandoq turganini, **rangi** qanaqaligini, qutisida qanaqa yozuv borligini, qaysi fabrikadan chiqqanini aniq aytib berdi. (S.Ahmad,*

G'ildirak). *Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo'lsa-da, ranglari yorqin va tiniq edi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

RASHKCHI, KUNCHI. Yaxshi ko'rgan kishisini birovdan qizg'anish xususiyati kuchli.

Boshda, paxtada tanishgan mahalda Nilufarning dilida iliq mehr uyg'otgan bo'lsayam, keyinroq, shaharga kelganlaridan keyin, o'ta jo'n, o'ta sodda, ayni zamonda juda rashkchi va to'pori bo'lib ko'ringan edi. (Billur qandillar).

RAQIB, HARIF, MUXOLIF. Musobaqada (kurash musobaqasi, o'yin musobaqasi va hokazo) yengish, yutib chiqish uchun harakat qiluvchi shaxs yoki tomon. **Harif** eskirgan, juda kam qo'llanadi. **Muxolif** eskirgan, kitobiy.

RAHMAT, TASHAKKUR, QULLUQ. Minnatdorchilik, mamnuniyatni bildiradi.

Shofyor yuklarni ayvongacha oborib, qaytib chiqib ketdi. Bozorboy unga rahmat ham demay, ko'cha eshikni ichidan berkitib oldi-da, garaj chirog'ini yoqdi. (S.Ahmad, G'ildirak). *Ko'rib turganlaringizdek, juda seriltifot, har bir harakatingizga qulluq bilan javob beradi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

RAHMSIZ, BERAHM, SHAFQATSIZ, QAHRLI, ZOLIM. Rahm-shafqati yo'q, qahri qattiq. **Qahrli** so'zida belgi darajasi kuchli. **Shafqatsiz** so'zida belgi darajasi qahrli so'ziga nisbatan kuchliroq. **Zolim** so'zida belgi darajasi yana ham kuchli.

Bu hayot insonga yashash uchun kurashga berilgan, bu kurash shafqatsiz va hech bir e'tiqod bilan baholab bo'lmasdi. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Adashayotgan odam yo'l izlayotgan odamdir. O'g'limning suratida qahrli, insonni vahmga soluvchi qiyofalar paydo bo'lganda men ana shu yuksaklikka ko'tarilish yo'lidagi izlanish deb o'yladim.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Men zolim emasdim, bolalarim xohlagan ishlarini qilishi, xohlagan andozada kiyim kiyishlari mumkin edi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

RIVOJ, TARAQQIY, TARAQQIYOT, RAVNAQ. (Biror narsada) kamolot tomon o'sish, yuksalish holati. **Rivoj** keng qo'llanadi. **Taraqqiy, taraqqiyot, ravnaq** ma'noni rivoj so'ziga nisbatan kuchliroq darajada ifodalaydi. **Taraqqiy** mustaqil holda kam qo'llanadi. U ko'pincha **topmoq, etmoq** fe'llari bilan birga qo'llanadi: *taraqqiy topmoq, taraqqiy etmoq* kabi. **Taraqqiyot** so'zida harakat belgisi kuchliroq bo'lib, ko'pincha "rivojlanish" ma'nosida qo'llanadi. **Ravnaq** kitobiy.

Maydon chetidygi bayroq osilgan muhtasham binoda tenglik va insonparvarlik hamda fan taraqqiyoti to'g'risida qandaydir davatkor shiorlar osilgandi, go'yo bu shiordagi suvlarga yomg'irning ham g'ashi kelganday qizil alvonni oqqa bo'yab tashlagandi. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Fidoyilar gazetlarda bu san'atning ravnaq topishi haqida bahs, munozaralar uyushtirishardi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

RIVOJLANMOQ, TARAQQIY ETMOQ, O'SMOQ, YUKSALMOQ. Rivoj, taraqqiyot tomon yo'nalmoq.

Biz ham muz tog'ida — oftob va ko'klamdan xoli bo'lib yashayapmiz. Tor esa kundan-kun yuksalmoqda — u endi yuraklarimizni ham zabt eta boshladi, taqsim. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

ROST, TO'G'RI, CHIN, HAQ, HAQQONIY, OCHIQ. Yolg'on-yashig'i yo'q, haqiqatga mos. **Rost, to'g'ri** boshqalarga nisbatan keng qo'llanadi. **Haqqoniy** ko'proq kitobiy uslubga xos. **Haq, ochiq** so'zlari deyarli hamma vaqt gap so'zi bilan qo'llanadi.

Rost gap hamisha odamning quloriga dahriyona bo'lib eshitiladi. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Гапларинг рoст бўлса, жамиятга яна бир марта фойда келтиришимга тўсқинлик қилма.* (А.Обиджон, Олтин юракли автобола). *Adashmay san'atda to'g'ri yo'lni birdan topganlar yo yolg'on san'atkor yoki daho bo'ladi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Умрим бино бўлиб, бундақанги раҳмдил қизни кўрмаган эдим. Раҳмдиллар олижаноб*

бўлишади деганлари **тўғри** экан. (А.Обиджон, Олтин юракли автобола). *O'shanda men chin do'st topganimga amin bo'lgan edim, u [Sulaymon] menga ishongan va tushungan edi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Men o'zimni axtarib taqdirning besanoq ko'chalariga tariqdek sochilib ketdim, go'yo vujudimdan ham son-sanoqsiz «men»lar chiqib, shaharning yuho ko'chalariga kirib g'oyib bo'lganday. Lekin ro'znomachi do'stim ham, professor ham haq edi: bu ko'chalardan men o'zimni topolmadim...* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

ROSTGO'Y, HAQGO'Y, HAQIQATGO'Y, ROSTCHI. Rost gapiruvchi, yolg'on-yashiq so'zlamaydigan. **Haqgo'y, haqiqatgo'y** oddiy so'zlashuvda kam qo'llanadi. **Rostchi** jonli so'zlashuvga xos.

ROSTDAN, CHINDAN, HAQIQATAN, DARHAQIQAT. Haqiqiy holatda, rosti bilan, yolg'onning aksi. **Chindan** so'zi rostdan so'ziga qaraganda kam qo'llanadi. **Haqiqatan, darhaqiqat** so'zlari oddiy so'zlashuvda **chindan** so'ziga nisbatan ham kam qo'llanadi.

Rostdan ham, bilimga, xususan, ilmi nujumga bo'lgan muhabbat O na-Vatanimning alloma o'g'illarida an'anaga aylanib qolgan narsa. (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Mening ertaklarim qo'ynida Robiya rostdan ham gul bo'lib ochildi va dunyoning mudhish kuchlaridan qochib, mening ko'ksimga kelib yashirindi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Chindan ham, qum ichiga singib ketgan suv sizib chiqqanidan u sekin qimirlay boshladi.* (O.Yoqubov, Tengdoshlar). *Chindan ham kamdan-kam bo'lsa-da, poyma-poy tufli yoqi bir poyi boshqa razmer tuflilar aralashib kelib qoladi.* (S.Ahmad, G'ildirak). *O'qituvchimiz chindan ham g'olib sarkardaga o'xshab so'zlardi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Haqiqatan Vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak. Sotmasga va o'lguncha ayrilmasga kerakdur...* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Suratga qarab turib, doimo dud va qon hidini tuyardim: balkim, menga shunday tuyulgandir, ammo bu oddiy tutunning hidi emasdi, men bunday achimsiq hidni ko'p yillar avval qishlog'imizga yovvoyi ayiq quvlab yurib kelib qolgan bir guruh ovchilarning qurum bosgan miltig'ida his etgan edim va suratdagi hid haqiqatan ham hozirgina portlagan quyqum hidiga o'xshardi...* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Хақиқатан ҳам, туғилмасимдан анча илгари «Шарқ» оиҳонасида фақат паишаларгина яшашар экан.* (А.Обиджон, Олтин юракли автобола).

ROHAT, HUZUR, MAZA, LAZZAT, SAFO. Yuqori darajadagi qanoat hissi, kishi vujudining yayrashishi. **Huzur** nisbatan kam qo'llanadi. **Maza** ko'proq so'zlashuv tiliga xos. **Farog'at** badiiy uslubga xos bo'lib, faqat hayotdagi (turmushdagi) rohat ma'nosida qo'llanadi.

Kibrilarga berilgan Xosiyatxon eriga qarashdan kura ko'proq o'zini o'ilar, o'zining rohatini, jonining tinchini birinchi o'ringa qo'yar, ishni uch marta buyurilganlan keyin ham og'rinib alo etadigan, uyquchi bir ayol edi. (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Туни билан полда ётиб, суюк-суюклари зирқираётган Камол Камтарий диванга ястанаркан, роҳатдан кўзлари юмилиб кетди.* (А.Обиджон, Олтин юракли автобола). *Biz xivchinchini o'z xivchinini baland ko'tarar ekan, u mana shu xivchinlar orasidagi oniy lahzada betoqat bo'lib kasalning yurakni ezadigan va unga huzur baxsh etadigan ingrog'ini juda sog'inib qolishini, shu oniy lahza ham unga ko'plik qilayotganini anglab qoldik.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Ana shunday katga sharaflarga ega bo'lib turgan paytda yoshi bir joyga borib qolgan, ilmu ijod deb dunyo lazzatlaridan voz kechgan, bola-chaqa qilmagan Mahmud az-Zamaxshariy birdan Vatanga, Xorazmga qaytishni qat'iy ko'ngliga tugdi!* (M.Ali, Abadiy sog'inchlar). *Худди янгутдан туғилиб, ҳаёт лаззатини эндигина тотиб кўраётгандайман.* (А.Обиджон, Олтин юракли автобола). *Havoni kesib o'tayotgan xivchin tovushi va ingrash faqat xivchinchiga emas, professorga ham lazzat bag'ishlardi...* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam).

ROHATLANMOQ, ROHAT QILMOQ, HUZURLANMOQ, HUZUR QILMOQ, MAZA QILMOQ, LAZZATLANMOQ, LAZZAT QILMOQ. Rohatda bo'lmoq, rohat (huzur) hissini tuymoq.

Shayx bilan shayxulislom suhbatini - ikki sohibi ilmning, ikki zukko olimning suhbatini edi, ikkisi ham bir-birlari haqida yaxshi taassurotlarga ega bo'ldilar, mazmunli gurunlardan bag'oyat

rohatlandilar. (M.Ali, Abadiy sog‘inchlar). – Бунча шошасан? Ошнанг **маза** қилиб ухлаб ётибди, – дея гап қистирди боядан буён соғ кўзини тилла буюмлардан узолмай турган Кўршапалак. (А.Обиджон, Олтин юракли автобола).

RUXSAT, IJOZAT, ROZILIK, JAVOB, IZN. Biror narsa qilish uchun olinuvchi yoki beriluvchi huquq. **Ijzat** ko‘proq yozma nutqda qo‘llanadi. **Izn** so‘zi **ruxsat, ijzat** so‘zlariga nisbatan eskirgan.

*O‘g‘limning yuzi birdan o‘zgardi va menga o‘qrayib qaradi. «Endi yosh bola emasman, sizdan har bir narsa uchun **ruxsat** so‘raydigan» dedi va indamay xonasiga kirib ketdi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Майор профессордан **рухсам** сўраб, сизарем тўтамди.* (А.Обиджон, Олтин юракли автобола). *Natijada Said Mahmudxon To‘ra boshliqto‘qson uch uzbek oilasi Turkiyaga ko‘chib ketish istagini bildirib, **ijzat** so‘rab Turkiyaga hukumatiga rasmiy murojaat etdilar.* (M.Ali, Abadiy sog‘inchlar). — *Suhbat ijodingiz, ijodiy dunyongiz haqida bo‘ladi. Deyish mumkinki, o‘sha dunyoga birgalikda safar qilamiz». U **rozilik** berdi va «Faqat kitoblarim haqida» deb qo‘shib qo‘ydi.* (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam). *Журналист халқидан қочиб қутулишининг иложи йўқлигини билганим учун, вақт кеч бўлиб қолганига қарамай, **розилик** бердим.* (А.Обиджон, Олтин юракли автобола). *Lekin qanday yolg‘iz boraman? Mening sherigim Said Akramxon To‘raga ham **javob** berasizlar, dedim. Men bilan birga ketadi, bu ishlarda yordamchi bo‘ladi... Shartingizga shart, dedim...* (M.Ali, Abadiy sog‘inchlar). *Yangi hayot pallalari boshlanmoqdaydi. Tahsil yillari poyoniga yetgachgina Mahmudxon ona yurtga qaytajagi haqida xayollarga **izn** berdi.* (M.Ali, Abadiy sog‘inchlar).

T HARFI

TABRIK, QUTLOV, MUBORAKBOD. Biror bayram, quvonchli kun, erishilgan muvaffaqiyat, g‘alaba munosabati bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bildiriladigan yoki yo‘llanadigan qutlov so‘z ifodasi. Tabrik so‘zi barcha nutq uslublarida qo‘llaniladi. Qutlov, muborakbod so‘zlarida esa kitobiylik ta‘kidi mavjud. *Yuzlari quvonchdan qizargan Obid Yo‘ldoshevich **t a b r i k** larga past tovush bilan rahmat aytardi.* (P.Qodirov, Uch ildiz) *U qabr ustida so‘zlamadi nutq, **T a b r i k** ham aytmadi to‘ylarda xandon, ...* (A.Oripov, Noma‘lum odam). *Tabriklaydi Uni Thokur, “Ozodliging muborak!” Ro‘znomalar **q u t l o v** yozur.* (E.Vohidov, Ruhlar isyoni). *Oybek o‘zida yo‘q shod, qo‘li ko‘ksida xiyol bosh egib tashrif va **q u t l o v** uchun minnatdorchilik bildirdi.* (U.Normatov, Adib huzurida 19 daqiqqa). *Bola asraganning daragini eshitgan qo‘ni-qo‘shnilar, uzoq-yaqin qarindoshlar **m u b o r a k b o d** ga kela boshlagan edilar.* (H. G‘ulom, Mash‘al).

TABRIKLAMOQ, TABRIK QILMOQ, QUTLAMOQ, MUBORAKBOD QILMOQ, MUBORAKBOD ETMOQ, MUBORAKBOD AYLAMOQ. Biror bayram, quvonchli kun, erishilgan muvaffaqiyat, g'alaba munosabati bilan tabrik so'zini aytmoq. **Tabriklam**oq so'zi barcha nutq uslublari uchraydi. **Qutlamoq** so'zi ko'proq so'zlashuv uslubida ishlatiladi. **Muborakbod qilmoq, muborakbod etmoq, muborakbod aylamoq** so'zlari esa ekspressiv-emotsional bo'yoqqa ega bo'lib, rasmiy, publitsistik, badiiy uslublarda qo'llanishga xoslangan. **Muborakbod aylamoq** so'zi eskilik bo'yog'iga ega. *Oltinoydan boshqa hamma, hatto boya Klaraxonning qiliqlarini yoqtirmay qovog'ini uygan qo'rboshi ham, g'alabadan xiyol mast, bir gapirib, o'n kulishar, yo'lovchilar ularga o'girilib qarashar, ba'zilar tanib, qo'llarini silkitib t a b r i k l a s h a r edi...* (O.Yoqubov, Adolat manzili). *Bu shartni Otabek ismidan Ziyo shohichi qabul etib qutidorni Otabekdek bir yigitni kuyov qilishi bilan t a b r i k l a d i va shu takallufsiz sovcilik ila umr savdosi bitgan hisoblandi* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar). *Anvar o'zini t a b r i k q i l u v c h i ulamo va ashraflar yuzidan ochiq ravishda riyo, shaytanat va ta'ma o'qir, kambag'allardan sodda samimiyat ko'rar edi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) *SHahar a'yonlari Bobur kelib tushgan ko'shka borib, uni g'alaba bilan q u t l a d i l a r...* (P.Qodirov, YUlduzli tunlar) *Anvar devonxona sahniga etkanda ichkaridagi katdan kichik mirzo, munshiylar boshliqlarini m u b o r a k b o d q i l g' a l i o'runlaridan qo'zg'aldilar.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) – *Avvalo menim uyim yo'q. Undan keyin meni m u b o r a k b o d q i l a d i r g' a n tanishlarim ham yo'q, – dedi Anvar qo'l siltab, – bundan xotirjam bo'lingiz.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon)

TAYYOR, SHAY, TAXT, MUHAYYO, HOZIR. 1 Biror narsani qo'llashga yoki iste'mol qilishga tayyor qilib qo'yilgan holatda. **Tayyor** so'zi bu ma'nosida barcha uslublarda keng ishlatiladi. **Shay** so'zi tayyor qilib qo'yilgan narsaning qo'llanishga chog'langanlik holatida ekanligini anglatadi. **Taxt** so'zi ko'proq so'zlashuv nutqiga xoslangan bo'lib, narsaning qo'llanishga har jihatdan tayyor holatda turganligini ifodalaydi. **Muhayyo** so'zi ko'proq yozma nutqda qo'llaniladi. **Hozir** so'zi bu ma'noda nutqda kam ishlatiladi. *G'avvos t a y y o r aravalardan birini olib keldi.* (Mirmuhsin, Me'mor) *Chustiy o'zi yangi she'riy ifodalar yaratmaydigan, o'tgan shoirlardagi t a y y o r ifodalardan hatto mexanistik ravishda foydalanadigan bo'lib qoldi...* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Qarabsizki, birpasda jo'xori kabob t a y y o r!* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Anvar, xudaychi uchun ajratgan arizalarni qo'lig'a olib o'rnidan turdi: – Arizalar t a y y o r...* *Huzuringizga chiqarmoqchi bo'lib turg'an edim.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) *Xontaxtaga quroq dasturxon yozilgan, o'rtada pista, bodom, qand-qurs to'la patnis turardi. (Oqsoqolnikida patnis hamisha t a y y o r!)* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Hoziroq buyurtmaga s h a y taom! Sizni kutmoqda. Gazetadan. Jandamni tashlasam, bugun taxt ham t a x t Hoziroq toj hozir, qulohdan kechsam. Ammo huruj qilib jununim bir kun, Ko'ngil tusab qolsa, tojimni echsam, Quloh taxt bo'larmi, bilmayman.* (Azizbek Hakimov) *Miltiqlar t a x t, otlar t a y y o r, lekin kimning qush olib kelishini kutishar edi...* (A.Qahhor, Xotinlar). *Ikkinchi hadda sakkizta taom m u h a y y o edi: tuxumli va "xaymi" qoplangan krevetkali ugra, achchiq qalampirli mol go'shti bo'laklari, karri qaylasi solingan gulkaram, bodring parraklari, sovitilgan o'rdak panjalari, shakar sepilgan nilufar ildizlari, oshko'k ildizlari, obdon qovurilgan chayonlar".* (X.Do'stmuhammad, Razolat saltanatiga sayohat). *Tasavvur qiling, siz oshxonadasiz, ixtiyoringizda tuzdan tortib, go'shtgacha – barcha masalliq m u h a y y o.* Gazetadan. *Ertalab xolodilnikni ochsa, "suxoy payok" m u h a y y o. Pishloq, kolbasa, sariyog', tuxum...* (O'.Hoshimov, O'zbek ishi) *Kechagi kunni eslashdan maqsadim – yoshlarning o'sishi, kamoloti, xalq madaniyatini taraqqiy qildirishi uchun nimalar va qanday imkoniyatlar m u h a y y o ekanini pisanda qilishdir.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)

TAYYOR, SHAY, TAXT, MUHAYYO, HOZIR. 2 Biror ishni amalga oshirishga tayyor, shay holatda. **Tayyor** so'zi harakatni bajarishga to'la holatda tayyor ekanlikni anglatadi. **Shay** so'zi biror ishni amalga oshirishga to'liq chog'langanlikni anglatadi. **Taxt, muhayyo** so'zlari bu ma'noda nutqda kam ishlatiladi. **Hozir** so'zi esa, asosan, so'zlashuv nutqida ishlatiladi. *Inson t a y y o r turar sinovlarga s h a y, Yashaydi oilam, el-u yurtim deb.* (A.Oripov, Uch zina) *Garchi bekning yuragi hozir bo'lsa ham, Marg'ilong'a qarab uchishga t a y y o r edi...* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) *Oldilariga bir uyum mayda tosh, qalampirga qorilgan loy soqqani g'amlab, temirchining cho'qmoriday s h a y turgan Rayhon qiziq va Chumakovoy ularni istehkom ortida kutib oldi...*

(A.Obidjon, Meshpolvon jangga otlandi) *Hamma narsa ishni boshlash uchun t a x t.* (S.Karomatov, So'nggi barxan) *Men noyob odamman, otaxon, noyob! Ish joyim ham noyob. Mana ish joyim – shahrimizda barcha sharoit m u h a y o.* (T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi) *Jamiyatda h o z i r bo'lsa osiy Anvar, Yoki uning do'sti oshnosidin biror.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) *Hoy Husaynbek, darbozabonlarga yugur, hozir tursinlar...* (A. Qodiriy, O'tgan kunlar) *O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda – hozir.* (Maqol). *Yoyilib-yastangan o'lkaning qayeriga bormang, odob bilan salom beradigan, kattalar oldida hurmat saqlashga odatlangan dastyorlar h o z i r - u nozir, nigoh esa shu ingichka gavdada nihon iste'dod uchqunlarini ilg'ab olishga urinardi.* (I.Sulton, Genetika)

TAYYORGARLIK, TAYYORLIK, HOZIRLIK, TARADDUD, TADORIK. Biror ishni amalga oshirish uchun tayyorlanish, hozirlik ko'rish ishlari. **Tayyorgarlik** so'zi barcha nutq uslublarida faol qo'llaniladi va tayyorlanish harakatini jarayon sifatida tasvirlaydi. **Tayyorlik** so'zi tayyorlanish jarayonining deyarli amalga oshganligini anglatadi. **Taraddud** so'zida tayyorlanish harakatiga chog'lanish ma'nosi ustun. **Tadorik** so'zi kitobiy uslubga xos bo'lib, nutqda nisbatan kam qo'llaniladi. *Barcha "t a y y o r g a r l i k" taxt bo'lgach, Bozorov "landish" atiridan yuziga, sochiga, kitelining yoqasiga surtdi...* (I.Rahim, Chin muhabbat) *Nimaga t a y y o r g a r l i g i m i z bo'lmas ekan. Bitta-yu bitta qizimizdan, molimiz emas, jonimizniyam ayamaymiz.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Bu kun kechasi ul yo'l t a y y o r l i k l a r i n i ko'rdi. Minib ketishi uchun qutidorning saman yo'rg'asini belgiladi.* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar). *...O'zbek oyimning aykanicha, h o z i r l i k ko'rila boshlanar edi.* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar). *Choydan so'ng ul o'zining so'zini amalda ko'rsatib, otasidan ham ruxsat olib qo'ydi va peshindan keyin yo'lg'a chiqish uchun hozirlik ham ko'ra boshladi.* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) *Men bu savollarni shunchalik yaxshi bilar edimki, hatto: To'xta xola oyog'i yerga tegmay t a r a d d u d da halloslab yuribdi...* (I.Rahim, Chin muhabbat) *Bir ijtimoiy-madaniy bosqichdan ikkinchisiga o'tish davr kishilari kayfiyatida allaqanday taraddudni vujudga keltirgandi.* (U.Hamdani, Muvozanat) *Toshkandga qarshi, ayniqsa, g'azablangan bo'lib ko'ringuchi Xudoyor ham bu safarning t a d o r i k ini barobar ko'rishdi va Musulmonqul bilan birlikda Toshkand ustiga chiqdilar...* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar)

TAYYORLAMOQ, TAYYOR QILMOQ, SHAY QILMOQ, SHAYLAMOQ, TAXT QILMOQ, HOZIRLAMOQ. 1 Biror narsani foydalanishga yoki iste'mol qilishga tayyor holatga keltirmoq. **Tayyorlamoq, tayyor qilmoq** so'zlari barcha nutq uslublarida qo'llaniladi, shu ma'nosida sinonimik qatordagi boshqa so'zlarga nisbatan faol va istisno holatlarsiz uchraydi. **Taxt qilmoq, shay qilmoq** so'zlari esa faqat biror narsani ishlatishga har jihatdan tayyor holatga keltirilganlik ma'nosini ifodalaydi. **Hozirlamoq** so'zi, asosan, so'zlashuv uslubida qo'llanishga xoslangan. **Shaylamoq** so'zi shevaga xos so'z bo'lib, nutqda kam ishlatiladi. *...insonlarni sovuqdan himoyalashiga, lazzevatli taom t a y y o r l a s h l a r i g a, hayotlari uchun lozim bo'ladigan turli-tuman asboblarni yasashlariga imkon beruvchi alanga ham goho tebrasidagi barcha narsani kuydirib-kul qiluvchi bahaybat falokat shakliga kirmoqda edi.* (I.Sulton, Boqiy darbadar) *Kelinlar, qizlar saharlab bu taomlarni t a y y o r l a b birlari ishga, birlari o'qishga ketishgan.* (S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda) *Zavrak nonushta t a y y o r l a b, u odam kutib o'tirganini Me'morga xabar qildi.* (Mirmuhsin, Me'mor) *Gulnor hamma narsani zumda t a y y o r l a b, dadasiga ko'rsatdi...* (Oybek, Tanlangan asarlar) *Traktorimni s h a y l a b q o' y g a n m a n. Qator oralarida qo'shiq aytib ishlamasam, armondan chiqmayman.* (F.Nurullaev, Bo'z yigit) *Otabek tushga yaqin uyg'ongach, Hasanali choy h o z i r l a d i...* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar)

TAYYORLAMOQ, TAYYOR QILMOQ, SHAY QILMOQ, SHAYLAMOQ, TAXT QILMOQ, MUHAYYO QILMOQ, MUHAYYO ETMOQ, MUHAYYO AYLAMOQ, HOZIRLAMOQ. 2 Biror narsani taxt qilib qo'ymoq, muhayyo qilmoq. **Tayyorlamoq, tayyor qilmoq** so'zlari barcha nutq uslublarida uchraydi. **Taxt qilmoq** so'zi so'zlashuv nutqida berilgan biror vazifa, topshiriq, olingan qarz, pul va shu kabilarga nisbatan ishlatiladi. **Shay qilmoq** so'zi ham so'zlashuv uslubiga xos, ammo nutqda nisbatan kam ishlatiladi. **Muhayyo etmoq** kitobiy uslubga xoslangan. **Muhayyo aylamoq** so'zi eskilik bo'yog'iga ega, poetik nutqqa xos birlik. *Menga yana qancha azob t a y y o r l a b qo'ygansan, mayli, boshimga kulfat toshlarini ayamay*

yog'diraver. (T.Malik, Shaytanat) Zarur bo'lsa hoziroq ustaga berib kelaman, ertalabgacha **t a y y o r q i l i b** qo'yadi. (S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda) Kichik jiyani mashinani yuvib, yog'larini tekshirib safarga **t a y y o r q i l i b** qo'ydi (S.Ahmad, Sarob). Tamom, xo'jayin, ana, **sh a y q i l i b** qo'ydim. (K.YAshin, Hamza) Yov-yaroqni, ot-anjomni **sh a y l a n g l a r**, Imtihon kun xonga qo'ying darakni. "Yusuf va Ahmad". Podsholarday qilib **shaylab** qo'yingiz, Yunusga topshirdim yolg'iz ulimni. (Avazxon) Alqissa, Hasanxon bu so'zni aytib, olmos qilichni beliga bog'lab, ot ustida jaynab, qirq yigit bilan **shaylanib**, qarchig'ayday otga qo'nib, ... (Avazxon) Er-yigit maydonni ko'rsa **shaylansun**, Xudoyo, dushmanning qo'li boylansun... (U.Hamdani, Muvozanat) Donishmand kal, sipohiylikni o'xshatib, qo'shinni tappa-**t a x t e t i b**... bostirib bora berdi. "Xushkeldi". Bobom Umar zakunchining ulov jo'natishini kutmasdan o'zining eshak aravasini **t a x t q i l d i**. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) U kishini konkursda qatnash ishga targ'ib qilib bu xususda qanday yordam zarur bo'lsa, uyushmamiz tomonidan **m u h a y y o q i l i n i s h i n i** aytdim. (Rahmat Majid, Ajoyib inson) ...bag'ridan sanoqsiz ne'matlarni chiqarib- **m u h a y y o q i l i b** turguvchi er yuzi goh-goh shiddat ila qo'zg'alib, zilzilalar hosil qilmoqda... (I.Sulton, Boqiy darbadar) Istalgan miqdordagi summa aytilgan vaqtda **m u h a y y o e t i l a r d i**... (Avazxon) Jamoamizning barchasi ham **h o z i r b o' l i b**, dasturxon yer erdik. A.Qodiriy, G'irvonlik Mallavoy.

TAYYORLAMOQ, TAYYOR QILMOQ. 3 Biror narsani yuzaga keltirmoq, yasamoq, qurmoq va shu kabilar. O'rmondan keltirilgan to'sin va yog'ochlardan yerosti bostirmalari **t a y y o r l a n m o q d a**... (I.Rahim, Chin muhabbat) Yagona mashaqqati – qizga bezak mollari **t a y y o r l a s h**, yangi nusxalar toptirish, chevarlarga tiktirish va hokazodan iborat.(Oybek, Tanlangan asarlar) Ular sirtqi yengillarini kiyib, men choponimni yelkamga tashlab, yo'lakka chiqqanimizda, ikkilanib so'radim: – Putyovka topilishi... Axir, hozir birov **t a y y o r l a b** turgani yo'q, Tavakkal aka. (Sh.Xolmirzaev, Bulut to'sgan oy) Tushlikdan keyin ustaxonamga bosh nazoratchi bir qop kiyim olib keldi-da, shularga to'kechki ovqatgacha raqam yozib, **t a y y o r q i l i b** qo'yishimni buyurdi. (S.Ahmad, Sarob)

TAYYOR BO'LMOQ, TAXT BO'LMOQ, MUHAYYO BO'LMOQ, SHAY BO'LMOQ, HOZIR BO'LMOQ. Foydalanish yoki iste'mol qilishga tayyor holatida bo'lmoq. **Tayyor bo'lmoq** so'zi narsaning foydalanish yoki iste'mol qilish uchun batamom tayyor holatga kelganligini anglatadi. Qo'llanish darajasiga ko'ra faol, barcha nutq uslublarida uchraydi. **Muhayyo bo'lmoq** so'zi esa o'rni bilan narsaning ishlatishga yoki iste'mol qilishga tayyor holatga kelganligini ifodalaydi. **Taxt bo'lmoq, shay bo'lmoq, hozir bo'lmoq** so'zlari iste'mol qilish ma'nosi bilan bog'lanmaydi, ammo biror narsaning foydalanishga tayyor holatga kelganligi ma'nosini anglatadi. **Shay bo'lmoq, hozir bo'lmoq** so'zlari ko'proq so'zlashuv uslubiga xos. Sutchoy **t a y y o r b o' l d i**, suzib kiraymi? – Ikki kosani kelinlik uyga ber, men bilan Hasanalinikini shu erga keltir. (A.Qodiriy, O'tgan kunlar). Domlarni choy va dasturxon **t a y y o r b o' l g u n c h a** ovutib turish uchun mulla Obid palakdan uch-to'rtta qovun uzib chiqadi. (A.Qodiriy, Obid ketmon) Jandamni tashlasam, bugun taxt ham taxt Hoziroq toj hozir, qulohdan kechsam. Ammo huruj qilib jununim bir kun, Ko'ngil tusab qolsa, tojimni yechsam, Quloh **t a x t b o' l a r m i**, bilmayman. (Azizbek Hakimov) Noz-ne'mat **m u h a y y o b o' l s a**-yu, diling siyo, ruhing so'nik bo'lsa, hayotda ne'lazzat bor?(M.Jo'ra, Iztirob) Shu kunlarda bizning diqqat-e'tiborimiz ko'klamgi ekishni har taraflama **sh a y b o' l i b** kutib olishga qaratilgan. Gazetadan.

TAYYORLANMOQ, OTLANMOQ, HOZIRLANMOQ. 1 Biror joyga borish uchun hozirlik ko'rmoq, o'tlanmoq. **Tayyorlanmoq** so'zi tayyorgarlik ko'rish ma'nosini umumiy tarzda anglatadi. **O'tlanmoq** so'zida biror joyga borish uchun tayyorlanish ma'nosi alohida ta'kidga ega. **Hozirlanmoq** so'zida tayyorgarlikning endi boshlaganligiga urg'u beriladi va, asosan, so'zlashuv nutqida qo'llaniladi. **T a y y o r l a n**, qizim, Senga yurt otasi, ellikboshimiz gapiradilar. (Oybek, Tanlangan asarlar) Sen yovga qarshi **o t l a n**, men jilovdoring bo'lay... (Mirtemir) Cho'lga **o t l a n i b** turgan yigitlar shinel kiyib, dalani ayollarga tashlab ketishdi. Cho'l cho'lligicha qolaverdi. Kanal yoqalarida ochilgan yangi erlargagina ketmonlab chigit ekildi, xolos. (S.Ahmad, Er uyg'ondi) Avvalambor, tashlab kelganing jo'yalik ish bo'lmagan edi. Hali ham bo'lsa yo'lga **o t l a n**. (S.Ahmad, Xotin) Sovxozga qarashib, og'irini harna engil qilib, dala shabadasini eb, kuz

gashtini surib kelamiz degan niyatda yo'lga hamma shavq-zavq bilan **o t l a n d i**. (A.Qahhor, Mirzacho'lda kuz) **CHo'l burguti deb atalgan kishi yuzlarini shamollar qoraytirgan, yaqinida turgan odamga ham xuddi olisdan qarayatgandek ko'zlarini qisib, bo'ynini bir tomonga egib boqadigan, birov bilan ko'rishgani qo'l uzatganda shamolga qarshi uchishga h o z i r l a n i b**, qanotini yozib, oldinga intilib turgan burgutga o'xshash bahaybat bir kishi bo'lib ko'rinardi. (S.Ahmad, CHo'l burguti)

TAYYORLANMOQ, HOZIRLANMOQ, SHAYLANMOQ. 2 Biror ish, yumushni bajarish uchun tayyorgarlik ko'rmoq. *Navbatdagi so'z o'rtoq Rahmatovga. O'rtoq Hakimova tayyorlansin.* (A.Qahhor, Munofiq) *Anvar kechqurun o'rdadan qaytishga h o z i r l a n a r e d i...* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) *Har qanday kutilmagan hodisalarga sh a y l a n i b turingiz!* (I.Rahim, CHin muhabbat) *Kimsanning xatini eshitishga shaylanib, hali o'tiribman, hali o'tiribman.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Endi biz hujum qilishga shaylanib turgandik.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TAKRORLAMOQ, QAYTARMOQ. 1 Biror ish, hatti-harakatni takror holda bajarmoq. **Takrorlamoq** so'zi qo'llanish darajasiga ko'ra nisbatan faol, barcha nutq uslublarida uchraydi. **Qaytarmoq** so'zi ko'pincha so'zlashuv nutqida ishlatiladi. –*Qoch, yashshamagur, qoch! – deb t a k r o r l a d i shaqildoq kelinoyisi,* (P.Tursun, O'qituvchi) *Rahimjon aka! – dedi Ra'no sekin. Dedi-yu, entikdi, so'ngra chuqur nafas olib, ohista t a k r o r l a d i: – Katta rahmat! ..tabelchi ham xuddi jo'rttaga qilganday, uning nomini yo tutilib aytar yoki chatoq o'qib, ikki marta t a k r o r l a r e d i.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari) *Sigir kavsh q a y t a r a r k a n, yuvoshgina “mo'o” dedi.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Hatto og'zidan ko'pigi osilib, pastki jag'ini u yoq, bu yoqqa qiyshaytirganicha kavsh q a y t a r a y o t g a n tuyagacha bor.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TAKRORLAMOQ, QAYTARMOQ. 2 Biror so'z, jumla yoki yirikroq matnni takror qo'llamoq. *YAna bir t a k r o r l a n g, faqir, radifini uqib olmoqchiman.* (P.Qodirov, YUlduzli tunlar) *YUusufbek hoji, to eski juvaga etguncha, o'zining yuqoridagi so'zini ko'y, guzar xalqiga t a k r o r l a b kelmoqda edi...* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) *Polvonning davolanish muddati tugadi. Uni kuzatgani aeroportga chiqishdi. Polvon samolyot trapiga oyoq qo'ya turib, kutinglar, bir haftaga qolmay kelaman, deb t a k r o r l a d i.* (S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda) *Polvon bu gaplarni besh-olti martadan t a k r o r l a d i.* (S.Ahmad, Azroil o'tgan yo'llarda) – *Ayting. Zumrad, nima bo'ldi? – deya yana savolini t a k r o r l a d i Aziza.* (S.Ahmad, Zumrad) *Qorako'z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko'cha boshiga kelganda, albatta, kampir shu gaplarni t a k r o r l a y d i.* (S.Ahmad, Qorako'z majnun) *Nosirjon karavotiga borib yotgach, varaqqa uzoq tikildi. Allanarsalar deb pichirladi. CHog'imda, o'sha ikki satrni t a k r o r l a d i.* *Ham qo'rquv, ham shijoat bilan yumdi. To'ppa-to'g'ri! Bu so'zlar qayta-qayta t a k r o r l a n g a n i d a n ham sovuq nutqlarni ilitishga, hissiz yozilgan asarlarni bezatishga xizmat qildirilgani uchun ta'sirini yo'qotib, rasmiyat uchun aytilayotgan so'zlarga aylanib bormoqda edi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Gapning rostiga ko'chib, shuni aytishim kerakki, shu so'zlar har qancha chin yurakdan aytilayotgan so'zlar bo'lsa ham, ammo qayta-qayta t a k r o r l a n a v e r i b, ba'zan o'zining emotsional ta'sirini yo'qotib qo'ymoqda edi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) – *Sho'xlik qilmay, jim o'tir, xo'pmi? – dedi har doimgi gapini q a y t a r i b.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) – *Ko'rasan! Kantuz bo'lgan! – Oqsoqol ishonch bilan gapini q a y t a r d i. – Kantuz bo'lgan!* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, TUGATMOQ, SOP QILMOQ, SOPLAMOQ, BITIRMOQ, ADO QILMOQ 1 Biror gap, suhbat, ma'ruza, bahs kabilarni oxiriga, poyoniga etkazmoq. **Tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq** so'zlari gap, suhbat, ma'ruza, bahs kabilarning yakunlanganligi ma'nosini anglatadi. **Bitirmoq** so'zi bu ma'nosida, asosan, so'z, gap so'zi bilan birikib, ularning aytib bo'linganligini ifodalaydi. **Sop qilmoq, soplamoq** so'zlari nofaol bo'lib, asosan, so'zlashuv nutqida uchraydi. **Ado qilmoq** so'zi ham bu ma'noda juda kam qo'llaniladi *Hoji o'zidan oshirib so'zlagan bu so'zlarini shu gap bilan t a m o m l a d i.* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) *U notiqlikning hamma qoidalariga rioya qilib, “mafкура maydoni”ning hamma “past- baland” larini e'tiborga olib so'z boshlaydi. Xuddi shu tarzda so'zini t a m o m q i l a d i.* (A. Qahhor, Qaydlar) *CHol gapini t u g a t i b bo'lgandan keyingina biz bilan ko'rishdi.* (S.Ahmad,

O'rik domla) *Zaynab so'zini bitira olmadi, chetga qarab, ko'z yoshini to'kdi.* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar).

TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, TUGATMOQ, SOP QILMOQ, SOPLAMOQ, BITIRMOQ, ADO QILMOQ. 2 Biror yumush, ish-harakatni bitirmoq, oxiriga etkazmoq. **Tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq, bitirmoq** so'zlari biror yumush, ish-harakatni poyoniga etkazish ma'nosida biri ikkinchisining o'rnida erkin almashinib qo'llanaveradi. **Ado qilmoq** ish-harakatni yakunlash ma'nosida juda kam ishlatiladi. *Ikkinchi chopiqni tamomladin g m i?* (Rahim, CHin muhabbat) *Me'mor raisligida barcha ustalarni to'plab, ishni yana ham tezlatish va sha'bon oyigacha qurilishni tamomlab, ramazonga xursandchilik bilan kirishni ta'kidladi.* (Mirmuhsin, Me'mor) *Qanday qilib o'yinni tamom qilganimni bilmadim. Sahna orqasidan chiqib kelayotsam, chiroyligina bir qiz ro'molga o'ralib turibdi. To'xtadim.* (S.Ahmad, Zumrad) *O'rik domla hikoyasini tugatib, sovub qolgan choyni shimirdi.* (S.Ahmad, O'rik domla) *Gulsara vishillayotgan ichimlikni oynaga qaragan holda kalta-kalta sipqorib tugatida, bizga, keyin atrofda qilarga shoshib ko'z tashladi.* (Sh.Xolmirzaev, Bulut to'sgan oy) *CHO'llarda boshlangan yangi hayot va yangi odamlarning qissasini yozib tugatib bo'larmidi!* (S.Ahmad, O'rik domla) *Beshovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, beshovlon birga bo'lsa, bitmaganin bitirar.* (Maqol) *O'zi bebaho dastyor-a, zipillab, hamma ishni bitiradi bir zumda.* (S.Nurov, Narvon) *Mendan kashtachi chiqmas ekan. Harflar qing'ir-qiyshiq bo'lib ketdi. Shu arzimagan ishni bitirguncha tong bo'zardi.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Ul aksar shom va ertalabki namozlarnigina masjidida o'qub, qolganlarini uyda ado qilalar, peshin, asr, xuftanlarga vaqt topolmas edi...* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) *O'zbak elini qirib ado etolmaysan. O'zbak eli – katta el.* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar) *Shu pesadagi rollardan birini muvaffaqiyat bilan ado etib, tomoshabinning olqishiga sazovor bo'lgan kechada tutaman.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)

TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, TUGATMOQ, SOP QILMOQ, SOPLAMOQ, BITIRMOQ, ADO QILMOQ, YO'QOTMOQ, YO'Q QILMOQ, QURITMOQ 3 Biror narsadan foydalanib, uni batamom tugatmoq, sof qilmoq. **Tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq** so'zlari bu ma'nosida barcha nutq uslublarida faol qo'llaniladi. **Ado qilmoq, sop qilmoq, quritmoq** so'zlari esa oddiy so'zlashuv nutqida ko'p qo'llaniladi. **Quritmoq** so'zi konnotativ bo'yoqqa ega. **Yo'qotmoq, yo'q qilmoq** so'zlari biror narsani, masalan, pulni sarfxarajat bilan tamom qilish ma'nosida qo'llanadi. *Men uni [o'rikni] pishgunicha qo'ymay, g'o'raligidayoq tamomlayman.* (Sh.Sulaymon, Ota, o'g'il) *Xotinlar ziyrak bo'lishadi, uydagi konfetlarni ko'chadagi bolalarga tashib tamom qilishini bilmaydi, deysizmi?* (S.Ahmad, Ko'zlarigda o't bor edi) *Ko'ryapsiz-ku, ikki mashinalab ham terib tamom qilib bo'lmayapti.* (S.Ahmad, CHO'l burguti) *Ha, bir alami bordir-da... YO nos sop bo'ldimiki n? Xumori tutgan bo'lsa kerak..* (P.Tursun, O'qituvchi) (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Gapning rostiga ko'chib, shuni aytishim kerakki, shu so'zlar har qancha chin yurakdan aytilayotgan so'zlar bo'lsa ham, ammo qayta-qayta takrorlanaverib, ba'zan o'zining emotsional ta'sirini yo'qotib qo'ymoqda edi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Lekin bola o'lgudek ichag'on ekan, bir shishasini bir o'zi quridi, tezgina mast ham bo'lib qoldi..* (E.A'zam, Shovqin) *Dard kurtlari emirib ado qilayozgan tana elpig'ich kabi tebrana boshladi.* (T.Malik, Shaytanat) *Quruvchi xalqi – nozik. Maoshning barakasi uchdimi, darrov "O'z ixtiyori bilan" ariza beradi-da, smetasi "eb bitirilmagan" boshqa ob'ektga o'tadi-ketadi.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Qo'limdan kelganicha xorlik qanotini past tutdim, aytilganlarning barini ado etishga urindim.* (I.Sulton, Boqiy darbadar) *Tulkin "Ish"ni topshirib, rasmiyatchiliklarni ado etgach, o'g'li ukiydigan Akademiya sari beixtiyor ravishda yul oldi.* (T.Malik, Iblis devori)

TAMOMLAMOQ, TAMOM QILMOQ, TUGATMOQ, BITIRMOQ, SOP QILMOQ, ADO QILMOQ. 4 Biror ta'lim muassasasini bitirmoq, tamomlamoq. **Tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq** so'zlarining qo'llanish doirasi keng va o'zaro erkin almashinish xususiyatiga ega. **Bitirmoq** so'zi so'zlashuv nutqida faol ishlatiladi. **Sop qilmoq, ado qilmoq** so'zlari ham so'zlashuv nutqiga xos, ammo bu ma'nosida nisbatan kam ishlatiladi. *Ta'lat o'ninchi sinfni kumush medal' bilan tamomladi.* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) *U [Sohib qori], madrasani ta*

m o m **q i l g a c h**, “qori” deb nom olgan bo‘lsa ham, unga biror joyda qorilik yoki imomlik qilish nasib bo‘lmadi... (I.Rahim, CHin muhabbat) Men [Muattar] psixoterapevtika kursini **t u g a t y a p m a n**... (E.Vohidov, Ikkinchi tumor) Mehribon tog‘asi uni ikkinchi kursni **t u g a t i b**, endi ta‘tilga chiqaman, deb turganda qidirib borgandi. Kimsan, kattakon bazaning mudiri katta boshini kichik qilib kelibdi. (S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg‘alar) Vahobjon urushdan oldin meditsina texnikumini **t u g a t i b**, Sumbulsoyga yuborilgan edi. (S.Ahmad, Sumbul) Qizing Istatnisoni kelin qilay. O‘g‘lim Luqmonboy bu yil o‘qishni **t u g a t i b** keladi. To‘y qilaylik. (S.Ahmad, uchinchi minora) Omontoy balog‘atga etdi, o‘ninchi **b i t i r d i-yu**, ko‘ngliga dengizchi bo‘lish niyati tushib, dengiz tomonlarga talpinib qoldi. Armiyaga ketdi. (S.Ahmad, Bo‘ston) Bu – bundan ikki yil oldin akusherlik maktabini **b i t i r g a n** G‘upra degan andijonlik qiz edi. (S.Ahmad, Bo‘ston) – Yo‘q. YOlg‘iz farzandimiz. – Nechanchi sinfni **b i t i r g a n s i z**? (Sh.Xolmirzaev, Bodom qishda gullaydi) Bilasizmi, Mansur aka, maktabni **b i t i r i b**, institutga bormoqchiman. (O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) To‘qqizinchini **b i t i r g a n i m d a**, onam qishloqqa kelib, o‘z otamning vasiyatini aytdi. (O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) ...Kimsan akam ettinchini **b i t i r g a n i d a n** keyin shaharga borib o‘qimoqchi edi, bobom yo‘l qo‘ymadi: ketmonga soldi. (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Bir kuni Kimsan akam bobom bilan oyimga aytolmagan dardini menga gapirdi: – Shaharda o‘nni **b i t i r i b**, uchuvchi bo‘laman. (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TAMOM BO‘LMOQ, TUGAMOQ, SOP BO‘LMOQ, BITMOQ, ADO BO‘LMOQ 1 Biror jumla, suhbat, ma‘ruza, bahs kabilar poyoniga etmoq. **CHol gapini t u g a t i b**, ichkari kirib ketdi. (S.Ahmad, To‘lqinlar) Keyin, bu fikrni ochiq aytolmasligim bois: – Bir-birlaring bilan yanayam yaqin bo‘lib kelishlaring uchun, – deb gapni **t u g a t d i m**. (Sh.Xolmirzayev, Bulut to‘sgan oy) Shundan keyin sezib qoldimki, suhbatimiz **a d o b o‘ l g a n d e k**: illo Gulsara hasratini qilib bo‘lgan, men eshitgan, u ko‘nglini bo‘shatgan, xo‘o‘sh, Tavakkalga nisbatan munosabatini aniq aytmagan hali, balki aytib bo‘lgan ham edi. (Sh.Xolmirzaev, Bulut to‘sgan oy) O‘qing hecham **a d o b o‘ l m a y d i**. (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Hayronman, ikkovlaringni gaping hech **a d o b o‘ l m a y d i**. (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TAMOM BO‘LMOQ, TUGAMOQ, SOP BO‘LMOQ, BITMOQ, ADO BO‘LMOQ 2 Biror yumush, ish-harakat poyoniga etmoq, tamom bo‘lmoq **Piligi so‘xta bo‘lgan shamlarning uchini qaychilaydi, yonib t a m o m b o‘ l g a n l a r i n i** almashtiradi. (S.Ahmad, Qorako‘z majnun) O‘, endi hamma narsa **tamom bo‘ldi**, endi yashashning ham qizig‘i qolmadi, degandek, kurashda engilgan, najot yo‘lini butunlay yo‘qotgan kishi kepatasida o‘tirardi. (S.Ahmad, Xotin) O‘shanda master uning rangini ko‘rib qo‘rqib ketgan, smenasini **t u - g a t i b** chiqayotgan strelkachi qizdan uni yuqoriga “berib yuborgan” edi. (S.Ahmad, Mo‘tti) Birinchi smena ishni **tugatib**, erga chiqib ketgan, ikkinchi smena hali tushmagan. (S.Ahmad, Mo‘tti) Demak, bu qiz rayonga doktor bo‘lib kelyapti. U doktorlikni **bitirgan**. (S.Ahmad, Tog‘ afsonasi) Unga faqat uyg‘ur oshpaz dakki berar, qizni eslamaslikka undar edi. Shunda Nosirjon unga sovuq tikilar, gapi **ado bo‘lgach**: “Oxun aka, siz ovqatni biling... Muhabbat boshqa narsa!..” deb yo‘lakka chiqib ketar edi. (Sh.Xolmirzaev, Bodom qishda gullaydi) Tushdan keyin qabulga kiruvchilar **ado bo‘ldi**. (T.Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi) – Baribir. Haq degan narsa bor, onasi... Poezd ketganidan keyin razm solsam, Ra‘noxon adoyi **tamom bo‘pti**. (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Qahatchilik **bitib**, yurt qaddini ko‘tarib olguncha sanikida turadi. (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Urush **bitib**, uyga yana sovchilar qatnab qolganida... (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TARJIMA QILMOQ, O‘GIRMOQ, AG‘DARMOQ. Bir tildagi matnni o‘zga tilda ifoda etmoq, boshqa tilga o‘girmoq. **Tarjima qilmoq** so‘zi bu ma‘noni bevosita ifodalaydi. **O‘girmoq, ag‘darmoq** so‘zlarida esa ushbu ma‘no kontekst yoki nutq vaziyati asosida aniqlanadi. Keyinchalik Bag‘dodga borib, qadimgi yunon olimlarining falakiyotga oid asarlarini **t a r j i - m a q i l** dilar va ilmiy sharhladilar.. (Mirmuhsin, Me‘mor) Nima uchun she‘riyatda har qanday podstrochnik originalni yaxshi **tarjima qilish** imkonini beradi-yu, prozada har qanday podstrochnikchi “komprachikos” bo‘lib qoladi? (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Oqsoqol o‘rischani yaxshi bilishi endi esiga tushgandek **tarjima qildi**. (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Hamma qardosh adabiyotlarni rus tiliga yoki boshqa tillarga faqat asl nusxadan **tarjima qilish**

mumkin deyiladigan bo'lsa, u holda bu amalda adabiyotlarning butunittifoq kitobxonlariga bo'lgan tabiiy intilishini sun'iy ravishda cheklash bilan baravardir. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Ko'p millatli mamlakatimizda mavjud sharoitga ko'ra tarjima qilish ishi g'oyat mas'uliyatli ekanligini nazarda tutib, biz podstrochnikdan yuz o'girmasligimiz, podstrochnik ham har turli bo'lishini unutmasligimiz lozim*". (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Asadulla xayolidagi o'zbekcha she'rni forsiyga o'g'irib yozdi...* ("Sharq yulduzi") *Axir u asl nusxadan yoki loaqal ruschadan emas, fransuz tilidan ag'darmoqda-ku!* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)

TARJIMON, TARJIMACHI, TILMOCH, MUTARJIM 1 Tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs. Tarjimon so'zi barcha nutq uslublarida erkin ishlatiladi. **Tarjimachi** so'zi kam ishlatiladi. **Tilmoch, mutarjim** so'zlari esa eskilik bo'yog'iga ega. *Men bilan so'zlashishingiz uchun t a r j i m o n ham kerakdir hali..* (P.Tursun, O'qituvchi) *Biz doim asl nusxaning o'zidan tarjima qila biladigan tarjimon bo'lsa deymiz. Lekin bunday tarjimonlar bizda hozircha u qadar ko'p emas.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Kishi o'zidagi favqulodda tuyg'ularni odatdan tashqari, ya'ni she'r bilan ifoda qilganda nechukdir engil tortadi, ko'ngliga tarjimon topganday bo'ladi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Hokim gap nima to'g'risida ketayotganligini t i l - m o c h dan so'rab, Teshaboyga kulib qo'ydi – targ'il ko'zlarida g'alati bir sirning o'ti chaqnadi..* (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha) *Biroq sal fursat o'tmay, hokim to'ra tilmochni o'rnidan quvdi.* (S.Ahmad, Hukm) **Tilmoch** o'ng qo'lini ko'tarib, engil bir ishora qildi, xezlanib turgan suvoriylar otlaridan ketma-ket sakrab tushishdi-yu, o'zlarini qabila a'zolari ustiga otishdi. (Gazetadan) *Faqat uning o'zi bilan birga tug'ilgan samimiyati o'zgarmadi, hamisha el yuragiga quloq tutish, elga tilmoch bo'lish ehtiyoji o'zgarmadi.* (I.G'afurof, YUrak mulkidagi kashfiyotlar) **"Otello" tragediyasini ingliz tilidan uzbek tiliga bevosita tarjima qilgan mutarjim Jamol Kamoldir.** (Gazetadan)

TARJIMON, O'GIRGICH 2 Kompyuter texnologiyasida tarjima ishlarini bajaruvchi dasturlar. **Tarjimon** so'zi bu ma'nosida *dastur* so'zi bilan birga ishlatiladi. **O'girgich** so'zi o'zbek tilining ichki imkoniyati asosda yaratilgan davrning keyingi mahsuli hisoblanadi. Bu so'z ham asosiy hollarda *dastur* so'zi bilan birga qo'llaniladi. **Tarjimon** dasturlari haqida umumiy tushuncha. **Tarjimon** dasturlar - bu matnlarni bir tildan ikkinchi tilga kompyuter yordamida tarjima qilish... (Gazetadan) *...To'la o'girgich kabi qadam-baqadam o'girgich dastur tuzuvchi tomonidan yozilgan dastlabki kodni mashina kodiga o'giradi.* ("Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati") Qadam-baqadam **o'girgich** esa, dastur kodining har bitta qatori bo'yicha o'giradi. Shuning uchun mashina dasturni bajarishi uchun har safar qadam-baqadam **o'girgichdan** foydalanishi lozim bo'ladi. ("Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati")

TARZDA, HOLDA, XILDA, QABILDA, YO'SINDA, RAVISHDA, SURATDA, TAXLITDA, TARIQA. Biror holatda, shu tarzda yoki boshqacha yo'sinda (belgi, harakat-holat kabilarga nisbatan). **Tarzda, holda, yo'sinda, taxlitda** so'zlari nutqda ko'pincha *qay* so'roq olmoshi bilan birga qo'llaniladi. Bunday vaqtda holat ma'nosi kuchli ifodalanadi. **Xilda, yo'sinda, taxlitda** so'zlari *bir, shu* so'zlari bilan birga kelib, harakat-holat, belgining bir ko'rinishda, o'xshash holatda ekanligini anglatadi. **Qabilda, yo'sinda, ravishda, suratda, taxlitda, tariqa** so'zlari *shu* so'zi bilan birga ishlatilganda harakat-holat, belgining o'xshash holatda ekanligi ma'nosi yuzaga chiqadi. *U bir go'dak, men uni qay t a r z d a ulg'aytaman, Bilmam, o'zni anglay deb ko'z yumdimmi qay fursat?* (H.Xudoyberdieva) *Istiqbolning shirin xayollarig'a ko'milgan h o l d a maxdum asr namozi uchun tahorat olar edi...* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) *Boboxo'ja domla hamma vaqt bir x i l d a o'qitar, bir xilda yozdirar, ishqilib, bir amallab vaqtni o'tkazar edi...* (P.Tursun, O'qituvchi) *Sen menga tegma, men senga tegmayman, q a b i l i d a ish tutish – eng xavfli maraz...* (F.Musajonov, Himmat) *Otabekning Marg'ilonga borib kelishi shu y o' s i n d a edi...* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) *Bo'layotgan gaplar biron joyda yozma r a v i s h d a qayd qilinmasin.* (S.Ahmad, YUlduz) *Bu jarohat shu kungacha ichdangina fasodlanib yurg'an bo'lsa, bu kun Safar bo'zchi kabi bir "bema'ni" bu yarani rahmsiz s u r a t d a yorib yubordi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) *eson shunday xayollar bilan uyga qay t a r i q a etib kelganini ham sezmedi.* (H.Ahmar, Kim haq?) *U notqlikning hamma qoidalariga rioya qilib, "mafкура maydoni"ning hamma "past- baland"*

larini e'tiborga olib so'z boshlaydi. Xuddi shu **tarzda** so'zini tamom qiladi. (A. Qahhor, Qaydlar) Lekin hozir buning mavridi emas, mazkur ma'no saqlanib qolsa-da, savolning yumshoqroq **tarzda** qo'yilishi shundan. (T.Malik, Shaytanat) Ularning qiska va keskin **tarzda** aytilgan buyruqqa so'zsiz buysunishdan o'zga choralari yuk edi. (T.Malik, Shaytanat) Modomiki shundoq ekan, bu azim qurilish brigadasini texnika bilan mukammal qurollanmagan **holda** tasavvur qilish mumkin emas. (A.Qahhor, Mashina odamning do'sti) Har **holda** afsuslanibmi, xijolat tortibmi, shuni aytishim kerakki, bu maktublardami jo'shqin do'stlik tuyg'usi, harorat, yolqin hech bir adabiy asarimizda bo'lmasa kerak. (A.Qahhor, Hayotimiz jamoli) Lekin, har **holda**, bizningcha, yaxshi ocherkning bo'lmasligiga sabab, unga yomon nazar bilan qaralishi bo'lsa kerak. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Ijodiy faollikni adabiyotimizda har bir yozuvchi ham, har bir tanqidchi ham bir **xilda** chuqur tushunadi, deb bo'lmaydi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Bola ham ota-onaga shu **xilda** munosabatda bo'lib, ularga yordam degan gapni xayoliga ham keltirmas ekan. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Nurmat Maqsudiy shundoq bo'lmaganda mana bu **xilda** loydan hushtak yasab o'tirmas edi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) U yoki bu asarni barcha bir **xilda** sevishga majbur emas. (T.Malik, Shaytanat) Asarimni barcha bir **xilda** sevsin, e'zozlasin, deb talab kiluvchi yoki umid qiluvchi yozuvchi nodondir. (T.Malik, Shaytanat) Kutilgan mehmon shohu gadoga bir **xilda** munosabatda buladi. (T.Malik, Shaytanat) Uchta yunalishga bir **xilda** chipta olamiz, ro'yxatdan o'tkizamizu, lekin uchmaymiz. (T.Malik, Shaytanat) Afsuski shu **xildagi** yozuvchilar bitta-ikkitagina emas. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Uchinchidan, meni Anvarga yopishtirib, mol-dunyo to'g'risida "gilam sotsang qo'shninga sot, bir chekkasida o'zing o'tirasan" **qabilida** ish tutmoqchi!(A.Qahhor, Kundoshlar) Vazifani qay **yusinda** o'rinlatganlari bo'yicha hisob berib, Bek akalaridan olqish olishni o'ylab, kayfiyatleri ko'tarildi. (T.Malik, Shaytanat) Bolalar qay **yusinda** izlanayotgani Karro Manzuraga ham ma'lum emas. (T.Malik, Shaytanat) Poytaxtdagi yor-do'stlarining harakatlari soyasida u shartli **ravishda** qamoqdan chiqarildi.(A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Bu gaplarni aytishdan murod xalturaga yo'l ochish, yo'l qo'yilgan xatolarni ta'na qilib, ongli **ravishda** xato qilishni talab qilish ham emas, albatta. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) CHustiy o'zi yangi she'riy ifodalar yaratmaydigan, o'tgan shoirlardagi tayyor ifodalardan hatto mexanistik **ravishda** foydalanadigan bo'lib qoldi... (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Axtam esa kopqoqni yopib, joyiga xotirjam **ravishda** o'tirdi-da, kalitni buradi. (T.Malik, Shaytanat) Ajib manzara: birovining gunohlar yukiga bardosh berolmayotgan kemasi cho'kish arafasida turibdi, birovi esa po'rtanalarga parvo qilmay, hayot kemasiga to'xtovsiz **ravishda** gunohlar yukini ortyapti... (T.Malik, Shaytanat) Qizlar sirli **ravishda** kulishdi. (T.Malik, Shaytanat) Bek qaerda qanday majlis bo'lsa qolmaydi; borganida ham ataylab hammadan kech boradi-da, o'rtadan tantanali **suratda** o'tib, oldingi qatorga o'tiradi. (A.Qahhor, Bek) Etti yillik karvonining manzilga oldinroq borish uchun tashkiliy ishlarni mahorat bilan olib borish, rezervlarni topib ishga solish, fan va texnikaning ilg'or tajribasini keng **suratda** joriy qilish kerak. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Shu **taxlitda** bola-chaqamning oldiga boramanmi? (A.Qahhor, Bir shofyorning xotira daftaridan) Shu **taxlitdagi** yigit bir o'sha erdami, boshqa har qaerdan ham topiladi, dersiz? (A.Qahhor, Kimyogar) Mavlaviy Po'stindan: "Faqiringiz burni andak nopok erdi. Shul vajdin domullaning aytgan nimarsalarini qiroat qilmoqqa ojiz bo'lib va yana ohistalik birlan "arzi" deb erdim, faqirning bul **tariqa** qiroatidan domullaning g'azablari kelib tayoqni ko'tardilar. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)

TASALLI, TASKIN, YUPANCH. Insonni emotsional, ruhiy jihatdan yupatish, taskin berish, tinchlantirish harakatiga nisbatan qo'llanuvchi so'z. **Tasalli** so'zida yupatish, taskin berish ta'kidi kuchli. **Taskin** so'zi nutqda, asosan, ko'ngil, qalb so'zlari bilan birga kelib, "tinchlantirish" ma'nosini hosil qiladi. **Yupanch** so'zi esa nafaol so'z bo'lib, nutqda kam ishlatiladi. Engil esgan shabadadanmi yo brigadirning **t a s a l l i** si kor qildimi, harqalay, raisning chehrasi biroz yorishdi. (X.Ergashev, Tadbirkor rais) YUragim ranjigan boladay, Na ermak, **t a s k i n** ko'nadi. (Sh.Rahmon) Bu tovushlar, bu portlashlar uning asabini negadir buzmedi. Qiz qalbiga **y u p a n c h**, o'ziga hamdard kishi izlardi. (S.Ahmad, Ufq) – Yo'qlab turishadi, yig'ilish kerak bo'lganda yig'ilishadi, yig'lash kerak bo'lganda yig'lashadi Bu, albatta, behuda gap, o'rinsiz, asossiz **tasalli**, chunki gap ayol boshiga nima yopinib yurishida emas, nima uchun yopinib yurganligida.

(A.Qahhor, Teshik dasturxon) *Abdulla Orinov* “*Temir odam*” degan she’rida murakkab texnika siridan voqif bo’lgan, lekin insonning quvonchi, g’am-g’ussasiga kelganda qulog’i kar, tili lol bo’lgan, yig’lagan go’dakning boshini silolmaydigan, onaga taskin-tasalli berolmaydigan odamlarga ta’na toshini otadi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Birok ko’ngli baribir taskin topmadi.* (T.Malik, Shaytanat) *Axir qaerdadir ko’ngilga taskin bera oluvchi kenglik bo’lishi kerak-ku?* (T.Malik, Shaytanat) *Ko’ngli bir oz taskin topganday bo’ldi.* (T.Malik, Shaytanat) *Nonushta o’rniga yarim piyola choy ichdi. Bu qamokxonada ona uchun ham, bola uchun ham birgina yupanch, birgina baxtli daqiqalar bor edi.* (T.Malik, Shaytanat) *Oradan kunlar o’tgani sayin uni ko’rgisi kelaverdi, yupanchni aynan shu ayol beradiganday bo’laverdi.* (T.Malik, Shaytanat)

TASALLI BERMOQ, TASALLI QILMOQ, TASKIN BERMOQ, TASKIN ETMOQ, YUPATMOQ, TINCHLANTIRMOQ. Insonni emotsional, ruhiy jihatdan yupatmoq, taskin bermoq. **Tasalli bermoq** so’zi yupatish, taskin berish ma’nosini kuchli ifodalaydi. **Taskin bermoq** so’zi kitobiy uslubga xos. **Taskin etmoq** so’zi, asosan, poetik nutqda uchraydi. **Yupatmoq, tinchlantirmoq** so’zlari esa ko’proq so’zlashuv nutqida ishlatiladi, qo’llanish darajasi yuqori. *Muattar uning chiroyli ekanini eshitgan, lekin “Har qancha chiroyli bo’lsa ham mendan xunuk bo’lishi kerak”, degan xayolda ekan, shekilli, isqirt kiyimda ham husn-jamoli yarqirab turganini ko’rib beixtiyor yuragi jig’ etib ketdi va o’ziga darhol tasalli berib ichida “tentakkina bo’lsa kerak” deb qo’ydi-da, qo’l berdi.* (A.Qahhor, Kundoshlar) *Menga taskin-tasalli berishadi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Yo’lda Naimjan Anvarga tasalli berdi: – Xafa bo’lma, oshna, olamiz! Hammasini olamiz!* (A.Qahhor, Qora quti) *Kampir ko’rgan tushi to’g’risida “betahorat ko’rilgan tush” deb ko’ngliga taskin berib yurgan edi, arafa kechasi sodir bo’lgan falokat yuragini ezib yubordi.* (A.Qahhor, Bolsheviklar) *Abdulla Orinov “Temir odam” degan she’rida murakkab texnika siridan voqif bo’lgan, lekin insonning quvonchi, g’am-g’ussasiga kelganda qulog’i kar, tili lol bo’lgan, yig’lagan go’dakning boshini silolmaydigan, onaga taskin-tasalli berolmaydigan odamlarga ta’na toshini otadi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) – *Yo’qlab turishadi, yig’ilish kerak bo’lganda yig’ilishadi, yig’lash kerak bo’lganda yig’lashadi, menga taskin-tasalli berishadi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Sherigim unga bir stakan suv berdi, paltosini kiygizib qo’ydi, portfelini qo’liga berib, yupatdi: – Qo’ying, Begim, o’zingizni urintirmang.* (A.Qahhor, Bek) *Kampir ko’rgan tushi to’g’risida “betahorat ko’rilgan tush” deb ko’ngliga taskin berib yurgan edi, arafa kechasi sodir bo’lgan falokat yuragini ezib yubordi.* (A.Qahhor, Bolsheviklar) *Nazarida yolg’izlik ko’ngliga taskin beradiganday edi.* (T.Malik, Shaytanat) *Anvar ne mashaqqat bilan uni sal yupatib gap so’radi.* (A.Qahhor, Muhabbat) *Ikkovi bir-birini yupatmoqchi bo’lgan sayin yig’i xuruj qilib kelardi.* (A.Qahhor, Muhabbat) *Kimdir odamlarni tinchitdi, davrani buzmaslikka, o’yinkulgini to’xtatmaslikka tirishdi.* (A.Qahhor, Muhabbat) *Otabekning pishillab ux-lagan tovushini eshitib, [Hasanali/ bir daraja tinchlandi.* (A.Qodiriy, O’tgan kunlar) *Ko’pincha bunday bahslashuvlar dahanaki jang doirasidan chiqayozgan kezlarda Sherali.. har ikki tomonni tinchlantirar edi.* (S.Karomatov, Oltin qum)

TAXMIN, MO’LJAL, CHAMA, FARAZ, FARAZIYA, TUSMOL, GIPOTEZA. Etarli dalillarga asoslanilmagan, taxmin qilingan fikr, xulosa. **Taxmin** so’zi barcha uslublarda baravar ishlatiladi. **Mo’ljal** so’zida hisob-kitobga asoslangan holda taxmin qilish ma’nosi ustun. **Tusmol** so’zi nutqda kam ishlatiladi. **Chama** so’zi nutqda egalik qo’shimchasini olgan holda qo’llanib, bir vaqtda shaxsga ham ishora qilib turadi. **Faraz** so’zi kitobiy uslubga xoslangan. **Gipoteza, faraziya** so’zlari, asosan, ilmiy uslubda qo’llaniladi va “hali tajribada sinalmagan, isbotlanmagan taxmin” ma’nosini anglatadi. *Ziyodillaning t a x m i n icha, Komil afandi Bo’ronbekning uyiga etib kelgan va agar kelmagan bo’lsa ham, hozir etib kelishi kerak.* (H.G’ulom, Mash’al) *Oy botib, kecha qorong’ilashib qolgan, juda avaylab, t u s m o l bilan harakat qilamiz.* (G’.G’ulom, Shum bola) *Ularning ch a m a laricha, bu erlarda ish hali uch-to’rt kunga etib ortardi.* (“Sharq yulduzi”) *[Olim:] Fan aniq shu degan ko’rsatmani bermaydi, balki f a r a z larni o’rtaga tashlab, tajriba olib boradi, shu tajribaga ko’ra ma’lum xulosani aytadi.* (N.Eshonqul, Go’ro’g’li yoxud Hayot suvi) *Necha pulga oldingiz? – Qani, mo’ljalningni ayt-chi?* (A.Qahhor, Qanotsiz chittak) *Otliq bulardan yuz ellik qadam chamasi pastda to’xtadi, o’ynoqlab turgan ot ustida ikki hovuchini*

og'ziga qo'yib qichqirdi: – Xaloyiq, qayt! (A.Qahhor, bolsheviklar) Marg'ubani tasmol bilan tanidi: sochini qirqiripti. (A.Qahhor, Muhabbat)

TAXMINIY, FARAZIY, TUSMOLIY. Taxminga asoslangan, faraz holatidagi. Sinonimik qatorda **taxminiy** so'zining qo'llanish darajasi nisbatan faol. **Faraziy, tasmoliy** so'zlari, asosan, kitobiy uslubga xoslangan. Har biriga 2 tadan misol kerak

TAXMINLI, MO'LJALLI, CHAMALI, FARAZLI, TUSMOLLI. Taxminida, chamasida bo'lgan, faraz holatidagi. HAR BIRIGA 2 tadan MISOL KERAK

TAXMIN QILMOQ, TAXMIN ETMOQ, TAXMINLAMOQ, MO'LJALLAMOQ, MO'LJAL QILMOQ, CHAMALAMOQ, CHAMA QILMOQ, FARAZ QILMOQ, FARAZ ETMOQ, TUSMOLLAMOQ, TUSMOL QILMOQ. Etarli dalillarga asoslanilmagan holda taxmin qilish, chamalash. Sinonimik qatordagi **taxmin etmoq, faraz etmoq** so'zlari nutqda, asosan, **taxmin etilgan, faraz etilgan** (majhul nisbatdagi sifat-doshlar) shakllarida uchraydi. **Taxminlamoq, tasmollamoq** so'zlarining nutqda qo'llanish darajasi yuqori emas. **Mo'ljallamoq, mo'ljal qilmoq** so'zlari boshqa ma'nolariga nisbatan taxmin qilish, chamalash ma'nosida kam ishlatiladi. *Ularning kimligini taxmin ham qilardi, ammo ularga qarshi bir ish qilishga aqli etmas edi. (T.Malik, SHaytanat) Kimligini taxmin kilayotgandirsan? (T.Malik, Shaytanat) Krot ularni tanigani uchun ham nima uchun kelishganlarini taxmin kildi-yu, biroq ayrim kinofilmlarda ko'rsatilgandek qochib ketishga yoki biron nayrang ishlatishga urinmadi. (T.Malik, Shaytanat) Krasnoyorda g'oyib bo'lgan Kozlovning Balabuxa kanoti ostiga kelishini Xongirey taxmin kilgan, lekin izini topa olmayotgan edi. (T.Malik, Shaytanat) Niyat xolisligidanmi yo ona ko'nglining sezgirligidanmi, chamalab olingan kiyimlar loppa-loyiq keldi. (T.Malik, Shaytanat) Bu savoli kizik bo'ldi-ku? Birovdan eshitganmi yo tasmollab so'rayaptimi? (T.Malik, Shaytanat)*

TASHVISH, KULFAT, SAVDO, TARADDUD, G'AM, QAYG'U, ZAHMAT 1 Biror ishni amalga oshirish yo'lida bezovta bo'lish, tashvishga tushish harakati. *Adolat kechasi bilan chanqoq g'o'zalar t a s h v i s h ida uxlolmadi. (I.Rahim, CHin muhabbat) Muhayyo zo'r tashvish bilan so'radi: – Anvar aka, qaerda yotib yuribsiz? (A.Qahhor, Muhabbat) U hozir xotining qayoqqa bording, nega buncha kechikding, degan so'rog'ini kutar va shu so'roqni bersa, gap eshitib bo'lsa ham shu tashvishdan qutulishni xohlardi. (A.Qahhor, Qanotsiz chittak)Atrof qorongi bo'lmaganida uning lablari salgina titraganini, yuziga tashvish buluti soya tashlab turganini sezgan bular edi. (T.Malik, Shaytanat) Lekin yutganlar ham tashvish bilan tarqardilar. (T.Malik, Shaytanat) Abdusamadning qalbini xira qilib, tashvish chohiga tortib turgan muammo ham shu edi. (T.Malik, Shaytanat) Millat dardini o'ylab so'zlayotganlar davrasida ham shu tashvish bilan o'tirdi. (T.Malik, Shaytanat) Uning rejasiga ko'ra, tug'ilgan kuni shodiyonalik emas, balki tashvish bilan o'tishi kerak edi. (T.Malik, Shaytanat) Keyingi umrini baxtmi yo kulfat ekanini farqlamay ketdi. (T.Malik, Shaytanat) Fazliya yillar buyi bandi bulgan kulfat gardlaridan qutulish, yuragini temir tirnoqlar iskanjasida tutib turgan amlardan holi bulish uchun o'ziga dardkash izlardi. (T.Malik, Shaytanat) Boshiga nima uchun kulfat do'llari yog'ilyapti? (T.Malik, Shaytanat) Agar bu atroflarda bir kulfat olovi yoqilishga tayyorgarlik ko'rilyotgan bo'lsa, uning nazarida, markazdagilar buni bilishlari kerak edi. (T.Malik, Shaytanat) Abdulla Orinov "Temir odam" degan she'rida murakkab texnika siridan voqif bo'lgan, lekin insonning quvonchi, g'am-g'ussasiga kelganda qulog'i kar, tili lol bo'lgan, yig'lagan go'dakning boshini silolmaydigan, onaga taskin-tasalli berolmaydigan odamlarga ta'na toshini otadi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Abdulla Orinov "Temir odam" degan she'rida murakkab texnika siridan voqif bo'lgan, lekin insonning quvonchi, g'am-g'ussasiga kelganda qulog'i kar, tili lol bo'lgan, yig'lagan go'dakning boshini silolmaydigan, onaga taskin-tasalli berolmaydigan odamlarga ta'na toshini otadi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Jamoatchilmkni yosh oilalarga yomon ta'sir ko'rsatayotgan eskilikka qarshi kurashga chaqirayotgan, oila masalasida xato qadam qo'ymaslik g'amida bo'layotgan yoshlarimizning ovozi kuchliroq yangrashi kerak. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Ba'zan bularni himoya qiladigan odamlar ham topiladi: "Bu odam sening g'amingni eyayotipti, har bir ikir-chikirga yopishib xarxasha qiladigan kishilar ham topiladi", deyishadi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost... (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)*

TASHVISH, KULFAT, SAVDO, G‘AM, QAYG‘U, ZAHMAT, SHO‘R, SHO‘RISH 2 Boshga tushgan g‘am-tashvish, o‘kinch tuyg‘usi. Kulfat so‘zida **Savdo** so‘zi ko‘pincha “boshiga savdo tushmoq” iborasi tarkibida kelib, biror kulfatga duchor bo‘lmoqlikni anglatadi. **Qayg‘u, g‘am** so‘zlarida ruhan ezilish ma‘nosi kuchli ifodalanadi. **Zahmat** so‘zida tashvish ma‘nosi nisbatan bo‘rttiriladi. **Sho‘r, sho‘rish** so‘zlari nutqda kam ishlatiladi. (kambag‘alning sho‘riga misol kerak). *Tashvish qiz bolaning husnini olarkan, sho‘xligini ham, ovozidagi latofatini ham quvarkan.* (S.Ahmad, Ufq) *Hasratli hujramda q a y g‘ u dan bo‘lak, Hamma ketib bo‘ldi birma-bir.* (E.Shukur, Hamal ayvoni) *Boshi uzra yog‘ilgan tashvish do‘llarining hisobi uning o‘zigagina ma‘lum.* *YUtqizganlarning qayg‘usi tushunarli.* (T.Malik, Shaytanat) *Abdusamad Farbiy Olmoniyaga shu tashvish yuki bilan keldi.* (T.Malik, Shaytanat) *Haydar akasining taqdiridan bexabar Axtamga bu kutilmagan chorlov hatto engil tashvish ham tug‘dirdi.* (T.Malik, Shaytanat) *Zaynab xayollari tuzog‘ida qolgan kezlari o‘zining qismati, oilasi osmonidagi tashvish bulutlarining tarqamay turib olganini ko‘p o‘ylaydi.* (T.Malik, Shaytanat) *Ayol kishining boshida paxtadan ham boshqa tashvish ko‘p: tug‘adi, kechalari uyqusini harom qilib bolaga qaraydi, o‘stiradi...* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *To‘rt yillik zo‘r tashvish, azob-uqubat, tinimsiz mehnatning hosilidan bahramand bo‘lmoqda, gul-gul ochilmoqda.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Seylonda bir xotin, boshiga kulfat tushgan bo‘lsa kerak, Tosh xudo oldida to‘lg‘anib faryod chekdi, biroq Tosh xudodan sado chiqmadi.* (A.Qahhor, Qaydlar) *Shuning natijasi bo‘lib g‘am-g‘ussaga to‘la “O‘g‘ri”, “Tomoshabog‘”, “Bemor”, “Anor” – o‘z vaqtida yozilmay qolgan hikoyalar vujudga keldi.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Men bu gapni to‘y taraddudida yurgan bir studentga ham aytib ko‘rdim.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) – *Qiziq,– dedi Anvar, – har boshda bir savdo, birov yanglishadi, birovni birov yanglishtiradi, birov yurgani yo‘l topolmaydi, birov bor yo‘ldan yurolmaydi...* (A.Qahhor, Muhabbat) *Uning g‘am-koyishdan zaif bo‘lib qolgan vujudi titrar, endi sabz urgan soqol-mo‘ylovi oppoq yuzida qurumga o‘xshab ko‘rinar edi.* (A.Qahhor, Muhabbat) *Kabinetdan chiqilgach, Jamoatchilmkni yosh oilalarga yomon ta‘sir ko‘rsatayotgan eskilikka qarshi kurashga chaqirayotgan, oila masalasida xato qadam qo‘ymaslik g‘amida bo‘layotgan yoshlarimizning ovozi kuchliroq yangrashi kerak.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Muhayyo bir suyundi, bir qayg‘uga qoldi.* (A.Qahhor, Muhabbat) *Anvar “Ammamni hovlimizdan haydayman” degan edi, janjal chiqqan bo‘lsa, ana u piyanista Javlon Anvarga ziyon-zahmat etkizmadimikan?..* (A.Qahhor, Muhabbat) *Butun yurtni sho‘rishga sslgan mardikor voqeasi ham uncha bilinmay o‘tdi...* (A.Qahhor, bolsheviklar)

TASHVISH, KULFAT, SAVDO, TARADDUD, G‘AM, QAYG‘U, ZAHMAT, SHO‘R, SHO‘RISH 3 Insonda biron narsadan bezovtalik, notinchlik tufayli yuzaga keladigan tashvishli holat. *Atrof qorongi bo‘lmaganida uning lablari salgina titraganini, yuziga tashvish buluti soya tashlab turganini sezgan bular edi.* (T.Malik, Shaytanat) *Boshi uzra yog‘ilgan tashvish do‘llarining hisobi uning o‘zigagina ma‘lum.* (T.Malik, Shaytanat) *Lekin yutganlar ham tashvish bilan tarqardilar.* (T.Malik, Shaytanat) *Abdusamadning qalbini xira qilib, tashvish chohiga tortib turgan muammo ham shu edi.* (T.Malik, Shaytanat) *Millat dardini o‘ylab so‘zlayotganlar davrasida ham shu tashvish bilan o‘tirdi.* (T.Malik, Shaytanat) *Haydar akasining taqdiridan bexabar Axtamga bu kutilmagan chorlov hatto engil tashvish ham tug‘dirdi.* (T.Malik, Shaytanat) *Zaynab xayollari tuzog‘ida qolgan kezlari o‘zining qismati, oilasi osmonidagi tashvish bulutlarining tarqamay turib olganini ko‘p o‘ylaydi.* (T.Malik, Shaytanat) *U o‘ziga atalgan tashvish sandig‘ini to‘lib-toshgan deb hisoblardi, erini kuzatib, o‘ylab qarasa, bu sandiqda hali bo‘sh joy borday tuyuldi.* (T.Malik, Shaytanat) *Shundoq ilm-u amal bilan kunlari o‘tib turgan Me‘mor boshiga tushgan ulkan kulfat – o‘g‘lining hibs etilishi hammasini bir tomonga uloqtirib tashladi* (Mirmuhsin, Me‘mor) *Gulnor bir zum taraddudda o‘tirib qoldi. Uning bir nuqtaga tikilgan chiroyli ko‘zlariga badtar g‘ a m cho‘kdi.* (S.Zunnunova, Gulxan) *Keyingi umrini baxtmi yo kulfat ekanini farqlamay ketdi.* (T.Malik, Shaytanat) *Fazliya yillar buyi bandi bulgan kulfat gardlaridan qutulish, yuragini temir tirnoqlar iskanjasida tutib turgan amlardan holi bulish uchun o‘ziga dardkash izlardi.* (T.Malik, Shaytanat) *Boshiga nima uchun kulfat do‘llari yog‘ilyapti?* (T.Malik, Shaytanat) *Agar bu atroflarda bir kulfat olovi yoqilishga tayyorgarlik ko‘rilayotgan bo‘lsa, uning nazarida, markazdagilar buni bilishlari kerak edi.* (T.Malik, Shaytanat) – *Unaqa dema, qizim, –*

dedi yolvorib. – Nima qilay, bolam! Qiz bola borki bir kunmas bir kun boshiga shu savdo tushadi-da! (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Voy ukam, vahima qilmang. Bu savdo har xotinning boshida bor. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) U o'tirgan joyida meni bag'riga bosdi. Ko'z yoshidan jiqqa ho'l bo'lib ketgan yuzini yuzimga bosib, ingradi: – Bolajon! Sho'rginam qursin, bolajo-o-on! (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Ko'k uzra suzadi sokin oymoma, Shunchalar oydinki, tinadi nigoh. Men toppon xotinga tikkandim, ammo sho'ringa tuz qarg'a chiqibdi, e voh! (E.Vohidov, Saylanma)

TASHVISHLANMOQ, TASHVISH QILMOQ, BEZOVTALANMOQ, BEZOFTA BO'LMOQ, QAYG'URMOQ, QAYG'ULANMOQ, G'AM QILMOQ 1 Tashvishga tushish, qayg'urish, bezovtalanish holatida bo'lmoq. **Bezovtalanmoq, bezovta bo'lmoq** so'zlarida tashvishdan notinch holatda bo'lishlik ta'kidi kuchli. **Qayg'urmoq** so'zida tashvishlanish ma'nosi, **qayg'ulanmoq** so'zida tashvishdan qayg'uga botish ma'nosi bo'rtib turadi. **Qayg'ulanmoq** so'zi nutqda kam qo'llaniladi. *Endi bu mening qishlog'im, uning ko'rki, obodligi uchun boshqalar qatorida men ham tashvishlanishim kerak. (R.Fayziy, CHO'lga bahor keldi) Mulla Abdurahmon shuni sezgan bo'lsa kerak, Qoravoyini mozorga boshlab kelganidan keyin tashvishlanib, O'shga tushib chiqibdi. Anvar, Rohat bog'chasida bo'lib o'tgan mojarodan Muhayyoning ota-onasi xabar topgani-topmaganichi bilmas, shuning uchun tashvishlanib yurgan edi, ... (A.Qahhor, Muhabbat) Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Unchalik t a s h v i s h q i l adigan gap yo'q. Uch vagon molimizni brak qilishibdi. ("Mushtum") Q a y g' u r mang, opajon. Qora kunlar o'tar, yorug'likka chiqamiz. (Oybek, Qutlug' qon)*

TASHVISHLANMOQ, TASHVISH QILMOQ, BEZOVTALANMOQ, BEZOFTA BO'LMOQ, QAYG'URMOQ, QAYG'ULANMOQ, G'AM QILMOQ 2 Biror narsadan xavotirda bo'lmoq, xavotirga tushmoq. – *Nima bo'ldi: katta buving og'ridimi yo buving betobmi? – tashvishlanib so'radi G'ulomjon. (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha) "YOpiray, nima bo'ldi bolalarimga?" – deb ota t a s h v i s h l a n a boshladi. (H.G'ulom, Mash'al) Qo'qonga borgach, birinchi ishim o'g'lingizni qutqazish bo'lsin, joyisiz q a y g' u l a n mangiz, hoji! (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) Tashvishlanganini betiga qarab biluvdim, lekin o'zi dardini ochmagandi. (T.Malik, Shaytanat) Yo'q, o'g'lim. Men yig'lasam, sen bezovta bo'lasan. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Kechasi bezovta bo'lib chiqqani uchun vaqtlikkina yotib qoldi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) – Shu kecha Kimsanni tush ko'ribman. Bezovta bo'lib yuribdi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Sochini silliq taragan. Ingichka mo'yloviyam bor. U nuqul bezovtalanadi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)*

TASHLAMOQ, QO'YMOQ, YIG'ISHTIRMOQ. Biror ish, hatti-harakatni amalga oshirishni to'xtatmoq, undan voz kechmoq [*Dadam*] Aroqni tashlagan bo'lsalar-a! Rosa maza bo'lardi-da. (E.Raimov, Ajab qishloq) *Tuzalmoqchimisan? – CHEkishni tashla. (Gazetadan) Xo'sh, kinani t a s h l a gan bo'lsangiz... nega boya ularning oldida og'zingizga kelganini o'pladingiz?. (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) Jinniligingni qo'y, Mutal aka! (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) Tirikchilikning oson yo'li qaroqchilik deb bilgan Durdi... dehqonchiligini y i g' i s h t i r ib qo'ydi. (J.Sharipov, Xorazm)*

Baribir ikkovini ta'na-dashnomlarga ko'mib tashladik. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Ana endi shu chaqqon barmoqlaring bilan bu kartani yirtib tashla. (T.Malik, Shaytanat) – Maynavozchilik kilma. Eski hunaringni tashlamabsan-da? – deb g'azabli nigohini unga kadadi, bu gap bilan restorandagi qilig'ini eslatdi. (T.Malik, Shaytanat) Bularning biri to menga mehr qo'yguncha qo'yib yuborib boshqasini olibman. (A.Qahhor, Muhabbat) Qaysi kuni eshikning oldida arqon tushib yotgan ekan, texnoruk "olib qo'y, oyoq ostida yotmasin", dedi. (A.Qahhor, Muhabbat) – Ke, qo'y endi, o'zing umringda ko'rpa ko'ydirmapsanmi? (A.Qahhor, Botirali) Irim-chirimingni qo'y, tushungan kampir deb kim aytadi seni. (A.Qahhor, Botirali) Bunga sabab bir tomondan

o'qish-o'rganishni butkul yig'ishtirib qo'yganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan "uy qizi" bo'lib hayotdan uzoqlashib qolganligidir. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)

TASHLAMOQ, QO'YMOQ Narsani biror er, yuzalik, narsalar saqlanadigan joy va shu kabilarga qo'ymoq. *G'ulomjon supurgini tashlab, qo'llarini qoqdi.* (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha) *...choponini elkasiga tashladi-da, yo'lga tushdi.* (N.Fozilov, Diydor) *Munisxon suyanchiqqa boshini tashlab, derazaga tikilib borardi.* (O'.Umarbekov, YOz yomg'iri). **SARIQDAGI MISOLLARNI ALMASHTIRISH VA YANA QO'SHISH KERAK** Misol O'TILDAN -??? (Sinonimlar qatorini izohlash kerak) *Ko'ngli g'ashlangan kishi xayolini to'zitib tashlayotgan savollar jilovini bo'sh qo'ysa, battar qiynaladi.* (T.Malik, Shaytanat)

TASHLAMOQ, SOLMOQ Narsani biror er, yuzalikka solmoq, to'shamoq. *Qizlar ichkaridan Hakimaning boshiga oq shol ro'mol tashlab, etaklab chiqdilar.* S.Siyoev, YOrug'lik. *Adyolni maysalar ustiga tashlab o'tirishdi.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. **MISOLLARNI ALMASHTIRISH VA YANA QO'SHISH KERAK** (Sinonimlar qatorini izohlash kerak) – *Magizni mo'lroq solaver, pakana! Eringga qurumsoqlik qilma. Holvadan tashla, holvadan!* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Zuhra kelin to'satdan boshidagi ro'molini yulqib tashladi.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Qaysi ona o'z yuragini o'zi sug'urib tuproqqa tashlaydi?* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Ular iymon keltirmaydilar, guyoki Biz kofirlarning buyinlaridan to iyaklariga qadar halka-kishan solganmiz.* (T.Malik, Shaytanat)

TASHNA, CHANQOQ, SUVSOQ, QAQROQ. 1 Suvsgan, chanqagan holat. **Tashna** so'zi nutqda insonga nisbatan qo'llanadi, **chanqoq** so'zi esa boshqa jonzotlarga hamda o'simlik, er kabilarga nisbatan ham ishlatiladi. **Suvsoq** so'zi nutqda kam uchraydi. *Ey sen, boshi va oxiri yo'q cho'lda suvsirab, jon berayotgan t a s h n a yo'lovchi!* (F.Musajonov, Himmat) *Sadaqaning afzali ch a n q o q odamlarga suv ulashmoqdir.* ("Fan va turmush") *Osiyo cho'llarining jahannam yong'iniga, qum to'lqinlariga chidash berib, och, s u v s o q kezishni mashaqqat hisoblamas edi.* (Oybek, Navoiy) **HAR BIRIGA 2 tadan MISOL KERAK** Misol O'TILDAN -??? *Quruvchi-injener sifatida qaqroq cho'llarga obi hayot eltuvchi sug'orish inshootlari barpo etishda, kanallar qazishda faol ishtirok etdi.* (A.Qahhor, Ivan Le)

TASHNA, CHANQOQ 2 Biror narsani egallashga tashnalik, chanqoq bo'lishlik, zor bo'lishlik, ishtiyoqmandlik. **Tashna, chanqoq** so'zlarining bu ma'nosi turli so'zlar munosabatida yuzaga chiqadi. *Ilmga tashna, ilmga chanqoq* birikmalarida ilmni egallashga ishtiyoqning balandligi, *mehrga tashna, suhbatga tashna* birikmalarida mehr ko'rishga, suhbat qurishga zor ekanlik ma'nosi, *ishga chanqoq, ishga tashna* birikmalarida ishni bajarishga eshtiyoqmand ekanlik ma'nosi ifodalanadi. *Qalb, yurak, ko'ngil* so'zlari bilan bog'langanda esa qalb, yurak, ko'ngilning biror narsaga ehtiyoji mavjudligini anglatadi. *Suhbatga chanqoq, suhbatga tashna* birikmalarida esa suhbat qurishga ishtiyoqmand ekanlik ma'nolari hosil bo'ladi. Shuningdek di. *Ahmadning yuragi mehrga va saxovatga to'la, o'zi esa suhbatga tashna edi.* (F.Musajonov, Himmat) *Bizda hozirgi vaqtda mayda hikoya bilan ocherkka kitobxon juda chanqoq.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)

TASHNA BO'LMOQ, CHANQOQ BO'LMOQ, SUVSOQ BO'LMOQ 1 Suvssash, chanqash holatida bo'lmoq. **HAR BIRIGA 2 tadan MISOL KERAK**

TASHNA BO'LMOQ, CHANQOQ BO'LMOQ 2 Biror narsani egallashga tashna bo'lmoq, zor bo'lmoq, ishtiyoqmand bo'lmoq. **HAR BIRIGA 2 tadan MISOL KERAK**

TA'M, MAZA, TOT 1 Narsa-predmetlarning ta'm sezgisi orqali his qilinadigan maza-ta'mi. **Ta'm** so'zi barcha nutq uslublarida qo'llanishga xoslangan. **Maza** so'zi ko'proq so'zlashuv nutqida ishlatiladi. **Tot** so'zi ko'proq badiiy uslubga xoslangan. *Ovqatning ta'mi tuz bilan, Odamning ta'mi so'z bilan.* (Maqol) *Muzdek qovunni esangiz, t a ' m iga t a ' m, mazariga maza qo'shiladi.* (Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli)) *Nonning qanaqa turi bo'lsa eb kurgandirman, lekin piyozli nonning ta'mini hech birida totmadim.* (T.Malik, Shaytanat) *Har faslning o'z gashti bor, chunonchi: yozda o'ntadan bittani tanlab so'yilgan bosvoldi yoki pirsilloqning mazasi umrbod og'izdan ketmaydiganday tuyulsa ham, kuzda qovun paykalini yuz aylanib topilgan anchayin bir hamakni marzaga urib yorib egan kishi, o'sha bosvoldi-yu, o'sha pirsilloqni tusamaydi...* (A.Qahhor, Mirzacho'lda kuz)

TA'M, MAZA, TOT 2 Ayrim narsalar, jumladan, pul, mansab kabilarning ijobiy hodisa sifatida qalban his etilishini anglatuvchi ruhiy kechinma. Bu ma'noda **maza** so'zi ma'noni nisbatan kuchli ifodalaydi. **Tot** so'zi bu ma'nosida poetik nutqda ko'p ishlatiladi *Shul sababdan taqdir ataldi ilk bo'saning ikkinchi oti. Shul sababdan umrbod qoldi Labda o'shal bo'saning t o t i.* (Uyg'un) Agar shoirlar xafa bo'lishmasa shu narsadan poema **mazasi** keladi der edim: agar bunga xafa bo'lishsa ajoyib bir poemaning juda chiroyli qilib olingan qisqacha mazmuni deyish bilan qanoatlanaman. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat)

TA'M, MAZA, TOT 3 Biror narsaning ta'miga o'xshash ta'm, mazaga nisbatan.

TA'MSIZ, MAZASIZ, TOTSIZ. Narsa-predmetlarning ta'm sezgisi orqali his qilinadigan maza-ta'mga ega emasligi.

TA'MLI, MAZALI, TOTLI. Narsa-predmetlarning ta'm sezgisi orqali his qilinadigan maza-ta'mga egaligi. *Har kanaka ishning o'z o'rni bo'ladi, o'z o'rnida qilingan ishning mazali rohati ham bo'ladi, – dedi yigit, dadil ohangda.* (T.Malik, Shaytanat) Ammo barchaga birdek manzur bo'ladigan **m a z a l i** taom pishirishga qodirmisiz? Gazetadan. Bahorning **totli** nafasi bilan yozning behalovat harorati tabiatga egalik kilish uchun olishayotgan pallada xasta odamlar oromlarini yo'qotadilar. (T.Malik, Shaytanat) Bunga baxt-saodat tilashyatuvdi, – shunday deb, **totli** narsa egandek labini cho'p illatib qo'ydi. (T.Malik, Shaytanat) – Aqlni peshlaydigan darajada zo'r bo'libdi, Braziliya malikasi kam bunday **totli** kilib damlay olmasa kerak. (T.Malik, Shaytanat) Aytay desam oti esdan chiqibdi, So'zlaganda bejoy **totli** so'zlari, Zuhpa yulduzga o'xshaydi ko'zlari, Urug'doshlar, qarindoshlar omonmi? (Avazxon)

TA'NA, YOZG'IRIQ, MALOMAT, MAZAMMAT 1 Biror ayb yoki kamchilikni ko'rsatib, kamsitish ma'nosida qo'llangan so'z, jumla; hatti-harakat. **Malomat** so'zi, asosan, publitsistik uslubda ishlatiladi. **YOzg'iriq** so'zi nutqda kam qo'llaniladi. **Mazammam** so'zi kitobiy uslubga xos bo'lib, eskirgan. *Gunohkor bo'lmay turib, o'z sevgilingdan o'rinsiz ta'nalar eshitsang.* J.Jabborov, Sevinch yoshlari. *Keksa bog'bonning samimiy so'zlari ham ta'na, ham tanbeh edi.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Bobo, bu gapga qanday tiling bordi, deganday unga ta'na bilan qaradi-da, bosh chayqadi.* S.YUnusov, Kutilmagan xazina. *Baribir ikkovini ta'na-dashnomlarga ko'mib tashladik.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Aytmasa... qandoq qilib aytmaydi? Aytsa... malomatga qolmaydimi?* (A.Qahhor, Tursunboy) *Sog' borib, jon bolam, kelgil salomat, Dushmanlar, egam, qilmasin malomat, Avval xudo, qoldi pirga topshirdim, To ko'rguncha, qo'zim, seni omonat.* (Avazxon)

TA'NA, YOZG'IRIQ, MALOMAT, MAZAMMAT 2 Minnat, haqorat ma'nosida qo'llangan so'z, jumla. – *Yo'qchilik jonimga tegdi, – dedi bolali xotin, – boyvachchalarning xotinlariga kir yuva-yuva o'lib bo'ldim. Itdek mehnat qilib, bir burda nonlarini ta'na bilan edim.* S.Zunnunova, Gulxan. *Tegmasin nogoh m a l o m a t o'qlari, Sezgir-u hushyor bo'l ohu kabi.* (Habibiy) “E, latta, shularga kuching etmaydimi, mishig'ingni oqizib yurovur...” deganga o'xshagan **ta'na** eshitishni xohlamadi; ikki o't orasida qoldi. (T.Malik, Shaytanat) – *Hozir sho'ttaydi. YUrgandir. – Man so'roqlamasam, o'zingni esinggayam kelmaydi– a! – Xolposh xola boshini ta'na bilan chayqadi.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Zuhra kelin ham opasining ta'nasini tushunadi.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TA'NA QILMOQ, MALOMAT QILMOQ, MAZAMMAT QILMOQ, MAZAMMAT ETMOQ. Biror ayb yoki kamchilikni ko'rsatib, kamsitmoq, tana qilmoq. *Bu gaplarni aytishdan murod xalturaga yo'l ochish, yo'l qo'yilgan xatolarni ta'na qilib, ongli ravishda xato qilishni talab qilish ham emas, albatta.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) *Bundan maqsad ocherkka to'la huquqli bir janr, deb qaralmasligini ta'na qilishdir.* (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) – *Boqqaningizni ta'na qilyapsizmi? – dedim chaqchayib. – Bo'pti, ketaman! Ketaman, uyingizdan!* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *O'sha prokuror Xo'jaqulovga, anavi so'galli, so'xtasi sovuqlarga, maktabda menga ta'na qilgan o'qituvchi xotinga aytсам: “Senlar tufayli begunoh dadam qamaldi”.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TAQDIR, QISMAT, YOZMISH, PESHANA, NASIB(A), KO'RGILIK Insonning peshonasiga, taqdiriga bitilgan qismat, voqea-hodisa. **Q i s m a t** ekan, bu erlarda yuribsiz, usta Jurjoniy. (Mirmuhsin, Me'mor) *Bular taqdirga tan berganlar, o'zining o'ligi ham shu biyobonda qolib*

ketishini bo'yniga olib qo'yganlar edi. Lekin **y o z m i sh** ga bo'yin egmay, nimadir kutib ko'ziga uyqu kelmagan, ko'nglida isyon o'ti so'naganlar ham bor edi. (A.Muxtor, CHinor) Nima qilay, bu ham bo'lsa, peshonaga bitgan bir **k o' r g i l i k**, bolam. (O.YOqubov, er boshiga ish tushsa) Xalqning ko'zi bog'lansa, qulog'iga qo'rg'oshin quyilsa, **taqdir** hukmi o'limdek haq, degan aqidani uning zehninga singdirish osonroq bo'ladi. (A.Qahhor, Hindiston xotiralaridan) Biron balog'atga etgan yozuvchi o'zining balog'atga qandoq etganligi, bir yoki bir necha mashhur, hamma **taqdir** etgan asarini qandoq yozganligi to'g'risida gapirib bersa, suhbat ahli undan ta'lim olsa, u vaqtda ijodiy tajriba to'g'risida so'z, ta'limiy suhbat bo'lar edi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Ikkovi bemalol gaplashaversa ham bo'lar ekan, Hakimjon bilan Muborakxonim bu to'g'rida ochiqchasiga gaplashgan, qancha g'urbat, qancha ko'z yoshidan keyin Muborakxonim **taqdirga** tan bergan ekan. (A.Qahhor, Muhabbat) Bitta-yu bitta qizimizdan, molimiz emas, jonimizniyam ayamayiniz. **Taqdir** qo'shilgan bo'lsa. – Bobom ko'z qiri bilan menga qaradi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Hakimjonni kuzatishda “hozirgi yoshlar”, “**pehshana**” degan gaplarni aytibdi. (A.Qahhor, Muhabbat) Muattar o'ng'aysizlandi. – Mening **nasibam** boshqa bir yigitning nasibasiga qo'shiladigan. (A.Qahhor, Muhabbat) Bo'lmadi, men urushdan omon keldim; undan keyin “meni baxtsiz qilgan shu odam” demoqchi bo'lib boshini u eshikdan bu eshikka urdi-yu kalavasining uchini yo'qotib qo'ydi; ikkovimizning **nasibamiz** qo'shilgan ekan, xabaringiz yo'q, oramizni buzish uchun, sizning to'g'ringizda har xil gaplar uchirdi; yo'q, tinch-totuv turmush qildik, Muhayyo tug'ildi, o'sdi... (A.Qahhor, Muhabbat)

TAQSIMLAMOQ, TAQSIM QILMOQ, BO'LMOQ Biror narsani o'rtada taqsimlamoq, qismlarga bo'lmoq. Mavlon aka nonushta ustida bugun qilinadigan ishlarni oila a'zolari o'rtasida **t a q s i m l a d i**. (H.G'ulom, Mash'al) Xotinlar dasturxonidagi tuz, mayiz va choyni **b o' l i b** olishdi.) (S.Ahmad) Go'ro'g'li pulni to'rt **bo'ldi**. Bir bo'lagini Boloyimga berdi, bir bo'lagini Guloyimga berdi; birovini Bulduriq qassobga berdi, bir bo'lagini o'ziga oldi. (Avazxon).

TEBRANMOQ, CHAYQALMOQ, LAPANGLAMOQ, IRG'ALMOQ, SOLLONMOQ 1 Goh o'ng, goh chap tomonga qarata yoki oldinga va ortga tomon tebranma harakat qilmoq, chayqalmoq. Kuy boshlanib, raqqosa o'yinga tushishi bilan, atrof jimjit bo'lib qoladi. Hamma o'tirgan joyida tebranardi. T.Obidov, Yusufjon qiziq. Shiftga osig'liq belanchak bir tekis **t e b r a n** arkan, tokchadagi chiroq nurida hovli yuziga uzun-uzun soya tashlab o'tardi. (S.Ahmad, Hukm) Sinonimik qatordagi **irg'almoq, sollonmoq** so'zlari nafaol bo'lib, ayrim shevalarda uchraydi. – YAna qaysi tomoni bor? – dedi Hakimjon avtobus silkinganda qattiq **tebranib**. (A.Qahhor, Muhabbat) Avtobus yo'lining buzilgan joyidan silkinib, **chayqalib** o'tgandan keyin Muattar davom etdi... (A.Qahhor, Muhabbat) Dard kurtlari emirib ado qilayozgan tana elpig'ich kabi **tebrana boshladi**. (T.Malik, Shaytanat) Ishkom oralab ketdik. Quyosh qizdiradi, tok yaproqlari unsiz **tebranadi**. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Hammasi oymomaning yumshoq belanchagida orom olib **tebranadi**. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TEBRANMOQ, CHAYQALMOQ, LAPANGLAMOQ, IRG'ALMOQ, SOLLONMOQ 2 CHayqalgan holda notekis harakat qilmoq, lapanglamoq. Mashina sharshara ko'prigidan o'tib, katta shag'al yo'lga tushgach, o'nqir-cho'nqir joylarda **tebrana boshladi**. I.Rahim, Ixlos. Qarasa, o'sha o'zini aldagan parizod to'qmoq yolli oriqliq o'tni minib, munkib, qalqib, mingan oti bir-bir bosib, **i r g' a l i b** borayotgan ekan. (“Murodxon”) Zulukxon amirkon kavushini asfalt yo'lkada g'ijirlatib bosib, shiypon tomonga **s o l l o n i b** yurib keldi. (H.G'ulom, Mash'al) Bu gal elakning tapillashi ham susayib qoldi. Endi u sekinroq, og'irroq **chayqala** boshladi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Avtobus hamon **chayqalib** boradi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Erta sarg'aygan qamishlar ohista chayqalib, shitirlab turar, uchidagi makka supurgidek popiltiriqlari sekin-sekin **chayqalardi**. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Xotinlardan biri tala-to'pda oyog'ini bosdi shekilli, dadam bir **chayqaldi**-yu, ammo yiqilmadi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Parcha, Bashor opaning boyagi niyati esidan chiqmagan ekan shekilli, qaylig'idan uyalgan kelinchakdek ombor burchagiga **lapanglab** qochdi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Qadam tashlashing qalay, o'rdakka o'xshab **lapanglamayapsanmi?** (T.Malik, Shaytanat) Soli so'poq “xo'p bo'ladi” deb o'sha tomonga pildiradi. Pak-pakana, semiz gavdasini **lapanglatib** tabibning yoniga bordi. Qo'yarda-qo'ymay elkasidan qopni oldi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Sahndagi davraga Anvarning ustasi

oqsoq chol toychoq ko 'tarib kirdi, lapanglab o'ynab hammani xo'p kuldirdi, keyin kelin bilan kuyov qarshisida to'xtab toychoqni baland ko'tardi-da, hamma jim bo'lganda: "Men o'zim avtomobilist bo'lsam ham bularga chavandoz o'g'il tilayman!" dedi-da toychoqni kelinga uzatdi. (A.Qahhor, Muhabbat) Oftob nurini emib, qizargan uzum boshlari sollanib turibdi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TEZ, ILDAM, JADAL, SHITOB, SHAXT, SHAXDAM, ZUD. Tez sur'atda, jadal tarzda (harakatga nisbatan) **Tez** so'zi nutqda bu ma'nosida keng ishlatiladi. **Ildam** so'zi fe'lga bog'lanib, chaqqonlik bilan harakatlanish ma'nosini hosil qiladi. **Jadal** so'zi tezlikning yuqori sur'atda ekanligini, **shitob** so'zi esa harakat tezligining kuchli darajadiligini anglatadi. **Shaxt** so'zi nutqda kam uchraydi. *Fazliddin otni i l d a m chiqarib, daraxtga bog'ladi. (Oybek, Qutlug' qon) Biron kor-hol bo'lmasin, deb motorga o't berib, j a d a l haydab ketdi.. (S.Ahmad, YUlduz) Bazzoz do'koniga kirdi-yu sh i t o b, Sallalikka oldi besh-olti gaz bo'z.. (A.Oripov, everest va ummon) Naimiy nima bo'lsa bo'ldi, deganday sh a x t ko'tardi. Lekin qo'li qaltirab, vinoning yarmi to'kildi. (A.Muxtor, Opa-singillar) Mana bu nomani Urganchga z u d eltgaysen va ani sulton hazratlarining o'z ilklariga bergaysen, – dedi Temirtoshga. (M.Osim, Zulmat ichra nur) "Ikki og'aynimni qo'ltiqqa qistirib yo'rg'alab qoldim" (juda tez yurdim demoqchi bo'lsa kerak). (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Jamshid xojasining amrini tez bajardi: tarzanning sherigi ikki soatdan so'ng Asadbekning ro'parasida o'tirar edi. (T.Malik, Shaytanat) Mahmud akam gapga tez tushunadigan aqlli odam edi, bekor nobud buldi. (T.Malik, Shaytanat) Bu safar g'ashlik tez tarqamadi. (T.Malik, Shaytanat) – Xujayiningga darrov kirib ayt, qaynoq salomimizni tez qabul qilmasa sovub qoladi. (T.Malik, Shaytanat) Kamchiligingni tez to'g'rila. (T.Malik, Shaytanat) Yo'l-yo'l kostyumli kishi ildam turib, minbarga bordi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Ildam borib, sigirning yo'g'on tomirlari bo'rtib turgan bo'ynidan silay boshladim. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Ildam harakat bilan sumkasini ochdi-da, qandaydir uzunchoq shishacha chiqardi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Hovlining to'rt tarafida chordanaqurib o'tirganlar gur etib o'midan turdi. Dadam ayvondan ildam tushdi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Qo'ylarima bo'ri tekkan o'xshar, deb, Otdan ildam Go'ro'g'li qistab ketdi. (Avazxon) O'rtog'im universitetga kirmoqchi bo'lib, O'rta Osiyo Davlat universitetining studenti shu Pavelning yordami bilan jadal tayyorlik ko'rayotgan ekan, Pavel mening "yozuvchi"ligimni eshitib, kimningdir qisqa bir she'rini shavq-zavq bilan o'qidi-da, rus yozuvchilaridan kimlarni o'qiganimni so'radi. (A.Qahhor, Maqolalar va suhbat) Furkat esa shaytanat qo'rg'oni darvozasi zarb bilan qoqib, shitob bilan kirib kelmoqchi. (T.Malik, Shaytanat) Bargak chiqargan tol panasiga etganda Kimsan akam taqqa to'xtab qoldi. Xayol surib kelayotgan ekanman, tog'dek elkasiga urilib ketdim. U shaxt bilan o'girildi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Potma kelin o'sha gaplami qaytadan o'qidi. – Ana! – Oqsoqol shaxt bilan qaddini rostlagan edi, belining bodi tutib qoldi shekilli, oh chekib yostiqaqqa yonboshladi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) – E, uyam bo'miydi! – Parcha piyoz dumini shaxt bilan yulib, chetga otdi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)*

TEZLA(SH)MOQ, JADALLA(SH)MOQ, ILDAMLASHMOQ Tez sur'atda, jadal tarzda harakatlanmoq. **Jadalla(sh)moq** so'zida harakat tezligi ancha ortganligi ma'nosi ifodalanadi. **Ildamlashmoq** so'zi ko'pincha qadam, odim so'zlari bilan bog'lanib keladi va harakat tezligi nisbatan tezlashganligini anglatadi. Avazning qadami bir sekinlashadi, bir t e z l a sh adi. (S.Siyoev, YOrug'lik) Davron aka bir nimda deb qo'l siltadi-da, j a d a l l a b ketdi. (O.YOqubov, Diyonat) Qishloq ko'chasi tovonlarini kuydirgandek, jangchilarning odimlari o'z-o'zidan i l d a m l a sh di. (Oybek, Qutlug' qon)Muzlagan qorni g'arch-g'urch bosgancha qadamimizni tezlashtirdik. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TEZLA(SH)MOQ, JADALLA(SH)MOQ. Belgilangan muddatdan oldin tez suratda amalga oshmoq. O'ylab qaraganda, uning endigi taqdiri ko'p jihatdan mana shu safariga ham bog'liq; hatto to'yning tezlashuvi ham, to'ydan keyingi sayohat ham shunga bog'liq. S.Anorboev, Oqsoy. YAqin kelishimiz bilan tubsiz chuqurlikda, zulmat qo'ynida quloqni qomatga keltirib voshillab yotgan jarga qaramaslik uchun qadamimni tezlatdim. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Oqsoqol buvaning darvozasi oldidan tezlab o'tib, "Qora ammam"ning eshigiga keldik. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TEKINXO‘R, TEKINTOMOQ, BALOXO‘R, HAROMXO‘R, HAROMTOMOQ, PARAZIT 1 O‘zi mehnat qilmay birovlarining hisobiga yashovchi, tekinxo‘r. *Ahmadga o‘xshagan sof vijdonli odam uchun eng yomoni – o‘zini bekorchi, t e k i n x o ‘ r sezish.* (F.Musajonov, Himmat) *Allonxo‘ja qo‘rasidagi qora o‘tovlarni oralab, otboqar-u foytunchilarni t e k i n t o m o q yalqovlar deb so‘kib, juvozga quvdi.* (A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi) *Nafsi hakkalak otgan b a l o x o ‘ r kassir dastidan ko‘pchilik dod deb kelgan ekan, rais ularni qaytarib yuboribdi.* (“Mushtum”) *Birovning do‘ppisini birovga kiygizib kun ko‘ruvchi bunaqa h a r o m x o ‘ r lar bozorda kezib yurisharkan.* (“Mushtum”) *Yanvar oyi ko‘k yalpizni qaydan topay?... Ona-bola qichqirdilar unga shu choq: – Ko‘p gapirma, ol savatni, h a r o m t o m o q!* (A.Muxtor, Adolat) *Tomosha aylang Guloyimning ishiga, Tekinxo‘r boradi xirmon choshiga.* (Avazxon) *Uch kungacha uch mahaldan ovqat beraman sen tekinxo‘rlarga.* (T.Malik, Shaytanat) – *Talashsam, bolalarimning rizqi uchun talashaman, bu tekintomoq mendan yulib olmoqchi buladi.* (T.Malik, Shaytanat) *Pullarimdan ayrilgandan ko‘ra, begona tekintomoqlardan qutulganim durust-da, to‘g‘rimi?* (T.Malik, Shaytanat) – *Rixsiyani men qamatmaganman, parazit Daniyar qamatgan.* (T.Malik, Shaytanat) – *Parazit Daniyar talab qilgan, guvohlikka o‘tmasang, o‘zing qamalasan, deb qo‘rqitgan.* (T.Malik, Shaytanat) *Parazit! Cho‘chqa! – deydi xunobi oshib. Boshida qizil baxmal do‘ppi, egnida nimcha...* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) – *Parazit! – Abzi echkinining biqiniga yog‘och oyog‘i bilan o‘xshatib tepdi. – Qo‘y, o‘rtoq... – CHolim uni yupatdi.* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TEKINXO‘R, TEKINTOMOQ, BALOXO‘R, HAROMXO‘R, HAROMTOMOQ, PARAZIT 2 Tana, o‘simlik poyasi, bargiga yopishib olib, uni so‘rish orqali oziqlanuvchi mayda jonivor, parazit. Endi chimqirqar mashina solaman bu tekinxo‘r gazandaga. (Oybek, Oltin vodiyan shabadalar).

TENG, BARAVAR (BAROBAR) 1 O‘lchami, hajmi, miqdoriga ko‘ra bir xil, baravar **1 Teng** eganni tangri sevibdi. (Maqol) *Ikkovlari bo‘lajak o‘ljaning teng yarmini tikib garov bog‘lashdi.* (T.Malik, Shaytanat) *Hozir yutqizganim uchta xo‘rozni mehmonga borganingizda yuz baravar qilib qaytaraman.* (T.Malik, Shaytanat) *G‘ishtin devor orqasida osmon baravar mo‘ridan tutun chiqib yotibdi.* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Kattalar bilan baravar ishlaydi...* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Asadbek shunday dedi-da, xona burchagida turgan odam bo‘yi baravar keladigan naqshli ko‘zaga qaradi.* (T.Malik, Shaytanat) *Katet, gipotenuzalariningizni chetga qo‘yib, ayting-chi, dunyo formulasida haqiqat nimaga barobar?* (T.Malik, Shaytanat) *Uy devorlari bel barobar ko‘tarilganda rozilik berganidan achina boshladi.* (T.Malik, Shaytanat) *Bu gaplar Marlenning hamiyatiga tegdi, g‘urur qo‘rquvni quvdi: – Besh qo‘l barobar emas, – dedi Murdaga tik karab.* (T.Malik, Shaytanat) *G‘ishtin devor orqasida osmon baravar mo‘ridan tutun chiqib yotibdi.*

TENG, BARAVAR (BAROBAR) 2 Ahamiyatlilik darajasi, mavqei, huquqi bir xil **CHin** do‘st tug‘ishganing bilan **teng** (Maqol). *Hozir uning Vazira tomonga bir qadam bosishi Lutfinisaning qabrini bosish bilan teng edi.* S.Ahmad, Ufq. *Bu azoblardan uning yuzlari doim burushgan, jonsiz ko‘zlari hamma vaqt erda, rangi esa tuproq bilan teng, bir yashil barg dardida sahro kezib, to‘rt yuz yildan beri imillagani imillagan...* (A.Muxtor, CHinor) – *Shu ahmoqqa teng kelib o‘tirasanmi? – Hoy so‘poq! – dedi qo‘lini paxsa qilib.* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) – *Ota? Nimasiga ota? Hali men u bilan teng bo‘ldimmi? Hali meni u bilan bir kursiga o‘tqazmoqchimisiz?* (A.Muxtor, CHinor) *Xo‘roz qanchalik shiddatli jang kila olsa ham, temir panja burgutga hech kachon teng kela olmasligini o‘ylab ko‘rmagandi.* (T.Malik, Shaytanat)

TENG, BARAVAR (BAROBAR) 3 Bir vaqtda, baravar *Tohir-Zuhra holidan bir kalima eshiting: o‘qib, o‘ynab bir bog‘da ulg‘ayar edilar teng.* S.Abdulla, Tohir va Zuhra. *Odamlar baravar fotiha tortishdi. Jimitdek ukasi Olimjon ertadan kechgacha tinim bilmaydi.* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Sel kelsa, barchani baravar olib ketadi.* (T.Malik, Shaytanat) *Hovlini to‘ldirgan odamlar baravar oyoqqa qalqdi.* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Yo‘lda duch kelgan odamlar Akbaralini tanib salom berishar, bular ikkalasi barobar alik olib, shoshmasdan gaplashib, atroflarni tomosha qilib borishar edi.* (A.Muxtor, CHinor)

TENG, BARAVAR (BAROBAR) 4 YOsh jihatdan teng, qatori. [Oqiljon] *O'zi yaxshigina, siz tengi kishi edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Xalq tengi dam olmoq – bu huquqimiz...* Oybek, O.v. shabadalar. *Zarkent guzaridagi kinixonaga “CHapaev” filmi kelganda Azizxon tengi qishloq bolalariga xudo berib qoldi.* S.Ahmad, Ufq. – Akang **tengi** odamga qop orqalatgani uyalmasanmi? (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TENDOSH, TENGQUR, BARAVAR (BAROBAR), HAMQUR, TENG, TENG-TUSH (TENGI-TO'SHI) 1 Bir yilda tug'ilgan, tengqur yoshdagi. **Tengdosh** so'zi barcha nutq uslublarida kuzatiladi. Bu so'z insondan boshqa narsalarga nisbatan ham qo'llaniladi. **Tengqur** so'zi faqat insonga nisbatan ishlatilib, so'zlashuv uslubiga xoslangan. **Baravar** so'zi **barobar** shaklida ham uchraydi. Bu so'z ham, asosan, so'zlashuv nutqida ishlatiladi. **Hamqur, teng-tush** so'zlari nafaol, ayrim shevalarda uchrab turadi. *U ufqqa qarab o'tirgan ko'yi beixtiyor bir yil muqaddam kursdoshlari bilan bir do'stining qabriga borganlarini esladi. Marhum t e n g d o sh lari ichidagi eng yuvosh va kelishgan yigit edi...* (N.Eshonqul, YAlpiz hidi) **T e n g q u r** larim – besh yil bir auditoriyada o'qigan qadrondarim – to'da-to'da bo'lib, safarga o'tlanishardi. (H.Nazir, Muhabbat) *Yo'lchi o'z h a m q u r* lari bilan birga tong shabadasida ishga tushar, quyosh tik kelganda ovqatlanib, to qorong'ilik tushguncha yana mehnat qilar edi. (Oybek, Qutlug' qon) *O'ktamboylar ham o'z tenglari* ichida durkun, orqasida olti pud yuk ko'tarish bilan maqtanadigan yigit. (A.Qodiriy, Obid ketmon) *Qani endi, u [Rustamjon]... qahramon bo'lish sirlarini bila qolsa, eng shimarib, ishga tushsa! T e n g - t u sh* laridan avval maqsadga erishsa... Boy zotini ko'rganda-ku uchar hushi, Qolib ketar qarindosh-u **tengi-to'shi**. Dunyo topgan tentak kabi quvonadi, Sarqitidan ko'z uzolmas ko'ngil qushi. A.Oripov, everest va ummon. (I.Rahim, Ixlos) *Ikkalalarining yoshlari teng* bo'lsa kerak, bunaqalarning dunyoqarashi ham bir bo'ladi, gaplashishsa, tez til topishib ketishadi. (T.Malik, Shaytanat) *Farmonov bolalarning ishidan mamnun bo'lsa ham, muomalalarini hazm qilolmasdi. Ularning muomalalari juda jo'n, sodda, “boshlig'imiz” deb hayiqish yo'q, go'yo o'z tengqurlaridek.* (A.Muxtor,CHinor)

TENDOSH, TENGQUR, BARAVAR (BAROBAR), HAMQUR, TENG, TENG-TUSH (TENGI-TO'SHI) 2 Bir vaqtda yuzaga kelgan, yuz bergan.

TENTAK, TELBA, DEVONA, SAVDOYI, JINNI, JINNISANG'I, ESVOS 1 Mantiqli fikrday olmaydigan, o'ylamay ish qiladigan, aqli noriso. **Savdoyi** so'zida o'zligini anglamaslik ma'no o'ttenkasi mavjud. *Hamshira Ahmadga t e n t a k* larga qaragandek nazar tashladi. (F.Musajonov, Himmat) *Tentak to'rini bermas.* (Maqol) – **Tentak...** Ustingdan chang burqib turibdi... – Ahvoli qanaqa? – so'radi *Orif aka otasining oq jun bosgan ko'krigidan boshini ko'tarmasdan.* (A.Muxtor,CHinor) *Allaqayoqdan kelib qolib, daf'atan g'oyib bo'lgan bir begona odamga telbadek talpinib yurganidan o'zi kulib, o'zini engiltak, ahmoq deb koyib yurdi-yurdi-da, o'sha o'zining eski, yuvosh xushomadgo'yi Sattorga tegdi-ketdi.* (A.Muxtor,CHinor) *To'dadagilar buni tushunadigan odamlar emas edi, elkalarini qisib, tarqab ketishdi. – Hozir devona* ko'payibdi... – dedi bittasi ketayotib. (A.Muxtor,CHinor) *Esingni yig', devona* arazlasa to'rvasiga ziyon, deyishadi, qaytib ol arizangni. (A.Muxtor,CHinor)

TENTAK, TELBA, DEVONA, SAVDOYI, JINNI, JINNISANG'I, ESVOS 2 Jilovlanmagan, asov. *Bezrayib turishingni qara, tentak,* yo'lni bo'shat! (T.Malik, Shaytanat) *Marlen xuddi telba* kabi hali u, hali bu poezdga chiqaverdi. (T.Malik, Shaytanat) *Esi og'ib qolgan telba* odam singari yarim tunga qadar u xonadan bu xonaga maqsadsiz kirib-chiqaverdi. (T.Malik, Shaytanat) *Alloh! Alloh! Ona qalbini bu telba* haqiqatdan *O'zing asra!* (T.Malik, Shaytanat) *Axtam manzilga etgunicha Fimaning jig'iga tegadigan telba*-teskari gaplarni aytib, bir kulib, bir so'kinib bordi. (T.Malik, Shaytanat) *Fisq zulmatini bir devona* ko'rganida *Go'ro'g'lining sezishidan ajablanmasa ham bo'ladi.* (T.Malik, Shaytanat) *YAshashdan birdan bir maqsadi xazinaga erishmoqlik bo'lgan devona* esa boru yuq sarmoyasidan – hayotidan ajraldi. (T.Malik, Shaytanat) *“Bu bola yo jinni,* yo bizni lakillatyapti”, degan to'xtamga kelishganda *Marlen* o'zini tikin vagonga urdi. (T.Malik, Shaytanat) *Bunaka bema'ni gapni yo g'irt ahmok, yo jinni,* yo ig'vogar aytishi mumkin. (T.Malik, Shaytanat) *Bu odam ahmoqqa ham, jinniga ham o'xshamaydi...* Bunday odamda hirs, haksizlik, kinu adovat qilish tuygusi bo'lmaydi. (T.Malik, Shaytanat) *Kartoshka teradi. Necha marta aytganman: “Qora amma” emas, amma degin, tentak!* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) **Tentak!**

Ahmoq! Kuchim boricha qo'limni silkitib depsindim. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Robiya! Tushunsang-chi axir, **jinni!** (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Tomoshaning oxirida Ofeliya **jinni** bo'lib qolganini ko'rib, qo'rqib ketdim. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Esim og'ib, **jinni** bo'lib qolmaganimga o'zim hayronman. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) – Oyi... – dedim sekin... – Tuzukmisiz? Nilufar... **jinni...** – u yog'ini aytmadim. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) – Sani tuppa-tuzuk ma'lim desam, g'irt **jinni** ekansan-ku! (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Men suvingdan kuch olsam, **Tentak** eldan o'ch olsam. Z.Diyor. Gohida o'shandoq **tentak** xayollar Sendan voz kechmakka qistaydi hargiz. R.Parfi.

TERGAMOQ, TEKSHIRMOQ, NAZORAT QILMOQ, KUZATMOQ 1 Shaxsning hatti-harakatlarini tekshirmoq, nazorat qilmoq. *CHol bolalarning nojo'ya harakatlarini tergab, mudir ga etkazib turar edi.* P.Tursun, O'qituvchi. *Siz kolxoz tajribasini gapirdingiz, o'rtoq Ochilov, – dedi negadir stoldagi qog'ozlarni yig'ishtirib, – sovxozni davlatning o'zi nazorat qiladi.* (A.Muxtor,CHinor) *Egarga minolmay qolganingizda men yoningizda edim, uzoqdan kuzatib yurdim* yiqilib qolishingizni poylab. (A.Muxtor,CHinor) *Orif aka uzoqdan, soyaroqda turib uni kuzatarkan, kulib, kaftlarini bir-biriga ishqalab qo'ydi.* (A.Muxtor,CHinor) *Uzoq vaqt tekshirish, yigitni hamisha shubha ostida nazorat qilish ham yaxshi natija bermasligi mumkin.* (T.Malik, Shaytanat) *Ammamni eshikkacha kuzatib borgan Robi opam ko'zlari qizarib qaytib keldi...* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TERGAMOQ, TEKSHIRMOQ, NAZORAT QILMOQ, KUZATMOQ 1 Shaxsni nojo'ya hatti-harakatlardan tiymoq, yomon yo'ldan qaytarmoq. *Men sizga o'g'ilman, farzandingizman. Urishishga, so'kishga, tergashga haqqingiz bor.* S.Ahmad, Qadr don dalalar. *Guzarlar, choyxonalar hali gavjum, suv sepilgan tuproq hidi, gul-u rayhon hidi anqigan, mashinani laycha itlar vovillab kuzatib kelar, ro'paradan chiqqan mashinalar lip-lip ko'z qisar edi.* (A.Muxtor,CHinor) *Orif ikkalasining yozuvini kuzatar, dam biriga, dam ikkinchisiga izoh berib, goh ular bilan olishib ketar, goh peshanasini tirishtirib o'ylab qolar edi.* (A.Muxtor,CHinor) *“Qanday kilib falonchining oyog'ini chalsam, falonchining molini yoki mansabini tortib olsam”, degan vasvasa kishi qalbini bezovta qilsa, vijdoni “gunohdan qo'rqmaysanmi, odamlardan uyalmaysanmi?” deb tergaydi.* (T.Malik, Shaytanat) *Uzok vaqt tekshirish, yigitni kamisha shubg'a ostida nazorat qilish ham yaxshi natija bermasligi mumkin.* (T.Malik, Shaytanat) *Oldin kelganida ustozining o'zi tekshirish uchun tugmani uchinchi bosganda ichkaridan bulbul ovozi kelgan edi.* (T.Malik, Shaytanat) – *Men buni tekshirtirib ko'raman, gapingizga qaraganda, u bizning odamga o'xshamaydi.* (T.Malik, Shaytanat) *Videobar nomiga yashirin hisoblansa-da, xilvatda joylashmagan, nazorat kiluvchi kerakli odamlarga vaqtida cho'tal to'lab tyirilgani uchun bu atrofda o'tgan mushukni birov pisht demas edi.* (T.Malik, Shaytanat) *Ovozsiz tasvirdagi harakatlarni kuzatgan kishi yuzida beixtiyor kulgi paydo bulardi.* (T.Malik, Shaytanat)

–*Go'rlikka go'r, pishgunicha boshimizni ancha gangitadi, har bir qadamini kuzat.* (T.Malik, Shaytanat) *Asadbek uning dadil o'tirishini kuzatib: “qamokxona maktabini a'lo bahoga tugatibdi”, deb o'yladi.* (T.Malik, Shaytanat) *Ofat yog'ilib kelayotganini indamay kuzatib turishga endi qurbim etmaydi.* (T.Malik, Shaytanat)

TETIK, BARDAM, TIYRAK 1 Jismonan va ruhan bardam. **Tetik, bardam** so'zlari ko'pincha keksalar, kasaldan tuzalgan, toliqqan kishilarga nisbatan, ularning tetiklashgan holati tasviri uchun ishlatiladi. **Bardam** so'zi so'zlashuv nutqida faol qo'llaniladi. **Tiyrak** so'zi so'zlashuv nutqida kam uchraydi. *Aziza o'zini biroz oldirgan, ammo hamon o'shanday chiroyli, ko'zlari kirtayib qolgan bo'lsa ham, t e t i k boqar edi.* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) *Uyqusi butunlay tarqab ketgach, Ahmad o'zini juda tetik va b a r d a m sezdi.* (F.Musajonov, Himmat) *Onam etmishdan oshib qolgan bo'lsalar ham, hali ancha tetiklar...* M.Qoriev, Oydin kechalar. *Og'aynilar tushkunlikka tushmadilar. Quvnoq va tetik kayfiyatda xayrlashdilar.* F.Musajonov, Himmat *Bu uning ilgarigi o'y surishi emas, ko'zlari tiyrak, chehrasi yorqin, xayollari allaqayoqda.* (A.Muxtor,CHinor)

TETIK, BARDAM, TIYRAK 2 Harakati tez, tetik. *Temirjon odamlar qatori ko'paygan trotuarda ildam va tetik qadam otib borardi.* J.Abdullaxonov, Oriyat. *Soylik tomondan kelayotgan tetik va yangroq ovoz elmurodning o'yini buzdi.* SHuhrat, SHinelli yillar. *Garchi judolik azobi*

ozaymagani yuzidagi ajinlar oshkor etib tursa-da, u o'zini boshqalar oldida **tetik** tutishga harakat qilardi. (T.Malik, Shaytanat) *U endi negadir jadalroq, **tetikroq** qadam tashlardi.* (A.Muxtor,CHinor) *Shuncha yo'l bosib... O'zim borardim... Tolibjon **bardammi**? – dedi Orif yo'lda charchagan keksa otasiga qayta-qayta tikilib qarab.* (A.Muxtor,CHinor)

TETIK, BARDAM, TIYRAK 3 Gap-so'zi dadil, tetik. Pochchaev, qurilishga biron fikri tetikroq bola kelib qolsa, darrov iziga tushadi. A.Muxtor, Tug'ilish. *Orada eng **tetik**, tadbirliroqlari Ochil taqachi bilan Madumar kulol edi.* (A.Muxtor,CHinor)– *Tan-joningiz omonmi, dada?– Xizmat, xizmat, ota, eshitganman sizni. **Bardammisiz**, omonmisiz! Xush kelibsiz... (A.Muxtor,CHinor) U yurak kasali, o'pka qisishidan yuzlari biroz salqi, ikki erning dog'ida sochlariga barvaqt oq oralagan, lekin ko'zlari **tiyrak**, chehrasidan juvonlik husni qochmagan bo'ydorgina ayol.* (A.Muxtor,CHinor) *Tashqarida ot kishnadi. Darvozadan Umar zakunchi kirib keldi. Boshida chaqmoq telpak, egnida ixcham pocha-po'stin, qo'lida qamchi. – Hormanglar-ov! – dedi **tetik** ohangda.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

TILANCHI, SADAQACHI, GADO(Y), DEVONA. Ko'cha-ko'yda kishilardan xayr-sadaqa, ehson so'rab, tirikchilik qiluvchi shaxs. **Tilanchi** so'zida tilanish harakatining ta'kidi kuchli ifodalanadi. **Sadaqachi** so'zi nutqda kam qo'llaniladi. **Gado** so'zi nutqda **gadoy** variantida ham uchraydi, salbiy bo'yoqqa ega. Bu so'z so'zlashuvda keng ishlatiladi. **Devona** so'zi bu ma'nosida nofaol, asosan, so'zlashuv nutqida kuzatiladi. *Dilshod o'girildi. Beton suyangichga o'tirib olgan, katak-katak keng-keng ko'ylagiga o'ralib olgan **tilanchi** ayol unga mo'tirab qarab, qo'l cho'zib turardi. Yigit cho'ntagini kavlab, g'ijimlangan ikki yuz so'mlikni oldi-da, tilanchiga tutdi.* A.Yo'ldoshev, Daryo. *Xiyobonda ikkita **tilanchi** aylanib yurishar, to'planib turganlarning oldiga borib qo'llarini cho'zishardi.* N.Eshonqul, Go'ro'g'li yoxud Hayot suvi. *“Masjidi Jome” bo'ylab har qadamda gadoy: qalandarlar, **t i l a n c h i** bolalar, kampirlar.* (Oybek, Tanlangan asarlar) *Ular **g a d o y** ning gapidan hayron lab tishlab, ulovlarining tizginidan ushlab, yalanglikni piyoda kesib o'tishdi, to'g'ridagi torko'chaning boshiga etishdi.. (A.Obidjon, Meshpolvonning janglari) Bechora... o'g'lining qatlidan keyin **d e v o n a** bo'lib qolibdi... (Mirmuhsin, Me'mor) Ukasi “shu bir qarich er evaziga kichik o'g'lingizga atab hovlingiz etagiga bir imorat solib beray”, desa ham, bu marhamatni sadaka, o'zini esa **tilanchi** o'rnida ko'rib, unamadi.* (T.Malik, Shaytanat) – *Birinchiidan, ming so'm emas, har biringdan ming; ikkinchiidan, men sadaqa oladigan **gadoy** emasman, men pulni happa-halol ishlab olaman.* (T.Malik, Shaytanat) –*Kichkina bolalardan tanga yig'ish joningizga tegmadimi, **gadoyga** o'xshab turishdan uyalmaysizmi? – dedi.* (T.Malik, Shaytanat) *Kutilgan mehmon shohu **gadoga** bir xilda munosabatda bo'ladi.* (T.Malik, Shaytanat) – *O'tmishni yoppasiga zulmat qilib ko'rsatadiganlarni yomon ko'raman, – dedi Ochil buva soqolini silab. Bu uning shu topda gapga, suhbatga moyilligini bildirardi. – “Nomi yo'q, qashshoq, **gado...**” deng? – kinoya qilib qo'ydi muxbir. – O'zbek hech mahal **gado** bo'lgan emas, – dedi buva.* (A.Muxtor,CHinor) *“Ey, Avazxon, qo'zim, senga ne bo'ldi? **Devona** bo'ldingmi? (Avazxon)*

TILKALAMOQ, TILKA-TILKA QILMOQ, TILKA-PORA QILMOQ, BURDALAMOQ, BURDA-BURDA QILMOQ, MAYDALAMOQ, MAYDA-MAYDA QILMOQ, PORALAMOQ, PORA-PORA QILMOQ. Biror narsani mayda bo'lak, qismlarga bo'lmoq, burdalamoq, maydalamoq. *Bosmachilar himoyasiz juvon murdasini vahshiylarcha **t i l k a - t i l k a q i l i b**, quzg'unlarga tashlab ketadilar.* (A.Muxtor, Opa-singillar) *Agar hozir Shayboniyxon mana bu olqish aytayotganlarga bir og'iz buyursa, ular Mirzo bilan Xo'jani **t i l k a - p o r a** qilib tashlashlari aniq edi.. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar) U hay-haylashimga qaramay, qatlamadan ikkitasini **b u r d a l a b**, oldimga surib qo'ydi.* (S.Ahmad) *Nizomjon tanini zirqiratgan, yuragini **b u r d a - b u r d a q i l g a n** kechmishini esladi.* (S.Ahmad, Ufq) *Kun bulutni **poralab** par-par, Boshlar uzra kezib yuribdi.* (M.Ali) *Bittadan cho'qiganlaringda ham meni **p o r a - p o r a q i l i b** qo'yasizlar.* (Oybek)

*Bola uch yoshga to'lgan kuni hamshira uni etaklab kirib, ona qalbini **tilka-tilka** qilib yuboruvchi yangilikni aytdi... (T.Malik, Shaytanat) – O'g'ling bilan xayrlashib ol, endi, o'lmasang, qamoqdan qutulganingdan keyin ko'rishasan. Mash'um haqiqatni birovga oshkor qilgandan ko'ra yuragini o'z qo'li bilan **tilka-tilka** qilib tashlash osonroqdir.* (T.Malik, Shaytanat) *Parvardigoriidan qo'rqanidan **poralanib**, mayda-mayda bulib ketadi.* (T.Malik, Shaytanat) *Keyin bir sovuk shamol*

kelsa, barchasini quritsa, bas, barglari sargayib quriy boshlaganini ko'rasan, keyin hammasi sinib, maydalanib, somonga aylanadi. (T.Malik, Shaytanat) *Asadbek xatni mayda-mayda kilib yirtgan chog'ida bo'ydor unga yakinlashdi. – Kuchaydingmi? – dedi o'qrayib karab.* (T.Malik, Shaytanat)

TINCH, JIM, JIMJIT, TEK, SOKIN, OSUDA, OSOYISHTA Shovqin-suronsiz, to's-to'polonsiz holat, osuda vaziyat. **Tinch** so'zi barcha nutq uslublarida uchraydi. Bu so'z asosiy hollarda shovqin-suronsiz, to'polonsiz vaziyat tushunchasini hosil qiladi. Harakat bildiruvchi so'zlarga bog'langanda harakatning osuda, tinchlikda yuz berishi ma'nosini anglatadi. **Jim** so'zi ham shovqin-suronsiz holat, tinch amalga oshirilgan harakatga nisbatan ishlatiladi. **Jimjit** so'zi "shovqin-suronsiz vaziyat" tushunchasiga ega. Bu so'zda ushbu holatning darajasi nisbatan yuqori. **Tek** so'zi so'zlashuv uslubida ko'p kuzatiladi. Bu so'z nafaqat insonga, jonivorlarga nisbatan ham ishlatiladi. **Sokin** so'zi kitobiy uslubga xos bo'lib, tovushsiz tinch holatga nisbatan qo'llaniladi. [Ahmad] *Shovqin-suronli, serqatnov ko'chalarni yoqtirmas, sal aylanish bo'lsa ham, t i n ch, salqin xiyobonlarni tanlard.i..* (F.Musajonov, Himmat) *Ota-bola anchagina j i m bordi. O'rtaga og'ir sukunat tushdi.* (M.Ismoiliy) *Yo'lchi j i m j i t ko'chada tanho aylanib yurib, boynikiga qaytdi.* (Oybek, Qutlug' qon) *Hamma bir lahza t e k qolib, birdan qattiq kulgi ko'tarildi.* (A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin) *Samandar o'tirg'ichda soatlab kitob o'qir ekan, goh jiyda, goh dubdan taralayotgan s o k i n ko'klam hidi yoki yovvoyi gullarning anvoyi hidini sezardi..* (N.Eshonqul, Yalpiz hidi) *Achaxonning tinch, o s u d a ko'zlaridan minnatdorlik baralla porlab turardi.* (K.Yashin, Hamza) *Atrof t i n c h, cho'ponlar quyosh tig'idan qochib, mizg'igani kirib ketishgan.* (A.Muxtor, CHinor) *Qirda bong urdi, t i n c h ufqlarda temir sadosi uzoq yangrab turdi.* (A.Muxtor, CHinor) *Bu orada Hakimjon bilan Muborakxonim anglashilmovchilikni Muhayyo istaganicha t i n c h-totuvlik bilan bartaraf qilib shu tomonga siljishdi.* (A.Qahhor, Muhabbat) – **Tinch** o'tiribsanlarmi? – *deyishdan o'zga so'z tiliga kelmadi.* (T.Malik, Shaytanat) *Xotining jim o'tirishidan g'ashlanmay, y tomon o'girildi.* (T.Malik, Shaytanat) *Bu gapga militsa ishonib, haqiqatni t i t k i l a m a d i m i, demak, jim yuravergani durust.* (T.Malik, Shaytanat) *Guluzor begim qizini bag'riga mahkam bosganicha jim edi.* (T.Malik, Shaytanat) *Men buyruqni buza olmayman. Pulni olgin-y, jim o'tiraver.* (T.Malik, Shaytanat) *Tong oldi qorong'isi derazalarga saqichdek yopishgan, yo'laklar, palatalar jimjit.* (A.Muxtor, CHinor) *Bu qichqiriq jimjit zal tepasida muallaq qoldi.* (A.Muxtor, CHinor) *Hamma jimjit bo'lib qoldi. Marg'uba yuzini tirmalab, og'zini katta ochganicha oyoq uzra turib hushidan ketdi.* (A.Qahhor, Muhabbat) – *Sizga nima bo'ldi, tek o'tirsangiz bo'lmaydimi?* (A.Qahhor, Muhabbat) *Bir necha minut tek qolgandan keyin hamma pastga o'rmaladi.* (A.Qahhor, Bolsheviklar) – *Urishlariga Julon yul kuymagan. Uyda tek o'tiraverganida joni omon kolardi.* (T.Malik, Shaytanat) – *Jamshid boshini xam qilganicha tek turaverdi. Piyola elkasiga tegib, suyagini zirillatib yuborgan bo'lsa-da, Jamolbek cho'kkalaganicha tek turaverdi.* (T.Malik, Shaytanat) *Shunda biz uni tek o'tir-e, sabil qolgur, deb qamchilaymiz.* (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) *Yuksak-yuksak, cheksiz, sof osmon... Tiniq, sokin, ulug'vor!* (A.Muxtor, CHinor) *To'g'ri, Tarzan fikrlardi, lekin y zulm dengizining sokin sathida ohista suzib yuruvchi kichik kema o'xshardi.* (T.Malik, Shaytanat) *Shu osuda bir damda daf'atan qattiq portlash yuz berib, Sevgi mulki chil-chil bo'lib ketibdi.* (A.Muxtor, CHinor) *Qarindoshlardan ketadigani ketdi, qoladigani qoldi. Tun osoyishta o'tdi.* (A.Qahhor, Muhabbat) *Posbon o'zidan mamnun bo'lib, cheksiz shaffof osmon-u osoyishta chamanlarga mahliyo ekan* (A.Muxtor, CHinor)

TINCH, SOKIN, OSUDA, OSOYISHTA Birov bezovta qilmaydigan holatda, tinch, osuda. *Me'mor [usta Nusratga] qolgan umrini bir chekkada t i n c h g i n a, g'aribona o'tkazmoqchi ekanini.. aytdi.* Mirmuhsin, Me'mor. *O'rtog'ingizga ayting, shu hujrasini bizdan ayamasin. Shu yerda t i n c h g i n a y a s h a y l i k !* Oybek, Tanlangan asarlar. *O'ttiz yildan beri shu yerdamiz, hali biron kori hol bo'lgani yo'q. Bu yer t i n c h joy.* Mirmuhsin, Me'mor. **Tinch**-totuv turmush qildik, Muhayyo tug'ildi, o'sdi... (A.Qahhor, Muhabbat) – *Ayyorlikda adang Fimaning oldiga tushmasa ham, yonida tura oladi. Sen esa ota o'g'ilsan.* – Adamni **tinch** qo'y. (T.Malik, Shaytanat) **Tinch** yashab, tinchlik bilan o'lish peshonamga yozilmagan, shekilli. (T.Malik, Shaytanat) – *Boshim og'rib turibdi, meni t i n c h q o ' y l a r i n g, – dedi Asadbek peshonasini tirishtirib.* (T.Malik, Shaytanat) –

Hammasi joyida, sizlarning bunday ahvolda qolganlaringni bilgandan keyin bir nafas ham tinch turishgani yo'q. (A.Muxtor, CHinor) *Oqim mavjlari avvaliga sokin tuyulganday edi.* (T.Malik, Shaytanat) *Bemor kech uyg'ondi Uning yuziga xiyol qizillik yugurgan, ko'zlari katta, lekin sokin edi.* (A.Qahhor, Muhabbat) *Ochil buva safarni tugatganidan, ezgu bir farzni bajo keltirib, koni savobga botgan odamdek mamnun ko'rinar, sokin va sobir edi.* (A.Muxtor, CHinor) *Ko'z qarashi osuda, bolajonli bir juvondan bu gapni eshitib, Ochil buva avval qulog'iga ishonmadi.* (A.Muxtor, CHinor) *Xongirey qanday o'lim topganini bilmaydi, biroq, bu o'lim endi osoyishta hayotga emas, yangi fojialar jarligi tomon yul ochganini fahmlab turardi.* (T.Malik, Shaytanat)

TINCHIMOQ, TINCH BO'LMOQ, JIMIMOQ, JIM BO'LMOQ. Shovqin-suron, g'ala-g'ovur, gap-so'z kabilar barham topmoq, to'xtamoq. **Jimimoq** so'zi, asosan, so'zlashuv nutqida uchraydi. **T i n c h i** maydi chaqaloq dodi, Xotin quvolmaydi sharpani. (U.Qo'chqorov, Hayajonga ko'milgan dunyo) *Sinf rahbari gap boshlashi bilan butun sinf suv quygandek j i m i di.* (M.Ismoiliy, Farg'ona t.o) *Oyi, siz sezasizmi, boynikida orqamdan kulishadi, gapirishadi. Man yaqinlashsam, j i m b o' l ishadi.* (Oybek, Qutllug' qon) *Safar chavandoz to'rig'ini Tarlondan xolis oldi. Otlar tinchidi.* (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) *Ora sovidi. Qishloq tinchidi.* (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) *"Dunyo shaytonning do'koni, undan bir narsa oldingmi, shayton haqini undirib olmaganicha tinchimaydi".* (T.Malik, Shaytanat) *O'zining adolatli, yaxshi inson ekanini shu so'kishlar orqali isbot etganday bulib tinchidi-da, chukur xo'rsinib: – Bola-chaka bokish shunaka kiyin bulib kolgan, – dedi.* (T.Malik, Shaytanat) *Vatslav darmonsizlanib jimib qoldi.* (A.Muxtor, CHinor) *Muhiddin ota shunday degach, boshini egib, jimib qoldi.* (T.Malik, Shaytanat) – *Nasriddin boshini kuyi solib jim bo'ldi.* (T.Malik, Shaytanat) – *To'g'ri tushunibsan... – Tarzan shunday deb jim bo'ldi.* (T.Malik, Shaytanat) ... *hamma jim bo'lganda: "Men o'zim avtomobilist bo'lsam ham bularga chavandoz o'g'il tilayman!" – dedi. toychoqni kelinga uzatdi.* (A.Qahhor, Muhabbat)

TINCHIMOQ, TINCHLANMOQ, TINCH BO'LMOQ 1 Notinch holatdan tinch holatga o'tmoq, tinchlanmoq. *Xat kelganda, tinchir jon, Xat – juda aziz mehmon.* H.Olimjon. *Uy ichi jimjit, bemor endi tinchigandek bo'ldi.* N.Fozilov, Diydor. [Gulnor] *Goh tinchib, goh qiynalib yotdi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2.Shundagina ko'nglim tinchidi. Yengil nafas oldim. Samanga qarab, boringga shukur-e, dedim. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) *Zaynabning ko'chasiga burilgach, darvoza yakinidagi tanish mashinani ko'rib, ko'ngli cal tinchidi.* (T.Malik, Shaytanat) – *Chori, nima gap? – dedi biroz tinchigan Bozor.* (A.Muxtor, CHinor)

TINCHIMOQ, TINCHLANMOQ, TINCH BO'LMOQ 2 Biror ish yoki belgilangan vazifani amalga oshirib, xotirjam holatga kelmoq. *Qiz bola ota-onaga omonat, uzatib tinchiy! S.Zunnunova, Yangi direktor. Ana shu nozik mehmon kelgach, mezbon ham tinchib, qatorga qo'shildi. "Mushtum". – Maktabdan tinchib oldingiz, – dedi Meli polvon kulib. – Endi o'zingizni ham bir tinchitib qo'ysak bo'lar edi... P.Tursun, O'qituvchi. ...Muboraxonim uyni yolg'iz tashlab Muhayyoning ketidan paxtaga ketganini qo'shnilaridan eshitib ko'ngli bir oz tinchidi, ...* (A.Qahhor, Muhabbat) *U qizni uchratib gaplasholmasa ham, ko'ngli ancha tinchib qolgan edi.* (A.Muxtor, CHinor) *U qilgan ishining to'g'riligiga amin edi. Shuning uchun ko'ngli ajoyib bir rohat og'ushida tinchidi.* (A.Muxtor, CHinor)

TIRIK, HAYOT, BARHAYOT. Yashayotgan, o'lmaganlik holati. **Tirik** so'zi nutqda insonlarga, hayvonot, o'simlik olamiga nisbatan baravar qo'llana oladi. **Hayot** va **barhayot** so'zlari esa asosiy hollarda insonga nisbatan ishlatiladi. **Hayot** so'zi so'zlashuv nutqida, **barhayot** so'zi esa, asosan, badiiy uslubda uchraydi.

Alhamdulillah, ko'rdim, t i r i k ekansan, noqobil bolam. (Oybek, Tanlangan asarlar) *Meni dor ostidan qutqarib, menga yana h a y o t bag'ishladingiz.* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar) *Ba'zan olisda suzib borayotgan bahaybat kemalarning behisob chiroqlari samo yulduzlaridek charaqlab, zimiston dengiz b a r h a y o t ekanidan dalolat berib turadi.* (T.Rustamov, Mangu jasorat.)

Yosh bo'lsa ham, nozik bo'lsa ham, har qalay yoningda tirik jon... Kimning kimi tirik, kim tul, kim yetim – hali ma'lum emas. (A.Muxtor, CHinor) *Uch oyligimda o'ldi, deb qamokxonaning*

o'likxonasiga tashlashgan ekan. Qarashsa tirik ekanman. demak, men bir marta o'lib bo'lganman. (T.Malik, Shaytanat) Balki hozir tirik odammasdirman, arvohdirman. (T.Malik, Shaytanat) To'daning yarmi qirilib ketsa ham, hatto bittagina o'g'rining yuragi urib tursa ham bu olam tirik hisoblanadi. (T.Malik, Shaytanat) – Sen o'lma, men uchun tirik yuraver. Hayotning lazzatli onlaridan mast bulib yasha. (T.Malik, Shaytanat) U vaqtda Murod Alining xotini Rohatbegim tirik, Marg'uba shu erda turib, o'n yillikda o'qir edi. (A.Qahhor, Muhabbat) Uchgan yulduzning go'zalligi bir lahzalik — bebaqo go'zallik, guldun gulga hayot tashib yurgan kapalakning go'zalligi abadiy go'zallikdir. (A.Qahhor, Ilhom to'la ijod uchun) Bu gapning qanchasi rivoyat, qanchasi haqiqat – bilmayman, lekin Ochil buva hamon hayot, bu yil qovun pishig'ida to'qson to'rtga kiradi, hali chinorday baquvvat. (A.Muxtor, CHinor) Mening quyidagi barhayot va hozirda sog'-salomat bemorlarim o'pka faoliyatining eng so'nggi imkoniyatlari, ilmiy tajribalardan o'tgan aniq va minimal chegaralari bilan qanoatlanib yashamoqdalar...(A.Muxtor, CHinor) ... A'zamjon deganimiz Vatan urushi frontida halok bo'lgan, qolgan o'ttiz ikki kishi barhayot bo'lib, bulardan ettitasi fan doktori, kandidati,...(A.Qahhor, Maktabdoshlar)

TITKILAMOQ, TITMOQ, KAVLAMOQ, KAVLASHTIRMOQ. Biron narsani titmoq, kavlashtirib ostin-ustin qilmoq.

“Shungayammi”, – dedim ichimda va qidirishga arzimasa ham, shu qizni xursand qilish uchun ikki qo'lim bilan tuproqni t i t k i l a shga tushdim. (Oydin, Ikki ko'zi shunda) U jangchilarning texnika va taktika haqidagi mulohazalariga ahamiyat bermagandek, cho'g'ni t i t i b o'tirdi. (Oybek, Quyosh qoraymas) [Panji sayoq] O'choq k o v l a sh deysizmi, tandir osish deysizmi, xullas, bu xil yumushlarni juda kiftini kelishtiradi. Boz ustiga, usta gurungchi edi. (N.Norqobilov, Paxmoq) Qani yuring-chi, laboratoriyani k o v l a sh tirib ko'raylik, gormonli zardobdan biroz bo'lsa kerak. (S.Anorboyev, Oqsoy). – Topdim! Bir odam titkilab-tirishib, pul topadi, boylik to'playdi. (T.Malik, Shaytanat) Axtam old qopqoqni ochib, nimanidir titkilagach, “Tarzan, kalitni bura”, deb buyurdi. (T.Malik, Shaytanat) Bu gapga militsa ishonib, haqiqatni, titkilamadimi, demak, jim yuravergani durust. (T.Malik, Shaytanat) Marg'uba taqinchoqlarni darrov titkilab ko'rdi, hamma narsa joyida, lekin quti engilroq bo'lib qolganday tuyuldi. (A.Qahhor, Muhabbat) Cho'p bilan junlarini ag'darib, titkilab ko'rdi. (A.Muxtor, CHinor) U qo'lini soyabon qilib qorli cho'qqilarga qarar, azim emanlar soyasida nafas rostlab, yana yurar, to'xtab yovvoyi gullardan uzar, qo'lidagi yo'nilmagan tayoq bilan o'to'lanlarni titkilab bir nimalar qidirar edi. (A.Muxtor, CHinor) – Qani, cho'ntaklaringni kavlab qo'rlaring-chi? – dedi Jamolbek, ularni quvvatlab. (T.Malik, Shaytanat)

TITRAMOQ, QALTIRAMOQ, QALT-QALT QILMOQ, QALT-QALT ETMOQ, DILDIRAMOQ (DIYDIRAMOQ), DIR-DIR QILMOQ. Qo'rquv, holsizlik, sovuq va shu kabilardan titrash, qaltirash holatida bo'lmoq. **Titramoq** jonli va jonsiz narsalarning titroq holatda bo'lishini ifodalash uchun qo'llanadi. **Qaltiramoq** asosan odamga nisbatan qo'llanadi va ma'noni titramoq so'ziga nisbatan kuchli ottenkada ifodalaydi. **Dildiramoq, diydiramoq** sovuq ta'sirida bo'ladigan titrash ma'nosida qo'llanadi.

Baland, to'g'ri o'sgan, uchlari bir-biriga tutashgan qator teraklar jimgina t i t r a ydi. (Oybek, Tanlangan asarlar) Oxiri madori ketayotganini sezdi, tizzalari q a l t i r a di. (S.Siyoyev, Yorug'lik) Qo'ylar ochlik va sovuqdan q a l t - q a l t qilar edi. (S.Anorboyev, Oqsoy) Burchakda o'sha nogiron xo'tikcha zax va sovuqdan boshini solintirib, d i l d i r a b turardi. (N.Aminov, Qahqaha) Buvisining gapini eshitib titrab ketganini ko'rib achindi. Tarlon qahr ham iztirob bilan kishnadi. Oqshom kishnashdan zir titradi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) Atrof qorong'i bo'lmaganida uning lablari salgina titraganini, yuziga tashvish buluti soya tashlab turganini sezgan bo'lar edi. (T.Malik, Shaytanat) Bu gapni eshitib, tarbiyachining kapalagi uchib ketdi. Hatto lablari bir oz titradi kam. (T.Malik, Shaytanat) Muborakxonim birdan to'xtadi, vujudi titrab qiziga o'qalgan mushtini o'zining ko'kragiga, boshiga urib dod soldi. (A.Qahhor, Muhabbat) Uning g'am-koyishdan zaif bo'lib qolgan vujudi titrar, endi sabz urgan soqol-mo'ylovi oppoq yuzida qurumga o'xshab ko'rinar edi. (A.Qahhor, Muhabbat) – O'zi so'radi. O'zi dir-dir qaltiraydi, botinkasini botinkasiga uradi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) Rahmonboyning ko'ngli buzildi. Ovozi qaltirab chiqdi: – O'la-o'lgunimcha sizga qulluq qilib o'taman, mana ko'rasiz, – dedi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) – Cholning tovushi qaltirab ketdi... (A.Muxtor, CHinor) Xon

oltinni uning belidan echib olgan ekan, chol darhol tizzalari **qaltirab** yiqilibdi-yu, o'rnidan turgani harchand urinsa ham majoli etmapti. (A.Qahhor, Hayotimiz jamoli) – Men sovuk o'lkada tug'ildim, onam ham sovukda **dildirab** o'ldi. (T.Malik, Shaytanat) Shimol kuzi ayozli nafasi bilan dov-daraxtlarni xam **dildiratib** qo'ygan choqda ishtonchan bola titray-titray atpofga najot bilan boqar, ammo dod solib yordamga chaqirmas edi. (T.Malik, Shaytanat)

TITROQ, QALTIROQ 1 Qo'rquv, holsizlik, sovuq va shu kabilardan yuzaga kelgan titrash, qaltirash holati. **Qaltiroq** ma'noni titroq so'ziga nisbatan kuchli ottenkada ifodalaydi.

Zamira uning **t i t r o q** vujudini va haddan tashqari o'libli qarashiga tob berolmay, stol ustiga pastroq engashdi. (P.Qodirov, Uch ildiz) Bekning vujudini qoplab olgan **q a l t i r o q** tobora kuchayar, qalbining dukillab urishi o'ziga eshilib turardi. (H.G'ulom, Mash'al)

Bu savol Abdusamadning yuragiga o'qday qadalib, yaraladi, hatto tanasiga engil **titroq** yugurdi. (T.Malik, Shaytanat) Badanida engil **titroq** tyrib, torni tushirib yubordi. (T.Malik, Shaytanat) Singlisining **titroq** lablaridan uchgan so'zlar bu shubhani haqiqatga aylantirib, uni arosat vodiysiga haydagandi. (T.Malik, Shaytanat) Soyning suroni orqada qolgandan keyin, **qaltiroq** bosib ketgan Azimjon so'radi: – Siz shunga aminmisiz, bobo?.. (A.Muxtor, CHinor)

TITROQ, QALTIROQ 2 sft. Titrab, qaltirab turadigan (qo'l, oyoq kabilarga nisbatan). Muhammadjon uning titroq lablariga suqlanib qaradi-yu, lekin jur'at etolmay, qo'lidan cho'pillatib o'pdi. P.Qodirov, Uch ildiz.

Fazliya **titpoq** qo'li bilan piyolani ushlaganicha jim turaverdi. (T.Malik, Shaytanat) Elchin hushidan ketmagan, qo'lida **titroq** turgani uchun torni tyshirib yuborgan edi. (T.Malik, Shaytanat) – Kampir qizishib ketganini payqab, **qaltiroq** qo'li bilan ko'zoynagini arta boshladi. U harflarni paypaslab ko'rdi, ularni **qaltiroq** barmoqlari bilan qo'porib tashlashga ham urindi. (A.Muxtor, CHinor)

TITROQ, QALTIROQ 3 sft. Uzilib-uzilib chiqadigan, tiroq holdagi (ovozga nisbatan) U, oppoq ro'molchasi bilan ko'zlaridan dona-dona oqib tushayotgan yoshini artib, titroq ovoz bilan javob berdi. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli.

– By surat qalbaki, – dedi **titroq** ovozda. – Unaka demang... Bunaka deyishga haqqingiz yuq! (T.Malik, Shaytanat) Nima to'g'riligini Xudoning o'zi biladi! – dedi **titroq** ovozda. (T.Malik, Shaytanat)

TIQMOQ, SUQMOQ 1 Bir narsani boshqasiga sanchib yoki suqib kiritmoq. **Suqmoq** so'zi so'zlashuv nutqida ishlatiladi. Qurbon ota samovarning ostiga sim **t i q** ayotgan edi, qaddini rostlab, Siddiqjonga qaradi. (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari) Yo'lchi qarmoqni ko'l bo'yiga **s u q** ib, o'zi xashak yig'ishtirishga tutindi. (N.Yusufiy, Hayot so'qmoqlarida)...eshikni qattiq yopib qulfladi, tanbasini **tiqdi** va qattiq-qattiq qadam tashlab yiroqlashdi. (A.Qahhor, Muhabbat)

Chinqirib yubordim. Ko'z oldim qop-qora bo'ldi... – Tepib o'tirasanni, biqiniga **tiqib** ol!.. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) Go'balakda bingak pishiday zahar nish bo'ladi. Shu nishini ot badaniga **suqib-suqib** ola beradi. Qurbonnazar qo'limni ipga solib, bo'ynimga osib qo'ydi. Dori-da ichirmadi, igna-da **suqyadi**, rasimga-da turishmadi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) Kelganlar mash'alalarni qumga **suqib** o'chirishdi. (A.Muxtor, CHinor)

TIQMOQ, SUQMOQ 2 Biron narsani teshikka yoki bo'sh, ochiq joyga kiritmoq. Boyvachcha kavakchadan cho'p **tiqib**, zanjirni tushirdi... Oybek, Tanlangan asarlar. Nimchasi cho'ntagiga qo'l **tiqib**, ro'molchasini oldi. Mirmuhsin, Me'mor. U uy oldiga kelib to'xtadi. Derazadan boshini **tiqdi**. M.Muhamedov, Qahramon izidan.

Eshik taqilladi. Frau Berta sariq boshini **suqib**: – Matbuotdan kelishdi, doktor! – dedi. (A.Muxtor, CHinor) Lekin ustaxona xo'jayini derazadan bosh **suqib**, uni yana chaqirdi. (A.Muxtor, CHinor)

TIQMOQ, SUQMOQ 3 Biron narsani boshqa narsaning orasiga solmoq, joylamoq. Oling, mollarni sandig'ingizga, pulni cho'ntagingizga **tiqing**... "Mushtum".

Tarlon joyida telbalaracha irg'ishladi. O'zini uyoqqa urdi, buyoqqa urdi. Tasir-tusur yer tepdi. Old oyoqlari orasiga tumshuq **tiqdi**. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) ...gajaklarini chakkasiga tupuk bilan yopishtirdi, chamandagul do'ppini sap-sariq farqi ustiga qo'ndirdi, noparmon ro'molchaga atir sepib ko'krigiga **tiqdi**-da, Muhayyoning onasi Muboraxxonni qidirib ketdi. (A.Qahhor,

Muhabbat) *Beqasam choponlik bolaning kissasini kovladi. Qo'yniga qo'lini tiqdi. Qo'ynidan bir dasta pul oldi.* (T.Murod, Ot kishnagan oqshom) *Yo'ldoshni idoraga chaqirib, panjasini kamari orqasiga suqib, ko'zoynak tagidan savol nazari bilan uzoq qarash uchun vaqt ham, sharoit ham yo'q edi.* (A.Muxtor, CHinor)

TOZA, OZODA, POK, POKIZA 1 Kir, ifloslikdan xoli. **Toza** so'zi juda keng qo'llanadi. **Ozoda** so'zida belgi darajasi kuchliroq. **Pokiza** so'zi ma'noni biroz kuchliroq ottenkada ifodalaydi. *Qo'llarini toza sochiqlarga artishdi.* K.Yashin, Hamza. *Juvon ham uzun qora kipriklarini pirpiratib, chinni singari g' u b o r s i z yuzidan nur yog'ilayotganday, kulimsirab qaradi.* (A.Muxtor 1 Tursunov ishdan ketgandan hech qancha o'tmay jamiyatga **toza** va qizg'in bir harakat, ko'tarinki bir ruh kirib keldi. (U.Hamdani, Muvozanat)

TOZA, OZODA, POK, POKIZA 2 G'araz, qabih niyatdan xoli. **Pok** nisbatan kam qo'llanadi. *Toza qalbdagi dog' bo'lmas.* Maqol. -*Men uni yaxshi bilaman. U yaxshi qiz, ko'ngli toza.* Shuhrat, Shinelli yillar. *Imoniga, diniga mustahkam p o k i z a odam bor joydan ajina yuz chaqirim nariga qocharmish..* (S.Ahmad, Hukm 2 Nahotki odamning tabiati shunaqa: bir xillikdan zerikadi, rang-baranglik joniga oro kiritishini, siyqalashib ketgan hayotiga **toza** ruh, o'zga ma'ni berishini tilaydi? (U.Hamdani, Muvozanat)

TOZA, SOF, MUSAFFO, BEG'UBOR, G'UBORSIZ. Chang-g'ubordan xoli musaffo. **Sof** so'zi "tiniq" semasiga ham ega. **Musaffo** so'zi osmonga nisbatan ishlatilib, uning belgisini kuchli ottenkada ifodalaydi. *Toza osmonda yulduzlar charaqlaydi.* S.Nurov, Narvon. *Toza havodan to'yib nafas oldi.* S.Siyoyev, Avaz. 3 *Lekin Saidni quchoqlab, ko'nglini ko'tarish uchun emas, balki derazani ochib, toza havodan to'yib-to'yib simirish uchun..* (U.Hamdani, Muvozanat) 3 *Qorsiz qishning muzdek, sof havosini simirib borarkan, YUSuf shu yo'ldan to'ppa-to'g'ri tog'ning qor tushgan cho'qqisiga chiqib ketadigan kabi sezardi o'zini.* (U.Hamdani, Muvozanat) *Ular anhor bo'ylab yurishdi. Havo iliq, beg'ubor.* (U.Hamdani, Muvozanat) *Bu osmon necha ming yil CHarx urib ko'rmabdi bir bora Bahor gulzorida o'sgan Bu yanglig' toza gullarni.* (E.Vohidov, Saylanma) *Sen na zardusht, sen na buddiy, Senga na otash, sanam, Odamiylik dini birla Toza imon, o'zbekim.* (E.Vohidov, Saylanma) *Qani bilsang eding, Arab dashtida Quyosh tikka kelib o't purkagan chog', Sening toza ishqing, pok muhabbating Menga jon berganin bamisli buloq.* (E.Vohidov, Saylanma) *Sen bu hijron zulmati aro Pok sevgingni aylagin chiroq, — Visol bilan almashur firoq.* (E.Vohidov, Saylanma) *Bo'lg'in, Erkin, har nafas Ezgu xayolga oshino, Pok esa niyat, seni Olijanob aylar xayol.* (E.Vohidov, Saylanma) *Men shodonman, ko'nglim ravshan, Jismu dilim pok.* (E.Vohidov, Saylanma) *Mening kufrimni ayblarga muhakkak sizda imkon yo'q, Bu olamda mening pokiza imonimdek imon yo'q. Bizga oltin ne kerak, Oltin muhabbat birlamiz.* (E.Vohidov, Saylanma) *Pokiza ishq deb atalgan Katta davlat birlamiz...* (E.Vohidov, Saylanma) *Havo toza, musaffo, zangor, Gulzor bo'ldi menga saylgoh. Ufq'larga yo'l olgan sayyoh, Etoilmaysan manzilga zinhor, Havo toza, musaffo, zangor.* (E.Vohidov, Saylanma) *Desam, G'olib, erim — pok xoki Turon, Asil zotim bilan bag'rim farahmand.* (E.Vohidov, Saylanma) *Bu oqshom ne uchun raqs Etmasin sayyoralar xandon, Muzayyan bir uzukka Qo'ndirib pokiza gavharni.* (E.Vohidov, Saylanma) *Havas bilan qaradim senga, Tahsin o'qib, qoshingda turdim. Urub turgan yoniq ko'ksingda Bulokday sof qalbingni ko'rdim.* (E.Vohidov, Saylanma) *Ellarning erk degan Sof tilagi deb, Jahonning nurafshon Kelajagi deb, ...* (E.Vohidov, Saylanma) *Havo toza, musaffo, zangor, Gulzor bo'ldi menga saylgoh. Ufq'larga yo'l olgan sayyoh, Etoilmaysan manzilga zinhor, Havo toza, musaffo, zangor.* (E.Vohidov, Saylanma) *Qaynar ko'zgu kabi musaffo chashma, Ko'zalar so'zlashar. Biri der: oshna, Biz-ku suv ichamiz chanqamasak ham, Qandok bo'lur ekan suv ichsa tashna!* (E.Vohidov, Saylanma) *Sen ketdingu so'ldi chamaning, Qurib bitdi beg'ubor chashmang.* (E.Vohidov, Saylanma) *Qancha yo'llar bosdim, Qancha manzillar, Ortimda qoldi ming, Million chaqirim, Rus va Ukraina,Polsha tuprog'i, Bu yonda beg'ubor Kavkaz va Qrim.* (E.Vohidov, Saylanma)

TOMON, TARAF, YON, YOQ 1 Narsaning biror yo'nalishdagi tomoni. *Bir t o m o n i bosib qolgan kulbaga Yo'ichini yotqizishdi.* (Oybek, Qutlug' qon) *1 O'zi bu uzun karidorning qaysi tomonidan kelganini ham bilolmadi.* (U.Hamdani, Muvozanat) *...piyola chil-parchin bo'lib chor tomonga tirqiradi.* (U.Hamdani, Muvozanat) *1 Engil epkin hovlining etak tarafidan qiy hidini olib*

kelib dimoqqa urdi... (U.Hamdani, Muvozanat) Biroq xuddi shu asnoda orqa **tarafd**an quturib odam bo'yi balandlikda sel kelardi. – YAxshi qoling... (U.Hamdani, Muvozanat) – Zahro yuzini mashinaning qorong'i **taraf**iga oldi. (U.Hamdani, Muvozanat) Bu vaqt mobaynida yo'lovchi mashinalarning anchasi u **yoqdan-bu yoqqa** o'tdi, lekin birontasi toshga bog'langan odamga yordam berish uchun to'xtamadi. (U.Hamdani, Muvozanat) Oshxonada u **yoqdan-bu yoqqa** yurar va bir ovqatga, bir oyna devor ortidagi daraxtzorga qarar, fikrini hech jamlay olmasdi. (U.Hamdani, Muvozanat)

TOMON, TARAF, YON, YOQ 2 Biror makon, joy yo'naltirilgan tomon. **Yon** shu ma'noda kam qo'llanadi. To'rt **tomon** qum, xayriyat, bunda hech kim eshitmaydi. Mirmuhsin, Me'mor. Xonaning ikki **tomon**iga karavot qo'yilgan. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. O'ng qanotda saf tortgan oldi ochiq otxona, omborxon, somonxon-yu sayisxonalar **t a r a f** dan tosh terilgan yo'lka bo'ylab oltmish besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmoqda. Yelkasida uzun oq yaktak, qo'lida mis obdasta – xilvatda tahorat olib qo'ymoqda.. (E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir) 2 ...vodiy **taraf**larda o'sishi mumkin bo'lgan jamiki xil daraxtlarni o'zining mo'jazgina bag'riga sig'dirgan, 2 Yo'q, yaxshisi, tog' **tomon**ga, bahavo erlarga, Ulug'tog'larga bor, senga o'sha yoqlar tuzuk. (U.Hamdani, Muvozanat) 2 Bu ham etmagandek, raqib **taraf**dagi bolalardan – Parpi bilan mushtlashib, ko'zining tagini shishirib ham oldi... (U.Hamdani, Muvozanat) Ne ko'rgulikki, qarama-qarshi **taraf**larning har ikkisi ham mening o'zim: "Otam" ham men, "akam" ham men. (U.Hamdani, Muvozanat) 2 – Domullo, ko'nglingizga olmang-u, sizdek odam shu **yoql**arga chiqib yursangiz g'alati ko'rinarkan. (U.Hamdani, Muvozanat) 2 Agar u **yoq**da betob yotgan o'g'li va akasi bo'lmaganda, u boyning yuziga "Xasislik qilmang, falon yuz ming dollarlik imorat soldirayotgan odamda o'n ming so'm topilmaydimi?" deb achchiq-achchiq uzib olgan bo'lar edi. (U.Hamdani, Muvozanat)

TOMON, TARAF 1 O'zaro aloqadagi, hamkorlikdagi kishilar, davlatlarning har biri. Quda taraf. Har ikki **tomonning** ishini ko'rgan odam muqarrar: "Bular kim tez qazirga o'ynashganov!" deb o'ylaydi. M.Ismoilij, Farg'ona t.o. Abdurahmon yosh bola ekan, otasi o'lib, onasi va ota **tomonlari** tarbiyasida qoldi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TOMON, TARAF 2 O'zaro ziddiyatda bo'lgan, muxolif tomonlar. **Tomonlarni kelishtirmoq. Tomonlarning roziligini olmoq.**

TOMON, TARAF 3 ko'm. vzf. Makon, payt ma'nolarini hosil qiladi. Yelkasiga tashlangan kitelining yengiga qo'l sola turib, indamay **eshik tomon** yurdi. S.Karomatov, Oltin qum. **Kechga tomon** Sobirning xonasiga Odil buva kirib keldi. R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi. Ammo olamshumul bu kashfiyot ilmiy kengash tomonidan yetarli baholanmaganga o'xshaydi. X.To'xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. 5YUsuf o'zini bekatgacha kuzatib, ovora bo'lishlarini istamay, o'sha erning o'zidayoq yaqinlari bilan xayr-xo'shlab, tandir non to'la sumkasini ortmoqlaganicha tizza bo'yi qor ostida ko'milib ketgan va hali bironta iz tushmagan yo'ldan bekatga **tomon** g'arch-g'urch bosa ketdi. (U.Hamdani, Muvozanat) CHaqiraman yillardan oshib, Ana, meni eshitib shodon — Goh yugurib, goh asta bosib Kela boshlar u menga **tomon**. (E.Vohidov, Saylanma)

Meni zilday ezar vujudim yuki, Qutula olsaydim men undan, hayhot!

Ufqlarga **tomon** ucholsam toki, Moviy cheksizlikda yozolsam qanot. (E.Vohidov, Saylanma) Ko'k jildimda alifbe va bir burda non, Birinchi bor qadam qo'ydim maktab **tomon**. (E.Vohidov, Saylanma) Bundan rosa chorak asr ilgari, Xuddi shu kungiday issik saraton Moskva yo'lidan karvon singari Eshelon kelardi Toshkentga **tomon**. (E.Vohidov, Saylanma) Uzatib turipti SHarku G'arb **tomon** Do'stlik kosasini — Orol ko'lini. (E.Vohidov, Saylanma) Oy ham ko'tarilar o'sha **tarafd**an, O'sha yurt ustida porlaydi Zuhro. (E.Vohidov, Saylanma) Boq, balki ko'rarsan ayni sahar payt,

U ham ko'z tikkandir balki sen **tomon**. (E.Vohidov, Saylanma) Yo'l olganda shoh **tomon**, Shoh o'lim to'shagida Yotar ekan bu zamon. (E.Vohidov, Saylanma) Suzarkansan manzilga **tomon**, Oq yo'l tilab qolgum, dilrabo. (E.Vohidov, Saylanma) Qirq donishmand saf chekib Saroy **tomon** yurmishlar. (E.Vohidov, Saylanma) I.Ikki sarvning o'rtasida Men turibman lolu gung, Bir **tomon** sarv qadli dildor, Bir **tomon** dildor sarv. (E.Vohidov, Saylanma) Sevgi zavqi bir **tomonu** Boda kayfi bir **tomon**, Qay biri ortiq shirindir, Qay birisi kam shirin. (E.Vohidov, Saylanma) YO u

tomon ko'chgum endi, E bu **tomon** ko'chamen. (E.Vohidov, Saylanma) *Atrofda sukunat edi hukmron, Hatto go'daklar ham qilmasdi suron. Nogoh bir devona paydo bo'ldiyu Shodlik va xandaga to'ldi har tomon.* (E.Vohidov, Saylanma) *Toqi ishkomi misli osmon, Har taraf yulduz sochur.* (E.Vohidov, Saylanma) *2 Bahaybat bir daraxt. Uning chap tarafida 101-raqamli eshik, o'ng tarafida 103-raqamli turli-tuman yashik taxtalaridan ishlangan eshik.* (E.Vohidov, Saylanma) *Ajoyib kuy taralsin har tomon tong chog'ida, Kuy emas — bu ishk sharobi, el dili — paymonadur.* (E.Vohidov, Saylanma) *Osiyoni, Ovruponi Ayirmish suv ikki yon.* (E.Vohidov, Saylanma) *Har xush bo'yning bor o'zga tusi, Har yon maysa, har yon gul-chechak. Mana uning bolalik do'sti, Kecha edi sochi jamalak...* (E.Vohidov, Saylanma) *Meni bir yon boshlasa aqlim, Boshqa yonga etaklar yurak.* (E.Vohidov, Saylanma) *Bo'y cho'zib har yon karaydur, Bundaman deb ayt, sanam, Qomatingni bir ko'rarga Kechadin xummor sarv.* (E.Vohidov, Saylanma) *2 Hamma yoq osuda, Tinch edi er ham.* (E.Vohidov, Saylanma)

TOMON, TARAF, JIHAT Biror ish, masala va shu kabilarning bir qirrasini, jihati. — *Ha, bizning kasbning o'ziga xos nozik, jilov tutqizmas, ba'zan asov, ba'zan injiq tomonlari bor.* N.Safarov, Olovli izlar. *Said o'ylanardi. U masalaning bu tomonini ko'rmagan ekan.* (U.Hamdani, Muvozanat) *Istaysizmi, yo'qmi, dunyo shularning ko'lida va qolgan davlatlar o'shalarga ergashishga, ular bilan hisoblashishga har jihatdan majbur. YA'ni moddiy jihatdan farovon, ma'mur jamiyat qursagu, unda yashayotgan fuqaroning ko'nglida bo'shliq — jarlik qolib ketsa, yomon.* (U.Hamdani, Muvozanat) *Bir jihatdan, ya'ni dunyoga o'ch jamiyatga nisbatan sizning holingiz ikkinchi qutb.* (U.Hamdani, Muvozanat)

TOMCHI, QATRA, CHAKKA. Suyuqlikning tomishidan hosil bo'lgan zarrasi. **Tomchi** so'zi nutqda keng ishlatiladi. **Qatra** so'zi badiiy uslubga xos bo'lib, suyuqlik zarrasining juda oz miqdorda ekanligiga ishora qiladi. **Chakka** so'zi shevaga oid so'z, nutqda bino, uy tomi, xona shiftidan sizib oquvchi suv, yomg'ir zarrasiga nisbatan ishlatiladi. *Bir tomchi suv chumoliga daryo ko'rinadi.* Maqol. *Oftobda kuyib pishgan, esiz, yirik yonoqli yuzida ko'z yoshimi, termi, har holda tomchi lar yumalanar edi.* (Oybek, Tanlangan asarlar) *Xirurg stakandan choy ho'plar, uning peshonasidan mayda ter qatralari yiltirar edi.* (S.Ahmad, Qadrdon dalalar) *Paridek nozu istig'no etib, Tong lola ruxsorin YUvib shabnam bilan Bir tomchi shabnamdek yaraqlabdur.* (E.Vohidov, Saylanma) *YUragimni yoqar o'tli iztirob Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q.* (E.Vohidov, Saylanma) *Tashna ko'nglim ichmasin deb Ko'z yoshimdan qatra ham, Ashk soyining yo'liga Kiprigim dahm aylading.* (E.Vohidov, Saylanma) *Hayhot, ko'tarolmam kiprikaringdan Uzilgan bir qatra qayg'u yoshini...* (E.Vohidov, Saylanma) *Ikkita kichik tomchi yonog'iga yumalab tushdi...* (U.Hamdani, Muvozanat)

TOPSHIRIQ, VAZIFA. Bajarilishi belgilangan ish, vazifa. *Bu mening emas, dekanning topshiri gi.* Shikoyatingiz bo'lsa, o'ziga ayting. (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) *Po'lat ish boshlagan dastlabki kundanoq ish ko'lamining bu qadar kattaligi, binokorlar zimmasiga katta vazifa yuklatilganligidan faxrlana boshladi..* (Sh.Rashidov, Quvratli to'lqin) *Doktor — Kechirasiz, uka, vazifamiz.* (CHiqadi.) (E.Vohidov, Saylanma) *Mansurga topshiriq berdi: "Nima qilsang qil, lekin shuni topib,*

taklifimizni ayt. (U.Hamdani, Muvozanat) *"Jiguli" haydovchilari Tohir akadan topshiriq olib, yana qayoqqadir g'izillab qolishdi.* (U.Hamdani, Muvozanat) *Endi zamon o'zgargan va uning tabiatidan kelib chiqadigan vazifa — moddiy va ma'naviyat o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish.* (U.Hamdani, Muvozanat) *Xullas, aka men o'z vazifamni iztirob chekayotgan odamzod mushkulini engillatishga urinish deb belgiladim.* (U.Hamdani, Muvozanat)

TORTINMOQ, QIMTINMOQ, IYMANMOQ. Uyat, andisha bilan biron narsadan o'zini tiymoq, iymanmoq. **Tortinmoq** so'zi biron harakatdan uyat, andisha bilan o'zini tortmoqlikni bildiradi. **Qimtinmoq** so'zi esa harakatni amalga oshirish uchun uyat, andisha bilan o'zini chetga olib turishlikni anglatadi. *Haq va adolat peshvolari haqni riyo, riyoni haq deyishdan tortinmas ekanlar.* (M.Ismoilii, Farg'ona t.o.) *Chokarning hamisha hazil-mutoyiba ilashib turadigan lablari asabiy qimtingan edi.* (S.Siyoyev, Avaz) *Shunaqa odamlar bo'ladi. O'zining odamgarchiligidan iymangandek, uni yuzaki badjahllik, qo'pollik yoki sergaplik bilan niqoblashga urinadi..*

(A.Muxtor, Chinor)– *Kechirasiz, – chaynaldi YUsuf, – so‘rashga odam iymanadi ham. – Yo‘q-yo‘q, tortinmang, bemalol...* (U.Hamdami, Muvozanat) – *Ha, vaqt ham o‘taverar ekan, jo‘ra, – dedi hashamatli kresloga qimtinibgina o‘tirarkan Nurillo.* (U.Hamdami, Muvozanat) – *Yo‘g‘-e, tog‘a, esimda hammasi, – qimtinib javob berdi YUsuf.* (U.Hamdami, Muvozanat) – *Kechirasiz, – chaynaldi YUsuf, – so‘rashga odam iymanadi ham.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Shu holida birovning ko‘rib qolib savolga tutishidan iymangani uchun ariq bo‘yidan yana anchagacha ayrilmadi...* (U.Hamdami, Muvozanat)

TUZMOQ, TASHKIL ETMOQ, BARPO ETMOQ, OCHMOQ Barpo etmoq, yaratmoq, yuzaga keltirmoq. *Temur tuzgan saltanatning vorisligi Shohruhndan keyin Ibrohim Sultonga o‘tishiga umid bog‘landi.* (Mirmuhsin, Me‘mor) *Shu‘ba doirasida bo‘lib o‘tgan dastlabki masharat ochiqdan-ochiq tortishuvga, tarafkashlikka aylandi. Pirovardida maxsus hay‘at tashkil etildi..* (X.Do‘stmuhammad, Qichqiriq) *Qisqasi, men to‘qson birinchi yilning kuzida, pul qadrsizlanishi endi-endi boshlangan kezlari huquqiy shaxs maqomidagi “Dunyo” deb atalgan xususiy firma ochdim va mana olti yildirki tirikchilik ko‘yida chopganim-chopgan..* (A.Yo‘ldosh, Puankare) *Barpo etib bo‘stonlar, Topdi quvonch, baxtini..* (Z.Diyor) *Kurtak yozib ko‘ngulda Gul ochdi g‘uncha ishqim,* (E.Vohidov, Saylanma) *Sen-ku meni yaratding oqqush.*

Zog‘lar ichra tashlading bundoq. (E.Vohidov, Saylanma) *Kunduz esa barcha nuridan Yaratibdi birgina quyosh.* (E.Vohidov, Saylanma) *Ertalab suvga chiqqan odamlar esa bir qo‘lida xalta, boshqasida arqon tutgan, buning ustiga orasta kiyinib olgan – bir jumla bilan aytganda, g‘ayritabiiy manzara yaratib borayotgan shaharlik hamqishloqlariga g‘alati qarab turishardi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Endi biz mustaqil va har tomonlama rivojlangan davlat barpo etish harakatidamiz.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Bu nasl endi o‘zining ozod va obod davlatini barpo etmoqchi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Endi bemalol shaharning “manaman” degan joyidan restorani “super market” ochib yoki ishlab chiqarish qilib, pulni aylantirib umrguzaronlik qilsa ham bo‘laveradi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Siyosat bo‘lmasa, tijorat bilan shug‘ullanarsiz, biron nima ochib ish yuritarsiz.* (U.Hamdami, Muvozanat)

TUZMOQ, YARATMOQ, HOSIL QILMOQ, TARTIB QILMOQ. Hosil qilmoq (gap, jumla, matn, ro‘yxat kabilarga nisbatan) *Ertangi ishga bugun reja tuz.* Maqol. — *Biz nutqimizda ayrim so‘zlarni o‘zaro biriktirib, gap tuzamiz va fikrimizni bayon qilamiz. “O‘zbek tili” darsligi. 2. Xanda ur, jo‘sh ur, yurak, Ozod zamindur bu zamin, Nazm tuz, Erkin, axir, Erkin zamondur bu zamon.* (E.Vohidov, Saylanma) *Tarixni titib, buyuk ishq dostonlarini topib o‘qiydi, ularni qayta nashr qiladi, ulardan kinolar yaratadi va shu yo‘sin ehtiyojini qondirmoqqa urinadi.* (U.Hamdami, Muvozanat)

TUR, XIL, NAV, TOIFA. Umumiy belgi, vazifa va shu kabi xususiyatlariga ko‘ra bir tur, toifaga birlashgan narsa-predmetlar, hodisalar guruhi. **Tur** so‘zi barcha nutq uslublarida baravar ishlatiladi. **Xil** so‘zi so‘zlashuv uslubida ko‘p uchraydi. **Nav** so‘zi o‘simliklarga nisbatan, uning turini belgilashda qo‘llanadi. **Toifa** so‘zining insonlarga nisbatan ishlatilishi ko‘p kuzatiladi. *San‘at turlarining ichida eng qiyini – rassomchilik.* (F.Musajonov, Himmat) *Ishchi qayiqdan kichkina tutqichli yumaloq to‘rcha chiqarib, suvdan bir necha baliqchani suzib olib ko‘rsatdi: – Haqiqiy sibir bakrabalig‘i. Juda tez ko‘payadigan xilidan..* (A.Yo‘ldoshev, Daryo) *Biror buyumni sifatsiz ishlab, a‘lo navga haq olish noinsoflik, vijdonsizlik, to‘g‘rirog‘i, o‘g‘rilikning boshqa bir turi-ku!.* (Safarov) *Shunday toifa odamlar bo‘ladiki, ular mehnat bilan bo‘lib, o‘zini o‘ylamaydi..* (O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin) *O‘raydi etti xil Nurdan chamberak.* (E.Vohidov, Saylanma) *Bir o‘zi go‘ristonni sukunatini eslatadigan hovlisiga bitta-bitta qilib bedana, kaklik, kanareyka va hokazo o‘nlab xil qushlarni keltira boshladi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *...turfa xil anvoyi chechaklardan tortib, vodiy taraflarda o‘sishi mumkin bo‘lgan jamiki xil daraxtlarni o‘zining mo‘jazzgina bag‘riga sig‘dirgan,...* (U.Hamdami, Muvozanat)

TURMUSH, HAYOT, TIRIKCHILIK. Inson kun kechirayotgan hayot; uning turmush tarzi. **Turmush** so‘zi keng tushunchaga ega bo‘lib, kun kechirish bilan bog‘liq barcha shart-sharoit, holatlarni o‘z ichiga oladi. **Hayot** so‘zi bu ma‘nosida faqat **turmush** so‘zi bilan almashinib qo‘llana oladi. **Tirikchilik** so‘zi esa, asosan, insonning moddiy ta‘minot bilan bog‘liq holda kun kechirishiga nisbatan qo‘llaniladi. *Yaxshi ishlasak, o‘z t u r m u sh imiz farovon, yurt obod bo‘ladi.* (Oybek,

O.v.shabadalar) *Qaytaga uning qishloqda yashashi, ko'chalardan baqirib-chaqirib sigirlarini haydab o'tishi va telbavor qiliqlari bu go'shadagi h a y o t ni yanada qiziqroq qilib ko'rsatar edi...* (Sh.Hamroyev, Qora kun) **T i r i k c h i l i k** toshi benihoyat og'ir bo'lar ekan. Bizlarni zoriqtirmaslik uchun ayam tikish tika boshladi.. (Oybek, Tanlangan asarlar) *Nima qilayki, tilim qisiq. Bu qanday turmush?* (E.Vohidov, Saylanma) *Tatib ko'rmay hali hayot zahmatin, Mushfiq onalikning bor mashaqqatin Bo'yingga oldingmi, erka qizaloq?* (E.Vohidov, Saylanma) *SHodlik uchun yaralgan olam, Sevmok uchun berilgan hayot. YUrak bo'lsa yon deydi faqat, Hayot bizga berilar bir bor.* (E.Vohidov, Saylanma) *CHunki ko'klam Zahroning bir xilda kechayotgan turmush tarziga turfa ranglar baxsh etadi, tabiatni harakatga keltirgan qudratidan bir chimdimginasini ozurda ayol ko'ngliga solib qo'yadi.* (U.Hamdam, Muvozanat) *Nahotki odamning tabiati shunaqa: bir xillikdan zerikadi, rang- baranglik joniga oro kiritishini, siyqalashib ketgan hayotiga toza ruh, o'zga ma'ni berishini tilaydi?* (U.Hamdam, Muvozanat) *YA'ni u ruhiy-ma'naviy hayotga moyil va tayyor, uning ahamiyatini, qadrini biladigan, o'zi bilan o'zi yolg'iz qolishdan, o'ziga-o'zi hisob berishdan ko'rqmaydigan va bunga ehtiyoj tuyadigan, ayni paytda, o'zining inson sifatidagi kimligiga, "men"iga qiziqadigan, uni bilishga butun kuch-g'ayrati bilan intiladigan zotdir.* (U.Hamdam, Muvozanat) *Seni tirikchilik, ro'zg'or tashvishlari bezovta qilmaydi va sen bularga muvoziy ravishda yoshsan, go'zalsan...* (U.Hamdam, Muvozanat) *Axir, unda yana tirikchilik g'ami boshga tushadi va men undan arib, uning mahv etuvchi changalidan qutilib, sevib-sevilmoqqa botina olarmikanman?* (U.Hamdam, Muvozanat)

TUTASH, PAYVASTA. Bir-biriga ulashgan, tutashgan holatda. **Tutash** so'zi nutqda nisbatan faol qo'llanadi. **Payvasta** so'zi insonning qoshiga nisbatan ishlatiladi va ijobiy munosabat ifodalaydi. *Sayhonlik tugab, t u t a sh bog'lar ko'rindi..* (S.Siyoyev, Yorug'lik) *Yo'lchi uni tog'asining kichik o'g'li Salimboyvacha ekanini payqadi. U ingichka, rangpar, qisiq ko'zli, quyuq p a y v a s t a qoshli, peshanasi torroq yigit edi...* (Oybek, Qutlug' qon) *U erda tugaydi o'rmon, Davomi tutashdir poyonsiz cho'lga.* (E.Vohidov, Saylanma) *SHe'r yozdim yangi yilning Muborak ayyomida, Har bitta misrasiga Mehrim payvasta bo'lsin.* (E.Vohidov, Saylanma)

TUTMOQ, USHLAMOQ 1 Biron narsani qo'lga tushirmoq, ushlab olmoq. *Hali kiyik t u t dikmi, yo'qmi, hech bo'lmasa, shamollab kelamiz-da.* (M.Mansurov, Yombi) *Bir necha soldat kelib, mahbuslarni u sh l a di, yasovul hammasining qo'lga kishan urdi.* (M.Ismoilij, Farg'ona t.o.)– *Mana, haromi o'g'rini tutdik! – dedi uchovlondan biri.* (U.Hamdam, Muvozanat)

Dushmanga ham do'stlik qo'lin tut, YOrug' bo'lsin ko'nglim, desang gar. (E.Vohidov, Saylanma) *Qo'llarimdan tut o'zing, dilbar, Oydin yo'lga etakla meni.* (E.Vohidov, Saylanma) *YUGanidan ushlab asov biyalarning, Belin sindirmoqni qilganmiz odat.* (E.Vohidov, Saylanma) *Ko'chalarda toychog'imni etaklatib, Qo'llarimdan ushlab olib yuradimi?* (E.Vohidov, Saylanma)

TUTUN, DUD. Biror narsaning yonishi natijasida havoga ajralib chiqdigan gazsimon modda. **Dud** so'zi nutqda kam ishlatiladi. *Jiqqa ho'l o'tin yolg'iz "pirs-pirs" qilib, achchiq zahar t u t u n buruqtiradi..* (Oybek, Tanlangan asarlar) *Mamajonning dimog'iga qorachiroq d u d i gup etib urildi...* (A.Muxtor, Opa-singillar) *YOki sizga yaqinroqdan bir misol: shu kecha-kunduzdagi taqchilik paytida xalqning to'yu azalarini, har qanday marosimdagi sarf-xarajatni engillatish o'rniga qaysi mo'ridan tutun chiqsa, o'sha erda hoziru nozir mulla va mullavachchalar, oppoq soqollarini selkillatib yuruvchi chollar – mahalla ko'rklarining aksariyati aslida zulukdir.* (U.Hamdam, Muvozanat)

TUSHKUNLIK, TANAZZUL. Tushkunlik holati. **Tushkunlik** so'zi insonning ruhan tushkun holatiga nisbatan qo'llanadi. **Tanazzul** so'zi bu ma'nosida kam qo'llaniladi. *Kalladagi qora xayollarni haydash kerak, t u sh k u n l i k – eng yomon dushman..* (F.Musajonov, Himmat) *Senga olam go'zalligi Tamom begona. Senga oshno tushkunligu G'ashlik yagona.* (E.Vohidov, Saylanma) *Lekin muhimi, yaxshi niyat qilish kerak, tushkunlikka tushmaslik va har qanday sharoitda ham mehnat qilish, oldinga intilish... – Lekin tushkunlikka tushishga o'ta jiddiy asosing yo'q.* (U.Hamdam, Muvozanat)

TUSHUNMOQ, ANGLAMOQ, UQMOQ, FAHMLAMOQ, BILMOQ. Biror gap-soʻz, hatti-harakat, imo-ishora va shu kabilarning mohiyatini anglab yetmoq. **Tushunmoq** soʻzi keng tushunchaga ega, anglash, uqish, bilish kabilarni qamrab oladi. **Anglamoq, fahmlamoq** soʻzlari “aql bilan idrok etmoq” semasiga ega. **Uqmoq, bilmoq** soʻzlari koʻproq soʻzlashuv nutqida uchraydi. *Men sizning ahvolingizni t u sh u n aman, – deb gap boshlagan edi, ayol shartta kesdi..* (Oʻ.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) *Asadbek savoldan kelib chiquvchi maqsadni a n g l a b, istehzo bilan jimaydi: – Meni oʻrtaga tushgan deb yuruvdingmi? Mening dallollik qiladigan odatim yoʻqligini bilmasmiding?.* (T.Malik, Shaytanat) *Yana bir takrorlang, faqir radifini u q ib olmoqchiman..* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar) *Haligina “otish, qirib tashlash kerak”, deb bu kuchni mensimayotgan Kitayevning koʻzi moshdek ochilib, ahvolning nihoyatda murakkabligini f a h m l a di..* (K.Yashin, Hamza) *Biz manmanlikni, dandonbozlikni eng xavfli eskilik deb b i l amiz..* (I.Rahim, Mehr koʻzda) *Moʻmin — Bunisi dagʻdagʻa qilib tursa, unisi tushunmasa, oʻrtada men nima qilishim kerak?* (E.Vohidov, Saylanma)

Xurinsa — Hoy, dadasi, qizishmang. Mol egasi ogʻziga siqqanini soʻraydi, savdoni haridor pishitadi. Etigʻi bilan gapirsangiz Abdusalom aka ham tushunadi. (E.Vohidov, Saylanma) **Anglab** etoldim Ustoz Alisherning buyuk sehrini. Uni tanidimu elimni bildim, Mahkamroq turganday boʻldim zaminda. (E.Vohidov, Saylanma) **Olam uni angladi, bildi, Qalbi bilan his qildi dunyo. SHunday, shoir olamga keldi, SHuhrat topdi boʻlganda ado.** (E.Vohidov, Saylanma) **Bil, senga bu besh nasihat, Eng asosiy qoida: Qoʻlni ishga mohir etma, Tilni gapga usta qil.** (E.Vohidov, Saylanma) – *Oʻshanday boʻlsa kerak. Lekin onasidagi koʻp fazilatlar yillar davomida mashaqqat bilan orttirilganligini keyinroq tushundim.* (U.Hamdami, Muvozanat) – *Amir soʻzini tugatmayoq bemaza savol berganini oʻzi ham tushundi, lekin endi kech edi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *YUSuf darsni boshlashkerakligini angladi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Odanzod angladiki, oʻzgan tortib olingan bir parcha er yoki bir siqim oltin bilan uzoqqa borib boʻlmas ekan, chiqitlarni choʻl yo uonning oʻrtasiga oborib koʻmib yo gʻarq qilib kelib, ulardan qutuldim, deyishlik xom xayol ekan.* (U.Hamdami, Muvozanat)

(U.Hamdami, Muvozanat) *YUSuf shu erga kelganda oʻzi haqida gapirayotganini, oʻzini oʻzi tahlil qilayotganini fahmlab qoldi va gapini tugallashga shoshdi.*

Nihoyat, bugunga kelib, Said oʻzining “erkatoy” maqomiga koʻtarilganini fahmlardi. (U.Hamdami, Muvozanat) *Nafsilamrini aytganda, ularning yarmidan koʻpi soppa-sogʻ odamlar ekanini Amir allaqachon fahmlagan, bunga necha bor oʻzi iqrar boʻlgan.* (U.Hamdami, Muvozanat) – *Said “daydi shamol” deganda YUSuf rosa topib gapirganini bildi-yu, bu atama uning asl maqsadiga unchalik yopishib tushmasligi vajidan vaziyatga oʻzga ism berdi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Nafaqat bir mamlakat, balki butun dunyo bir tanu bir jon boʻlib hammaning manfaatlari koʻzlangan holda bir maqsad sari harakatlanish zarurligini bildi.* (U.Hamdami, Muvozanat)

TUGʻILMOQ, PAYDO BOʻLMOQ, VUJUDGA KELMOQ, YUZAGA KELMOQ, BUNYOD BOʻLMOQ. Yuzaga kelmoq, paydo boʻlmoq (narsa-predmetlarga nisbatan). *Jurnalning nomi “Maorif va oʻqituvchi edi” edi. Aldolatning koʻnglida uni oʻqishga ishtiyoq t u gʻ i l di.* (S.Zunnunova, Gulxan) *Devni oʻldirib boʻlmaydi, deyishadi, shu rostmi? Uning qoni toʻkilsa, har tomchisidan ming dev p a y d o b oʻ l averadi, deyishadi. Shu rostmi?.* (Mirmuhsin, Meʼmor)

TUGʻILMOQ, PAYDO BOʻLMOQ, VUJUDGA KELMOQ, BUNYOD BOʻLMOQ. Dunyoga kelmoq (insonga nisbatan). *Farzand bunyod boʻldi, oʻlim yoʻq demak. «Yoshlik». Faqat uning oʻzi bilan birga tugʻilgan samimiyati oʻzgarmadi, hamisha el yuragiga quloq tutish, elga tilmoch boʻlish ehtiyoji oʻzgarmadi.* (E.Vohidov, Saylanma) *SHoir oʻylariga bermagil xalal. Ustoz yuragida sheʼr tugʻilmoqda, Dunyoga kelmoqda bir munis gʻazal...* (E.Vohidov, Saylanma) *Palatka ichida Tugʻildi doston.* (E.Vohidov, Saylanma) *Olimlar donishmandi SHunda debdi: xoqonim, damlar tugʻiladi, Gʻam chekadi, oʻladi.* (E.Vohidov, Saylanma) *I Meni uyquga eltdi dardi hijron, Xayoli kiprigimda boʻldi paydo.* (E.Vohidov, Saylanma) **Paydo boʻldi** ishq dilda ilk dam — *Surdi darcha oldida xayol.* (E.Vohidov, Saylanma) *U dunyoga keldi-yu, ammo Elga ayon boʻlmadi bu hol. Buyuk daho boʻlganin paydo*

Zamin hatto qilmadi xayol. (E.Vohidov, Saylanma) *Senga ayon axir, parranda Hashoratdan boʻlgandir bunyod.* (E.Vohidov, Saylanma)

TUHMAT, BO'HTON. Birovga asossiz ravishda qo'yilgan ayb, da'vo. **Bo'hton** so'zi ma'noni kuchli ifodalaydi. *Tuhmat tosh yoradi, Tosh yormasa, bosh yoradi.* Maqol. *Uying kuygur-da ikki oy qadar ishladim. Keyin haydadi. Boshimga qancha t u h m a t lar ortdi yana..* (Oybek, Tanlangan asralar) *Bo'lakni to'g'ri angla, to'g'ri yur, b o' h t o n ni kasb etma...* (Habibiy) *O'limidan avval otam bechora Unga bag'ishladi ajoyib doston,*
Lekin SHomil nomin qildilar qora, YOg'dirdilar mardning sha'niga bo'hton. (E.Vohidov, Saylanma) *Saidmalik — Bo'hton. Hammasi bo'hton. Baribir isbot qilolmaysizlar.* (E.Vohidov, Saylanma)

TO'PLAMOQ, TO'DALAMOQ, UYMOQ, YIG'MOQ, DEVALAMOQ. Bir joyga yig'moq, to'dalamoq. **Devalamoq** so'zi shevaga xos so'z. *Mashina atrofiga betonchilar, tachkachilar, qum elovchilar t o' p l a n gan..* (A.Muxtor, Opa-singillar) *Elmurod o'rnidan arang turdi-da, komissiya eshigi oldida t o' d a l a sh gan do'stlari yoniga bordi..* (P.Tursun, O'qituvchi) *Xirmonda alohida-alohida to'kilgan paxtalar d e v a l a n ib yotardi..* (M.Ismoiliy, Farg'ona t.o.) *Barcha bilimni to'plab, Odam ahli yaratgan.* (E.Vohidov, Saylanma) *Barcha ilmni to'plab, Insoniyat tarixin Jam qilib kitob yozing.* (E.Vohidov, Saylanma) – *Omonlikka omonmiz, lekin kechani-kecha, kunduzni kunduz demay haftalab to'plagan somonimizni o'g'lingiz tashib, yana o'z joyiga oborib to'kyapti, – suvdan bir-ikki ho'plab, tutila-tutila gapirdi Gulshoda.* (U.Hamdami, Muvozanat)

TO'SATDAN, TO'SAT, TO'SINDAN, QO'QQISDAN, BEXOSDAN, BIRDAN, BIRDANIGA, DABDURUSTDAN, NOGAHON, KUTILMAGANDA, BANOGOHI, ITTIFOQO, DAF'ATAN, ILKISDAN, TUYQUSDAN, TUYUQSINDAN, FAVQULODDA, LOP ETIB 1 Xayolga kelmagan holatda, kutilmaganda. **To'sat** so'zi **to'satdan** so'zining qisqargan shakli bo'lib, poetik nutqda uchraydi. **To'sindan, ilkidan, tuyqusdan, tuyqusindan** so'zlari nafaol, shevalarda uchraydi. **Qo'qqisdan, dabdurustdan, favqulodda** so'zlarida kutilmaganlik ma'nosi bo'rtib turadi. **Ittifoqo, daf'atan, banogoh** so'zlari eskirgan. **Birdan, birdaniga, kutilmaganda, dabdurustdan, lop etib** so'zlari so'zlashuv nutqida keng ishlatiladi. **Kutilmaganda** so'zida "xayolga kelmaganlik" ma'no ottenkasi mavjud. **Lop etib** so'zida obrazlilik kuchli. *To'satdan mehmonlar kelib qoldi. To'satdan qattiq shamol turdi – YUsuf, to'g'risini ayt, mustaqillikdagi hayotimiz yaxshimi yoki avvalgisi? – deb qoldi dabdurustdan Sodiq, – sen ham eski zamonni qo'msaysanmi? Qaytib kelsa, deb o'ylaysanmi hech? Faqatto'g'risini ayt?* (U.Hamdami, Muvozanat) *1 ... kutilmaganda Amir otasining ko'ksidan kuch bilan itarib yubordi: – Qoching yo'limdan! – dedi u vajohat bilan.* (U.Hamdami, Muvozanat) *1.– Yo'q!!! – dedi YUsuf xayolan birdaniga g'azabi qo'zib, – yo'q, yo'q deyman!* (U.Hamdami, Muvozanat) – *Oygu**l birdan** hiqillashni bas qilib, onasining ko'zlariga qaradi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Birdan* havoda "qars-qurs" degan tovush yangradi va shovullab yomg'ir boshladi. (U.Hamdami, Muvozanat) – *Nima bo'ldi, tog'a, yurakmi? – dovdirab qolgan Halima aya dabdurustdan nima tadbir ko'rishini bilmay tutildi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *SHu asno yon tomondagi bahaybat tosh orqasidan ikki kishi yugurib chiqib, qo'qqisdan unga tashlandi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Birdan YUsufning xayoliga alamli o'ylar bostirib keldi. Birdan uning esiga sinfdosh do'sti Sodiq bilan bo'lgan so'nggi uchrashuv tushdi.* (U.Hamdami, Muvozanat)

TO'SATDAN, TO'SAT, TO'SINDAN, QO'QQISDAN, BEXOSDAN, BIRDAN, BIRDANIGA, DABDURUSTDAN, NOGAHON, KUTILMAGANDA, BANOGOHI, ITTIFOQO, DAF'ATAN, ILKISDAN, TUYQUSDAN, TUYUQSINDAN, FAVQULODDA, LOP ETIB 2 Bexosdan, birdaniga. *To'satdan oyoqlaridan mador ketib, qaltiray boshlaganini sezdi.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *2 Ustma-ust tushayotgan zarbalar qo'qqisdan tindi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *Rashid oldin indamay turdi, keyin qo'qqisdan Erkin akani ikkala bilagidan mahkam ushlab, dast ko'tardi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *2 – YUsufning qo'qqisdan ko'tarilib ketgan ovozi eshitgan Oygu**l shoshib** yaqinkeldi, – odamlar qarayapti, nima jin urdi o'zi sizlarni?* (U.Hamdami, Muvozanat) *2 Biroq xuddi endigina yoqqan yoz yomg'iri kabi birdanto'xtadiyu, g'ijingan ko'yi iziga qaytdi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *2 Birdan esiga tog' safari tushdiyu irg'ib o'rnidan turdi.* (U.Hamdami, Muvozanat) *2 YUsuf dabdurustdan biron jo'yali javob*

aytolmadi. *CHunki oddiy qishloq yigiti berayotgan shu savol mana, necha yilki unga ham tinchlik bermayotgan edi.* (U.Hamdani, Muvozanat)

YUusuf dabdurustdan nima deyishini bilmay kalovlandi. (U.Hamdani, Muvozanat)

TO‘SATDAN, TO‘SAT, TO‘SINDAN, QO‘QQISDAN, BEXOSDAN, BIRDAN, BIRDANIGA, DABDURUSTDAN, NOGAHON, KUTILMAGANDA, BANOGOHO, ITTIFOQO, DAF‘ATAN, ILKISDAN, TUYQUSDAN, TUYUQSINDAN, FAVQULODDA, LOP ETIB 3 Sezdirmay, dabdurustdan. *Beshiktervat o‘ljasi yaqinlashishi bilan to‘satdan, yashin tezligida sapchib, uni ushlab oladi. “Fan va turmush”.*

Abdusalomning hovlisi. Ochiq derazadan uying ichi ko‘rinadi. Bunda hamma narsa to‘satdan boy bo‘lib qolgan xonadonga mos. (E.Vohidov, Saylanma) *Rustam aytib berdi: Ataka payti Tizzasidan olib ketgan emish o‘q...*

Xol aka qaytgandi uyga to‘satdan, O‘g‘li, dadajon, deb chopib kelibdi. (E.Vohidov, Saylanma) *Qaytar edim tog‘ sayridan, Ko‘p edim tashna. Horg‘in edim, yo‘lda birdan Uchradi chashma.* (E.Vohidov, Saylanma) *Vaqt kelar, birdan — Fursat mahkam tutar yoqangdan. Agar ko‘ksim uzra qulasa birdan,*

Tutmoqqa qodirman tog‘lar toshini. (E.Vohidov, Saylanma) *SHu payt birdan bola yo‘qoldi, O‘zim qoldim xonada tanho.* (E.Vohidov, Saylanma) *So‘ngra birdan U qah-qah urib, To‘lqinlarga otdi o‘zini...* (E.Vohidov, Saylanma) *Birdan ko‘tarilib Muallaq qoldi Qashqar mahallaning*

Ustida to‘zon. (E.Vohidov, Saylanma) *U soldatning ko‘zi birdan yoshlandi.* (E.Vohidov, Saylanma)

Nogahon eshitilsa chaqaloqning yig‘isi, YAna bir Ulug‘bek deb o‘ylab qoldi, hoynahoy. (E.Vohidov, Saylanma) *Tirilsa nogahon Farhod, YUzingni ko‘rsa ko‘zguda, Kechib SHiridan*

yuz yil Ko‘yingda darbadar bo‘lg‘ay. (E.Vohidov, Saylanma) *Muhabbat nogahon dilda YOzib kurtak, ochibdir gul, Umidvor Erkining, jono, Bu guldani bir samar bo‘lg‘ay.* (E.Vohidov, Saylanma)

Roziman tushguncha dilga Nogahon hijron yuki, Nogahon, mayli, tanimdan Ayru bo‘lsin jon yuki. (E.Vohidov, Saylanma) *Poymol bo‘ldi ishq, nogahon Ayozi tekkan gul kabi.* (E.Vohidov, Saylanma)

O‘q teshgan Andriy Qular nogahon Bo‘ronda yiqilgan qayin singari. (E.Vohidov, Saylanma) *Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da, O‘lib qolganmishman tushda nogahon.*

Ko‘ksimda qo‘rg‘oshin, quyosh tig‘ida, Tog‘lar orasida yotibman bejon. (E.Vohidov, Saylanma) *Men bir o‘zbek o‘g‘li, Kelib daf‘atan Qadimiy Sayhuning kanorasidan Bukun Moskvaga qarab turibman YUksak Ostankino minorasidan.* (E.Vohidov, Saylanma)

Ne ajab, U tomon boqdim daf‘atan,

Vujudimni tortdi bir ohanrabo. (E.Vohidov, Saylanma) *So‘radim, daf‘atan jim qoldi bog‘lar, So‘radim, cho‘kkanday tuyuldi tog‘lar.* (E.Vohidov, Saylanma) *Aytish qiyin, do‘stim, daf‘atan, SHirinlikda nima ziyoda. Go‘dak uchun ona ko‘ksidan SHirin narsa yo‘qdir dunyoda.* (E.Vohidov, Saylanma)

3 – Mollaring so‘mga sotiladimi yo‘dollarga? – YUusuf mijozningto‘satdan jaranglagan ovozidan cho‘chib hushiga keldi. (U.Hamdani, Muvozanat) *3 YUusufning yuz ifodasi birdaniga o‘zgarib,*

boyagi iztirob o‘rnida enditengsiz quvonchning sezilar-sezilmas darajadagi ko‘lankasi paydo bo‘ldi, bo‘ldiyu qaysi tezlik bilan kelgan bo‘lsa xuddi shu sur‘atdako‘zdan yo‘qoldi... (U.Hamdani, Muvozanat) *3 Birdaniga hammasiga chek qo‘yishga haddi sig‘mayotgandi. Lekin YUusuf birdaniga*

shuncha pulni qarzga so‘rash mumkinligini “hazm qilolmay” garangsib turardi. (U.Hamdani, Muvozanat) *Boshida uchqur xayollar charx urib aylansada, YUusuf firmani birdaniga tark etolmadi.* (U.Hamdani, Muvozanat) *3 Bular menga berishmaydi, – dedi dabdurustdan ena qandlarni to‘shagi tagiga yashirib.* (U.Hamdani, Muvozanat)

TO‘SIQ, G‘OV, TO‘G‘ONOQ, IHOTA 1 Biror joyni to‘shish, boshqa joydan ajratish uchun hosil qilingan maxsus qurilma, ihota. *Hademay, shox-shabbalardan katta t o‘ s i q hosil bo‘ldi...* (S.Ahmad, Qadrondalalar) *Shiftgacha yetib bormagan faner to‘siq orqali gaplar baralla eshitalardi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Tanklar uncha-muncha to‘siqni nazar-pisand qilmay, dahshat va ishonch bilan masofani qamrardi.* Oybek, Quyosh qoraymas.

TO‘SIQ, TO‘SIQLIK, G‘OV, TO‘SQIN, TO‘SQINLIK, QARSHILIK, TO‘G‘ONOQ, IHOTA 2 Biror ishga to‘g‘onoq bo‘lishlik, qarshilik ko‘rsatish. **To‘siqlik** so‘zi nutqda kam qo‘llaniladi. *Hayot nashidasi shu kurash, xayf-xatar, to‘siqlarni yengib o‘tish, intilish borligi uchun*

ham qiziq, lazmatli. S. Nurov, Narvon. *Doniyorov uchastkadagi hamon sudralishga sabab bo'layotgan asosiy t o' s q i n l i k larni isbotlay boshladi...* (J.Abdullaxonov, To'fon) *Gavharning q a r s h i l i g i g a qaramay, ikki marta suratga oldi-yu, rahmat aytib, burilib ketdi.* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) *G'ov ham yo'qdir olamda lek Ishq yo'lin band etgulik.* (E.Vohidov, Saylanma)

Qasidalar, g'azallar, nozik rubobiy she'rlar, o'tkir siyosiy murojaatnomalarga quloq tutsak, so'z xaloskor singari tinimsiz harakatda ekanligini ko'ramiz. (I.G'afurov, YUrak mulkidagi kashfiyotlar)

TO'SIQ BO'LMOQ, G'OV BO'LMOQ, TO'G'ONOQ BO'LMOQ. Biror ishga to'g'onoq bo'lmoq, qarshilik ko'rsatmoq. *Muzlardan istehkom qurdi tabiat, Yo'llarda g' o v bo'lib turdi tabiat.* (Uyg'un) *Men akusherka bo'lib bordim-u, lekin bu ishni bajarishga ruhoniylar t o' g' o n o q bo'lishdi..* (M.Alaviya, Sevinchlarim)

TO'SMOQ, BEKITMOQ, PANALAMOQ, PANA QILMOQ, PARDALAMOQ. Biror joyni parda va shu kabilar yordamida bekitmoq, pana qilmoq. **TO'SMOQ, BEKITMOQ, TO'G'ONOQ BO'LMOQ, IHOTALAMOQ, IHOTA QILMOQ.** Biror joyni to'siq yordamida bekitmoq, to'siq bilan ajratmoq.

TO'XTOVSIZ, TINIMSIZ, BETINIM, MUTTASIL, UZLUKSIZ, BOSIM, SURUNKASIGA, PAYDAR-PAY, KETMA-KET 1 Uzluksiz ravishda, ketma-ket tarzda. **Betinim** so'ziga nisbatan **tinimsiz** so'zida "tinmaslik" ma'nosi kuchli ifodalanadi. **Muttasil, uzluksiz** so'zlari "to'xtamagan holatda" ma'no ottenkasiga ega. **Bosim** so'zi bu ma'nosida kam uchraydi. **Surunkasiga** so'zida takroriylik ma'nosi ustun. **Paydar-pay, ketma-ket** so'zlari bu ma'nosida kam ishlatiladi. [*Iskandarning*] *Qiziga ikki yildan beri, eshiklarining turmini buzadiganday, to'xtovsiz sovchi keladi.* O'.Usmonov, Sirli sohil. *T o' x t o v s i z burab yog'ib turgan qordan yer tobora oqarayotgan paytda, Elmurod qorong'i uyda yopirilib, qo' nayotgan qor uchqunlarini tomosha qilar edi..* (P.Tursun, O'qituvchi) *Deraza ortida oqshom tashvishi bilan jonsarak bo'lib qolgan chumchuqlar t i n i m s i z chirqillardir...* (O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor) *Shuning uchun bu yerda darg'alar bedor, tun-u kun baqiriq-chaqiriqlar, uzun eshkaklarning b e t i n i m shaloplagini... eshitilib turadi..* (S.Siyoyev, Yorug'lik) *Bu m u t t a s i l davom etib kelayotgan uyqusizlik, adadsiz iztiroblarning mahsuli, albatta..* (D.Nuriy, Osmon ustuni) *To'kilayotgan barglar esa qandaydir ulkan idishdan u z l u k s i z to'kilib turgan tafsiz mitti yulduzchalarga o'xshardi va havoda uzoq pirpirab turib qoldir..* (N.Eshonqul, Hazonrez) *Uch kundan beri b o s i m chap ko'zim uchar edi...* (S.Ahmad) *Jang s u r u n k a s i g a yetti kun davom etdi...* (N.Safarov) *Xo'janddan p a y d a r - p a y uchirilgan kabutarlar Jizzaxga, Jizzaxdan Samarqandga jo'natildi...* (Mirmuhsin, Xo'jand qal'asi) *Tavba qilmayman! – dedi Toshmat, k e t m a - k e t tushayotgan kaltak zarbalaridan ingrab...* (H.G'ulom, Mash'al)

TO'XTOVSIZ, TINIMSIZ, BETINIM, MUTTASIL, UZLUKSIZ, BOSIM, SURUNKASIGA, PAYDAR-PAY, KETMA-KET 2 Kechiktirilmagan holatda, to'xtovsiz ravishda. *To'xtovsiz javob berib turdi.*

TO'G'RISI, ROSTI, SIRASI, OCHIG'I, NAFSILAMR 1 Yolg'onsiz, haqiqiy, o'z holicha (gap, narsa, odam va shu kabilarga nisbatan) *Tuyaning buvrasi yaxshi, So'zning to'g'risi yaxshi.* (Maqol) *Yodgor shundoq bo'lishini bilgandirki, r o s t i ni aytgandir...* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol)

TO'G'RISI, ROSTI, SIRASI, OCHIG'I, NAFSILAMR Gapning rosti, gapning ochig'i, to'g'risini aytganda. *U sevib, sevimli bo'lganidan mamnun edi, baxtiyor edi. Endi u shu kungacha hech kimni sevolmaganidan, t o' g' r i s i, sevmaganidan ajablanardi..* (Shuhrat, Shinelli yillar) *Hayitvoy bilan uning hech vaqt jinni chiqishgan emas. Gapning s i r a s i shuki, qizning molini to'lataman, deb otangiz bir oz qoqilib qoldilar..* ("Mushtum") *Sen esa... Hayronman, seni nima qilsam ekan... Sen qasamni buzgansan. O c h i g' i ni aytayinmi – joning Xumkallaning qo'lida...* (T.Malik, Shaytanat) *N a f s i l a m r aytganda, "vazir" so'zi "vizr", ya'ni "gunoh" so'zidan kelib chiqqan.* (X.Davron, Navoiy) *Lekin, rostini aytsam, ularning mingtasini O'zbekistonning bir siqim tuprog'iga alishmayman.* (E.Vohidov, Saylanma) *Jon dadajon, rostini ayting, shuncha mol-dunyoni qaerdan olyapsiz?* (E.Vohidov, Saylanma)

U

UZOQ, OLIS, IROQ, YIROQ. Masofasi (oralig‘i) katta. Yaqinning aksi. **Uzoq** vaqtga nisbatan ham, makonga nisbatan ham qo‘llanaveradi. **Olis, yiroq, iroq** faqat makonga nisbatan ishlatiladi. **Iroq, yiroq** kam qo‘llaniladi.

Yo‘lboshchi oppoq qorlarni bosib, o‘zi mo‘ljallagan eng yuqori cho‘qqi sari qadam qo‘ya boshladi. Garchi u z o q d a n juda tik, ko‘tarilish qiyindek ko‘rinsa ham, yaqinlashgan sari cho‘qqiga chiqish yo‘llari ko‘rinaveradi. Sh.Abdullayev, Arxar yo‘lboshchisi. U z o q dan qorasini ko‘rsatsangiz bas, mening apparatim ikki kilometrdan oladi! A.Qahhor, Dumli odamlar. U z o q jimlikdan keyin Unsin yonida o‘tirgan kundoshiga shivirlab: — O‘lsin, nokas odam ekan, bitta qo‘yni deb... Koshki arziydigan narsa bo‘lsa!.. — dedi. A.Qahhor, Dahshat. U z o q demasangiz, erinmasangiz ko‘nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. A.Qahhor, O‘g‘ri. Uchuvchi shu samolyotga minishimdan bexabar qolganini, bo‘lmasa “do‘ppidekkina” osh damlab qo‘ygan bo‘lishini aytdi. Nega bunaqa o l i s safarga otlanganimni so‘radi. O‘.Hoshimov, G‘aroyib sayohat. Shamol och bo‘ridek uvillaydi O l i s d a n buralib-buralib qora tutun chiqayapti. A.Hotamov, Yaxshilik daraxti. Azob bilan o‘yladim va nihoyat topdim: o l i s bolaligimda eshitgandim nihollarni yenga olmagan shamol ovozi. A.Hotamov, Ovoz. Yig‘i keldi qulog‘iga i r o q l a r d a n paydar-pay... T.To‘la. Obbo, qizginaning shashti chatoq-ku! Bunisi ham bormidi hali? O‘zingiz – Iroqda, pushtikamaringizdan bino bo‘lgan nusxangiz esa huv y i r o q l a r d a – ko‘zdan nari, mehrdan judo, yot ellarda, yotlar orasida... Qanday chidamoq mumkin bunga?! E.A‘zam, Shovqin. Vafo degan shunday-shunday bo‘lami, Yoridan o‘zini y i r o q qilami, Yo bunda kirishni uyat bilami, Tovushing yo‘q, qayoqda sen, Ravshanjon. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Go‘ro‘g‘li yetolmay, qop ketdi dog‘da, Yo‘rtanglab asta-asta undan y i r o q d a, Ayta bersam so‘zim turmas kurakda, Haddili hiylagar ekan enag‘ar. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi.

UYG‘OQ, UYQUSIZ, BEDOR. Uxlamagan holatda. **Bedor** so‘zi **uyqusiz** so‘ziga nisbatan kam qo‘llaniladi.

Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib ayvonning chap tarafidagi daricha orqalik uyga kiramiz, ham uyning to‘riga soling‘an atlas ko‘rpa, par yosti quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi u y g‘ o q yotqan bir qizni ko‘ramiz. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. Karim hozir o‘rnidan turib, Adhamning yoniga o‘tirgisi, hech bo‘lmaganda ustidagi ko‘rpani to‘g‘rilab qo‘ygisi keldi, lekin Adhamning uyg‘onib ketishini, u y g‘ o q paytlarda o‘zi bilan qanday gaplashishini ko‘z oldiga keltirib, yuragi betlamadi. A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam. Uch kunlik azada horigan ayollar uyquga ketishdi. Qosim qizlarining qistovi bilan xonasiga kirib, bir oz yotdi. Badaniga hukmini o‘tkazayotgan hordiq uyquni chaqirardi. Lekin b e d o r kipriklar qovusha qolaylik deyishmas edi. T.Malik, Vasiyatnoma. Mana, adashishlar va xatolarning manzillari, boshlang‘ich nuqtalari qayda xato qilgan eding, ey b e d o r zot? I.Sulton, Ozod. Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini u y q u s i z kechira boshladi: Otabeklar nega qamaldilar, qanday gunohlari bor ekan? Otabekning ipidan-ninasiga bo‘lg‘an sirri unga ma‘lum emasmidi?A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. Balki u yo‘qdir, u y q u s i z tunlari hayolingda yaratgandirsan. Balki o‘zing Unga munosib emasdirsan. A.A‘zam, Bu kunning davomi.

UMR, HAYOT. Kishining tug‘ilganidan to vafot etgunicha bo‘lgan yashash davri. **Hayot** bu ma’noda oddiy nutqda juda kam qo‘llanadi.

Keyingi yillarda o'zidan norozi bo'la boshlagandi. U o'z hayotidan qoniqmas, u m r ining kun bilan tunning o'zgarishiday bir xil ekanligi uni tobora hafsalasiz qilib qo'ygan, tez-tez qishloq xotiralariga berilib ketardi. N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Aniqlab qaragam u m r i m d a ko'rmagan-tanishmagan yot kishilarga o'xshaydilar.* A.Qodiriy, Jinlar bazmi. *Mana bir u m r n i yashadim sensiz, Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib, Tobuting boshida cho'kkanimda tiz, Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.* Zulfiya. *Kuylay berib yoshlik qo'shig'in Mangu qolding yoshlik faslida. Ne-ne go'zal yoshliklar kelar, U m r i boqiy h a y o t yo'lida. O'shanda ham o'riklar gullar, Sen bo'lasan dillar to'rida.* Zulfiya. *Kundan-kun saharga ortar sog'inchim, Nahot h a y o t shomin yaqinligi bu? Salqin oromida yo'qolar tinchim, Demak, shafaq men-chun yolqinligi bu!* Zulfiya. *Hozirgina militsiya idorasida u yozib chiqqan "insho", u yerda ko'rgan narsalari, eshitgan gaplari h a y o t i n i ag'dar-to'ntar qilib yuborgan edi.* O'Umarbekov, Yoz yomg'iri.

UMUMIY, MUSHTARAK. Barchasiga birdek xos, barchasi uchun bir xil aloqador. **Mushtarak** nisbatan eskirgan, asosan yozma nutqda qo‘llanib turiladi.

Endi ularning ikkalalari uchun u m u m i y raqib – yovvoyi odamlar paydo bo'lgandi. Avvaliga keksa dinovavr payhon qilingan maydondan o'tib, echki tanasi yotgan joyga keldi. Sh.Abdullayev, Arxar yo'lboshchisi. Xo'-o'sh, domla, meningcha, bu ishni cho'zib yurmasak, men bir jiddiy, u m u m i y ishimizga yordam beradimi, deb o'ylagan edim, arzimas gap ekan..." A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. – *Sen bilan mening o'rtamda hech u m u m i y l i k yo'q. Binobarin, do'st bo'lishimiz ham mumkin emas.* T.Malik, Odamiylik mulki. *Bundagi birlik, o'zaro ishonch, hamdardlik, qolaversa, maqsadlar m u s h t a r a k l i g i naqadar ulug'vor va naqadar go'zal!* U.Hamdami, Muvozanat. *Xuddi shunday, qani endi dunyoda bir-birlari bilan it-mushuk bo'layotgan davlatlar, millatlar, oqimlar... hammalarining muddaolari – bir, sening yo'ling – botil, meniki – haq, deya biri ikkinchisiga qora chaplayotgan dinlar ham alal-oqibatda jumllalarining maqsadi m u s h t a r a k – Olloh-taolo ekanligini nazardan qochirmasalar. Anglab yetilgan Birlik esa ularni urushmakka emas, totuvlik va bahamjihatlikka undasa...* U.Hamdami, Muvozanat.

UNUMLI, SAMARALI, BARAKALI. Yaxshi natijali. **Samarali** ko‘proq kitobiy uslubga xos.

Zohid maqsadini aytgan edi, otaning yuzlari yorishdi. "O'g'limning eng sodiq, eng iqtidorli shogirdi edi. G'assolning yonida o'zi bo'lgan", deb gapirib, aytganlarini yozib ham berdi. Zohid safari u n u m l i bo'lganidan quvonib, iziga qaytdi. T.Malik, Shaytanat. *Bilaman, hamisha bandsiz, hamma ishlarinigiz O'zingiz o'ylagandek u n u m l i, omadli bo'lsin.* X.Do'stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. *Havo laynerining biznes salonidagi monitorga ogohlantiruvchi yozuvlar turli tillarda qalqib chiqdi, lekin bu yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish saviyasining qay darajada yuqori ekanini ko'z-ko'z qilish uchun qilingan tadbir edi, turli tabiiy ofatlar vaqtida uchoqni boshqarishning eng s a m a r a l i usullari bundan ellik yil oldin ishlab chiqilgan, shu bois u ozmoz chayqalishlardan boshqa xayf tug'dirmasdi.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *So'rovlarimizdan ayon bo'ldi-ki, maktab o'quvchilarining 35,5, kollej talabalarining 42, ishlovchi o'smirlarning va ishlamaydigan, o'qimaydiganlarning 67 foizi bo'sh vaqtini s a m a r a l i o'tkazish bo'yicha kattalar tomonidan taklif etilgan tadbirlarda ishtirok etishni istamaydilar.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo'li.

URINMOQ, HARAKAT QILMOQ, INTILMOQ, TIRISHMOQ, UNNAMOQ. Bajarish, erishish ishtiyoqida ish qilmoq, harakatda bo‘lmoq. **Intilmoq** ko‘zlangan biror maqsad tomon bo‘ladigan harakatni, o‘shaning yo‘li (payi)dagi harakatni bildiradi. **Tirishmoq** so‘zida belgi darajasi kuchliroq. **Unnamoq** asosan konkret tarzdagi xatti-harakatga nisbatan qo‘llanadi.

Ayni zavonda qizning so'zlarida, allaqandai ichki bir dard aks etib turgan ma'sum chegrasida, yosh bilan pardalangan katta qora ko'zlarida bo'lakcha bir poklik va samimiyat bor edi. Samig'jon bu samimiyatni sezar, sezgani uchun hazilga burishga u r i n a r d i. O.Yoqubov, Matluba. *Portretningni chizaman, deb ko'p u r i n d i m, — deydi uzilib-uzilolmagan do'stim Isrofil.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Bu azobga tob bermoqqa u r i n a m a n. Urinaman, to'lg'onaman. Miyamdagi bitta sanchiq, Usta qoqqan mixday mahkam.* Zulfiya. *Navbatdagi sonlarning birida berishga h a r a k a t q i l a m a n. O, o'sha kuni mening quvonganimni*

aytsangiz. X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. –Yo‘q, umidni uzmaylik, – dedi Gulimoh opa. – H a r a k a t q i l a m a n. Bo‘lib qolar. – Siz h a r a k a t q i l s a n g i z – bo‘ladi, opa! – dedi A‘lam ishonch bilan. A.A‘zam, Hali hayot bor... Ermakchilar ku-lishdilar. Bu qovoq o‘g‘rilari ichidan tezroq qochib qutilish uchun ketishka i n t i l g a n edi, biravi ushlab qoldi.A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. Abdulla shuni eslab, dili yorishgandek bo‘ldi. Ha, ular birga bo‘lishlari kerak. Uning kelajagini faqat Sayyora ta‘minlaydi. Nima bo‘lsa ham shunga i n t i l a d i, shunga erishishi lozim. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. Lekin mashina to‘xtamaydi, inqillab, titrab-qaqshab oldinga i n t i l a d i va bir amallab dovonning ustiga chiqasan, har narsa, shaharlar, daryolar, tog‘lar oyog‘ing ostida qolgandek, dunyoning ustiga chiqqandek bo‘lasan, yengil nafas olasan, zum o‘tmay nafasing tomog‘ingga tiqiladi mashina pastga sho‘ng‘iydi... O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. Bir dam tin oladi, kaftini ko‘ziga soyabon qilib, quyoshga qaraydi, bir nimani chamalaydi. Keyin yana yumushiga u n n a y d i. I.Sulton, Ozod. — Hoy, shoshma, hozir ovqatga u n n a y m a n ! Quruqdan-quruq ketma, — degan cha qoldi xolasi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

URISHMOQ, OLISHMOQ, YOQALASHMOQ, SOLISHMOQ, MUSHTLASHMOQ, SO‘KISHMOQ, TASHASHMOQ. Kelishmovchilik bilan bir-birini urmoq, bir-birini kaltaklamoq ma‘nosini ham, shuningdek og‘zaki (dahanaki) “jang” ma‘nosini ham bildiradi. **Yoqalashmoq, solishmoq, mushtlashmoq, so‘kishmoq** faqat bir-birini urmoq, kaltaklamoq ma‘nosini bildiradi. **Yoqalashmoq, mushtlashmoq** ma‘noni kuchliroq ottenkada ifodalaydi. **Solishmoq, so‘kishmoq, tashashmoq** ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xos.

Shartta burildim-u qochib darvozadan chiqdim. Qabristonning orqasiga qarab yo‘l oldim. U ovloqda tanho bir gujum o‘sadi, otam u r i sh g a n d a yo biror nimadan xijil bo‘lganimda borib o‘shaning tagida uzoq-uzoq qolib ketish odatim bor edi. E.A‘zam, Shovqin. –E-e, shu xotin bilan u r i sh a m a n m i ? Arzimaydi deyapman-ku. Lekin o‘zimni tutolmayapman. A.A‘zam, Hali hayot bor... Ular tezoqar tog‘ daryolaridan quloch otib suzib o‘tishgan, dengizlarda sovuq bo‘ronlarda qolishgan, Afrika o‘rmonlarida yirtqich sherlar bilan yakkama-yakka o l i sh g a n l a r, yovvoyi odamlar bilan bir ko‘rpada uxlab qolgan paytlari bo‘lgan. X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. Matluba buni har o‘ylaganida bir to‘lg‘anib, tong otguncha xayolida Asqar Aminovich bilan o l i sh i b chiqdi. O.Yoqubov, Matluba. Bir-birining bilagiga urib, y o q a l a sh a ketdi ular. Xayriyatki, yaqin o‘rtada odam ko‘rinmas, bu sharmandagarchilikka Farhodan boshqa guvoh yo‘q edi.E.A‘zam, Shovqin. Men ham senga tengqur bo‘lganimda boshqa gap edi. Hozir sendan o‘n yosh katta bo‘lib qanday y o q a l a sh a m a n ? Odamlar kulmaydimi?.. A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam. Yo‘lda ketyapmiz, Tursunxon so‘radi: – Nimaga shu bilan s o l i sh i b yuribsiz? – Siz qayoqdan bildingiz? – deb xayron bo‘ldim. – Yaxshi gaplashib turganimizda keldingiz-ku. A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam. – Tashqaridagi akang bilan s o l i sh s a n g eplaysanmi? – deb so‘radi Chuvrindi Bo‘tqaga ishora qilib. – Menga cho‘t emas. T.Malik, Shaytanat. To‘rtta edi ular. Qora kursida esa yolg‘iz jo‘raboshi o‘tiribdi. U aka-uka bilan m u sh t l a sh i b, “bexos urib o‘ldirib qo‘yibdi”. T.Malik, Shaytanat. Lekin quloqlariga m u sh t l a sh a y o t g a n odamlarning hars-hurslari, ihrashlari kelishi bilan o‘sha tomonga chopa ketdi. U.Hamdani, Muvozanat. Ertalab turiboq bismillosiga Qo‘chqorni padarla‘nat, deb s o‘ k i sh a d i. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. “Ko‘mirxona”da faoliyat boshlamay turib bir-birlarining hatto necha yuz so‘mlik qarzlaridan kechib yuboradigan mard, mehribonlar qimorda o‘n-yigirma tiyin ustida s o‘ k i sh i b, yoqa bo‘g‘ishib ketadilar. T.Malik, Murdalar gapirmaydilar.

URMOQ, KALTAKLAMOQ, DO‘PPOSLAMOQ, SAVAMOQ, SAVALAMOQ, SOLMOQ, TUSHIRMOQ, SO‘KMOQ, PO‘PILLATMOQ. Qo‘l, kaltak va h.k bilan zarba bermoq.**Kaltaklamoq, do‘pposlamoq, savamoq, savalamoq** so‘zlarida urish birdan ortiq, ko‘p marta bo‘ladi. Bu so‘zlar, ayniqsa, **do‘pposlamoq** va **savalamoq** so‘zlari ma‘noni urmoq so‘ziga nisbatan kuchli ifodalaydi. **Do‘pposlamoq** asosan odamga nisbatan ishlatiladi. **Savamoq, savalamoq**-kaltak, qamchin kabi narsalar bilan urish ma‘nosini bildiradi. **Solmoq, tushirmoq** so‘zlarida belgi darajasi kuchli. **So‘kmoq** hozirgi o‘zbek adabiy tilida deyarli qo‘llanilmaydi. So‘zlashuv tilida ham juda kam qo‘llaniladi. **Po‘ppilatmoq** oddiy nutqqa xos.

Iskandar haydaladigan edi, g‘irromlikka o‘tdi, o‘laman sattor, oldin o‘zi u r d i, deb isboti uchun shishib turgan yuzini pesh qildi, og‘zini ochib ko‘rsatdi: Karimning bir urishidayoq uning

lunji ichidan taram-taram qirgilib, hamon qontalash bo'lib yotgan ekan. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *U-uh, surbet! Basharasiga tushirib qolsami!.. Lekin odamlar nimaga urding, deyishsa, bironta jiddiyroq sababni ro'kach qilish kerak-da.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Telba bo'lib qolgan onasini zanjirga solib Eshonning uyida kaltaklaydilar.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. – *Domlajon, omadi gap shuki, dam g'animat! Turklarning uylariga o't qo'yishyapti! O'zlarini kaltaklayapti, qochinglar!* – dedi. T.Malik, Shaytanat. *Tillangni, boyligingni qayerga yashirgansan, deb yana dopposlaydilar.* Zulfiqor menda bunaqa narsalar yo'q, deb azoblarga chidab beradi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. – *O'ziniyam shundog' dopposladikki, qo'yib bersam xotinlar o'ldirib qo'yishadigan, zo'rg'a ajratib oldim.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *U inqillab o'zini egarga oldi-yu xalacho'p bilan eshakni savalayu ketdi.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Odam qatoriga kirib kaltak yesam yebman-da. Bola bo'lib birov bilan mushtlashmabman, birovdan tuzukroq kaltak yemabman. Ana endi, dong'im chet elga chiqib turganida bir befarosat savalasa.* T.Malik, Shaytanat. – *Chaqir! Jumlayi mo'min ko'rib qo'ysin! Bu turmush, bu boylik, bu zeb-ziyatlar seni quturtirib yuborganini hamma ko'rsin!* – *Begimqul Nilufarning qolidan "shap" ushlab, tomog'iga chang soldi.* Nilufar jon holatda bor kuchini to'plab, bir siltandi-yu, quchog'idan chiqib eshikka otildi, otilarkan, qolidagi katta soatining oltin zanjiri uzilib, soat qayoqqadir uchib ketdi... O.Yoqubov, Billur qandillar. – *Sen! – dedi xirillab. – Sen ablah qachon tinch qo'lasan xotinimni? U bir sakrashda Hikmatilloga yetib kelib, yoqasiga chang soldi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. – *E, esi yo'q murda, — deb peshonasiga shatirlatib bittani tushirdi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Kesakpolvon g'azabdan jo'shib, sapchib turib tumshug'iga musht tushirdi - yu, uning tanasiga jon qaytdi.* T.Malik, Shaytanat. *Ahadbey sapchib o'rnidan turdi-da, xotiniga yaqinlashib yuziga tarsaki tushirdi.* T.Malik, Shaytanat. *Hech kimni qoldirmay, soka boshladi.* Cho'lpon, Kecha va kunduz. – *Adabini berish kerak bo'lsa, tutib olib uramizmi? Yo ko'pchilik oldida xorlab soka mi? Yo bo'lmasa... Cho'lpon, Kecha va kunduz.*

URUSH, JANG, MUHORABA, HARB. Dushman tomonlar o'rtasidagi harbiy harakat, olishuv (kurash). **Jang** ikki tomon o'rtasidagi olishuv ma'nosi bilan birga, shu tomonlarning qismlari o'rtasidagi (kurash) ma'nosida ham qo'llanadi. **Muhoraba, harb** eskirgan.

Har turkmanlar chiqar yovning qasdida, Arabi tulporlar o'ynab ostida, Po'lat nayza yarqillashib dastida, Uru sh bo'lar shu Badbaxtning ustida. Go'ro'g'lining tug'ilishi. *Uru sh! Noming o'chsin jahonda, Hamon bitmas sen solgan alam.* Zulfiya. *Jang kuni qozg'alar mardning g'ayrati, Yig'ilib jam bo'lar turkman elati, Yetib kelar qasos olmoq navbati, Shunda qirib-jo'yganimni ko'rasan.* Go'ro'g'lining tug'ilishi. *Qaynaydi o'zligin yo'qotib, To'zitar osmonga kumush chang. Qirg'oqqa to'lqindan tosh otib, Go'yo u erk uchun qilar jang.* Zulfiya. – *Muhoraba bada qurbon bo'lganlar shahid ketadilar. Ularning jasadlari havo bilan, oftob bilan yuviladi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Xoldor do'stim, bu o'ylaring bo'lmaydi, O'ylaringning hargiz ebi kelmaydi, Arab ham bizdayin mo'min-musulmon, Hech mo'min mo'minga harba qilmaydi.* Go'ro'g'lining tug'ilishi. *Sizlarga bilim berayotganlarning otalari yoki bobolari harb maydonida balki sizning bobongiz bilan to'qnashgandirlar, bir-birlarini tanimagan, bilmagan holda o'ldirmoq qasdida bo'lgandirlar, vallohi a'lam. Sizlarga ko'z tegmasin. Olloh sizlarni harb maydoniga ro'para qilmasin... T.Malik, Shaytanat.*

USTA, MOHIR, MAHORATLI, OMIL(KOR), MIRISHKOR, FARANG. O'z kasb-hunarini yaxshi egallagan, uni nozik tomonlarigacha biluvchi. **Usta** juda keng qo'llanadi. **Mohir, mahoratli** so'zlari usta so'ziga nisbatan kam qo'llanadi, lekin ma'noni usta so'ziga nisbatan kuchliroq daraja bilan ifodalaydi. **Farang** yakka holda juda kam qo'llanadi.

– *Yashshamay o'lgur-ey! — dedi Halima opa. — Ustaligini qarang! — dedi Mukambar.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *"Izquvarlar"ning bo'shligidan kulishdi, Zamiraning ustakorligidan hayratlanishdi.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Ajib Hindistonning mohir, mirishkor, Kosibin san'atin qilib namoyish – Hindlar sandallari tizilgan qator.* Zulfiya. *So'ngra tevarakka sezdirmay sekin Men ham tuflimga tashladim ko'zim. Yomon emas, Ahmad, mohir, kamtarin Vatandosh, ishingga olqish o'qidim.* Zulfiya. *Unga: "Eng zo'rvamahoratlilig'ri Bag'dodda yashaydi, borib, o'shanga shogird tush", deb maslahat beribdilar.* T.Malik, Jinoyatning

uzun yo‘li. *Quriyadagi jahon birinchiligida ishtirok etgan Turkiya terma jamoasida Umid Davala degan futbolchi o‘zining mahorati o‘yini bilangina emas, sochi bilan ham ko‘pchilikning diqqatini tortgan edi.* T.Malik, Jinoyatning uzun yo‘li. *U yantoqqa tarvuz payvand qilish sirini mukammal egallagan miris hkor dehqon.* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Qizlarning rashk qilishi bejiz emas: xushqad, kelishgan Samig‘jon o‘yinda ham ustasi farang edi.* O.Yoqubov, Matluba. *Ishi bojamga oshirilibti. Bazani ham bojam reviziya qilyapti. Mingboyev juda ustasi farang odam ekan.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

UCHMOQ, PARVOZ QILMOQ. Qanot yoki boshqa narsa vositasida osmonga ko‘tarilmoq, havoda harakatda bo‘lmoq. Parvoz qilmoq asosan badiiy ifodada qo‘llanadi.

O‘z ko‘nglida tulkilik qildi. “Ozgina aqcha”ni shu shaharning o‘ziga, ishonchli yerga qo‘ydiy-u, Buxoroga uchdi. T.Malik, Shaytanat. *G‘uj-g‘uj yulduzlar. Osmon qaynayotganga o‘xshaydi. Yulduz uchdi. Osmonni poralab, uzun nurli iz qoldirib so‘ndi. Ilgarilari shunga qarab “bir odam o‘ldi”, deyishardi. Necha yuz yillar shu fikr hukmron edi. Endi kometa yoki meteorit uchdi, deb izohlashadi.* T.Malik, Davron. *Shu oy nuriga g‘arq bo‘lgan cho‘llarda Burgut parvoz qililib yurgandek, oy ham uning qadami tekkan yerlarni ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘lgandek, yanada ravshanlashayotganga o‘xshardi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Chuvrindi uyga qaytgunicha ham bo‘lib o‘tgan suhbatlar mag‘zini chaqishga harakat qilib, “Qanoti bor har qanday maxluq ham erkin hamda baland parvoz qilolmaydi”, degan haqiqatga ishondi.* T.Malik, Shaytanat.

UCHRASHMOQ, YO‘LIQMOQ, MULOQOT ETMOQ, KO‘RISHMOQ, DUCH KELMOQ, RO‘BARO‘ BO‘LMOQ (KELMOQ). Biror maqsad bilan huzurida bo‘lmoq, ro‘baro bo‘lmoq. Muloqot etmoq eskirgan. Yo‘liqmoq bu ma‘noda kamroq qo‘llanadi.

Ikkitasi ko‘cha to‘la olomonning ichida uchra shi b qolsa, mana bunday qilib, ko‘z urishtirib, imo qilishar ekan. A.A‘zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Rostdan, shu topda har kuni-kunora ko‘rishadigan jo‘ralarimni ham, onda-sonda uchra shadigan do‘stlarimni ham ko‘rgim kelib qoldi.* A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam. *Go‘ro‘g‘li sollanib sayrona chiqsin, Borishinda bo‘rilarga yo‘liqsin, Olg‘ir bo‘rilardan qizilbosh qo‘rqsin, Men kelgancha, qarab turgin Chambilga. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Tasodifdan o‘rgilayki, o‘shanda sizga yo‘liqdim.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *–O‘shanda ko‘rishgan ekansizlarmi-yey. Qaysi bir kitobingizni o‘qigan ekanmi-yey. “Ulug‘bek” degan asaringiz bormi? O‘sha kitobingizni o‘qigan ekan.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *Hali ko‘rish salariningiz aytib berar: armiyada bir kun ham xizmat qilmabdi.* O.Yoqubov, Matluba. *Munira kabinetdan chiqayotganda, leytenant Sultonovga duch keldi va cho‘chib, unga yo‘l berdi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Rahim Saidov chidolmay yuqoriga otildi. Eshik oldida terga botgan Hafizga duch keldi.* O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri. *Kir chayayotgan Adolat hovliga bostirib kirgan notanish erkaklarni ko‘rib, qo‘llarini peshbandiga artganicha o‘rnidan turdi-da, ularga ro‘baro‘bo‘ldi.* T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. *Yo‘lchivoy onasining o‘limga rozi turganidan bexabar. U ham shu choqda onasiga ro‘baro‘kelishi ni istamaydi.* T.Malik, So‘nggi o‘q.

UYALMOQ I, ANDISHA QILMOQ, IYMANMOQ, NOMUS QILMOQ, ORLANMOQ, OR QILMOQ. Uyat (andisha) his-sezgisini tuymoq. **Uyalmoq** keng tushunchaga ega va keng qo‘llanadi. **Iymanmoq** so‘zida belgi darajasi kuchsiz. **Andisha qilmoq** so‘zida ma‘lum “yuz-xotir” munosabati bo‘ladi. **Nomus qilmoq** so‘zida belgi darajasi kuchli. **Orlanmoq** juda kam qo‘llanadi. **Or qilmoq** so‘zi bu ma‘noda qo‘llanganda munosib ko‘rmaslik ottenkasi bo‘ladi.

Men ham uyaldim, o‘ng‘aysizlikni yo‘qotish uchun unga ham tushimni aytib berdim: “Buni qarang, ishonib o‘tiruvdim, hujjatlarim topilgani — panjaradan ushlab qolganim-da”, dedim. A.A‘zam, Asqartog‘ tomonlarda. *Uyalib atrofga alangladim, hech kim sezmadim, asta davradan qochdim.* A.A‘zam, Asqartog‘ tomonlarda. *“Yegan yog‘-u go‘shlaring ko‘r qiladi hali seni, shuncha sovg‘a-salomlarni ham andisha qilmading!” — deb ko‘nglidan o‘tkazdi-yu, ko‘zoynakli kishiga qarab: — Har qalay, zakon biladigan kishisiz, bir yo‘l ko‘rsating, — dedi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Uyda bo‘yi yetgan qaynisingillar bor-a! Hech bo‘lmasa tul egachisini andisha qilsa bo‘lmaydimi? S.Ahmad, Tanlangan asarlar. — Qayoqqa? — so‘radi Samad. — Boray, kech bo‘lib qoldi, — dedi iymani b Abdulla.* O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Shu*

holida bironing ko'rib qolib savolga tutishidan i y m a n g a n i uchun ariq bo'yidan yana anchagacha ayrilmadi... U.Hamdani, Muvozanat. *N o m u s q i l g a n d i r, bunaqa gapni qanday aytsin?! Biroq Gulyaning rahmdilligi-yu Sur'atni deb bunday kuyinishlari Farhodga erish tuyuldi.* E.A'zam, Shovqin. *Ha, yoqmadimi? N o m u s q i l d i n g m i? Agar nomus qilish qo'llaringdan keladigan bo'lsa, endi ko'rasanlar. Ko'ylak-ishtonimni avtobus ostanovkasigacha opchiqib yuvaman.* S.Ahmad, Kuyov. *"Aroqxo'ring farzandi" degan malomat toshini ko'tarib yurishga orlanyaptilar", – desalar, u adashganlar: "Bizdan o r l a n s a l a r i n g biz ulfatdan chiqdik!" – deb o'rinlaridan turib ketishdi.* T.Malik, Odamiylik mulki. – *O'zlarining bo'yinlari egilmaydi, – dedi Sojida. – O'rgildim! Ko'mir tashishdan o r q i l m a y d i, tashidim deb yozishdan or qiladi! Qiziq odamlar bor-ey! O'zi ko'mir tashib yuribdi, yana katta ketganiga o'laymi.* A.A'zam, Hali hayot bor... *Ular oshxonaga borib, ko'ichilik bilan ovqatlanгани o r q i l a d i l a r.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar.

UYALMOQ II, IZZA BO'LMOQ. Uyalish (izza) his-sezgisini tuyish, uyatga qolmoq. **Izza bo'lmoq** so'zida belgi darajasi kuchli.

Jalol polvon yetmish yoshli chol bo'laturib unga behayolarcha qarab turganidan u y a l i b k e t d i. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. – *Voy sharmanda. Voy beyuz. Bu qanaqasi? (O'g'illariga.) Qochlaring. Indamay qarab turgani u y a l m a y s a n m i? S.Ahmad, Kelinlar qo'zg'oloni. So'ng yemak stolining bir chetini artib-surtib, qog'oz-qalamini suhbatga chog'layotgan Gulyaga nazar tashladi-yu ich-ichida u y a l d i.* E.A'zam, Shovqin. *U noo'rin savol berganidan i z z a b o' l d i.* *Amakisi buni sezdi shekilli, o'ziga yaqin olib, izoh berdi.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Hayitning Gulnorasi unga qarindosh-ku, shuni ham bilmaysizmi? Karim i z z a b o' l d i.* A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam.

UYAT, NOMUS, SHARM, HAYO, OR, ORIYAT, ANDISHA, IBO, ISNOD. Izza hissi hijolatlik (uyalish) hissi. **Uyat** kengroq tushunchaga ega. **Sharm, or, hayo** so'zlari yakka holda kam qo'llanadi. **Sharm, hayo** so'zi ko'pincha juft so'z holida (**sharm-hayo**) qo'llanadi. **Or** so'zi ham ko'pincha nomus so'zi bilan juft so'z holida (**or-nomus**) qo'llanadi. Shuningdek, **or** so'zi ko'pincha **qilmoq, kelmoq** so'zlari bilan birga qo'llanadi. **Ibo** kam qo'llanadi. **Andisha** bu ma'noda kam qo'llanadi.

Sanoqda adashib ketyapman. Oddiy "nash'u namo" degan so'zda to'rtta, yo'q, beshta xatoga boribsiz. "Nashnoma" emish! U y a t - e! A.A'zam, Hali hayot bor... Hozir sendan o'n yosh katta bo'lib qanday yoqalashaman? Odamlar kulmaydimi?.. U y a t, uka, u y a t! O'zingdan kattani hurmat qilishing kerak. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. *Faqat o'yladimki, u y a t d i r qizga Yigitga sevgisin aylasa izhor. Zulfiya. O'zi eng yomoni ham shu, bosh injener oldida n o m u s g a qolgani bo'ldi!.. O.Yoqubov, Billur qandillar. Dildo'st! Mabodo Sening nomingga xat bormay qo'ysa men aybdorman. Bu mening sha'nimga i s n o d, n o m u s! Axir men borman-ku, hayotman-ku, nima uchun Senga (Senga-ya?! xat bormasligi kerak?! X.Do'stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. Aziza bag'riga chaqirayotgan birinchi muhabbat bilan hozir yuzma-yuz turibdi. U ko'zlarda endi o't yo'q, ular sh a r m s i z l i k oynasi, yo'q, yo'q, nursiz bir shisha sinig'i bo'lib ko'rinyapti unga.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Biron joyga ishga kiritib qo'yay desam, onasi ko'nmaydi. Erkaklar bilan ishlasa, sh a r m i h a y o s i qolmasmish.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Voy, savil, dadam shuni oladilarmi? Sh a r m – h a y o bormi u kampirada. O'z ko'zim bilan ko'rganman. Har kuni tong otishi bilan mayka kiyib, qishloq ko'chasida yarim soat yuguradi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Go'yoki, to'qson yettiga kirib olamdan o'tgan rahmatli bobomiz avlodimizning bor o r – n o m u s i n i mana shu kenjasiga vasiyat qilib, qulf-kalitni o'zi bilan olib ketgan.* E.A'zam, Navoiyni o'qigan bolalar. *Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib yetmagan bu qizchani katta xotinlarning o r i y a t paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi... Cho'lpon, Kecha va kunduz. Barcha-barcha o r i y a t - u andishalarni unutib, o'ylab topilgan bema'ni odob-axloq me'yorlarining bahridan o'tib, ayt, gapir, axir!.. X.Do'stmuhammad, Men – sensiz, sen – mensiz. Lekin o r i y a t kuchli, qarzni to'lashga bel bog'lab, qo'lidagi bor molni to'rtidan bir bahosiga berib, o'zi haydab yurgan mashinani, nevaralariga deya olib qo'ygan uylarni, xotin-qizlarining oltin va brilliant taqinchoqlarini, xullasi, qo'lga ilashgan har narsani sotadi.* U.Hamdani, Muvozanat. *"Ha?" dedim, yorug' olamni*

to'smasang-chi, deganday. Qani edi bu dunyoda a n d i sh a, yuz-xotir, muomala degan narsalar bo'lmasa-da, ko'nglingda nima kechsa, hammasini tilingga chiqarsang! A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Kim, qancha a n d i sh a tog'in kesib ul Kelmish, bo'lmoq uchun sen-la hamnafas. Zulfiya. "Ra'no" bir qo'li bilan ikki yoqasining uchini birlashtirib, nomahram ko'zi tushmasin, degandek "i b o" bilan kelinchaklarning salomiga o'xshatib engashdi, suzilib dastxat yozilgan kitobni oldi. S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. –Dars paytida tilingizni chiqazadigan bo'ldingizmi? Meni i s n o d g a qoldiradigan bo'ldingizmi? S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Yo'q, bu artist emas. Bu – artistlarga i s n o d keltirib yurgan otarchi. Urgan bilan bu yaramas otarchini tuzatib bo'lmaydi. Yaxshisi 15 sutkaga qamab qo'yish kerak. S.Ahmad, Kelinlar qo'zg'oloni.

UYATSIZ, NOMUSSIZ, BENOMUS, BEHAYO, HAYOSIZ, BETSIZ, YUZSIZ, ORSIZ, ANDISHASIZ, SHARMANDA, SHARMSIZ, BESHARM, BEIBO, IBOSIZ, BETAVFIQ. Uyati (nomusi, hayosi) yo'q. **Benomus (nomussiz), betsiz, yuzsiz** so'zlarida belgi darajasi kuchliroq. **Behayo (hayosiz)** ma'noni yana ham kuchliroq ottenkada ifodalaydi. **Sharmsiz, orsiz** so'zlari juda kam qo'llaniladi. **Andishasiz, orsiz** so'zlari ma'noni kuchsizroq ottenkada ifodalaydi. **Beibo (ibosiz)** – eskirgan.

Shunda u yer-bu yerdan mo'ralab turgan biz, o'quvchilarga ko'zi tushdi-yu o'shqirib berdi: – Yo'qol-e, hayvon! He, u y a t s i z l a r! E.A'zam, Shovqin. Bag'ritosh, u y a t s i z! Nazmi unga burnini qiyshaytirib chiqib ketadi. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. Ming yillar muqaddam o'tgan Yevripid degan shoir: N o m u s s i z l i k gar ilahsa nikoh ipiga Ayol qalbi shu qadarli qonsiragayki, Topolmaysiz yer yuzida bunaqasini, deganida balki bizning hamshirani nazarda tutgandir. T.Malik, Shaytanat. Har ikki holda ham o'g'irlangan qiz odamlar uchun n o m u s s i z bo'lib qolaberadi-ku?.. T.Malik, Shaytanat. Faqat b e n o m u s otagina Hosilning qilig'iga chidashi mumkin edi. T.Malik, Shaytanat. Ota-onalik burchini to'g'ri ado etganlarni Alloh turli balolardan va malomatlardan, b e n o m u s l i k l a r d a n asraydi. T.Malik, Odamiylik mulki. Orqasidan Adhamning "Karim!", degan g'alati mehribon ovozi va Tursunoyning asabiy qiqirlagani eshitildi. B e h a y o! Eshigini bekitib olmaydimi! A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Albatta, ular erkaklarning suq bilan termilishiga ham ishonadilar, lekin erkaklarning ko'zida ular ko'zgudagidek aks etmaydilar – ko'zgu b e h a y o emas, gap ham otmaydi. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Begumqul nimasi bilandir Nilufarning ko'zlariga o'xshab ketadigan h a y o s i z ko'zlarini baqraytirib, yana uyni boshiga ko'tarib kuldi. O.Yoqubov, Billur qandillar. Ushanda o'ta ilg'or, o'ta zamonaviy ko'ringan, hatto eng dag'al hazillari, pardasiz gaplari, h a y o s i z qiliqlari ham yigitlikning eng yaxshi belgilari bo'lib tuyulgan Begimqul-chi? O.Yoqubov, Billur qandillar. Mening so'zim tuhmat bo'lsa, bul qora dog' ne, y u z s i z? Yaxshiroq kelib, bir qarang, Shayx Hazratlari. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. Qilgulikni qilib qo'yib, ko'kka nola qiladi-ya bu y u z s i z. Ehtiyot bo'lmoq kerak bul b e h a y o g a? Ming ishva ila soqchilarni ham sehrlab, qochib ketmog'i ham dargumon ermas bu jodugar!. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. Din haqida bilmay turib gapiradiganlar qaysarlik, o'jarlik va behuda gaplarni tashlab, avval Islom dinini chuqur o'rgansinlar. U y a t s i z l i k, a n d i sh a s i z l i k d a n Alloh saqlasin! T.Malik, Odamiylik mulki. Yaqin bir soatdan buyon boshini qotirayotgan mana bu telbanamoning a n d i sh a s i z l i g i g a achchig'i keladi. E.A'zam, Navoiyni o'qigan bolalar. Ancha jimlikdan keyin Orzimurodov yig'lamsirab gap boshladi: "Bularni birovga ko'rsatib bo'ladimi? Sh a r m a n d a qiladi-ku?" "Sh a r m a n d a bo'lamizmi, bo'lmaymizmi, lekin bor gap", dedim men. "E-e, qoyilman!—dedi Suhrob.—O'zini ham qo'shib, to'g'risini ko'rsatib qo'yibdi-ya! A.A'zam, Asqartog' tomonlarda. "Nima demoqchisiz", deb mushtlashishga chorladi-ya. U esa sh a r m a n d a l a r c h a chekindi. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam. Yalang'och yotganlarning badanida igna sanchib yozilgan so'zlar, turli sh a r m s i z suvratlar, birida "tuqqan onamni unutmayman" degan yozuv bo'lsa, boshqasining ko'krigida karta, ayol kishining rasmi bilan bir shisha aroq tasvirlangan. S.Ahmad, Sarob. Aziza bag'riga chaqirayotgan birinchi muhabbat bilan hozir yuzma-yuz turibdi. U ko'zlarda endi o't yo'q, ular sh a r m s i z l i k oynasi, yo'q, yo'q, nursiz bir shisha sinig'i bo'lib ko'rinyapti unga. S.Ahmad, Tanlangan asarlar. O'sha kecha qilgan b e h a y o – b e s h a r m qiliqlaring yodingdan chiqibdi. Iprindi-siprindi g'animlarimga qoshlaringni uchirib, ko'zlaringni suzib, shahvoniy muqomlar qilganing, mast-alast o'pishganlaring –hammasi esingdan chiqibdi sening.

O.Yoqubov, Bir koshona sirlari. *Yo tavba. Bunday b e h a y o – b e s h a r m* manjaraqini yer yutsa bo'lmasm-u, e yaratgan egam. Kimsan hazrat sohibqironday bebaho tulporni ko'chada qolg'on bir eshakka olmoshtirmoq!.. Erta-buruskun Olampanoh muzaffar safardan qaytganda qaysi yuz ila uning yuziga qaraysen, benomus? O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. *U derazaga orqa o'girib, xonasiga qaradi: o'zini to'rt devor bilan himoyalab olgan xona haddan tashqari b e i b o* yorishib turgandek, uni masxaralayotgan-yek ko'rindi. A.A'zam, *Bu kunning davomi. Bu bayondagi "Annaning jasadi i b o s i z* bir ravishda qonlarga belanib yotardi", degan tasvirga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Muhabbat degan bahona bilan oilaga xiyonat qilgan, *i b o s i z* hayot kechirgan ayolning jasadi ham begonalar ko'zi oldida *i b o s i z* holatda yotardi. T.Malik, Odamiylik mulki. Mingboshi ham ma'lum kulishi bilan kulib, eski gapini takror qildi: – *Obbo, b e t a v f i q*-yey! Cho'lpon, Kecha va kunduz. Kulimsirash bilan yana ham xunukroq kepataga kirgan basharasini kampir tomon ko'tarib turib: – *O'sha b e t a v f i q*, benamozga qiz beramanmi, qalay? – dedi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. "*Qo'y ham butun, bo'ri ham to'q*" bo'lardi. Xotin dardiga qolmay o'lsin, *b e t a v f i q!* Bitta g'ayridinni topib necha oylik yo'lga ketibdi-ya!.." Cho'lpon, Kecha va kunduz.

G'

G'ALABA, ZAFAR, TANTANA, MUZAFFARIYAT Jang yoki bellashuv (kurash)da qozonilgan (erishilgan) muvaffaqiyat; zafar. **Zafar, muzaffariyat** badiiy uslubda qo'llanadi. *Hirot darvozalari tepasida karnay-u surnay, nog'oralar avj qildi; sulton Shohrux mirzo lashkari g'alaba bilan qaytib keldi.* Mirmuhsin, Me'mor. *Urush – muvozanat boy berilgach, unga qayta erishish ilinjida so'yilgan qurbonlik, tinchlik – qo'lga kiritilgan zafar* sharafiga berilgan ziyofat. U.Hamdani, Muvozanat. *Shu o'rinda sizlarni – kunimiz ilm-u fanining eng zakii va iste'dodli kishilarini chin yurakdan g'alaba bilan tabriklash o'rniga, barhayot kishining kutilmagan qarori haqida xabardor etishni lozim topdim.* I.Sulton, Boqiy darbadar. *Agar ko'pni ko'rgan kolizey g'ishtlaridan bir bo'lagini olib quloq tutsangiz, bu yerda bo'lib o'tgan tantanalalar, gladiatorlarning buqa bilan olishuv paytidagi shovqin-suronlarini, odamlarning hayqiriqlarini eshitarmikansiz?* S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong. *Madhiya o'z mustaqilligiga ega bo'lgan rivojlangan har bir mamlakatning muqaddas ramzidir. Davlatimiz madhiyasini Abdulla Oripov, musiqasini Mutal Burhonov yozgan. Madhiya tantanalarda ijro etiladi. Unga hamma qo'lini ko'ksiga qo'yganча jo'r bo'ladi. "Baxt-u iqbol ramzlari". Keksalar guzar va mahallalarga to'nkalardan gulxan solib.. olomonga muzaffariyat tilaydilar.* A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

G'AM, TASHVISH, QAYG'U, KULFAT, MUSIBAT, ALAM, ANDUH MUNG, DOG', IZTIROB, HASRAT, DARD, HUZUN. Baxtsizlik, judolik tufayli sodir bo'ladigan ruhiy azob. **G'am, tashvish** so'zlashuv uslubiga xos. **Qayg'u** nisbatan kam qo'llanadi. **Kulfat, musibat** ma'noni kuchli darajada ifodalaydi. Anduh eskirgan, kitobiy. Ko'pincha **g'am** so'zi bilan birga juft so'z holida qo'llanadi. **Mung** eskirgan, kitobiy.

U xabarlar tuproq orasidagi dur yoki xazon orasidagi qirmizi chechak bo'lib, turli mushohada yo'llariga ishora qilar, ba'zilar g'am va anduh makonlari-yu ishq-muhabbat biyobonlariga, boshqalari esa jang-u jadal maydonlariga yo'llardilar. I.Sulton, Ozod. *Qaydan kelayotir uyur-uyur g'am?* Sh.Rahman. *Haqiqatan, endi bu iztiroblardan foyda yo'q, vujudini qaqqatgan bu tizginsiz g'amni jilovlay bilmoq, nima bilandir ovunmoq kerak!* I.Sulton, Ozod. *Yodimdadir o'shal damlar, kulgularing edi so'lim, hali yiroq edi g'amlar, dunyoda yo'q edi o'lim.* Sh.Rahmon, Saylanma. *Menday bir farzandning tashvishi bilan bo'lib, bir nafas ham ko'ngling sevinmadi.* I.Sulton, Ozod. *Senga bir umr kuyishning o'zi yetmaganday, tashvishimdan kuya-kuya xasga aylanding, kul bo'lding.* I.Sulton, Ozod. *Ming yillar qa'ridan keladi, kulfatga yo'liqib ming*

bora. *Tinimsiz toshbo‘ron, qirg‘inga, xo‘rlikka duch kelgan minora!* Sh.Rahmon, Minorai kalon. *Eng yaxshi farzanding etilmishdir oq, Ey balo tutquni, kulfatda ado!* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Baxt jaranglar quvnoq sasida, Na kulfati, nada zori bor.* H.Olimjon, Tanlangan asarlar. *Urush davrida chechenlar boshiga tushgan kulfatni eshitmaganmisan?* T.Malik, Shaytanat. *Qorong‘i qish kunlaridan qolgan dog‘lar, to‘rt devor orasida yashashdan kelgan chiqindilar, otalardan o‘tgan zulmlar, sovchilardan yetgan tashvishlar barham yemaganmidi?* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. *Vatan desa, muhojir desa, moli tugul jonini berib yuboradiganlar bor. Vatan dog‘ida kuyganlar ayniqsa tez topishar, tez birlashar ekanlar. Ularning muhabbatlari tunganmas bo‘ladi ekan.* M.Mansur, Judolik diyori. *Yolg‘iz qo‘llik qursin... Uzoqning ishi qiyin ekan. Qolaversa, chumchuqning ham ini buzilmasin, hech kimning boshiga vatan qayg‘usi tushmasin ekan.* M.Mansur, Judolik diyori. *Yana chin gaplardan kelar bo‘lsam, bu kuygan o‘tlug‘ ko‘ksumdagi armonlarimni to‘kar bo‘lsam, bu munglug‘ ko‘nglumdan qo‘zg‘olgan qayg‘ularim qaynar suvdek bo‘lib ikki ko‘zimdan oqqani turgan esalar-da, endi haq so‘zni aytar paytim keldi.* M.Mansur, Judolik diyori. *Bitta sham o‘chgaydir shabboda yelsa, Kulga libos balki, asli u qayg‘u. Bir kun quvilishga hozirligi shu.* A.O‘ktam, Taraddud. *Moriko mening xonamda, koravotimda o‘tirardi. Bir zumda uning boyagi o‘yinqaroqligidan asar ham qolmagan. Timqora qiyg‘och ko‘zlariga allaqanday chuqur mung cho‘kkandi!* O.Yoqubov “Qaydasan, Moriko?” *Vujudi og‘riqda, joni qiyinalib, Junjikib qo‘llarin sunar qo‘ltiqqa. Yirik, dono ko‘zlar mungga aylanib To‘kilmagan yoshga to‘ladi liqqa.* Zulfiya, Quyoshli qalam. *Nusratjon qo‘zg‘almadi. U osmondagi siyrak pushtirang bulutlarga tikilib o‘tirar, oqarib ketgan yuzida, sal qisilgan qo‘y ko‘zlarida allaqanday sokin bir mung jilva qilardi.* O.Yoqubov, Qaydasan, Moriko? *-Bu odamning ichi to‘la dard. Siz bilan bizdan ko‘ra alamli kunlarni ko‘rganga o‘xshaydi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Ne-ne orzu-umidlar bilan o‘stirgan farzandining balog‘at yoshini ko‘rolmagan onalar, farzandlik qarzini o‘tolmay armonda qolganlar qalbini tirnab kelgan dard-u alamini ifoda qilib bo‘larmidi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Qunduzxon kechki ovqat vaqtida ham xomush o‘tirdi. Yechinib o‘rniga yotarkan, tomog‘ini bo‘g‘ib kelayotgan alam va iztirobni qaytarmoqchi bo‘lib harchand urinsa ham bo‘lmadi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *U ham alam, ham iztirob bilan menga ikki yildan beri jumboq bo‘lib, xayolimni band qilib yurgan sirni ocha boshladi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Hasanbekning ko‘zi qorong‘ilashib, og‘ir musibatga qoldi. Hiloloyning ta‘ziyasiga qo‘riqdagi barcha turkmanlar yig‘ilib keldi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” Faqat u yulduzning bilsang borligin, Yulduzim deb bilsa kimdir seni ham, Dard, anduh, masofa yo‘qolib sekin, Yulduzlar allasin bilasan malham... Zulfiya, Saylanma. Menmi? Men shu qadar yosh edim hali. Yoshlik — g‘am — begona biri-biriga. Qutulmoqqa anduh botqoqlaridan Osildim muhabbat shodliklariga.* Zulfiya, Saylanma. *Suv o‘rniga qon shimayotgan halovatsiz, bechora zamin. Hasrat bilan yerga qaraydi chiqarmasdan xudolar damin.* Sh.Rahmon, Saylanma. *Achchiq o‘ylar to‘zonidan o‘zni olib chiqib ketib, Bir gul yanglig‘ ochilarman nur qo‘ynida javlon etib. Kim ham bilsin, so‘kilgan dil choklarining bitmog‘ini, Ba‘zida gul hasratlardan ortiq yashnab ketmog‘ini. Men sen bilan xayrlashgan tun qaro edi, qaro edi.* H.Xudoyberdiyeva, Men sen bilan xayrlashgan tun. *Ko‘ringan odamga hasratingni aytib, dunyodan yig‘lab o‘tmoqchimisan?* S. Siyoyev, Yorug‘lik.

G‘AMGIN, G‘AMLI, QAYG‘ULI; XAFA, MA‘YUS, HAZIN, HASRATLI, MUNGLI, MAHZUN, HUZUNLI, G‘AMNOK. Ruhini g‘am egallagan holatli; qayg‘uli. **Hazin, mungli, mahzun** so‘zlari badiiy uslubga xos. **Huzunli, g‘amnok** so‘zlarida eskilik bo‘yog‘i mavjud, ayni paytda u kitobiy nutqqa xosdir. *Jo‘rabek bir yutinib oldi-da, boshini ko‘tarib g‘am g‘in yuz bilan gap boshladi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Bu q a y g‘ u l i xabarni qiziga qanday qilib bildirishni bilmagan ota uzoq vaqt sukut saqladi. Oxiri yozishga majbur bo‘ldi.* S.Ahmad, Tanlangan asarlar. *Hasadmi? Ichi qoralikmi? Xonim go‘yo mening o‘ylarimni payqaganday chuqur tin oldi-da, h a z i n jilmaydi.* O.Yoqubov, Billur qandillar. *Ziyraklik bilan sulton kayfiyatidagi sezilar-sezilmas o‘zgarishni ilg‘ab olar, kuy yoki qo‘shiqni shunga qarab, sho‘xchan-u shodonini yoki dard-u h a s r a t l i sini tanlardi.* Isajon Sulton, Alisher Navoiy. *M u n g l i qo‘shiq nechun “baxtiyoriy” deb nomlansin? Xalq orasida shodon qo‘shiqlar oz, savtlar nima uchundir qayg‘u-alamlarni ifodalar, kuy zarbi-yu naqshlari Hiriy zarbiga yaqin, biroq havolanishida farq bor.* Isajon Sulton, Alisher Navoiy. *Ammo bu gap kennoyimga yoqqan, m a h z u n jilmaygancho qo‘lini duoga ochgan edi.*

M.Mansur, Judolik diyori. *O'zbek qizlarining yurak dardlari Naqadar huznli bu olti harfda!* X.Rasul. *Mirkarimovning uyida motamsarolik soyasi yo'q edi. Ko'k kiygan ayolni, g' a m n o k bolalarni uchratarman, deb o'ylagan Zohid yanglishdi.* T.Malik, Shaytanat.

G'ARAZ, ADOVAT, GINA, KEK, KIN, GIDIR. O'ch olish, yomonlik ko'zda tutilgan maqsad, ko'rolmaslik munosabati. **G'araz** so'zida mazkur his-tuyg'u, xatti-harakat ifodasida umumiylik mavjud. **Kin, gidir** kitobiy bo'yoqqa ega.

Bu xotinning bir g'arazi borligiga borgan sari ishonchim ortdi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. ... O'zing shohid, ko'nglimda na g'araz, na bir yomonlik bor edi. Bor aybim – ko'ngil maylidan bosh burolmaganim. E.A'zam, Shovqin. *To'g'ri, Zaynab qalbi to'ridagi umid chinnisini sindirgan, tuproqqa qorgan odamni kechirmas edi. "Muslima kechirimli bo'lmog'i kerak, Ollohning roziligi uchun gunohidan o't, kek saqlash durust amallardan emas"ligini bilganida ham, taqdiridagi mash'um kunlarni unuta olmasdi.* T.Malik, Shaytanat. **Kekdan** hech kim ko'karmagan. O'ch - intiqom deb yurib, ko'zingga qon to'lib yo yog' bosib qolmasin. M.Mansur, Judolik diyori. *Abdullatif Mirzo Hirotda kelib o'tirdi. Biroq, yuragi kibr-u g'ururga to'lgan bu shahzodaning ichini alam va kin kemirardi.* Isajon Sulton, Alisher Navoiy. *Bundan Abdullatif Mirzo qattiq ranjidi, kin va alam tirnog'ini tishlab gir-gir aylandi va otasiga qarshi qo'shin tortishni o'ylay boshladi.* Isajon Sulton, Alisher Navoiy. *Safar bo'zchi kinani tamoman ko'nglidan yuvib tashlagan edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Karim aka qarilik qursin, odamning esi kirdi-chiqdi bo'lib qolar ekan, deb Yulduzxondan kechirim so'radi, sal-pal yengil tortdig-u ko'nglimizdan gidir ketmadi...* A.A'zam, Asqartog' tomonlarda.

G'IRROM, TIRRIQ, FIRIBGAR. O'yin, musobaqa, bellashuv yoki boshqa munosabatda tartib-qoidaga zid yo'l tutuvchi; halollikka rioya qilmaydigan. **Tirriq** so'zida belgi darajasi kuchli.

Aynan sport trenerlarida tarbiyachiga zarur bo'lmish bilim yetarli emas. Aynan shu sportda bola g'irromga duch keladi. T.Malik, So'nggi o'q. *Pochchaginamga o'xshagan g'irromlarni o'marishadi. O'zing o'ylab ko'r, ishchidan yo dehqondan nimani o'marishadi?* T.Malik, So'nggi o'q. *O'zbekning nonini tuya qilmasin, deb izlab keldim. Bu pulni o'sha yoqda topsam ham bo'lardi, lekin g'irromga toqat qilolmadim.* T.Malik, So'nggi o'q. *Anavi t i r r i q l a r ko'p ishlarni bo'yniga olmasligi mumkin.* T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

G'IYBAT, FISQ-FASOD, FISQ-FUJUR Bo'lar-bo'lmas, yolg'on ayblash – kamsitishlar; yomonlash, qoralash maqsadidagi bo'lar-bo'lmas gap-so'z.

[Suluvko'z] *Ha, yaratgan egam shohid! O'zi qo'shg'on xo'jam oldida tariqday gunohim yo'q. Biroq bul ichi qora shumniyatlar tarqatgan g'iybatlar, tuhmatlar, bular qo'ygan tuzoqlar!..* O. Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. – **G'iybat** bilan tuhmat – o'lgan odam go'shtini yeyish bilan barobar ekan. T.Malik, Savohil. *Men boshqa narsadan ranjdim. Nahot mening tanqidiy gaplarimni ko'ngilda saqlab yurgan bo'lsangiz, axir haqiqat bahslarda yuzaga chiqadi. Men orqangizdan g'iybat qilmay, fikrimni ko'pchilik orasida aytganimdan beg'araz ekanimni bilishingiz kerak edi.* T.Malik, Savohil. *Biroq G'afurjon aka haqida yomon o'ylaydigan odamlar ham yo'q emasdi. Ular, bunday saxiylikni oshib-toshib ketgan odam qiladi, sandig'i to'laki, shunday qilyapti, deb o'ylashardi. G'afurjon aka fisqi-fasod gaplar qulog'iga yetsa ham, parvo qilmasdi.* O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin. [Saragul.] *Nechun qon yig'lamaylik? Saroyda ig'vo, haramda fisq-ufujur! G'iybat! Sizlar inongan mulozimlar – bari ilonning yog'ini yalagan tulkilar. Bari Sardorning ayg'oqchilari!* O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat.

G'OLIB, MUZAFFAR G'alaba qilgan yengib chiqqan. Muzaffar kitobiy, kam qo'llanadi. – *Endi polvonlar jangini tomosha qiling. Ammo bilingki, bu sirayam tomosha emas, jang-u jadaldir. Yenggan g'olib, yengilgan mag'lub, – dedi Muhammad Ali tag'oyi, jiyaning qulog'iga egilib.* I.Sulton, Alisher Navoiy. **G'olib** hukmdor urush talafotlari o'rnini to'ldirish va yangi urushlarga tayyorgarlik ko'rish uchun, mag'lub esa g'olib talab qilgan o'lponni to'lash uchun el boshiga yangi-yangi xiroj-u yag'mo yomg'irini yog'dirardi. I.Sulton, Alisher Navoiy. *Tongda uyg'onaman, butun borlikni mahv etib, lak-lak, ming-ming tuman qo'shunday bostirib kelayotgan muzaffar, ustivor nurlar derazadan yopirilib kiradi, ko'nglimga bir yaxshi, qudratli rejalar qo'yiladi, sakrab turib shu ishlarni boshlab yuboray deyman, hozir, mana, hozir turyapman, turdim, deb shaylanib yotaveraman, tong tamom.* Ahmad A'zam. Asqartog' tomonlarda. [Saragul.]

Shoʻrlik boʻlmay qora yerga kirgay ul betovfiq! *Betovfiq boʻlmasa, kimsan fotihi muzaffarning mankuhasiga ishq tusharmu?! O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. [Sohibqiron.] Koʻzing koʻrmi anovilarni koʻrmaysen?.. Yovuz Chingizxon, xoin Toʻxtamish! Muzaffar lashkarlarim yakson qilgʻon magʻlub Yildirim! Ayt ulargʻa: men Toʻxtamishday tuzimni yeb, tuzlugʻimga tupurgan ila soʻzlashmaymen. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat.*

GʻULGʻULA, GʻULUV, QUTQI, GʻASHLIK Koʻngilni gʻash qiluvchi gap-soʻz va shular tufayli paydo boʻluvchi holat. *Murodning gapidan ham taʻsirlandim, ham koʻnglimdagi gʻulgʻula kuchaydi: nima, biron kulfatga uchradi, nega xuddi men chorasiz qolgandek, yordam qoʻlini choʻzyapti, nima qilib qoʻyganman oʻzi, a? A.Aʻzam, Soyasini yoʻqotgan odam.-Qanday kunlarni boshimizdan kechirmadik. Lekin koʻp qaygʻurmang, davr oʻzi shunaqa edi. U baʻzi odamlarni esankiratib qoʻydi, yuragiga gʻulgʻula soldi, yoʻldan ozdirdi, hatto oʻzidan choʻchiydigan ham qilib qoʻydi. Baxtimizga u kunlar oʻtib ketdi. Oʻ.Umarbekov, Sevgim-sevgilim... [Saragul.] Amirim! Ollo qovushtirgan juft-u halolim, yaratgan egam bu koʻnglingizga bul gʻuluv, dilingizga bul shubhani solibdur, qoʻying bul xatarli yurishni! Sohobqiron shitob bilan oʻgiriladi. O.Yoqubov, Avlodlarga vasiyat. – Bogʻlang! – dedi Qamariddin bu gaplarga eʻtibor qilmay. Yigitlar darhol buyruqni bajo keltirishdi. Qozi jazavani ancha ilgari boshlagan edi. Uning qutqusiga uchuvchilar hali uygʻonishmagandi. Dam oʻtmay nogʻora ovozi yangrab, qishloq uygʻondi. T.Malik, Falak. Rahim Saidov oʻzini bosib oldi, lekin baribir dilidagi gʻashlik uyga qaytganida ham tarqamadi. Oʻ.Umarbekov, Odam boʻlish qiyin. Bu gʻashlik oldingi kunlari uncha sezilmasa ham, Abdullaning joʻnashi yaqinlashganidan keyin ochiq namoyon boʻla boshladi. Oʻ.Umarbekov, Odam boʻlish qiyin.*

GʻURUR, KIBR, KIBR-HAVO, DIMOGʻ Oʻzini yuqori tutish hissi.

Kelolmagan qariyalarning omonat salomlari, duo-yu tilaklarini yetkazadilar. Chindan shu xalqqa mansubligingdan, oqibatni, qarindosh-urugʻdan xabar olishni unutilib qoʻymaganingdan ... ichingda bir gʻurur tuyib ketasan. M.Mansur, Judolik diyori. Gʻururdan dengizday toʻlib kuyladim, Toledar tiladim bundan yorqinroq. Zulfiya, Saylanma. Bolaga haddan tashqari oro bermoqlik uni xudbinlik, kibr toʻrlariga oʻrabgina qolmay, doʻst tanlashda ham adashtiradi. T.Malik, Shaytanat. Gʻazzoliy hazratlari taʻkid etmishlarkim: “Odam qanchalik aqlli va daraja jihatidan qancha yuksak boʻlsa, kibr va havo jihatidan shu daraja kichik boʻladi. Nafsini eng katta shubha ostida tutadigan inson ham shudir”. T.Malik. Shaytanat. Nahotki inson shunchalar takabbur? Atrofdagi minglab kishilar singari odmigina kiyinib, kamtargina yuradigan bu oʻzbek yigitining bagʻrida shunchalar kibr yashirinib yotgan boʻlsa?.. U.Hamdani, Muvozanat Garchi shuncha magʻrur tursa ham, Piyolaga egilar choynak. Shunday ekan, manmanlik nechun, Kibr-u havo nimaga kerak? E.Vohidov, Saylanma. Bular esa kibr-u havo ichida oʻzlarini olam gultoji deb oʻylaydilar. Bular ham sening elingdandir. Bilib qoʻy, Tangrim yaratgan barcha maxluqlarning orasida eng dahshatlisi mana shulardir! I.Sulton, Ozod. -Nodir mirshabning basharasi odam siyoqidan chiqib, muomalasi yana sovuqlashdi, dimogʻidan eshakqurt yoqqancha yana mirshablik siyoqiga oʻtdi. Z.Aʻlam, Afandining qirq bir pashshasi.